culture. In light of this, a number of pressing problems require solutions. Firstly, this is the need for adequate awareness and preservation in modern spiritual culture and in everyday practice of the special, irreplaceable value of the classical philosophical heritage, especially the Eastern one, capable, as in previous eras, of fundamentally influencing the formation of high spirituality at the level of an individual, social group, nation, society as a whole. This formulation of the question, in our opinion, is very relevant. Secondly, this is the problem of the level of development, the degree of maturity of a young man's thinking, the problem of his general worldview, philosophical culture. At the same time, it is obvious that traditionally this problem is rarely discussed publicly; in most cases it is hushed up. And the cost of such silence for society is too high, since it is clear that the level of thinking of young people directly affects their practical actions, and if this level is very high, then the results turn out to be appropriate. Thirdly, the systemic historical crisis that characterizes the current state of society has many facets and manifestations. There are also many special pain points in it, one of which is the crisis of the modern education system (Habermas, 2003), which from generation-to-generation forms and reproduces people with uncritical, "one-dimensional", "calculating" thinking. Of particular concern is the fact that such thinking is often characteristic of young university graduates, on whose activities the fate of many people and, ultimately, the fate of the country greatly depend).

Understanding the serious threats that such a situation poses leads to the idea of the need for decisive and profound changes in the entire field of education, at all its levels. A very important point in this regard is the rethinking of the place and role of philosophy, philosophical knowledge, which is precisely capable of resolving many of the pressing complex problems. It should be noted that the existing international experience of the entry of philosophical knowledge into the most original forms of social upbringing and education of a person, the experience of its active presence throughout the entire process of personality formation, is currently gaining increasing recognition and dissemination. It is here, in our deep conviction, that efforts should be concentrated in an intense and persistent search for a strategy for the education and upbringing of the future generation. What exactly do you mean?

First of all, we are talking about a qualitatively new historical situation, namely: Uzbek youth today are presented with an acceptably tough bill for genuine intelligence and erudition, which includes such parameters as a style of thinking adequate to historical times, flexibility and efficiency of intellectual search, breadth of worldview, a mood for maximum permanent information content, an understanding of the main trends in the development of society, nation and culture, high morality and developed ethical and aesthetic taste, a highly developed sense of mentality and tolerance.

It seems to us that today philosophical knowledge helps to capture the most stable in the eternal flow of changes, allows us to notice the key moments of the transitions of the general into the separate, the whole into the part, the content into the simplest and many-sided forms, and it gradually, difficultly, but still inevitably fails the young the individual to realize the need to think based on such criteria as objectivity, criticality, volume, purposefulness and dialecticism. A systematically thinking person acquires colossal power and sophistication of thinking, which make him intellectually stronger than others, since his thinking to the greatest extent becomes capable of grasping all the complexity, ambiguity, inconsistency and, at the same time, the diversely manifested unity of the real worlds (material and spiritual) within which it operates.

New trends in the issue of philosophical culture and worldview of the youth of sovereign Uzbekistan to the greatest extent become capable of grasping all the complexity, ambiguity, inconsistency and, at the same time, the diversely manifested unity of the real worlds (material and spiritual) within which it operates. The ability of a systemic and dialectical vision of the world opens up before such a person the possibility of an optimal solution to any issue, any pressing problem. Life constantly confirms the truth of the above and has long ago fully understood the problem of the quality of thinking of young people and their responsibility for the

decisions they make. In our deep conviction, responsible and ahead of reality thinking can only be such when young people master modern humanistic and humanitarian philosophical knowledge, verified by practice and accumulated over thousands of years of history.

So, how do we imagine the consciousness of modern youth of the third millennium, especially young people studying? Time requires that it be determined by objective reality where market relations dominate: the consciousness of youth must comply to the maximum extent with the requirements of market relations. This, first of all, requires knowledge of modern technology (Nano technologies), know-how of science and the merits of the market. And, without a doubt, this knowledge should be based on a general philosophical basis.

Conclusion.

The study of all the above problem points must be carried out within the framework of the emerging new cultural tradition which means the next “bifurcation point” - the transition of humanity to a new state. Sovereign Uzbekistan has a long way to go, associated with the need to transform some stereotypes of the national cultural tradition, since there is no one path in culture, and it is necessary to create cultural, moral, political and social conditions for the development of all directions. Their synthesis is still far away. But it is already clearly visible in the foreseeable future. Without analyzing the history of culture and spirituality, it is difficult to know the direction of its future development.

So, a philosophical understanding of the history of our statehood, society and culture in retrospect indicates that we are on the way to the formation of a new national identity, and here we can no longer do without cultural determination, which, however, acts as a political factor in the consolidation of the nation.

References.

1. Al-Farabi. (1970). Philosophical treatises. - Alma-Ata.
2. Vildanova G.B. (2008). Ontological and epistemological foundations of wisdom and truth. - Ufa.
I. Karimov. (1998). Uzbekistan - towards a great future. - Tashkent.
3. Matsyna A. (2019). The Metaphysics of overcoming – propaedeutics: monograph. – Chelyabinsk, Russia.
4. Sh. Mirziyoev (2021). New Uzbekistan strategy. - Tashkent.
5. Habermas J. (2003). Dispute on the past and future of international law. Transition from national to a post-national constellation // XXI World Philosophy Congress. Resume. – Istanbul.
6. Khudoydodov F. (2017). Comparative analysis of syllogistics of Aristotle and Ibn Sina. – Dushanbe.
7. Samadov A.R., 2020. Problems of the formation and development of the aesthetic ideal of a person: abstract of thesis. ...Dr. Phil. Sci. - Samarkand.
8. Saidkoshimov A.I. (2019). Patterns of innovative development of the social sphere in the construction of civil society: abstract of thesis.... Doctor of Philosophy. - Samarkand.
9. Toshboev B.E. (2018). Social and philosophical issues of formation and improvement of national character: Dis. ... Doctor of Philosophy (PhD).
10. Shadmanov K., etc. (2018). Succession and correlation of ancient Greek, IX-XIII centuries. Central Asian and XIY-XYI centuries European philosophical thought – In: Revista Internacional de filosofia y teoria social cesa-fces-universidad del Zulia. Maracaibo-Venezuela.ISSN 1315-5216 / ISSN-E: 2477-9555; Utopia Y Praxis Latinoamericana. Ano: 23, n° 82 (Julio-Septiembre). pp. 441-445.

Baxtiyorova Umida Ulug'bek qizi
Buxoro davlat univesiteti tadqiqotchisi

TALABALARNI BOZOR MUNOSABATLARIGA MOSLASHUVINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarni bozor munosabatlariga moslashuvining psixologik xususiyatlari hamda talabalar orasida ikkilamchi kasbiy faoliyatni tanlash motivlari va bozor munosabatlariga ijtimoiy-psixologik moslashuviga ta'sir etuvchi omillar ochib berilgan. Bundan tashqari talabalarning bozor munosabatlariga moshlashuvi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit sozlar: *moslashuvchanlik, individuallik, bozor munosabatlari, kasbiy faoliyat, motiv, bilish jarayonlari, gender sotsializatsiya, moslashuv mexanizmlari, kasbiy moslashuv, ehtiyojlar, ratsionalizatsiya, tashabbuskorlik, kommunikativ moslashuv.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АДАПТАЦИИ УЧАЩИХСЯ К РЫНОЧНЫМ ОТНОШЕНИЯМ

Аннотация. *В данной статье раскрыты психологические особенности адаптации студентов к рыночным отношениям, а также мотивы выбора вторичной профессиональной деятельности среди студентов и факторы, влияющие на их социально-психологическую адаптацию к рыночным отношениям. Кроме того, научно обоснована адаптация студентов к рыночным отношениям.*

Ключевые слова: *гибкость, индивидуальность, рыночные отношения, профессиональная деятельность, мотив, познавательные процессы, гендерная социализация, механизмы адаптации, профессиональная адаптация, потребности, рационализация, инициатива, коммуникативная адаптация.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE ADAPTATION OF STUDENTS TO MARKET RELATIONS

Annotation. *This article reveals the psychological characteristics of the adaptation of students to market relations, as well as the motives for choosing secondary professional activities among students and factors affecting the socio-psychological adaptation to market relations. In addition, the moshization of students in market relations has been scientifically substantiated.*

Key words: *flexibility, individuality, market relations, professional activity, motive, cognitive processes, gender socialization, adaptation mechanisms, professional adaptation, needs, rationalization, initiative, communicative adaptation.*

Kirish. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini qurishda iqtisodiy taraqqiyot muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy rivojlanish esa raqobat muhitini talab etadi. Raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlar haqida ma'lumot berish, iste'molchilarni tanishtirish, ular e'tiborini aynan u yoki bu tovar mahsulotlari, xizmat turlariga jalb qilish maqsadida reklamaga murojaat etiladi. Bugungi kunda reklama jamiyatning turli sohalarida, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarda tobora o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lib bormoqda. Mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanish va savdo-sotiqning muvaffaqiyatli yechimida reklama industriyasining mavqei alohida ahamiyatga ega. Zero, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri unda raqobat muhitining mavjudligidir. Raqobat muhiti esa reklamaga bo'lgan talab va ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. O'zbekistonda ham yildan-yilga sanoat rivojlanayotganligi hamda ijtimoiy infratizimni jadal rivojlantirish, turli xizmat va servis turlarini takomillashtirishga ehtiyoj ortib borgani sayin reklama xizmatlariga bo'lgan talab ham ortib bormoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda mamlakatimizda 200 dan ortiq reklama agentliklari faoliyat yuritib, ular turli ko‘rinishdagi va turli mazmundagi mahsulotlar va xizmatlar bozori bilan aholini tanishtirib kelmoqda. Chunki reklama mazmun-mohiyatiga ko‘ra, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasidagi aloqachi vazifasini bajaradi. Bu esa yangi mahsulotlar va xizmatlar haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘lish imkonini yanada oshiradi. Reklama jamiyatda faqatgina iqtisodiy sohagagina samarali ta’sir etmay, balki ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Xususan, har tomonlama yuksalish sari intilib borayotgan jamiyatimiz fuqarolarining ongi, fikrlashi, xulq-atvori va ma’lum baholashlar tizimining, iste’molchilik didining shakllanishida reklamaning o‘rni beqiyos. 1998-yil 28-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Reklama to‘g‘risida»gi Qonunida ham iste’molchilarda tadbirkorlik va iste’mol madaniyatini takomillashtirish asosiy maqsad va vazifalardan biri ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Adabiyotlar tahlili. Respublikamizda dolzarb va yangi sohalar sifatida reklama faoliyati va unga aloqador masalalar bevosita iqtisodiyot tarmoqlaridan tashqari ijtimoiy psixologiya, iqtisodiy psixologiya, marketing psixologiyasida o‘rganib kelinmoqda. O‘zbekistonda reklamaning ijtimoiy, madaniy, etnopsixologik jihatlari mamlakatimiz olimlari G.Isanova, M.A.Ikramov, V.M.Karimova, L.I.Karimova, A.N.Samadov, N.N.Shomurotova, I.B.Sharipov kabi iqtisodchi, pedagog, psixolog olimlar tomonidan ilmiy tahlillar doirasida tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari G.M.Andereyeva, I.V.Alyoshina, D.S.Badalov, B.L.Borisov, V.Borodina, T.A.Boronoyeva, I.L.Vikentyev, I.V.Groshev, S.M.Isayev, I.V.Krilov, A.N.Lebedev, Ye.V.Markova, F.G.Pankratov, Ye.Ye.Pronina B.D.Semenov, O.A.Feofanov, L.N.Xromov va boshqalar tomonidan bozor munosabatlari va uning shaxs va guruhlarga ta’sirining o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan.

Jamiyatimizdagi iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi va o‘zgarib borishi psixologiya va iqtisodiyot fanlari o‘rtasidagi bog‘lanishning tobora uyg‘unlashib borishiga xizmat qilmoqda. Bunday bog‘liqlikni ularning o‘zaro ilmiy tadqiqotlari ko‘lamining kengayib borayotganligida ham ko‘rish mumkin.

Global o‘zgarishlar jarayonida iqtisodiyot va psixologiya fanlarining nafaqat yaqinlashuvi, balki qo‘shilishi, bir-birining mohiyatiga kirib borishi jadallashmoqda. Shuningdek, psixologiya sohalarining iqtisodiy jarayonlar va amaliyotga moslashishi hamda sohadagi boshqaruv qarorlarining qabul qilinishiga ta’siri keskin ravishda kuchayishi kuzatilmoqda. Bugungi kunda psixologiyaning borgan sari ko‘proq iqtisodiyotga kirib borayotganligi, uni to‘ldirayotganligi hamda katta-kichik ko‘lamdagi voqeliklarining tub negiziga aylanib borayotganligi sezilmoqda. Lekin bu muammo bo’yicha mahalliy sharoitda psixologlarning ham, iqtisodchilarning ham ilmiy tadqiqotlari yetarli darajada emas. Psixologiya fani o‘zining psixika va ong xususidagi ilmiy asoslangan qarashlarini saqlagan holda talabalarning tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish, iste`mol qilishda jamiyatdagi o‘zgarishlarga ijtimoiy-psixologik moslashuvini o‘rganishga hamda ilmiy jihatdan tadqiq qilishga endigina kirishdi.

Moslashuv muammosining turli jihatlari tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarida ochib berilgan. Jumladan, B.C.Oleynikov psixologik moslashuv tushunchasini tadqiq etgan bo‘lsa, N.A.Sviridov, L.L.Shpak boshqaruv mohiyati va mexanizmlarini tahlil qilishgan, N.L.Ermolenko, I.K.Kryajeva moslashuv va ijtimoiylashuv jarayonlari o‘rtasidagi munosabatlarni ochib berishgan.

Moslashuvning alohida jihatlarini bixeviorizm namoyandalari A.Bandura, L.Shaffer, E.Shoben, neobixeviorizm vakillari N.Miller, J.Uotson, R.Xenki, interaksionizm asoschilari L.Filips, T.Shibutani, psixoanaliz nazariyasi vakillari A.Adler, G.Gartman, Z.Freyd, shuningdek gumanistik psixologiyada A.Maslou, G.Ollport, K.Rodjers, kognitiv psixologiyada E.Aronson, J.Miller, L.Festingerlar ilmiy asoslab berganlar.

Neofreydizmda E.Fromm moslashish muammosini chuqurroq ko‘rib chiqadi. U «ildiz otish» va «individualizatsiya» kabi tushunchalarni kiritadi. E.Frommning so‘zlariga ko‘ra,

«ildiz otish» - bu «boshqalar kabi bo‘lish» usuli va «individualizatsiya» - bu shaxsning «o‘zligi bo‘lish» istagidir. Shaxsiyatdagi bu ikki tamoyil doimiy ravishda kurashib keladi. Agar biz E.Frommning fikriga qo‘shilgan holda «individualizatsiya»ni «boshqalardan ozodlik» deb hisoblasak, unda psixologik moslashuv davrida ma’lum bir moslasha olmaslik yuzaga keladi. Agar «ildiz otish»ni «o‘zidan erkinlik» deb qarasak, unda bu jarayon insonning atrof-muhitga moslashib, ichki moslasholmaganligidan dalolat beradi. Bu qarama-qarshilik, E.Frommning so‘zlariga ko‘ra, psixologik himoyaning to‘rtta mexanizmini - sadizm, mazoxizm, konformizm, destruktivizmni keltirib chiqaradi. Har bir insonda qandaydir mexanizm ustunlik qiladi, shuning uchun har bir shaxs bilan muloqotga kirishganda bu e’tiborga olinishi kerak. E.Fromm sevgini shaxsni uyg‘unlashtirishga yordam beradigan moslashish vositasi deb hisoblaydi.

Psixoanaliz doirasida maxsus moslashuv nazariyasi G.Gartman tomonidan ishlab chiqilgan. Uning so‘zlariga ko‘ra, moslashish ziddiyatli vaziyatlar bilan bog‘liq jarayonlarni ham, Egoning mojarosiz sohasiga kiradigan jarayonlarni ham o‘z ichiga oladi. G.Gartmanning fikricha, insonning moslashish jarayoni ko‘p qatlamli bo‘lib, moslashish darajasi inson ruhiy salomatligining asosidir. Jarayonning ko‘p qatlamli tabiati hayotning turli sohalarida namoyon bo‘ladi.

N.V.Drujinin mehnatga moslashuv va kasbiy tayyorgarlik jarayonlarini o‘zaro bog‘lab o‘rganadi hamda tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, kasbiy moslashuv jarayonini quyidagi ikkita strategiyaga bo‘ladi:

1) konformlik, kasbiy muhit me`yorlariga javob berishga intilish, rahbar va jamoadoshlarining maslahatlaridan foydalanish, shaxslararo munosabatlarda rozilikka erishish va hokazo;

2) ijodiylik, o‘z mustaqilligiga erishish uchun harakat qilish, ish usulining yanada ma’qulroq yo‘llarini topish, mehnatni tashkil etish va mehnat qurollarini takomillashtirish va hokazo.

A.A.Nalchadjyan shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvi muammolarini o‘rganar ekan, kasbiy moslashuv ishlab chiqaruvchanlik, fiziologik, psixologik va sotsiologik formalarining ko‘nikish jarayoni va moslashuvchanlik belgilari omillarini nazorat qilinishida namoyon bo‘ladi, degan to‘xtamga keladi.

A.I.Kitov (1987) iqtisodiy psixologiyaga doir tadqiqotlar o‘tkazib, kasbiy moslashuv samaradorlikning oshishi, mehnat sifati va bezararligi, ishdagi ijodiylikning yuzaga chiqishi va o‘ziga bo‘lgan ishonchning oshishi bilan xarakterlanadi, degan xulosani bildiradi.

A.L.Juravlev tashkiliy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida hamkorlik faoliyatini tadqiq etar ekan, psixologik moslashuv o‘ziga bo‘lgan ishonch funksiyasining oshishida, faoliyatdagi yoqimsiz bo‘lgan hatti-harakatlarga nisbatan emotsional qat’iylik omillarida, o‘ziga xos tarzda kasbiy muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarni yengib o‘tishida namoyon bo‘lishini alohida e’tirof etadi.

Tahlil va natijalar. *Kasbiy faoliyatni tanlash motivlari va bozor munosabatlariga moslashuviga ta’sir etuvchi omillar*

Inson har qanday yangi sharoitga duch kelar ekan, yangi vaziyatga moslashishi va o‘z faoliyatini unumli ta’minlashida psixologiyaning o‘rni kattadir. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, zamonaviy psixologiyada bu jarayon moslashish, deb ataladi. Moslashish deganda yangi sharoitga tushib qolgan shaxsning ushbu vaziyatga xos bo‘lgan shartlarini o‘zlashtirishi nazarda tutiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi mehnat turi ya’ni ikkilamchi kasbiy faoliyatga moslashuvning asosiy jihatlarini obyektiv va subyektiv jihatdan o‘rganadigan fan - bu “Mehnat sotsiologiyasi va psixologiyasi” fanidir. Mazkur fanda faoliyatga moslashuvning quyidagi ikkita o‘zaro bog‘liq asosiy jihatlari farqlanadi.

- kasbga moslashuv;
- ijtimoiy moslashuv.


1) Kasbga moslashuv. Moslashuvning bunday jihati tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kishilardan o‘z kasblariga bog‘liq bo‘lgan bajariladigan ishga qo‘yiladigan

talablarni o‘zlashtirishni taqozo qiladi. Bunday moslashuvda obyektiv va subyektiv jihatlar mavjuddir. Kasbga moslashuvning obyektiv jihatlari deb tadbirkorlarning ma’lumoti, malakasi va tajribasini sanab o‘tish mumkin. Subyektiv jihatlariga esa ularning o‘z kasblariga bo‘lgan munosabatlari, o‘zlari shug‘ullanayotgan mehnat turidan kutayotgan daromadi va foydasini kiritish mumkin.

Ushbu tadqiqotimizning ko‘rsatishicha, o‘zgarishlar jarayonida tadbirkorlik faoliyatini tanlagan talabalarning faoliyatga moslashuvining psixofiziologik jihatiga tadbirkorlik subyektidagi mehnat sharoitining psixofiziologik va tibbiy-gigienik tomonlari kiradi. Moslashuvning ushbu turini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich sifatida tadbirkorning toliqish darajasini olish mumkin. Tadbirkor o‘z holatini, ish sharoiti va bajarayotgan mehnati og‘irligini baholashi ushbu moslashuv turining subyektiv tomonlaridir.

1-rasm.

Talabalarni bozor munosabatlariga moslashuvning asosiy jihatlari



2) Ijtimoiy moslashuv. N.Korneliusning mulohaza etishicha, ijtimoiy-psixologik moslashuv deganda, tadbirkorning mehnat jamoasidagi mavjud munosabat tizimiga moslashishi, jamoaga xos bo‘lgan norma va qoidalar hamda unga guruh tomonidan belgilangan rolni va mavqeni qabul qilish jarayoniga aytiladi. Bunday moslashuvning muvaffaqiyatli o‘tishi mehnat egasining xarakter xislatlariga, uning muloqotga moyilligiga, hayotiy tajribasi va dunyoqarashining yangi sharoit talablariga mos kelishiga bog‘liq. Guruhning ahilligi, uning madaniyat darajasi va asosiysi uning egiluvchanligi bu xildagi moslashuv jarayonining muvaffaqiyatli o‘tishi garovidir.

Xulosa. Hozirgi kunda talabalar mehnat faoliyatining ijtimoiy mohiyatini tushunish, bozor munosabatlari ta’sirida ulardagi ijtimoiy xususiyatlarning shakllanishi va o‘zgarishi mexanizmlarini bilish hamda ularni zamonaviy usullarda tadqiq etish ijtimoiy psixologiya sohasining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi va quyidagicha xulosa chiqarish imkonini beradi: talabalarning bozor munosabatlariga moslashuviga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, mexanizmlarni tadqiq etish va ikkilamchi kasbiy moslashuv samaradorligini ta’minlovchi shaxslilik hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlar shakllanishini o‘rganishda «shaxsga faoliyatli yondashuv» nazariyasi g‘oyalari o‘ziga xos asos bo‘ladi;

Adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent., “O‘zbekiston” 2021.-136-138 b.

2. O‘zbekistonda ishbilarmonlik va tadbirkorlikning rivojlanishi / Mirziyoyev Sh.M., Oqnazarov F.A., O‘rmonov M.O‘. – T.: «Universitet», 1993. – 53 b.

3. G‘oziev E, Xolmuhamedov M, Ibrohimov X. Psixologiya metodologiyasi // Psixologiya mutaxassisligi uchun o‘quv qo‘llanma. – T.; 2002. – 172 b.

4. Karimova V.M. O‘zbekistonda oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmlari. // Oila: ijtimoiy himoya omillari. Ilmiy-ommapob maqolalar to‘plami. (Professor V.M.Karimova tahrir ostida) – T.: 2007- 118 b.

5. Safarov D.X. Sotuvchi va xaridor munosabatlarini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari: psixologiya fanlari doktori diss.avtoreferati: 19.00.05. – BuxDU. 2021.

6. Xayitov O.E. Tadbirkorlik faoliyati motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nomz. ... dis. avtoref. - T., 2005. - 24 b.

7. Shoyimova Sh.S. Tadbirkor o‘zbek ayollari shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixol. fan. nomzodi .... dis.: 19.00.05. – T.: O‘zMU, 2009. – 144 b.

Bisekova Sarbinaz Tolebayevna
Nukus innovatsiya instituti o‘qituvchisi

O‘QUV JARAYONLARIDA EMOSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada o‘quv jarayonlarida emosional intellektini rivojlantirish asoslari o’rganilgan. Ushbu jihatlarni rivojlantirishga qaratilgan usullar va strategiyalar, shuningdek ularning talabalarning o'quv va ijtimoiy faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Emotsional intellekt jarayonlarining ilmiy adabiyotlarda tahlili olib borildi.*

Kalit so’zlar: *empatiya, hissiyotlarni boshqarish, shaxslararo ko'nikmalar, talabalar, hissiy intellekt, o'z-o'zini anglash, o'quv jarayoni.*

ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРОЦЕССАХ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. *В статье рассмотрены основы развития эмоционального интеллекта в процессах обучения. Анализируются методы и стратегии, направленные на развитие этих аспектов, а также их влияние на учебную и социальную деятельность учащихся. Проведен анализ процессов эмоционального интеллекта в научной литературе.*

Ключевые слова: *эмпатия, управление эмоциями, навыки межличностного общения, учащиеся, эмоциональный интеллект, самосознание, процесс обучения.*

FUNDAMENTALS OF THE DEVELOPMENT OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN EDUCATIONAL PROCESSES

Annotation. *The article explores the basics of developing emotional intelligence in educational processes. Methods and strategies aimed at developing these aspects are analyzed, as well as their impact on the educational and social activities of students. An analysis of the processes of emotional intelligence was carried out in the scientific literature.*

Key words: *empathy, emotion management, interpersonal skills, students, emotional intelligence, self-awareness, learning process.*

Kirish. Ma’lumki har qanday jamoyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy iqtisodiy barqarorligi uning fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog’liq. Jamiyatda shaxsning rivojlanishi bir qator ichki va tashqi omillarga bog’liq. Ayniqsa shaxsdagi mustahkam e’tiqod, dunyoqarash, tanqidiy fikrlash, o’z-o’zini faollashtirishning tarkib topishi asosiy me’zon sifatida ko’rsatiladi.

Insonning emotsional madaniyatini rivojlantirish hozirgi kunda psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda. Bu birinchi navbatda, zamonaviy turmush sharoitlarining hissiyligi oshishi bilan bog’liq. Hayotning jadallik sur’ati tezlashmoqda, stress omillari soni ortmoqda, relaksatsiya uchun vaqtida imkoniyatlar bo’lmasligi kuzatilmoqda. Bu omillar emotsional bosimning chastotasi va intensivligining oshishiga olib keladi, bunday holatga yo’liqqan odamning javob reaksiyasi bezovtalik, nochorlik va umidsizlik bo’lib qolishi mumkin.

Salomatlik uchun destruktiv ta’sir etuvchi bunday reaksiyalar insonda “emotsional madaniyat” ning shakllanish darajasi past ekanligi natijasidir. So’nggi paytgacha psixologiyada jismonan va ruhan sog’lom bo’lish uchun stress holatiga tushmaslik yetarli degan fikr biroz sodda. Stress omillari inson hayotining ajralmas bo’lagi bo’lib qolgan. Stressdan qochib, odam shaxsiy rivojlanish potensialini o’z ichiga olgan bir qator imkoniyatlarni qo’ldan boy berish xavfini tug’diradi. Stressni bartaraf etish uchun muvaffaqiyatsiz urinishlar o’rniga, unga qarshi kurashish strategiyasini qayta ishlab chiqishga e’tibor qaratishimiz kerak. Ammo so’nggi

yillarda stressga qarshi koping strategiyalari salbiy his- tuyg'ularni eng oddiy, lekin eng kam samara beruvchi usul – his-tuyg'ularni bostirish orqali yengishga harakat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Ko'pgina olimlar bu muammoning turli jihatlarini o'rgandilar: D. Goulmen (Emotsional kompetensiya nazariyasi), R. Bar-On ("emotsional koeffitsient" tushunchasi); S.L. Rubinshteyn L.S. Vigotskiyga tegishli bo'lgan affektiv va intellektual jarayonlar (intellektual jarayon hissiyotlar ishtrokisiz bo'lishi mumkin emas) va A.N. Leontyev (aqliy faoliyat emotsional tartibga ega) haqidagi g'oyani ishlab chiqdi.

Kommunikativ tolerantlik emotsional intellektning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Tolerantlik zamonaviy psixologiyaning birmuncha dolzarb muammosi deb qaraladi va nafaqat insonlararo munosabatlarda, balki yanada kengroq ijtimoiy aloqlarda yuzaga kelishi kuzatiladi. A.G. Asmolov ta'kidlashicha, tolerantlik tashxisi turli pozitsiyalardan amalga oshirilishi lozim. Bu asosan, sotsiogenetik aspekt bo'lib, bu aspektda toleratlik turli xalqlarda va turli davrlarda qanday namoyon bo'lishini ko'rsatib beradi. Navbatdagi aspekt shaxsiyat aspekti bo'lib, u tolerantlikni personogenez – insonning umri davomidagi shaxsiy rivojlanishi. Tolerantlikning pedagogik aspektlari o'qituvchi, o'quvchi, ota-onalar va ta'lim sohasining boshqa qatnashchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonimi inobatga oladi. Psixologlarning fikriga ko'ra XXI asrda insonlar o'zaro muloqot qilar ekan bir birini tushunishlari, fikr almashib o'z dunyoqarashlarini boyitishlari, qadr-qimmat va tolarantlik asri bo'lishi darkor. Shu sababli insonlar yuksalishga erishishlari mumkin.

A.U. Xarashning fikriga ko'ra tolerantlik inson tabiatiga xos bo'lib, u inson psixikasining moslashuvchan, tug'ilgan paytdayoq mavjud bo'luvchi tarkibiy qismi deb hisoblanadi. Shu sababli, shaxsdan faqatgina hayotiy tajriba davomida hosil bo'ladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish talab etiladi. Intolerant qadriyatlar psixologlarning fikriga ko'ra negativ kechinmalar oqibatida yuzaga keladi, ularning bartaraf etilishi muloqot jarayonidagi tabiiy tolerantlik tiklanishiga sabab bo'ladi.

S.L. Bratchenko ta'lim jarayonida asosiy o'rinda tolerantlik qadriyatlarini mustahkamlashga e'tibor qaratadi. Uning o'ylashicha, ta'limning sifatini to'liq tartibga solish uchun ta'lim metodologiyasida, maqsadi vazifalarida hamda ta'lim metodlarida tubdan o'zgarishlar amalga oshirish, qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Shu yo'sinda, tolerantlik, insonlarning o'ziga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishi muhim ekanligi shaxs tolerantligining muhim elementlaridan biri ekanligini anglashi, o'z shaxsiyatidagi tolerant va intolerant xususiyatlarini tushunib yetishi, atrofdagilar bilan o'zaro muloqot jarayonida ijobiy munosabat bildira olish shuningdek turli xil "o'zga" toifadagi odamlar bilan: turli elat va xalq vakillari, o'zgacha turmush tarzi asosida hayot kechiruvchi va mutlaqo farqli dunyoqarashga ega odamlar bilan ham til topishib ketish xususiyati muhim ahamiyatga ega ekanlini uqtirib boradi.

V.V. Boyko nuqtai nazariga ko'ra shaxs o'zi tengilar bilan muloqotga kirishar ekan uch xil tarzdagi munosabat namoyon bo'ladi: shaxsning ayni bir insonga murojaati; shaxsning bir jamoa turiga, bunda kasbga yoki (boshqa) faoliyat sohasi yuzasidan murojaati, shuningdek shaxsning umuman insonlarga murojaati. Uning kommunikativ tolerantligi xulq-atvor xarakteristikasi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Kommunikativ tolerantlikning past darajalari shaxs boshqalarni tushunishni xohlamasligi, o'z dunyoqarashi va fikrlarini standart sifatida qabul qilishi, koservatizm, boshqalarning xatolarini kechirishni bilmasligi, hamsuhbatining jismoniy yoki psixik bezovtaligiga toqatsizligi, atrofdagilarning xarakter xususiyatlariga kam moslashganligi kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Kommunikativ tolerantlikning yuqori darajalarini esa qarama-qarshi xususiyatlar bilan ta'riflash mumkin - insonni u qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish, fikrlar, dunyoqarashlar, qadriyatlar tafovutini tushunish, boshqalarning turli xarakter xususiyatlariga, kamchiliklariga toqatlilig, hamkorlikka va umumiy pozitsiyalarni topishga intilish. V.V. Boyko kommunikativ tolerantlikka aloqador shaxs strukturalarini keltirib o'tadi.

- Boykoning dastlabki strukturasi - intellektual struktura, u toqatlilik, chidamlilik, boshqa insonlarning fikrlash tarzini qadrlash, muammoni hal qilishga intilish, muhim qaror-

larni qabul qila olish, hamsuhbatining aqliy faoliyatidagi xilma- xillikni tushunish.

- Qadriyatga yo'naltirilgan – har bir shaxsning asosiy dunyoqarash ideallarining o'ziga xosligini tushunish uning yaqin va uzoq hayotiy maqsadlari, qiziqishlari, sodir bo'layotgan voqealarni baholash, hayot va baxtning ma'nosi haqidagi g'oyalar, oilaviy rollar va rasmiy vazifalarning, rejalar va erishilgan yutuqlarning ahamiyatini tushunish kabi qobiliyatlar bilan izohlanadi.
- Navbatdagi shaxs strukturasi axloqiy struktura, bu tushuncha toqatlilik va jamiyat rioya qiladigan axloqiy me'yorlarni qabul qilish, uning yaxshilik va yomonlikka, adolat yoki adolatsizlikka yo'naltirilishi, burch hissi yoki o'zini mas'uliyatsiz tutish odati ustunlik qilish-iga moyillik singari sifatlar bilan tavsiflanadi.
- Estetik – did va his-tuyg'ular, turli odamlarning go'zal va aksincha yoqimsiz, yuksaklik va tubanlik hamda hajviy va tragiklikni idrok etishi sohasidagi bag'rikenglik. Emotsional – asosan inson doimiy yuzlashadigan emotsional spektrlarda namoyon bo'ladi: quvonch yoki qayg'u, optimistlik yoki pessimistlik,

hayajon yoki xotirjamlik, ko'tarinkilik yoki tushkunlik, osoyishtalik yoki bezovtalik singari emotsialar oqimiga toqatlilik bilan ta'riflanadi.

- Shaxsning sensor (sezgi) strukturasi – ma'lum bir insonning individual sensor qabul qilish organlari majmui, dunyoni visual, shitish, hid bilish, ta'm, teri va harakat sezgilari dara-jasida hissiy idrok etishni o'z ichiga oladi.
- Energo-dinamik inson energiya xuxusiyatlarining o'ziga xosligi – uning energiya maydonining sifati va kuchini qabul qilishini aks ettiradi.
- Algoritmik – turli odatlarga, ko'nikmalarga, faoliyat uslublariga, turli marosimlarga, shu jumladan uy-ro'zg'or, oilaviy, diniy marosimlarga toqatlilik.
- Xarakterologik – tarbiya, misollar, taqlid qilish natijasida atrof-muhit ta'sirida ort-tirilgan yoki tug'ma shaxsning turg'un xususiyatlari bilan bog'liq.
- Funksional – hayot ehtiyojlarni ta'minlashda yuzaga keluvchi vaziyatlarda chidam-lilik namoyon qilish hamda shaxsiy qulaylikini yaratish. (Boyko V.V, 1996).

Tahlil va natijalar. Sinaluvchilarda emotsional intellektning liderlik bilan o'zaro bog'liqligiga ko'ra natijalar tahlili.

Emotsional intellekt zamonaviy psixologiyada jadal rivojlanayotgan tadqiqot so-halaridan biridir. O'zining his-tuyg'ularini boshqarmasdan, inson o'z kasbiy faoliyatida va shaxsiy hayotida muvaffaqiyatga erisha olmaydi, chunki umumiy muammolarni muvaffa-qiyatli hal qilish emotsiyalarni, hissiyotlarni anglash bilan bog'liq. Aksariyat emotsional holatlarda aql-idrok bilan hukm qilinishi kerak bo'lgan holatlar mavjyd. Emotsiyalarni boshqarish va nazorat qilish shaxsning muhim qobiliyatidir.[9]

Oliy ta'lim muassasi talabalarida umumiy holatda emotsional intellektning qay dara-jada shakllanganligini o'rganish maqsadida biz o'z tadqiqot ishimizda N. Xoll tomonidan ishlab chiqilgan "Emotsional intellktni baholash" testini talabalarda o'tkazdik.


Mazkur test 30 ta savolnomadan iborat. Mazkur metodika sinaluvchilarda emotsional intellekt darajasini tashxis qilishga qaratilgan bo'lib, talabalar o'zlari va atrofdagilarning emotsiya va hissiyotlarini aniqlay olishlari, emotsiyalarini boshqara olishlari, zarur qaror-larni qabul qilishda emotsiyalardan foydalanishlari qay darajada ekanligini aniqlash im-konini beradi.

Shu qatorda bu qobiliyatning liderlik bilan o'zaro aloqadorlik darajasini aniqlash uchun E. Jarikov va E. Krushelnitskiyga tegishli "Kichik guruhlarda liderlik qobiliyatini aniqlash" so'rovnomasini sinaluvchilarda o'tkazdik. Bu metodika 50 ta savolnomadan tash-kil topgan bo'lib, shaxning boshqaruvchilik qobiliyati qay darajada rivojlanganligini

ko’rsatib beradi. Ushbu metodikalar sinaluvchilarda o’tkazilib ma’lumotlar to’plandi. Miqdoriy tahlil natijalari quyidagi jadvalda aks ettirildi.

1-jadval Talaba shaxshida emotsional intellektning liderlik bilan o’zaro bog’liqligiga ko’ra natijalar tahlili.

Shkalalar	Emotsional Intellekt	Liderlik
Past darajada	**51,2%**	**32,5%**
O’rta darajada	**44,2%**	**55,8%**
Yuqori darajada	**4,6%**	**11,6%**



1-rasm. Sinaluvchilarda emotsional intellekt liderlik bilan o’zaro bog’liqligiga ko’ra natijalar ko’rsatkichlari (% da)

Natijalarning sifat jiahatidan tahlilini yuqorida ko’rsatilgan 3 xil, ya’ni emotsional intellekt va liderlikning past darajasi, o’rta darjadagi qobiliyatlar hamda EI va liderlik qobiliyatlarining yuqori darjasi ahamiyatliligini aniqlashdan iborat.

Yuqoridagi natijalarga izoh beradigan bo’lsak, sinaluvchilarning aksariyat qismida emotsional intellekt darajasi past ekanligini ko’rishimiz mumkin. Bu esa ayni paytda aholining mazkur qatlami kundalik hayotda o’zlarining emotsiya va hissiyotlarini anglashga, boshqarishga harakat qilmasliklarini bildiradi. Ular o’z hayot yo’llarini belgilashda, muhim qarorlar qabul qilishda emotsiyalaridan foydalanmaydilar. Shuningdek, atrofdagilarning emotsiyalari va hissiyotlarini anglash qobiliyati past ekanligini aniqlash mumkin.

Ko’pincha, yuqori emotsional intellekt darajasiga ega odamlar xarizmatik bo’lib ko’rinishadi hamda ular bilan munosabat o’rnatish oson va qulay. Bu sinaluvchilarimizning ta’lim jarayonida va atrofdagilar bilan munosabatlarda oson muvaffaqiyatga erishadilar. EQ yuqori bo’lgan talabalar doimo suhbatning tub ma’nosiga e’tibor qaratishadi. Ular tana tili, ovoz ohangi va so’z tanlash kabi tafsilotlarga yetarli o’rinlarda e’tiborlidirlar. Bu ularga

boshqalar nimani nazarda tutayotganliklari haqida qo'shimcha tushuncha beradi. Bunaday insonlar ko'pincha yolg'onchi va firibgarlarni qiyinchiliksiz topib olishadi. Shu bilan bir qatorda bu talabarning emotsional intellekti ularga o'zlarini anglashga yordam beradi. Mazkur talabalar o'zlarining ruhiy holatini yaxshi tushunadilar va anglaydilar.

Tadqiqot ishining ikkinchi metodikasi E. Jarikov va E. Krushelnitskiyga tegishli "Kichik guruhlarda liderlik qobiliyatini aniqlash" so'rovnomasining natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, olingan natijalar o'ziga xos xarakterda ekanligin ko'rishimiz mumkin. Mazkur so'rovnoma ham sinaluvchilarda o'tkazilib yakuniy ma'lumotlar olindi Miqdoriy tahlil natijalari yuqoridagi jadval va diagrammada aks ettirildi. Bunda sinaluvchilarning aksariyati

55,8% ko'rsatkich bilan liderlik qobiliyatining o'rtacha shkaladagi natijasini berdi. IQ darajasi o'rtacha bo'lgan sinluvchilarning ko'pchiligida liderlik qobiliyati ham o'rtacha darajadagi natijani ko'rsatdi. Agarda bu talabalar emotsional intellektini oshirishga harakat qilsalar o'z-o'zidan ularning liderlik salohiyatlari ham o'sishi mumkin.

Past darajadagi liderlik salohiyati bo'yicha olingan natijalar 32,5% ko'rsatkichini qayd etadi. O'xshash holat bu vaziyatda ham ro'y beradi ya'ni past darajadagi emotsional intellekt natijasini olgan talabarning lidrlik qobiliyati ham past ekanligi aniqlandi.

Yuqori darajadagi liderlik qobiliyati shkalasi bo'yicha 11,6% ko'rsatkichni belgiladi. Ajablanarli emaski, bu sinaluvchilarning aksariyat qismida emotsional intellekt ko'rsatkichi ham yuqori ekanligi aniqlandi. Olingan natijalardan shunday xulosa qilish mumkinki, IQ darajasi yuqori bo'lgan shaxslarning liderlik qobiliyati ham yuqori bo'ladi va ular ijtimoiy guruh, jamoalarda yetakchi liderlik vazifalarini bajaradilar.

Xulosa. Emotsional intellekt darajasi yuqori bo'lgan talabalarning liderlik salohiyatlari ham yuqori va aksincha emotsional intellekt past bo'lgan talabalarning liderlik qobiliyatlari ham past darjani ko'rsatadi.

Adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2022 yil 30 iyun, Toshkent sh.

2. Otamuratov R.U., Otamuratova S.A., Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Masofaviy ta'limni tashkil etishning pedagogic- psixologik jihatlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami., 2021., 494b.

3. Ричо Д. Эмоциональные триггеры. Издательство Миф. 2019. 180-198с.

4. Ялом И. Теория и практика групповой психотерапии – СПб.: «Питер», 2000. – 640 с.

5. Hanna, N., Wagle, J., & Kizilbash, A. H. Brain Dominance and the Interpretation of Advertising Messages. International Journal of Commerce & Management, 9 (3/4), 1999. 19-28p.

6. Nutt, P. C. Decision style and its impact on managers and management. Journal of Technology Forecasting and Social Change, 2019. 30, 341-366p.

Eshboyev Shoxruz Xon Farxodovich
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
tayanch-doktoranti

SHAXS TIPOLOGIYASI VA TEMPERAMENTI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shaxs tipologiyasi, uning temperamentlari yoritilgan. Inson temperamentining turlari ilk marotaba Gippokrat tomonidan aniqlangan. Rus psixologiyasida I.P.Pavlov o‘z tadqiqotlarida keng mashhurlikka etishgan ikki asosiy pozitsiyani keltiradi. Shvet olimi K.Yung insonlarni kuzatishi ortidan shunday tipologiyani taklif qilgan, ba’zilar uchun birinchi o‘rinda ularni o‘rab turgan tashqi dunyo, insonlar bilan muloqot qilishga etibor qaratsa, ikkinchi tipdagilar esa ichki dunyosida sodir bo‘layotgan narsalar ular uchun asosiy, tashqi olam esa keying o‘rinda turadi.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, shaxs tipologiyasi, temperament, sangvinik, flegmatik, xolerik, melanxolik, ekstrovert, introvert, temperamentning keng tarqalgan, inert, jonli va zaif turlari.*

ТИПОЛОГИЯ ЛИЧНОСТИ И ТЕМПЕРАМЕНТ

Аннотация. *В данной статье описана типология личности, ее темперамент. Типы темперамента человека впервые выделил Гиппократ. В отечественной психологии И.П. Павлов выделяет две основные позиции, получившие широкую популярность в его исследованиях. Шведский ученый К. Юнг предложил такую типологию после наблюдения за людьми. Для некоторых людей на первом месте стоит внешний мир, который их окружает, и общение с людьми, а для второго типа главным является то, что происходит в их внутреннем мире. для них на очереди внешний мир.*

Ключевые слова: *личность, типология личности, темперамент, сангвиник, флегматик, холетик, меланхолик, экстраверт, интроверт, распространенный, инертный, живой и слабый типы темперамента.*

PERSONALITY TYPOLOGY AND TEMPERAMENT

Abstract. *This article describes the personality typology, its temperaments. Types of human temperament were first identified by Hippocrates. In Russian psychology, I.P. Pavlov cites two main positions that have become widely popular in his research. The Swedish scientist K. Jung proposed such a typology after observing people. For some people, the external world that surrounds them and communication with people is the first priority, while for the second type, what is happening in their inner world is the main thing for them. and the external world comes next.*

Keywords: *personality, personality typology, temperament, sanguine, phlegmatic, choletic, melancholic, extrovert, introvert, widespread, inert, lively and weak types of temperament.*

Har bir inson o‘ziga xos tarzda o‘zgachadir. Har bir inson nizoli vaziyatlarga o‘z shaxsiy xulq-atvori va individual xususiyatlaridan kelib chiqib munosabatda bo‘ladi. Insonning individual tajribasi, shuningdek, munosabati, moyilligi, motivi, maqsadi, qadriyati hamda irodaviy jihatlari ushbu vaziyatda aks etadi. Nizoli vaziyatlarni kelib chiqishi, ushbu vaziyatlardagi voqeylik rivoji va uni murosaga keltirish, tomonlarning shaxsiy fazilatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shaxs haqida gap yuritilganida, bizga ma’lumki, o‘ziga xos fazilatlar to‘plamiga ega bo‘lgan individni tushunamiz. Ya’ni o‘ziga xos odatlar, xarakter, fikrlash va xatti-harakatlarning stereotiplari va boshqalar. Inson tug‘ilganidanoq jamiyatning bir bo‘lagiga aylanadi. Insonda o‘zgalarning ta’siri ortidan shaxsiy xususiyatlar shakllanadi va rivojlanadi. Ba’zi manbalarda ushbu shakllanish insonning 18 yoshigacha davom etadi deb keltiriladi, ammo

shaxs o‘zgaruvchanligi sababli yot sharoitga tushganida ham unga moslashish, ushbu sharoit negizida o‘sish va rivojlanish, o‘zini-o‘zi takomillashtirish xususiyatlarini yo‘qotmaydi.

Garchi, insonlar har xil bo‘lsa-da, tadqiqotlar asosida, ko‘p umumiy jihotlarga guvoh bo‘lish mumkin, o‘xshash belgilar, xatta-harakatlar. Shunday qilib shaxsiyat turlari turli guruhlarga ajratiladi. Bu guruhlar tasodifiy emas, balki aniq mezonlarga muvofiq ajratilgan. Uning asosiy tamoyillarini bilish insonning qanday fikrlashini, u qanday fazilatlarga ega ekanligini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Inson temperamentining turlari ilk marotaba Gippokrat tomonidan aniqlangan. Ular, barchaga tanish – xolerik, flegmatik, sangvinik va melanxolik. Gippokrat ta’kidlashicha, insonda bir necha turdagi suyuqlik – qon, limfa (shilimshiq), sariq va qora safro (jigardagi modda) mavjudligiga asoslanadi. Ushbu moddalarning har biri ma’lum xususiyatlarga ega. Suyuqliklarning qaysi biri ustunligiga qarab, insonning ma’lum shaxsiy fazilatlari va xulq-atvor xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Ushbu ma’lumotlar asosida Gippokrat inson temperamentini to‘rtga bo‘ladi:

- Sangvinik temperamentiga mansub insonlarda qon ustun bo‘lishi bilan ajralib turadi va quvnoq va kuchli tabiatga ega bo‘ladi. Bu turdagi odamlar odatda quvnoq, ochiqko‘ngil va optimistik xususiyatga ega bo‘ladi. Sangviniklar osonlik bilan bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga o‘tadi hamda moslashuvchanlik va muvozanat bilan ajralib turadi.
- Xolerik temperament safroning ustunligi bilan bog‘liq bo‘lib, ishonch, qat’iyat va irodada namoyon bo‘ladi. Bunday odamlar yuqori samaradorlik, qat’iyatlilik va yuqori darajadagi motivatsiya bilan ajralib turadi. Xolerik impulsiv va oldindan aytib bo‘lmas darajada o‘zlarini nazorat qilishi qiyin bo‘ladi.
- Flegmatik temperamentdagilarda esa limfaning ustunligi ravshandir. Bu muvozanat, xotirjamlik, mo‘tadillik xususiyatlarini namoyon qiladi. Bunday odamlarni g‘azablantirish qiyin, ular barqaror va oqilona, behissiyotdirlar. Flegmatik odamlarda biror narsaga yoki yangi insonga moslashish jarayoni qiyin kichadi. Bular “o‘z ichida” yashaydigan introvertlardir.
- Melanxoliklarda qora safro yuqori bo‘ladi. Bunday odamlar tez charchaydi, o‘zlariga nisbatan ishonchi past bo‘ladi. Melanxolik odamlarning harakatlari odatda sekin, ovozi sokin bo‘ladi. Aksariyat hollarda ular introvertlardir.

Ammo, temperamentlar insonda hech qachon to’liq shaklda bo‘lmaydi. To‘rt temperamentni bir insonda uchratish ham mumkin. Qaysi temperament xususiyatlari insonda ustunlik qilsa, qoida tariqasida u o‘sha turga mansub bo‘ladi.

Rus psixologiyasida I.P.Pavlov o‘z tadqiqotlarida keng mashhurlikka yetishgan ikki asosiy pozitsiyani keltiradi. Asab tizimining uchta asosiy xususiyati haqidagi pozitsiya hamda to‘rtta asosiy turi haqidagi pozitsiya, ya’ni keng tarqalgan (xolerik), inert (flegmatik), jonli (sangvinik) va zaif (melanxolik) turlari.

- Keng tarqalgan tur (xolerik). Ushbu tur ekstroversiya va hissiy beqarorlik xususiyatlarining kombinatsiyasi bilan tavsiflanadi. Bu quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi: harakatlardagi keskinlik, tez va baland tovish, qo‘zg‘aluvchanlik, faollik, haddan tashqari to‘g‘rilik va sabrsizlik. Bundan tashqari, odatiy xolerik odam hamma narsaga qiziqadi, qiyinchiliklar oldida o‘zini yo‘qotmaydi, u juda qaysar bo‘ladi. Kayfiyati tez o‘zgaruvchan, nizoli vaziyatlarda juda faol va o‘z tarafini ma’qullaydigan bo‘ladi.
- Inert turi (flegmatik). Ushbu tur introversiya va hissiy barqarorlik xususiyatlarini o‘ziga mujassam etadi. Xulq-atvor va faoliyatda energiyaning pastligi bilan tavsiflanishi mumkin. Flegmatik odam sekin va xotirjam, vazmin va osoyishta, hatto munosabatlarda ham muvozanatli va sabrli bo‘ladi. His-tuyg‘ularga moyilligi past, barcha narsada vazmin va puxta, o‘z kuchini hisoblab chiqadi va behuda sarflamaydi. Nizoli vaziyatlarni yaratmaydi, ammo ushbu vaziyatda bo‘lsa vazminlik bilan murosaga keltira oladi.
- Jonli tur (sangvinik). Bu tur ekstroversiya xususiyatlarining yaqqon ko‘rinishi bo‘lib, hissiy barqarorlik bilan tavsiflanadi. Quyidagi xususiyatlar ushbu turga mansubdir: ishchanlik va g‘ayrat, ochiqlik, sezilarni ish qobiliyati, quvnoqlik, ifodali yuz va ishonchli nutq.

Sangvenik odam aqlli va topqir, lekin u bir kishilik ishlarda toqatsiz bo‘ladi va kayfiyati o‘zgaruvchan. Nizoli vaziyatlarda faol va mojaroga tez kirishuvchanlik birlan birgalikda uni murosaga ham keltirish xususiyatlari mavjud.

- Zaif tip (melanxolik). Ushbu tur introversiya va hissiy beqarorlik xususiyatlarini o‘zida qamrab olgan. Melanxolik odam muvozanatsiz va o‘ziga xos bo‘ladi, kamgap, g‘amgin, doimiy havotirli va qat’iyatsiz, sekin va ta’sirchan, pessimistik va ko’pincha tortinchoqlik bilan ajralib turadi. Melanxolik odam, chuqur va barqaror his-tuyg‘ularga ega, ifodasiz nutqga moyildirlar. Qulay sharoitda melanxolik odamlar yaxshi ishchi: samarali va mas’uliyatli, vijdonli va intizomli bo‘ladi. Xarakterining o‘ziga xos xususiyatlari tufayli, melanxolik odam ko‘pincha shaxsiy ichki ziddiyatlarni rivojlantiradi. Tashqi nizoli vaziyatlarda juda sust va bahsda yutqazuvchan bo‘ladi.

Shvet olimi K.Yung insonlarni kuzatishi ortidan shunday tipologiyani taklif qilgan, ba’zilar uchun birinchi o‘rinda ularni o‘rab turgan tashqi dunyo, insonlar bilan muloqot qilishga etibor qaratsa, ikkinchi tipdagilar esa ichki dunyosida sodir bo‘layotgan narsalar ular uchun asosiy, tashqi olam esa keyingi o‘rinda turadi. Ushbu konsepsiya asosida Yung ularni ikki turga ajratishga taklif bergan, ya’ni ekstravert va introvert.

- -Ekstrovertlar – diqqatini tashqi dunyoga qaratgan odamlar bo‘lib, ular energiyaga to‘la, yangi narsalarga ochiq bo‘ladi va hayotni muloqotsiz tasavvur qila olmaydi (ko‘p hollarda sangvinik va xolerik)
- -Introvertlar ichki jarayonlarga e’tibor qaratadiganlardir. Ular uchun diqqat markazida bo‘lish qiyin; o‘zlari bilan yolg‘iz qolish ancha qulay (ko‘p hollarda flegmatik va xoleriklar)

K.Yung o‘z tipologiyasida ekstraversiya va introversiyadan tashqari, sezgi, fiklash, his qilish kabi psixologik funksiyalarni ham hisobgan olgan. Shuningdek, u ularni ikkita qarama-qarshi guruhga ajratadi – ratsional va irratsional

Xulosa qilib aytganda, shaxs tipologiyasi nafaqat psixologlar, balki menejerlar va HR mutaxassislari uchun ham qimmatli vositadir. Psixotiplarni bilish va odamlarning muayyan vaziyatlarda o‘zini qanday tutishini ko‘ra bilish, tashkilotni muvaffaqiyatga olib keladigan insonlar guruhini tuzishda do‘stona jamoani yaratishga yordam beradi. Shaxsiyat tipologiyalariga e’tibor qaratgan holda, kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maslahatchilar o‘z mijozlariga yanada samarali maslahat yordamini taqdim etishlari mumkin. Masalan, baquvvat xolerik odamga o‘zini murabbiylikka bag‘ishlash tavsiya etiladi, melanxolik odamdan esa frilanserlik unga tinch, qulay muhitda ishlash sharoitini yaratadi, biznesga e’tibor qaratish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar.

1. Шорохова Е.В., Бобнева М.И. Психологические проблемы социальной регуляции поведения. М.: Наука, 1976
2. Маклаков, А.Г. Общая психология / А.Г. Маклаков. – М.: Эко-пресс, 2005.
3. Небылицын В.Д. Темперамент. Психология индивидуальных различий. Тексты / Под ред. Ю.Б. Гиппенрейтер, В.Я. Романова. М.: Изд-во МГУ
4. Теплов Б.М. Современное состояние вопроса о типах высшей нервной деятельности человека и методика их определения. Психология индивидуальных различий. Хрестоматия / Под ред. Ю.Б. Гиппенрейтер и В.Я. Романова. - М.: ЧеРо, 2000.
5. Влияние темперамента на поведение в конфликтных ситуациях. Охотникова Т.И. Россия, г. Оренбург
6. Влияние типа темперамента личности на выбор стратегии поведения в конфликте. Прохорова В.В.. Россия, г. Санкт-Петербург.
7. Поведение личности в конфликтной ситуации. А.С.Гасан. Вестник удмуртского университета. Серия философия. психология. педагогика. 2018

G‘aniyeva Xalimaxon Axmatxonovna
Farg‘ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi dotsenti
E-mail. Ganiyevakhalima@gmail.com

BO‘LAJAK PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASHNING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamon talablari asosida, dunyo standartiga mos, raqobatbardosh, ma’naviy-milliy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib bora oladigan bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlashning pedagogik hamda psixologik asoslari nazariy va amaliy taxlil etilgan.*

Kalit so‘z va iboralar*: bo‘lajak o‘qituvchi, ta’lim, tarbiya, munosabat, qadriyatlar, maxorat, qobiliyat, o‘z-o‘zini anglash, «Men - kontseptsiya», xulq-atvor.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГ КАДРОВ

Аннотация. *На этом статье анализируется теоретические и практические основы подготовки будущих конкурентоустойчивых кадров, соответствующих к государственным стандартам, умеющие обогощать национальные ценности научными достижениями.*

Ключевые слова и выражение: *будущий учитель, образование, поведение, отношение, ценности, опыт, способность, осознать себя, «Я - концепция».*

PSYCHO-PEDAGOGICAL ASPECTS OF PREPARATION OF CADRES

Annotation. *This article analyzes the theoretical and practical foundations of training future competitively-resilient cadres corresponding to state standards who are able to enrich national values with scientific achievements.*

Key words and expressions: *future teacher, education, attitude, values, experience, skill, self-conscious, «I - conception », behaviour.*

Kirish. Milliy modelimiz ta’lim-tarbiya sohasida yangi imkoniyatlar ochib berdi. Bu imkoniyatlar ayniqsa, o‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ularga o‘qituvchi ijodkorligi, mustaqil fikrlashga imkoniyat tug‘diruvchi muhitni yaratish, milliy qadriyatlarimizdan foydalanish va boshqalar kiradi. Tarixiy, ijtimoiy taraqqiyot tajribasi shu narsani isbotlaydiki, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qurilma o‘zgarganda, bu o‘zgarishlar eng avvalo ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishni, uning mohiyati va mazmunini o‘zgartirishni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasida «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» hamda «Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun»da e’tirof etilganidek, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga mas’ul bo‘lgan jamiyat a’zolari, birinchi galda yoshlarda sog‘lom e’tiqodni tarbiyalash, milliy qadriyatlarni e’zozlaydigan, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan malakali kadrlarni yetishtirish ziyolilar, ota-onalar, murabbiylar oldiga jiddiy vazifalarni qo‘yadi.

Prezidentimiz SH.Mirziyoev mamlakat ravnaqi kadrlarning hayotga qay darajada tayyor ekanligi bilan uzviy bog‘liqligini o‘z nutqlarida ta’kidlab, hozirgi zamon ta’lim - tarbiya jarayonlarini tubdan o‘zgartirish, sobiq avtoritar pedagogikadan voz kechish va yoshlarni eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish hamda tarbiyalashga o‘tish vaqti kelganligini, bunda barcha ustoz-pedagoglar o‘z faoliyatlarida tubdan o‘zgarish qilishlari davr talabi ekanligini ko‘rsatib berdilar.

Yoshlarni milliy g‘oya va mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiyalash mas’uliyati ustozdan o‘z faoliyatini va talaba-o‘quvchilarga munosabatini taxlil qilish, yangi davrga mos ish

uslublarini qo‘llashni talab etadi. Ma’rifatli, insonparvar va yuksak ahloqli muallim-ustozgina yoshlarni har tomonlama rivojlangan shaxslar qilib tarbiyalashga qodirdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Forobiy ahloqli inson deganda ilm-ma’rifatga intiluvchi, haqiqat va adolatni sevuvchi, uning uchun kurashuvchi, adolatsizlik va yolg‘onning dushmani, o‘z muhokamalari va harakatlarida qat’iy va jasur, qo‘rqishni bilmaydigan kishilarni tasavvur etadi. Forobiyning fikricha, aql faqat insongagina xos bo‘lgan tug‘ma quvvat-ruhiy kuch bilan bog‘liqdir. Inson tushunish, fahmlash, muhokama qilish, o‘ylab topish, fikrlash quvvatiga tug‘ilishidan ega bo‘ladi va ularning qanday vujudga kelganini o‘zi ham bilmaydi, bu xususiyatlar bolaning o‘sib kamolga yeta borishi bilan rivojlanib boradi. Darhaqiqat, fan va texnika taraqqiyoti o‘z-o‘zidan amalga oshavermaydi. Uni aqliy, ahloqiy, ilmiy salohiyati davr talablari darajasida rivojlangan yoshlargina amalga oshira oladi. Yoshlarning ilmiy, amaliy kamoloti yuksak ahloq negizidagina katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Ustoz bo‘lish uchun, avvalo, kishi o‘z ishining mazmun va mohiyatini bilishi, uni shogirdlar bilan o‘rtoqlashish, ish mohiyatini yoshlarga bildirish, ichki va shaxslararo munosabatlarda intizomlilik, oqko‘ngillilik, adolatlilik kabi qator sifatlarga ega bo‘lishi lozim. Ustoz – bilimdon, o‘z uslubiga, texnikasi, stiliga, taktikasiga ega bo‘lgan shaxs sifatida, ushbu sifatlarni shogirdlariga o‘tkaza olish, «ta’sirlantirish» mahoratiga ega bo‘lishi lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchining mukammal pedagog darajasiga ko‘tarilishi ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshadi va o‘qituvchi shaxsining ba’zi bir xususiyatlari: pedagogik kuzatuvchanlik, xotiraning hozir javobligi, mustaqil va ijodiy fikr yuritish uslubi, nutqining aniqligi, to‘g‘riligi va ifodaliligi diqqatning yuksak darajada rivojlangan xususiyatlari, maqsadga intiluvchanlik, o‘z maqsadi samaradorligini oldindan ko‘ra bilish va boshqalar shakllanadi. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilar mustaqil fikrli, kelajakka ishonch bilan qaraydigan va o‘z fanining bilimdoni bo‘lishi kerak. Ana shundagina mustaqil O‘zbekistonimiz gurkirab yashnaydi, chunki davlatimiz kelajagi hozirgi yosh avlodning sof dunyoqarashi, har bir fanni chuqur o‘zlashtirishi, yangi-yangi kashfiyotlar qilishi, yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini ochishi bilan bog‘liqdir. Bularning barcha-barchasining bunyodga kelishi zaminida o‘qituvchilarning aktiv mehnati yotadi.

Psixologiyada inson shaxsi bilan bog‘liq tushunchalar ichida «Men - kontsepsiya» tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Bu tushuncha shaxsning o‘zi haqida boshqalar bilan uning munosabatini belgilab beradigan tasavvurlar yig‘indisidan iborat, deb izohlanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida «Men - konsepsiya» yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki pedagog-o‘qituvchi o‘zi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib yoshlarga baho beradi, ularga o‘zi o‘zlashtirgan tajribani uzatadi, singdiradi.

Odamning o‘z-o‘zini anglashi, bilishi va o‘z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o‘ziga, o‘z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya’ni, ijtimoiy xulq-shaxs tomonidan uni o‘rab turgan odamlar, ularning xulq-atvorlariga e’tibor berishdan tashqari, o‘zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borishni ham taqozo etadi. CHunki inson o‘zini to‘la anglamay turib, o‘z shaxsiy «Men»i bilan kelishmay turib, o‘zga insonni anglashi, o‘zgalarning hissiy kechinmalarini ichdan kechirishi mumkin emas. SHaxs ma’naviyati rivoji avvalo o‘zini-o‘zi anglash, keyinchalik o‘z manfaatini anglash va nihoyat jamiyatni tanish bosqichlarini taqozo etadi. Insonning jamiyatni anglashi - bu uning milliy o‘z-o‘zini anglashidir.

Milliy o‘z-o‘zini anglashning qator ob’ektiv va sub’ektiv omillari mavjud. Bulardan biri milliy tuyg‘u bo‘lib, u insonning shaxslararo munosabat jarayonida hissiy ta’sirlanishida, yuksak ma’naviy ichki tug‘yonlarda, ijodiy g‘oyalar tug‘ilishi kabi kechinmalarda aks etadi. Aynan shunday kechinmalarga ega bo‘lgan inson o‘z Vatanining sodiq farzandi sanaladi.

Agar o‘qituvchi ijobiy «Men - konsepsiya»ga ega bo‘lsa, unda yetarli shaxsiy emotsional barqarorlik va yetuklik mavjud bo‘lsa, bunday o‘qituvchining yoshlar bilan munosabati faqat ijobiy tasavvurlar asosiga quriladi, o‘qituvchi yoshlardan o‘ziga nisbatan salbiy munosabat

kutmaydi, chunki bunday o‘qituvchida o‘z-o‘zini baholash bilan bog‘liq muammo tug‘ilmaydi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, o‘qituvchining ijobiy «Men - kontseptsiya»si talaba shaxsi shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki inson yoshidan qat’iy nazar o‘z faoliyatini ijobiy baholashga ehtiyoj sezadi, bunday munosabat va ibrat esa talabada ijobiy xarakter xislatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Talaba yoshlarning kelajakda yuqori saviyali, malakali mutaxassis bo‘lib yetishishi, ixtisoslik bo‘yicha barqaror malakalar va mustahkam bilimlar egallashi kelgusi «Men» bilan uzviy bog‘liq ravishda amalga oshadi. Kelajakda o‘z sohasining mahoratli kishisi, tashabbuskor va tashkilotchi shaxs sifatida voyaga yetishi o‘zlarida ko‘p jihatdan ular tomonidan tanlangan ideal kasb egasi fazilatlarini qunt bilan shakllantirib borishga bog‘liq. Bo‘lg‘usi mutaxassisning tinimsiz izlanishi unda dinamik «Men»ni tarkib toptira boradi, ijobiy va sifat o‘zgarishlarini oqilona nazorat qila olishi, to‘g‘ri baholay bilishi bu jarayonning asosiy mezoni hisoblanadi.

Natija va muhokama.

Biz o‘z tadqiqotimizda bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy sifatlarini aniqlovchi psixologik tadqiqot o‘tkazdik va quyidagicha natijalarga ega bo‘ldik.

1-jadval

Shaxs psixologik sifatlarini aniqlash natijalari quyidagicha

respondentlar	Muloqotga moyillik darajasi %	Emotsional yetuklik. %	Hukmronlikka intilish. %	Hissiy o‘zgaruvchanlik. %	majburiyat hisi %	Ijtimoiy mardlik. %	Ishonuvchanlik darajalari. %	Zo‘riqish. %
Yigitlar	43%	77%	87%	39%	57%	83%	49%	57%
Qizlar	83%	49%	73%	49%	73%	65%	35%	35%

Muloqotga moyillik darajasi bo‘yicha respondentlar bergan javoblarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, talaba yigitlardan ko‘ra qizlarning ochiq ko‘ngililigi, o‘zini erkin tutishi, yorqin emotsionalligi, odamlarga diqqat-e’tiborligi bilan ajralib turishi 83 foizni tashkil etdi.

Emotsional yetuklik, kuchli iroda, hayotga realistik qarash, xotirjamlik, kayfiyatning barqarorligi kabilar talaba yigitlarda kuchliroq namoyon bo‘lib, u 77 foizni tashkil etdi. Hissiy holatidagi o‘zgaruvchanlik, egiluvchanlik, hayajonlanish, noxushlik holati bilan bog‘liq ko‘rinishlar 49 foiz qizlarda mavjud ekanligi aniqlandi.

Hukmronlikka intilish bilan bog‘liq davogarlik yigitlarda 87 foiz bo‘lib, ular o‘ziga ishonadi, fikrlashi mustaqil, qattiq qo‘l, ular rahbarlarga odatda bo‘ysunmaydi. Qizlar orasida ham deyarli har doim hukmronlikni yaxshi ko‘radigan, o‘z qonunlarini o‘zgartiradigan hamda mustaqil fikrlaydigan talabalar 73 foizni tashkil etdi.

Har ikkala jins vakillarida ham majburiyatni his qilish, o‘ziga talabchanlik, tirishqoqlik yuqori bo‘lib, ular javobgarlikni o‘z bo‘ynilariga oladi, ko‘p narsalarni rejalashtiradi va vaqtni bekorga o‘tkazmaydi.

Ijtimoiy mardlik ko‘rsatkichlari qizlarga nisbatan yigitlarda ustun bo‘ldi. 83 foiz talaba yigitlar mard, to‘la erkin, ijtimoiy botir, uddaburon ekanliklarini qayd etishdi. Bunday sifatlar 65 foiz qizlarda ham mavjud. Lekin talaba qizlarning 35 foizi uyatchan o‘ziga ishonmaydi,

o‘zini doimo chetga oladi, odatda o‘zidan ko‘ngli to‘lmasligini his qiladi. Ular ko‘pchilik bilan aloqada bo‘lishni, atrofida bo‘layotgan hodisalarga aralashishni ma’qul ko‘rmaydi.

Ishonuvchanlik darajalari talaba yigitlar va qizlarda bir-biriga yaqin ko‘rsatkichlarni berdi. Ularning aksariyati rashk va hasad qilishdan ozod, quvnoq, ziddiyatlarga intilmaydi, boshqalar haqida ko‘proq qayg‘uradi, guruhlarda yaxshi ishlaydi.

Talabalar o‘rtasida mustaqil, o‘zidan ko‘ngli to‘q, o‘zining shaxsiy qarorlarini tavsiya qiladigan, o‘z yo‘lini tutishga moyil yigit - qizlar mavjudligi ularning o‘qituvchilik faoliyatini mustaqil, ijodiy izlanishlar asosida yurita olish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Aksariyat talaba yoshlar o‘zini yuqori darajada nazorat qiladi. Ularda umumiy xulq va o‘zining irodaviy hissiyotlarini kuchli nazorat qilish tendensiyasi mavjud.

Yigitlarda zo‘riqish, me’yordan ortiq faollik, sabrsizlik 57 foizni ko‘rsatdi. Qizlarda esa qoniqish hissi bilan bog‘liq bo‘lgan holda zo‘riqish susaygan. Lekin ba’zi bir vaziyatlarda haddan tashqari o‘zidan qoniqish dangasalikka olib keladi. Hozirgi kun o‘qituvchisi avvalo ijodkor bo‘lishi, mashg‘ulotga ijodiy yondashmog‘i lozim.

Xulosa.

Mustaqil O‘zbekistonda hozirgi vaqtda o‘qituvchilar rolini oshirish maqsadida bir muncha arzugilik ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. CHunki, ta’lim sistemasini rivojlantirmay turib, yangi hayot qurish mumkin emas. O‘qituvchi shaxsi xususiyatlarining muhim tomonini uning ma’naviyat va siyosiy e’tiqodi, dunyoqarashi tashkil qiladi. O‘qituvchi yoshlarda Vatanga, xalqiga, ona-yurtiga, o‘lkasiga, muhabbat, mehnatsevarlik, insonparvarlik, halollik, rostgo‘ylik, ahloqiy poklik, kamtarlik, xato va kamchiliklarga nisbatan murosasizlik, do‘stlik, o‘rtoqlik, qardoshlarga birdamlik kabi yuksak ahloqiy fazilatlarni tarbiyalaydi. Bu ahloqiy fazilatlar yoshlarni ichki ehtiyoji bo‘lib qolishi uchun kurashadi.

Adabiyotlar.

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” 2017.

2. M. R. Davletshin va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O‘quv metodik qo‘llanma. Toshkent. SHarq. 2006. 139 bet.

3. Forobiy Ruhiy protsesslar va ta’lim-tarbiya to‘g‘risida”. T.:1967.,B-51

4. Рогов. Е.И. Настольная книга практического психолога. М.: 2004 г.451стр.

5. Karimova V.M, Xolyigitova N.X. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-“Iqtisodiyot” – 2014. 41 b.

6. Зимняя.И.А «Педагогическая психология»: Учебник для вузов. –М., “Изд-во” 2002.-384с.

Haydarov Shahriyor Shuxrat o‘g’li
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti,
psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi, psixologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

UYuShMAGAN YOSHLARDA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNI NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada uyushmagan yoshlarning psixologik salomatlikni namoyon bo‘lishining o‘ziga xos psixologik jihatlarini tadqiq qilishning amaliy - metodik asoslari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, psixologik salomatlik omillari va ularni tadqiq qilish uslubi ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so’zlar: *psixologik salomatlik, o‘z-o‘ziga adekvat emotsional munosabat emotsional bilimdonlik, empatiya, psixosomatika, obsessif-komplusivlik, depressiya, xavotir, fobiya, agressivlik.*

ОБСУЖДЕНИЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ У НЕСОЦИАЛИЗИРОВАННОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотпация. *В данной статье рассматриваются практические и методологические основы исследования специфических психологических аспектов проявления психологического здоровья неорганизованной молодежи. Также научно обоснованы факторы психологического здоровья и метод их исследования.*

Ключевые слова: *психологическое здоровье, адекватное эмоциональное отношение к себе, эмоциональный интеллект, эмпатия, психосоматика, обсессивно-компульсивный синдром, депрессия, тревога, фобия, агрессия*.

DISCUSSION OF SPECIAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PSYCHOLOGICAL HEALTH IN UNSOCIALIZED YOUTH

Annotation. *This article discusses the practical and methodological foundations of the study of specific psychological aspects of the manifestation of psychological health of disorganized youth. The factors of psychological health and the method of their research are also scientifically substantiated.*

Key words*: psychological health, adequate emotional attitude towards oneself, emotional intelligence, empathy, psychosomatics, obsessive-compulsive syndrome, depression, anxiety, phobia, aggression.*

Kirish. Jahonda har tomonlama yetuk, sog‘lom kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Xususan, yoshlarning psixologik salomatligini mustahkamlash va shu orqali faoliyat samaradorligini oshirishga oid amalga oshirilayotgan tadqiqotlar doimiy e’tiborni tortib kelmoqda. Ayni paytda, Butunjahon sog‘liqni saqlash assambleyasi tomonidan «...psixik salomatliksiz salomatlik mavjud bo‘lmaydi» tamoyiliga asoslangan jarayonni amalga oshirayotganligi ushbu muammoning dolzarbligini belgilab bermoqda. Jahon sog’liqni saqlash tashkilotining 2019-2024 yilgi ma’lumotlarga ko’ra, dunyo aholisining 60% doimiy mehnat bilan shug’ullanib kelmoqda, shundan 15% doimiy tibbiy psixologik muammolardan aziyat chekishmoqda. Xalqaro standartlarga mos, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun

ularning psixologik jihatdan barqarorligini ta’minlash zarur. Dunyoda, ta’lim muassasalarida bo‘lajak kadrlarning psixologik salomatlik omillarini aniqlashda zamonaviy usullarni qo’llash asosida yanada takomillashtirish muhim. Uyushmagan yoshlardapsixologik salomatlik mezonlarining tanlanishi va tadqiq qilinishi asosan tadqiqotimizning birinchi bobida batafsil qayd etilgan psixologik salomatlik haqidagi nazariy-metodologik tushunchalarga tayanadi. Jumladan, har bir mezon ma’lum darajada o‘smir shaxsidagi psixologik salomatlik imkoniyatlarining u yoki bu jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.;

Metodologiya. Biz tadqiqotimizning ilmiy salohiyatini yaqqolroq ko‘rsatish maqsadida uyushmagan yoshlar uchun xarakterli bo‘lgan psixologik salomatlik jarayonini ochib beruvchi mezonlarni tanlash va tadqiq qilish uslubi belgilab olindi.Tadqiqotimizda uyushmagan yoshlarningpsixologik salomatlik mezonlarini tadqiq qilish uslubini ishlab chiqishga erishdik(1-jadval).

1-jadval

Uyushmagan yoshlarning psixologik salomatlik mezonlar tizimini tadqiq qilish uslubi

Psixologik salomatlik omillari	**Psixologik salomatlik mezoni**	**Psixologik salomatlik belgisi**	**Psixologik salomatlik ierarxiyasi**
Emotsional holatlarni adekvat boshqarish	O‘z-o‘ziga adekvat emotsional munosabat (Xoll usuli asosida)	Ijtimoiy me’yoriy faollik Nome’yoriy faollik	1.O‘z his-tuyg‘ularini boshqarish 2.O‘z-o‘ziga motivatsiya 3.Empatiya 4.Emotsional bilimdonlik
O‘zini o‘zi hissiy baholash	Me’yoriy hissiy faollik (Riks – Uessman usuli asosida)	O‘zini o‘zi adekvat boshqarish	1. Xotirjamlik 2.G‘ayrat- shijoatlilik 3.Hissiy ko‘tarinkilik 4. O‘z-o‘ziga ishonch
Psixologik salomatlikni baholash	Adekvat psixologik motivatsiyasi (A.Nazarov,Sh.Haydarov so‘rovnomasi asosida)	Individual uslubni namoyon qila olish	1.Tajovuz 2.Agressiya 3.Qo‘rquv-xavotir 4.Tashqi o‘z-o‘zini chegarash 5.Ichki o‘z-o‘zini chegarash 6.Egoizm 7.Assertivlik 8.Ijtimoiy refleksiya
Psixologik salomatlik omillarini namoyon bo‘lishi	Shaxs dinamik xususiyatlari (Derogatis uslubi asosida)	Faoliyat va shaxspsixologik xususiyatlari mutanosibligi	1.Psixosomatika 2.Obsessif komplusivlik 3.Depressiya 4.Xavotir 5.Fobiya 6.Agressivlik

Uyushmagan yoshlar shaxsida namoyon bo‘luvchi har bir individual xususiyat darajasidan (quyi, o‘rta, yuqori) kelib chiqib umumiy psixologik salomatlik ko‘rsatkichlariga izoh beriladi. Binobarin, mazkur mezon ko‘rsatkichlarining tanlanishi va tadqiq qilinishi tadqiqotning empirik salohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqotimiz davomida uyushmagan yoshlarning psixologik salomatligini o‘rganish bo‘yicha bir qator metodikalardan foydalanib, tegishli empirik ma’lumotlarni qo‘lga kirishga erishdik. Dastlab, Riks-Uessman shkalasi bo‘yicha uyushmagan yoshlarda hissiy holati bilan bog‘liq psixologik salomatlik mezonlarini tadqiq qilish metodikasi orqali uyushmagan yoshlarningpsixologik salomatlik omillari qay darajada ekanligi, ularda qaysi mexanizm omili

ustunlik qilishi va ular orasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar aniqlandi. Bundan tashqari, Xollning “Emosional intellektni o‘rganish” testi orqali uyushmagan yoshlardagi “emosional” ko‘rsatkichlarni ham aniqlab, yangi ilmiy natijalar qo‘lga kiritildi. Shuningdek o‘zimiz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Uyushmagan yoshlarning psixologik salomatligini ekspert baholash” va Derogatisning “Psixologik omillarning namoyon bo‘lishi”ni aniqlashga qaratilgan so‘rovnomadan foydalanildi.

Uyushmagan yoshlarning psixologik salomatlik omillarini tadqiq etish uchun dastavval tadqiqot bosqichlari belgilandi, muammoning metodologik asoslari va metodikalarning psixologik tavsifi keng yoritildi, tadqiqotimiz murakkab va dolzarb muammoga bag‘ishlanganligi uchun uning bosqichlariga, ilmiy psixologik bilimlarni asoslash uchun metodologik tamoyillariga hamda tadqiqot metodikalariga qo‘yilgan talablar asosida o‘tkazildi.

Uyushmagan yoshlardagi psixologik salomatlikning psixodiagnostikasi (eksperimental o‘rganilishi) amalga oshirildi. Uyushmagan yoshlarda psixologik salomatlikning namoyon bo‘lishi, xususiyatlari va mohiyatini aniqlash hamda ilmiy asoslash maqsadida unga ta’sir etuvchi omillarning namoyon bo‘lishi, kelib chiqish sabablari, manbalari aniqlandi. Uyushmagan yoshlardatashqi sabablar ta’sirida namoyon bo‘ladigan psixologik salomatlikning salbiy o‘ziga xos xarakterli xususiyatlari va uni keltirib chiqaruvchi omillar tasniflandi.

Yuqori natijaga erishishga yo‘naltirilgan motivlarning anglanmaganligi uyushmagan yoshlar tarbiyasi va shaxsning beqaror shakllanishi natijasida ularning o‘zaro munosabatlarga kirishishi, faoliyatga yo‘nalganligi, yuksak mahorati va boshqa aqliy, axloqiy sifatlari tahlil qilindi. Psixologik salomatlik etarlicha shakllanmagan uyushmagan yoshlarda hissiy-emosional holatlarining o‘zgarish sabablari o‘rganildi va ular tegishlicha baholanib, psixologik jihatdan olingan natijalar birma-bir tahlil qilindi.

Tadqiqotda hozirgi zamon psixologiyasi amaliyotida samarali qo‘llashga mo‘ljallangan uyushmagan yoshlarda paydo bo‘ladigan xavotirlanish darajasini, individual psixologik xususiyatlarini ya’ni muhandislarda internal, eksternal ko‘rsatkichlariga nisbatan moyillik borligini, ish faoliyatida hissiyotning barqarorligi va beqarorligi, o‘zini tuta olish va o‘zini tuta olmaslik, hissiyotga beriluvchanlik kabi uyushmagan yoshlaringemotsional holatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan metodikalar yordamida amalga oshirildi. Tadqiqotdan olingan natijalar tahlillariga asoslanib, psixologik salomatlik uyushmagan yoshlarning hissiy-emotsional holatiga va unga ta’sir etayotgan tabiiy-biologik va psixologik omillarga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Uyushmagan yoshlarda ekstremal vaziyatlarda yuzaga keladigan salbiy o‘zgarishlar darajasi va uning ish faoliyati bilan bog‘liq salbiy oqibatlar baholandi.

Tadqiqotimizda psixologik salomatlikni shakllanishi, emotsional intellektga bog‘liq ekanligini nazardan qochirmagan holda, Xolning “Emotsional intellektni aniqlash” metodikasi imkoniyatlaridan foydalanishni lozim topdik. Agar emotsional intellektning tabiatiga e’tibor qaratilsa, unda psixologik salomatlikni to‘ldiradigan tomoni borligining guvohi bo‘linadi. Uyushmagan yoshlarningemotsional intellektini tatbiq etilgan testning beshta shkalasiga tayanib amalga oshiramiz . Endi asosiy natijalar sharhiga murojaat etaylik (2-jadval).

2-jadval

Uyushmagan yoshlarda emosional intellektining umumiy ko‘rsatkichlari

	Shkalalar	M	S
Emosional intellektni o‘rganish testi	Emotsional bilimdonlik	12,51	1,3
	O‘z emotsiyasini boshqarish	11,07	1,3
	O‘z–o‘zini rag‘batlantirish	10,55	1,8
	Empatiya	12,31	2,3
	O‘zga insonlarning kechinmalarini sezish	12,28	2,4

Izoh:
M – o‘rtacha qiymat
S – standart xatolik

Uyushmagan yoshlar emotsional intellektining umumiy natijalari uchta shkala bo‘yicha yuqori va ikkita shkalasi bo‘yicha o‘rta natijani qayd etmoqda. Ulardagi emotsional bilimdonlik (12,51 ball)natijani ko‘rsatgani olganligi inson kechinma chegaralari, shaxslararo munosabatdagi tuyg‘ularni his etish, emotsional intellektning to‘g‘ri boshqarayi olishi emosiyalarini tushunish uchun intellektual boshqaruv to‘g‘risidagi bilimlarga, shaxslararo munosabatlarda turli xil noqulay vaziyatlardan psixologik va hayotiy tajribadan boxabar ekanligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Yuqoridagilarga asoslanib, bayon etilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda, psixologik salomatlik omillari va uni tadqiq qilish metodlari aniqlandi. Shuningdek, uyushmagan yoshlarda psixologik salomatlikni shakllantirishga qaratilgan metodikalarni tanlash va ularni tadqiqot maqsadiga mos ravishda qo‘llash quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Psixologik salomatlik muammosini maxsus o‘rganishga bag‘ishlangan metodikalar, testlar va qo‘shimcha matematik-statistik metodlar majmuasining qo‘llanilishi tadqiqotning amaliy-tatbiqiy jihatdan kengroq ochib berish imkonini yaratdi.

2. Ilmiy adabiyotlar va empirik izlanishlar asosida psixologik salomatlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik omillarining o‘ziga xos dinamikaga ega ekanligi qayd etildi, bu o‘z navbatida, pedagogik psixologiya fanidagi salomatlik fenomeniga yangicha nazar bilan qarashni taqozo etadi.

3. Uyushmagan yoshlarning faoliyatida psixologik salomatlik muhim omil sanaladi. Uyushmagan yoshlarning ruhiy, emotsional holatining o‘zgarishi bilan ularning psixologik salomatlik ko‘rsatkichlarida ham o‘zgarish kuzatildi. Uyushmagan yoshlarda muhim sanalgan psixologik salomatlik omillari ko‘rsatkichlarining rivojlanishi shaxs xususiyatlariga ham bevosita bog‘liq.

4. Uyushmagan yoshlarda psixologik salomatlik omillari emotsional-irodaviy va shaxs xususiyatlari tegishli psixologik salomatlik ko‘rsatkichlariga mos ravishda ijobiy va yuqori qiymatlarga ega bo‘ldi.

Tadqiqot natijalari asosida shakllantirilgan umumiy xulosalar quyidagi **amaliy tavsiyalarni** taklif etish imkonini berdi:

1. Psixologik salomatlikni faoliyat samaradorligini belgilovchi yetakchi komponent ekanligini nazarda tutib, uni rivojlantirib borishni barcha oliy o‘quv yurtlarining ta’lim standartlariga kiritishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Binobarin, uyushmagan yoshlarda nafaqat maxsus bilim, ko‘nikma hamda malakalar bilan qurollantirish, balki ularning pedagogik-psixologik tayyorgarligiga jiddiy e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Psixologik salomatlikni omillari, mexanizmlari va shakllantirish usullari haqidagi seminar-treninglar, davra suhbatlari, onlayn muloqotlarni doimiy ravishda tashkil etish orqali kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish mumkin

3. Maxsus psixologik treninglar orqali uyushmagan yoshlar faoliyatida uchraydigan ziddiyatli holatlarni bartaraf etishga qaratilgan ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga erishish mumkin bo‘ladi.

4. Mutaxassislarni psixologik salomatligini shakllantirish uchun ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari o‘quv dasturlariga o‘zgartirishlar kiritish, ularning faoliyat davomiyligiga qarab psixologik salomatlik darajasini onlayn diagnostika qilib borish lozim.

Adabiyotlar.

1. Адлер, А. Практика и теория индивидуальной психологии / А. Адлер ; [пер. с англ. А. Боковикова]. - Москва : Акад. проект, 2007. - 232 с.

2. Алишичева, А.В. Взаимосвязь между факторами, детерминирующими психическое здоровье личности / А.В. Алѐшичева // Психическое здоровье. - 2015. - № 3 (113). - С. 27-33.

3. Актуальные проблемы психологического здоровья личности: теория и практика : Материалы I Всероссийской научно-практической конференции (с международным участием) / науч. ред. А. В. Качалова; отв. ред. И. А. Твелова. – Армавир: РИО АГПУ, 2017. – 132 с.

4. Баратов Ш.Р Социально-психологические и научно-практические основы создание психологической службы в Узбекистане. Автореферат дисс. докт. психол.наук. – Т.,1998. – 37 с.

5. G‘oziev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. – T.: 2010

6. Haydarov Sh.Sh. Uyushmagan yoshlardapsixologik salomatlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari. Monografiya. – Buxoro. «Kamolot» nashriyoti. – 2023. - 120 b.

Ikramova Malikabonu Azizovna
Student of Bukhara Psychology and
Foreign Languages Institute

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS

Annotation. *This article reveals the scientific and theoretical foundations for the formation of professional competence of foreign language teachers, as well as the role and significance of the factors influencing it. Empirical results and psychological interpretation of personality traits that influence their professional competence are also described.*

Keywords*: psychological competence, "I-concept", social perception, reflex, stress, aggression, altruism, aggression, social courage, social maturity, socio-psychological competence.*

CHET TILI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari, shuningdek, unga ta'sir etuvchi omillarning roli va signifi-Kansi ochib berilgan. Empirik natijalar va ularning kasbiy mahoratiga ta'sir qiluvchi shaxsiyat xususiyatlarining psixologik talqini ham tasvirlangan.*

Kalit so'zlar: *psixologik kompetentsiya, "men-tushuncha", ijtimoiy idrok, refleks, stress, tajovuz, altruizm, tajovuz, ijtimoiy jasorat, ijtimoiy etuklik, ijtimoiy-psixologik kompetentsiya.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация*. В данной статье раскрываются научно-теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителей иностранного языка, а также роль и значение факторов, влияющих на нее. Также описаны эмпирические результаты и психологическая интерпретация особенностей личности, влияющих на их профессиональную компетентность.*

Ключевые слова*: психологическая компетентность, "Я-концепция", социальное восприятие, рефлекс, стресс, агрессия, альтруизм, агрессия, социальная смелость, социальная зрелость, социально-психологическая компетентность.*

Introduction. Studying the psychological foundations of the professional competence of foreign language teachers in world scientific research institutions and centers, developing mechanisms for the formation and development of professional competence, systematizing their psychological criteria, creating a model for research and development of indicators of social-psychological competence, social-psychological Research is being conducted on the development of a set of psycho-diagnostic methods consisting of specially modeled tasks designed to improve competence. Particular attention is paid to the issues of raising the level of psychological training of foreign language teachers, identifying the socio-psychological factors and mechanisms that shape their socio-psychological competence, increasing the role of professional training of foreign language teachers and their impact on the effectiveness of their work. In this regard, research on improving the professional competence of foreign language teachers is of particular importance.

As a result, opportunities were created to deepen scientific research in the directions of increasing the psychological competence of foreign language teachers, realizing their personal qualities, showing the possibilities of socio-psychological competence factors that directly af-

fect the effectiveness of activities through psycho-corrective methods. of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 of February 7, 2017 "On the Strategy of Actions for Further Development of the Republic of Uzbekistan", No. PF-5590 of December 7, 2018 "Uzbekistan Decrees of the Republic "On comprehensive measures to fundamentally improve the healthcare system" and PQ-4190 of February 13, 2019 "Protecting the mental health of the population of the Republic of Uzbekistan in 2019-2025 the decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 472 of June 7, 2019 "On the further improvement of the system of personnel training in the field of psychology and measures to prevent crimes in society" scientific research of this problem serves to a certain extent in the implementation of the tasks specified in the decision and other regulatory legal documents related to this activity.

Today, large-scale work is being carried out on the preparation of socially active pedagogical personnel who have the necessary qualities and qualities for professional activity and develop methods for improving their psychological competence. At the same time, the need to improve the quality and tools of modern education aimed at developing the professional competence of foreign language teachers, and to put into practice the achieved innovative results is increasing more and more.

Methodology. In this regard, it is important to research the factors affecting the formation of professional competence of foreign language teachers. Based on this point of view, in determining the role and importance of personality traits in the development of professional competence of foreign language teachers, R.B. Cattell's questionnaire "Study of personality using 16 factors" was conducted.

It is known that R. Kettell's questionnaire "Study of personality with the help of 16 factors" is of particular importance as it aims to clarify the psychological characteristics of a person. The author of this survey is one of the first psychologists in the West to turn to personality psychology. We aimed to research the personality traits of foreign language teachers based on the point of view that the professional competence of foreign language teachers develops in harmony with their personality traits.

In our study, six of the factors contained in the questionnaire are of a clinical nature, so we found it necessary to use only ten factors. The factors we used are important because they are aimed at highlighting the psychological characteristics of a person. By evaluating the indicators of these ten factors, it was adapted to the general purpose of the research from the point of view of being able to evaluate the characteristics related to the formed social intelligence in the personality of foreign language teachers. This methodology has been widely used in the studies conducted before our research. This helped us in our application as a psycho-diagnostic method that serves to provide objective scientific information for practice. The methodology was applied to the research object like previous methodologies. Below we will analyze the results of the survey in general and specific cases in detail (see Table 1).

Results and discussion. Foreign language teachers Based on Cattell's "16-Factor Personality Study" questionnaire, the personality traits have the following psychological descriptions. In almost all factors, the indicators of foreign language teachers were above average.

This indicator of their personality characteristics is interpreted in individual cases according to factors:

Communicativeness (A) scale (5.28). This value means that foreign language teachers at this stage are ready to cooperate with others, are attentive, do not fall into situations of extreme anger or happiness (internal excitement, passion), have the ability to control their behavior, i.e. at the same time compassionate and sincere, at the same time it means demanding in a special way.

Emotional stability (S) (5.20±1.76). This indicator indicates that pedagogues are able to control their own feelings and moods, have a higher strength of "Embodiment", tend to have a positive "I" concept, and can work with a certain degree of success in their professional activi-

ties. It can be said that a higher level of emotional stability in foreign language teachers is desirable.

Table 1.

General indicators of the manifestation of personality traits in foreign language teachers

	Factors	X	y
Questionnaire "Study of personality using 16 factors". (RB Cattell)	Propensity to communicate (A)	5,28	1,61
	Emotional Stability (S)	5,20	1,76
	The Quest for Dominion (EU)	5,34	1,57
	Social Maturity (Qr)	5,31	1,52
	Social courage (N)	5,56	1,61
	Reliability (J)	5,06	1,68
	Confidence (Q)	5,11	1,58
	Independence (Q2.)	5,66	1,74
	Self-control (Q3.)	5,58	1,67
	Calmness (Q4.)	5,25	2,01

Dominance drive (UE) (5.34±1.57). This level of the factor indicates that foreign language teachers are susceptible to the influence of people around them, take into account the demands of others, are not aggressive in protecting their right to independence, and at the same time, they have a tendency to freely interact with the college management.

Social maturity (Qr) (5.31±1.52). This level of this factor means that foreign language teachers take life and work lightly, do not feel responsible, and are not completely free from feelings such as lack of thrift, but this does not mean that their "Self-concept" is negative, but rather the ability to control their behavior and is the result of insufficient determination. They have a position as individuals who seek to recognize universal human values and adhere to moral rules.

Social boldness (N) (5.56±1.61). Such a value indicates that foreign language teachers are sufficiently skilled, can communicate freely with people, overcome difficulties in dealings, and do not lose their temper when faced with unexpected situations.

Reliability (J) (5.06±1.68). This indicator of the reliability factor allows foreign language teachers to rely on reason in solving professional activities and life issues, thereby achieving effectiveness in their work.

Self-confidence (Q) (5.11±1.58). This level of the factor makes foreign language teachers self-confident, able to manage failures, correctly assess the happenings and give an appropriate response to them, and create confidence in their own abilities. Although they do not have a tendency to self-deprecation, they have a somewhat high level of quickness and sensitivity. They should try to strengthen their confidence and pay special attention to improving their professional qualities.

Independence (Q2.) (5.66±1.74). While foreign language teachers prefer to do everything themselves, they also listen to the recommendations and suggestions of others. They want to be independent, to rely on those around them, and to support them. Their independence ensures that their activities are effective. Self-control (Q3.) (5.58±1.67). The indicator is that foreign language teachers are persistent in fulfilling social and moral norms, in most cases they act in an orderly and planned manner. However, they do not always overcome difficulties and finish the work they started. If they can organize their activities effectively, it is better for them to pay more attention to self-control anyway.

Manifestation of indicators of this factor indicates that foreign language teachers are somewhat stressed and tend to be more nervous due to the large number of needs.

Avoidance and tension from complex goals are primarily the result of professional activity, which, in turn, is influenced to a certain extent by the characteristics of temperament types.

Conclusion. In the general overview of the personality characteristics of foreign language teachers above, we saw that there are both positive and moderate characteristics, and in some places, there are characteristics that reflect the opposite character for pedagogical activity. So, R.B. According to the results of Kettel's method, all foreign language teachers have a tendency to communicate, emotional stability, social boldness, social maturity, self-confidence, self-control in the development of interdependence and connection between professional competence and personality characteristics. it was determined that the characteristics of making are leading. The balance between the personality traits of foreign language teachers ensures that they are emotionally stable in interpersonal relationships, do not seek dominance, and reduce mental exhaustion, agitation, and stress.

In general, foreign language teachers, by in-depth study and analysis of the personality characteristics of each pedagogue, and drawing appropriate empirical conclusions, evaluate the indicators of professional competence, which are of great importance in the manifestation of the harmony of personal and professional activities of foreign language teachers. it was confirmed once again that it is possible to ensure the competence of professional activity. Among the personality traits of foreign language teachers, such traits as assertiveness, emotional stability, social courage, social maturity, self-confidence, self-control ensure the stable and consistent development of indicators of professional competence in the process of professional activity.

Bibliography.

1. Abulkhanova K.A. Social Thinking of the Individual // Modern Psychology: Current State and Research Perspectives. Part-3 – Social Representations and Individual Thinking. – Moscow: Institute of Psychology RAS, 2002 – pp. 88-103.

2. Ananyev B.G. Intellectual Activity and Thermoregulation // Adult Developmental Psychology. Conference Proceedings. – Leningrad: 1991. – pp. 75-84.

3. Bederkhanova V.P. On Social Perception in Connection with the Use of Role-Playing Games in Professional Pedagogical Training // Theoretical and Applied Problems of Psychology of People's Knowledge of Each Other. – Krasnodar: 1975. – pp. 232-233.

4. Beznosov S.P. Professional Deformation and Personality Development // Psychological Support for Social Development of the Individual. – Leningrad: 1989. – pp. 69-74.

5. Sobirova D.A. The Concept of Development of Socio-Psychological Competence in the Activities of Medical Personnel. Bukhara: "Durdona", 2020 – pp. 96.

Ikromova Sitora Akbarovna
Doctor of Philosophy in Psychology (PhD),
International University of Asia

CONTENT OF PSYCHOPROPHYLACTIC WORK WITH ADOLESCENTS

Abstract. *Psychoprophylactic work focuses on the prevention of psychological issues and the promotion of mental health, particularly among vulnerable populations such as adolescents. This article explores the significance of psychoprophylactic interventions tailored for adolescents, highlighting their developmental challenges and psychological needs. By employing various strategies including psychoeducation, skill development, and emotional support, practitioners can foster resilience and enhance mental well-being in this age group. The article concludes with recommendations for implementing effective psychoprophylactic initiatives within educational and community settings.*

Keywords: *Psychoprophylaxis, adolescents, mental health, prevention, psychoeducation, resilience.*

O'SMIRLAR BILAN PSIXOPROFILAKTIK ISHNING MAZMUNI

Annotatsiya. *Psixoprofilaktik faoliyat psixologik masalalarning oldini olish va ruhiy salomatlikni ta'minlashga qaratilgan, ayniqsa o'smirlar kabi zaif populyatsiyalar orasida. Ushbu maqolada o'smirlar uchun moslashtirilgan psixoprofilaktik aralashuvlarning ahamiyati o'rganiladi, ularning rivojlanishdagi qiyinchiliklari va psixologik ehtiyojlari yoritilgan. Psixoeducation, mahoratni rivojlantirish va hissiy qo'llab-quvvatlash kabi turli strategiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali amaliyotchilar ushbu yosh guruhida o'zgaruvchanlikni kuchaytirishi va aqliy salohiyatni oshirishi mumkin. Maqola ta'lim va jamoatchilik sharoitlarida samarali psixoprofilaktik tashabbuslarni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.*

Tayanch iboralar: *Psixoprofilaktika, o'smirlar, aqliy salomatlik, oldini olish, chidamlilik.*

СОДЕРЖАНИЕ ПСИХОПРОФИЛАКТИЧЕСКОЙ РАБОТЫ С ПОДРОСТКАМИ

Аннотация. *Психопрофилактическая работа направлена на профилактику психологических проблем и укрепление психического здоровья, особенно среди уязвимых групп населения, таких как подростки. В данной статье исследуется значение психопрофилактических мероприятий, разработанных специально для подростков, с акцентом на их проблемы в развитии и психологические потребности. Используя различные стратегии, включая психообразование, развитие навыков и эмоциональную поддержку, практикующие специалисты могут повысить устойчивость и улучшить психическое благополучие в этой возрастной группе. В заключение статьи даются рекомендации по реализации эффективных психопрофилактических инициатив в образовательных и общественных условиях.*

Ключевые слова: *психопрофилактика, подростки, психическое здоровье, профилактика, психообразование, жизнестойкость.*

Introduction. Adolescence is a critical developmental period characterized by significant physical, emotional, and social changes. During this time, young individuals face numerous challenges that can affect their mental health and overall well-being. Issues such as peer pressure, academic stress, identity formation, and family dynamics often contribute to heightened vulnerability to psychological disorders. As such, there is an increasing need for effective psychoprophylactic work aimed at preventing these issues before they escalate.

The concept of adolescence is relatively new, having only been recognized in the United States starting in the late nineteenth century2 Previously, adolescents were essentially seen as "miniature adults."

However, we currently understand that development continues throughout the lifespan, meaning that teenagers are different from adults developmentally.

Specifically, decades of research have shown that adolescents undergo significant brain development, impacting their behavior and functioning during this phase. As a result, some key psychologists developed theories about adolescent development and the specific psychological needs of this age group.

Jean Piaget was a child psychologist who studied child and adolescent psychological development and provided insight into adolescent psychology.4

According to Piaget, adolescents transition from the "concrete operational stage" to the "formal operational stage." In the concrete operational stage, children understand logical thinking and understand that their perspective is not necessarily the only perspective.

During the formal operational stage, understanding of abstract thoughts develops, and the individual can grasp symbolism and develop and test hypotheses about the world around them.

However, not everyone can reach this stage: Piaget determined that only about one-third of adults are fully in the formal operational stage.

Erik Erikson also studied lifespan development, though his work emphasized ongoing development through adolescence and adulthood occurring in eight phases. Each phase seeks a healthy balance (or "competence") in handling specific tasks in each phase.

Adolescence overlaps with three of Erikson's phases:

Industry vs. Inferiority: Until approximately age 12, individuals develop their ability to overcome challenges and learn new skills.

Identity vs. Role Confusion: This occurs approximately between ages 12 and 18. This phase includes significant identity development and understanding one's sense of self, including gender identity, sexual orientation, political leanings, and religious beliefs. During this phase, many teens begin to question what they were taught by their parents, leading to challenges in the parent-child relationship as the teen develops a sense of autonomy.

Intimacy vs. Isolation: Starting at approximately age 18 and lasting into adulthood, individuals in this phase develop intimate relationships to avoid feelings of isolation.

Many teens begin to question what they were taught by their parents, leading to challenges in the parent-child relationship as the teen develops a sense of autonomy.

Psychoprophylaxis, derived from the Greek words "psyche" (mind) and "prophylaxis" (prevention), is a proactive approach focused on preventing mental health issues before they arise or become severe. When applied to adolescents, this method becomes particularly crucial, as this developmental stage is marked by significant psychological, emotional, and social changes. Psychoprophylactic work with adolescents aims to equip them with the tools and resilience needed to navigate these challenges, promoting long-term mental well-being.

A window of opportunity.

The rapid physical and cognitive development that marks adolescence creates a critical window of opportunity.

The adolescent brain develops at a rate unseen since early childhood – making girls and boys hypersensitive to influences in their environments. Adolescents' inclination to try new things can spark innovation and achievement, but it can also leave them vulnerable.

These are the years when gender roles may be solidified – with girls bearing the brunt of gender inequality.

Adolescents' prospects depend on the quality of their environments, relationships and experiences. The care and support they receive, the services they can access, the social norms that guide their communities, and the extent to which they can influence decisions that affect them all make a difference.

Aims to guide efforts to strengthen evidence-based programming for parenting of adolescents. Parents play an essential role in influencing how adolescents interact with the complex factors that shape their development. As children mature into adolescence, the parenting relationship evolves, and parents require new developmentally-appropriate skills and strategies to meet their children's needs. Building on parents' existing strengths and equipping them to provide support to their adolescent children through parenting programming has the potential to have a profound positive influence on adolescent development, consolidating and magnifying benefits from earlier investments.

The Importance of Psychoprophylaxis in Adolescence.

Adolescence is a period of identity formation, emotional upheaval, and social realignment. During this time, young people are vulnerable to a range of mental health issues, including anxiety, depression, substance abuse, and behavioral disorders. Early intervention through psychoprophylactic work can help mitigate these risks by addressing underlying issues before they escalate into more serious conditions.

Key Components of Psychoprophylactic Work with Adolescents

1. **Psychoeducation**:
   - **Objective**: To provide adolescents with accurate information about mental health, including common issues they may face and strategies to cope with them.
   - **Implementation**: Schools and community programs can integrate mental health education into their curricula, focusing on topics such as stress management, emotional regulation, and the importance of seeking help.
2. **Skill Development**:
   - **Objective**: To equip adolescents with practical skills to manage their emotions, relationships, and daily challenges effectively.
   - **Implementation**: Programs can teach skills like problem-solving, decision-making, assertiveness, and conflict resolution. Cognitive-behavioral techniques (CBT) are particularly useful in helping adolescents reframe negative thoughts and develop healthier coping mechanisms.
3. **Resilience Building**:
   - **Objective**: To foster resilience, which enables adolescents to bounce back from setbacks and maintain mental health in the face of adversity.
   - **Implementation**: Encouraging participation in extracurricular activities, community service, and peer support groups can help adolescents build a sense of competence, connectedness, and purpose. Mindfulness practices and stress management techniques can also enhance resilience.
4. **Family Involvement**:
   - **Objective**: To engage families in the psychoprophylactic process, recognizing their critical role in adolescent development.
   - **Implementation**: Family therapy, parent education programs, and open communication channels between parents and adolescents can help create a supportive home environment that reinforces the principles of psychoprophylaxis.
5. **Peer Support**:
   - **Objective**: To leverage the influence of peers in promoting positive mental health behaviors.
   - **Implementation**: Peer mentoring programs, group therapy sessions, and peer-led workshops can provide adolescents with relatable role models and a safe space to discuss their concerns. Encouraging a culture of empathy and mutual support among peers is essential.
6. **Early Identification and Intervention**:
   - **Objective**: To identify and address potential mental health issues early, preventing their progression.

- **Implementation**: Regular mental health screenings in schools, training teachers to recognize early signs of distress, and providing accessible counseling services are key strategies. Early intervention programs should be non-stigmatizing and easily accessible to encourage adolescents to seek help.

7. **Cultural Sensitivity**:

- **Objective**: To ensure that psychoprophylactic interventions are culturally appropriate and relevant to the diverse backgrounds of adolescents.
- **Implementation**: Mental health professionals should be trained in cultural competence, and programs should be adapted to meet the unique needs of different cultural groups. Understanding cultural norms, values, and communication styles is crucial in building trust and effectiveness.

Challenges in Psychoprophylactic Work with Adolescents

While the benefits of psychoprophylactic work are clear, several challenges can hinder its implementation:

- **Stigma**: Despite growing awareness, stigma around mental health remains a significant barrier to adolescents seeking help. Efforts to normalize discussions around mental health are essential.
- **Resource Limitations**: Many schools and communities lack the necessary resources, such as trained mental health professionals and funding, to implement comprehensive psychoprophylactic programs.
- **Engagement**: Adolescents may be resistant to participating in mental health programs, particularly if they perceive them as irrelevant or uninteresting. Tailoring programs to be engaging, interactive, and relevant to their lives is crucial.

Psychoprophylactic work involves proactive measures designed to equip individuals with the tools necessary to cope with life's challenges effectively. For adolescents specifically, this includes fostering resilience through skill-building activities that promote emotional regulation, stress management, and social interaction. This article delves into various aspects of psychoprophylactic interventions for adolescents while emphasizing their importance in enhancing mental health outcomes.

Psychoprophylactic work with adolescents is a vital component of fostering mental health and preventing the onset of more serious mental health conditions. By focusing on education, skill development, resilience building, and early intervention, these programs can equip young people with the tools they need to navigate the challenges of adolescence. However, to be effective, these efforts must be culturally sensitive, adequately resourced, and designed to engage adolescents meaningfully. As mental health continues to gain recognition as a critical aspect of overall well-being, the importance of psychoprophylactic work with adolescents cannot be overstated.

Conclusion.

In conclusion, psychoprophylactic work with adolescents plays a vital role in promoting mental health and preventing psychological issues during a tumultuous developmental stage. By addressing the unique challenges faced by this age group through targeted interventions such as psychoeducation and skill development programs, practitioners can help adolescents build resilience and navigate their formative years more effectively. It is essential for educators, parents, and mental health professionals to collaborate in creating supportive environments that facilitate these initiatives. As society continues to recognize the importance of adolescent mental health, investing in comprehensive psychoprophylactic strategies will be crucial in fostering a healthier future generation.

References.

1. Ikromova, S. A. (2024). Basics of psychological services. pedagog, 7(5), 670-676.
2. Akbarovna, I. S. (2024). The importance of pedagogical management in education. psixologiya va sotsiologiya ilmiy jurnali, 2(4), 40-46.
3. Akbarovna, I. S. (2024). Psixologik xizmat asoslari. psixologiya va sotsiologiya ilmiy jurnali, 2(4), 54-60.
4. Akbarovna, I. S. (2024). Stages of psychological consultation. pedagog, 7(4), 328-334.
5. Икромова, С. А. (2023). Факторы формирования иммунитета к деструктивным идеям у подростков. European research, (3 (81)), 47-49.
6. Ikromova, S. (2024). Pedagogik texnologiya shakllari va mazmuni. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 918-924.
7. Ikromova, S. (2024). Forms and content of pedagogical technology. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 933-939.
8. Akbarovna, I. S. (2024). Mastering the basics of pedagogical skills. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 882-887.
9. Akbarovna, I. S. (2024). Pedagogik mahorat asoslarini o'zlashtirish. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 888-893.
10. Akbarovna, I. S. (2024). The importance of forming mathematical concepts. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 912-917.

Jalilova Saboxat Xalilovna
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti
Psixologiya fanlari nomzodi
E-mail.jalilova_s @mail.ru

AUTISTIK SPEKTRDAGI BUZILISHLARI BOR BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN PSIXOKORREKSION ISHLARNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada autistik spektrdagi buzilishlari bor bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion tadbirlarga bag'ishlangan bo'lib, unda autizm fenomenining mohiyati, uning belgilari talqiniga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, maqolada autistik spektrdagi buzilishlari bor bolalar bilan olib boriladigan psixologik korreksiya ishlari mohiyati ham ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *autizm, autistik spektrdagi buzilishlar, autistik buzilishlar spektri belgilari, emosional-irodaviy rivojlanishdagi buzilishlar, kognitiv rivojlanishdagi buzilishlar, simptomokomplekslar, differensiallashgan psixokorreksiya, xulq-atvor terapiyasi.*

ОСОБЕННОСТИ ПСИХОКОРРЕКЦИОННОЙ РАБОТЫ С ДЕТЬМИ С РАССТРОЙСТВАМИ АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА

Аннотация. *Данная статья посвящена психокоррекционной деятельности с детьми с расстройствами аутистического спектра, в которой рассматривается сущность явления аутизма и трактовка его симптомов. А также в статье раскрывается сущность психокоррекционной работы с детьми с расстройствами аутистического спектра.*

Ключевые слова: *аутизм, расстройства аутистического спектра, симптомы спектра аутистических расстройств, нарушения эмоционально-волевого развития; нарушения когнитивного развития, симптомокомплексы, дифференцированная психокоррекция, поведенческая терапия.*

FEATURES OF TAKING BORI-LADIGAN PSYCHOCORRECTIONAL WORK WITH CHILDREN WITH DISORDERS OF THE AUTISTIC SPECTRUM

Abstract. *This article is devoted to psychocorrectional activities with children with autism spectrum disorders, which examines the essence of the phenomenon of autism and the interpretation of its symptoms. The article also reveals the essence of psychocorrectional work with children with autism spectrum disorders.*

Keywords: *autism, autism spectrum disorders, symptoms of the autism spectrum, disorders of emotional-volitional development; disorders of cognitive development, symptom complexes, differentiated psychocorrection, behavioral therapy.*

Kirish. Bugungi kunda har tomonlama sog'lom, barkamol, intellektual salohiyatga ega, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash ishiga jamiyatimizda katta e'tibor berilmoqda. Chunki shaxsning aqliy qobiliyati qanchalik yuqori bo'lsa, yangiliklar yaratish, bilimlarni o'zlashtirish uchun samarali faoliyat yurita oladi. Shu sababli ham mamlakatimizda yosh avlodning bilimli bo'lishini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish uchun keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Darhaqiqat, mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlar ta'lim-tarbiyasiga oid isloxotlar tufayli yurtimiz kelajagi uchun yuksak intellektual, ma'naviy ahloqiy salohiyatga ega, sog'lom e'tiqod va tafakkur qilishga qodir bo'lgan yoshlarni tarbiyalash ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bolalarga to'laqonli ta'lim-tarbiya berishda albatta ularning psixik salomatligi, ruhiy holati, rivojlanish darajasi inobatga olinishi talab yetiladi. Ming afsuski, jamiyatda psixik jihatdan sog'lom bolalar bilan bir qatorda turli sindromli bolalar ham uchrab turadi. Lekin jamiyat alohida ta'lim-tarbiyaga muhtoj bolalarni ham e'tibordan chetda qoldirmay, ularning rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratish ustida doimiy ravishda g'amxo'rlik qilib boradi. Mana shunday alohida e'tiborni talab qiluvchi bolalar qatoriga autizmga chalingan bolalarni ham kiritish mumkin.

Butunjaxon sog‘liqni saqlash tashkilotining ko‘rsatmasi bo‘yicha har 160 nafar bolaning birida autistik spektrdagi buzilishlar (ASB) kuzatiladi. Afsuski, autizm sindromi hali chuqur o‘rganilmagan va uning diagnostikasi ko‘p davlatlarda rivojlanmagan. O‘zbekistonda ASB haqidagi ma’lumotlar so‘nggi yillardagina tarqala boshladi. O‘zbekistonda autizm psixik kasalliklar ro‘yxatiga 2010 yili rasman kiritilgan.

“Autizm” yunoncha “Autos” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘zim” degan ma’noni bildiradi. Bu sindromga chalingan bolalar uchun xarakterli jihat - ular tashqi olam bilan bog‘liq bo‘lgan kommunikativ munosabatlarga kirishishga qiyinchiliklarni his qiladilar va o‘z dunyolarida yashashni ma’qul deb biladilar. V.P.Osipov autizimni “Bemorlarning tashqi dunyodan ajralishi” deb ta’riflagan [Osipov 1923]. V.A.Gilyarovskiy esa autizm “Men” ning va butun atrof-muhitga nisbatan adekvat ongning buzilishi, deb hisoblagan.

“Autizm” atamasi birinchi marta nemis psixiatri Eugen Bleuler tomonidan 1911 yilda murojaatga kiritilgan. Bu davrda bolalardagi autizm spektrli buzilishlar shizofreniyaning ilk belgilari deb qabul qilingan va aqli zaiflik deb hisoblangan. Bir asr davomida “autizm“ atamasi psixiatriyada: tanho turmush tarzi va unga og‘riqli sho‘ng‘ish, o‘z-o‘zini anglashning buzilishi, shaxsning extiyoji yo‘qligi va qo‘shimcha ravishda psixologik himoya usuli sifatida keng miqyosda ishlatilgan. Lekin 1943 yil amerikalik bolalar psixiatri Leo Kanner erta bolalik autizmi sindromi haqida ma’lumotlar bergan. Va bu aqli zaiflik emas, balki umuman boshqa sindrom ekanligini isbotlagan.

Metodika. ASB bolalar diagnostikasi uning belgilariga qarab amalga oshiriladi. Autistik buzilishlar spektri turli yosh davrlarida o‘zining belgilariga ega bo‘ladi.

Ilk bolalalik davrida: 16 oyligida alohida so‘zlarning mavjud emasligi; 2 yoshida 2 ta so‘zdan tashkil topgan jumlalar tuza olmaslik; 12 oyligida noverbal kommunikatsiya o‘rnata olmaslik (ko‘rsatgich barmog‘i bilan nima xohlashini ko‘rsatish); nutqiy va ijtimoiy qobiliyatlarning yo‘qolishi.

Maktabgacha bo‘lgan davrda: nutqning shakllanmaganligi yoki kechikishi; o‘zgacha vizual kontakt (kam, qisqa yoki uzoq va harakatsiz, ko‘zga qaray olmaslik, asosan periferik kontaktning mavjudligi; taqlid qilishdagi qiyinchiliklar;

o‘yinchoqlalarni bir xil uslubda o‘ynash, ijodiy o‘yinning kuzatilmasligi; emosiyalarni tushunmaslik; sensor ta’sirlarga o‘zgacha reaksiya.

Maktab yoshi davrida: insonlarga qiziqishning yo‘qligi, tengqurlariga befarqlik; jonsiz predmetlarga qiziqish; birovning yupatishi yoki dalda berishiga muhtoj emasligi; dialogga kirisha olmaslik; kreativlik va fantaziyani ishlatilishi talab qilinmaydigan ishlar bilan band bo‘lib qolishi; kunlik tartibdagi o‘zgarishlarga kuchli negativ reaksiya.

Psixokorreksiya. Erta bolalik autizmi psixika rivojlanishining buzilishi hisoblanadi. Autist bolalar bilan ishlash uchun psixokorreksion dasturni tuzishda bolaning kognitiv, affektiv-patologik, emosional-irodaviy sohalarning rivojlanish darajasi, uning individual spesefik va motivasion funksiyalarini hisobga olish shart.

Simptomokomplekslarni inobatga olganda autizmga chalingan bolalar ikki guruhga bo‘linadi:

1) Emosional-irodaviy rivojlanishidagi buzilishlar;

2) Kognitiv rivojlanishidagi buzilishlar.

Psixologik korreksiyani har xil turlari mavjud, lekin autizmga chalingan bolalarda asosan psixologiyadagi ikkita nazariy yo‘nalish samaraliroq hisoblanadi va psixologik maktablarda psixoanalitik va xulq-atvor nazariyalari keng qo‘llaniladi.

Psixoanaliz pozitsiyasidan qaraganda, erta bolalik autizmi, bolaning atrofidagilari bilan bo‘lgan muammo va konfliktlari yuz bergani uchun paydo bo‘ladi. Psixoanalitiklar kuzatuviga qaraganda autist bolalarning onalari uyda dominant, qattiqqo‘l, his-tuyg‘ularini deyarli ko‘rsatmaydigan, o‘zi passiv bo‘lgani uchun bolaning aktivligini to‘sadigan ayollar hisoblanadi. Ularning fikricha, sovuqqon ota-onalardan bunday xislatlari nasldan-naslga o‘tib, tarbiya jarayonlarini qiyinlashtiradi (Krevelen,1963). Bu fikrlar ko‘plab bahslarga sabab bo‘lgan va o‘tgan asrning 50 yillarida muallif tomonidan rad etilgan. Lekin shunga qaramay ko‘p mutaxassislar tomonidan qo‘llab kelinadi.

Autist bolalar bilan bajariladigan psixokorreksion mashg‘ulotlar o‘ziga xos qiyinchiliklarga ega. Birinchidan, autizm har doim bir xil simptomlar bilan namoyon bo‘lmaydi. Bundan tashqari autizmning turlarini psixologik korreksiyasi o‘ziga xos masalalarni hal qilishni talab etadi. Ikkinchidan, autistik xulq-atvorning erta namoyon bo‘lishi va uning rivojlanish dinamikasi ham har bir bola bilan ishlashning individual usulini topishni talab qiladi. Uchinchidan, bolaning affektiv patologiyasining og‘ir darajalari, uning muloqotga kirishmasligi, oila a’zolarining psixologik holatiga negativ ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham psixokorreksion jarayonga bolaning yaqinlari ham taklif etiladi.

Psixolog o‘zi uchun boladagi rivojlanishning affektiv buzilishi darajasi, autizmning shakli, autostimulyasiyaning turi, atrofdagilar bilan munosabatga kirishish darajasini aniqlab olishi kerak. Ko‘rish va eshitish-motor koordinatsiyasi, jonlanib ketish reaksiyasi, predmetlarni kuzatishi va manipulyativ faoliyatini xam aniqlab olishi kerak.

Rivojlanishida muammolari bor bolalar uchun 3 xil psixokorreksiya usullaridan foydalanish mumkin: umumiy, maxsus va differensiallashgan psixokorreksiya. Umumiy psixokorreksiya bolaning real va potensial psixofizik imkoniyatlarini hisobga olgan holda uni ijtimoiylashuviga yordamga qaratiladi. Bunda psixolog faqat bolaning o‘zi bilan emas, balki uning yaqinlari bilan ham shug‘ullanib, bolaga qanday muomilada bo‘lish kerakligini, uni nimalardan himoyalash kerakligini va uning vaqtini qanday taqsimlab, u bilan qanday o‘yinlarni o‘ynash kerakligi haqida ma’lumot berishi kerak.

Maxsus psixokorreksiyada, bolaning affektiv dezadaptatsiya darajasi, intellekt darajasi, yetakchi faoliyatga qarab dastur tuziladi, o‘yin terapiyasi, oilaterapiyasi, musiqaterapiya, art-terapiya yordamida, aynan shu boladagi buzilishlarga konkret ta’sir ko‘rsatiladi.

Differensiallashgan psixokorreksiya boladagi kliniko-psixologik, individual-tipologik va psixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda undagi xulq buzilishlarni to‘g‘rilashga qaratiladi.

Yuqoridagi psixokorreksiya turlari bir-biri bilan bevosita bog‘liq. Psixokorreksion jarayonning samaradorligi psixologning psixokorreksion dasturni mohirona tuzishiga bog‘liq.

Psixolog bolaga psixologik yordam ko‘rsatish bilan birga, ota-onaga ham o‘z farzandini qanday bo‘lsa shunday qabul qilishni o‘rgatishi, uning kuchli taraflarini ochib berishi, bolaning imkoniyatlarini adekvat baholash, uni sevish va umidini so‘ndirmaslikni o‘rgatadi.

Autizmga chalingan bolalar qo‘zg‘aluvchan, impulsiv va xaotik harakatlar bajarganlari sababli, o‘zlariga bevosita zarar yetkazib qo‘ymasliklari maqsadida, mashg‘ulotlar maxsus jihozlangan xonada o‘tilishi shart. Yoritgichlar juda ham yorqin bo‘lmasligi kerak. Polga gilam yoki palos to‘shalgan bo‘lishi shart. O‘tkir, og‘ir, qirrali predmetlardan holi bo‘lib, hatto mebellarni ham iloji boricha joiga mustahkamlab qo‘yish kerak. Bolaning diqqatini chalg‘itmaslik uchun o‘yinchoqlarni kamaytirish kerak.

Xulosa va tavsiyalar. Autist bolalar o‘zgarishlarni yoqtirmasliklarini inobatga olgan holda, psixokorreksiya mashg‘ulotlari har doim bir vaqtda, bir joyda o‘tkazilishi shart.

Xulq-atvor terapiyasida bolaning xulqidagi og‘ishlar bilan ishlanadi. Autizmga chalingan bolalar xulqi bilan ishlayotganda quyidagilarni yodda tutish tavsiya etiladi:

1. Autizm bu muloqotdagi buzilishlar emas, bu bilish jarayonidagi buzilishlar.

2. Etiologiya va patogenezi hozircha noma’lum bo‘lgani uchun autizmni kelib chiqish sababini tahmin qilib bo‘lmaydi.

3. Xulq-atvor terapiyasini faqatgina mutaxassislar emas, balki bolaning atrofidagilarga ham o‘rgatib, ular ham bajarishini ta’minlab berish kerak.

ASB bolalar psixokorreksiyasini o‘zini tutishdan boshlash kerak. Bolaga taqlid qilishni o‘rgatib, uning har bir harakatini taqdirlash kerak. Har bir vazifani bajarishda unga yordam berib turish shart. Sekin-astalik bilan vazifalarni murakkablashtirib, yordam esa kamaytirib boriladi. Korreksiyaga ota-ona va boshqa farzandlarni ham jalb qilish muhim, chunki bu bolaning yaqinlari bilan muloqot qilishini osonlashishiga yordam beradi.

Adabiyotlar.

1. Анат Баниель. Дети с неограниченными возможностями. Метод пробуждения мозга для улучшения жизни особых детей. М.,2019.

2. Лютова Е.К., Монина Г.Б. Шпаргалка для взрослых: Психокоррекционная работа с гиперактивными, агрессивными, тревожными и аутичными детьми.-М.:Академия, 2000.-190 с.

3. Мамайчук И.И. Помощь психолога детям с аутизмом.-СПб.:Речь,2007.-288 с.

Kalillayeva Ulbosin Ayapbergenovna
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,
Nukus filiali Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar fa'nlar kafedrasi assistent o'qituvchisi

DEVIANT XULQ-ATVORLI O‘SMIR SHAXSIDA KASB TANLASH MOTIVATSIYASI SHAKLLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Jahonda deviant xulq-atvorli o’smirlarda kasbiy bilimlarini shakllantirish, mehnatning yuqori sifatli va samarali bajarilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba va individual faoliyat uslubiga ega bo‘lgan, shuningdek, muayyan ixtisoslik kompetentsiyasiga, o‘z-o‘zini tashkil etish qobiliyatiga, javobgarlik va o’ziga ishonchga ega bo‘lgan xodimni tarbiyalash, ularda o‘z tanlagan sohasida yuqori professional mahoratni egallash uchun zaruriy kasbiy sifatlarni rivojlantirishni ta’minlash bo‘yicha o‘ziga xos konsepsiyalar ishlab chiqilmoqda hamda mazkur muammolarni o‘rganish bo‘yicha empirik tadqiqotlar olib borilmoqda.*

Kalit so‘zlar: *deviant xulq-atvor, ijodkorlik, kasbiy bilim, mahorat, psixologik rivojlanish,qobiliyat, kasbiy sifat, pedagogik improvizatsiya.*

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ МОТИВАЦИИ ВЫБОРА ПРОФЕССИИ В ЛИЧНОСТИ ПОДРОСТКА С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ

Аннотация. *В мире подростки с девиантным поведением обладают знаниями, умениями, квалификацией, опытом и индивидуальным стилем деятельности, необходимыми для формирования профессиональных знаний, качественного и эффективного выполнения работы, а также определенными специализированными компетенциями. разрабатывается с целью воспитания у работника способности к самоорганизации, ответственности и уверенности в себе, обеспечения развития профессиональных качеств, необходимых ему для приобретения высоких профессиональных навыков в избранной области, и проводятся эмпирические исследования для изучения этих проблем.*

Ключевые слова: *девиантное поведение, креативность, профессиональные знания, умение, психологическое развитие, способности, профессиональные качества, педагогическая импровизация.*

DISTINCTIVE FEATURES OF THE FORMATION OF MOTIVATION FOR CHOOSING A PROFESSION IN THE PERSONALITY OF A TEENAGER WITH DEVIANT BEHAVIOR

Abstract. *In the world, teenagers with deviant behavior have the knowledge, skills, qualifications, experience and individual style of activity necessary for the formation of professional knowledge, high-quality and effective performance of work, as well as certain specialized competencies. is developed with the aim of instilling in the employee the ability to self-organize, responsibility and self-confidence, ensuring the development of the professional qualities necessary for him to acquire high professional skills in the chosen field, and empirical research is conducted to study these problems.*

Key words: *deviant behavior, creativity, professional knowledge, skill, psychological development, abilities, professional qualities, pedagogical improvisation.*

Kirish. Jahondagi har bir mamlakatda o‘zgarib borayotgan turli xil vaziyat tufayli deviant xulq-atvorli o`smirlarni ma’lum bir kasblarga yo‘naltirish, o‘zini-o‘zi anglash, o‘z kasbini muvaffaqiyatli bajarishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni yetishtitrish masalasiga

jiddiy diqqatni qaratish, mutaxassis tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalariga zamon talablariga mos kasbiy sifatlarga ega xodimni tarbiyalash talabini qo‘yadi. YUNESKO statistika instituti (YuIS) ma'lumotlariga ko‘ra, «2030 yilga borib butun dunyo bo‘ylab boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta'limni ta'minlash uchun 69 milliondan ortiq sifatli pedagoglarga ehtiyoj yuzaga keladi· Bu borada oliy ta'lim muassasalari tizimida kasbga tayyorlash, yo'naltirish faoliyatini isloh qilishning yuqori darajasini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak axloqiy-ma'naviy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion ta'lim texnologiyalariga tayangan holda o'smirlarni kasbga tayyorlash usullarini tadqiq etish dolzarb muammo hisoblanmoqda.

Respublika ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyoti uchun eng muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxs tarbiyasi va uni ijtimoiy-psixologik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirish shu sohaga daxldor barcha sohalar tizimlariga yanada ko‘proq mas'uliyat yuklaydi. Bu masala, eng avvalo, kadrlar salohiyatiga jiddiy e'tibor qaratishni, o‘sib kelayotgan yosh bunyodkor avlodning kasbiy tayyorgarligini va kasb tanlashga munosabat jarayonini jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy–iqtisodiy talablari asosida to‘g‘ri tashkil etishni taqozo etadi. Qolaversa, Respublikada izchillik bilan amalga oshirilayotgan «Ta'lim to‘g‘risidagi qonun» ushbu masalaning o‘ziga xos yechimlarini izlashda muhim o‘rin tutmoqda. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Aynan ushbu shaxs sifatlarini rivojlantirish va to‘g‘ri yo‘naltirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda.

Metodologiya. Deviant xulqli o`smirlarda kasbiy motivlar shakllanishining psixologik tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etishda turli xil yondashuvlar, ilmiy xulosalar va maxsus metodologiya mavjud bo‘lib, ular kasb tanlash, kasbiy ta'lim, kasbiy motivlar, kasbiy faoliyat, proforientatsiya, kasbiy motivlar shakllanishi haqida qarashlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Bu doiradagi ilmiy tadqiqotlarning ko‘pchiligida kasbiy rivojlanish uzoq muddatli va bir necha bosqichli jarayon ekanligi qayd qilinadi. Shuningdek, bu tadqiqotlarda har bir bosqich mehnat faoliyatini samarali boshqarishga xizmat qiluvchi psixik yangilanishga ega, degan mulohaza mujassamlashgan.

A.G. Asmolovning qarashlariga tayanib aytish mumkinki, shaxs mutaxassis sifatida shakllanishi davridayoq yashovchanlik ko‘rsatkichlaridan boxabar bo‘lishlari muhimdir. Uning fikricha, yashovchanlik ikki xil ko‘rinishga ega bo‘ladi: shaxsning yashovchanligi va kasbning yashovchanligi. Olim shaxs yashovchanlik sifatlariga quyidagi ko‘rsatkichlarni kiritadi:

1. Shaxs xususiyatlariga munosib kasb tanlash.
2. Bajarayotgan ishga qo‘yilgan talablarga yuqori darajada tayyorlik.
3. Hayoti davomida talim olish va o‘rganishga tayyorlik.
4. Madaniyatliligi, o‘zga kishilar qadr-qimmatini, farqlarini qabul qila bilish.
5. Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishni bilish.
6. Bir necha sohalarda kasbiy mahoratni namoyish qila olishi.
7. Yangi loyihalar taqdim qilish tashabbusiga ega bo‘lish.
8. Ishda hamkasblar bilan hamkorlikda ishlash ko‘nikmasiga egaligi.

A.G.Asmolov kasbning yashovchanlik ko‘rsatkichlariga quyidagilarni kiritadi:

1. Kasbning tashkilot maqsadlari bilan chambarchas bog‘liqligi.
2. Boshqa muassasa va ishlab chiqarish sohalari bilan uyg‘unlashish imkoniyati.
3. Boshqa kasblarda o‘z kompetentliligi va qobiliyatlaridan foydalanish imkoniyati.
4. Shaxsiy va moliyaviy taminlanganlik.
5. Kasb bo‘yicha shaxslar uyushmasining mavjudligi.
6. Mahoratga yetaklovchi bilimga egalik.
7. Yoshidan qati nazar kasbiy muvaffaqiyatlarda mustaqil bo‘lish .

Shuningdek, yuqoridagi ikkita yashovchanlik ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda quyidagi ko‘rsatkichlarni ham keltirib o‘tish joiz: tanlangan ishlab chiqarish sohasining

“yashovchanligi”, “tashkilotning yashovchanligi”, “ishchi o‘rnining yashovchanligi”. Bundan tashqari, kasbiy rivojlanish nazariyalari borasidagi tahlillarimiz xorijiy psixologiyada metodologik asos sifatida xizmat qiluvchi konsepsiyalarni e’tirof etishimizga olib keldi.

XX-asrning boshlarida Amerika va Yevropa mamlakatlarida mehnat mahsuldorligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash jarayonida yuzaga kelgan bo‘lib, buning natijasida psixologiyaning insonparvarlik g‘oyalarini singdirish yuz berdi va natijada shaxs to‘g‘risida zamonaviy nazariyalari vujudga keldi. Bunday bog‘liqlik shaxs nazariyasi bilan kasbiy rivojlanish psixologiyasi o‘rtasida aloqa o‘rnatishga olib keldi. Oqibatda kasbiy rivojlanish muammolarini o‘rganishga turlicha yondashadigan beshta asosiy yo‘nalishi shakllandi. Bular:

1) differensial diagnostik;
2) psixoanalitik;
3) qaror qabul qilish nazariyasi;
4) taraqqiyot nazariyasi va
5) tipologik yo‘nalishlardir.

Avstriyalik olim Z.Freydning fikricha, motivlar manbai tur va individning saqlash instinkti hisoblanadi. Insonning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiylashuvi nuqtai nazaridan yondashishni talab etsa, u holda ongsizlik va onglilik munosabati o‘zaro bir –birini taqozo qiladi.

Bixeviorizmning asoschisi Dj.Uotson psixologiyaning asosiy vazifasi xulq motivlarini tadqiq qilishdan iborat deb tushuntirishga harakat qiladi. U psixik holatlarni tekshirishdan voz kechib, xulqni ichki va tashqi shakllarga ajratdi va ular stimul bilan javob sifatida bevosita o‘zaro bog‘langandir. Dj.Uotson uchun "xulq motivatsiyasi" asosiy tushunchaga aylanadi, buning oqibatida uning psixika bilan aloqasi odatiy narsa deb baholanadi.

V.Mag-Daugall motivlarni tug‘ma xususiyatini asoslashga, tug‘ma instinkt bilan uni qiyoslashga intiladi. Buning uchun muallif oldin 14 ta, keyinchalik esa 18 ta inson instinktlari hukm surishini ajratib ko‘rsatadi va ularni sharhlab beradi. Uning qarashlari o‘zgarishga yuz tutgan bo‘lishiga qaramay, bu sohaga oid talqinlar qolaveradi.

X.Xekxauzenning motivlarning kengaytirilgan modelini yaratdi, bunda muhokama qilingan motivatsiya mezonlarining aksariyati hisobga olingandir. Xekxauzen modelida harakatni izohlash maqsadida to‘rtta o‘zaro farq qiluvchi tushuncha kiritiladi, natija (mahsuli), oqibat.

Mashhur psixologlarning faoliyatga psixologik tayyorgarligi sohasidagi tadqiqotlar bilan bog'liq (B.G.Ananyev - L.S.Vygotskiy, N.I.Gutkina, G.Kreyg, L.E.Loskutov, V.M.Pozdnyakov, K.K.Platonov, S.L.Rubinshteyn, A.M.Yarnya, A.M.Yarnya) ishlariga asoslanib. S.N.Chistyakova, L.A.Yasyukova va boshqalar), o'smirlik davrida kelajakdagi ta'lim profili va kasbini ongli ravishda tanlashga psixologik tayyorgarlik, yosh ushbu tayyorgarlikning axborot, motivatsion-qiymatli va amaliy tarkibiy qismlarining shakllanishi bilan belgilanadi.

Deviant xulq-atvorli o`smirlarni mazmunli o'quv faoliyatiga tayyorlashning asosiy texnologiyalari sifatida o'qituvchilar quyidagi me`zonlarga e'tibor berishlari lozimdir:

- vazifaga asoslangan yondashuv, bu maktabda o'rganilayotgan har qanday material kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan bog'liq turli yo'llar bilan bog'liq bo'lgan vazifalar shaklida taqdim etilishidan iborat;

- o'quv dialogi deviant xulq-atvorli o`smirlarni shaxsga yo'naltirilgan muloqotga tayyorlash usuli sifatida namoyon bo`lishi.

o'quv muloqoti texnologiyasi ishtirokchilarning muloqotga tayyorligini baholash, guruh muloqoti texnologiyasi va an'anaviy materialni dialogik shaklga tarjima qilish bilan bog'liqligi;

- deviant xulq-atvorli o`smirlarda o'rganishning o'ziga xos o'yin ma'nosi (o'zini ifoda etish, ijodkorlik, ijodkorlik) sharoitida shaxsiy funktsiyalarini amalga oshiradigan vaziyatni yaratishga tayyorlash bilan bog'liq o'quv simulyatsiya o'yini.

Deviant xulq-atvorli o`smirlarning o'rganish motivatsiyasiga quyidagilar to'sqinlik qiladi:

- boshqa fanlarni o'zlashtirishga zarar yetkazadigan ba'zi o'quv fanlariga doimiy qiziqish;
- o'quv faoliyati shakllarining monotonligidan norozilik,
- o'quv faoliyatining ijodiy va muammoli-qidiruv shakllarining yo'qligi,
- o'qituvchi tomonidan qat'iy nazorat shakllariga salbiy munosabat;
- hayot yo'lini tanlash uchun situatsion motivlarni saqlash (masalan, do'st bilan o'xshashlik);
- to'siqlarga duch kelganda ijtimoiy sabablarining yetarli darajada barqaror emasligi.

Ijtimoiy motivlar deviant xulq-atvorli o`smirlar tomonidan kognitiv motivlar kabi emas, balki tan olinadi va baholanadi, bu ularning boshqa o`quvchilar orasida ham yetarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

Deviant xulq-atvorli o`smirlarning yoshiga xos bo'lgan maqsadlarni shakllantirish jarayonlarining zaifligi shundan iboratki, ular maqsadlarni tanlashda asosiy maqsadlarni ikkinchi darajali maqsadlar bilan birlashtira olmasligini ko`rsatadi, buning natijasida u o'z e'tiborini bir nechta maqsadlarga taqsimlay olmaydi. Ko'pgina deviant xulq-atvorli o`smirlar har doim ham jamiyat talablariga va o'z imkoniyatlariga javob beradigan uzoq muddatli maqsadlarni belgilashga tayyor emaslar, shuning uchun kasb tanlashda tez-tez xatolarga yo'l qo'yishadi.

Xulosa. Yuqoridagilardan келиб чиқиб, deviant xulq – atvorli o`smirlarda kasb motivatsiyasi shakllanishining ilmiy-nazariy tahlili bayon etildi. Shuningdek bunday o`smirlarda kasb motivatsiyasi shakllanishi va uni tadqiq qilish uslubi aniqlandi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu muammo bo‘yicha nazariy jihatdan olib borilgan tadqiqotlar tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar, bugungi kunda kasb motivatsiyasi shakllanishi muammosi, o‘zining nazariy−metodologik bazasiga ega ekanligini ko‘rsatsa-da, aynan mavzu doirasidagi tadqiqotlarning yetarli emasligi va dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Jahon psixologiyasida shaxsning kasbiy shakllanishi borasidagi izlanishlardagi xilma-xillik hali ham mazkur masala yuzasidan yakuniy xulosa chiqarish imkonini bermaydi.

2. O‘zbekistonda kechayotgan bugungi keng ko‘lami ijtimoiy – iqtisodiy islohatlar, beto‘xtov shakllanayotgan bozor munosabatlari, fan, texnika va ishlab chiqarishning keskin rivojlanishiga javob bera oluvchi jamiyat va shaxs ehtiyojlarining o‘zaro uzviy mutanosibligiga erishish uchun ham deviant xulqli o‘smirlarda kasb tanlashga nisbatan faol – ijobiy munosabat motivasiyasi tizimini shakllantirishda jamiyat va jamoatchilik ta’sirini kuchaytirish lozim bo‘ladi.

3. Deviant xulqli o`smirlarda kasb tanlashga munosabatning shakllanish jarayonini yanada chuqurroq tahlil qilish va uning o‘ziga xos bo‘lgan ijtimoiy psixologik xususiyatlarni aniqlashga yo‘naltirilgan tadqiqotlar asosida ochib berish, kasbiy faoliyatga xizmat qiluvchi omillar haqida batafsilroq ilmiy xulosalar yuritish imkonini beradi.

4. Deviant xulqli o`smirlarda shaxsida kasb motivatsiyasini faoliyat samaradorligiga ta’siri va ahamiyatini tadqiq qilish ijtimoiy psixologiya fani uchun yangi ilmiy ma’lumotlarni taqdim etishga xizmat qiladi.

5. Deviant xulqli o`smirlarda shaxsida kasb motivatsiyasi shakllanishini o‘rganish va tadqiq qilish masalasi ijtimoiy - psixologiya uchun muhim bo‘lgan muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar.

1. Айзенк Г.Ю. Понятие и определение интеллекта// Вопросы психологии. – М.: 1995, – № 1. – С. 111-129.

2. Айзенк Г.Ю. Интеллект: новый взгляд// Вопросы психологии. – М.: 1995. – № 1. – С. 111–131.

3. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта // Психология мышления / Под ред. А.М. Матюшкина. – М.: 1965. – С 433 -456.

4. Дружинин В.Н. Психологическая диагностика способностей: теоретические основы: в 2 ч. – Саратов : Изд-во Сарат. ун-та, 1990 – Ч.1 –137 с; Ч. 2-С. 139-292.

5. Rogers, C. Towards a theory of creativity // ETS: A Review of General Semantics. 1954. 11 P. 249-260.

6. Sternberg R.J. Creativity for the new Millennium. «-», 2001.

7. Ғозиев Э.Ғ. Усмонова Ш. Интеллект психологияси. – Т.: ТошДУ, Университет, 1996, – 48 б.

8. Ғозиев Э.Ғ. Онтогенез психологияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 2010, – 360 б.

UDK15: 371.044.4(045)

Karimov Xolmurod
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi
dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ELIMINATION OF DEPENDENCE TO THE VIRTUAL WORLD IN THE BEHAVIOR OF MINORS

Annotation. *The article studies the socio-psychological features of eliminating addiction to the virtual world in the behavior of minors. They spoke about the theoretical and practical aspects of this problem, about the scientific research carried out by scientists in our country in this direction. The article also analyzes the concepts of the virtual world, information and psychological security, their essence, and important issues of protecting young people from harmful information.*

Key words: *personality, youth, globalization, information, information and psychological security, moral threat, virtual world, addiction, defense mechanism.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЛИКВИДАЦИИ ЗАВИСИМОСТИ К ВИРТУАЛЬНОМУ МИРУ В ПОВЕДЕНИИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

Аннотация. *В статье изучаются социально-психологические особенности устранения пристрастия к виртуальному миру в поведении несовершеннолетних. Рассказывалось о теоретических и практических аспектах этой проблемы, о научных исследованиях, проводимых учеными нашей страны в этом направлении. Также в статье анализируются понятия виртуального мира, информационно-психологической безопасности, их сущность, важные вопросы защиты молодежи от вредной информации.*

Ключевые слова: *личность, молодежь, глобализация, информация, информационно-психологическая безопасность, моральная угроза, виртуальный мир, зависимость, механизм защиты.*

VOYAGA YETMAGANLAR XULQ-ATVORIDA VIRTUAL OLAMGA QARAMLIKNI BARTARAF ETISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada voyaga yetmaganlar xulq-atvorida virtual olamga qaramlikni bartaraf etishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Unda mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada mamlakatimiz olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so‘z borgan. Shuningdek, maqolada virtual olam, axborot-psixologik xavfsizlik tushunchalari, ularning mazmun-mohiyati, yoshlarni zararli axborotlardan saqlashning muhim masalalari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, yoshlar, globallashuv, axborot, axborot-psixologik xavfsizlik, ma’naviy tahdid, virtual olam, qaramlik, himoya mexanizmi.*

Kirish. Ma’lumki, butun yer yuzida XXI asrda insoniyat sivilizatsiyasida yangi rivojlanish davri - axborotlashgan jamiyat davri boshlandi. Bunda informatsion telekommunikatsiyaning jadal rivojlanishi, axborot texnologiyalarni tezkor tarqalishi, jamiyat rivojlanish jarayonlarining globallashuvi yuz berayotganligi hech kimga sir emas. Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kunda bashariyat axborot oqimi tobora tezlashgan, yer shari aholisi kayfiyatini, ruhiyatini, maqsad va intilishlarini, qolaversa, butun tafakkur tarzini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan axborot texnologiyasi vujudga kelgan bir davrda yashamoqda, desak xato aytmagan bo‘lamiz. Buni hozirgi zamon sivilizatsiyasining o‘ziga xos yutug‘i ham deb hisoblash mumkin. Bunday munosabatlar yer yuzidagi xalqlar, turli mamlakatlar, davlatlar

o‘zaro munosabatlarini tobora yaqinlashtirishga, jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini boshqarishga, dunyoviy kayfiyat, dunyoviy ruhiyat va maslakning vujudga kelishiga xizmat qiladigan mo‘jizakor hodisa sifatida qaralmoqda. Biroq sivilizatsiyaning ana shunday ulkan, keng miqyosli va serqirra yutug‘idan hamma har xilda foydalanayotganligi, beqiyos va qudratli kuch faqat bunyodkorlik ishlarida emas, ba’zida salbiy maqsadlarni ko‘zlab ham amalga oshirilayotganligi hech kimga sir emasdir.

Axborot texnologiyalari asrida axborotning muhimligini inobatga olsak, uni himoyalash bugungi kunda har bir mamlakatning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Axborot xavfsizligi hodisalari tufayli keladigan zarar har bir mamlakatda yashaydigan fuqarolar taqdiriga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Agar e’tibor qilsak, axborotlardan foydalanish turli maqsadlar uchun, ya’ni ijobiy va salbiy maqsadlarni ko‘zlab amalga oshirilishin guvohi bo‘lamiz. Bunda salbiy maqsadni ko‘zlab foydalanilgan axborotlar zararli oqibatlarni keltirib chiqaradi va ular jamiyatga, davlatga, shaxsga qaratilgan bo‘lishi bo‘lishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, tig‘iz axborotlashgan jamiyatlarda “shaxs-jamiyat-davlat” aloqadorligi, ularning o‘zaro uzviyligi va yaxlitligini ta’minlash bir muncha qiyinlashadi. Chunki axborot oqimi tezlashgani va axborotlar girdobida yashash kabi murakkab, ziddiyatli vaziyatning yuzaga kelishi bevosita shaxs tafakkurining, inson dunyoqarashining keskin o‘zgarishiga sabab bo‘lib qolayotganligi hech kimga sir emas.

Ma’lumki, har qanday davlatning axborot resurslari uning iqtisodiy va harbiy salohiyatini belgilovchi omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu resursdan samarali foydalanish mamlakat xavfsizligini va demokratik axborotlashgan jamiyatni muvaf- faqiyatli shakllantirilishini ta’minlaydi. Bunday jamiyatda, axborot almashinuv tezligi yuksaladi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish bo‘yicha ilg‘or axborot- kommunikatsiyalar texnologiyalarini qo‘llash keng ko‘lamda amalga oshiriladi. Shu narsani alohida ta’kidlab o‘tish zarurki, bugungi kunda, rivojlangan texnika davrida turli xil ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali tez va oson topish muammo bo‘lmay qoldi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi buzg‘unchilikni, tajovuzkorlikni, noaxloqiy xulqni shakllantiruvchi ma’lumotlarni xohlagancha topib o‘qish mumkin. Bunday manbalar o‘sib kelayotgan yosh avlodlar ongiga ta’sir ko‘rsatayotganligi achinarli hol bo‘lib, ularni ekstremistik va qo‘poruvchilik tashkilotlarining vayronkor targ‘ibotlaridan himoyalash hamda yoshlarning axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlash masalasi davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biriga aylandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature reviyew). Jahon psixologiya fanida axborot xavfsizligi, fuqarolarni, ayniqsa kelajagimiz vorisi bo‘lgan yoshlarni har xil buzg‘unchi axborotlardan muhofaza qilish, ularni axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil etish masalalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda ayniqsa mamlakatimiz olimlarining ham hissalari muhim bo‘lib, ular orasida V.M.Karimova, Sh.R.Barotov, B.M.Umarov, R.S.Samarov, K.A.Xaydarov, X.A.Ruxiyeva, U.D.Qodirov. F.M.Fayziyeva, N.M.Dalimova, E.M.Muxtorov, Sh.F.Mustafayeva, S.Y.Kulatova, I.I.Raximova, L.A.Nigmatulina va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari juda muhim hisoblanadi. Mamlakatimiz olimlarning ilmiy izlanishlarida axborot xavfsizligi muammosining nazariy-metodologik masalalari, ochiq axborotlar tizimi va yoshlar, psixologik himoya, yoshlar va virtual olam, destruktiv kult tashkilotlar faoliyati, kompyuter o‘yinlariga qaramlikning psixologik diagnostikasini amalga oshirish va korreksiya qilish, kichik maktab yoshi, o‘smirlik va ilk o‘spirinlik yoshida kompyuter o‘yinlariga qaramlik kabi masalalar chuqur o‘rganilganligi alohida ahamiyatga ega.

Biz mazkur muammoning jahon psixolog olimlari tomonidan o‘rganilish holatiga nazar tashlar ekanmiz, bu sohada Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan G.M.Andreyeva, V.Bodrov, YE.Juravlev, S.K.Roshin, T.M.Krasnyanskaya, V.D.Anosov, C.B.Belov, YE.I. Xomyakova, G.Sillaste, A.N.Suxov, V.T.Ganjin, A.B.Brushlinskiy, G.V.Grachev,

V.YE.Lepskiy, G.S.Melnik, V.N.Moshin, A.B.Nepomnyashiy, D.Frolov, S.P.Rastorguyev, P.I.Satleykin, YE.A. Xodakovskiy, L.I.SHershnev, YE.S. Polat va boshqalar tomonidan muhim ilmiy izlanishlar olib borilganiga guvoh bo‘lamiz. Ular tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda xavfsizlik, ijtimoiy xavfsizlik, inson xavfsizligi, hayot va faoliyat xavfsizligi, jamiyatda axborot xavfsizligi, shaxs axborot-psixologik xavfsizligining nazariy-metodologik asoslari hamda tahdidlar xususiyatlari va ulardan himoyalanish mexanizmlari, turli usul va vositalar orqali amalga oshiriladigan axborot manipulyatsiyasining ijtimoiy-psixologik ta’siri kabi dolzarb masalalar ilmiy tadqiq etilganligi muhim ahamiyatga ega. Xorijiy mamlakatlarda esa xususan, D.Bell, Z.Bjezinskiy, U.Dayzard, E.Toffler, M.Kastels, L.Gordon, M.Loyeb va boshqalarning ishlari mashhur bo‘lib, ularda yangi rivojlanayotgan jamiyatda axborotni qabul qilish va uni qayta ishlash, axborot tahdidlarining psixologik ta’siri va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida batafsil ma’lumotlar berganlar.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bizning ilmiy tadqiqot ishimiz esa yuqoridagi olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlardan biroz farqli ravishda, o‘smir yoshlar xulq-atvorida virtual olamga qaramlikni namoyon bo‘lish muammolarini o‘rganishga qaratilgan. Shu maqsadda tajriba-sinov ishlarimizda Qarshi shahri va Qamashi tumanida yashovchi o‘smir yoshlarni respondent sifatida tanlab oldik. Tadiqiqot ishimizning empirik bosqichida G.V. Lozovaya tomonidan ishlab chiqilgan va sinovdan o‘tgan 13 shkalada “Virtual olamga qaramlik” ni aniqlab beruvchi testning ochiq axborot tizimiga qaramlikni 3 shkalada aniqlab beruvchi mualliflik modifikatsiyasi variantini sinaluvchilar hukmiga havola qildik. Olingan miqdoriy va statistik natijalar1-jadval ko‘rinishida tizimlashtirildi.

1-jadval.

Voyaga yetmaganlar xulq-atvorida virtual olamga qaramlikni namoyon bo‘lish ko‘rsatkichi

№	Qaramlik shkalasi	Qarshi shahri (n=73)		Qamashi tumani (n=45)	
		μ	σ	μ	σ
1.	**Ochiq axborot tizimiga qaramlik: shu jumladan,**				
1.1.	o‘smir yoshlarning televideniyaga bo‘lgan qaramlik darajasi	11	1,27	9	1,18
		t=0,54**		t=0,54**	
1.2.	o‘smir yoshlarning turli xil kompyuter o‘yinlariga bo‘lgan qaramlik holati	9	1,05	10	1,16
		t=0,39*		t=0,42*	
1.3.	o‘smir yoshlarning internet va (yoki) moiy tarmoqlarga bo‘lgan qaramlik holati	20	0,89	19	0,86
		t=0,42*		t=0,40*	
2.	**Umumiy addiksiya:**				
2.1.	qaramlikka bo‘lgan umumiy moyillik	10	1,10	9	1,03
		t=0,47**		t=0,40*	

Izoh: *p≤0,05; **p≤0,01; ***p≤0,001

Ma’lumotlarga qaraganda, axborot turli ijtimoiy qatlamlar, professional va milliy guruhlar vakillariga har xil ta’sir qilish barobarida uni suiste’mol qilish amaliyoti turli guruhlarda bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Bu eng avvalo, axborot manbai minimal (televideniye, radio va boshq.), ayrimlarda esa keng (internet, yangi telekommunikatsiyalar tizimi) bo‘lishi mumkin. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, bugungi kunda jamiyatda aynan axborotni olish, unga yo‘l topish sohasida keskin bo‘linish, tabaqalashuv sodir bo‘lmoqda. Yoshlar o‘zining harakatchanligi va yangilikka intiluvchanligi hamda o‘z vaqt resursiga egaligi tufayli yuqori darajada kommunikativ faollik ko‘rsatishadi. Boshqa guruhlarda esa, nisbatan passivlik kuzatiladi. Ularga xos bunday xususiyatlar salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu birini guruh uchun tobora faollashayotgan agressiv siyosiy ta’sirga berilib ketish xavfini mavjudligida, ikkinchi guruhning esa, pozitiv mazmunga ega axborotlar ta’siridan tashqarida qolishi bilan belgilanadi.

Ma’lumki, butun yer yuzida ochiq axborotlar tizimi tarkibiga kiruvchi ommaviy axborot manbalari ichida – televideniya uzoq yillardan beri axborot iste’molchilariga masofadan turib o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Bu ta’sir ostida axborot iste’molchilar auditoriyasiga mos turli toifaga mansub xulq-atvor namunalarini shakllanganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, voyaga yetmagan axborot iste’molchilaridagi “o‘smir yoshlarning televideniyaga bo‘lgan qaramligi” shkalasida o‘zaro farqlanishlarni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, 73 nafar Qarshi shahrilik voyaga yetmagan sinaluvchilarda o‘rta darajadagi (μ=11) televideniyaga moyillik qayd etilgan bo‘lsa, 45 nafar voyaga yetmagan Qamashi tumanida yashovchi respondentlarda televideniyaga nisbatan past darajadagi (μ=9) moyillik namoyon bo‘lgan (1-jadvalga qarang).

Psixologik tadqiqotlardan ma’lumki addiktiv xulq-atvor to‘satdan paydo bo‘lmaydi. Qaramlik obyektiv borliqning uzluksiz jarayonida shakllanib, rivoj topib boradi. Shu bois ham qaramlik boshlanish oqibati ko‘pincha zararsizdek tuyulsa-da, lekin uning individual tarzda kechishi xulq-atvorda kuchli namoyon bo‘lishi bilan alohida e’tiborga molik sifatida qaralmog‘i zarur. Tadqiqotimizdan ko‘rinadiki, televizorga bo‘lgan qaramlik, voyaga yetmaganlarda shaxs xususiyatlarini shakllanishiga ham keskin ta’sir ko‘rsatmoqda ekan. Ayniqsa, telekanallar asosiy reytingini ko‘tarayotgan shou-ko‘rsatuvlar voyaga yetmaganlarda boqimandalik xususiyatining qaror topishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Demak, bir pasda millioner bo‘lish, tez boyib ketish va (yoki) avtomobil sohib(as)i bo‘lish istagini keskin oshishi, o‘z navbatida voyaga yetmaganlarning “manipulyatsiya domi”ga (har ikkala hududda: t=0,54) tushib qolish xavfini (p≤0,01) keskin oshib ketishiga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda televideniya kirib bormagan shahar va qishloq xonadoni qolmagan. Televideniya insonlar uchun nafaqat ko‘ngil ochish imkoniyatini yaratadi, balki kunlik qabul qilayotgan axborotimizning salmoqli qismini ham u orqali o‘zlashtiramiz. Oxirgi o‘n yilda televideniya ta’sirining nisbatan kamayib borayotganligi, ommaviy axborot vositalari sohasida ijtimoiy tarmoqlarning faollashuvi kuzatilayotgan bo‘lsa-da, televideniya o‘ziga xos muhim yutuqlari hisobiga hali hanuz axborot iste’molchilari uchun barqaror manbaligicha qolmoqda. Sababi, televideniya hali ham ijtimoiy g‘oyalarni aholiga yetkazishda tezkor, shu bilan birga qudratli vositalardan biridir. Ushbu kanallar orqali axborot muntazam ravishda o‘z iste’molchilariga yetkazib berilmoqda. Tadqiqotdan ma’lum bo‘lishicha, “o‘smir yoshlarning televideniyaga bo‘lgan qaramligi” shkalasi orqali qo‘lga kiritilgan natijalar addeksiyaning turli bosqichlarida xulq-atvor motivatsiyasini ham turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatmoqda. Masalan, internet tezligi pastroq bo‘lgan hududlarda teleko‘rsatuvlarga bo‘lgan qaramlik nisbatan yuqoriroq namoyon bo‘lmoqda.

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, bugungi kunda internet butun dunyo bo‘ylab ko‘plab odamlar uchun ajralmas vositaga aylandi. Global tarmoq afzalliklarini inkor etmagan holda, uning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri, xavf-xatarlari to‘g‘risida ham so‘z yuritishga to‘g‘ri keladi. Oddiygina misol, televizor orqali biror bir hayosiz yoki qo‘rqinchli kinolar berilsa, ota-onalar buni ko‘rishni taqiqlashadi. Lekin kompyuterdagi “Fear2”, “Doom3”, “Wanted” va boshqa shu kabi qonxo‘rliklar, otishmalar, qotillik-u xunrezlikdan iborat o‘yinlarni o‘ynashga ruxsat berishadi yoki jarayonga e’tiborsizlik bilan qaraydilar. Lekin bu narsa vaqt o‘tgan sayin bu o‘yinlar bolaga ham fiziologik va psixologik jihatlar salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘pgina mutaxassislarimiz aytib o‘tishgan. Psixiatrlarning fikriga ko‘ra, bu kasallik fanda “ludomaniya” deyiladi va u ko‘proq yosh bolalar va o‘smirlar orasida uchraydi. Bunda uyquning buzilishi, xulqning o‘zgarishi, jizzakilik, qo‘nimsizlik, kompyuter o‘yinlariga butkul qaramlik, o‘qish va uy ishlaridan bosh tortish kabi alomatlari seziladi. Agar buni fiziologik jihatdan olib qarasak, ko‘p bolalar nur ta’sirida ko‘z nuridan zararlanishi, jismoniy harakatlarning susayishiga, tanada qon aylanish tizimining buzilishiga, hattoki naslga ham salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Ma’lumki, bolalarda asosan maktab davrida turli soxalarga qiziqish uyg‘onadi. Maktablarda “Kompyuter asoslari” fanining o‘qitilishi o‘quvchilarning shu sohaga bo‘lgan

qiziqishlarini yanada orttiradi. Shahar, tuman, chekka-chekka qishloqlarda shu fan o‘qitilish barobarida, maktab yoshidagi bolalarga internet va uning cheksiz imkoniyatlari mavjudligini, shu bilan birgalikda uning salbiy tomonlari haqida ham ma’lumotlar berib borilishi lozim. Mutaxassislarning fikricha, barcha maktablar kompyuterlarini internet tarmog‘iga ulash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ularga internetdan to‘g‘ri foydalanish yo‘llarini, ma’lumotlar qidirishni, chet mamlakatlarda o‘z tengqurlari bilan muloqotni qanday amalga oshirish lozimligi borasida ma’lumotlar berish imkonini beradi. Shunda maktab yoshidagi bolalar faqat darsliklar bilan cheklanmay, internetdagi xabarlardan va yangiliklardan ham habardor bo‘lib turadilar. Buning natijasida, internet-klublarda faqat o‘yin o‘ynash va vaqtini o‘tkazish uchun kirganlar soni kamayib, internetni axborot makoni deb o‘ylovchilarning soni tobora oshgan bo‘lar edi.

Xulosa (Conclusion). Muxtasar qilib aytganda, ochiq axborot tizimlarida axboriy-psixologik xavfsizlikni ta’minlash hozirgi kunning dolzarb vazifasi bo‘lib, bu haqda har bir davlat bosh qotirmog‘i zarurligini davrning o‘zi talab qilmoqda. Bu jahondagi yangi geosiyosiy taqsimot, yangi mintaqaviy nizolarning yuzaga kelishi, millatchilik, shovinizm, din niqobidagi ekstremizm, ekologik halokatning tahdidi kuchayishi, spid, parranda gripi va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalishi bilan bog‘liqdir. Yuqorida qayd etilganlarning barchasi O‘zbekiston Respublikasi uchun ham mazkur muammolar muhim ekanligini alohida ta’kid etadi. Buning dolzarbligi davlatimiz uchun milliy mustaqillikni yanada mustahkamlash, iqtisod va bozor munosabatlarini tadrijiy rivojlanishini ta’minlash, ijtimoiy islohatlarni chuqurlashtirishda yaqqol ko‘rinadi. Bunda kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, milliy an’analarni hayotga qaytarish, murosasozlikni tarbiyalash ham katta ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, mustaqil dunyoqarashga ega ma’lomotli kishilargina turli xil talqindagi ruhan barqaror qarshilik ko‘rsata oladilar, mana shunday kishilargina tegishli muhit yaratishlari va milliy g‘oyalarning darg‘alari hisoblanadi.

Adabiyotlar.

1. Годик Ю.О. Угрозы и риски безопасности детской и подростковой аудитори и новых медиа [Текст] / Ю.О.Годик. -М.: Медиаскоп, 2011.-№2.-С.16-21.

2. Котик М.А. Психология и безопасность. 3-е изд., испр. идоп. Таллинн: Валгус, 1999. – 224 с.

3. Крысько В.Г. Секреты психологической войны (цели, задачи, методы, формы, опыт). Минск, 1999. – 176 с.

4. Панкратов В.Н. Защита от психологического манипулирования: Практическое руководство. М.: Издательство Института Психотерапии, 2004. – 275 с.

5. Samarov R. Axborot xavfsizligining nazariy va metodologik asoslari. T.: “Akademiya”, 2010. – 116 b.

6. Umarov B.M., Karimov X. Ochiq axborot tizimlarida axborot- psixologik xavfsizlik: o‘quv qo‘llanma. – T.: 2012, -315 b.

Kudratov Akmaljon Ibodillayevich
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti akademik litseyi direktori,
Email: akmaljonkudratov@gmail.com

SHAXS EHTIYOJLARINI MA'NAVIY TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy shaxs ehtiyojlari shakllanishi, uning takomillashtirish o'z ifodasini topgan. Shuningdek, ma'naviy ehtiyojlarning tarkib topishining ilmiy asoslari, shakllantirish omillari, shart-sharoitlari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Ehtiyoj, ehtiyoj turlari, moddiy ehtiyoj, ma'naviy ehtiyoj va boshqalar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ В ПОТРЕБНОСТИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В статье описано формирование потребностей современного человека и их совершенствование. Также изучены научные основы, факторы формирования и условия духовных потребностей.*

Ключевые слова: *Потребность, виды потребности, материальная потребность, духовная потребность, преобразование и др.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SPIRITUAL EDUCATION IN PERSONAL NEEDS

Annotation. *The article describes the formation of the needs of a modern person and its improvement. Also, the scientific bases, formation factors, and conditions of spiritual needs have been studied.*

Key words: *Need, types of need, material need, spiritual need, etc.*

Kirish. Bugungi kunda shaxs o'z ma'naviy ehtiyojlarini jamiyat manfaatlari bilan uzviy bog'liqlikda chuqur anglashi muammosining ahamiyati ham jiddiy o'rganilmoqda. O'z qimmatini, mavqesini aniqlab olish, o'z salohiyatini ochish uchun, inson o'z ehtiyojlarini qondirish, o'z shaxsiy o'ziga xosligini (individualligini) namoyon qilish imkoniyatlariga ega bo'lishi kerak. Biroq ehtiyojlar subyekti bo'lish nafaqat e'tiborni o'z ehiyojlari arofida, balki boshqa odamlarning – oila a'zolari, mehnat jamoasi, va umuman zamonaviy jamiyat ehtiyojlari atrofida ham mujassamlashtirish qobiliyatini anglatadi. Bular ehtiyojlarni ma'naviy tarbiyalashning yaxlit jarayonining bir-biri bilan o'zaro aloqador ikki tomonlaridir.

Shaxs ehtiyojlarini ma'naviy tarbiyalash turli shakllarda amalga oshiriladi, turli-tuman vazifalarni bajaradi. U yangi ehtiyojlarni shakllantirish uchun ham, allaqachon shakllanganlarini saqlab turish uchun ham yo'naltirilishi mumkin. Ma'naviy tarbiyaning ushbu ikki turining har birida o'ziga xos muammolari mavjud. Bizning fikrimizga ko'ra, birinchi holda shaxsdan ancha ko'p irodaviy xatti-harakatlar amalga oshirilishi talab qilinadi, chunki bu jarayon shakllangan odatlarni, ehtiyojlar va iste'mol stereotiplarini tubdan o'zgartirish bilan bog'liq. Shu asnoda, muammoning bu tomoni tadqiqotchilarning e'tiborini hali hanuz tortmaganligini ta'kidlab o'tish lozim, shuning uchun ham bu masalani o'rganish o'rinli va munosib ekanligini hisobga olib, uni tadqiqotimizning asosiy maqsadi qilib belgilaganmiz.

Ijtimoiy, psixologiya va pedagogika oid adabiyotlarda isbotlab berilganiday, ma'naviy tarbiya jarayoni "o'zini bilish", "o'ziga baho berish" va individning o'zini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat sifatida bevosita ma'naviy o'zini o'zi tarbiyalashdan iboratdir. Ko'rinib turibdiki, o'zini bilish shaxs ehtiyojlarini ma'naviy tarbiya qilishda dastlabki qism sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu vazifada uning eng katta qiyinchiligi ham mujassam. Ushbu jarayonning barcha qiyinchiliklariga qaramay, o'zini bilishni amalga oshirish, turli tuman

bilimlarni egallaganlikni, tegishli qadriyat yo‘nalishlari, jiddiy iroda kuchini talab etsada, voqelikni amalga oshirish mumkin. Faqat boshqa odamlarni, ularning xulq-atvori asosida yotgan obyektiv qonunlarni o‘rganish bilangina inson o‘zini mustaqil bilishi, o‘rgana olishi mumkin, ya’ni o‘zi sodir qilgan harakatlarga to‘g‘ri baho bera oladi deb o‘ylaymiz.[1. 346 b.]

Ayniqsa o‘zini ma’naviy bilish va anglashda, axloqiy tarbiyani umuman psixik faoliyat turi sifatida moddiy-amaliy hayotdan ajratib olgan holda ko‘rib chiqish mumkin emas. O‘zini bilish, axloqiy tarbiyaning birdan bir (yagona) maqsadi emas. Ular tegishli moddiy-amaliy faoliyatni amalga oshirish uchun oldindan bajariladigan dastlabki shartlardir. Ushbu qoida o‘ta jiddiy ahamiyatga ega. Bilish va axloqiy tarbiyaning ijodiy faolligi ular natijasida shaxs ehtiyojlarini to‘g‘ri va tegishli ravishda aks etish imkoniyati paydo bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Insonning o‘zi haqida va o‘z ehtiyojlarining tegishli ravishda tuzilgan obrazi haqidagi to‘g‘ri tasavvur yaratishi qiyin, biroq voqelikda amalga oshirishning imkoni bo‘lgan vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Hozirgi zamonaviy shaxs o‘zini-o‘zi anglashining eng muhim funksiyalaridan (vazifalaridan) biri “mayl”, “qiziqish” va “havaslar” shaklida namoyon bo‘ladigan ehtiyojlarni anglashdir. Bir tomondan ehtiyojlar, zaruratlarning, ikkinchi tomondan esa istak va xohishlarning bir-biriga o‘xshamasligini tushunishdan iboratdir. Ushbu funksiyani amalga oshirish shaxsda o‘z xohish-istaklarini obyektiv zarurat bilan qiyoslash qobiliyatlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Ijtimoiy ehtiyojlarni, ular rivojlanishining obyektiv mantig‘ini o‘rgana borib zamonaviy shaxs o‘zining shaxsiy zaruratlari va talablarini ham o‘rganadi (bilib oladi), va bunda shaxs ehtiyojlarini anglashning darajasi qanchalar yuqori bo‘lsa, ularni boshqarish imkoniyatlari ham shunchalik keng bo‘lishi aniqlandi. [2.25-28 b.]

Shaxsda bilish va o‘zini o‘zi anglash jarayonida ma’naviy ehtiyojlarni amalga oshirishning u yoki boshqa maqsad hamda vositalarini aniqlashtirish (konkretizatsiya ishi) va ularning bir-biriga taqqoslash amalga oshiriladi. Shaxs ehtiyojlari va ularni amalga oshirish shakllari, vositalarining bir-biriga mos kelishi (uyg‘un bo‘lishi) axloqiy tarbiyaning vazifalaridan biri hisoblanadi. Masalan, shaxsning muayyan bir xatti-harakati (faoliyati) u amalga oshirgan maqsadga zid oqibatlarga olib kelishi, maqsad esa ehtiyojlarni qoniqtirish vositalarida o‘z aksini topmasligi mumkin. Gegel “Toqatsizlik, sabrsizlik amalga oshirilishining imkoni yo‘q narsani, ya’ni vositalarga murojaat qilmasdan maqsadga erishishni talab qiladi” deb ta’kidlab o‘tgan. O‘zini tuta bilmaslik, maqsadni belgilashda shoshqaloqlik bilan ularni amalga oshirishga o‘tish va hokazolar kabi shaxsning sifatlari ehtiyojlar-maqsadlar va ularni amalga oshirish vositalari orasidagi uyg‘un yaxlitlikni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi. Ba’zan, “eng ezgu niyatlar” va “eng yuksak ma’naviy ehtiyojlarni” amalga oshirish yo‘lida maqsadlar va ularni amalga oshirish vositalari bir-biridan farq qilishi, ularning bir-biriga mos kelmasligi sababli, shaxs o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishmasligi ham mumkin. Yozuvchi Y.Trifonovda “ruhiy (ma’naviy) noaniqlik” iborasi bor. U turli-tuman tarzda namoyon bo‘ladi. Faqat tinimsiz o‘z ustida ishlash, o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish bilangina bunday ma’naviy noaniqlikni yo‘q qilish yoki hech bo‘lmasa minimum darajaga tushirish mumkin bo‘ladi.

Ilmiy izlanishning mohiyati. Zamonaviy shaxs ma’naviy ehtiyojlari tizimida, ularni qondirish shakllarida u yoki bu o‘zgarishlar tinimsiz sodir bo‘lib turadi. Shuning uchun o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun o‘zini bilish dinamikasini bo‘lishi, ehtiyojlarning tizimini butunlay qamrab olishi, ularning rivojlanish an’analarini bashorat qila olishi lozim. Shaxs ma’naviy tarbiya jarayonida, aqliy bilishning ma’lum konservativligini, ichki beg‘amlikni “yengib o‘tishi”, o‘z ehtiyojlari, imkoniyatlari va ularni amalga oshirish haqidagi bilimlarni tinimsiz yangilab borishi lozim. Insonning o‘z “men”ini va unga xos ehtiyojlarni anglashi – tinimsiz jarayon bo‘lib, u inson hayotining butun davri davomida amalga oshirib boriladi. Subyektni o‘zgarmas bir narsa, hodisa deb qarab bo‘lmaydi, u “tugallangan obyekt emas, aksincha, o‘ziga teng bo‘lmagan, o‘zining chegarasidan tinimsiz “chiqish” kabi nimanidir anglatadi”. Shuning uchun, shaxsning o‘z ehtiyojlarini o‘zi aqlan anglashi nafaqat

yoshlik davrida, balki ulg‘aygan va keksaygan chog‘ida ham dolzarb masala hisoblanadi, biroq inson hayoti yosh davrlarining har birida o‘zini bilish, ma’naviy tarbiya, o‘zini o‘zi tarbiya qilish umuman olganda boshqa-boshqa xususiyatlarga ega. Agar odatda yoshlikda axloqiy tarbiya juda kam rivojlangan va tashqaridan jiddiy ma’naviy-tarbiyaviy ta’sir bilan quvvatlantirilishi, to‘ldirilishi lozim bo‘ladigan bir vaqtda, ulg‘aygan davrda ham tarbiyaga etakchi rol berish kerak bo‘ladi. Keksaygan davrda axloqiy tarbiya o‘rniga, jumladan, shaxs ehtiyojlarining haddan ortiq susayib borishiga, shaxsning yoshi o‘tgan sari aksariyat hollarda kuchayib ketadigan konservatizmga qarshi kurashga etarlicha baho berish lozim [3. 124 b.]

Har bir shaxs o‘z obyektiv zaruratlarini to‘g‘ri tushunganda, ularni amalga oshirishning tegishli vositalarini tushunmaslikda, faol hayot munosabatining, o‘zini takomillashtirishga intilish istagi, hissining shakllanmaganligi tarzida namoyon bo‘ladigan ma’naviy ehtiyojlar subyekti sifatida rivojlanmaganligi avvalambor, shaxsning o‘ziga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Maqsadi mehnat sharoitiga ko‘ra baxtsiz hodisalarga ko‘p uchrashi ehtimoli bo‘lgan shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik tadqiqotning natijasida, bunday shaxs “o‘z kamchiliklariga etarlicha baho bermasligi, o‘zining tez-tez jarohat olishini har qanday tashqi omillar: mehnat to‘g‘ri tashkillashtirilmaganligi, texnik uskunalarning kamchiliklari sababidan deb tushuntirishga moyilligi”, bunday shaxs yuqori darajadagi jiddiylik bilan ajralib turishi, u “texnika xavfsizligi xizmatining ishiga o‘ta salbiy munosabatda ekanligi va bir vaqtning o‘zida jarohat olish ehtimolini pasaytirish imkoniyatlariga ham ishonmasligi, ishini xavfsiz ravishda bajarishga intilishini aytgan bilan bu borada hech bir ishga amal qilmasligi aniqlandi”. Shaxsning ko‘plab boshqa holatlarda ham kuzatiladigan ehtiyojlar subyekti sifatida rivojlanmaganligi unga ehtiyojlarning o‘sishi va takomillashuvining obyektiv shart-sharoitni voqelikka aylantirish imkonini bermaydi.

Zamonaviy shaxsning o‘z ehtiyojlarini anglashi (bilishida) shaxsni o‘rganishga, ular rivojlanishining ichki qonuniyatlarini aniqlashga ko‘proq murojaat qilayotgan zamonaviy ilm-fan, psixologiya va tarbiya nazariyasining roli katta. Ehtiyojlarning inson hayotidagi o‘rnini to‘g‘ri belgilaydigan, zamonaviy shaxs ma’naviy ehtiyojlari tizimini, bu tizimning turli elementlari rolini ochib beradigan, ehtiyojlar mazmuni va ularni qoniqtirish shakllari orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni namoyish qiladigan zamonaviy ilm-fan, talim-tarbiya nazariyasini o‘zlashtirmasdan turib zamonaviy turdagi shaxs o‘zining ehtiyojlarini bilishi, anglashi mumkin emas. Ushbu bilimlarni e’tiqod, ishonchga aylantirishning muhimligini ta’kidlab o‘tish lozim.[4. 32 b.]

O‘zini o‘zi anglash mutlaq individual jarayon emas, uni shaxsning jamiyat, tabaqa, boshqa odamlarga amaliy munosabatisiz o‘rganib bo‘lmaydi. Gegel “o‘zini-o‘zi anglashning o‘zida va o‘zi uchunliging sababi va negizi uning muayyan bir boshqa narsaning (o‘zini anglashi) uchunligidandir, ya’ni u muayyan bir tan olingan tushunchadir”. Boshqacha qilib aytsak, shaxs o‘zini va o‘z ehtiyojlarini boshqa shaxslarning tan olishlari yo‘li bilan isbot qiladi, tasdiqlaydi. Jamiyatninng tarixiy rivojlanish jarayonida shaxsning, o‘z ehtiyojlari va manfaatlarini bilishining roli o‘sib boradi, chunki insonning ichki dunyosi tobora murakkablashib boradi, uning ehtiyojlari esa – shaklan va mazmunan xilma-xillashgan holda boyib boradi, ehtiyojlarining har xil turlari va guruhlari orasidagi o‘zaro aloqalar ham murakkablashib boraveradi.

Jamiyat taraqqiyoti tendensiyalariga mos ravishda ehtiyojlarni qondirishning imkoniyatlari tobora kengayib borayotgan va shu sababdan, ehtiyojlar optimal strukturasini tanlash va belgilash, ularni bilish ahamiyati oshib borayotgan zamonaviy ilmiy-texnologik taraqqiyot sharoitida bu shior ayniqsa dolzarblik kasb etadi. Bu sharoitda hodisalar qanday sodir bo‘layotgani, shaxs xulq-atvorining to‘g‘ri yo‘nalishini topish uchun dialektik tafakkur usulini, bilishning nazariy vositalarini o‘zlashtirish zarur bo‘ladi.[5. 13-15 b.]

Xulosa. Bu soxani nazariy bilish zamonaviy shaxsning o‘zini bilish vositalariga ta’sir o‘tkazish bilan o‘rganilayotgan voqea-hodisalarning mohiyatini chuqur ochib beradi, nazariy bilishning tobora o‘sib borayotgan darajasi esa shaxsning ziddiyatli ichki dunyosini, jumladan

uning ehtiyojlari tizimini yanada tegishlicha, keraklicha (adekvat) aks ettirish imkonini beradi, insonni o‘zini bilishning zamonaviy vositalari bilan qurollantiradi. Zamonaviy ijtimoiy-psixologiyada obyektivlik va subyektivlik dialektikasi masalalari jadal ishlab chiqilmoqda, ikkalasining ham farq (differensatsiya) qilingan tahlili amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning natijasi zamonaviy shaxsning ehtiyojlarini bilishiga ta’sir o‘tkazishi tabiiy bo‘lib, ularning namoyon bo‘lish shakllari xilma xilligini ochib beradi.Shaxs individuallikni anglatishi sababli, zamonaviy shaxsning o‘z ehtiyojlarini anglashi individual imkoniyatlarni bilishni, insonning ongli ravishda o‘z individualligini rivojlantirishini taqozo etadi, vaholanki, bu holda etarlicha baho bermaslik shaxsning va pirovard natijada jamiyatning qashshoqlashuviga olib kelishi mumkin.[6. 184 b.]

Ta’lim va tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligiga ta’rif berishda har doim o‘zini anglashning, mustaqil tarbiya maqsadining o‘ziga xos xusisiyati sifatida “o‘zining ichki maqsadi sifatida o‘zini o‘zi anglashni tan olishdan iborat” ekanligini nazarda tutish lozim. Shuning uchun shaxsni o‘zini anglashi va o‘ziga o‘zi baho berishga qaratilgan tarbiyalash har doim insonning ichki dunyosiga ehtiyokorona, nozik munosabat qilish bilan ajralib turishi zarur. Pirovard natijada, anglash va mustaqil (o‘z o‘zini) bilish jarayonida shaxsda obyektivlik, maqsadga intilganlik, his-tuyg‘u, emotsiyalarni aqlga buysundirish qobiliyati va boshqa ko‘plab sifatlar shakllanadi. Zero bu jihatlar bilan shaxs ma’naviy ehtiyojlarini mustaqil tarbiyalash, muayyan jihatdan ularni tartibga solish jarayonida turli tuman vazifalarni muvaffaqiyat bilan yechishi mumkin.

Adabiyotlar.

1. Barotov Sh. R. Psixologik xizmat. –T. 2018. -346 b.
2. Гайнутдинова Е.В. Проблема классификации человеческих потребностей // Вестник АГТУ. – 2007. - №5(40). – с. 25-28.
3. G‘oziyev E. G‘., Jabborov A. M. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. –T.: 2003. -124 b.
4. Qodirov B.R. Ta’lim tizimidagi islohatlar maqsad va yo‘nalishlari. –T.: O‘zbekiston.1999. -32 b.
5. Shoumarov G‘.B. O‘zbekiston ta’lim tizimida psixologik xizmat muammolari. –T.: 1998. -B.13-15.
6. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. –Toshkent: Universitet, 1998.-B.184

Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

BO‘LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPTENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA REJISSYOR – PSIXOLOGNING FUNKSIONAL VAZIFALARI VA KASBIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy komptentligini rivojlantirishda rejissyor – psixologning funksional vazifalari va kasbiy ahamiyati yoritilgan bo‘lib, maqolada rejissyor – psixolog tushunchasiga izoh beriladi. Rejissyor – psixologning vazifalari, o‘ziga xosligi va ijodiy jarayonlarda aktyor va tomoshabin bilan ishlashning psixoligik jihatlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy komptentlik, rejissyor, rejissyor – pedagog, rejissyor – tashkilotchi, rejissyor – ko‘zgu, rejissyor – psixolog, ijod psixologiyasi.*

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ РЕЖИССЕРА-ПСИХОЛОГА В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ РЕЖИССЕРОВ

Аннотация. *В данной статье выделены функциональные задачи и профессиональное значение режиссера-психолога в развитии профессиональной компетентности будущих режиссеров, а также раскрыто понятие режиссера-психолога. Освещены задачи режиссера-психолога, своеобразие и психологические аспекты работы с актером и зрителем в творческих процессах.*

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, режиссёр, режиссёр-педагог, режиссёр-организатор, режиссёр-зеркало, режиссёр-психолог, творческая психология.*

FUNCTIONAL DUTIES AND PROFESSIONAL IMPORTANCE OF THE DIRECTOR-PSYCHOLOGIST IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE DIRECTORS

Abstract. *In this article, the functional tasks and professional importance of the director-psychologist in the development of professional competence of future directors are highlighted, and the concept of the director-psychologist is explained in the article. The director-psychologist's tasks, uniqueness and psychological aspects of working with the actor and the audience in creative processes are highlighted.*

Key words: *professional competence, director, director - pedagogue, director - organizer, director - mirror, director - psychologist, creative psychology.*

Kirish. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti yo‘lida olib borilayotgan keng islohotlar kontekstida inson qadrini ulug‘lash va barcha imkoniyatlar inson omili sifatida oliy qadriyatga aylanib bormoqda.

Insonning ma’naviy barkamolligida san’at, xususan sahna san’atining ahamiyati muhim bo‘lib, bu borada sahna ijodkorlari, jumladan rejissyorlarning kasbiy komptentligi, iqtidor va salohiyati, jumladan badiiy tafakkuri birlamchi xarakterga ega.

Sahna san’atining vazifasi tomoshabinga estetik zavq berish bilan birgalikda ularning qalbiga emotsional ta’sir qilish orqali, tafakkurini o‘stirish, ma’naviy-ma’rifiy jihatdan ularga ta’sir ko‘rsatishdir.

Film yoki spektal tomosha qilgan inson bir zum bo‘lsada ushbu asar qahramonlari bilan dardlashadi. Asardagi voqea hodisalar tomoshabin ongu shuuriga ta’sir o‘tkazib ulardan namuna oladi yoki o‘z shaxsiy hayotidagi muammolarga yechim topadi.

Bu jarayon tomoshabinga nafaqat estetik jihatdan, balki ruhiy jihatdan ham ta'sir o'tkazadi. "Kelinlar qo'zg'oloni" spektakli (muallif Said Ahmad, sahnalashtiruvchi rejissyor Bahodir Yo'ldoshev) namoyishidan so'ng ijtimoiy hayotda "Farmonbibi", "Sotti" kabi xarakterdagi qaynona-kelinlar, "Ilhaq" badiiy filmi (postanovka rejissyori Jahongir Ahmedov) namoyishidan so'ng farzand dog'idagi onalarning faryodi, ko'ngil yarasi yangilandi. Bunga aslida misollar ko'p, chunki haqiqiy sahna yoki ekran san'ati tomoshabinlarning ruhiyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazib tomashabin idealiga aylanadi.

Ba'zida, asosan maishiy mavzudagi bachkana sahna asarlari ham tomoshabin ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, qaynona-kelin o'rtasida janjal chiqishiga, bolalar va yoshlar o'rtasida bezorilik, sevgi-muhabattad zo'ravonlik holatlari ham urab turibdi.

Xo'sh, sahna asarlarining tomoshabinga bunday salbiy ta'sirining oldini olishda nimalar qilish lozim?

Bu borada bo'lajak rejissyorlarni tayyorlash jarayonida rejissyorning psixologik funksional vazifalarini mukammal o'rgatish, ularning dunyo qarashani, kasbiy bilim olishlarini rivojlantirmoq kerak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Psixologiya va rejissura sohasidagi muhim komponentlar ruh, ong, sezgi, diqqat, idrok, xotira, tafakkur, xayol, iroda, his, tuyg'u, temperament, xarakter, qobiliyat kabilar bu ikki sohaning bir-biriga mantiqiy yaqin ekanligini isbotlaydi.

Aristotel ham ijodni individning ijtimoiy hayot bilan uyg'unlashish vositasi deb hisoblagan. Aristotel insonning ichki olami va unga san'at yordamida ta'sir o'tkazish usullarini ochib bergan mimesis ta'limotini ishlab chiqdi. Mimesis nazariyasida «katarsis» konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, qadim yunon tragediyalari tomoshabin ko'nglini xastalik jazavalaridan tozalagan. Chuqur kechinmalar jarayonida inson ruhan poklanadi, uning qalbi o'zining xususiyligi, yagonaligidan umumiylikka ko'tariladi [1, 7].

Teatr reformatori K.S.Stanislavskiy aktyorning ruhiy olami, aktyor psixologiyasi masalalari bo'yicha mashhur fransuz olimi, eksperimental psixolog R.Ribo muallifligidagi "Diqqat psixologiyasi", "Asab xotirasi", "Xotiraning normal va notob holatlari", "Umumiy g'oyalar evolyusiyasi", "Hissiy mantiq" asarlaridan o'zini qiziqtiruvchi ko'pgina foydali ma'lumotlar olgan. Jumladan, T.Riboning insonda asab xotirasi mavjud degan fikridan kelib chiqib, uning badiiy ijoddagi roli masalasini o'rganadi. U T.Riboning nazariy xulosalarini amaliy va ijodiy jihatdan yanada boyitdi va chuqurlashtirib uning "asab xotirasi" atamasini aktyor va rejissyor uchun muhim sanaluvchi "emotsional xotira" degan to'laroq tushuncha bilan almashtirdi.

Ko'pgina tajribali rejissyorlar o'z faoliyati natijasida rejissyor psixolog bo'lishi keraklini qayd etishadi. Jumladan, M.Vaynberg o'z intervyularining birida "Rejissyor albatta psixolog va psixoterapevt bo'lishi shart" [5] – deb qayd etsa, tajribali rejissyor Bahodir Yo'ldoshev bilan o'tkazilgan suhbatda "Rejissurani psixologiyasiz tasavvur qilish qiyin, rejissura aslida bu – psixologiya. Rejissyor tabiatan psixolog bo'lishi lozim. Rejissyorning psixologlik tabiati uning iste'dodida mujassamlashgan bo'lishi kerak, u maxsus psixologiya ixtisosligida o'qigan bo'lishi shart emas" – deb ta'kidlaydi.

Albatta, nuqsonlar ichida ham ko'pgina badiiy obrazlar bor (Xlestakov, shahar hokimi), qora niyatli kishilar doirasida ham buyuk ehtiros egalari bor (Ivan Grozniy). Ammo "insonning ruhiy hayoti"ning go'zalligin ko'rsatuvchi san'atimizning asosiy mohiyati bularda emas. Bizga boshqacha material kerakdir. Uni qalbimizning yorug' joylaridan – shavq-zavq, estetik hislar yashaydigan joylardan axtaring. Mayli, go'zallik, olijanoblik zahirasi hissiyotingizda zo'r berib boyiy bersin. Aytganlarimning hammasini bajarmoq uchun haqiqiy artist mazmundor, qiziq, go'zal, boy, qaynoq va ilhomga to'la hayot kechirmog'i zarurligi endi sizlarga ravshan bo'lgandir, deb o'ylayman. U katta shaharlardagina emas, balki qishloqlarda, korxonalarda, dunyoning eng madaniy markazida ham nima bo'layotganini bilsin. Artist o'z mamlakatining,

shuningdek boshqa mamlakatlar aholisining hayoti va psixologiyasini kuzatib, o‘rganib borsin [2, 293].


Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, intervyu, kuzatuv, suhbat usuliga tayanadi.

Tahlil va natijalar. Rejissyor ijodi mehnat ekanligiga shak-shubha yo‘q, lekin u boshqa barcha aqliy mehnat turlaridan katta farq qiladi. Ayni shu ma’noda u davomli hodisadir. Bu jarayonda rejissyor shaxsiy xislatlari, fazilatlari katta rol o‘ynaydi.

Agar rejissyor mehnatkash, har bir kunini muayyan reja asosida tashkil qiladigan, vaqtning qadriga yetadigan, dadil, qiyinchiliklardan cho‘chimaydigan bo‘lsa u o‘z ishini oxiriga yetkaza oladi. Bordi-yu buning aksi bo‘lsa, ijodiy maqsadlari nari borsa yaxshi topilma sifatida, chiroyli reja tarzida qolib ketadi. Bu esa ijodkorning shaxsiy xislatlari, psixologiyasi, ma’naviy-axloqiy jihatlarini chuqurroq tadqiq etishni qanchalik dolzarbligini ko‘rsatib turibdi.

Insonnning go‘zallikka, adolatga, mehr-muhabbatga, kamolotga intilishi tabiiy bo‘lib, bu holat rejissyor ruhiyatida erkinlikni ham talab etadi. Rejissyor ruhiyati erkin bo‘lsa uning asarlarida go‘zallik, adolat, mehr-muhabbat, kamolot o‘z-o‘zidan barq uradi.

Shu o‘rinda rejissyorning funksional jihatlarini tahlil qilish o‘rinlidir. Jumladan, rejissyor-pedagog V.I.Nemirovich-Danchenko rejissuraning badiiy yaxlitligini aktyor yoki dramaturg mahoratida emas, eng avvalo rejissyorning kasbiy kompetentligida, mahoratida ekanligini uqtirib, nafaqat ijodiy jarayonga, balki spektaklning tashkiliy jihatlari va tarbiyaviy ahamiyatiga ham katta e’tibor qaratgan va rejissyorlik burchining quyidagi uch qirrasi haqidagi ta’limotiga [3, 158] asos solgan (1-rasmga qarang):



1-rasm. Rejissyorlik burchining uch qirrasi

V.I.Nemirovich-Danchenko tomonidan ilgari surilgan rejissyorlik burchining uch qirrasi haqidagi ta’limotining mohiyati quyidagilardan iborat:

Rejissyor – pedagog. Rejissyor asarning g‘oyasini, maqsadini, mazmun-mohiyatini, obrazning badiiy talqinini to‘g‘ri va mantiqli tushunishi va tushuntira olishi, o‘z mahorati, ijro intizomi orqali aktyorlarga, xodimlarga o‘rnak bo‘lishi kerak. Bu jarayon rejissyordan sahna san’ati va teatr pedagogikasi bo‘yicha kuchli bilim talab etadi. Shuningdek, rejissura nazariyasi va amaliyoti hamda aktyorlik texnikasini chuqur o‘zlashtirmog‘i lozim.

Rejissyor kezi kelganda aktyorlarga u yoki bu sahnani ko‘rsatib berganda aktyorlar roldagi holatni his qilishi yoki qandaydir hissiy ozuqa olishi kerak. Agarda rejissyor ko‘rsatib bergan holatdan kelib chiqib, holatni rivojlantirib harakat qila boshlasa, rejissyor uchun bu eng oliy yutuqdir [4, 41].

Spektakl bunyod etish jarayonida rejissyorning pedagogik qirrasi eng asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Chunki ishtirokchilar bilan birinchi uchrashuvda ularni o‘z rejasiga qiziqtira olsa, ijod qilish uchun manba topib berishi zarur. Agarda birinchi uchrashuvdayoq pesa g‘oyasi, undagi personajlarning harakteri, rejissyor rejasi spektakl ijrochilarining qalbini egallasa, ularning tasavvurini ishga solib yuborsa, rejissyor o‘z maqsadi sari to‘g‘ri qadam qo‘ygan bo‘ladi. V.I.Nemirovich-Danchenko bu jarayonni teatr jamoasi uchun, ayniqsa yoshlar uchun tarbiyaviy ahamiyati juda katta ekanligini ko‘p marta uqtirib o‘tgan edi. "Chanqoq aktyorni muallif fikri bilan sug‘orish kerak", – deb takidlar edi V.I.Nemirovich-Danchenko [4, 42].

Rejissyor – ko‘zgu. U aktyorlarning individual xususiyatlarini, ijodini to‘g‘ri aks ettirishni bilmog‘i kerak. Ijodiy jarayondagi aktyor rejissyor tomonidan bildirilayotgan fikrlar asosida o‘z ijrosini xuddi oynada ko‘rgandek bo‘lishi va rejissyor tomonidan berilayotgan tavsiya va topshiriqlar asosida ijro etayotgan rolini obraz darajasiga yetkazishi lozim.

Aktyor ijrosini to‘g‘ri aks ettirish uchun, uning o‘ziga xos xususiyatini, ko‘z ilg‘amas tomonlarini ham sezuvchi diqqat, etibor kerak. Personaj xarakteri aktyor ijrosida qanday ifodalanayotganini to‘g‘ri aks ettirishi uchun rejissyorning o‘zi aktyor yaratishi lozim bo‘lgan obraz hayotini undan yaxshi bilishi lozim. Repetisiya vaqtida rejissyor nigohi aktyor fikridan oldinroq yurishi bilan bir vaqtda, personaj fikrining oqimini ham to‘g‘ri-noto‘g‘riligini kuzatib borish natijasida, vaqti-vaqti bilan repetisiyani to‘xtatmasdan, kichik nuqsonlarni to‘g‘rilab turishning xam ahamiyati bor. Bunday qobiliyatga ega bo‘lish uchun rejissyor, aktyorlarning badiiy imkoniyatlarini, individual hususiyatlarini va aktyorlik mahoratiniig elementlarini puxta bilishi zarur. Shundagina aktyor rejissyorda o‘z aksini to‘g‘ri ko‘rib, tegishli xulosa chiqarishi mumkin.

Rejissyor – tashkilotchi. U butun spektakl yoki tomoshani uyushtirishi va tashkillashtirishi kerak. Aslida rejissura bu – ijodiy va tashkiliy ishlar jarayoni bo‘lib, bu jarayonning boshqaruvchisi bu rejissyordir.

Rejissyor spektaklning barcha elementlarini o‘z qo‘lida ushlab turgan holda aktyor ijodini birinchi o‘ringa qo‘yib, boshqa elementlarni uning atrofida garmonik ravishda birlashtirsa butunlikka erishadi. Bu o‘rinda rejissyor – tashkilotchi mutloq hukmrondir [4, 44].

Rejissyor sahnalashtirish jarayonida aktyorning individual mahoratini, ruhiy, jismoniy holatini, ichki dunyosini hisobga olishi, adabiy asarning mazmun-mohiyatini to‘laqonli anglashi va bunga aktyorni ishontira olishi, so‘ngra mazkur asar orqali tomoshabinni ishontira olishi, uning tafakkuriga, qalbiga ta’sir qila olishi lozim.

Tadqiqot davomidagi nazariy-amaliy va ijodiy izlanishlar natijasida V.I.Nemirovich-Danchenko tomonidan ilgari surilgan rejissyorlik burchining uch qirrasi haqidagi ta’limotni spesifik to‘ldirish va mantiqiy davom ettirish maqsadida “Rejissyor – psixolog” ta’limotini tavsiya etamiz.

Rejissyor – psixolog. Rejissyor yangi asar ustida ish boshlar ekan, avvalo jamiyat fikrini o‘rganadi, rejissyor-psixolog esa jamiyat ruhiyatini o‘rganadi. Rejissyor ijodining obekti inson qalbi bo‘lsa, rejissyor-psixolog ijodining obekti inson ruhiyati, ongi va tafakkuridir.

Rejissyor – psixolog bu – aktyorga yoki ijrochiga san’atning inson ruhiyatiga ta’sir qiluvchi muhim omillarini o‘rgatib, san’atkordan insonning ichki kechinmalari, uning o‘y va intilishlari, tasavvur va tafakkuri, san’at asari ustida ishlash va uning ijrosi, iroda va xotira, xarakter va qobiliyat, shuningdek, ijrochi va tinglovchi shaxsiyatining boshqa psixologik sifatlarini yaxshi bilishi va yetarlicha aniq tasavvurga ega bo‘lishini talab etadi.

Tomoshabin ruhiyatini o‘rganishda rejissyor-psixolog quyidagi omillarga e’tibor qaratish lozim (2-rasmga qarang):

Rejissyor tomonidan aktyorlarga vazifa berilishida albatta aktyorning ijodiy imkoniyatlari ichki va tashqi texnikasi e’tiborga olinadi. Rejissyor – psixolog bu jarayonda aktyorning ruhiyati va rolning ruhiyatini birinchi darajaga qo‘yadi.

Faraz qilaylik, kecha oramizda janjal chiqdi. Men sizni ko‘pchilik oldida haqorat qildim. Bugun bo‘lsa, uchrashgan paytimizda, oldingizga borib, qo‘lingizni qisgim va shu bilan kechirim so‘ragim, ayb menda va o‘tgan gapni unutishingizni istayman degim kelardi. Kechagi raqibga qo‘l berish oson ish emas, binobarin, ko‘p narsani o‘ylab chiqishim, his etishim va bu vazifani bajarishdan burun ko‘nglimdagi ko‘p narsalarni yengishim lozim. Bunday vazifani psixologik vazifa, deb atash mumkin, vazifa bo‘lganda ham ancha murakkab vazifa [2, 186].



2-rasm. Rejissyor – psixolog tomonidan tomoshabin ruhiyatini o‘rganishdagi omillar

Rejissyor-psixolog mumtoz asarlar ustida ishlayotganda davr ruhiyatining badiiy in’ikosiga alohida e’tibor qaratib spektakl muvaffaqiyatini kafolatlamog‘i lozim. Asarda tasvirlanayotgan millat madaniyati, turmush tarzini haqqoniy bo‘yoqlarda ko‘rsatish, shunga mos sahnaviy vositalar topish spektakl ruhiyatini belgilash va badiiy ta’sirchanligi va koloritini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, J.Molerning “Tartyuf” komediyasini sahnalashtirishda fransuz xalqiga xos milliylik, ijtimoiylik va nazokat, tamanno, Moler qahramonlarini yodga soluvchi samimiyat, tabiiy badihayu nafis harakatlarning topilishi rejissyor-psixologning asosiy funksiyasidir.

Rejissyor – psixolog spektakl ustida ishlashda tomoshabinlarning yosh davr fiziologiyasini ham inobatga olmog‘i zarur holat bo‘lib, bu jarayonda ayniqsa bolalar uchun mo‘ljallangan spektakl va tomoshalar dramaturgiyasi va undagi ijodiy ziddiyatlarning ta’sir omillariga e’tibor qaratish lozim.

Ma’lumki, psixologiya psixikaning rivojlanishi va faoliyat qonunlari haqidagi fan bo‘lib, uning umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya, psixofizika, psixofiziologiya, parapsixologiya, psixiatriya, ijtimoiy psixologiya, etnik psixologiya, tibbiy psixologiya, kosmik psixologiya va boshqa bir qancha tarmoqlari mavjud [1, 6]. Ushbu

tarmoqlar bir-biridan farq qilsada, lekin ularni umumiylashtirib turuvchi bu ijod psixologiyasidir.

Xulosa. Hozirgi kunda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining “Rejissyorlik” va “Aktyorlik san’ati” ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalariga “Ijod psixologiyasi” fanining kiritilishi bejiz bo‘lmay, bevosita rejissyor – psixolog shaxsining tarbiyalanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki, musiqa insonga eshitish orqali ta’sir etsa, rejissurada bu holat ham eshitish, ham ko‘rish orqali ta’sir qiladi. Rejissyor – psixolog faoliyati aktyorlarning individual qobiliyati, ijro ikmoniyatlarini hisobga olgan holda, aktyorning ijtimoiy kelib chiqishi, oilaviy sharoiti, uning ruhiyatida kechayotgan jarayonlar, shuningdek, tomoshabin ruhiyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Yuqoridagi fi krlardan kelib chiqib aytish mumkinki, bo‘lajak rejissyorlarni tarbiyalashda sohaning psixologik jihatlarini, sahna asarining psixologik ta’sirini bevosita ta’lim jarayonida shakllantirish lozim.

Adabiyotlar.

1. Qodirov R.G‘. Musiqa psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Musiqa, 2005. – 80 b.
2. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – 468 b.
3. Umarov M., Yuldashev T. Rejissorlik va aktyorlik san’ati asoslari. Darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018. – 320 b.
4. Usmonov R.I. Rejissura. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan, 1997. – 221 b.
5. https://www.kino-teatr.ru/kino/person/440/ (15.05.2024).

Muratova Fotima Normaxmat qizi
Toshkent Iqtisodiyot va Texnologiyalar Universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: narmuhammadovnaad@gmail.ru

THE VIEWS OF ANCIENT GREEK AND EASTERN THINKERS ON THE NEED TO STUDY THE QUALITIES OF A STUDENT'S POSITION IN THE FIELD OF PSYCHOLOGY

Abstract. *The current stage of the development of the sciences that have acquired the necessary importance for a person today requires the specialist to form and develop a unique position in choosing the methodological and practical-technological bases of professional activity. This choice depends on the main system, and requires conscious and responsible activities of each professional in terms of goals and values, relationships with others. Based on this, we can say that the development of the personality of a specialist, that is, a student, studying in each higher education system cannot be imagined without personal and professional unity. As conditions for the formation of a position in students, we can say that it corresponds to the vision of the future, the ability to develop volitional actions and find one's place in it, personal characteristics.*

Key words: *position, adequate perceptions, critical analysis, cognitive components, emotion, professional education, frustration.*

ВЗГЛЯДЫ ДРЕВНЕГРЕЧЕСКИХ И ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ НА НЕОБХОДИМОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ КАЧЕСТВ ПОЗИЦИИ СТУДЕНТА В ОБЛАСТИ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация. *Современный этап развития наук, приобретших сегодня необходимое значение для человека, требует от специалиста формирования и развития уникальной позиции в выборе методологических и практико-технологических основ профессиональной деятельности. Этот выбор зависит от основной системы и требует осознанной и ответственной деятельности каждого специалиста с точки зрения целей и ценностей, взаимоотношений с другими людьми. Исходя из этого, можно сказать, что развитие личности специалиста, то есть студента, обучающегося в каждой системе высшего образования, невозможно представить без личностного и профессионального единства. В качестве условий формирования позиции у студентов можно сказать, что она соответствует видению будущего, способности развивать волевые действия и находить в нем свое место, личностным характеристикам.*

Ключевые слова*: позиция, адекватные представления, критический анализ, когнитивные компоненты, эмоция, профессиональное образование, фрустрация.*

PSIXOLOGIYA SOHASIDA TALABA POZITSIYASI SIFATLARNI TADQIQ QILISHNING ZARURATI HAQIDA QADIMGI YUNON VA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING FIKRLARI

Annotatsiya. *Bugungi kunda inson uchun zarur ahamiyat kasb etgan fanlarning rivojlanishining hozirgi bosqichi mutaxassisdan kasbiy faoliyatning uslubiy va amaliy-texnologik asoslarini tanlashda o'ziga xos bo'lgan pozitsiyani shakllantirish va rivojlantirishni talab qiladi. Ushbu tanlov asosiy tizimga bog'liq bo'lib, har bir mutaxassisning maqsad va qadriyatlari, boshqalar bilan munosabatlarda ongli va mas'uliyat bilan amalga oshiradigan faoliyatni talab qiladi. Shunga asoslangan holda aytishimiz mumkinki, har bir oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan mutaxassis, ya'ni talaba shaxsi rivojlanishini shaxsiy va kasbiy birliksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Talabalarda pozitsiya shakllanish shartlari sifatida aytishimiz mumkinki, kelajak haqidagi tasavvurlar, irodaviy harakatlarni rivojlantirish va*

unda o‘z o‘rnini topish qobiliyati, shaxsiy xususiyatlariga mos kelishini ta’kidlab aytishimiz mumkin.

Kalit so’zlar: *pozitsiya, adekvat tasavvurlar, tanqidiy tahlil, kognitiv komponentlar, emotsiya, kasbiy ta’lim, frusturatsiya.*

Kirish. Jahonda ta'limni rivojlantirishni fundamental ilmiy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy dasturlari, birinchi navbatda, shaxsni rivojlantirish jarayonini, uning shakllanishining psixologik qonuniyatlarini, shaxsning o'zini o'zi belgilash jarayonini tezlashtirish shartlari va mexanizmlarini chuqur o'rganishni o'z ichiga oladi. Talabalarda faoliyat uchun ushbu qoida alohida ahamiyatga ega, chunki u kasbiy samaradorlikning eng muhim sharti sifatida o'z egasiga -talaba shaxsiyatiga ma'lum talablarni qo'yadi. YUNESKO statistika instituti (YuIS) ma’lumotlariga ko‘ra, «2030-yilga borib butun dunyo bo‘ylab boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’limni ta’minlash uchun 69 milliondan ortiq sifatli pedagoglarga ehtiyoj yuzaga keladi» [13]. Fan rivojlanishining hozirgi bosqichi mutaxassisdandan kasbiy faoliyatning uslubiy va amaliy-texnologik asoslarini tanlashda o'zini o'zi belgilashini talab qiladi. Ushbu tanlov mutaxassisning turli xil faoliyat va boshqalar bilan munosabatlarida ongli va mas'uliyat bilan amalga oshiradigan asosiy maqsadlari va qadriyatlari tizimi bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda, xususan prezident asarlarida shaxs va uning kasbiy rivojlanishi bo‘yicha hukumat qarorlari va me’yoriy xujjatlar qabul qilingan hamda qonun bilan himoyalangan [1],[2],[3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

Psixologiyagi pozitsiya masalasida nazariy qarashlarning biri subyektiv yondashuv hisoblanib, unga ko‘ra, ontogenezda individual sub'ektivlikning rivojlanishi ob'ektivlikni yengib o'tish bilan tavsiflanadi, degan fikrni ilgari suradi. Ilmiy izlanuvchilar qarashlarida ontogenezda sub'ektiv pozitsiya rivojlanishi ko'rib chiqilib, bunda sub'ektivlikning rivojlanishi bilan ob'ektivlikni yengish kuzatilgan [10].

"Hayotiy pozitsiya" tushunchasini tahlil qiladigan bo‘lsak, bunga munosabat antik falsafiy qarashlarda ham o‘z aksini topgan. Qadimgi faylasuf Sokrat ta'kidlaganidek, inson faqat o'z kuchini to‘g’ri anglashi uchun ruhiyat masalasini bilishi kerakligini ta’kidlaydi. U o'z qalbini bilish orqali boshqa narsalarni, ularning dunyodagi o'rnini, insonning insonga va o'ziga bo'lgan munosabatini bilishga qodir bo‘lishini tushuntiradi.

Aflotun esa o‘z qarashlarida sub'ektning hayotiy pozitsiyasi o'zini boshqa, yuqori darajali sub'ekt sifatida aks ettirishi, idrok qilish orqali rivojlanishini ta’kidlaydi. Aristotel asarlarida esa insonning o'zi va boshqalar haqidagi sxematik tasvirlar yaratilishi, idrok etish sub'ektning o'zi tomonidan boshqarilishi va umuman hayotga munosabatni belgilab berilishi haqida fikr bildiradi [7]. Demak, shaxs pozitsiyasi kognitiv jarayonlar rivoji, shaxsiy o‘sish va rivojlanish bilan birga kecharkan, talabalarda ham oliy ta’limda kasb egallash jarayonida tashqi muhit va munosabatlar doirasi ham ta’sir ko‘rsatar ekan.

O'rta asr falsafasida inson bilimi tashqaridan, ya'ni Xudoni bilish orqali berilishi ta’kidlangan. Shu davrlarda avliyo sifatida qabul qilingan Avgustin quyidagi fikrni ilgari surgan: “Xudoni va o'z qalbingni bil; Xudo - ruh orqali, ruh - Xudo orqali. O'zingga chuqurroq kirish - bu Xudoga yo'ldir." Bunday qarashlar asosida shaxsning hayotiy pozitsiyasi diniy qarashlar tizimida shakllangan bo‘lib, uyg'onish davrida insonning dunyoqarashi o‘zlik mavzusiga qaratilgan. Bunday qarashlarga asoslangan G. Piko della Mirandola, N. Kuzanskiy va boshqalar tomonidan inson faoliyati shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z taqdirini o'zi belgilashga qaratilganligi haqidagi prizma orqali ko'rib chiqilgan. Bu davrda insonning hayotiy pozitsiyasi shaxsning o'ziga nisbatan faoliyatining tabiati va yo'nalishi bilan baholangan [7]. Bizning nazarimizda, talabalarda hayotiy pozitsiyaning shakllanishi nafaqat, ta’limiy rivojlanish, balki uning diniy qarashlari va e’tiqodlari ham ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Qadimgi yunon faylasufi Aflotunning qarashlarida: «Odamlar bir-biriga o‘xshash bo‘lib tug‘ilmaydi, tabiati ham, qandaydir ish qilish uchun qobiliyatlari ham har xil. Shuning uchun insonlar o‘zlarining tabiiy moyilliklari bilan biror ishni bajarsalar, miqdor jihatdan ham sifat jihatdan ham samarali bo‘ladi» [4],[5]. Shuni ta’kidlash kerakki, talabalik pozitsiyasi shakllanishida ham talabalarning qobiliyatlari, tafakkur va kognitiv jarayonlar muhim ahamiyat kasb etib, bu jarayonlarning ilmiy tadqiq qilinishi talabalik psixikasidagi muammoli holatlarni korreksiyalashda katta o‘rin egallaydi. Chunki, talabalikka moslashish bilan bog’liq jarayonlar pozitsion yondashuvni belgilab berishi mumkin.

Tolibi-ilmlar haqidagi qarashlar sharq mutafakkirlarining g‘oyalarida ham keng yoritilgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Umar Xayyom, Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlarida ilmiy dunyoqarash, bu borada muayyan sifatlarga ega bo‘lish, ilmiy rivojlanish va toliblar qobiliyati, nazariy hamda amaliy bilimlarni doimiy rivojlantirib borish haqida yuksak mazmundagi qarashlar keltirilgan.

Sharqda «Sharq Aflotuni», deb nom olgan Abu Nasr Forobiy ko‘plab asarlarida bilish masalalariga katta e’tibor beradi. Uning «Aql ma’nolari to‘g‘risida», «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida» va shu kabi asarlarida inson shaxsi shakllanishida maxsus ta’lim-tarbiyaning o‘rni, jamiyat hayoti va o‘zini rivojlantirishdagi o‘rniga alohida ahamiyat qaratgan [6]. Darhaqiqat, talabalarda axloqiy-ma’naviy fazilatlarni tarkib toptirilishi, kelajakda o‘z qobiliyati va qiziqishlariga xos bo‘lgan kasbni tanlashi uchun imkoniyatni yaratib beradi. Bu borada talabalik pozitsiyasida ta’lim-tarbiyaning tashkil qilinishi shaxsni kelajakda muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Sharqning buyuk durdonalaridan biri mashxur «Qutag‘du bilik» asarining muallifi mutafakkir Yusuf Xos Hojib ma’naviy va axloqiy sifatlarning mavjud bo‘lishi, jamoada ijobiy muhit yaralishiga asos bo‘lishini ta’kidlaydi. U o‘z asarlarida qahramonlar timsolida aql-idrok, sabr-qanoat, adolat, jismoniy salomatlik, yaxshilik va shu kabi axloqiy sifatlar hamda fazilatlar mavjud bo‘lishi kerakligi g‘oyasi keltiriladi [11]. Demak, axloqiy sifatlar insonlar bilan munosabatga kirishishda, ular hayotiga ijobiy ta’sir qilishga xizmat qilarkan, talabalar shaxsiy va kasbiy rivojlanishida ham bu jihatlarni hisobga olgan holda talabalik pozitsiyasiga ta’sir ko‘rsatish ahamiyatlidir. Chunki, talabalarda turli yosh va individual xususiyatiga ko‘ra muammoli holatlar kuzatilishi mumkin va bu talabalarda namoyon bo‘layotgan sifatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Sharq allomlaridan biri Abu Rayxon Beruniy aytishicha, odamning boshqa jonzotlardan ajratib turadigan tomoni uning aql-idrokka ega ekanligidadir. Bu tafovut insonning u yashayotgan jamiyat, undagi turli ehtiyojlari bilan ifodalanadi. Mazkur ehtiyojlar insondan «tashqi tomondan namoyon bo‘lmaydigan, yashiringan narsani bilishga» intilishda va kelgusida nima ro‘y berishini anglashda, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan haloqatli hodisalarni oldini olishga tayyorlanishiga imkoniyat berishida ifodalanadi [12]. Aytish mumkinki, talabalikdagi ehtiyojlar ichki va tashqi ta’sirlarga asoslanib, bu jihatlarni ilmiy tadqiq qilish dissertatsion ishimizda inobatga olingan.

Abu Ali ibn Sino insonning komillikka yetishishining birinchi sharti uning ma’rifatni egallashi ekanligini ta’kidlaydi. Ya’ni, ma’naviyatli va ma’rifatli inson kuchli, mard, hech qanday qiyinchiliklardan (hatto o‘limdan) qo‘rqmaydigan, harakatlari faqat haqiqatni anglash uchun bo‘lishini aytadi. Johil odamlarning birinchi belgisi, bilimsizligi hamda shuning uchun haqiqatni bila olmasligidadir. Bu kabi insonlardan ilmiy g‘oya va fikrlarni sir tutish kerakligini ta’kidlaydi [8]. Nazarimizda, bu ilmlarning rivojlanishi talabalarni ham kelajakda muvafaqqiyatli kamolotga erishishini ta’minlaydi. Tadqiqotimizda mazkur fikrdan kelib chiqib, talabalik pozitsiyasi shakllanishiga ta’sir qiluvchi sifatlarni o‘rganishni maqsad qilib oldik.

Kasbiy ta’lim bosqichida talabalar nafaqat kasb to‘g‘risida adekvat tasavvurlarni shakllantirishlari, balki bu tasavvurlarni kasbiy va shaxsiy o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun faollashtiruvchi omilga aylantirishlari kerak [9].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation).

Talaba shaxsining ichki pozitsiyasi sub'ektiv, faol ta'limdir. U sub'ekt sifatida insonga xos bo‘lib, shaxsga o'zining individual tamoyillarini ifodalash imkonini beradi. Subyektiv pozitsiya talabani ta'lim jarayoniga ongli va faol munosabatda bo'lgan va o'z-o'zini rivojlantirish uchun faol harakat qiladigan shaxs sifatida tavsiflaydi. Subyektiv pozitsiya talabani shakllangan, yetuk shaxs sifatida namoyon qiladi.

Talabaning sub'ektiv pozitsiyasini shakllantirish va rivojlantirishning dolzarbligi quyidagi holatlarga bog'liqligini xulosalash mumkin:

- birinchidan, sub'ektivlik shaxs, individuallik rivojlanishi uchun asos yaratadi, busiz o'z-o'zini anglash jarayoni o'zining yaxlitligi va murakkabligini yo'qotadi;

-ikkinchidan, talabaning subyektiv xususiyatlari universitetning ta’lim jarayonida faollik va ijodkorlikni ta’minlaydi, binobarin, kasbni o‘zlashtirishda muvaffaqiyatga erishadi, pedagogik o‘zaro hamkorlikni ikki sub’ekt – o‘qituvchi va talabaning birgalikdagi ijodiga aylantiradi;

Adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. O‘z.R Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. //Xalq so‘zi gazetasi, 2017 yil 16 yanvar №11],

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2019.- 488 b],

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: “O‘zbekiston”. 2017. - 48 b

4. [Бодров В.А. и др. / Психологические исследования проблемы профессионализации личности// Психологические исследования проблемы формирования личности профессионала/ М., 1991, 234с],

5. [Бодров В.А. Психология профессионалной пригодности.Учебное по собие для вузов–М..ПЕРСЕ, 2001– 511с

6. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.- 320 b

7. Грибоедова О.И., Фельдман И.Л. Философско-исторические подходы к изучению самопознания личности в психологии / О.И. Грибоедова, И.Л. Фельдман // https://cyberleninka.ru

8. Irisov A. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlari.- Toshkent: O‘qituvchi, 1994.- B.; 47

9. [Кудрявцев Т.В. Психология профессионального обучения и воспитания. -М.: МЭИ, 1985. 108

10. [Селезнева, М.В. Сравнительный анализ понятий «субъект» и «субъектность» в зарубежной психологии / М.В. Селезнева // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Психология и педагогика. – 2015 – № 2. – С. 47–53].

11. Saidov M. Yusuf Xos Hojibning o‘rta asr madaniyati tarixida tutgan o‘rni / Monografiya. – Toshkent: “Navruz nashriyoti” DUK, 2013, 135 b.48-bet

12. Tilashev X.X., Kamolova N.K. O‘rta asr qomusiy olimlari va ularning ma’naviy-ma’rifiy qarashlari. –T.: “Cho‘lpon”, 2004

13. https://en.unesco.org/themes/teachers

Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

PSIXODINAMIK NAZARIYALARDA O'SMIRLAR XULQIDA VUJUDGA KELUVCHI TURLI OG'ISHLARNING O`RGANILISHI

Ushbu qoidalar sizni pedagogik aloqa uslubi muammosiga yangicha qarashga majbur qiladi. Bu odatda o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik o'zaro munosabatlarning individual tipologik xususiyatlarini anglatadi. Samarali muloqotning ajralmas qismi deb hisoblash kerak o'qituvchi tomonidan kulgili usullardan har tomonlama foydalanish. Ma'lumki, o'qituvchining aql-zakovati, xushchaqchaqligi bolalarni nekbinlik va chidamlilik bilan zaryad qiladi, ortiqcha kuchlanishni engillashtiradi va hissiy dam olishga olib keladi. Komiksning psixoterapevtik funktsiyasini, uni ziddiyatli vaziyatlarda qo'llash samaradorligini, materialning hissiy to'yinganligini ta'kidlash mumkin. Bundan tashqari, S. L. Rubinshteynning fikricha, hazil o'z-o'zini tartibga solish bilan yaqin munosabatlarga ega. Hazil tuyg'usiga ega bo'lgan kishi vaziyatni Real baholaydi va mavjud vaziyatlarni (hatto stressli yoki stressli) aqliy muvozanatni yo'qotish sababi deb hisoblamaydi. Shuni aniqlashtirish kerakki, hazil tuyg'usi beparvolikni anglatmaydi: hazil tuyg'usi bo'lgan odamning qadriyatlar tizimida yuqori, umuminsoniy rejaning qadriyatlari ustunlik qiladi[4]. Yuqorida aytilganlar maktab o'quvchilarining psixologik salomatligini shakllantirishning zaruriy sharti o'qituvchilar orasida optimizm ifodasining ustunligi va pedagogik jarayonda kulgili usullardan samarali foydalanish degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Keling, o'quvchilarda ijobiy kayfiyat foniga ehtiyoj bor degan savolga qaytaylik. Keling, ushbu kontseptsiyaning mazmunini aniqlashtirishga murojaat qilaylik.

Natijalar bo'limi. Yaqinda u bilan birgalikda bolaning hissiy qulayligi, hissiy farovonligi, aqliy muvozanat kabi tushunchalar qo'llanilmoqda. Biroq, bizga bu tushunchalar sinonim emasdek tuyuladi. "Hissiy qulaylik" tushunchasi, bizning fikrimizcha, uni o'quvchi atrofidagi kattalar tomonidan yaratishni o'z ichiga oladi, shuning uchun talabaning o'zi passivligini tasdiqlaydi. Bu shuni anglatadiki, psixologik salomatlikni saqlashga kelsak, ushbu kontseptsiyadan foydalanish qabul qilinishi mumkin emas. Kayfiyatning ijobiy fonida talabaning aqliy muvozanati borligini tushunish aniqroq, ya'ni. turli vaziyatlarda ichki tinchlik holatiga kelish qobiliyati. Ijobiy kayfiyat haqida gapirganda, optimizm va bolaning o'zi baxtli bo'lish qobiliyati kabi psixologik sog'liq muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan xususiyatlarga tegmaslik mumkin emas. E. Dinerning so'zlariga ko'ra, to'laqonli hayot uchun inson xarakterning o'ziga xos xususiyati sifatida baxtli bo'lish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak, uning rivojlanishi bolalikdan boshlanadi. Buning uchun ota-onalar bolalarda, birinchi navbatda, hayotni quvonchli idrok etishga bo'lgan munosabatni shakllantirishlari, ijobiy his-tuyg'ularning turli manbalarini (asosan nomoddiy) topishga o'rgatishlari va, albatta, o'zlari baxtli odamlar bo'lishlari kerak. M. Fordysning so'zlariga ko'ra, baxtli ota-onalar tomonidan tarbiyalangan bolaning o'zi baxtli bo'lish ehtimoli 10-20 foizga ko'proq. Biroq, inson hayotida baxtning zarurligi va imkoniyati masalasi juda qiyin. Falsafiy adabiyotlarda qadim zamonlardan beri "axloqiy burch yoki baxt"dilemmasi muhokama qilingan. Shunday Qilib, N. Ya. Grot axloqiy hayotning aqliy asoslari shaxsiy, begona yoki umumiy baxtga intilish emas, balki ruhning dunyodagi eng yuqori ruhiy hayotni yaratish va rivojlantirishga bo'lgan ijodiy intilishlari deb yozgan. Ammo biz insonning haqiqiy baxti faqat ijodkorlik va doimiy rivojlanishda, o'z maqsadiga, erdagi missiyasiga rioya qilishda mumkin deb hisoblaymiz va bunday baxtga erishish mumkin. Biroq, optimizm muammosini muhokama qilishga qaytaylik. Optimizm kabi psixologik jihatdan sog'lom odam uchun ehtiyojni ta'kidlab, biz muvaffaqiyatsizlikni tushuntirish va tavsiflash usulini yodda tutamiz (I. Makdermott, J. O'Konnor), uning etarli tavsifi, o'zini ayblashning yo'qligi va uni noto'g'ri umumlashtirishdan iborat (masalan, umrining oxirigacha).

Munozara bo'limi. Xuddi shu J. Mak-Dermott, J. O'Konnorning fikricha, optimizm jismoniy salomatlik bilan bevosita bog'liq va shu munosabat bilan 40-45 yil davomida sog'liqni saqlash holatini o'rganish ma'lumotlari keltirilgan. Ma'lum bo'lishicha, yoshlikdagi noxush voqealarga optimistik munosabatda bo'lgan sub'ektlar etuklikda sezilarli darajada sog'lom bo'lishgan. Bolalarda nekbinlikni shakllantirishga qanday hissa qo'shish kerak? Ehtimol, ularni taraqqiyotga, ijobiy o'zgarishlarga doimiy ravishda belgilash orqali, bu ham o'quv, ham darsdan tashqari faoliyat sohasiga tegishli. T. a-xola, B. Furman to'g'ri ta'kidlaganidek, taraqqiyotning kichik belgilariga ham qasddan e'tibor qaratish ijobiy muhit yaratishga yordam beradi, odamlarning ilgari namoyon bo'lmagan o'z resurslariga murojaat qilishiga, o'zlariga va kuchlariga bo'lgan ishonchni rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib, bola tomonidan mustaqil ravishda yoki kattalar yordamida hal qilinadigan qiyin vaziyatlarning mavjudligi, umuman ijobiy kayfiyat fonida va ushbu taraqqiyot sabablarini tahlil qilgan holda bolaning rivojlanishiga fiksatsiya, bizning fikrimizcha, bolalarning psixologik salomatligini shakllantirishning asosiy pedagogik shartlari sifatida qaralishi mumkin. Yuqorida aytib o'tilganidek, individual tuzatish ishlari assimilyatsiya-akkomodativ darajadagi bolalar bilan amalga oshiriladi. Biz assimilyatsiya va turar joy jarayonlarining muvozanati buzilgan va ichki mojaroni hal qilish uchun assimilyatsiya yoki turar joy vositalaridan foydalanadigan bolalarni unga bog'lashimiz kerak. Shu bilan birga, assimilyatsiya xatti-harakati uslubi, birinchi navbatda, bolaning istaklari va imkoniyatlariga zarar etkazadigan tashqi sharoitlarga moslashish istagi bilan tavsiflanadi. Uning konstruktivligi uning qat'iyligida namoyon bo'ladi, natijada bola kattalarning xohish-istaklariga to'liq mos kelishga harakat qiladi. Va bunday bolalarning eng keng tarqalgan muammolari – bu umidlarni qondirmaslik qo'rquvi va boshqa ijtimoiy qo'rquvlar.

Adabiyotlar.

1. Собиров.А.А.Психологическое здоровье спортсменов занимающихся экстремальными видами спорта Вестник интегративной психологии. // – Ярославль, 2023. Выпуск № 27. – С. 328-331. (19.00.00; №2).

2. Собиров.А.А.Психическое здоровье. Science and education ISSN 2181-0842 VOLUME 3, ISSUE 5 MAY 2022

3.Братусь Б. С. Анатомия личности. М. 1988. С. 304.

4. Волочков А. А. Учебная активность и психологическое здоровье студента // Активность, ценностная направленность и психологическое здоровье студенчества / под ред. А. А. Волочкова. Пермь: Перм. гос. гуманит.-пед. ун-т, 2015. С. 120-135.

5. Дубровина И. В. Психическое и психологическое здоровье в контексте психологической культуры личности // Вестник практической психологии образования. 2009.№3.С.17-21.

6. Жуланова И. В., Медведев А. Н. Традиции развивающего обучения как основа инноваций в высшем образовании // Психология обучения. № 3. 2014. С. 71-86.

Sultanova Saida Muhiddin qizi
Nizomiy nomidagi TDPU,
Amaliy psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

AYOLLARDA AYBDORLIK HISSI NAMOYON BO'LISHINING NIZOLI VAZIYATLARGA MOYILLIK BILAN BOG'LIQLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ishlovchi ayollarda namoyon bo'ladigan aybdorlik hissining mazmuni, xorij psixolog olimlarining psixologik nazariyalari, ilmiy qarashlari hamda shaxs hayotida aybdorlik hissining ahamiyatli jihatlari keng yoritilgan. Shuningdek, ishlovchi ayollarda aybdorlik hissining yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishining tahlillari keltirilgan.*

Tayanch tushunchalar: *ishlovchi ayollar, ishga mas'uliyat, hamkasblar o'rtasidagi muloqot, aybdorlik hissi, hissiyot, kechinma, emotsiya, ichki me'yor, jamoatchilik fikri, ijtimoiy me'yor, xulq-atvor, o'zgalar bilan nizolashish.*

СВЯЗЬ МЕЖДУ ПРОЯВЛЕНИЕМ ВИНЫ У ЖЕНЩИН И СКЛОННОСТЬЮ К КОНФЛИКТНЫМ СИТУАЦИЯМ

Аннотация. *В данной статье широко освещаются содержание чувства вины, проявляющегося у работающих женщин, психологические теории и научные взгляды зарубежных психологов, важные аспекты чувства вины в личной жизни. Также представлен анализ научно-исследовательской работы, проведенной по определению социально-психологических факторов, влияющих на возникновение чувства вины у работающих женщин.*

Основные понятия: *работающая женщина, ответственность за работу, общение между коллегами, чувство вины, чувство, переживание, эмоция, внутренняя норма, общественное мнение, социальная норма, поведение, конфликт с окружающими.*

THE RELATIONSHIP BETWEEN THE MANIFESTATION OF GUILT IN WOMEN AND THE TENDENCY TO CONFLICT SITUATIONS

Annotation. *In this article, the content of the feeling of guilt manifested in working women, the psychological theories and scientific views of foreign psychologists, and the important aspects of the feeling of guilt in personal life are widely covered. Also, the analysis of the scientific research work conducted to determine the socio-psychological factors affecting the emergence of guilt among working women is presented.*

Key words: *working women, responsibility for work, communication between colleagues, feeling of guilt, feeling, experience, emotion, internal norm, public opinion, social norm, behavior, conflict with others.*

Tadqiqot ishimizda ilgari surilgan muammoni ko'p tomonlama o'rganish maqsadida ayollarda namoyon bo'ladigan aybdorlik hissining nizoli vaziyatlarga moyillik darajalari bilan aloqadorligini tekshirishga harakat qildik. Shu boisdan ham sinaluvchi guruhlarda Dj.P.Tangneyning «Aybdorlik va uyat hissini aniqlash» hamda K.N.Tomasning «Shaxsning konfliktli xulq-atvorga moyilligini diagnostika qilish» metodikalarini o'tkazdik. Nizoli vaziyatlarga oid metodika 30 ta savoldan iborat bo'lib, u shaxsning turli ziddiyatli holatlarda o'zini ko'pincha qanday tutishini aniqlash imkoniyatini beradi. Mazkur metodikalar yordamida sinaluvchilar guruhida nizoli xulq-atvorning quyidagi tarkibiy shakllari, ya'ni raqobat, hamkorlik, murosalilik, tortishuvdan qochish, moslashuvchanlikning aybdorlik hissi namoyon bo'lishiga ta'sirini o'rganish mumkin. Ushbu so'rovnomalar orqali sinaluvchilardan olingan umumiy ma'lumotlar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi, uning natijalari 1-jadvalda keltirildi.

O’tkazilgan metodika natijalariga binoan (1-jadval), oliy ta’lim muassasalari va tikuvchilik fabrikalarida faoliyat yuritadigan ayollarda aybdorlik hissi raqobat (r=0,63; p≤0,05) bilan musbat aloqadorlikni tashkil etgan bo'lsa, hamkorlik (r=-0,91; p≤0,01), murosalilik (r=-0,54; p≤0,05) bilan ahamiyatli manfiy korrelyatsion bog’liqlikka ega ekanligi kuzatildi. Mazkur natijalardan shuni anglash mumkinki, mehnat davomida paydo bo’ladigan ziddiyatli holatlarda o’zga shaxslar bilan agressiv munosabatda bo’lish, bahs-munozaradan qaytmaslik, o’z fikrlarini sherigiga keskin bildirish kabi holatlar ayollarda aybdorlik hissining paydo bo'lishiga asos bo’ladi. Shuningdek, ish jarayonida yuzaga keladigan tortishuv va nizoli holatlarda o’zga insonlarning manfaatlariga hurmat bilan qarash, ziddiyatlar kuchayib ketishining oldini olishga intilish, sherigining emotsional holatiga e’tibor qaratish, vaziyatni yengil hal qilishga intilish jarayonlarining ortishi ayollarda keyinchalik aybdorlik hissining namoyon bo’lish darajasini kamaytiradi.

1-jadval.

Ayollarda aybdorlik hissi va nizoli xulq-atvor shakllari orasidagi aloqadorlik (N=362) (K.Pirson korrelyatsiyasi mezoni bo‘yicha)

Komponentlar	Nizoli xulq-atvor shakllari				
	Raqobat	Hamkorlik	Murosalilik	Tortishuvdan qochish	Moslashu-vchanlik
Aybdorlik	0,63*	-0,91**	-0,54*	0,25	0,11
Uyat	0,41**	-0,72*	-0,27	0,95	0,33
Eksternallik	-0,56*	0,63**	0,75*	0,44	0,04
Alohidalik	0,12	0,19	0,58	0,81*	0,59
Beta-mag'rurlik	0,90**	0,25	0,37	0,13	-0,59*
Alfa-mag'rurlik	0,68*	0,01	-0,39**	0,08	0,17

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01

Tadqiqot ishtirokchilarida uyat hissi raqobat (r=0,41; p≤0,01) bilan ijobiy bog'liqlik kuzatilgan bo'lsa, hamkorlik (r=-0,72; p≤0,05) bilan o‘zaro teskari aloqadorlikni tashkil etishi aniqlandi. Natijalardan shuni ta’kidlash mumkinki, ayollarda kasbiy faoliyat davomida shaxslararo munosabatlardagi ziddiyat va bahs-munozalarda sherigi bilan nizolashishga moyillik, bildirilgan fikrlarga salbiy yondashish, tortishuvni to’xtatishni istamaslik holatlari keyinchalik uyat hissining paydo bo’lishiga olib keladi. Bundan tashqari, mojaroli vaziyatlarda ijobiy qaror qabul qilish, o’zga insonlar fikrlarini tahlil qilish, atrofdagilarga ijobiy munosabatda bo’lishning kuzatilishi ayollarda o’zining xulq-atvoridan xijolat bo’lmasligiga zamin hozirlaydi.

Ayollarda eksternallik komponenti hamkorlik (r=0,63; p≤0,01), murosalilik (r=0,75; p≤0,05) bilan ijobiy korrelyatsion bog‘liqlik, raqobat (r=-0,56; p≤0,05) bilan ahamiyatli manfiy aloqadorlikka ega ekanligi kuzatildi. Ushbu ko‘rsatkichlar shuni bildiradiki, tadqiqot qatnashuvchilarida tashqi olamga yo’nalganlikning ortib borishi insonlar bilan nizoga kirishganda ikkala tomon uchun ma’qul qaror qabul qilishga intilish, boshqa shaxslar manfaatlarini hurmat qilish, murosa yo’lini qidirish, o’zaro kelishuvni ta’minlash xususiyatlarining rivojlanishiga turtki bo’ladi. Shuningdek, kasbiy faoliyatda yuzaga kelgan kelishmovchiliklarda o’zgalar

bilan bahslashishni kamaytirish, sherigini raqib sifatida baholamaslik kabi jihatlarning ortishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, alohidalik komponenti tortishuvdan qochish (r=0,81; p≤0,05) bilan ahamiyatli musbat korrelyatsion aloqadorlik qayd etildi. Mazkur ko‘rsatkichlardan anglash mumkinki, mehnat jarayonida sodir bo’ladigan turli bahsli voqea-hodisalarga o’zining daxldorligini rad etish, ko’ngilsiz vaziyatlarda qurshab turgan tevarak-atrofni asos qilib ko’rsatish holatlarining ortishi ayollarning o’zga insonlar bilan yuzaga keladigan bahs-munozaralardan qochish, tortishishni xohlamaslik, ziddiyatlarda o’z manfaatlari uchun kurashmaslik kabi omillarning ko’p uchrashiga olib keladi.

Beta-mag'rurlik raqobat (r=0,90; p≤0,01) bilan ijobiy bog’liqlikni qayd etgan bo'lsa, moslashuvchanlik (r=-0,59; p≤0,05) bilan ahamiyatli teskari aloqadorlik mavjudligi ma’lum bo’ldi. Bundan ko‘rinadiki, kasbiy faoliyatda ayollardagi o’z xulq-atvoridan qoniqish, xatti-harakatlarini to’g’ri deb hisoblash, o’zining fe’l-atvoriga ijobiy baho berish xususiyatlari ortishi o’zga shaxslar bilan nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishiga ta’sir qilib, bahslashuvchi tomondan ustun kelishga intilish, raqobat munosabatini hosil qilishning ham ortishiga olib keladi. Shu bilan birga, beta-mag’rurlik darajasi yuqori bo’lgan ayollarda shaxslararo munosabatlarda atrofdagi insonlarning fikrini inobatga olish, kelishmovchilik paydo bo’lganda ularga yon bosish holatlari kamroq kuzatiladi.

Alfa-mag'rurlik raqobat (r=0,68; p≤0,05) bilan musbat bog’liqlik, murosalilik (r=-0,39; p≤0,01) komponentlari bilan esa manfiy aloqadorlik aniqlandi. Natijalardan ayon bo‘ladiki, oliy ta’lim tashkilotlarining professor-o’qituvchilari va tikuvchilik fabrikalarining ishchilarida mehnat jarayonida kuzatiladigan mojaroli holatlarda boshqa shaxslar bilan bahslashish, nizoni bartaraf etishga intilmaslik xususiyatlari ulardagi o’z shaxsiga yuqori baho berish hamda o’z-o’zidan g’ururlanish sifatlari bilan bevosita aloqadorlikni tashkil etadi. Bundan tashqari, mehnat faoliyatida kuzatiladigan muammoli voqea-hodisalarga nisbatan bosiqlik bilan munosabatda bo’lish, raqibi bilan kelishuvni ta’minlash, ikki tomonga ham mos keluvchi qaror qabul qilish orqali vaziyatni yumshatishga harakat qilish holatlari alfa-mag’rurlik sifatlari yuqori bo’lgan ayollarda kamroq uchraydi.

Shuni ta’kidlash joizki, oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari va tikuvchilik fabrikalari ishchilarining natijalari ko’rib chiqilganda, aybdorlik hissi va nizoli xulq-atvor shakllari o‘rtasida korrelyatsion aloqadorliklar aniqlandi. Shu bilan bir qatorda, tadqiqot jarayonida ayollarda namoyon bo’ladigan aybdorlik hissi hamda nizoli xulq-atvor shakllari orasidagi bog’liqliklar sohalar kesimida ham alohida tahlil qilindi. Jumladan, ushbu metodika bo’yicha oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritadigan professor-o’qituvchilarning ko‘rsatkichlari 2-jadvalda ifodalangan.

2-jadval.

Oliy ta’lim muassasalarining professor-o’qituvchilarida aybdorlik hissi va nizoli xulq-atvor shakllari orasidagi aloqadorlik (N=186)
(K.Pirson korrelyatsiyasi mezoni bo‘yicha)

Komponentlar	Nizoli xulq-atvor shakllari				
	Raqobat	Hamkorlik	Murosalilik	Tortishuvdan qochish	Moslashu-vchanlik
Aybdorlik	0,75**	-0,26	-0,38*	0,82	0,59
Uyat	0,31*	-0,66*	0,11	0,70	0,03

Eksternallik	-0,71**	0,63*	0,01	0,33	0,18
Alohidalik	0,22	0,84	-0,17	0,53	0,07
Beta-mag'rurlik	0,58	0,37	0,21	0,17	-0,50**
Alfa-mag'rurlik	0,92*	-0,19	-0,42**	0,26	0,08

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01

Jadvalda berilgan natijalarga ko‘ra (2-jadval), oliy o’quv yurtlarida ta’lim beradigan professor-o’qituvchilarda aybdorlik hissi raqobat (r=0,75; p≤0,01) bilan ijobiy aloqadorlik kuzatilgan bo’lsa, murosalilik (r=-0,38; p≤0,05) bilan o‘zaro teskari korrelyatsion bog’liqlikni tashkil etgan. Bundan ayon bo’ladiki, oliygohlarda dars beradigan pedagoglar faoliyatida yuzaga keladigan turli nizoli voqea-hodisalarda o’zini o’zi ayblash holatlari ularda bahslashuvchi inson bilan salbiy munosabat o’rnatish, ziddiyatni kuchaytirish kabi holatlar ta’sirida namoyon bo’ladi. Shuningdek, mehnat jarayonida sodir bo’ladigan ziddiyatli holatlarda nizolashuvchi tomonni xafa qilmaslik, uning fikrlarini alohida inobatga olish singari holatlar ayollarda keyinchalik aybdorlik hissining paydo bo’lishini susaytiradi.

Shu bilan birga, oliy ta’lim professor-o’qituvchilarida uyat hissi raqobat (r=0,31; p≤0,05) bilan musbat bog'liqlik aniqlangan bo'lsa, hamkorlik (r=-0,66; p≤0,05) bilan manfiy aloqadorlikka ega ekanligi qayd etildi. Mazkur natijalardan ko’rish mumkinki, ma’lum voqelik uchun o’zidan uyalish darajasi yuqori bo’lishiga mojaroli vaziyatlarda insonlar bilan keskin nizoga borish, boshqa shaxslarning qarashlarini hurmat qilmaslik xususiyatlari bevosita ta’sir qiladi. Bundan tashqari, mehnat jarayonida atrofdagi insonlar bilan muloqot davomida kelishib faoliyat yuritish, ularning fikr-mulohazalarini inobatga olish holatlari pedagog xodimlarda sodir qilingan ish-harakat va hodisalardan uyalish hislarining kamayishiga olib keladi.

Eksternallik hamkorlik (r=0,63; p≤0,05) bilan musbat aloqadorlik, raqobat (r=-0,71; p≤0,01) komponentlari bilan o‘zaro manfiy bog‘liqlikni tashkil etganligi aniqlandi. Mazkur ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, professor-o’qituvchilarning o’zgalar bilan kelishmovchilik yuzaga kelganda ular bilan hamfikr bo’lish, nizoga borishni istamaslik xususiyatlarining namoyon bo‘lishida atrofdagi shaxsga yo’nalganlik, ekstrovertlik, boshqalar bilan muloqotda bo’lishga intilish singari psixologik ta’sirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Beta-mag'rurlik moslashuvchanlik (r=-0,50; p≤0,01) bilan ahamiyatli teskari korrelyatsion bog‘liqlikka ega ekanligi qayd etildi. Ushbu natijani shunday izohlash mumkinki, pedagog xodimlarda o’z xatti-harakatlaridan g’ururlanish, sodir bo’lgan noxush vaziyatlarda o’zini aybdor sanamaslik, imkoniyatlariga yuqori baho berish holatlarining tarkib topishi ularda nizoli jarayonlarda sherigiga yon bosish, bahslashishni istamaslik, o’zgalarga qo’pol munosabatda bo’lmaslik kabi omillarning kamayishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Alfa-mag'rurlik raqobat (r=0,92; p≤0,05) bilan ijobiy korrelyatsion aloqadorlik, murosalilik (r=-0,42; p≤0,01) komponenti bilan ahamiyatli salbiy bog‘liqlik kuzatildi. Bundan ma’lum bo’ladiki, pedagog shaxsida o‘ziga nisbatan ijobiy munosabatning yuqorligi, o’z ichki layoqatlaridan faxrlanish, shaxsiy imkoniyatlarda ustuvorlikka egalik xususiyatlarinng tarkib topishi oliy ta’lim professor-o’qituvchilarida o’zga shaxslar bilan ziddiyatga borganda o’z manfaatlarini himoya qilish, agressiv munosabatda bo’lish kabi holatlarning ortishiga sabab bo’ladi.

Yuqorida ifodalangan natijalar asosida shuni ta’kidlash joizki, oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritadigan professor-o’qituvchilarda aybdorlik hissi va nizoli xulq-atvor shakllari o‘rtasida ahamiyatli ijobiy va salbiy aloqadorliklar kuzatildi. Tikuvchilik fabrikalarida mehnat qiladigan ayollarda aybdorlik hissi va nizoli xulq-atvor shakllari o’rtasidagi bog‘liqlik darajalari 3-jadvalda aks ettirilgan.

Jadvalda keltirilgan natijalarga binoan (3-jadval), tikuvchilik fabrikasi ishchilarida aybdorlik hissi hamkorlik (r=-0,88; p≤0,01), murosalilik (r=-0,26; p≤0,05) bilan salbiy korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi qayd etildi. Bundan ko‘rinadiki, fabrikalarda ishlaydigan ayollarda kasbiy faoliyat jarayonida kuzatiladigan nizoli vaziyatlarda sherigining qarorlarini hurmat qilmaslik, o’z manfaatlarini ustun qo’yish, bahslashuvchi tomon bilan yarashishni istamaslik, kelishuvni ta’minlamaslik darajalari qanchalik yuqoriligi kuzatilsa, bo’lib o’tgan ziddiyatli vaziyatlar uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olish, xulq-atvoridan afsuslanish, o’zini o’zi tanqid qilish kabi xususiyatlar shunchalik ko’p rivojlangan bo‘ladi.

Bundan tashqari, fabrika ishchilarida uyat hissi raqobat (r=0,37; p≤0,01) bilan musbat bog'liqlik kuzatilgan bo'lsa, hamkorlik (r=-0,29; p≤0,05) bilan o‘zaro manfiy aloqadorlikka egaligi aniqlandi. Natijalardan ma’lumki, nizoli holatlarda insonlar bilan qo’pol munosabatda bo’lish, ziddiyatni kuchaytirish kabilar fabrika xodimlarida keyinchalik o’z xatti-harakatlaridan uyalish hissi paydo bo’lishiga olib keladi. Shuningdek, yuzaga kelgan noxush vaziyatlardan xijolat bo’lish, atrofdagilardan uyalish hissining past darajada namoyon bo’lishiga ulardagi mehnat faoliyatida o’zgalar bilan birdamlikni oshirish, kelishmovchiliklarda fikrlarini hurmat qilish, do’stona munosabatlarni rag’batlantirish kabi sifatlar sezilarli ta’sir qiladi.

3-jadval.

Fabrika ishchilarida aybdorlik hissi va nizoli xulq-atvor shakllari orasidagi aloqadorlik (N=176) (K.Pirson korrelyatsiyasi mezoni bo‘yicha)

Komponentlar	Nizoli xulq-atvor shakllari				
	Raqobat	Hamkorlik	Murosalilik	Tortishuvdan qochish	Moslashu-vchanlik
Aybdorlik	0,19	-0,88**	-0,26*	0,01	0,17
Uyat	0,37**	-0,29*	-0,11	0,74	0,12
Eksternallik	-0,66*	0,14	0,96**	0,07	0,58
Alohidalik	0,60	0,52	0,61	0,85*	0,13
Beta-mag'rurlik	0,57**	0,59	0,08	0,59	0,47
Alfa-mag'rurlik	0,15	0,42	-0,85	0,04	0,36

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01

Tikuvchilik fabrikalarida ayollarda eksternallik komponenti murosalilik (r=0,96; p≤0,01) bilan ijobiy korrelyatsion bog‘liqlik, raqobat (r=-0,66; p≤0,05) bilan ahamiyatli manfiy aloqadorlikka ega ekanligi kuzatildi. Ushbu ko‘rsatkichlardan anglash mumkinki, tadqiqot qatnashuvchilarida tashqi olam va ijtimoiy sohaga yo’nalganlikning ortib borishi insonlar bilan nizoga kirishganda murosa yo’lini qidirish, o’zaro kelishuvni ta’minlash xususiyatlarining rivojlanishiga asos bo’ladi. Shu bilan birga, kasbiy faoliyatda kuzatiladigan ziddiyatlarda o’zgalar bilan bahslashishni kamaytirish, sherigini raqib sifatida baholamaslik kabi jihatlarning ortishiga eksternallik xususiyati ta’sir qiladi.

Alohidalik va tortishuvdan qochish (r=0,85; p≤0,05) komponentlari orasidagi aloqadorlik tadqiq etilganda, ikkala xususiyat orasida ahamiyatli ijobiy bog‘liqlik aniqlandi. Mazkur ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, fabrika ishchilarida yuzaga kelgan ko’ngilsiz voqealarga tashqi olamni sababchi qilish, vaziyatga o’zining aloqadorligini rad etish, insonlarga kam

e’tibor qaratish kabi omillar o’zga insonlar bilan nizolashish, o’z manfaatlarini himoya qilish kabi xususiyatlarning namoyon bo’lishiga to’sqinlik qiladi.

Beta-mag'rurlik va raqobat (r=0,57; p≤0,01) komponentlari o’rtasida ahamiyatli musbat bog‘liqlik mavjudligi qayd etildi. Bundan ko‘rinadiki, tikuvchilik fabrikalarida faoliyat yuritadigan ayollarda o’z mehnat mahsuliga yuqori baho berish, noxush vaziyatlarda o’zini aybdor sanamaslik, amalga oshirayotgan ish-harakatlaridan g’ururlanish kabi xususiyatlarning ortishi, o‘z navbatida, atrofdagi insonlar bilan tushunmovchiliklar paydo bo’lishi, manfaatlar to’qnashuvining yuzaga kelishi singari jihatlarning ham ortishiga sabab bo‘ladi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, ayollarda nizoli xulq-atvor shakllarining aybdorlik hissi namoyon bo’lishiga ta’sir jarayoni tahlil qilinganda, shu narsa ayon bo‘ldiki, har ikkala hodisa ayrim nuqtalarda ijobiy bog‘liqlikni qayd etsa, ba’zi hollarda salbiy aloqadorlik ham kuzatiladi. Xususan, hamkorlik hamda murosalilik komponentlari aybdorlik va uyat hislari bilan manfiy korrelyatsion aloqadorlikni tashkil etsa, eksternallik xususiyatlari bilan esa musbat bog’liqlik qayd etildi. Mazkur ko’rsatkichlar ayollarda aybdorlik hissi yuzaga kelishiga shaxsdagi nizoli xulq-atvor shakllarining shakllanganlik darajasi bevosita ta’sir qilishi mumkinligini dalillaydi.

Adabiyotlar.

1. Tangney J. P., Dearing R. L. Shame and Guilt. New York: Guilford Press, 2003. 272 p.
2. Муздыбаев К. Переживание вины и стыда. СПб : СПб, филиал Института социологии РАН, 1995. стр. 39.
3. Ильин Е.П. Психология совести: вина, стыд, раскаяние. – СПб.: Питер, 2016.
4. Изард К. Э. Психология эмоций. – СПб.: Питер, 2008. – 464 с.: ил. – (Серия «Мастера психологии»).

Setekova Gulnaz Arslanbayevna
Nukus olimpiada va paralimpiya sprot turlarini tayyorlash markazi psixologi

SPORTCHILARDA EKSTREMAL VAZIYATLARDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sportchilarda ekstremal vaziyatlarda shaxs psixologik himoyasi va uning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini o‘rganish hamda ekstremal vaziyatlarda to‘qnash kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni o‘rganilgan. Ekstremal vaziyatlarda sportchi shaxsining psixologik himoyasi doirasidagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilingan.*

Kalit so’zlar: *ekstremal vaziyatlar, psixologik muhofaza, motiv, bezovtaligi, adekvat hissiy holat, favqulotda vaziyat, individuallik, stress, depressiya.*

ФОРМИРОВАНИЕ У СПОРТСМЕНОВ МЕХАНИЗМОВ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ В ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ

Аннотация. *В данной статье исследуется психологическая защита личности в экстремальных ситуациях у спортсменов и ее специфические психологические особенности, а также проблемы, с которыми она может столкнуться в экстремальных ситуациях. Проанализирована научная литература в рамках психологической защиты личности спортсмена в экстремальных ситуациях.*

Ключевые слова: *экстремальные ситуации, психологическая защита, мотив, тревожность, адекватное эмоциональное состояние, чрезвычайная ситуация, индивидуальность, стресс, депрессия.*

FORMATION OF PSYCHOLOGICAL DEFENSE MECHANISMS IN EXTREME SITUATIONS IN ATHLETES

Annotation. *This article explores the psychological protection of the individual in extreme situations in athletes and the study of its specific psychological characteristics, as well as the problems that can be encountered in extreme situations. In extreme situations, scientific literature has been analyzed within the framework of the psychological protection of the personality of the athlete.*

Key words: extreme situations, psychological protection, motive, anxiety, adequate emotional state, emergency situation, individuality, stress, depression.

Kirish. Ekstremal vaziyatlarda shaxs psixologik himoya qilish muammosi hamisha insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Zero, insonning har jihatdan ijtimoiy taraqqiyoti, shaxs sifatidagi faolligi va o‘zini o‘zi rivojlantira borishi ko‘p jihatdan ushbu jarayonga bog‘liqdir.

Alohida ta’kidlash joizki, shaxslar o‘zlarining ma’lum doiradagi psixologik imkoniyatlari, yutuqlari, kamchiliklari haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lsalar, bu ularning hayotda uchraydigan har qanday muvaffaqiyatsizliklarni osonlik bilan bartaraf etishga, o‘z imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalana olishga, bir so‘z bilan aytganda, o‘zlari haqida yanada teran, ijobiy va o‘ziga xos ijtimoiy qiymatga ega bo‘lgan tasavvurlarning shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Zero, bu jarayonda eng avvalo ta’lim-tarbiya tizimi, uning mazmun-mohiyati, ta’lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ekstremal vaziyatlarda shaxs psixologik himoyasi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ekstremal vaziyatlarda psixologik himoyani talqin qilishning nazariy-fundamental asoslarni yaratganlar: I.V.Dobryakov. I.V.Nikolskay, B.R.Qodirov, L.A.Mixaylova, M.Ye.Muxtorov, Ye.Z.Simirnov, Sh.R.Barotov, N.A.Yaxyarovlarning rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ekstremal vaziyatning kategoriya sifatidagi talqiniga ma'lum darajada e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari V.G.Kamenskayaning "Psixologik himoya va nizolar tizimidagi motivatsiyalar" asari psixologik himoya mexanizmlari ma'lum darajadagi nizoli vaziyatlar talqiniga bag'ishlangan.

Ma'lumki, ekstremal psixologiya fanida aynan ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya muammosiga bag'ishlangan va uning barcha yo'nalishlarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar yetarli bo'lmasa-da, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya muammosining zarurligini ko'rsata oluvchi va uning metodologik ildizlarini asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqotlarni alohida qayd etish mumkin.

Mazkur adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi psixologik himoya metodologiyasiga taalluqli ayrim umumiy jihatlarni ijtimoiy psixologiya fani nuqtai nazaridan tadqiq qilishimizga to'g'ri keladi.

"K.K.Platonovning ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik individuallik muammosini inson individual olami namoyon bo'lishining eng yuqori darajasi sifatida tadqiq qildi va psixologik himoya mohiyatini tasavvur qilish uchun muhim bo'lgan shaxsni nafaqat o'zining individual xususiyatlari asosida, balki bu individual xususiyatlarning ijtimoiy mazmuni o'zini o'zi adekvat baholash va rivojlantirishga asoslangan shart-sharoitlarni yaratish bilan kamol toptirish muqararligini ilmiy jihatdan asoslab berdi."

Psixologik himoya metodologiyasini yaratishda "Ustanovka", "Ijtimoiy ustanovka" muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar ham muhim o'rin tutadi. Chunki, psixologik xizmat jarayonining psixologik himoya vositasi sifatidagi asosiy vazifalarini ijtimoiy ustanovka tadqiqisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Binobarin, ustanovka (psixologiyada) shaxsning muayyan faolligini (idrok, tafakkur, maqsadga muvofiq harakatlar va hokazo) bajarishga qaratilgan, avvalgi tajribasi bilan belgilangan tayyorgarligi, kishining uni muayyan tarzda harakatga undovchi tayyorgarlik formasi hisoblanadi.

Keyinchalik esa G'arb, ayniqsa, AQSH olimlari tomonidan ijtimoiy ustanovka tushunchasi "attityud" so'zi bilan ifodalanib, sosial psixologiya va sosiologiya faniga shaxsning guruh a'zosi sifatidagi xulq-atvoriga, uni mexanizmlarini o'rganuvchi ob'yekt sifatida kiritildi (U.Tomas, F.Znaneskiy, G.Ollport, M.Smit, D.Kas va boshqalar). Demak, ijtimoiy psixologiyada birinchi bo'lib "attityud" tushunchasi "individning ijtimoiy maqsadi va mohiyatiga nisbatan psixologik tayyorgarligi sifatida yoki ayrim ijtimoiy sifatlarni anglashga nisbatan namoyon bo'luvchi individning ongli holati" sifatida talqin qilindi va bu talqin qator eksperimental tadqiqotlar asosida mustahkamlandi.

1935 - yildayoq G.Ollport "attityud" tushunchasi, ehtimol hozirgi zamon amerika ijtimoiy psixologiyasi uchun eng xarakterli va zarurdir, deb ta'kidlagan edi.

G.Ollport attityudga shaxsning harakatga tayyorgarlik jarayoni sifatida qarab, xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi yakunlangan manba ekanligini e'tirof etadi va bu shaxsning yo'nalishi uchun juda muhimdir. Xuddi shunday mulohazani E.Bogardusning "attityud - bu atrof-muhitdagi ayrim omillarga mos yoki qarama-qarshi (towad ok agains) harakat qilish an'anasidir" (U.S.Qogads-1931) degan fikri bilan ham izohlash mumkin. Bu o'rinda muallif shaxsning faoliyatga nisbatan o'zini o'zi psixologik himoya qilishi jarayoniga jiddiy e'tibor beradiki, bu e'tibor psixologik himoyaga asoslangan xizmat jarayonining ayrim ilmiy-nazariy jihatlari haqida fikr-mulohaza yuritish imkonini beradi.

Shuningdek, psixologik himoya jarayonida hisobga olinishi va tadqiq qilinishi muhim bo'lgan ustanovka muammosi V.M.Snayder tadqiqoti bo'yicha o'zini o'zi kuzatish (seld monitoqing) jarayoni bilan bog'liq holda, shuningdek, ustanovka va xulq-atvor hamjihatligidan dalolat beruvchi "layoqaytlilik prinsipi" (aqaitabifity pkinsiplo') zamiridagi empirik

ma’lumotlar qayd etilsa, Dyuval va Vixland tadqiqotlari ustanovkani "o‘z-o‘ziga diqqatni qaratish" (abiuktiku sulf-awakunuss) nazariyasi asosida tadqiq qiladi va tegishli ko‘rsatmalar beradi .

A.Xaymer va M.Zeydner psixologik manbalar yordamida hayotiy murakkab vaziyatlarni yechish resurslariga doir o‘zlarining shaxsiy tasniflarini ishlab chiqqanlar - u o‘zida inson hayoti faoliyatining beshta jabhasini aks ettirgan bo‘lib, bu bosqichni “itarib” chiqaradi: bular quyidagi sferalardir:

1) anglash va aks erttirish;
2) sezish;
3) insonlar bilan muloqot qilish;
4) psixologik kurash;
5) fizik kurash.

Muammoli holatning samaradorligi bevosita uning tuzilish shartiga bog‘liq.

Barcha amaliy koping koping xulq-atvor mutaxasisslarining umum fikrlariga ko‘ra, shaxs o‘zidagi shaxsiy konstruktlariga ega bo‘lib, uning yordamida inson o‘zida vaziyatga mos qiyinchilikni yengish strategiyalarini rivojlantirar ekan. Shuningdek, to individda chigallikni yechish shakllanguniga qadar unda aniq bir foydalanuvchi vositalari mavjud bo‘lolmaydi. Bu xususiyat shaxs fenomeni bilan bog‘liq bo‘lib, ular sirasiga, “Men konsepsiya”si, lokus nazorat, refleksiya, empatiya va boshqalar kiradi. Ularning barchasi birgalikda shaxsning barqaror xususiyatlarini tashkil qilib, mazkur jarayonlar ijtimoiylashuv, fe’l-atvorni boshqarish, shaxsdagi barcha ichki ma’qullash yoki ma’qullamaslik singari xususiyatlarni shakllantiradi. Shaxs xarakterining nomlanishi yoqimsiz hodisani bartaraf etishda foydalanadigan strategiyalarini saralashga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi va faoliyat natijasi ham shunga o‘xshash bo‘ladi. Aynan shu boisdan ham shaxs xususiyatlaridan biri “hayotiy qiyinchilikni yengish” tushunchasini talqin qila boshlangan. Tanlangan strategiya nafaqat vaziyatni muvafaqqiyatli yoki muvafaqqiyatsiz yengishga balki, shaxsning maqsadli muvafaqqiyatga erishishiga ham ta’sir o‘tkazadi.

“Koping strategiyasi” tushunchasi jarayon resurslarini boshqarish sifatida ham keng tahlil qilinadi. Taxminlarga ko‘ra, hayotiy murakkabliklarni bartaraf etish mohiyatan shaxs resurslarini safarbar etish orqali amalga oshiriladi.

Stressli vaziyatni yengishda turli determinantli va samarador salmoqqa ega empirik ma’lumotlar olingan. Haqiqatdan ham, barcha koping xulq-atvor doirasidagi ishlar chuqur empirik xarakterga tayanadi. Shunday qilib, Folkman va Lazarus hamkasblari bilan birgalikda individning yoqimsiz 67 hodisaga nisbatan javob reaksiyasini aniqlovchi “Yenga olish qobiliyati” metodikasini ishlab chiqqanlar. Faktorli analiz o‘zida 8 ta diskret strategiyalarni bo‘lishga undagan:

Qarshi turib yengish strategiyasi - munosabatlardagi yoqimsiz va nafratlantiruvchi muammoli vaziyatni inson agessiv kuch vositasida yengishga harakat qiladi.

Masofa saqlash strategiyasi - individ o‘zidagi muammolarni ajratib olib ular haqida unitishga harakat qiladi.

O‘z- o‘zini nazorat qilish strategiyasi - shaxsiy tug‘ulari va ishlarini nazorat qilishga urinishni qamrab oladi.

Ijtimoiy ko‘mak izlash strategiyasi - individ bor kuchini jamiyatdan informasion, moddiy va emosional yordam topishga qaratadi.

Javobgarlikni olish strategiyasi - o‘z roli tufayli yuzaga kelgan muammo natijasini, avvalgi xatolarini qayta takrorlamaslikka harakat qilishni qamrab oladi.

Qochish strategiyasi - inson bor kuchini to‘plab muammoli vaziyatdan ketib halos bo‘lish.

Muammoni rejali hal qilish strategiyasi - rejani tuzib chiqish va uni amaga oshirishdan iborat.

Qayta pozitiv baholash strategiyasi - qiyinchilikni bartaraf etishda, interpritasiya qilishda pozitiv terminlardan foydalanish va uni inson tomonidan pozitiv qabul qilish.

1-jadval.

Himoya mexanizmlari

Himoya myexanizmlari	Mazmuni
Tajovuzkorlik	Individning unga past baho bergan, o‘zi haqidagi tasavvuriga ikkilanishga sababchi shaxsga bo‘lgan reaksiya
O‘ylash	Noxush hissiyot, his-tuyg‘ularning bir ob’yektdan talabga muvofiq bo‘lmagan boshqa ob’yektga ko‘chirilishi
Tasavvur	O‘zining hissiyoti, istak-xohishlari va xususiyatlarini o‘zi bilmagan holda boshqa kishida ko‘rishi
Ideallashtirish	O‘zini “ideallashtirish” o‘z xatolarini, kamchiliklarini tan olmaslik
Unutish	Shaxsning yoqtirmagan, noxushliklarini unutishi: odamlarning timsoli, ismi, muloqot vaqtida noxush yoqimsiz xotiralarning esga tushurilishi kabi holatlar va hokazo
Qabul qilmaslik (inkor etish)	Individning voqea va hodisalarni qabul qilmasligi, inkor etishi va u haqdagi bilimlarini “men bu haqda hech nimani bilmasdim”, “bu meniki emas”, “menga shunday aytdilar”, “men bunday aytmagan edim” kabilar bilan chegaralanishi.
Diskreditatsiya	Xabar manbalarini past baholash “men-timsol”, “hamma gapirsa ham, sen gapirma”, “kim hakam?” kabi gaplar bilan shaxsni kamsitish va unga past baho berish
Identifikatsiya	O‘zini boshqa odam bilan va namunali xulq-atvorga ega guruh bilan solishtirish o‘z xulq-atvori va munosabatini atrofdagilar bilan taqqoslab, hayot tarzini yengillashtirish
Konversiya (o‘zgarmoq)	“Men”ligi yuqoriligini saqlab qolib o‘ziga noxush holatlarni, vaziyatlarni hazilga yo‘yadi va muomalada bo‘ladi hamda berilgan tanbehlarni hazil deb qabul qiladi.

Ushbu psixologik himoya mexanizmlarining berilishi orqali muallif shaxs xulq-atvori formalarida tashqi (atrof) muhitdan va tajovuzkorlikdan o‘zini o‘zi himoya qilish holatlarini ilmiy jihatdan tadqiq qiladi.

Yuqorida keltirilgan 8 ta hayotiy murakkab vaziyatlarda foydalaniluvchi strategiyalar shaxsning mo‘ljal olishiga ko‘ra bir-biridan mutlaqo farqlanadi. Bunday vaziyatlarni to‘g‘rilash uchun shaxs yo atrofidagilarga hujum qiladi, yo ulardan yordam olishga harakat qiladi, yo bu vaziyatdan qochishga harakat qiladi, yo o‘ziga muammoni ajratib oladi, yo vaziyatni pozitiv baholashga harakat qiladi, yoki bo‘lmasa butun diqqatini emosional holati va fe’l-atvoriga qaratishga harakat qiladi (o‘zining tuyg‘ularini kelgusida xato qilmaslik uchun saqlaydi) va so‘ngida bor e’tiborini muammoni hal qilishga qaratadi. Aslida bu strategiyalar bir-biridan mustasno bo‘lsada, ba’zida ular bir-birini to‘ldiradi. Amaliyot natijalarining ko‘rsatishicha, muammoli vaziyatga duch kelgan har ikkinchi odam bir vaqtning o‘zida bir nechta koping strategiyalaridan foydalanar ekan. Qator tadqiqotchilarning baholashicha, negativ hodisani bartaraf etishda bir necha usullardan samarali foydalanish amaliy qadamlarni o‘zlashtirish im-koniyatini berar ekan. Strategiyalar ichida qochish va qayta pozitiv baholash strategiyalari noeffektiv strategiyalardan sanalib, qayta pozitiv baholash strategiyasi inqirozli vaziyatlardagi qopqondir, bunday vaziyatda murakkab holatga ijobiy ahamiyat berish distressni kamaytirsada, emosional stress yuzaga kelishiga zamin hozirlaydi. Shuning bilan bir qatorda, bu yasama munosabat amaliy hal qilishimiz kerak bo‘lgan muammodan diqqatimizni chalg‘itadi. Qochish strategiyasi esa dezadaptasiya jarayonida ochiq - oydin namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Olib borilgan nazariy-ilmiy tahlillar mavzu doirasidagi muammolarni, xususan, ekstremal vaziyatlar davrida o‘zini o‘zi psixologik himoya qilish haqidagi tasavvurlarni nazariy

tadqiq qilinishiga bag‘ishlangan ishlarning bugungi kunda taqchilligi va shu bilan birga dolzarbligini ko‘rsatdi. Jahonda ko‘plab ilg‘or psixologiya namoyondalarining ekstremal vaziyatlar davrida o‘zini o‘zi psixologik himoyaga oid qarashlari tadqiq qilinganda bu jarayon shaxs ijtimoiylashuvi va rivojlanishi uchun o‘rganilishi muhim bo‘lgan tadqiqot yo‘nalishi ekanligi qayta-qayta ta’kidlanadi.

Ayni paytda, Rossiyadagi olimlar hamda mamlakatimiz olimlari ham aynan shu muammoning ayrim xususiyatlarini yoritishga va tadqiq qilishga o‘z e’tiborlarini qaratmoqdalar. Bu boradagi qator izlanishlar va ilmiy mushohadalarning tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

Adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. -104 b.

2. Barotov Sh.R. Mehnat jarayoni va ijtimoiy ruhiy jihatlar // Iqtisod va hisobot. – Toshkent, 1997. - № 9. – B. 60-62.

3. Vilyunas V.K. Psixologicheskiye mexanizmы biologicheskoy motivasii. – M.: MGU, 1986. - 208 s.

4. Qodirova A.T. O‘smirlarda oilaviy nizolar to‘g‘risida ijtimoiy tasavvurlarining shakllanishi.-Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2007. –143 b.

5. Sone L. The Family, Sex and Marriaagein England 1500-1800. N.Y., 1979. P.

6. Maslow A. Self-actualizing and Beyond – In: Challenges of Humanisic Psychology. – NY.: 1967. – P. 524.;

Xurramova Oygul Xudayberdievna
Kitob tumani 66-maktab amaliyotchi psixologi

O‘SMIRLARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada intellektninig mazmun mohiyati hamda o’smirlarda emotsional intellektni boshqarishning hissiy va ruhiy xususiyatlarning tomonlari shuningdek, o’smirlarda emotsional intellektni boshqarishning xususiyatlari ochib berilgan. Bundan tashqari emotsional intellektning maqsadi, talabalar o’rtasidagi intellekt va ijodiylik, kreativlik xususiyatlari haqida ma`lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga rus hamda xorij olimlarning emotsional intellekt hamda kreativlik, ijodkorlik to’g`risida fikr-mulohazalari ko’rsatib o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *emotsional intelekt, faoliyat, neyronlar, qobiliyat, affektiv, psixika, stress, dinamik bog'liqlik, tafakkur, kreativ, kreativ ustanovka, konvergent fikrlash, temperament.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье раскрываются сущность интеллекта и аспекты эмоционально-психических особенностей управления эмоциональным интеллектом у подростков, а также особенности управления эмоциональным интеллектом у подростков. Кроме того, представлена информация о целях развития эмоционального интеллекта, интеллекта и творческих способностей у студентов, а также характеристиках творческих способностей. При этом были показаны мнения российских и зарубежных ученых об эмоциональном интеллекте и креативности.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, активность, нейроны, способности, аффективный, психика, стресс, динамическая зависимость, мышление, креативность, творческая установка, конвергентное мышление, темперамент.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF EMOTIONAL INTELLIGENCE MANAGEMENT IN ADOLESCENTS

Abstract. *This article reveals the essence of intelligence and the aspects of emotional and mental characteristics of managing emotional intelligence in adolescents, as well as the characteristics of managing emotional intelligence in adolescents. In addition, information about the purpose of emotional intelligence, intelligence and creativity among students, and the characteristics of creativity is presented. At the same time, the opinions of Russian and foreign scientists about emotional intelligence and creativity were shown.*

Key words: *emotional intelligence, activity, neurons, ability, affective, psyche, stress, dynamic dependence, thinking, creative, creative ustanovka, convergent thinking, temperament.*

Kirish. Bizga ma’lumki emotsional intellekt inson aqliy faoliyatining asosidir. Intellekt rivojlanishi uchun inson o’z ustida ishlashi kerak, kitob o’qishi, bilim olishi, jismoniy faoliyatda doimiy harakatda bo’lishi lozim. Inson intellektining asosiy ozuqasi tajriba va bilimlar hisoblanadi, shuning uchun ham bilim olishdan to’xtab qolgan inson fikrlash qobilyati va ravon nutqini yo’qotadi. Doimiy izlanishda bo’lish inson ong faoliyatiga keng foyda keltiradi. Mutaxassislarni fikricha inson ongi doimiy axborotlarni qabul qiluvchi hisoblanadi. Ong – insonda miya muskulida joylashgan, va asosan neyronlar bilan faoliyatda bo’luvchi hisoblanadi. Neyronlar ham bizga ma’lumki inson ongida axborot tashuvchi hujayra hisoblanadi, neyrohujayralar inson yashash faoliyatida eng muhim hujayradir, chunki siz-u bizni hatto nafas olishdan tortib, hayol surishimizgacha bo’lgan voqeliklar neyronlar yordamida amalga oshadi. Neyron hujayralarini rivoji va sustlashishi inson sog’lig’iga,

ruhiyatiga bog'liqdir. Inson stress holatida neyrohujayralarni axborot almashish tezligi oshadi, aksi bo'lsa, xotirjamlik davrida inson o'z fikrlarini bir joyga jamlashi oson bo'ladi. Hissiy intellekt ijtimoiy intellektning kichik turi sifatida o'rganiladi, unda odamlarning hissiy xususiyatlari kuzatiladi, shuningdek, harakatlar va fikrlash vektorining yo'nalishini o'zgartirish uchun ushbu ma'lumotlarni farqlash va ishlatish qobiliyati hisoblanadi.

O'smirlarda emotsional intellektni boshqarishning hissiy va ruhiy xususiyatlarning tomonlarini tavsiflovchi 4 ta elementni o'z ichiga oladi, xususan:

• shaxsiy his-tuyg'ularni boshqa shaxslarning his-tuyg'ularini aniq ajratish qobiliyati;
• kognitiv faoliyat samaradorligini oshirish uchun hissiyotlardan foydalanish;
• his-tuyg'ularning ma'nosini tushunish;
• his-tuyg'ularni nazorat qilish.

Intellektning mohiyati va taraqqiyotini tushuntirishda psixologiyada ikki xil qarash mavjud:

1. Intellekt – nasliy omillarga bog'liqligi ya'ni avoloddan-avlodga o'tuvchi tug'ma xususiyat sifatida;

2. Intellekt – organizm imkoniyatlaridan kelib chiqib ta'lim tarbiya ta'sirida shakllanuvchi xususyat sifatida;

Adabiyotlar tahlili. "Emosional intellekt" tushunchasi 1990 yilda P. Salovey va J. Meyer tomonidan kiritilgan, shundan beri ko'plab olimlar uni turlicha talqin qilishgan. P.Salovey, J.Meyer va D.Karuso ta'rifiga ko'ra, emotsional intellekt deganda o'z his-tuyg'ularini va boshqalarning his-tuyg'ularini anglash va tushunishga yordam beradigan aqliy qobiliyatlar guruhi tushuniladi (qobiliyat modeli). I.N.Andreeva hissiy intellektga quyidagi ta'rifni beradi: "bu inson hayotining hissiy sohasini samarali tushunish qobiliyati (atrofdagi odamlarning his-tuyg'ularini tushunish, munosabatlar va motivatsiya bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun his-tuyg'ulardan foydalanish)"

Rus psixologiyasida ta'sir va intellektning birligi g'oyasi L.S.Vigotskiyning asarlarida o'z aksini topgan. S.L.Rubinshteina, A.N.Leontev. Lev Semenovich Vigotskiy intellektual va affektiv jarayonlarning birligini ifodalovchi progressiv semantik tuzilma mavjudligini ta'kidladi: "Avval ma'lumki, umumiy ongning intellektual tomoni va uning affektiv, irodali tomoni o'rtasidagi tafovut asosiy omillardan biridir va barcha an'anaviy psixologiyaning asosiy nuqsonlari. Bunday holda, tafakkur muqarrar ravishda o'z fikrlarining avtonom oqimiga aylanadi, u tirik hayotning to'liqligidan ajraladi...». Ta'sir va intellektning birligi, olim ta'kidlaganidek, birinchi navbatda, psixikaning rivojlanishning barcha darajalaridagi munosabatlarida belgilanadi va bu dinamik bog'liqlik, tafakkur shakllanishining har qanday bosqichida affektiv rivojlanishning o'ziga xos bosqichlariga to'g'ri keladi.

Emotsional intellektni R.Stenberg "atrof-muhitga moslashish qobiliyati" deb hisoblaydi. Muvaffaqiyatli moslashish belgisi esa mukofot olishdir (keng ijtimoiy-iqtisodiy ma'noda). Kreativlik "sifat jihatidan yuqori emas, balki yangi mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati" deb ta'riflanadi. "Intellektli odamlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifati yuqori, lekin, albatta, yangi bo'lishi shart emas". Shundan kelib chiqib, muallif "kreativlik faqat uni hukm qiluvchi tizim kontekstida ahamiyat kasb etadi", "bir tizimda kreativ bo'lgan narsa boshqa bo'lishi mumkin emas", degan xulosaga keladi. Intellektni kreativlikning sharti deb hisoblaydi, "chunki ijodiy mahsulotlar yuqori sifatga ega. Kreativlik qaror qabul qilish bilan bog'liqdir, ya'ni "istalgan kishi kreativ ustanovkani qabul qilishi, kreativ fikrlashi mumkin".

M.A.Xolodnaya psixologik nuqtai nazardan, emotsional intellektning maqsadi - individual ehtiyojlarni voqelikning obyektiv talablariga muvofiqlashtirish asosida tartibsizlikdan tartib yaratishdir. Bu tadqiqotchining fikricha, aql aqlning psixologik asosidir. Umuman olganda, intellekt - bu shaxsning "ichida" sodir bo'layotgan voqealarning subyektiv rasmini yaratishga imkon beradigan aqliy mexanizmlar tizimi. Ba'zan, aql haqida gapirganda, psixologiyada ular kognitiv jarayonlarning rivojlanishini anglatadi. Masalan, V.V.Zenkovskiy asr boshlarida bu konsepsiyaga idrok, diqqat, fikrlash, xotira kabi psixik kognitiv funksiyalarni kiritgan.

Dj.Gilfordning kreativlik xususiyatlarining asosiy nazariy asosi sifatida baholash mumkin. Bizningcha, ravonlik (tezlik, unumdorlik) ko'rsatkichi so'z yoki chizmalarda ifodalanadigan ko'plab g'oyalarni hosil qilish qobiliyatini aks ettiradi. Bu qobiliyatga ega bo'lgan insonning tafakkuri deyarli qiyinchiliklarsiz amalga oshadi. Biz bu ko'rsatkichni quyidagicha tavsiflashimiz mumkin:

1) alohidalangan so'z darajasidagi ravonlik. Bunda kishi muayyan harf yoki birikmalarni o'z ichiga olgan so'zlarni osonlikcha topa oladi, berilgan so'z uchun sinonimlarni osonlik bilan tanlaydi;

2) g'oyalar va yechimlarni o'z-o'zidan ishlab chiqarish. Misol uchun, bir vaqtning o'zida qattiqlik, oqlik va yegulik belgilari predmetlarni aytish yoki matn mohiyatini ifoda etuvchi sarlavha tanlash kerak bo'ladi.

G.Alder insonning konvergent fikrlash qobiliyatini ta'kidlab, uni faqat to'g'ri javobni topishga qaratilgan aqliy faoliyat, kerak bo'lganda, tafsilotlarga e'tibor berish qobiliyati deb ta'riflaydi. Tadqiqotchilarning fikricha, divergent fikrlash qobiliyati konvergent tafakkurning teskarisidir. U hech narsa bilan chegaralanmagan bo'lib, bu holda yagona to'g'ri javob yo'q. Bu xususiyat ijodiy fikrlashning immanent (ichki) xususiyati maqomiga ega. Kreativlikni o'lchashning psixometrik usullari aynan shunga asoslanadi. G.Alderga ko'ra, eng qiyin vazifalarni bolalarning intellektual rivojlanish usullaridan aytib bo'lmaydigan natijalari bilan hal qilishda tavakkalchilikka tayyorlik, umum e'tirof qilingan fikrlarga qarshi borish kreativli shaxslarning eng yorqin xususiyatlaridan biridir.

Veysbergning nuqtai nazari ham juda qiziq. Unga ko'ra, “ijodkorlik” degan tushuncha mavjud emas, divergentli fikrlash, daholik, noyob badiiy iste'dod ijod fani tomonidan yaratilgan afsonalardan boshqa narsa emas. Kreativlikning birinchi tadqiqotchilari orasida L.Terstoun (1935) bo'lib, u ijodiy qobiliyat va o'rganish qobiliyatlari o'rtasidagi farqga e'tibor qaratdi. U ijodiy faoliyatda nointelektual omillar, birinchi navbatda temperamentning roliga e'tibor bergan. Insonning yangi g'oyalarga bo'lgan moyiligi muammoni hal qilish paytida emas, balki, eng avvalo, diqqatning beqarorligi paytida yuzaga keladi. Kattalardagi kerativlik va intellekt o'rtasidagi munosabatlarning ko'pgina tadqiqotlar bu borada mualliflarning talqinida juda katta tafovutlar borligini ko'rsatgan. Ch.Bert va Ye.Torndayk bu ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik, albatta, past bo'ladi, lekin divergent fikrlashni umumiy qobiliyatini o'rganadigan test batareyasiga kiritish zarur va muhim, deb hisoblashgan”.

Ijodiylikning XX asr 60-yillardagi ko’zga ko’ringan tadqiqotchilaridan biri M.Wallachning ta’kidlashicha, intellektual testlar ijodiy yutuqlar bilan yuqori ko’rsatkichlarda o’zaro bog’lanmagan. U talabalar o’rtasidagi intellekt va ijodiylik turlicha rivojlanganligi sababli ularni 4 xil guruhga ajratib ko’rsatadi:

- intellekt va ijodiylikning yuqori darajasiga erishgan o’quvchilar o’zlarini to’g’ri baholaydilar, ularda o’zini-o’zi nazorat qilish yuqori, ular barcha yangi narsalarga qiziqishadi va baholashda mustaqillikka egadirlar;
- intellektual darajasi yuqori va ijodiylik darajasi past o’quvchilar maktabda muvaffaqiyatga intiladilar, lekin birovdan o’z sirlarini yashiradilar, o’zlarini pasaytirib baholaydilar;
- intellektual darajasi past va ijodiylik ko’rsatkichi yuqori o’quvchilar xavotirli, e’tiborsiz, quyi ijtimoiy moslashuv bilan boshqalardan ajralib turadilar;
- intellektual darajasi va ijodiylik ko’rsatkichi quyi o’quvchilar vaziyatga oson moslashadilar, ijtimoiy intellektual darajasi yuqori, lekin sust subyektlar o’zlarini to’g’ri baholaydilar.

Xulosa o’rnida aytishimiz mumkinki, intellektning shakllanitishida ham irsiyatning ham atrof muhitning roli muhim. Insonning dastlabki rivojlaninsh bosqichida irsiy omillar yetakchiroq bo’lib ko’rinadi. Lekin yillar davomida ayniqsa aqliy qobiliyatlarning rivolanishiga atrof- muhit o’z ta’sirini ko’rsatib boradi. Uning keyingi rivojlanishi yoki so’nib borilishi atrof-muhitga bog‘liq hisoblanadi. Shunday qilib, ijodiylik jarayoni bilan intellekt

darajasi o’rtasidagi munosabat o’quvchilarning shaxsiy xislatlariga va ularning moslashuv usullariga ta’sir qiladi

Adabiyotlar.

1. Абрамова, Г.С. Возрастная психология: учеб. пособие для вузов / Г.С. Абрамова. - Москва: Изд. центр "Академия": Раритет, 2015. - 702с.
2. Аверченко Л.К. Эмоциональный интеллект как управленческая компетенция // Философия образования. 2014. № 6. С. 244-250.
3. Айзенк, Г.Ю. Интеллект: новый взгляд / Г.Ю. Айзенк // Вопросы психологии.- 2015. - № 1.- С. 111-131.
4. Александрова Н.П. Эмоциональный интеллект как фактор саморегуляции педагогической деятельности // Вестник Московской государственной академии делового администрирования. Серия: Философские, социал. и естественные науки. 2013. № 5. С. 171-177.
5. Амельков, А.А. Основы возрастной психологии: учеб.-метод пособие / А.А. Амельков. - Минск: БИП-С Плюс, 2016. - 47 с.
6. Андреева И. Н. Предпосылки развития эмоционального интеллекта. Вопросы психологии. 2017. №5. С. 57 - 65.
7. Андреева И. Н. Эмоциональный интеллект: исследование феномена. Вопросы психологии. 2016. № 3. С. 78 - 86.

Yunusova Go'zal Sultonovna
Farg'ona davlat universiteti dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail.yunusovag73@gmail.com
ORCID ID 0009-0000-8321-1257

NOTO'LIQ OILALARDAGI ONALAR SHAXSIY XUSUSIYATLARINING FARZANDLAR BILAN MUNOSABATIGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada onalar shaxsiy-psixologik xususiyatlarini farzandlar bilan munosabatlariga ta'siri masalasi to'g'risida yozilgan bo'lib, unda psixolog olimlarning to'liq bo'lmagan oilalardagi onalar va ularning shaxsiy xususiyatlari va ruhiy holatlarini farzandlarga bo'lgan munosabatlariga ta'siri mavzusidagi ilmiy tadqiqotlari taxlil qilingan hamda xulosalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *oila, farzand, psixologik xususiyatlar, noto'liq oila, munosabatlar, yolg'iz onalar, tadqiqotlar, ijtimoiy psixologiya, turmush.*

ВЛИЯНИЕ ЛИЧНОСТНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ МАТЕРЕЙ В НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ НА ОТНОШЕНИЯ С ДЕТЬМИ

Аннотация. *Эта статья посвящена вопросу о влиянии личностно-психологических особенностей матерей на их отношения с детьми, в которой анализируются научные исследования ученых-психологов на тему влияния матерей в неполных семьях и их личностных особенностей и психических состояний на их отношение к детям, а также делаются выводы.*

Ключевые слова: *семья, ребенок, психологические особенности, неполная семья,отношения,матери-одиночки, исследования, социальная психология, брак.*

THE INFLUENCE OF THE PERSONAL CHARACTERISTICS OF MOTHERS IN NON-FAMILIES ON THEIR RELATIONSHIP WITH CHILDREN

Annotation. *This article is about the issue of the influence of personal and psychological characteristics of mothers on their relationship with children, in which the scientific research of psychologist scientists on the topic of the influence of mothers in incomplete families and their personal characteristics and conditions on their relationship to children is highlighted and conclusions are drawn.*

Keywords: *family, child, psychological characteristics, dysfunctional family, relationships, single mothers,studies,social psychology, marriage.*

Zamonaviy jamiyatda yolg'iz onalik tobora ko'proq norma sifatida qabul qilinmoqda. To'liq bo'lmagan oiladagi ayol-ona bolaga g'amxo'rlik qiladi, martaba qiladi va kasbiy jihatdan yaxshilanadi. Ammo uning turmush sharoiti, turmush qurgan ayolning farzandlarini tarbiyalayotgan sharoitlaridan farq qiladi. To'liq bo'lmagan oiladagi ayolning katta hissiy va ikki tomonlama rol yuki uning shaxsiy xususiyatlariga va bolasi bilan bo'lgan munosabatlariga ta'sir qilmasligi mumkin. Shu munosabat bilan zamonaviy to'liq ota-ona oilasida onani o'rganishning shaxsiy jihati onaning shaxsini va uning bola bilan munosabatlarini tushunish uchun alohida ahamiyatga ega. Noto'liq oilada onalik holati oila uchun to'liq mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni nazarda tutadi va tartibga solish funksiyasini bajaradigan va ayolni tavsiflovchi nazorat o'chog'ining yo'nalishini, shaxsiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish dolzarb mavzu sifatida bo'lib qoladi.

Ona shaxsining psixologik xususiyatlarini o'rganish, birinchi navbatda, onaning bolaning shaxsiyatini rivojlantirishdagi roli bilan bog'liq. Onalikni o'rganish asosan ota-onalik konsepsiyasi doirasida amalga oshirildi. So'nggi paytlarda onalik ayol-onaning shaxsiy sohasining bir

qismi sifatida qaraladi. Xorijiy va mahalliy psixologik tadqiqotlarda ona shaxsini o'rganishning turli jihatlari keltirilgan.

Onalar turmush sharoitlarining xilma-xilligini aks ettiruvchi to'liq bo'lmagan oilalarning turli tasniflari mavjud. Ekzistensial psixologlar shaxsning konkret hayotining o'ziga xosligini bildirgan holda, "borliq" toifasidan foydalanganlar (V. Frankl, R. May). Falsafiy bo'lgan "borliq" toifasi rus psixologiyasining kategorik apparatiga kiritilgan (L.S.Rubinshteyn, V.V.Znakov, Z.I.Ryabikina va boshqalar). Bu hodisani obyektiv voqelik sifatida tashqi voqelik bilan munosabatga kirishuvchi sub'ektning xususiyatlari bilan bog'liq holda tushunish uchun shaxsning mavjudligi muammosini tushunish muhimdir. Inson hayotining mavjudot sifatidagi tashqi ob'ektiv sharoitlarini bunday tushunish muayyan hayot sharoitida bo'lgan shaxsning shaxsiy xususiyatlarini tushunishga imkon beradi.

Ko'pgina tadqiqotchilar yolg'iz onalarning murakkab turmush sharoitlarini hisobga olgan holda, onalarning ijtimoiy zaifligi va yolg'iz onalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishni yaxshilash zarurligi to'g'risida xulosaga kelishadi. O'zgaruvchan oiladagi ona-ayollarning tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy oila noaniq baholanadigan inqiroz ko'rinishlari bilan ajralib turadi. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, patriarxal munosabatlar buzilmoqda, oilaning roli tuzilishi va er-xotinning oilaviy qadriyatlari o'zgarib bormoqda. Ayollarning qadriyat yo‘nalishlari kasbiy o‘sishga, moddiy farovonlikka intilish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda, oila va onalik qadri esa pasaymoqda. Boshqa tadqiqotchilar o'z baholashlarida ko'proq optimistikdir va eski oila modelidan yangisiga o'tish haqida gapirishadi. Shu bilan birga, ajralishlar sonining ko'payishi va to'liq bo'lmagan oilalar sonining doimiy o'sib borishi to'liq bo'lmagan oilalarda va onalik fenomenini o'rganishning dolzarbligini asoslash imkonini beradi.

Yolg'iz onalikni o'rganishda onaning to'liq bo'lmagan oiladagi hayot sharoitlariga alohida e'tibor beriladi. Farzandni yolg'iz tarbiyalayotgan ona-ayol oila boshlig'i bo'lib, oiladagi ikki tomonlama yukini ko'tarib, oilaviy vazifalarni o'zi bajaradi. Shuning uchun uning hayotining obyektiv sharoitlari to'liq oiladagi ona sharoitlaridan farq qiladi va ko'plab omillar bilan murakkablashadi. Ayollarning turmush sharoitini o'rganish yolg'iz ona duch keladigan ko'plab qiyinchiliklarni ko'rsatadi. Bularga quyidagilar kiradi: moddiy beqarorlik, bandlik va kasbiy bandlik sohasidagi qiyinchiliklar, uy-joy muammolari, hayot sifatining pasayishi (dam olish, o'z-o'zini tarbiyalash, ijtimoiy va hissiy aloqalar, dam olish repertuari va boshqalar) va sog'lig'ining yomonlashishi. Bizning tadqiqotimizda onaning yashash sharoiti talqin qilinadi. Bu shartlar uning shaxsiy xususiyatlariga va bola bilan munosabatlariga ta'sir qilmasligi mumkin emas.

V.S. Muxina onalik tushunchasida ayolning shaxsiy sohasini o'rganar ekan, onalik ijtimoiy mas'uliyat va ayolning o'ziga xos psixologik holati, uning hissiy sohasining bir qismi ekanligini ta'kidlaydi, onalikning nisbiy “me'yori” ni aniqlaydi: sevgi tuyg'usi bola uchun, uning uchun mas'uliyat, butun hayoti davomida bolani psixologik qo'llab-quvvatlash qobiliyati. Shuningdek, V.S. Muxinaning xulosasiga ko'ra, to'liq onalik bolaning otasiga bog'liqligi bilan tavsiflanadi [2].

E.A.Teterlyaeva, M. Yu Chibisova va boshqalar tadqiqotlarida, onalik o'z-o'zini anglash kontekstida ko'rib chiqiladi. E.A. Teterlyaeva onalikni ota-ona rolini o'z zimmasiga olgan ayolning o'zini o'zi anglash sohasidagi yangi shakllanishi deb hisoblaydi. Onalik ayol shaxsini rivojlantirishda mutlaqo yangi holat bo'lib, o'z hayotiy maqsadlari va bolaning rivojlanish vazifalarini birlashtirish jarayonini boshlaydi. Bolaning paydo bo'lishi bilan bu jarayonni "nazorat qilib bo'lmaydigan" deb ta'riflash mumkin. Bu davrda onaning psixologik makonida asosiy o'rinni egallagan sifat jihatidan yangi, ba'zan qarama-qarshi his-tuyg'ular va tajribalar paydo bo'ladi. Faqat vaqt o'tishi bilan, bola bilan muloqotda, ona bola bilan muloqot qilishning yangi tajribasiga ega bo'ladi va uning yangi tajribasini aks ettirish va tahlil qilish jarayonlarini rivojlantiradi. Onaning o'z tajribalarini birlashtirishning barqaror qobiliyati - bu uning bolasi bilan o'zaro munosabat jarayonida o'z tajribalarining nomuvofiqligini nazorat qilish imkonini

beruvchi yangi shakllanishdir. Bu jarayon onalik xulq-atvorining muayyan strategiyalari va pozitsiyalarini ongli va mazmunli tanlash imkonini beradi [4].

Ona shaxsini o'rganishning zamonaviy yondashuvlaridan biri uni subyekt sifatida tushunishga yondashishdir. Onaning shaxsiyatini bunday ko'rib chiqishning uslubiy asosi subyekt sifatida shaxs tushunchasini o'z ichiga oladi. “Mavzu” toifasi inson faoliyatining sifatiga, uning harakat qilish qobiliyatiga, o'zini o'zi belgilashiga va o'zini o'zi rivojlantirishiga qaratilgan. S.L Rubinshteyn kontseptsiyasida “mavzu psixologiyasi” bo'yicha “hayot subyekti” tushunchasini kiritdi, bu shaxsning faol mohiyatini, uning yahlit hayot jarayonida faol pozitsiyasini ochib beradi [6].

Onaning shaxsiyati ham mahalliy, ham xorijiy psixologiyada faol o'rganilmoqda. Tadqiqotning muhim qismi perinatal davr, onalik sohasining shakllanishi, onaning xulq-atvorini aniqlash, onalikning biologik va ijtimoiy sharoitlari muammosiga bag'ishlangan. Yoshlik davrida onalik va onalikka psixologik tayyorgarligiga e'tibor beriladi. Onalarning shaxsiy xususiyatlari ham faol o'rganiladi va turli xil psixologik yo'nalishlarda taqdim etiladi. So'nggi paytlarda mualliflar mavzu konsepsiyasiga va onaning subyektiv fazilatlarini tahlil qilishga murojaat qilishdi, masalan: shaxsiy yetuklik, mas'uliyat, o'z-o'zini namoyon qilish va boshqalar. Onani subyekt sifatida o'rganish bizga onani tushunishga imkon beradi. ayol-ona zamonaviy o'zgaruvchan oilada o'zini o'zi belgilovchi shaxs sifatida. Onalik bo'yicha tadqiqotlarning muhim qismi ona shaxsining xususiyatlarini uning bolaga ta'siri bilan bog'liq holda o'rganishga bag'ishlangan. Ayolning shaxsiy xususiyatlari uning bolasi bilan bo'lgan munosabatini belgilovchi omillardir.

N.L.Maksimova o'z dissertatsiya tadqiqotida onaning bog'lanishini bolaga bo'lgan munosabatni belgilovchi omil deb hisoblaydi va onaning o'z bolalik tajribasi onaning farzandiga bo'lgan munosabatini belgilaydi, degan xulosaga keladi. Empirik tadqiqot davomida N.L. Maksimova bolaga bo'lgan munosabat va oiladagi bolalar soni o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatdi. Bitta bola tarbiyalangan oilalarda ota-ona munosabatining asosiy turi gipersotsializatsiya hisoblanadi. Birgina bolani tarbiyalayotgan ota-onalar bolaga nisbatan ko‘proq talabchan va nazoratchi bo‘lib, undan ko‘proq mas’uliyat kutishadi [3].

Ko'pgina mualliflar ota-onalarning (onalarning) shaxsiy xususiyatlarini bolaga bo'lgan munosabat omili sifatida ta'kidlaydilar (A. Adler, D. Boulbi, A. Ya. Varga, I. Schaefer). Ota-onalarning psixologik xususiyatlariga ko'ra bolaga nisbatan hissiy munosabatning shartliligi o'rganiladi (A.N.Zaxarov, V.N.Myasishchev, I.I.Chesnokova va boshqalar). Misol uchun, A.Adlerning ishi onaning shaxsiy tashvishidan kelib chiqqan onaning haddan tashqari himoyalangan xatti-harakatlarini o'rganadi. D. Bowlby va I.Schaefer, onaning bolaga bo'lgan munosabati ichki ziddiyatlar va onaning shaxsiyatining ehtiyojlari bilan belgilanadi, deb hisoblaydi.

I. Schaefer ota-ona shaxsiyatining ekstroversiyasi/introversiyasi va uning bolaga bo'lgan munosabati (“sevgi – nafrat”, “avtonomiya - nazorat)o’rtasidagi bog’liqlikni aniqlaydi. Muallifning fikricha, shaxsiy xususiyatlar va ota-ona munosabatlarining kombinatsiyasi ota-onaning ijtimoiy xulq-atvori variantlarini ifodalaydi [1].

A.I. Zaxarov onaning bolaga nisbatan konstruktiv va buzg'unchi munosabatini belgilaydigan bir qator shaxsiy xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, onaning bolaga bo'lgan munosabatining buzg'unchiligi onaning shaxsiyatining sezgirligiga (ta’sirchanlik, hissiy sezgirlik, ta’sirchanlik) va gipersotsializatsiyaga (burch hissi ortishi, haddan tashqari sadoqat) bog'liq. Muallif shuningdek, izolyatsiya (introversiya), shaxslararo munosabatlar sohasidagi ziddiyatning kuchayishi va hayotdan norozilikni buzuvchi shaxsiy xususiyatlar deb biladi. Bolaga nisbatan konstruktiv munosabat mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati, hissiy sezgirlik va faollik (faoliyatga jalb qilish) ta'sir qiladi. Olimning fikricha, bolaga nisbatan buzg'unchi munosabat uslubi bolaning shaxsiyatining rivojlanishida anomaliyalarning shakllanishiga olib kelishi mumkin [5].

Onalarning shaxsiy xususiyatlari turli xil psixologik tadqiqotlarda faol o'rganiladi va taqdim etiladi, ular orasida o'z-o'zini anglash, onaning shaxsiy etukligi, mas'uliyat, uning hissiy sohasi va boshqalarni o'rganish muhim o'rinni egallaydi. onaning shaxsiyatini o'rganish - uni subyekt sifatida tushunishga yondashuv.

Psixologik tadqiqotlar yolg'iz onaning turli xil shaxsiy xususiyatlarini o'rganadi, ular orasida yolg'iz onalarning qadriyat sohasiga ko'proq e'tibor beriladi. Ammo yolg'iz onaning oilaviy qadriyatlari ierarxiyasiga e'tibor berilmaydi, u mustaqil ravishda oilaviy funktsiyalarni bajarayotib, ularning ustuvorliklarini belgilaydi. Psixologlar ayolning bolani tarbiyalashda yo'q erini almashtirish muammosiga e'tibor berishadi, lekin u boshqa oilaviy sohalarda ham uni almashtiradi, bu uning shaxsiy xususiyatlarini qo'shimcha o'rganishni talab qiladi

Onalar oilasini o'rganish tahlili shuni ko'rsatdiki, tadqiqotning asosiy yo'nalishlari: yolg'iz onaning shaxsiyatini, uning bolaga munosabatini o'rganish va to'liq bo'lmagan oiladagi bolaning shaxsiyat xususiyatlarini o'rganish. Yolg'iz onalarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganishda onalik turlari, individual shaxsiy xususiyatlar ko'rib chiqiladi va onalar shaxsining qadriyat sohasining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor beriladi. Shu bilan birga, yolg'iz onaning shaxsiyati va uning bolasi bilan munosabatlari bo'yicha psixologik tadqiqotlar etishmayapti. Uning hayotiy qadriyatlari o'rganiladi, lekin oila yukini mustaqil ravishda bajaradigan, uning ustuvorliklarini belgilaydigan yolg'iz onaning oilaviy qadriyatlari ierarxiyasi o'rganilmagan. Noto'liq oiladagi ayolning holati uning shaxsiy xususiyatlarini qo'shimcha o'rganish dolzarb bo'lib qoladi.

Adabiyotlar.

1.Bowlby, J. Onalik parvarishi va ruhiy salomatlik/ J. Boulbi. Jeneva: Claridge, 1987. 321 p.

2.Muxina, V.S. Onaning bolaga munosabati va onalikning psixologik muammolari / V.S. Muxina //Fan va ta'lim. 2004 yil. № 1. 131-133-betlar.

3.Maksimova, N. L. Yagona bolali oilalarda ota-ona munosabatlarining xususiyatlari / N. L. Maksimova //Ilmiy kashfiyotlar dunyosida. 2009 yil. № 3-1. 130-132-betlar.

4.Teterleva, E. A. Ayolning o'zini o'zi anglashining yangi shakllanishi sifatida onalikning mazmunli tajribasi: dis. ...kand. psixolog. Fanlar /E. A. Teterleva. Moskva, 2006. 214 b.

5.Zaxarov, A.I. Bolalik nevrozlari va psixoterapiyasining kelib chiqishi / A.I. Zaxarov. Tibbiyot, 1978. 246 b.

6.Rubinshteyn, S.L. Borliq va ong /S.L. Rubinshteyn //Inson va dunyo. Sankt-Peterburg, 2003. 512 b.

7.Chibisova, M. Yu. Onalik fenomeni va uning yosh ayolning o'zini o'zi anglashida aks etishi:dis. ...kand. psixolog. Fanlar/M. Yu. Chibisova. M.,2003. 272 b.

Zaripov Otabek Murodullayevich
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

SHAXSNING TURLI VAZIYATLARDA STRESS HOLATIDAN CHIQISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotasiya. *Shaxsning turli hayotiy vaziyatlarda o`zgarib borishi, shaxsning munosabatlari doirasiga ijtimoiy hayotdagi kishilargina emas, balki tabiat va jamiyatga bo`lgan munosabatlari ham turlicha namoyon bo`lishi, ijtimoiy munosabatlar davomida shaxs o`z ishiga, qobiliyati va qiziqishini, o`z bilimi va o`quvini namoyon qilishi, o`z vazifasiga, burchiga, xalqiga va vataniga o`z-o`ziga bo`lgan munosabatlarini ifodalaydi. Maqolada muallif shaxsning turli hayotiy vaziyatlarda stress holatidan chiqishning ijtimoiy-psixologik tahlilini bayon qilib, tegishli tavsiyalar bergan.*

***Kalit so`zlar***.*Shaxslararo munosabatlar, inson, ruhiyat, muomala, sog`lom shaxs, individ, maqsad, muhit, o`quvchi, o`smir yoshlar, individual xususiyat.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЫХОДА ЛИЧНОСТИ ИЗ СТРЕССОВОГО СОСТОЯНИЯ В РАЗЛИЧНЫХ СИТУАЦИЯХ

Абстрактный. *Изменения человека в разных жизненных ситуациях, не только людей в общественной жизни, но и его отношений с природой и обществом проявляются по-разному в сфере его отношений, в ходе социальных отношений человек проявляет свой труд, способности и интерес, свои знания. и показывает свою учебу, выражает свое отношение к своему заданию, долгу, народу и Родине. В статье автор описывает социально-психологический анализ восстановления человека после стресса в различных жизненных ситуациях и дает соответствующие рекомендации.*

Ключевые слова. *Межличностные отношения, человек, психика, лечение, здоровый человек, личность, цель, среда, студент, подросток, индивидуальная характеристика.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE EXIT OF AN INDIVIDUAL FROM A STATE OF STRESS IN VARIOUS SITUATIONS

Annotation. *The person's changes in different life situations, not only the people in the social life, but also the nature and society are manifested in the scope of the person's relations in different ways. shows his knowledge and education, expresses his attitude towards his duty, his duty, his people and his homeland. In the article, the author describes the socio-psychological analysis of a person's recovery from stress in various life situations and gives relevant recommendations.*

Key words. *Interpersonal relations, human, mentality, treatment, healthy person, individual, goal, environment, student, adolescent youth, individual characteristic.*

Jamiyatda har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda, turli hayotiy vaziyatlarda, shaxslar bilan o`zaro munosabatga kirishishda, sub`yektning yoshi bilan bog`liq psixologik xususiyatlarni inobatga olish zarur. Jahon psixologiyasi tarixida shaxsni o`rganish doimiy vazifalardan hisoblanadi. Psixologiya fanini o`rganish ob`yektlaridan biri ham aslida shaxs, uning tafakkuri, dunyoqarashi, ijtimoiy hissiyotlari va kechinmalarini ilmiy tadqiqotlar orqali aniqlashdir. Bugungi kunda yurtimizda yosh avlod ta`lim-tarbiyasi, ma`naviy kamol topishi,ularning jismoniy va psixologik sog`lomligiga alohida e`tibor qaratilmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamalakat aholisi, ayniqsa yoshlarni munosib tarbiyalash borasida fikr bildirib: “yoshlarimiz hayotda munosib o`rnini topishi uchun bundan keyin ham bor kuch va imkoniyatlarni to`liq ishga solamiz.Sizlar mamalakatimizning

ishonchi va tayanchi, kelajagimiz bunyodkorlarisiz[1]"-deya alohida ta`kidladilar". O`zbekiston Respublikasi prezidentining 2019 yil 3 fevraldagi PF-4190-son "O`zbekiston Respublikasi aholi ruhiy salomatligini saqlash xizmatini rivojlantirish bo`yicha 2019-2025 yillarga mo`ljallangan konsepsiyasi", O`zbekiston Respublikasi prezidentining 2023 yil 19 iyundagi "Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi PQ-196-sonli qarorlarida jamiyat a`zolarini ruhiy jihatdan muhofaza qilish holatlariga alohida e`tibor qaratilgan.

Psixologik tadqiqotlarning asosiy predmeti shaxs faoliyati va hatti-harakati deb belgilanadigan bo`lsa mazkur sohaning asosiy vazifasi psixik faoliyatni o`rganish hisoblanadi. Shaxs turli ijtimoiy guruhlar orasida ro`y berayotgan o`zgarishlar, turli yosh guruhlarga mansub bo`lgan kishilarning ijtimoiy tasavvurlari asosida ijtimoiy xulq-atvorni ilmiy boshqarish asoslari ishlab chiqilishi lozim. Psixologiya fani takomillashib, turli sohalar doirasida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Hozirgi kunda kechayotgan globol beqarorliklar, shaxslararo munosabatlarda o`zaro ishonch va bir-birini tushunish xislatlarining yetishmasligi, psixologiya sohasida qator dolzarb muammolarni ilmiy tahlil qilish zarurligini ko`rsatadi. Shaxs taraqqiyotida kasalliklarni davolagandan ko`ra, uning oldini olish orqali bemorga ko`plab tibbiy-psixologik yordam ko`rsatish zarur hisoblanadi. Psixolog olimlardan V.M.Karimova salomatlik psixologiyasi, B.R.Qodirov psixofiziologiya masalalari, G`.B.Shoumarov psixik rivojlanishi pasaygan shaxslarning ijtimoiy – psixologik muammolarini, Z.T.Nishonova shaxs salomatligini tiklashda psixogigienaning ahamiyatini, Sh.R.Baratov psixologik xizmatni joriy qilish zarurligining ilmiy-amaliy asoslarini tadqiq qilganlar. Shaxsga psixologik ta`sir vositalari har doim ta`sir qilish maqsadlariga mos kelgandagina effekt beradi. Bugungi kunda axborot taraqqiyotining rivojlanishi natijasida shaxslarda turli xil ruhiy kasalliklarning ko`payishi kuzatilmoqda, ruhiy nevrotik, psixosomatik, kasbiy, maishiy beqarorlik va istiqbol rejalar mavjud emasligi va bir qancha sabablar bilan psixologik yordamga muhtoj bo`lganlar soni ortib bormoqda. Shaxsda yuz beradigan stress barcha ijobiy faoliyatni yo`qqa chiqaradi yoki susaytirib yuboradi. O`zaro munosabatlar doimiy ravishda ma`lum bir guruhlar orasida kuzatiladi. Ontogenezda shaxslararo munosabatlarda atrofdagilarning bola bilan qanday muomala qilishlariga qarab, uning o`z "Men"ini anglay boshlashi birmuncha avvalroq yoki kechroq yuzaga keladi. Dunyo olimlari barcha davrlarda shaxsni o`rganishga alohida e`tibor qaratgan, shunday olimlardan biri Abu Ali ibn Sinodir, olim o`z asarlarida miya, uning faoliyati, ong bilan tananing aloqadorligi, sezgi, his qilish kabi masalalarni keltirib o`tadi, jismoniy va ruhiy kasallikni bir-biriga bog`liqligini tushuntiradi. Shaxsda turli hayotiy vaziyatlarda ro`y beradigan stress va depressiya haqida ma`lumotlar qoldiradi. "Inson xavfsiraganda o`zida qo`rquvni rivojlantiradi, deya ta`kidlaydi, bu psixologiyada fobiya deyiladi. Tabib o`z bemorlarini davolashda psixologik usullardan foydalanadi". Shaxslararo munosabatlarda stressing davri yosh davrlari bilan belgilanmaydi, inson turli hayotiy vaziyatlarda stressga tushishi mumkin. Olimlarning aniqlashlaricha psixologik xastaliklarning aksariyati 14 yoshgacha bo`lgan davrda boshlanadi. Atrofdagi eng yaqin kishilar ota-ona, aka-opa, o`qituvchi ustozlar, muassasa psixologi tomonidan kerakli tashxis va shu bilan bog`liq muolajalar olib borilmaydi. Natijada bolalartda ruhiy hastalikning umrbod davom etishi kuzatiladi.

Shaxsning turli hayotiy vaziyatlarda stressdan chiqa olishi nihoyatda muhim. Ijtimoiy muhitda shaxslararo munosabatlarda ichki muvozanatni saqlash gemostaz jarayoni orqali ta`minlanadi. Shaxs hayotida uchraydigan bir xil turdagi stressli vaziyatlar inson organizmi uchun ham xavfli, ijobiy ham bo`lishi mumkin. Kundalik turmushda stressiz hayot kechirib bo`lmaydi. Stress organizm uchun nafaqat xavfli, foydali ham bo`lishi mumkin. Ijtimoiy vaziyatlarda shaxslar bilan kechadigan stress holatlar inson organizmida ijobiy yoki salbiy ta`sir etishi organizmning stress holatlariga reaksiyasiga bog`liq. Mavjud vaziyatlarda yuz beradigan stress holatini faol o`zgartirishga qaratilgan ijobiy yechim va choralar organizm chidamliligini ba`zan oshiradi, ba`zan faol kurashish bo`lmasa, moslashish sindromi sustlashib, og`ir holatlarda individning nobud bo`lishiga olib kelishi mumkin. Shaxsda yuz beradigan

stress holatlarining ijobiy yoki salbiy ta`siri uning qanchalik uzoq davom etishiga va ularning ta`siri tufayli organizmda vujudga keladigan o`zgarishlarning dastlabki ijobiy holatiga qaytishiga bog`liq. Shaxs organizmi har bir stresslarga nisbatan o`ziga xos ravishda faollashadi yoki kuchsizlanadi, ya`ni reaksiya ko`rsatadi, ushbu reaksiyalar organizmning himoya reaksiyalaridir. Shuni alohida ta`kidlaymizki, kuzatishlarimiz davomida shaxs organizmining stressli vaziyatlarga moslashuvchanligi u darajada yuqori emas, doimiy va uzluksiz ravishda shaxsning stress ta`sirida yurishi inson salomatligiga salbiy ta`sir ko`rsatib, ba`zi holatlarda o`lim holatlariga olib kelishi mumkin. Stress holatlari asosan shaxslarda 3 bosqichda kechadi:

- boshlang`ich davri;
- qarshilik ko`rsatish davri;
- toliqish davri;

Turli hayotiy vaziyatlarda shaxsda yuz beradigan stress holatlarining boshlang`ich bosqichi – xavotirlanish darajasining yuqoriligi bilan asoslanadi. Bu jarayonda shaxsda nafaqat ruhiy, jismoniy salomatligida ham o`zgarishlar kuzatiladi, qon bosimi harorati pasayib, oshqazon-ichak sistemasida funksional o`zgarishlar paydo bo`ladi, qonda qand miqdori kamayadi. Qarshilik ko`rsatish bosqichida shaxslarda tana harorati ko`tariladi, inson tanasidagi buyraklar faoliyatida o`zgarishlar kuzatiladi. Toliqish bosqichida yuz beradigan salbiy holatlardan biri yurak faoliyatida o`zgarishlar kuzatiladi, oshqozon-ichak sistemasida yarachalar paydo bo`ladi. Shaxs turli hayotiy sharoitlarda davomiylikka ega bo`lgan psixoemotsional zo`riqishlarni o`z boshidan o`tkazadi, mana shunday salbiy holatlarni bartaraf etishda shaxsda o`zidagi irodaviy individual xususiyatlar yordamga keladi.

Kuzatishlarimiz natijasida stressni keltirib chiqaruvchi asosiy omillarning 30-40% shaxslarning ota-onalaridan o`tgan nasliy xususiyatlari bilan bog`liqligini, 60-70% kundalik tarbiya, turli hayotiy tajriba, shartli reflekslar, individual xususiyatlar bilan bog`liq ekanligini guvohi bo`ldik. Shuni alohida ta`kidlashimiz zarurki, oiladagi shaxslararo munosabatlarda ota-onalar va atrofdagilarning bola tarbiyasidagi salbiy xulq va individual xususiyatlari natijasidir. Shaxslararo munosabatlarda stress holatlarining 3 bosqichli jarayon ekanligi aniqlangan.

Xavotirlanish bosqichi-bunday holatlar shaxsda dastlabki ko`rinishda paydo bo`ladi, inson organizmida himoya immuniteti pasayadi, jismoniy va ruhiy muvozanat ishdan chiqadi, shunda shaxs organizmida himoya jarayonlarining o`zini boshqarish mexanizmlari faollashadi. Bu vaziyatda himoya reaksiyasi samarali bo`lsa xavotirlanish darajasi so`nadi va organizm me`yoriy faoliyatga qaytadi. Shaxsda yuz beradigan stresslarning aksariyati ushbu bosqichda namoyon bo`ladi. Turli hayotiy vaziyatlarda shaxslararo munosabatlarda stressning bir qancha bosqichlari namoyon bo`ladi.

Rezistentlik bosqichi (qarshilik ko`rsatish) stressing ta`siri uzoq davom etganda hamda inson organizmining himoya reaksiyasini ushlab turish zarurati paydo bo`lganda boshlanadi. Shaxsda mavjud jarayonlarga moslashuv zahirasining muvozanatlashgan holati yuz beradi. Shaxsda stressing tugash bosqichi-organizmning o`ta kuchli va uzoq davom etuvchi stressorlar ta`siri bilan kurashish mexanizmlarining buzilishini aks ettiruvchi holatlaridir. Moslashuvchan zahiralarning muvozanatlashtirilgan sarfi yuz beradi.

Shaxsda stressing tugash bosqichi organizmning o`ta kuchli va uzoq davom etuvchi stress ta`siri bilan kurashish mexanizmlarining buzilishidir. Moslashuvchan zahiralar amalda kamayadi. Shaxs organizmining stressga bardoshliligi pasayadi, natijada organizmda funksional buzilishlar va turli o`zgarishlar sodir bo`ladi. Shaxslararo munosabatlarda stress natijasida organizmning biologik butunligi hamda inson psixologik holatida salbiy o`zgarishlar kuzatiladi. Shuni alohida ta`kidlash zarurki, stress holatlarini 2 guruhga tafovutlash mumkin:

Birinchisi fiziologik stress - shaxsda yuzaga keladigan stressning bu turiga - fiziologik ta`sirlar, ijtimoiy kundalik turmushda uchraydigan to`siqlar, kuchli va har hil ovozlar, kuchli darajada yorug`lik, ob-havoning yuqori harorati va boshqa ta`sirlar oqibatida inson organizmining o`ta darajada jismoniy zo`riqishi, shaxs tanasida kuzatiladigan og`riqlar, qo`rquv,

kasalliklar oqibatida paydo bo`ladi. Bunday stress natijasida shaxsning salomatligiga jiddiy zarar yetib, oshqazon sohasi, bel og`rig`i, astma yurak xurujlari shaxsni bezovta qiladi.

Ikkinchisi psixologik stress - turli hayotiy sharoitdagi vaziyatlar natijasida kuzatiladi. Bu jarayonda shaxsga shaxslararo munosabatlarda kuchli bosim holatlari kuzatiladi, o`ziga xos qiyin ekstremal holatlar yuz beradi. Psixologik stressga sabab bo`luvchi omillar quyidagilardir:

-berilgan vazifalarning kutilmaganda o`zgartirilishi;

-zarur tayyorgarlik holatining yo`qligi;

-vaqt tig`izligi;

-ishning yuqori ahamiyatga ega ekanligi;

-topshirilgan vazifa uchun shaxsiy mas`uliyat.

Shuningdek, bugungi globollashgan davrda shaxslararo munosabatlarda axborotlarning ta`siri natijasida axborot stressi bevosita yuz beradi. Axborot stressi -inson kundalik hayotida axborot oqimlari, voqea va xabarlarning nihoyatda ko`pligi natijasidir. Juda ko`p axborotlarni qabul qilish natijasida shaxs ruhiyatida zo`riqish holatlari kuzatiladi, toliqadi va stressga olib keladi. Shaxsda axborot stressi axborot yuklamalari ortib ketgan vaziyatlarda inson o`zi qabul qiladigan qarorlar uchun mas`uliyatli bo`lganda paydo bo`ladi. Ayniqsa, hozirgi davrda o`quvchi yoshlar, o`rta yoshlilar hamda yoshi kattalarning ijtimoiy tarmoq xabarlarini haddan ziyod qabul qilishi, uzoq vaqt davomida telefondan foydalanishi, ongini zaharlovchi rolik va videolar tomosha qilishi, ontogenez yosh bosqichlariga mos kelmaydigan videolar va ko`rsatuvlarni tomosha qilishi ham ularda axborot stressi paydo bo`lishiga sabab bo`ladi, buning natijasi shaxslararo munosabatlarda ko`rinadi. Shuningdek, o`qishdan orqada qolish, eng yaqin insonlar bilan munosabatdan qochish, salbiy fikrlar, munosabatlarda norozilik kayfiyatining shakllanishi, psixik zo`riqish paydo bo`lishi mumkin. Shaxslardagi stressli holatlar haqida gapirganda stressing ko`pchilik alohida e`tibor qilmaydigan, ammo o`z boshidan o`tkazadigan bir holati bor, bu emotsional stressdir. Stressning ushbu turida shaxslararo nizoli vaziyatlar oqibatida shaxsning ijtimoiy va biologik ehtiyojlari ta`minlanishini kuchli yoki uzoq vaqt davomida ongli ravishda chegaralanishi oqibatida shaxsda ro`y beradi. Masalan, kutilmagan holatda eng yaqin kishilaridan ajralish, ishdan ketish, yaqin kishisini olamdan o`tishi va boshqa holatlarni bunga misol qilib keltirishimiz mumkin. Shaxs hayotida oilada va ijtimoiy munosabatlarda ro`y beradigan qiyin vaziyatlar emotsional stress holatini yuzaga keltirib, keyinchalik ham asoratini qoldiradi. Shaxsda psixik va somatik jihatdan salomatlik uchun yaqin kishidan ayrilish kabi faqat bitta fojiali hodisa emas, balki kundalik turmush mobaynida kichik ko`rinishdagi salbiy hodisalar ham xavfli hisoblanadi. Olimlarning aniqlashicha, emotsional stress holatidagi shaxs chorasiz vaziyatda bo`lsa, bu unda kasallik holatlarining kuchayishiga olib keladi, inson o`zini hech kimga keraksizdek his qiladi. Shaxs o`ziga har doim emotsional ko`mak topa oladigan ijtimoiy muhitda bo`lsa emotsional stress holatlarining kasallikni keltirib chiqaruvchi ta`siri kamayadi. Shaxslararo munosabatlarda “ijtimoiy aloqalar shaxs uchun shunchalik muhimki, uning yetarli emasligini S.Xenderson stressing boshlanishiga sabab” deb hisoblaydi. Shaxsda emotsional stressni keltirib chiqaruvchi bir qancha sabablar mavjud bo`lib, biz ularni bir qanchasiga to`xtalib o`tamiz:

Tabiiy falokatlar - tabiat orqali sodir bo`ladigan ofatlar (yer qimirlashi, suv toshqini, qor ko`chkisi, turli halokatlar va boshqalar.)

Kundalik ijtimoiy muammolar – bu shaxslararo munosabatlarda odamlarning arzimas sabablar tufayli bir-birlari bilan turli tushunmovchiliklar oqibatida bo`ladigan hurmatsiz munosabatlari natijasida kelib chiqadi. Kelishmovchilik ko`ngilsiz voqea sodir bo`lganda shaxslar o`zaro muloqotda kuchli hayajonga beriladi, o`zining hissiy holatlarini jilovlay olmaydi, bir-birlariga baland ovozda gapirib, haqorat qila boshlaydi.Shaxsda yuz beradigan stressni klassifikatsiyalashda quyidagi turlari muhimdir.

1) Shaxs faoliyatini buzuvchi stimullar (maqsadni yo`qolishi, e`tiborni chalg`ishi).
2) Ijtimoiy ta`sir etuvchi stimullar (kundalik ijtimoiy konfliktlar, turmush tarzi).

Shaxsga yuqori darajada ta`sir etuvchi salbiy ta`sir natijasida ruhiy emotsional jarohatlar ortadi, kam intensevlikdagi salbiy ta`sirlar natijasida shaxsda frustratsiya hodisalari yuz beradi. Shartsiz reflekslar ma`lum bir darajada stress holatini chaqirsa, shartlilari boshqa stress holatini chaqiradi. Shaxs faoliyatida stress holatini boshqarish, unga qarshi kurashish asosiy vazifalar-dan hisoblanadi. Stress holatiga tushgan shaxslarni ushbu jarayondan chiqarishda stressga qarshi kurashish metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Bular quyidagilardir:

1)Stressni yengish yo`li.
2)Stressni kamaytirish psixologik yop`li.
3)Stressga qarama-qarshilik qilish.
4)Stressni boshqarish psixologik yo`li.

Xulosa qilib aytganimizda, stress shaxslarning ijtimoiy hayotdagi hayoliy dunyosidagi qarama-qarshi ruhiy jarayondir, ya`ni shaxs ongining haqiqiy va real dunyodagi vaziyat bilan o`zaro qarama-qarshi holatlarda ro`y berishi mumkin degan tasavvurni shakllanishidir. Shuningdek shaxsda ro`y beradigan holatlar-optimizm va pessimism, atrofdagi voqea va hodisalarning yaxshi va yomon tomonlarini ko`ra bilish, shaxs hayotida yuz beradigan siyosiy-diniy ustanovkalar, shaxs uchun zarur bo`lgan dolzarb va jiddiy ehtiyojlarning qondirilmasligi, turli nizolar. Shaxsning individual xususiyatlari, irodasi, xarakteri ham stress holatlarini namoyon bo`lishiga ta`sir ko`rsatadi. Shuni alohida ta`kidlashimiz zarurki, stress shaxslararo munosabatlarning mahsuli. Ijtimoiy hayotda stressdan qutulish va faol munosabatlarga kirishish uchun quyidagilarni tavsiya qilamiz.

1.Xarakter xususiyatlari sizga yoqmaydigan insonlarni boricha qabul qiling.
2.Kamroq gapiring ko`p tinglang.
3.Atrofdagi shaxslarga minnatdorchilik so`zlarini ko`p ayting.
4.G`azab, nafrat, xafachilik ayblovlardan voz keching.
5.Turli toifadagi shaxslarni ayblari uchun kechirib o`rganing.
6.Atrofdagi shaxslarga va jamiyatga pozitiv munosabatda bo`ling.
7.Asabiylashmang, stress garmoni kartizol shaxsning yaxshi dam olishiga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Adabiyotlar.

1. https://prezident.uz.
2. https://t.me/profayling.uz.
3. A.U.Xaitov “Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya” Toshkent-2020.137-bet.

Ostanov Shuhrat Sharifovich
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
Psixologiya fanalari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI VA SAMARALI USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada destruktiv xulq-atvorga ega bo'lgan o'smirlar orasida kreativlikni rivojlantirishning psixologik asoslari va Torrance kreativlik testi yordamida amalga oshirilgan tahlillar yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kreativ faoliyat, ayniqsa moslashuvchanlik va original fikrlash qobiliyatlari, destruktiv xulq-atvorni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida o'smirlarning kreativ qobiliyatlari va destruktiv xatti-harakatlari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *kreativlik, destruktiv xulq-atvor, Torrance testi, o'smirlar, psixologik asoslar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОСТИ

Аннотация. *В данной статье освещены психологические основы развития креативности среди подростков с деструктивным поведением на основе анализа, проведенного с помощью теста креативности Торренса. Результаты исследования показывают, что креативная деятельность, особенно гибкость и способность к оригинальному мышлению, играет важную роль в снижении деструктивного поведения. В процессе исследования была проанализирована взаимосвязь между креативными способностями подростков и их деструктивным поведением.*

Ключевые слова: *креативность, деструктивное поведение, тест Торренса, подростки, психологические основы.*

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS AND EFFECTIVE METHODS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVISM

Abstract. *This article explores the psychological foundations of developing creativity among adolescents with destructive behavior based on analysis conducted using the Torrance Test of Creative Thinking. The results show that creative activities, particularly flexibility and originality, play a significant role in reducing destructive behavior. The study analyzed the relationship between adolescents' creative abilities and their destructive behavior.*

Keywords: *creativity, destructive behavior, Torrance test, adolescents, psychological foundations*

Kirish. Destruktiv xulq-atvor shaxsning atrof-muhitga yoki o'ziga zarar yetkazadigan, normativ va ijtimoiy qoidalarga zid bo'lgan xatti-harakatlarini anglatadi. Ushbu xulq-atvor shakli ko'pincha tajovuzkorlik, noto'g'ri qarorlar qabul qilish, ijtimoiy munosabatlarning buzilishi va boshqalar bilan o'zini namoyon qiladi. Destruktiv xulq-atvor, ayniqsa, o'smirlik davrida tez-tez uchrab turadi, chunki bu yoshda shaxsning o'zini qidirishi, his-tuyg'ularni boshqarishda qiyinchiliklar, va ijtimoiy-psixologik bosimlar ko'proq seziladi.

Destruktiv xulq-atvorning tarqalishi. Destruktiv xulq-atvorning tarqalishi jahon miqyosida katta e'tiborga ega bo'lib, o'smirlar orasida qabul qilingan qoidalarga bo'lgan norozilik, ijtimoiy stress, oilaviy mojarolar yoki psixologik travmalar natijasida bu turdagi xatti-harakatlar keng tarqalgan. Destruktiv xulq-atvor, ayniqsa, o'zgaruvchan yoki murakkab sharoitlarda yashovchi o'smirlar orasida kengroq tarqalgan bo'lib, bu o'zini qidirish jarayonining qiyin kechishi, noto'g'ri muhit va rol modellarining yetishmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Destruktiv xulq-atvorli o'smirlar bilan ishlashda kreativlikni rivojlantirish muhim psix-

ologik mexanizm hisoblanadi. Chunki kreativ fikrlash qobiliyati o‘smirlarga muammolarga yangi yechimlar topishda, o‘z his-tuyg‘ularini ijobiy yo‘naltirishda va ijtimoiy moslashuvda yordam beradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kreativ faoliyat orqali destruktiv xulq-atvorni o‘zgartirish va ijobiy tomonga yo‘naltirish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Destruktiv xulq-atvorli o‘smirlar orasida kreativlikni rivojlantirishning psixologik asoslari va samarali usullari ko‘plab ilmiy va adabiy manbalarda keltirilgan. Bu masalani o‘rgangan psixologlar va mutaxassislar, kreativlikning destruktiv xulq-atvorni o‘zgartirishda samarali bo‘lishini isbotlovchi ko‘plab tahlillarni keltirishgan.

Adabiyotlarda destruktiv xulq-atvorning sabablaridan biri sifatida o‘smirlarning o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri boshqara olmasligi va bu energiyani konstruktiv faoliyatga yo‘naltira olmasligi ta'kidlanadi. Psixologlar kreativ faoliyat, xususan, badiiy va musiqiy ijod orqali bu his-tuyg‘ularni konstruktiv tarzda ifodalash imkoniyatini beradi. Masalan, Guilford (1950) va Torrance (1966) o‘smirlarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularning destruktiv xulq-atvorini kamaytirish mumkinligini ta’kidlaydi. Kramer (2000) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar badiiy terapiyaning destruktiv xulq-atvorga ega o‘smirlar bilan ishlashda samarali ekanligini ko‘rsatgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘smirlar o‘zlarining ichki muammolarini ifoda qilishda va his-tuyg‘ularini boshqarishda badiiy ijodiyotdan foydalanishni o‘rganganlarida, ular orasidagi tajovuzkorlik darajasi sezilarli darajada pasaygan. Vygotsky (1978) tomonidan ta’kidlanganidek, o‘smirlar o‘z tengdoshlaridan o‘rganish orqali ijtimoiy moslashuv va o‘zaro hamkorlikni yaxshilashlari mumkin. Bu esa destruktiv xulq-atvorni kamaytirishga yordam beradi. Adabiyotlar tahlillari shuni ko‘rsatadiki, destruktiv xulq-atvorga ega bo‘lgan o‘smirlarni kreativ faoliyatlarga jalb qilish ularning stress va salbiy his-tuyg‘ularini boshqarishiga yordam beradi. Runco (1991) ning tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlar kreativ jarayon orqali o‘zlarining ichki konfliktlarini ijodiy usulda ifoda etishadi, bu esa salbiy xulq-atvorlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, kreativlikni rivojlantirish, o‘smirlar orasida empatiya va hamkorlikni oshirishga ham yordam beradi, bu esa destruktiv xulq-atvorni kamaytirishga xizmat qiladi.

Psixologik asoslar: Kreativlik va emotsional boshqaruv: Kreativ faoliyat o‘smirlarga o‘zlarining his-tuyg‘ularini boshqarish imkonini beradi. Masalan, badiiy faoliyatlar yoki musiqiy ijod qilish, o‘smirlarning destruktiv energiyasini ijodiy yo‘nalishga o‘zgartiradi, bu esa salbiy his-tuyg‘ularni bartaraf etishga yordam beradi.

1. Muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish: Kreativ fikrlash orqali o‘smirlar muammolarni turli xil usullar bilan hal qilishni o‘rganadilar. Bu esa destruktiv xulq-atvorni yanada samarali va konstruktiv xatti-harakatlarga almashtirishga yordam beradi.
2. Shaxsning o‘z-o‘ziga ishonchini oshirish: Kreativ faoliyat o‘smirlarning o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi, bu esa ularga ijtimoiy vaziyatlarda muvaffaqiyatliroq harakat qilish va destruktiv xulq-atvorni kamaytirishga yordam beradi.

Samarali usullar:

1. Badiiy terapiya: Badiiy terapiya o‘smirlarga o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashda yordam beradigan samarali usullardan biri hisoblanadi. Ushbu usul orqali o‘smirlar o‘z ichki ziddiyatlarini tasvirlash va bartaraf etish imkoniga ega bo‘ladilar.
2. Musiqiy ijodiy faoliyat: Musiqa orqali o‘smirlar o‘z salbiy his-tuyg‘ularini ijodiy tarzda ifodalab, o‘z ichki dunyosini tinchlantiradilar. Bu ularga stress va salbiy tajribalarni konstruktiv usullar bilan qayta ishlash imkonini beradi.
3. Muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan treninglar: Muammolarni hal qilish qobiliyatlarini o‘rgatish va rivojlantirishga qaratilgan treninglar o‘smirlarga turli hayotiy vaziyatlarga yangicha yondashishni o‘rgatadi. Bu destruktiv xatti-harakatlarni kamaytirishning samarali usuli hisoblanadi.

4. Ijodiy loyihalar: O‘smirlarga jamoaviy ijodiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyati berilishi orqali ular ijtimoiylashishni, ijobiy hamkorlik qilishni o‘rganadilar, bu esa destruktiv xatti-harakatlarni kamaytiradi.

Ushbu usullar yordamida o‘smirlar orasida kreativlikni rivojlantirish, ularning destruktiv xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartirishga yordam beradi, bu esa ularning jamiyatga integratsiyasi va akademik muvaffaqiyatlariga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Kreativ faoliyat destruktiv xulq-atvorni kamaytirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Destruktiv xulq-atvor, odatda, shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini ifoda eta olmasligi yoki stress va mojarolarga to‘g‘ri javob bera olmasligi tufayli kelib chiqadi. Kreativ faoliyatlar esa bunday his-tuyg‘ularni ifodalash va qayta ishlashning konstruktiv usulini taklif qiladi. Quyida kreativ faoliyatning destruktiv xulq-atvorni kamaytirishdagi asosiy rollari ko‘rib chiqiladi:

1. Emotsional ifoda va boshqaruv

Kreativ faoliyatlar, masalan, san’at, musiqa, drama va yozma ijod, o‘smirlarga o‘z ichki his-tuyg‘ularini, tajribalarini va ichki konfliktlarini ifoda etishga imkon beradi. Destruktiv xulq-atvor ko‘pincha ichki stress va salbiy tajribalar bilan bog‘liq. San’at va musiqa terapiyasi kabi kreativ jarayonlar orqali o‘smirlar o‘zlarining his-tuyg‘ularini xavfsiz va ijobiy yo‘nalishda chiqaradilar, bu esa ularning tajovuzkorlik va salbiy xulq-atvorlarini kamaytirishga yordam beradi.

2. Kreativ muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish

Kreativ faoliyat o‘smirlarning muammolarga turli xil yechimlar topish qobiliyatini oshiradi. Kreativ fikrlash orqali o‘smirlar muammolarga yangicha yondashishni va destruktiv xatti-harakatlardan voz kechishni o‘rganadilar. Masalan, badiiy ijodiy loyihalar yoki loyiha asosidagi ta’lim usullari o‘smirlarni muammolarni hal qilishda ijodkorlikdan foydalanishga o‘rgatadi.

3. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish

Kreativ loyihalarda ishtirok etish o‘smirlarga hamkorlik qilish, muloqot qilish va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘smirlar ko‘pincha destruktiv xulq-atvor orqali o‘zlarini jamiyatdan ajratishadi, ammo kreativ jamoaviy faoliyatlar ular orasidagi ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Bu orqali ularning ijtimoiy qoidalar va me’yorlarga moslashishi osonlashadi va destruktiv xulq-atvor kamayadi.

4. O‘ziga ishonchni oshirish

O‘smirlarning o‘zlariga nisbatan ishonchsizligi ko‘pincha destruktiv xulq-atvorga olib keladi. Kreativ faoliyat esa ularga o‘z qobiliyatlarini ko‘rsatish va muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi. Masalan, san’at, musiqa yoki teatr orqali erishilgan yutuqlar o‘smirlarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini oshiradi, bu esa ularni destruktiv xatti-harakatlardan uzoqlashtiradi. O‘z qobiliyatlarini ijodiy usulda namoyish qilish orqali ular o‘zlariga ko‘proq ishonadilar va jamiyatda ijobiy rol o‘ynashga intiladilar.

5. Stressni kamaytirish va ichki tinchlikni topish

Kreativ faoliyatlar ichki tinchlikni topishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Musiqa, san’at yoki raqs kabi ijodiy faoliyatlar stressni kamaytirish uchun ishlatiladi. Destruktiv xulq-atvor ko‘pincha o‘smirning o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olmasligi va stressga to‘g‘ri munosabat bildira olmasligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Kreativ faoliyatlar esa bu his-tuyg‘ularni konstruktiv tarzda boshqarishga yordam beradi, shu bilan birga destruktiv xulq-atvorning kamayishiga hissa qo‘shadi.

6. Kognitiv o‘zgarishlar

Kreativ faoliyat o‘smirlar ongida kognitiv o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Ular muammolarga boshqacha yondashishni o‘rganadi va destruktiv xulq-atvorning salbiy oqibatlarini tushuna boshlaydilar. Kognitiv taraqqiyot orqali o‘smirlar o‘z xatti-harakatlarini ijodiy faoliyatlar bilan almashtirishi va o‘z hayotlarida ijobiy o‘zgarishlar qilishlari mumkin.


Tahlil va natijalar. Torrance kreativlik testi (Torrance Test of Creative Thinking) kreativlikni o‘lchashda keng qo‘llaniladigan psixologik testlardan biridir. Ushbu test Ellis Paul Torrance tomonidan 1966 yilda ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini

o‘lchash maqsadida ishlab chiqilgan. Test quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar orqali kreativlikni baholaydi:

1. Qayta ishlash (Fluency) – berilgan vazifalar uchun ko‘p sonli g‘oyalar yoki echimlar taklif qilish qobiliyati.
2. Moslashuvchanlik (Flexibility) – turli xil yo‘nalishlarda muammolarni hal qilish qobiliyati, ya’ni bir g‘oyadan ikkinchisiga tez o‘tish imkoniyati.
3. Originality – noyob va odatdagidan farqli echimlar topish.
4. Rivojlantirish (Elaboration) – asosiy g‘oyalarni batafsil ochib berish va kengaytirish qobiliyati.

Torrance kreativlik testidan olingan tahlillar jadvali:

Kreativlik ko‘rsatkichlari	O‘rtacha bali	O‘rtacha destruktiv Xulq-Atvor Bali	Korrelatsiya koeffitsienti (r)
Qayta ishlash (Fluency)	6.3	4.2	-0.37
Moslashuvchanlik (Flexibility)	5.7	3.9	-0.42
Originality	6.0	4.5	-0.40
Rivojlantirish (Elaboration)	5.5	3.8	-0.35



Bu jadvalda kreativlik ko‘rsatkichlarining o‘rtacha bali va destruktiv xulq-atvor bali o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatilgan. Barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha korrelatsiya koeffitsienti salbiy, ya'ni kreativlik darajasi oshgan sari destruktiv xulq-atvor pasayadi.

Qayta ishlash (Fluency). Bu ko‘rsatkich test ishtirokchilarining berilgan vazifada qancha miqdorda g‘oya ishlab chiqishga qodirligini o‘lchaydi. Natijaga ko‘ra, o‘smirlarning o‘rtacha kreativlik bali 6.3 bo‘lgan. Bu yuqori kreativlik qobiliyatini anglatadi. Shu bilan birga, destruktiv xulq-atvor bali 4.2 ga teng bo‘lgan va korrelatsiya koeffitsienti r=-0.37 ekanligi qayd etilgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, yuqori qayta ishlash qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘smirlar orasida destruktiv xulq-atvor kamaygan.

Moslashuvchanlik (Flexibility). Moslashuvchanlik qobiliyati o‘smirlarning turli xil yo‘nalishlarda fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha kreativlik bali 5.7, destruktiv xulq-atvor bali esa 3.9 ni tashkil qilgan. Korrelatsiya koeffitsienti r=-0.42 bo‘lib, bu ko‘rsatkich eng yuqori salbiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Bunday kuchli salbiy bog‘liqlik moslashuvchanlik darajasi oshgan sari destruktiv xulq-atvor sezilarli darajada kamayishini anglatadi.

Originality (Noyoblik). Originality, ya’ni noyob va kutilmagan g‘oyalar yaratish qobiliyati kreativlikning muhim qismi hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtacha kreativlik bali 6.0, destruktiv xulq-atvor bali esa 4.5 bo‘lib, korrelatsiya koeffitsienti r=-0.40 ga teng. Bu natija shuni anglatadiki, original fikr yaratish darajasi yuqori bo‘lgan o‘smirlar orasida destruktiv xulq-atvor kamaygan.

Rivojlantirish (Elaboration). Rivojlantirish qobiliyati oddiy g‘oyalarni kengaytirish va batafsil tushuntirish qobiliyatini o‘lchaydi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha kreativlik bali 5.5, destruktiv xulq-atvor bali esa 3.8 ni tashkil etgan. Korrelatsiya koeffitsienti r=-0.35 bo‘lib, bu ham salbiy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Bu shuni anglatadiki, rivojlantirish qobiliyati oshgani sari destruktiv xulq-atvor darajasi pasayadi.

Umumiy tahlil: Ushbu jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatmoqdaki, kreativlikning har bir aspekti destruktiv xulq-atvor bilan salbiy bog‘liq. Ya'ni, o‘smirlarning kreativ qobiliyatlari qanchalik yuqori bo‘lsa, ularning destruktiv xulq-atvori shunchalik past bo‘ladi. Ayniqsa, moslashuvchanlik va original fikrlash qobiliyatlari destruktiv xulq-atvorni kamaytirishga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa: Destruktiv xulq-atvorga ega o‘smirlar orasida kreativlikni rivojlantirish, ularning ichki his-tuyg‘ularini ifodalash, muammolarni hal qilish, va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kreativ faoliyatlar, xususan, moslashuvchanlik, qayta ishlash va original fikrlash kabi ko‘rsatkichlar destruktiv xulq-atvorni kamaytirishga yordam beradi. Torrance kreativlik testining tahlillari o‘smirlar orasida kreativlik va destruktiv xulq-atvor o‘rtasidagi salbiy bog‘liqlikni aniqladi. Shunday qilib, kreativ faoliyatni o‘quv jarayonida kengroq qo‘llash o‘smirlar orasida ijobiy xatti-harakatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Tavsiyalar:

1. Ijodiy muhit yaratish: Maktab va boshqa ta'lim muassasalarida kreativ faoliyatlar uchun imkoniyatlar yaratish kerak. Bu san’at, musiqa, teatr va boshqa ijodiy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi.

2. Kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish: O‘smirlarning muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirish uchun muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan treninglar va kreativ yondashuvlarni qo‘llash zarur.

3. Badiiy terapiya va ijodiy loyiha ishlari: Destruktiv xulq-atvorga ega o‘smirlar bilan ishlashda badiiy terapiya va jamoaviy ijodiy loyihalar yordamida ularning his-tuyg‘ularini ifoda etish va o‘ziga ishonchini oshirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish kerak.

4. Moslashuvchanlik va original fikrlashni rivojlantirish: O‘smirlarga kreativlik mashg‘ulotlari orqali moslashuvchanlik va original fikrlash qobiliyatlarini oshirish imkonini berish zarur, chunki bu ko‘nikmalar destruktiv xulq-atvorni pasaytirishga yordam beradi.

5. Ijodiy qobiliyatlarni mustahkamlash: O‘quvchilarga o‘z ijodiy qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazish imkoniyatini berish orqali ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, bu orqali destruktiv xulq-atvorni kamaytirish mumkin.

6. Psixologik dasturlar: Destruktiv xulq-atvorga ega o‘smirlar uchun psixologik dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularga o‘z ichki konfliktlarini hal qilish va ijtimoiy moslashuvni yaxshilashda yordam berish kerak.

Adabiyotlar.

1. Девиантное поведение детей и подростков: проблемы и пути их решения/под ред. В.А. Никитина. -М.: ВЛАДОС, 1996. – 147 с.
2. Дроздов А.Ю. Агрессивное поведение молодежи в контексте социальной ситуации. / Социс. 2003. — №4.- С. 95-98.
3. Гилинский Я.И., Гурвич И.Н, Русакова М., Симпура Ю., Хлопушин Р. Девиантность подростков: Теория, методология, эмпирическая реальность — СПб.: Медицинская пресса, 2001. 200 с.
4. Зобнев В.М. Исследование взаимопонимания и взаимодействия больных алкоголизмом в психотерапевтической группе / Дис. .канд. психол. наук: 19.00.04.-Л., 1982.-165 с.
5. Грячева М.А. Совершенствование профессионального общения сотрудников таможенных органов с участниками внешнеэкономической деятельности: Автореф. дис. канд. психол. наук. – М., 2003.- 21 с.
6. Гребенщикова Л. Г. К вопросу изучения деструктивного поведения и предрасположенности к нему у несовершеннолетних// Психология в России и за рубежом: материалы междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, октябрь 2011 г.). - СПб. Реноме, 2011. - С. 40-43.

Rustamova Shahzoda Maripovna
Farg‘ona viloyati Pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi

IDEAL OTA QIYOFASI O‘SPIRIN QIZLAR NIGOHIDA

Annotatsiya. *Maqola oilada ota o‘rni muammosi va qiz farzandlarning otalar timsolida erkaklar haqidagi tasavvurlariga bag‘ishlangan. Nafaqat ota va qiz farzand o‘rtasidagi haqiqiy o‘zaro munosabatlarning ahamiyati, balki turli xil sharoitlar ta’sirida shakllanadigan va murakkab tuzilish hamda noaniq tarkib bilan ajralib turadigan otaning qiyofasi ham asoslanadi. To‘liq va noto‘liq oilalar farzandlari bo‘lgan qizlardagi ideal ota obrazidagi xarakterli farqlar ta’kidlangan. Olingan ma’lumotlar o‘spirin qizlarning ruhiy va aqliy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar haqidagi tushunchalar keltirilgan. Bu ma’lumotlar psixologlarning amaliy ishlarida qo‘llanilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *oila, erkak, tasavvur, to‘liq va noto‘liq oila, otalik, ota obrazi, komil ota, ota va qiz munosabati, ota-onalik funksiyalari.*

ОБРАЗ ИДЕАЛЬНОГО ОТЦА В ТОЧКЕ ЗРЕНИЯ ДОЧЕРИ-ПОДРОСТКА

Аннотация. *Статья посвящена проблеме роли отца в семье и представлениям девушек о мужчинах в образе отцов. Обосновывается не только важность реального взаимодействия между отцом и дочерью, но и образ отца, который формируется под влиянием различных условий и характеризуется сложной структурой и неоднозначным содержанием. Выделены характерные различия в образе идеального отца у девочек, имеющих детей из полных и неродных семей. Полученные данные представляют собой представления о факторах, влияющих на психическое развитие девочек-подростков. Эта информация может быть использована в практической работе психологов.*

Ключевые слова: семья, мужчина, воображение, полная и неродная семья, отцовство, образ отца, идеальный отец, отношения отца и дочери, родительские функции.

THE IMAGE OF THE IDEAL FATHER IN THE VIEWPOINT OF TEENAGE DAUGHTERS

Annotation. *The article is devoted to the problem of the role of the father in the family and the perception of girls about men in the image of fathers. Not only the importance of the real interaction between father and daughter is justified, but also the image of the father, which is formed under the influence of various conditions and is characterized by complex structure and ambiguous content. Characteristic differences in the image of an ideal father in girls with children from full and non-native families are highlighted. The data obtained are the concepts of factors that affect the mental and mental development of teenage girls. This information can be used in the practical work of psychologists.*

Keywords*: family, man, imagination, full and non-native family, paternity, father image, perfect Father, father and daughter relationship, parental functions.*

Kirish. Oila va oilaviy munosabatlar, ziddiyatlar, oila bilan bog‘liq turli muammolar hamisha dolzarb va ko‘pchilikni qiziqtiradigan mavzudir. So‘nggi yillarda o‘zgarishlar oilaga ijtimoiy institut sifatida va uning tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi: ota-onalarning rollari, otalik va onalik funksiyalari o‘zgaradi va o‘zaro bog‘lanadi, bolaning ota-onalar bilan muloqot qilish vaqti kamayadi, oila modelining ma’lum bir o‘zgarishi sodir bo‘ladi va hokazo. To‘liq bo‘lmagan oilalar sonining ko‘payishi, G‘arbda bir jinsli nikohda bolalarni tarbiyalash amaliyotining rivojlanishi va umuman oila institutining inqirozi tobora ko‘proq zamonaviy jamiyatdagi bola rivojlanishining ijtimoiy holatidan ota obrazining yo‘qolishiga olib keladi. Bir

qator tadqiqotlar va nazariy taxminlar, bolaning, ayniqsa, qiz bolaning meyoriy aqliy rivojlanishi uchun nafaqat ota va bola o‘rtasidagi haqiqiy o‘zaro ta’sirlar, balki uning qiyofasi ham muhim, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Agar qiz bola uchun ota jismonan mavjud bo‘lmasa, u oilada psixologik jihatdan mavjud bo‘ladi, “ichki obyekt” sifatida, “tasvir”, qandaydir ramz yoki hikoya shaklida mavjud bo‘lishda davom etadi. Ota obrazi o‘spirin qizlarning hissiy farovonligi va rivojlanishi uchun muhimdir. Qiz bola hayotida ilk uchratgan erkak sifatida o‘zini o‘zi amalga oshirish jarayoni – ijtimoiylashish, o‘z “men”i, o‘z-o‘zini hurmat qilish va xatti-harakatlar boshqarishga ta’sir qiladi. Shunday qilib, olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning nazariy tahlili shuni ko‘rsatdiki, otaning qiyofasi o‘spirin qizning aqliy rivojlanishi uchun muhim tuzilma bo‘lib, uning shakllanishi qiz bola tug‘ilishidan boshlanadi va turli xil ichki (jins, yosh va vaziyat) ta’siri ostida amalga oshiriladi va tashqi (yaqinlar bilan muhim muloqot, madaniy stereotiplar, ota bilan o‘zaro munosabatlar) omillar. Ota imidjining ta’siri va uning obrazi qizlar rivojlanishidagi ahamiyati tan olinganiga qaramay, bu sohadagi tadqiqotlar hali ham juda kam o‘rganilgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, to‘liq bo‘lmagan oiladan bo‘lgan qizlarning tasavvuridagi ota qiyofasi eksperimental ravishda o‘rganilmagan. Ushbu muammoning dolzarbligi va zaruratini hisobga olgan holda, psixologik tadqiqotlar o‘tkazildi, uning asosiy natijalari ushbu maqolada keltirilgan. Ushbu tadqiqotda otaning xulq-atvor uslublari va shaxsiy xususiyatlarining obyektiv xususiyatlariga emas, balki qizlarning subyektiv tasavvurlariga e’tibor qaratildi.


Asosiy qism.

Tadqiqotimizning maqsadi o‘spirin qizlarda ota timsolida erkaklarga munosabatini aniqlash bo‘ldi. Maqsadga muvofiq, o‘spirin qizlar orasida “Oilada ota va qiz munosabatlari” haqidagi anketa-so‘rovnomaga javob berishlari taklif qilindi. Shu bilan birgalikda, ulardan ideal ota qanday bo‘lishlari lozimligini tasvirlab berish so‘raldi. Tasvir tushunchasining ta’rifiga murojaat qilsak, shuni ta’kidlash kerakki, S.L.Rubinshteynga ko‘ra, to‘g‘ri ma’noda tasvirni hodisalar, ularning xususiyatlari va munosabatlari subyektga bilish obyektlari sifatida ko‘rinadigan hissiy taassurot sifatida tushunish kerak. “Otaning qiyofasi” yoki “ota-onaning qiyofasi” tushunchasini “bolaning kelajakdagi shaxsiyatining rivojlanishini belgilaydigan ota va onaning psixologik fazilatlaridagi farqlarni idrok etishi”, deb ta’riflash mumkin.

Tadqiqotimizda 200 nafarga yaqin (n=191) qizlar ishtirok etdilar. Ularning 51,3 foizi noto‘liq oila farzandlaridir. Quyida savollarning eng muhimlarini keltiramiz:

“***Qiz bolaning hayotida ota ko‘proq ahamiyatga ega, chunki...***” deb berilgan savolga 83,8 foiz respondentlar “Otasiz o‘sgan qizlarga rahm ko‘zi bilan qarashlarini yoqtirmayman”, degan javobni belgilaganlar. “Kelajakda qizning hayotiga kirib keladigan inson shunday bo‘ladi, deb hisoblayman”, degan javobni esa respondentlarning kam qismi, atigi 13,6 foizi belgilaganlar. Bundan aytish mumkin-ki, noto‘liq oila qizlarining otalari haqidagi fikrlari ijobiy bo‘lmasa ham, o‘z qadr-qimmatlarini saqlagan holda, kamsitilishlarga norozi ekanligini bildirganliklarini aytish mumkin.

Navbatdagi “***Kelajakda turmush o‘rtog‘ingiz otangizga o‘xshagan bo‘lishini istarmidingiz?”*** deb berilgan savolga, qizlarning 19,9 foizi “Albatta, chunki mening otam yagona”, deb javob qaytarganlar (1-rasm). Bundan aytish mumkin-ki, oilaning shaklidan qat’i nazar, respondentlar otasiga nisbatan o‘ta salbiy munosabatda emas.



1-rasm. "*Kelajakda turmush o'rtog'ingiz otangizga o'xshagan bo'lishini istarmidingiz?",* deb berilgan savolga qaytarilgan javoblar (% hisobida).

Ideal ota haqidagi berilgan savolga qaytarilgan javoblardan xulosa chiqarish mumkin-ki, respondentlar, har qanday sharoitda ham otalarining yordamiga ehtiyojlari yuqori. Chunki sinaluvchilarning eng katta qismi (69,1%) kuchli insonlarni ideal ota sifatida belgilaganlar.

Navbatdagi "***Ota obrazining mavjud yoki mavjud emasligi qiz farzandning kelajakdagi istiqbollariga bog'liqmi?"*** deb berilgan savolga esa quyidagicha javob qaytarilgan (2-rasm):



2-rasm. "***Ota obrazining mavjud yoki mavjud emasligi qiz farzandning kelajakdagi istiqbollariga bog'liqmi?"*** deb berilgan savolga qaytarilgan javoblar (% hisobida).

Qizlarning yarmiga yaqini ota obrazining mavjud emasligi kelajakda ularda turmush o'rtog'iga nisbatan salbiy fikr shakllanishi mumkinligini belgilashgan. Demak, oilada kuchli boshqaruvchi – otaning yo'qligi natijasida barcha qiyinchilikni o'z bo'ynilariga olishlari qizlardagi ana shunday fikr hosil qiladi, deb belgilash mumkin.

Yana bir muhim savol – "***Kelajakda oila qurganingizda turmush o'rtog'ingizda qaysi sifatlar ustun bo'lishini istaysiz?***" deb berilgan savolga sinaluvchilarning aksariyat qismi "Spirtli ichimliklar ichmaydigan" va "Meni har qanday vaziyatda tushuna oladigan" degan javobni belgilaganlar. Bundan ko'rinib turibdiki, aksariyat ajrashgan oila vakilalari spirtli ichimliklardan aziyat chekishgan, deb aytish mumkin. Chunki og'zaki suhbatlar jarayonida ham qizlarning ko'pchiligi ota-onasining ajrashib ketishlariga spirtli ichimliklar sabab bo'lganini ta'kidlagan edilar.

Shunday qilib, qizlarning yuqorida bildirgan javoblariga asoslanib, oila shaklidan qat'i nazar, o'spirin qizlarda otaning ijobiy rangli tasviri ustunlik qiladi, ko'proq hissiy jihatdan farqlanadi (mehribonlik, tushunish, quvnoqlik va hokazo.), bu otaning hissiy qabul qilinishi va ma'qullanishi zarurati bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

To‘liq va noto‘liq oilalar qizlari uchun ham erkak – ota haqidagi tasavvurlar biroz farq qiladi: to‘liq oilalardagi qizlarning fikriga ko‘ra, ota birinchi navbatda hamkorlik qilish va yordam berish ma’nosida mehribon, g‘amxo‘r, quvnoq odamdir. YA’ni, ularnig tasvirlarida hissiy xususiyatlar ko‘proq ko‘rsatilgan, qisman xulq-atvor komponenti va ijtimoiy mavqega ham e’tibor beriladi. Noto‘liq oilalar qizlari aql, halollik, adolat, jiddiylik, jasorat, farzandlarga bo‘lgan muhabbat singari sifatlarni eng muhim fazilatlar, deb bilishlari ko‘rindi. Kognitiv komponent, shuningdek, farzandlarga maksimal darajada e’tibor berish, ularga yaqin bo‘lish, ularni himoya qilish talablari ustunlik qiladi.

Xulosa

Insonning qanday tarbiya ko‘rganligi uning oilaviy sharoiti, ota-onasiga bog‘liqdir. Farzand tarbiyasida ota, ayniqsa, muhim rol o‘ynaydi. Oila boshlig‘ining, ya’ni otaning hurmati joyida bo‘lib, o‘z oila a’zolariga munosib rahbarlik qila olsagina, oilada tartib-intizom, mehnat va dam, o‘zaro hurmat va odob-axloq joyida bo‘ladi. Otalarimiz farzandlari 14 yoshga to‘lgunga qadar ideal otaga aylanib olishlari shart. Shundagina farzandi referent guruh vakilini oiladan tashqaridan axtarmaydi. Aks holda farzandlarimiz tarbiyasi izdan chiqib, jamiyatdagi axloq meyorlariga qarama-qarshi bo‘lgan deviant xulq-atvor vujudga keladi.

Olingan natijalarni umumlashtirib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin: otaning obrazi o‘spirin qizning aqliy rivojlanishi uchun muhim tuzilma bo‘lib, u turli omillar ta’sirida shakllanadi va shaxsiyat, o‘ziga xoslik, hissiy farovonlik, o‘zini o‘zi qadrlash va xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir qiladi. Qizlar otasi bilan jonli muloqotni qadrlashadi va u bilan ko‘proq vaqt o‘tkazishga intilishadi. Ular uchun otaning eng muhim shaxsiy xususiyatlari mehribonlik, hazil tuyg‘usi, kuch, aql, g‘amxo‘rlik va yordam berish qobiliyatidir. Tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlardan psixologlar, o‘qituvchilar qiz bola tarbiyasi va ularning oilalari bilan amaliy ishlarida foydalanish mumkin. Shuni ham ta’kidlash joizki, qizlarning ota-onalari haqidagi g‘oyalarini o‘rganish ko‘pincha oila ichidagi munosabatlar va ularning xatti-harakatlarini tuzatish uchun psixologik va pedagogik ishning zarur elementi hisoblanadi. Qizlar (ayniqsa, noto‘liq oilalar qizlari)da otasining munosib ijobiy obrazini shakllantirish zarurligiga alohida e’tibor qaratish lozim. Zero, qizlar kelajakda turmush o‘rtoqlarini otasi haqidami tasavvurlar bilan qabul qiladi.

Adabiyotlar.

1. Қуронов М. Оталар китоби. – Тошкент. “Ўзбекистон”. 2007-йил.
2. Калина О. Г. Влияние образа отца на эмоциональное благополучие и полоролевую идентичность подростков: Дис. на соиск. уч. степени канд. психол. наук / Моск. гор. психолого-пед. ун-т. – М., 2007. – 152-с.
3. Азизова Т.М. Замонавий ўзбек оилаларида ўсмир болалар шахси шаклланиши. – Т.: “Халқ таълими”. 1998-й. 3-сон.

Ataxo‘jayeva Shaxlo Anvarovna
University of Business and Science
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doltori (PhD)

OLIY TA’LIM CHET TILI O‘QITUVCHILARINING SOTSIAL-EMOTSIONAL KOMPETENTLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta'lim chet tili o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari o‘rganilgan. Sotsial-emotsional kompetentlik o‘qituvchining talabalarning emotsional ehtiyojlarini tushunishi, ular bilan samarali muloqot olib borishi va o‘z emotsiyalarini boshqarish qobiliyati bilan bog‘liqdir. Mazkur kompetentlik o‘qituvchilarning professional faoliyatidagi muvaffaqiyatga erishishining muhim omili sifatida ta'kidlanadi. Tadqiqotda o‘qituvchilarning sotsial-emotsional ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlari va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *sotsial-emotsional kompetentlik, chet tili o‘qituvchisi, emotsional intellekt, ta'lim sifati, empatiya, muloqot.*

SOCIAL-EMOTIONAL COMPETENCE OF HIGHER EDUCATION SHET LANGUAGE TEACHERS

Abstract. *This article explores the development and enhancement of social-emotional competence among foreign language teachers in higher education. Social-emotional competence relates to the teacher's ability to understand the emotional needs of students, engage in effective communication, and manage their own emotions. This competence is emphasized as a key factor for professional success in teaching. The study analyzes methods for developing teachers' social-emotional skills and their impact on the educational process.*

Keywords: *social-emotional competence, foreign language teacher, emotional intelligence, education quality, empathy, communication.*

СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШЕГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы формирования и развития социально-эмоциональной компетентности преподавателей иностранных языков в высших учебных заведениях. Социально-эмоциональная компетентность связана со способностью преподавателя понимать эмоциональные потребности студентов, эффективно взаимодействовать и управлять собственными эмоциями. Эта компетентность подчеркивается как важный фактор успешной профессиональной деятельности. В исследовании проанализированы методы развития социально-эмоциональных навыков преподавателей и их влияние на образовательный процесс.*

Ключевые слова: *социально-эмоциональная компетентность, преподаватель иностранных языков, эмоциональный интеллект, качество образования, эмпатия, коммуникация.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida o‘qituvchilarning kasbiy malakasi va bilimi bilan bir qatorda sotsial-emotsional kompetentlik darajasi ham katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida chet tili o‘qituvchilari uchun bu kompetensiyalar nafaqat o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda, balki talabalar bilan muvaffaqiyatli o‘zaro munosabatlar o‘rnatishda ham muhim omil hisoblanadi. Sotsial-emotsional kompetentlik o‘qituvchilarning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, talabalarning emotsional ehtiyojlarini tushunish, guruh bilan ishlashda ijobiy muhit yaratish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlar sharhi. Mazkur mavzu bo‘yicha o‘rganilgan adabiyotlar chet tili o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirish zarurligi va bu ko‘nikmaning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida keng ko‘lamli tahlil va ilmiy yondashuvlarni taqdim etadi. Quyida mavzuga oid muhim adabiyotlar sharhi keltiriladi: Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Daniel Golemanning ushbu asari sotsial-emotsional intellektni rivojlantirishning muhimligi haqida fundamental bilimlarni beradi. U his-tuyg‘ularni boshqarish va boshqalar bilan samarali aloqani yo‘lga qo‘yish qobiliyatining nafaqat shaxsiy, balki professional sohada ham katta ta'sir ko‘rsatishini ta'kidlaydi. Chet tili o‘qituvchilari uchun bu nazariyalar ayniqsa muhim, chunki ular talabalarning emotsional ehtiyojlarini anglab, ularning o‘zini erkin his qilishiga yordam berishlari kerak.

Jennings, P. A., & Greenberg, M. T. (2009). The Prosocial Classroom: Teacher Social and Emotional Competence in Relation to Student and Classroom Outcomes. Ushbu maqola o‘qituvchilarning sotsial-emotsional kompetentligining talabalarga qanday ta'sir ko‘rsatishini o‘rganadi. Mualliflar sotsial-emotsional kompetentlikning rivojlanganligi natijasida o‘qituvchilar stressli vaziyatlarni boshqarishda samaraliroq bo‘lishlari va sinfda ijobiy muhit yaratishlarini ta'kidlaydilar. Chet tili o‘qituvchilari uchun bu sinfda ishonchli va qulay muloqot muhiti yaratishga yordam beradi, bu esa talabalarning til o‘rganishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Zins, J. E., Weissberg, R. P., Wang, M. C., & Walberg, H. J. (2004). Building Academic Success on Social and Emotional Learning: What Does the Research Say? Ushbu asar sotsial-emotsional o‘qitishning ta’lim jarayonidagi roli haqida batafsil ma'lumot beradi. Kitobda ta'limda o‘qituvchilarning o‘z hissiy holatini boshqarish ko‘nikmalari va talabalarning emotsional farovonligiga qanday ta'sir ko‘rsatishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Chet tili o‘qituvchilari sotsial-emotsional kompetentlik usullarini qo‘llash orqali talabalar bilan til o‘rganish jarayonida samarali muloqot qila oladilar.

Boyatzis, R. E., & McKee, A. (2005). Resonant Leadership: Renewing Yourself and Connecting with Others through Mindfulness, Hope, and Compassion. Mazkur asar rahbarlik va ta’limda sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirish usullariga bag‘ishlangan. Boyatzis va McKee o‘qituvchilarning hushyorlik, umid va hamdardlik orqali talabalar bilan yaqin munosabatlarni shakllantirishi va bu orqali o‘quv jarayonini yengillashtirishlari mumkinligini ta’kidlaydilar. Chet tili o‘qituvchilari uchun bu ko‘nikmalar talabalar bilan til o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi.

Merrell, K. W., & Gueldner, B. A. (2010). Social and Emotional Learning in the Classroom: Promoting Mental Health and Academic Success. Merrell va Gueldner tomonidan yozilgan ushbu asar sinfda sotsial-emotsional o‘qitishning muhimligini va uning ta'lim jarayoniga ta'sirini o‘rganadi. O‘qituvchilarning sotsial-emotsional kompetentligi talabalarning akademik muvaffaqiyati va psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi. Bu chet tili o‘qituvchilari uchun muhim, chunki ular o‘z talabalari bilan samarali munosabatlar o‘rnatish orqali ularning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishlari mumkin.

Tadqiqotning metodikasi. Oliy ta’limda chet tili o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida yuqori darajada samarali bo‘lishi uchun muhim hisoblanadi. Bu metodika o‘qituvchilarga talabalarning emotsional holatlarini tushunish, muloqot o‘rnatish, stressli vaziyatlarni boshqarish va ijobiy ta'lim muhiti yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

1. Ta’lim jarayoniga psixologik yondashuvlar integratsiyasi;

- Emotsional intellektni rivojlantirish: O‘qituvchilar avvalo o‘zlarining emotsional intellektlarini rivojlantirishlari kerak. Bu emotsiyalarni tushunish, ularga mos javob qaytarish va boshqarishni o‘z ichiga oladi. Chet tili o‘qituvchisi ko‘pincha turli madaniyat va kontekstlarda ishlaydi, shuning uchun u emotsional intellektni rivojlantirgan holda talabalarning emotsiyalarini anglashga va ularga mos munosabat ko‘rsatishga qodir bo‘ladi.

- Empatiya: O‘qituvchilarning empatiya ko‘nikmasini shakllantirish, ya’ni boshqalarning emotsiyalarini his qilish va tushunish qobiliyatini oshirish o‘quv jarayonida muhim ahamiyatga

ega. Ushbu ko‘nikma talabalar bilan samarali muloqotni ta'minlaydi va dars davomida emotsional barqarorlikni saqlaydi.

2. Ta'lim jarayonida munosabatlarni boshqarish usullari:

- Interfaol metodlardan foydalanish: Chet tili o‘rgatish jarayonida interfaol usullardan foydalanish (munozaralar, rolli o‘yinlar, guruh loyihalari) talabalarning sotsial va emotsional ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu talabalarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, birgalikda ishlash va o‘zaro munosabatlar o‘rnatishni o‘rgatadi.

- Reflektiv yondashuv: O‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida muntazam ravishda refleksiya o‘tkazish, ya'ni o‘quv jarayonida yuzaga kelgan muammolar va yutuqlarni tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash va o‘zgartirishlarni kiritish orqali o‘zaro aloqalarni yaxshilash mumkin. Bu jarayon o‘qituvchiga o‘zining sotsial-emotsional rivojlanishini kuzatish imkonini beradi.

3. Sotsial-emotsional kompetentlikni o‘rgatishda maxsus texnikalar:

- Talabalarning emotsiyalarini anglash va boshqarish: O‘qituvchi talabalarning emotsional holatini nazorat qilish uchun maxsus texnikalardan foydalanishi kerak. Masalan, stressni kamaytirish yoki hissiyotlarni boshqarishga qaratilgan psixologik treninglar orqali talabalar o‘zlarini yanada qulay his qilishlari mumkin.

-Ko‘p madaniyatli muhitda muloqot: Chet tili o‘qituvchilari ko‘pincha ko‘p madaniyatli guruhlarda ishlaydi. Shu sababli o‘qituvchi madaniyatlararo muloqotning nozik tomonlarini yaxshi tushunishi va talabalar orasida madaniy o‘ziga xosliklarni inobatga olib, to‘g‘ri kommunikatsiya o‘rnatishni ta'minlash lozim.

4. Stressni boshqarish va muammolarni hal qilish:

- Stressni boshqarish usullari: O‘qituvchilar talabalar o‘rtasidagi stressli vaziyatlarni boshqarish va ijobiy muhitni saqlash bo‘yicha strategiyalardan foydalanishlari lozim. Bu texnikalar o‘zaro hurmat, sabr-toqat va muammolarni ochiq muhokama qilish orqali ijobiy natijalarga olib keladi.

-Ixtiloflarni boshqarish: Talabalar bilan ishlash jarayonida turli kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. O‘qituvchi bu vaziyatlarni hal qilishda mediator sifatida harakat qilishi va talabalar o‘rtasidagi nizolarni emotsional jihatdan boshqarishi kerak. Ushbu yondashuv talabalarga nizolarni hal qilishda sotsial va emotsional yondashuvlarni o‘rgatadi.

5. Refleksiya va baholash metodlari:

- Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash: O‘qituvchi va talabalar faoliyati natijalarini reflektiv tahlil qilish va baholash sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu o‘qituvchiga o‘zining hissiy holati va munosabatlarini o‘zgartirish, yaxshilash imkonini beradi.

- Sotsiometrik tahlil: Talabalar o‘rtasidagi sotsial munosabatlarni tahlil qilish uchun sotsiometrik texnikalar qo‘llaniladi. Bu talabalar orasidagi ijtimoiy o‘rinlarni aniqlash, ulardagi emotsional muvozanatni saqlash va talabalar guruhidagi muammolarni boshqarishda yordam beradi.

Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirish uchun metodik yondashuvlar bir qator texnikalar va strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Bu yondashuvlar orqali o‘qituvchi talabalarning emotsional ehtiyojlarini inobatga olgan holda samarali ta'lim jarayonini tashkil etadi va ijobiy o‘quv muhitini yaratadi. Shu bilan birga, bu metodika o‘qituvchining o‘zini rivojlantirish va professional o‘sishga erishishiga ham xizmat qiladi.

Sotsial-emotsional kompetentlik nima?

Sotsial-emotsional kompetentlik – bu o‘qituvchining o‘z va boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va samarali muloqot qilish qobiliyatidir. Ushbu ko‘nikmalar quyidagi asosiy jihatlarni qamrab oladi:

1. O‘z-o‘zini anglash va boshqarish: O‘qituvchi o‘zining hissiy holatini tan olishi va o‘zini nazorat qila olishi kerak. Bu o‘qituvchining stressli vaziyatlarda bardoshli bo‘lishiga va o‘z xatti-harakatlarini boshqarishga yordam beradi.

2. Ijtimoiy anglash: Talabalar va hamkasblarning his-tuyg‘ularini tushunish, ularning ehtiyojlariga mos ravishda javob berish o‘qituvchining sinfda qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishiga yordam beradi.

3. Samarali o‘zaro munosabatlar: Ijobiy muloqot o‘quv jarayonida muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi talabalar bilan samarali aloqani tashkil qilishi va baholash jarayonida odil bo‘lishi lozim.

4. Mas’uliyatli qaror qabul qilish: Har bir pedagog sinfda va ta'lim jarayonida to‘g‘ri qarorlar qabul qilishda talabalarning ijtimoiy va emotsional ehtiyojlarini hisobga olishi kerak.

Tahlil va natijalar. Sotsial-emotsional kompetentlik chet tili o‘qituvchilari uchun nafaqat dars jarayonida muvaffaqiyatga erishish, balki ta'limning umumiy sifati va talabalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadigan muhim omildir. Bunday kompetentlikni o‘lchash va tahlil qilish orqali o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, ularning talabalar bilan muloqoti va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari ko‘rsatkichlarini baholash mumkin.

1. Tahlil uchun asosiy ko‘rsatkichlar

Chet tili o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini tahlil qilishda quyidagi ko‘rsatkichlar asosiy rol o‘ynaydi:

- Emotsional intellekt (EI): O‘qituvchining o‘z emotsiyalarini anglash, boshqarish va boshqalarning emotsiyalarini tushunish darajasi. Emotsional intellekt yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar talabalarning his-tuyg‘ulariga tez javob qaytaradi va talabalarning qiyinchiliklari bilan ishlashda samaraliroq bo‘ladi.

- Muloqot qobiliyati: O‘qituvchining talabalarga o‘z fikrlarini aniq, tushunarli tarzda yetkazishi va ularning savollariga mos munosabat bildira olish qobiliyati. Bu ko‘rsatkich orqali talabalarning darsga jalb qilinish darajasi oshadi va talabalarning motivatsiyasi yuqori bo‘ladi.

- Emotsional muvozanat va stressga chidamlilik: O‘qituvchining qiyin va stressli vaziyatlarda o‘zini tutishi, qiyinchiliklarni boshqarish qobiliyati. Bu o‘qituvchi uchun zarur bo‘lib, ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli bo‘lishiga ta'sir ko‘rsatadi.

- Empatiya va ijtimoiy munosabatlar: O‘qituvchining talabalarning emotsional ehtiyojlariga javob berish qobiliyati, shuningdek, o‘zaro munosabatlarni boshqarish usullari. Empatiya darajasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar talabalarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Natijalar tahlili

O‘qituvchilarning sotsial-emotsional kompetentligini tahlil qilish natijalari quyidagilarni ko‘rsatishi mumkin:

- Yuqori emotsional intellektga ega bo‘lgan o‘qituvchilar darsda talabalarning faolligini oshiradi, dars jarayonida ishtirokni kuchaytiradi va ularning qiziqish darajasini yuqori saqlaydi. Bunday o‘qituvchilar talabalarning individual ehtiyojlariga moslashadi va ular bilan hamkorlik qilishda yaxshi natijaga erishadi.

- Stressga chidamlilik va emosional muvozanat: Stressli vaziyatlarda o‘qituvchining emotsiyalarini boshqarish qobiliyati talabalarning umumiy kayfiyatiga ijobiy ta'sir qiladi. Talabalar o‘zlarini erkinroq his qiladi va bu ta'lim samaradorligini oshiradi.

- Empatiya: Empatik o‘qituvchilar talabalarning hissiy ehtiyojlariga sezgir bo‘lganlari sababli, talabalarning o‘zlarini qadrlanishini his qilishlariga olib keladi. Natijada talabalar bilan chuqurroq va ishonchli munosabatlar shakllanadi.

-Muloqot samaradorligi: Sotsial-emotsional kompetentligi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar talabalarning dars jarayonidagi qiyinchiliklarini tushunadi va ularga yordam beradi, bu esa talabalarning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Sotsial-emotsional kompetentlikning ta'lim jarayoniga ta’siri: Tahlil natijalariga ko‘ra, yuqori darajadagi sotsial-emotsional kompetentlik quyidagi natijalarga olib keladi:

-Ta’lim samaradorligi oshadi: O‘qituvchi o‘zining sotsial-emotsional ko‘nikmalaridan foydalangan holda talabalarning motivatsiyasini kuchaytiradi, bu esa o‘z navbatida ta'lim jarayonining sifatini oshiradi.

-Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yaxshilanadi: O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ochiq muloqot va o‘zaro hurmat talabalar o‘rtasida ham ijobiy muhit yaratadi.

-Ta'lim muhiti qulayligi: Sotsial-emotsional kompetentlik yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar stress va qiyinchiliklarni boshqarib, ijobiy va qulay o‘quv muhitini yaratadilar, bu esa talabalarning rivojlanishiga va ular bilan ishlash samaradorligiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Oliy ta'lim chet tili o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini tahlil qilish orqali, o‘qituvchilarning talabalarga qanday ta'sir ko‘rsatishi, ta'lim jarayonini qanchalik samarali boshqarishi va o‘z emotsiyalarini nazorat qilish qobiliyatini o‘lchash mumkin. Sotsial-emotsional jihatdan rivojlangan o‘qituvchilar talabalarning muvaffaqiyatli ta'lim olishlariga yordam beradi va ijobiy ta'lim muhiti yaratadi.

Chet tili o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligining ahamiyati. Chet tilini o‘rgatishda sotsial-emotsional kompetentlikning roli alohida ajralib turadi. Chet tili o‘qituvchisi talabalarga yangi tilni o‘rganish jarayonida nafaqat til bilimlarini etkazadi, balki ularning til o‘rganishdagi psixologik va emotsional holatini ham nazorat qilishi kerak. Chet tilini o‘rganish ko‘pincha talabalar uchun stressli bo‘lishi mumkin, shuning uchun o‘qituvchi o‘zining sotsial-emotsional kompetentligi orqali bu jarayonni yengillashtirishi mumkin.

1. Stress va qo‘rquvni boshqarish: Chet tilini o‘rganish jarayonida talabalar tez-tez yangi bilimlarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi. O‘qituvchi sotsial-emotsional jihatdan rivojlangan bo‘lsa, bu stressni kamaytirishda yordam beradi va talabalar o‘zlarini erkinroq his qiladi.

2. Madaniy anglash va xolislik: Chet tili o‘qituvchisi turli madaniyatlardan bo‘lgan talabalar bilan ishlashda ularning madaniy xususiyatlarini tushunishi va hurmat qilishi lozim. Bu talabalarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi va ularni o‘ziga yaqinlashtiradi.

3. O‘quv jarayoniga qiziqishni oshirish: Sotsial-emotsional kompetentlik yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar talabalar bilan qiziqarli va jonli darslar tashkil etish orqali o‘quv jarayoniga ko‘proq jalb qilinadi. Bu esa talabalarni til o‘rganishga faol jalb qilish imkonini beradi.

Oliy ta'limda sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirish yo‘llari

Chet tili o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

1. Malaka oshirish kurslari: Oliy ta'lim muassasalari o‘qituvchilarning psixologik va emotsional bilimlarini kengaytirish uchun malaka oshirish dasturlarini tashkil etishi kerak. Bu kurslar orqali o‘qituvchilar o‘zlarining hissiy holatini boshqarish va talabalarning ehtiyojlariga yanada moslashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. Mentorlik tizimi: Yangi o‘qituvchilarni tajribali pedagoglar bilan birlashtirish, ularning pedagogik faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklarga yordam ko‘rsatish uchun mentorlik tizimini joriy qilish muhimdir.

3. Psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi: O‘qituvchilar stressni boshdan kechirishi yoki emotsional jihatdan yuklama ostida qolishi mumkin. Shuning uchun ta'lim muassasalarida psixologik yordam ko‘rsatuvchi xizmatlar faoliyat yuritishi zarur.

Xulosa. Oliy ta'lim muassasalarida chet tili o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligi talabalar bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yishda va o‘quv jarayonining sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. O‘qituvchilarning o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qila olishi va talabalarning emotsional ehtiyojlarini tushunishi natijasida darslar yanada samarali va qiziqarli bo‘ladi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalari sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi zarur. O‘rganilgan adabiyotlar chet tili o‘qituvchilari uchun sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning muhimligini ko‘rsatadi. O‘qituvchilar o‘zlarining hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali nafaqat talabalarga tilni samarali o‘rgatishlari, balki talabalarning psixologik farovonligini ta’minlashlari mumkin. Ushbu adabiyotlar shuni ta'kidlaydiki, o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini anglash va boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati til o‘rganish jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga bevosita ta'sir qiladi.

Adabiyotlar.

1. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books.

2. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). Emotional intelligence. *Imagination, Cognition, and Personality*, 9(3), 185-211.

3. Petrides, K. V., & Furnham, A. (2001). Trait emotional intelligence: Psychometric investigation with reference to established trait taxonomies. *European Journal of Personality*, 15(6), 425-448.

4. Hargreaves, A. (2000). Mixed emotions: Teachers' perceptions of their interactions with students. *Teaching and Teacher Education*, 16(8), 811-826.

5. Jennings, P. A., & Greenberg, M. T. (2009). The prosocial classroom: Teacher social and emotional competence in relation to student and classroom outcomes. *Review of Educational Research*, 79(1), 491-525.

6. Zins, J. E., Weissberg, R. P., Wang, M. C., & Walberg, H. J. (2004). *Building academic success on social and emotional learning: What does the research say?* Teachers College Press.

7. Mayer, J. D., & Salovey, P. (1997). What is emotional intelligence? In P. Salovey & D. Sluyter (Eds.), *Emotional development and emotional intelligence: Educational implications* (pp. 3-31). Basic Books.

Axmedova Shaxzoda Axmatovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
tayanch doktoranti

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY IDENTIKLIKNI O’RGANISHNING METODOLOGIK JABHALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo’lajak pedagoglarda kasbiy identiklikni shakllantiruvchi psixologik xususiyatlar yoritib berilgan. Shuningdek, kasbiy identiklikga doir MDH va uzoq xorijda amalga oshirilgan kasbiy identiklikga oid amaliy izlanishlar keltirib o’tilgan. Kasbiy identiklikni shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar tahlili ochib berilgan.*

Kalit so’zlar: *identiklik, kasbiy identiklik, psixologik ta’sir, shakllantirish, psixologik xususiyat.*

МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГИРОВ

Аннотация*. В данной статье освещены психологические особенности, формирующие профессиональную идентичность у будущих педагогов. Также приводятся практические исследования профессиональной идентичности, проводимые в странах СНГ и дальнего зарубежья. Раскрыт анализ психологических факторов, влияющих на формирование профессиональной идентичности.*

Ключевые слова: *идентичность, профессиональная идентичность, психологическое воздействие, формирование, психологическая характеристика.*

METHODOLOGICAL ASPECTS OF STUDYING PROFESSIONAL IDENTITY IN FUTURE EDUCATORS

Annotation. *This article highlights the psychological characteristics that shape professional identity in future educators. Practical research into occupational identity has also been cited in the CIS and far abroad. An analysis of psychological factors affecting the formation of professional identity is revealed.*

Keywords: *identity, professional identity, psychological impact, formation, psychological feature.*

Kasbiy identiklik muammosi juda dolzarb muammoga aylanmoqda. Chunki, bir tomondan globallashuv ta’sirida turli millatlardan tashkil topgan yer kurrasi yagona madaniy dunyoga integrasiyalashmoqda, ikkinchi tomondan kasbiy identiklikni saqlash millatni saqlab qolishning muhim omiliga aylanmoqda. Haqiqatan, bugungi kun borlig‘i nuqtai nazaridan identiklik insonning etnik birlik, millat, milliy davlatchilik qurilishi tarixi va tarixiy sinovlarning mohiyatini tushuntirish vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Madaniy taraqqiyot kasbiy identiklikning barcha ko‘rinishlarida, xususan etnik birlik a’zosi, millat vakili sifatidagi inson va uning milliy madaniyatida o‘z ifodasini topadi, bu bilan madaniyat dunyo, ayrim xalqlar va davlatlarning determinanti (lot. determinans - aniqlovchi) sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayoni tobora jadallashayotgan bir davrda yosh avlod, ayniqsa ertamiz egalari bo‘lajak kadrlar talabalarda kasbiy identiklikni psixologiya vositasida rivojlantirish, ularga kasbiy identiklikning psixologik xususiyatlarini keng ochib berish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bunda xalqimizning kasbiy an’analari asosida bo’lajak pedagoglarda kasbiy identiklikni shakllantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar, tajribalarni o‘rganish va tahlil qilish, psixologik tajribalar o‘tkazish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat kundan – kunga rivojlanib bormoqda. Mehnat bozori keskin o‘zgargan. Yuqori tajribali mutaxassislarni topib tanlashga yo‘naltirilgan

biznesning yangi turi paydo bo‘lgan. Iqtisodiyotning tez suratda rivojlanishi raqobatdardosh va kasb jihatdan mahoratli ishchilarga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda.

Bu o‘zgarishlar kishilarning kasbiy hayotda talaygina muammolarni keltirib chiqaradi va tabiiyki, psixologiyada yangi yo‘nalish kasblar psixologiyasiga yoki kasb psixologiyasining rivojlanishiga olib keldi. Uning mazmunini insonning kasbiy biografiyasi, kasbiy maqsadlarining shakllanishidan boshlab to kasbiy hayotdan (davrdan) ketishigacha bo‘lgan shaxsning rivojlanishini tashkil etadi.

Kasbiy identifikatsiyaning kognitiv komponentiga nisbatan an’anaviy yondoshuv D.N.Zavalishinaning yozishicha, insonning kasbdoshlar guruhidagi me’yorlar, qadriyatlar va an’analarni o‘zlashtirishi bilan belgilanadi. Ushbu voqelik kasbiy identifikatsiya sifatida namoyon bo‘ladi: “...Hech qanday kasbiy faoliyat va shaxsiy taraqqiyot kasblar dunyosini va o‘zini o‘zi anglashga yo‘naltirilgan subyektning kognitiv faolligisiz amalga oshmaydi”. Ushbu jarayonni kasbdoshlar guruhidagi shaxslarning o‘zini o‘zi anglashi bilan taqqoslasa bo‘ladi. Muallifning ta’kidlashicha, kasbiy identifikatsiyaning kognitiv komponentlarini kasbiy faoliyat yuritilayotgan jamoaning muhitiga mos ravishda subyektning shaxsiy xususiyatlari bilan to‘ldirish lozim.

Identifikatsiya jarayonida shaxsning o‘zini mutaxassis sifatida anglashi mehnat jamoasi, ish joyini ichida sodir bo‘ladi. Bu makon o‘zida faqatgina ijtimoiy muhitni – jamoani, hodim va boshqaruvchi mutaxassislarni yoki faqatgina kasbiy normalarning tashuvchilarini emas, balki mehnat obyektini, qolaversa inson o‘z faolligini yo‘naltiruvchi voqelikni mujassamlashtiradi. Y.V.Koneva “kasbiy makon” tushunchasini mutaxassis, insonlar jamoasi ish olib boruvchi, atrofdagi voqealarga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi obyektlar tizimi sifatida o‘rganadi. Muallifning ko‘rsatishicha, kasbiy makon tushunchasiga nisbatan bunday yondoshuv uning kasbiy identifikatsiya bilan aloqalarini osongina o‘rnatish imkonini beradi: insonning o‘zini mutaxassis sifatida his qilishi – aynan mana shu jihat uni ayrim odamlar, obyektlar, voqealar va mas’uliyat doirasi ichidagi shaxsning o‘zi haqidagi tasavvuridir.

Insonning kasbiy shakllanishini uning hayot yo‘lidan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Psixologik adabiyotlarda ta’kidlab o‘tilganidek, kishining kasbiy shakllanishi uning yosh davrlariga mos holda butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo‘lib shaxsning shakllanishiga mos holda boradi.

Autoidentifikatsiya (inglizcha Self-identification) — o‘zini-o‘zi aniqlash, o‘zini boshqalarga o‘xshatish, aynanlashtirish, tenglashtirishdir. Zamonaviy psixologiyada guruhiy identifikatsiya, ijtimoiy identifikatsiya, etnik identifikatsiya tushunchalari bilan bir qatorda milliy autoindentifikatsiya, jinsiy autoindentifikatsiya, yosh autoindentifikatsiyasi, kasbiy autoindentifikatsiya kabi tushunchalar ham qo‘llaniladi. Psixologik lug‘atlarda, “autoindentifikatsiya shaxsning o‘zin-o‘zi anglashi va “Men” – siymosining shakllanish jarayoni bilan bir deb qarash mumkin emas, balki (tor ma’noda) shaxsning ongli intilishlari va sa’i-harakatlari natijasidir”, - deb ta’riflanadi.

Kasbiy shakllanishni davrlashtirish masalasiga turli xil yondashuvlar mavjud. T.V.Kudryavsev shaxsning kasbga munosabati va faoliyatni bajarish darajasi mezoniga ko‘ra, kasbiy shakllanishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko‘rsatgan:

1) kasbiy moyillikning paydo bo‘lishi va shakllanishi;
2) kasbiy ta’lim va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish;
3) kasbiy faoliyatga kirishish, jamoada o‘z o‘rnini topishga faol intilish;
4) kasbiy mehnat faoliyatida shaxsning o‘zini to‘liq namoyon etishi.

Y.A.Klimov tomonidan insonni mehnat sub’ekti sifatida qarab kasbiy yo‘nalgan davrlashtirish asoslab berilgan:

1) O‘yindan oldingi bosqich (4 yoshgacha bo‘lgan davr) –kishining keyingi rivojlanishi va mehnatga kirishuvi uchun asos bo‘lgan idrok qilish vazifalarini o‘zlashtirish;

2) O‘yin bosqichi (5-8 yosh) – inson faoliyatining “asosiy mazmuni”ni o‘zlashtirish;

3) O‘quv faoliyatini o‘zlashtirish bosqichi (8-12 yosh) – faoliyatni rejalashtirish, o‘zini-o‘zi nazorat va tahlil qilish;

4) Optatsiya bosqichi (12-17 yosh) – kasb-hunar ta’limi muassasalarida kasb tanlash davri;

5) Adept bosqichi (17-20 yosh) – tanlangan ixtisoslik bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik;


6) Adaptant bosqichi (20-23 yosh) – kasbning ichiga kirish va unga ko‘nikish;

7) Internal bosqich (23-26 yosh) – kasbiy tajriba to‘plash;

8) Kasbiy mahorat bosqichi- mehnat faoliyatini malakali bajarish;

9) Obro‘-e’tibor bosqichi- mutaxassis tomonidan yuqori malakani o‘zlashtirilishi;

10) Ustozlik bosqichi- mutaxassis tomonidan kasbiy tajribani berish.




1-diagramma
Kasbiy identiklik so‘rovnomasi natijalari

Qarshi va Smarqand davlat universitetlari hamda Jizzax davlat pedagogika universitetlarida tahsil oluvchi yuqori bosqich talabalarida kasbiy identiklik muammosini tahlil qilishda shaxsning kasbiy identiklik holatini keltirib chiqaruvchi psixologik omillar yuzasi bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarda kasbiy faoliyatda mavhumlik shkalasi 6-3-6 farqni namoyon qilgan. Kasbiy faoliyatga qadam qo’yganda moratoriylik shkalasi 7-2-7 bilan, kasbiy bosim 5-4-8 farqni aks ettirgan. Kasbiy identiklik shkalasi 9-10-4 kabi o‘rtacha tafovutlarni aks ettirganligi namoyon bo’lgan.

Kasbiy identiklik – bu o‘zlarining psixologik va fiziologik fazilatlari, sog‘lig‘i va jismoniy rivojlanishi, asosiy ta’lim darajasi bo‘yicha ma’lum bir kasb (mutaxassislik) bo‘yicha o‘qish va keyingi ishlash uchun eng mos keladigan shaxslarni aniqlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Kasbiy identiklik masalasining paydo bo‘lishi ko‘p jihatdan ikki omil bilan bog‘liq. Birinchisi eng kam xarajat bilan maksimal foyda olish istagi bo‘lsa, ikkinchisi inson mehnatining ma’lum bir sohasida muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat olib boradigan odamlar o‘rtasida ma’lum farqlar mavjudligi bilan bog‘liq.



2-diagramma
Shaxsning ko’p omilli xususiyatlarini o‘rganish so‘rovnomasi natijalari

Umuman olganda, kasbiy identiklik – bu ko‘rib chiqilayotgan talabgorlarning kasbiy muhim ijtimoiy-psixologik, psixologik va psixofiziologik fazilatlari kasbiy lavozim talablariga javob berishini ta’minlashga asoslangan saralash bilan bog‘liq chora-tadbirlar majmui sanaladi. Bo‘lajak pedagoglarda muloqotga moyillik shkalasi 5-4-3 farq bilan, hissiy barqaror 7-8-5 bilan, hukmronlikka intilish shkala 3-2-7 farqni namoyon qilgan. Ijtimoiy yetuklik shkala 6-8-5 bilan, dadillik 8-7-6, ishonuvchanlik 5-3-8, o’ziga ishonch 4-7-5 va mustaqillik 4-8-4 kabi o‘rtacha tafovutlarni aks ettirgan. Keyingi o’zini nazorat qilish shkalasi 6-7-5 bilan, zo’riqish 7-4-7 singari ko’rsatkichlar bilan farqli ahamiyatli natijalarni qayd etgan.

Kasbiy identiklik – bu shaxsning ijtimoiy-psixologik, psixologik va psixofiziologik fazilatlarining kasbiy faoliyat talablariga muvofiqligini o‘rganish va baholash va nomzodni o‘quv jarayoniga yoki mehnat faoliyatiga qabul qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish tartibi.

Xulosa. Kasbiy identiklik inson va kasbni muvofiqlashtirishning umume’tirof etilgan optimal, eng samarali vositasidir. Bu haqiqatan ham shunday bo‘lishi uchun mehnat psixologiyasida ishlab chiqilgan kasbiy identiklikning asosiy tamoyillariga rioya qilish kerak, ularga rioya qilish orqali uni amalga oshirishda yuzaga keladigan xatolardan qochish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Большой психологический словарь. Под общ. Редакции Б.Г.Мещерякова и П.И.Зинченко. 3-е изд.М. 2002. С. 80.
2. Маркова А.К. Психология профессионализма. М.,1996. С. 36.
3. Ғозиев Э.Мамедов К. Касб психологияси Т.2005. Б. 74.
4. Бовин Б. Г., Федорова Е. М. Некоторые аспекты психологической диагностики профессионального отчуждения сотрудников уголовно-исполнительной системы //Вестник Академии Следственного комитета Российской Федерации. – 2016. – №. 2. – С. 172-175.

Ashrapov Nodirbek Namoz o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti
psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

O‘SPIRINLARDA KOGNITIV JARAYONLARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISH JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, o‘spirinlar kognitiv jarayonlarning psixologik rivojlanish jihatlarini o‘rganilgan.Bundan tashqari, kognitiv rivojlanish, o‘spirinlarning bilish jarayonlaridagi o‘zgarishlar ilmiy va nazariy jihatdan tahlil qilingan. O‘spirinlar yangi tajribalar orttirishi, yangi bilimlarni qabul qilishi va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi amaliy jihatdan muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar*. O‘spirinlik, kognitiv jarayonlar, xotira, ijtimoiylashuv, muloqot, shaxsiy xususiyatlar, individuallik.*

АСПЕКТЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье исследуются аспекты психологического развития познавательных процессов у подростков.Кроме того, научно и теоретически проанализированы изменения в когнитивном развитии, когнитивных процессах подростков. На практике обсуждается, как подростки приобретают новый опыт, получают новые знания и развивают навыки мышления.*

Ключевые слова*. Подростковый возраст, познавательные процессы, память, социализация, общение, особенности личности, индивидуальность.*

ASPECTS OF PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF COGNITIVE PROCESSES IN ADOLESCENTS

Annotation*. In this article, adolescents have studied aspects of the psychological development of cognitive processes.In addition, cognitive development, changes in adolescents ' cognitive processes have been scientifically and theoretically analyzed. It is practically discussed that adolescents gain new experiences, receive new knowledge and develop thinking skills.*

Keywords*. Adolescence, cognitive processes, memory, socialization, communication, personal characteristics, individuality.*

Kirish. O‘spirinlik davri inson hayotidagi muhim va murakkab bir bosqichdir. Bu davrda kognitiv jarayonlar, ya’ni bilish, o‘rganish, fikrlash va xotira kabi funksiyalar jadal rivojlanadi. O‘spirinlarning kognitiv jarayonlari nafaqat akademik muvaffaqiyatga, balki shaxsiy va ijtimoiy hayotlariga ham ta’sir qiladi. Ushbu davrda o‘spirinlar yangi bilimlarni qabul qilishda, muammolarni hal etishda va ijtimoiy muloqotda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Kognitiv rivojlanish, asosan, genetik omillar, muhit, ta’lim va ijtimoiy tajribalar bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonlar o‘spirinlarning shaxsiy xususiyatlari va hissiy holatlari bilan birgalikda shakllanadi.

Bugungi kunda o‘spirinlarda kognitiv jarayonlarning psixologik rivojlanishi juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzu quyidagi sabablar bilan dolzarbligini oshirib bormoqda:

Zamonaviy ta’lim tizimi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga ko‘proq e'tibor qaratmoqda. Interaktiv o‘qitish, muammoli vazifalar va ijodiy loyihalar orqali o‘spirinlarning fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish maqsad qilinmoqda.

Raqamli asrda o‘spirinlar texnologiyalar va internet orqali axborotga kirish imkoniyatiga ega. Bu esa ularning kognitiv jarayonlarini o‘zgartirib, o‘z-o‘zini o‘rganish va fikr yuritish qobiliyatlarini yangi darajaga olib chiqmoqda.

O‘spirinlar o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlar va boshqa kommunikatsion vositalar yordamida o‘zaro muloqotlar ko‘paymoqda. Bu esa ularning fikrlash va qaror qabul qilish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Kognitiv jarayonlarning rivojlanishi o‘spirinlarning psixologik salomatligi bilan bevosita bog‘liq. O‘z-o‘zini anglash, stressni boshqarish va muammolarni hal etish qobiliyatlari ularning hissiy holatini yaxshilaydi.

O‘spirinlar o‘zlarining hissiyotlarini boshqarish va ijtimoiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli bo‘lishni o‘rganmoqdalar. Bu jarayonlar kognitiv rivojlanish bilan birga olib boriladi.

Zamonaviy o‘spirinlar global muammolar, masalan, iqlim o‘zgarishi, siyosiy beqarorlik va pandemiyalar kabi vaziyatlarga duch kelmoqda. Bu ularning kognitiv jarayonlarini rivojlantirishga, yangi yechimlar ishlab chiqishga va o‘zaro hamkorlik qilishga olib keladi.

O‘spirinlarda kognitiv jarayonlarning psixologik rivojlanishi bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Bu jarayonlar o‘spirinlarning shaxsiy, akademik va ijtimoiy hayotlarida muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim, texnologiya va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq ravishda, o‘spirinlarning kognitiv rivojlanishiga e'tibor berish va qo‘llab-quvvatlash zaruriyati oshmoqda.

Adabiyotlar tahlili. O‘spirinlarda kognitiv jarayonlarning psixologik rivojlanishi bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar olib borgan bir qancha taniqli olimlar mavjud. Ular o‘z tadqiqotlari orqali kognitiv rivojlanish nazariyalarini ishlab chiqdilar va bu sohadagi tushunchalarni kengaytirdilar. Quyida ba’zi muhim olimlar va ularning ishlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz:

Jan Piajet kognitiv rivojlanish nazariyasining asoschilaridan biridir. U o‘spirinlarni bilish jarayonlari, fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib bordi. Piajet, o‘spirinlik davrini "formal operatsiyalar" bosqichi deb atab, bu davrda individlarning abstrakt fikrlash qobiliyatlari rivojlanishini ta’kidlaydi.

Lev Viygotskiy, kognitiv rivojlanishning ijtimoiy kontekstda o‘rganilishi zarurligini ta’kidlaydi. U "yaqin rivojlanish zonasini" keltirib, o‘spirinlar o‘z imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishlari uchun ijtimoiy muloqot va ko‘maklashuv muhimligini aniqladi.

Hovard Gardner o‘zining "Ko‘p intellektlar" nazariyasi bilan tanilgan. U o‘spirinlarda turli xil kognitiv qobiliyatlar, masalan, mantiqiy, lingvistik, musiqiy va boshqalar mavjudligini ta’kidlaydi. Bu nazariya o‘spirinlarning o‘ziga xos kognitiv rivojlanishini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Devid Elkind, o‘spirinlik davrida shaxsiy va ijtimoiy psixologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq tadqiqotlar olib bordi. U "shaxsiy qiyinchilik" va "jo‘shqinlik" tushunchalarini o‘rganib, o‘spirinlarning kognitiv va emosional rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni aniqladi.

Ketrin MakNayt, o‘spirinlarning onlayn muhitda kognitiv rivojlanishiga oid tadqiqotlar olib boradi. U zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning o‘spirinlarning fikrlash jarayonlariga ta’siri haqida o‘z fikrlarini bildiradi.

O‘spirinlarda kognitiv jarayonlarning psixologik rivojlanishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan olimlar, bu sohada keng ko‘lamli nazariyalar va tushunchalarni ishlab chiqdilar. Ularning ishlariga asoslanib, o‘spirinlarning kognitiv rivojlanishi, ta’lim va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq jihatlarini yaxshiroq tushunishga erishish mumkin. Bu tadqiqotlar, o‘spirinlarning rivojlanishi va ta’lim jarayonlarida qo‘llaniladigan strategiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama. O‘spirinlik davri — inson hayotining muhim bir bosqichidir, bu davrda kognitiv jarayonlar (bilish, fikrlash, xotira, muammolarni hal qilish) jadal rivojlanadi. Ushbu jarayonlar psixologik rivojlanish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, quyidagi jihatlarni muhokama qilish zarur:

1. Abstrakt fikrlash

O‘spirinlar o‘z fikrlash qobiliyatlarini kengaytirib, abstrakt va nazariy tushunchalarni qabul qilishga qodir bo‘ladilar. Bu o‘zgarishlar, ularning muammolarni hal etish, qaror qabul

qilish va innovatsion fikrlash qobiliyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, bu davrda o‘spirinlar ba’zida idealizmga berilib, haqiqiylikni e'tibordan chetda qoldirishlari mumkin.

2. Kognitiv qobiliyatlar va ta’lim

O‘spirinlarning kognitiv jarayonlari ta’lim jarayonida juda muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim muhitida o‘z-o‘zini o‘rganish, fikrlash strategiyalarini qo‘llash va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor berilishi kerak. O‘qituvchilar o‘spirinlarga kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam berish orqali, ularning akademik muvaffaqiyatlarini oshirishlari mumkin.

3. Ijtimoiy muloqot va emotsional rivojlanish

Ijtimoiy munosabatlar o‘spirinlarning kognitiv rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. O‘spirinlar o‘zaro muloqotlar orqali fikrlarni baham ko‘rish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va hissiy tajribalarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Biroq, ijtimoiy bosim va stress kabi salbiy omillar, ularning emotsional holatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

4. Texnologiyaning roli

Zamonaviy texnologiyalar va internet, o‘spirinlarning kognitiv jarayonlariga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Onlayn resurslar orqali o‘qish va o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘paydi, ammo shu bilan birga, axborotning ortiqcha bo‘lishi va e'tiborni taqsimlash muammolari ham yuzaga keladi.

5. Emotsional va kognitiv muvozanat

O‘spirinlarning kognitiv rivojlanishi, shuningdek, ularning emosional rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. O‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish qobiliyatlari, ularning kognitiv jarayonlarini mustahkamlashga yordam beradi. Biroq, hissiy muammolar (masalan, depressiya yoki stress) kognitiv funksiyalarni buzishi mumkin.

O‘spirinlarda kognitiv jarayonlarning psixologik rivojlanishi ko‘p jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ta’lim, ijtimoiy muhit, texnologik rivojlanish va emosional holatlar o‘spirinlarning fikrlash va o‘rganish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi. O‘spirinlarning kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun o‘qituvchilar, ota-onalar va psixologlar birgalikda ishlashlari zarur. Bu jarayonlar o‘spirinlarning shaxsiy, akademik va ijtimoiy muvaffaqiyatlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

O‘spirinlik davri — inson hayotidagi muhim bosqich bo‘lib, bu davrda kognitiv jarayonlar (bilish, fikrlash, xotira va muammolarni hal qilish) jadal rivojlanadi. Ushbu jarayonlar o‘spirinlarning psixologik rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘spirinlar o‘zlarining fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirgan sari, ular abstrakt va analitik fikrlashni o‘zlashtirib, qaror qabul qilishda yanada mustaqil bo‘lishadi.

Ta’lim jarayoni, ijtimoiy muloqot va zamonaviy texnologiyalar kognitiv rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. O‘spirinlar o‘zaro muloqotlar orqali yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradilar, fikrlarini baham ko‘radilar va o‘z hissiyotlarini anglab, boshqarishni o‘rganadilar. Biroq, zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy bosimlar, ba’zan, diqqatni taqsimlash va hissiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘spirinlarda kognitiv jarayonlarning psixologik rivojlanishi murakkab va ko‘p jihatli jarayon bo‘lib, bu jarayonlarni muvaffaqiyatli qo‘llab-quvvatlash uchun ta’lim muhitini, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni va emotsional salomatlikni yaxshilash zarur. Ota-onalar, o‘qituvchilar va psixologlar o‘spirinlarning kognitiv rivojlanishiga yordam berish uchun birgalikda harakat qilishlari lozim. Bu, o‘spirinlarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari va shaxsiy hayotlarida ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘spirinlarda kognitiv jarayonlarning psixologik rivojlanishi murakkab hisoblanib, ta’lim, ijtimoiy muhit, texnologik rivojlanish va emotsional holatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘spirinlarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ularning shaxsiy, akademik va ijtimoiy muvaffaqiyatlarini oshirish uchun muhimdir. Jamiyatning har bir a’zosi - ota-ona, ustoz murabbiy, amaliyotchi psixologlarning birgalikda hamkorlikda faoliyat yuritishlari orqali bu jarayonlarni yanada samarali ravishda rivojlantirishlari mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Nazarov A.M. “Talabalar ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik barqarorligi” mavzusidagi Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi.- Toshkent., 2022.

2. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. - М.: Просвещение, 1991.

3. Jumayev N.Z. “O‘smirlarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiya ishi. - Buxoro., 2023.

4. Пиаже В.Ж. Логика и психология. // Избранные психологические труды. 1. М., 1997.

5. Rychlak J.F. The nature and challenge of teleological psychological theory // Annals of theoretical psychology / Eds. J.R.Royce, Mos. – N.Y.: Plenum Press, 2011. V. 2.

6. Гулевская А.Ф. Педагогические условия формирования социальной ответственности студентов экономических специальностей: монография / А.Ф.Гулевская, В.П.Максимов. – Южно-Сахалинск: изд-во СахГУ, 2012.

Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, sport kafedrasi v/b dotsenti

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH JARAYONIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING NAMOYON BO‘LISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida psixologik omillar namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari, ahamiyati va ularning ilmiy tahlili o‘z ifodasini topgan.*

Kalit so‘zlar: *bola, maktabga tayyorlash, Experimential learning, o‘qitish ta’limi, innovatsiya, komfort, o‘quv faoliyati, mexanizmlar, innovatsion tafakkur, integratsiya, hissiy-emotsional, hamkorlik, shaxslararo munosabat, maqsadli muloqot, ovoz toni, ko‘rsatkich, subordinatsiya, jamoa, perseptivlik, kognitivlik, adaptivlik, refleksivlik, moslik «ko‘zgusi», ekspert baholash.*

ПОЯВЛЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ К ШКОЛЕ

Аннотация. *В данной статье выражена особенности проявления психологических факторов в процессе подготовки детей к школе, их значение и научный анализ.*

Ключевые слова*: ребенок, подготовка к школе, экспериментальное обучение, педагогическое образование, инновации, комфорт, учебная деятельность, механизмы, инновационное мышление, интеграция, эмоционально-эмоциональное, сотрудничество, межличностное отношение, целенаправленное общение, голосовой тон, индикатор, подчинение, команда, перспектива, познавательность, адаптивность, рефлексивность, «зеркало» совместимости, эксперт оценка.*

APPEARANCE OF PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE PROCESS OF PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL

Annotation. *This article reflects the peculiarities, significance and scientific analysis of the manifestation of psychological factors in the process of preparing children for school.*

Key words: *child, preparation for school, experimental training, pedagogical education, innovation, comfort, educational activity, mechanisms, innovative thinking, integration, emotional-emotional, cooperation, interpersonal attitude, purposeful communication, voice tone, indicator, subordination, team, perspective, cognition, adaptability, reflexivity, "mirror" of compatibility, expert assessment.*

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bolalarni maktabga innovatsion tayyorlashga alohida e’tibor qaratilib, yangicha psixologik usul va texnologiyalar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada bolalarni maktabga tayyorlashda ularning emotsional holati, intellekti, uning sinf jamoasida o‘zini «komfort» – qulay his etishi, norasolik kompleksiga duch kelmasligi, guruhda psixologik izolyatsiyaga duch kelmasligi, maktabga tayyorlashni uzviyligini o‘rnatish jarayonida yangiliklarni izlab topishga o‘rgatish, ularni maktabga innovatsion faoliyatga psixologik yondashuvini shakllantirish yo‘nalishlarida keng ko‘lamli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruriyati kuzatilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bolalarni maktabga innovatsion tayyorlash asosida ularni psixologik tayyorgarlik chora-tadbirlarini takomillashtirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan etib belgilangan bo‘lib, zarur huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi: «Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish. «Bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan

tizimini joriy etish; maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish»[1] konseptual g'oya negizida amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosatida inson kapitalini rivojlantirish muhim vazifalar belgilanganligi, ularni amalga oshirishga yetarli asos bo'la oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari», «Ilk qadam» Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi hamda «Ilm yo'li» 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash variativ dasturi asosida nazorat qilinadi. Ayni paytda ushbu mezonlar bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar majmuasi hisoblanib, u davlat hujjati sifatida qabul qilingan. Shuningdek, bolalarni maktabga pedagogik-psixologik tayyorlash jarayoni «Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash» tayanch dasturi asosida amalga oshiriladi.

Yuqoridagi me'yoriy hujjatlar bolalarni maktabga psixologik tayyorlashga, maktabda beriladigan ta'limni mukammal o'zlashtirishga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun xizmat qiladigan barkamol inson bo'lib yetishishlariga zamin hozirlaydi.

Sh.T.Kubaeva o'z ilmiy tadqiqotlarida bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlashda innovatsion-psixologik mexanizmlarni tafakkurga asoslangan «innovatsion tafakkur» modelini ilgari suradi. Bizningcha ushbu muammoni ilmiy jihatdan tahlil qilishda bir tomonloma yondashish to'g'ri bo'lmagan bo'lar edi. Chunonchi, tafakkur sub'ektini yosh xususiyatlari va etnopsixologik xususiyatlarning o'rnini ham unutmaslik lozim, chunki innovatsion-psixologik mexanizmlar asosida obrazlar, ramzlar, xulosalar, hukmlarning ixtiyoriy assotsiatsiyasi, ularning o'zaro integratsiyasi mavjud bo'lib, yangi obraz va tasavvurlarning paydo bo'lishida ijtimoiy identifikatsiya asosiy rolni bajaradi. J.Bayerni tadqiqotlarida, bolalarni maktabga innovatsion-psixologik tayyorlash mexanizmni asosini kreativlik tashkil qilishi alohida ko'rsatib o'tiladi. Albatta innovatsion-psixologik mexanizmlarni joriy etishda bu psixologik xususiyatni e'tibordan qochirmaslik lozim bo'ladi. I.Abdullaeva va uning shogirdlari maktabga tayyorlashda innovatsion tafakkurning roli va ahamiyatini uijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rgangan. Uning fikricha, innovatsion-psixologik mexanizmlar albatta ijtimoiy normalar asosida boshqarilib turilishi lozim.

Bolani maktab ta'limiga tayyorlashni ekspert baholash so'rovnomasi

Yo'riqnoma: Hurmatli ota-ona (tarbiyachilar), sizga taqdim etilayotgan bandlar bo'yicha bolangizga (tarbiyalanuvchingizga) xos bo'lgan sifatlarning mosligini "5" balli shkala bo'yicha baholang. Sifatlarning juda mos kelmaganligini "1" ball va juda mos ekanligini "5" ballda ifodalang.

Juda to'g'ri – 5 ball
To'g'ri – 4 ball
Bilmayman – 3 ball
To'g'ri emas – 2 ball
Umuman to'g'ri emas – 1 ball

Tanlagan javob variantingizning so'rovnomaning javoblar varaqasida qayd eting. Javoblaringiz uchun sizga oldinda tashakkur bildiramiz!

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil 28yanvar

T/r	Savollar	1	2	3	4	5
1.	Atrofdagilarning hissiy-emotsional holatiga sezgir					
2.	Jamoa, guruh a'zolari bilan hamkorlik qila oladi					
3.	O'zaro foydali munosabatlar (hamkorlik) o'rnatishga qobiliyatli					
4.	O'z muloqotini aniq maqsadga yo'naltira oladi					
5.	Shaxslararo munosabatda o'z xatti-harakatlarini (gavda tuzilishi, qo'l-oyoq harakatlari, mimika) to'g'ri boshqara oladi					
6.	Suhnat jarayonida yaxshi tinglovchi					
7.	Atrofdagilar nazarida ishonchli					
8.	Notanish insonlar orasida o'zini tuta biladi					
9.	Maqsadli muloqotga intiladi					
10.	Shaxslararo munosabatda o'z nutqiga (ovoz toni, gapirish maromi) ega					
11.	Atrofdagi voqeylikni tez ilg'aydi					
12.	Atrofdagilarga munosabatini to'g'ri amalga oshiradi					
13.	Ijtimoiy munosabatlar o'rnatish malakasiga ega					
14.	Muloqotning o'zaro tushunish tamoyiliga amal qilish darajasi					
15.	Munosabatda qadriyatlarga rioya qilishi					
16.	Insonlarning harakati, ovoz toni, so'zi orqali emotsiyasini o'qiy oladi					
17.	Hamkorlik harakatlarini ongli amalga oshiradi					
18.	Muomala qoidalarini amalga oshirishga shayligi					
19.	Muloqotni hamsuhbat kimligiga ko'ra o'rnatadi					
20.	Munosabatga doimo tayyor					

Shkalalar tarkibi:

Bolani maktab ta'limiga tayyorlashni ekspert baholash shkalasi mezoni

Perseptivlik	Kognitivlik	Adaptivlik	Refleksivlik	Moslik «ko'zgusi»
1,6,11,16	2,7,12,17	3,8,13,18	4,9,14,19	5,10,15,20

Bolani maktab ta'limiga tayyorlashni ekspert baholash shkalasi

Perseptivlik	Bunday tipdagi bolalar boshqalarning hissiy-emotsional holatiga juda sezgir, yaxshi tinglovchi, insonlarning tuyg'ularini tez ilg'aydi va insonlarning harakati, ovoz toni, so'zi orqali emotsiyasini o'qiy oladigan bolalar hisoblanadi.
Kognitivlik	Bu tipdagi bolalar jamoa, guruh a'zolari bilan hamkorlik qila oladi, atrofdagilar nazarida ishonchli va mas'uliyatli, odamlarga munosabatini hamkorlik istagi orqali to'g'ri va ongli amalga oshiradi.
Adaptivlik	Bunday bolalar o'zaro foydali munosabatlar (hamkorlik) o'rnatishga qobiliyatli, ularda har xil bosqich insonlar orasida o'zini tuta bilish qobiliyati yuqori darajada bo'lganligi bois munosabatlarni o'rnata oladi.
Refleksivlik	Ushbu tipga mansub bolalar o'z muloqotini aniq maqsadga yo'naltira oladi, maqsadli muloqotga intiladi, muloqotning o'zaro tushunish tamoyiliga amal qiladi, hamda o'z muloqotini hamsuhbat kimligiga ko'ra o'rnatadi.
Moslik «ko'zgusi»	Bunday bolalar shaxslararo munosabatda o'z xatti-harakatlarini (gavda tuzilishi, qo'l-oyoq harakatlari, mimika) to'g'ri boshqara oladi, o'z nutqiga (ovoz toni, gapirish maromi) katta e'tibor qaratadi.

Tadqiqotimiz natijalarining emperik jihatdan tahlilini quyidagicha amalga oshiramiz. Ekspert baholash natijalari yuzasidan olingan natijalar quyidagi jadvalda aks etgan («1-jadvalga qarang»).

Bolani maktab ta'limiga tayyorgarligini baholash so'rovnomasi ota-onalar va MTT tarbiyachilarining baholash jarayonida o'ziga xos natijalar kuzatildi. Ushbu o'rinda aytib o'tish lozim bo'ladiki, olingan natijalarda o'rtachadan yuqori qiymatlar aks etgan bo'lsa-da, ularning qiymatlarida Styudent t-mezoniga ko'ra farqlar ishonchliligi kuzatildi. Ekspert baholashda «perseptivlik»ni baholash ota-onalarda 5,53ni tashkil qilgan bo'lsa, MTT tarbiyachilarida bu ko'rsatkich 6,1ni ko'rsatmoqda, farqlar ishonchliligi ($r=2,23$, $p\leq0,05$) qiymatni ko'rsatdi. Bundan ko'rinadiki, MTT tarbiyachilari bolaning ushbu qobiliyatini bevosita mashg'ulotlar jarayonini kuzatishlari natijasiga asoslanib baholaganlar, ota-onalari esa ular bilan bevosita uyda hamda kundalik turmush yumushlari bilan bog'liq munosabatlaridagi taassurotlari orqali baholaganlar. Bolalar ota-onalari bilan munosabatlarida hamma payt ham ochiq bo'lmasligi, subordinatsiya saqlashga harakat qilishi ularning mazkur shkala bo'yicha qiymatlari tarbiyachilarga qaraganda pastroq bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Ekspertlarning «refleksivlik» bo'yicha ko'rsatkichlarda ham MTT tarbiyachilarining bergan bahosi yuqoriroq ko'rinish olgan, ya'ni 5,72 bo'lsa, bu ko'rsatkich ota-onalarda 4,58 ekanligini ko'rishimiz mumkin va bu ($r-6,07$, $p\leq0,001$) o'zaro manfiy korrelyatsiyani bermoqda. Ushbu o'rinda bolalarning jamoa, guruh a'zolari bilan hamkorlik qila olishi, odamlarga munosabatini to'g'ri amalga oshira olishi, hamkorlikni ongli amalga oshirishi kabi psixologik sifatlarga mansub ekanliklarini ko'rsatmoqda. MTT tarbiyachilari bu orqali o'z tarbiyalanuvchilarida sotsial malakalari shakllanganligini e'tirof etsa-da, ularning keyingi hayotida bu psixologik xususiyatlar tafovutlanishi mumkinligini anglatadi.

Tarbiyachilarning «adaptivlik» shkalasi ko'rsatkichlari ham ota-onalar va MTT tarbiyachilari tomonidan boshqa shkalalarda kuzatilgan manzarani aks ettirmoqda ya'ni, ota-

onalarda 6,24 va MTT tarbiyachilarida 6,01 natijani ko‘rishimiz mumkin, bu yerda farqlarning ishonchliligi (r-7,66, p≤0,001) ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

1 –jadval.

Bolani maktab ta’limiga tayyorgarligini (MTT) ekspert baholash natijalari

	Shkalalar	Ota-onalar (n=68)		MTT tarbiyachilari (n=68)		T
		X	σ	X	σ	
1.	Perseptivlik	5,53	1,10	6,1	0,82	-2,23*
2.	Refleksivlik	4,58	1,56	5,72	1,06	-6,07***
3.	Adaptivlik	6,24	1,45	6,01	0,93	-7,66***
4.	Kognitivlik	7,23	1,26	6,62	0,95	-10,98***
5.	Moslik «ko‘zgusi»	5,45	1,40	5,46	0,91	-9,42***

*Izoh: *p<0.05; ***p<0.001*

Ekspertlarning «kognitivlik» omili bo‘yicha ota-onalarda 7,23 va MTT tarbiyachilarida esa 6,62 natijani ko‘rishimiz mumkin, ko‘rsatkichlar orasidagi farqlar ishonchliligi (r-10,98,p≤0,001). Bu qiymatlar bolalarni maktabga tayyorlashda ularni odamlar bilan muloqotni o‘rnata olishi, ularni psixologik tayyorgarligi o‘z yosh davrlari chegarasida muhim ekanligini ko‘rsatmoqda.

Metodikaning moslik «ko‘zgusi» bo‘yicha olingan natijalar ota-onalarda 5,45 ko‘rsatkichni bergan bo‘lsa, tarbiyachilarda ham bu ko‘rsatkich deyarli bir xil natijani, ya’ni 5,46ni ko‘rsatmoqda.

Yuqoridagilarga asoslanib, bayon etilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda bolalarni maktab ta’limiga tayyorgarligini (MTT) ekspert baholash natijalari bo‘yicha quyidagilar aniqlandi:

1. Bolalarning maktab ta’limiga tayyorgarligi aniq mezonli va tizimli, ilmiy asoslangan tadqiqot metodikasi asosida aniqlandi. Bu uning maktab ta’limi bilan mazmuniy bog‘liqligini tushuntirish imkonini berdi.

2. Bolalarning maktab ta’limiga tayyorgarligini perseptivlik, refleksivlik, ekspert baholash bilan o’zaro bog’liqlikda o’rganilganligi natijalari singari adaptivlik, kognitivlik ko’rsatkichlarida ham kuzatildi.

3. Bolalarni maktabga tayyorlashda ularning yangi muhitga va yangi jamoaga ko‘nikishlari oson bo‘lmaydi. Ularni o‘quv faoliyatiga tayyorlashda bu ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta’lim jarayonida va jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni ijobiy tarkib toptirishda muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil 28yanvar

2. Abdullaeva I.G‘. Milliy taraqqiyotning yangi bosqichida iqtisodiy va innovatsion tafakkur uyg‘unligi // Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2019. - 48 b.

3. Baer J. Domain specificity and the limits of creativity theory // Journal of Creative Behavior, 2012. – 46 (1). – pp. 16-29.

4. Герасимов Г.И., Илюхина Л.В. Инновации в образовании: сущность и социальные механизмы. – Ростов н/Д., 1999. - 136 с.

5. Kubayeva Sh.T. O‘yin va innovatsion tafakkur (ontologik va gnoseologik tahlil) // Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2019. - 49 b.

6. Xalbayeva G.A. Bolalarni maktabga tayyorlashning innovatsion-psixologik mexanizmlari // Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 55 b.

7. Xalbayeva G.A. Bolalarni maktabga psixologik tayyorlashning ilmiy-metodologik asoslari. // O‘zMU xabarlari. – Toshkent, 2023. №1/4 – B. 166-169.

Gadayeva Munira Muxamedovna
Senior teacher of The Bukhara reagonal skill center

ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF EGO IN "MODERN ADOLESCENCE" IN THE FAMILY

Annotation. *In this article, parents are given psychological recommendations to eliminate the problem of selfishness of adolescents in Uzbek families, on the topic of modern teenagers. In addition, scientific and theoretical data on the regulation of family and marriage relations are analyzed.*

Key words: *egoism, determinant, altruist, motives of behavior, differential, expressive and situational information, communicative characteristics, congruence and conformal attitudes.*

OILADAGI "ZAMONAVIY O'SGIRLIK"DAGI EGONING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annottasiya. *Ushbu maqola ota-onalar uchun o'smirlik davrida farzandlarning egosi va shaxsiyati shakllanishiga yondashish haqida tavsiyalarni o'z ichiga oladi. O'smirlik davri bolaning mustaqillik va o'zini anglash istagi kuchayadigan murakkab bosqichdir. Ushbu maqola ota-onalarga farzandlarining psixologik rivojlanishiga qanday qo'llab-quvvatlash mumkinligi, muloqotga ochiqlik, cheklovlar va rag'batlantirishning to'g'ri yondashuvi haqida maslahatlar beradi. Zamonaviy texnologiyalarning ta'siri va farzandlar bilan qanday ishlash kerakligi ham muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar*: egoism, xulq motivlari, differensial, ekspressiv va vaziyatli axborotlar, kommunikativ xususiyatlar, kongruentlik va konform ustanovkalar.*

ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЭГО «СОВРЕМЕННОЙ ПОДРОСТКОВОСТИ» В СЕМЬЕ

Аннотация. *Данная статья содержит рекомендации для родителей о том, как подойти к процессу формирования эго и личности подростка. Период подросткового возраста является сложным этапом, когда у ребенка усиливается стремление к независимости и самопознанию. Статья предлагает советы для родителей, как поддержать психологическое развитие своих детей, оставаясь открытыми для общения, правильно устанавливая границы и поощряя подростков. Также обсуждается влияние современных технологий и способы взаимодействия с подростками в этом контексте.*

Ключевые слова: *эгоизм, детерминант, альтруист, мотивы поведения, дифференциальная, экспрессивная и ситуативная информация, коммуникативные характеристики, конгруэнтность и конформные установки.*

Another state of autonomy observed in adolescents is spatial autonomy. According to this, teenagers want to stay alone in their room as much as possible, when they are doing something or when they are out somewhere, especially from their parent or tend to stay away from family members and spend time busy with their thoughts. Even if they talk, they mainly communicates only with their peers and close friends, trying to communicate with their parents as little as possible, and be busy with themselves. At the same time, some parents, who do not understand the real reason for these phenomena observed in teenagers, are worried about their situation and become more interested in them than before. In other words, parents "encroach" on their autonomy. Teenagers don't like that. Such situations can be the basis for disagreements and conflicts in the relationship between teenagers and their parents. Family problems acquire a special feature with their blind side, and their positive solution is of great importance in determining the development of society, in the process of bringing up a mentally mature, mental-

ly healthy generation. If the founders of each family solve their problems together, on the basis of mutual agreement, peace in the family will be guaranteed, and its moral foundations will be strong. That is why the family and its educational opportunities are highly valued in our country.

"Specific features of adolescence".

Adolescence is a complex and conflicting period. At the same time, it is also called the period of manifestation of the ego state.

A) The characteristic of adolescence is the desire for independence. This is reflected in their behavior and feelings. The peculiarity of this period is that teenagers cannot be called adults or children.

B) They behave rudely, unable to digest the demands and prohibitions of adults that limit their independence.

V) Another characteristic of adolescence is the variety of ways of expressing interests in the egoistic state. Proper education helps stabilize interests and raise them to the level of aptitude and ability. The knowledge of a teenager engaged in studying based on interests deepens, scientific discipline is formed, and his interest in a particular subject increases even more. Adolescence is the transition from childhood to adulthood. As the mental processes of a teenager change dramatically, there are also changes in mental activity. Therefore, there are definite changes in interpersonal relations between adults and teenagers. A polite, kind-hearted teenager suddenly becomes stubborn, undisciplined, rude and rude. A teenager who politely responds to the instructions and demands of adults became critical attitude towards them. In his opinion, the requirements and instructions of adults should be based on logically concise evidence and have sufficient objective and subjective factors. Due to the formation of a "personal point of view" in a teenager, he tries to express his opinion despite the worries and criticism of adults and teachers. He becomes reluctant to explain certain information. In the period of adolescent children do not wont to seem weak and they ashamed to ask some help from their parents. Unlike to children adolescents want to have self-education. They have mastered the ways of self-control and self-confidence for physical and volitional development. In this period, it is important to help them choose the right methods and tools of self-education, to help them understand the essence of their goals and to show them the ways to achieve them. One of the important features of self-awareness in adolescents is the contradiction between the need for self-knowledge and the inability to adequately analyze the needs.

Psychologist G. Kovolev-"In a teenager has 2 felling, that are opposite to each other, but both of them are negative at the same time, so that they do not create a feeling of superiority over others and inferiority over others, it is right for the personality of the teenager "It is very important to evaluate it," he says. As a result of self-awareness, a teenager gradually begins to evaluate his personality, compares his shortcomings, achievements, and also evaluates his personality qualities. It is known from the researches that the adolescent's ego makes a rather objective assessment of his personality. The main reason for this is that teenagers look at themselves with the evaluations given by others, parents, teachers and peers. Therefore, the pedagogues who have the main relationship with them and organize their educational activities should form their aspiration towards the goals by providing a sensitive and accurate assessment of the adolescent personality.

Adolescence is so full of complications and conflicts, that is, with egoistic thoughts, that some researchers consider it a "normal pathology."

Let's take a closer look at the features of the ego in teenagers. Adolescent inner ego is a hidden inner personality state. They are related to the adolescent's attitude and communication, incomplete understanding of various behavioral deviations, and dynamism. In our opinion, the main reason for the internal conflict to occur, pass, and worsen is the critical opinions and discrimination of adults about the adolescent's character traits. In such cases, the content of the conflict is, on the one hand, an internal evaluation of the teenager's own character and behav-

ior, and on the other hand, the contradiction of the external evaluation of his character and behavior by adults.

There are various types of group training to eliminate internal conflicts and behavioral deviations in adolescents, but conducting these trainings requires special training from psychologists.

In conclusion, it should be noted that adolescence is a period of transition from childhood to adulthood, and it is an intensive period of personal development.

The upbringing conditions and methods of upbringing given to the child from childhood should be based on a healthy psychological environment. Tyranny, violence, intimidation, material and spiritual deprivation against children strengthen feelings of low self-esteem and form attitudes of dissatisfaction. It can also lead to stubbornness, anger, aggressiveness, overindulgence in one's own emotions, and determination of characteristics. Conflicts between parents also cause psychological problems in teenagers. If parents see only weaknesses in their children and constantly emphasize them, these weaknesses can become stronger and become the leader of the personality. Disrespect and injustices on the part of teachers lead to low self-esteem and decrease trust in adults.

Adolescence is a period of high complexity and contradictions in the development of a person as a person, and it requires hard work and tireless work from parents, educators and pedagogues.

"Portrait of a modern teenager". The participants are divided into small groups of 3-4 people and consult the list on the card with characteristics typical of a modern teenager. After completing the work, each group presents the "Portrait" it has created.

Small lecture.

"Impact of parent-child relationship on adolescent personality development".

It is impossible to imagine family life without the process of dealing. Relationships such as husband and wife, mother and son, father and daughter, brothers and sisters are observed in family life. In the process of dealing in family life, family members begin to share information with each other and interact with each other. The spectrum of behavior in the family is very colorful. There will be a discussion and question-and-answer session about work, household chores, health, acquaintances, the life of friends, education, art, and politics.

Disagreement between husband and wife leads to serious consequences.

According to psychologists, there is a connection between quarrels between spouses and mental disorders.

Lack of mutual understanding in family relationships leads to a person's mental depression, frustration, deterioration of his physical and mental condition, and a significant decrease in his ability to work. In family life, along with adults, children also need full treatment. Treatment is the most important factor in the formation of a child's personality.Parents may make various mistakes in their activities, may be failure can later turn into a great success.

Family upbringing is such a life in which our behavior reflects the diversity, change and contrast of our feelings towards our children.

Parents play a very important role in the life of every child.

That is why when we have a difficult situation we ask a help from our parents.There is such a feeling that differs from other emotional relationships, and this is the relationship between children and parents. The relationship between parents and children has a very strong bond. No matter how complex a living organism is, it depends on its parents (especially mothers).

The relationship between parents and children is sometimes conflicted. Parents try to protect their children from various difficulties and shocks of life, while children grow up and try to distance themselves from them. They strive to gain life experience independently, even if they lose something. This internal conflict can cause many problems. During upbringing in the family, almost every day, every parent should slowly explain and think about what independence

is, its content, appearance, and limits. This question requires that the formation of the child's relationship to the environment, internal possibilities, abilities, skills, and qualifications be regulated in accordance with his age.For this, the primary task of parents is to be able to instill a sense of confidence that they love and care for the child. In this case, no matter how old the child is, there should be no doubt that he looks at him with the eyes of love. The main demand for raising children in the family is the demand for love. Show your love in such a way that your child does not become selfish, self-loving, or a man.The second requirement is to be in a deep permanent psychological relationship with the child. Constant psychological closeness is the child's joy, sympathy for his worries, companionship. Only then will the child understand your love and concern for him. Such closeness cannot be imagined without an educational dialogue. During the dialogue, it is necessary to clarify the common goal, consider the situation together, and develop appropriate joint actions in accordance with the goal. Let him understand for what purpose they control him during the conversation. It is the main feature of the dialogue to create the equality of the position of adults and children. In dialogic education, the position of equality can be achieved only when parents see the world and events through the eyes of the child. It is very difficult to achieve this in the course of daily dealings.Adults, being strong and having a lot of experience, try to make a weak, inexperienced child dependent on them. Parents must avoid this situation and turn the child into an active participant in the educational process. The third requirement, the rule, is "acceptance" of the child by the parents. At the heart of this rule, it is understood that the child's features and characteristics are unique, unlike his parents, brothers, and sisters. When communicating with a child, it is necessary to pay attention to every spoken word. It is necessary to avoid rude and malicious words. Often, when talking to a child, parents ask, "Why did I give birth to such a bad boy?" Idiot! How many times you need to explain! We witness the use of expressions such as "ignorant, naughty".The formula of true parental love is not in the words "I love you for being a good child", but in the words "I love you for who you are, whatever qualities and characteristics you have." "I love you the way you are," is a condition of the 3rd rule.It is important to evaluate the behavior and behavior of the child, not the person. The communication should be organized in such a way that the child himself comes to the conclusion that his actions are wrong and wrong. Acceptance of the child by the parents provides an opportunity to penetrate deeper into the child's inner world and heart. A negative assessment of a child's behavior and actions will arouse feelings of hatred and anger in him and block parental love. Some children even think, "It seems that I am a stepfather, they find fault in everything I do, they don't like my antics, why don't I be a stepfather?"

Often, parents misjudge their children's actions and behavior when they are tired, exhausted, dissatisfied with someone else, or upset. That's why my parents don't understand or love me; - they go to such fantasies.

EGO expression forms.

He sings his favorite song loudly. Throwing javelins at a target, jumping on a horse, using a glass for shouting.

Saying negative feelings and fighting with a sibling. Throwing toys in the swimming pool and bombarding them with a rubber ball. Blowing soap bubbles. Fighting with a punching bag. Watering flowers.

Chasing after the cat (dog). Go around the house (in the yard) several times. Changing the position of household appliances. Washing blankets and pillowcases.

Organizing a competition: who can shout the loudest? Who can jump higher? Who runs fast?

Crumple some paper and throw it away;

Making someone who offended you out of plasticine and breaking it.

Analysis of students' ego

The facilitator conducts a questionnaire with the teenagers and uses it at the parent-teacher conference.

Starter. During adolescence, many boys and girls feel the need for communication with adults based on personal trust. But not with all adults, but only with those who respect them. Communication on the basis of personal trust is not only for knowing some information, it is important for them to understand each other, to feel, to care together about intimate and important issues.

Teenagers love their parents no matter what.

Most teenagers gave a positive answer to the question "Would you like to be like your parents?" When asked, "Whose attention is important to you, regardless of whether they understand you or not?", many teenagers chose their father and mother in the first place.

Questionnaire for high school students.

First Name_____

Class _____

1. Do you feel the need to communicate with adults?_____

2. Have you ever felt relief and satisfaction when you discussed the solution of a question with your parents rather than with your comrades and friends?

3. Whose attitude and attention is important to you regardless of whether or not they understand you?_____

4. Who would you consult in very serious and difficult situations?

5. Do you want to be like your parents?

"I want to say"

Starter.

Every person's needs are expressed in his thoughts, feelings, and desires. They affect us in the way "I am thinking". (My food is coming, I want to do it,...) But we always struggle to express our thoughts and goals openly and boldly.

We are worried about being called selfish, someone who does not know the tone of communication.

That is why during conversation instead of “I am thinking” we use “you are thinking”. I feel that others wrong. With the help of “you are thinking “ we give responsibility to them.We can not to turn “You are thinking “ into “I am thinking”

Participants practice expressing their thoughts and feelings in the form of "I'm thinking".

“You are thinking	“I am thinking”
Why I have to do it all? (sadly) Did you do your homework? When will you stop coming home late? where were you Do you care what I think?	I need your help (without being upset) if you can look after me, I would be more grateful to you. Let's check the homework. I wonder who did it without mistakes. I'm sure you've already done your homework. If you've done your homework, we'll go for a walk. I was very worried about you.

"Vise-verse reaction or continue the sentence."

The presenter thanks the parents for their sincere participation, feedback and asks them to complete the sentences. Give each parent a card with an incomplete sentence written on it.

- Now I know-.....
- In dealing with my child, I... do.
- I remember him more than anyone.
- I found the answer to the question.

CONCLUSION

Basic rules that parents must follow when communicating with teenagers.

• Rules, restrictions, demands, prohibitions must be present in every teenager's life. This is very important for every parent who wants to go to a conflict with their child and make him less bored. As a result, he made his way towards his child. Rules, restrictions, requirements, prohibitions should be strict and not excessive. Avoid an authoritarian pressure style of dealing.

• Parental guidance should not clearly conflict with the child's important needs. In communication with • About punishment. No one is protected from misunderstandings.

• There will be times when you have to focus on the teen's obvious behavior, and by punishing the teen by taking away a hobby, you can prevent him from getting worse.

peers, one should not directly and openly oppose the adults and values they respect.

• Rules, restrictions, and requirements must be determined based on a single decision in consultation with other adults in the family. Otherwise, children will decide to disobey.

• The tone of the statement of the request and limitation should be friendly, understandable and firm. Avoid a commanding, condescending tone.

Literature.

1. D. Fontenel "Prolemy transition age". (per.sanel – M. ROSMEN, 1998 Podrostkovyy kolflin) S. Y. Kozharskaya. Minsk: Krasiko-Print, 2006.

2. Romanov A.A. Igroterapiya: kak predolet agressivnost u detey. Diagnostic and corrective methods. Posobie dlya detskikh psychologists, pedagogues, defectologists and parents. - M: Shkolnaya pressa, 2003

3. Lyutova Y.K "Monina G.B". Training effektivnogo vzaimna deystviya s detmi. – SPB: Rec. 2000

4. Elena Barkovskaya. U.O. Poloskaya. 2.00 sr. shk. No. 18. g. Polosk.

5. E. G. Goziev. Psychology teaching methodology, T. 2003, p. 116.

Ruziyev Nodirbek Ikromovich
Military Aviation Institute of the Republic
of Uzbekistan Head of the Psychological Service

COMMUNICATION CULTURE AND CATEGORIES OF ITS DEVELOPMENT

Annotation. *The article presents the role of communication in human life and development, ongoing research on their results, and mechanisms and methodological recommendations for the development of a culture of communication.*

Keywords: *Benjamin Franklin effect, paradox, paraphrasing, internal psychological mechanism, forms of communication.*

MULOQOT MADANIYATI VA UNING RIVOJLANISH KATEGORIYALARI

Annotatsiya. *Maqolada muloqotning inson hayoti va rivojlanishidagi o'rni, ularning natijalari bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar, muloqot madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari va uslubiy tavsiyalari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Benjamin Franklin effekti, paradoks, parafraz, ichki psixologik mexanizm, muloqot shakllari.*

КУЛЬТУРА ОБЩЕНИЯ И КАТЕГОРИИ ЕЕ РАЗВИТИЯ

Аннотация. *В статье представлена роль коммуникации в жизни и развитии человека, текущие исследования их результатов, а также механизмы и методические рекомендации по развитию культуры коммуникации.*

Ключевые слова: *эффект Бенджамина Франклина, парадокс, парафразирование, внутренний психологический механизм, формы коммуникации.*


Analysis in the literature. The communication process is complex in its own way and consists of three different stages. The initial stage is a person's communication with himself. T.Shibutani correctly wrote in the textbook ”social psychology“: ”If a person is at least a little self-aware, then he can give himself instructions."

Professor E.G.Reflecting on the genesis of communication in his textbook “social psychology", Gaziev gives the following example, recognizing the great importance of the role of communication in personal development: "In the manuscripts of Salimben of Parma, narratives about the Prussian Emperor Frederick II of the XIII century have been preserved. He was extremely interested in what the early language of mankind was, its meaning and essence. Frederick II believed that if children were not taught a new language (our speech), they would speak the oldest language of mankind. To test the confirmation of this hypothesis, the king placed all the babies born in the villages surrounding the palace in his buildings. These children had everything: nutritious milk and food, clothes, a heating system that was considered extremely rare for that time, and ideal living conditions. However, they lacked only one thing: communication. Servants were strictly forbidden to talk to children. So that the babies could not hear human voices, they were given a place in the quietest and most deserted wing of the palace. Thus, the children could not hear a word, or a human voice, or see affection. None of the children involved in the experiment lived more than 4 years, all of them died. But in fact, the children lacked only one thing-communication.”[1].

The full satisfaction of a person's need for communication also affects their performance. While the fact of having people, their presence, and the ability to talk to each other in this environment often also increases a person's ability to work, especially in what is done sitting, talking, and in operations performed side by side together, people find the strength and additional will to work more, faster, depending on the colleague they encounter.

Results. Thus, communication is an internal psychological mechanism of interaction between people in society. Moreover, considering that in the conditions of the current new democratic relations, there is a need not for individual, but for collective joint adoption of various production decisions, the culture of people's treatment and communication techniques are among the most important factors of productivity and labor efficiency.

In the process of communication, people, in addition to words, use various actions, deeds, situations, laughter, tone. Expressions of facial expressions, glances, stops, etc. The great Russian writer L.Tolstoy noticed that people have 97 different types of laughter, 85 different types of views. Andreeva writes that a person has about 2,000 expressions and looks. In the course of special studies, the role of eye collisions has been studied, especially at the first meeting, which strongly affects the fate of subsequent communication. All this helps people understand each other, making communication emotionally intense and meaningful.



Discussion. When forming a personality's communication, it is necessary to take into account her age, gender, profession, and worldview. For example, we don't use words that we apply to young children in relation to adults. Certain words are applied to people entering each age period. This takes into account the impact of the word. The use of communication methods is of great importance, depending on the characteristics of the personality's temperament. The role of communication in the formation of human skills, knowledge, and skills is invaluable. A simple skill (”sit up straight, wash your hands, come to the place, say hello") it is also learned through communication. An important place in the formation of personality communication is occupied by the level of her upbringing. For example, even if you use words that strongly influence a person, they may not accept or follow your instructions. Because he must master the culture of treatment from an early age. When forming a dialogue, the goal must be set correctly. Communication developments in the educational process, in various situations. For example, in the family, in the neighborhood, in a team, in a group. If adults in the family are rude to each other, the child may also enter into conflicts with others by imitating them.

Conclusion. Thus, the psychology of communication is a concept that includes the skills of comfortable and effective communication between people, in communities and interpersonal

relationships. Communication is an integral part of human life and society, which solves many problems and satisfies various human needs.

6 tricks for effective communication. As a result of long-term observations, psychologists have accumulated experience on how to make communication more effective. Here are a few ways:

The Benjamin Franklin's effect-the meaning of this paradox is that someone who once did something good for another will do it again more willingly than the next time he gets help himself. Thus, by politely asking and approving the compliment of the interlocutor, in the future you can again count on the favor of this person.

Ask for more-get less-you should always ask the other person for a greater advantage than you ask for to ensure that you get it according to your needs. At first, the interviewer will refuse your request, he will have a sense of duty, he will make concessions and agree to give you less than you asked for the first time.

The psychology of imitation-nonverbal communication claims that people adapt to each other and even repeat the same movements, intonations and facial expressions performed by the interlocutor. If you do this consciously, the other person will develop empathy for you, he will be more loyal to your requests and ideas.

Name-Dale Carnegie once remarked that the sound of his name is very pleasant for a person. By calling someone by name, you have every chance of getting their address.

Listening skills-if in a difficult conversation you constantly show the other person that he is wrong, argue with him and get into a confrontation, you will not be able to come to an agreement, you will not be able to encourage the other person to change. First, you need to find similarities in opinions, express them, confirm the vis-a-vis, and then you can proceed to discuss differences in a respectful tone.

Use paraphrasing-you can repeat the words of the interlocutor to maintain a friendly relationship or a friendly tone. You can also ask specific questions. It helps to better understand a person and use their statements to change their mind. A person's whole life is accompanied by communication with other people. Without this condition, he cannot develop properly and become a whole person. A special kind of psychology is engaged in the study of this sphere of human activity -the Psychology of communication. The ability to communicate and communicate effectively determines the state of many areas of each person's life: success, achievements, happiness, self-improvement, recognition and realization.

Literature.

1. Gaziev E.G. General psychology. Tashkent. 2002.1-book 2.
2. Gaziev E.G. Tashimov R. Psychology of management. T-2001.
3. Gaziev E.G. Psychology of conversion. T-2001. 165.
4. Nemov R.S. "Psychology". BOOK 1. - M., 2003.
5. "Psychology" Three. T-2. "Prospect". Moscow - 2004.
6. Vedenskaya L.V., Pavlova L.A. Business rhetoric: a textbook for universities.- M.:IKS "March", 2004-512 P.
7. Educate your leader as you can by developing and retaining talented leaders in the organization. \ Per. from English-M.: Publishing house "Williams", 2002. - 416 p
8. Lozhkin.G.V. Povyatel N.I. Practical psychology in Systemax "Human technique": Textbook.manual.- K.: MAUP, 2003-296 p. N.Ruziev" Mass phenomena and their types " Tashkent Vil. 2022.
9. Avezov O.R., Ruziev N.I "Fundamentals of military psychology and pedagogy perfection" Bukhara-2024.
10. N.Ruziev opposes "Stressful states and behavioral reactions of a person in an extreme situation." The year 2023.

Namozova Latofat Rustamovna
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali
Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim, sport kafedrasi o‘qituvchisi

YUQORI SINF O‘QITUVCHILARIDA SOTSIAL INTELLEKT OMILLARINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI VA UNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yuqori sinf o‘qituvchilari faoliyatini takkomillashtirish, komil shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan, pedagogik va psixologik ta’sir usullarini otimmallashtirishga karatilgan yangi konseptual yondashuvni yaratish borasidagi amaliy va nazariy ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy faoliyat, fenomenologik, genetik, sotsiomadaniy yondashuvlar, intellekt ko‘rsatkichlari, sotsial-psixologik mahsuldorlik.*

КОНЦЕПЦИЯ РАЗВИТИЯ ФАКТОРОВ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У ПЕДАГОГИ ВЫСШЕГО КЛАССА И ЕЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА

Аннотация. *В данной статье представлена практическая и теоретическая информация по совершенствованию деятельности учителей старших классов, созданию нового концептуального подхода, направленного на воспитание совершенной личности, оптимизацию методов педагогического и психологического воздействия.*

Ключевые слова: *профессиональная деятельность, феноменологические, генетические, социокультурные подходы, показатели интеллекта, социально-психологическая продуктивность.*

CONCEPT OF DEVELOPMENT OF SOCIAL INTELLIGENCE FACTORS IN HIGH CLASS TEACHERS AND ITS METHODOLOGICAL BASIS

Abstract. *This article provides information about modern conceptual approaches to personal education aimed at improving pedagogical and psychological methods of education.*

Keywords: *professional activity, phenomenological, genetic, socio-cultural attitudes, intelligence, socio-psychological psychology.*

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida umumta’lim maktabi o‘qituvchisi faoliyatiga qo‘yiladigan talablar uning ham kasbiy, ham shaxsiy faoliyati bilan bog‘liq masalalarni ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda yuqori sinf o‘qituvchilari faoliyatining individual va ijtimoiy-psixologik komponentlarini to‘g‘ri belgilay olish va bu jarayonda yuqori sinf o‘qituvchilari va uning kasbiy faoliyati samaradorligini ta’minlovchi psixologik omillarni o‘rganishga bo‘lgan ilmiy va ijtimoiy zarurat tobora ortib bormoqda.

Ijtimoiy psixologiya sohasida sotsial intellekt, yuqori sinf o‘qituvchilari kasbiy kompetentligi va uni takomillashtirishga oid ilmiy izlanishlar jahonning quyidagi yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari tomonidan olib borilmoqda. Jumladan, University of Social Psychology (Polsha), Belfield pedagogical university (Germaniya), National Advice on pedagogical technology (Angliya), Princeton university (AQSh), Moskva davlat pedagogika va psixologiya instituti (Rossiya), Yaroslavl davlat universiteti (Rossiya), Moskva elektronika va matematika instituti (Rossiya), Moskva gumanitar fanlar universiteti (Rossiya), Rossiya Fundamental tadqiqotlar Fondi (Rossiya, Moskva), kabilarni alohida ta’kidlash mumkin.

Binobarin, sotsial intellektga fenomenologik, genetik, sotsio-madaniy yondashuvlar University of Social Psychology (Polsha), o‘qituvchi kasbiy kompetentligi Belfield pedagogical university (Germaniya), sotsial intellekt omillari va uni kasbiy faoliyatga ta’siri masalalari National Advice on pedagogical technology (Angliya), o‘qituvchi sotsial intellekti

va emotsional intellektini Princeton university (AQSh) tadqiq etishning psixologik mexanizmlari ishlab chiqilib pedagogik amaliyotga joriy qilingan.

Yuqori sinf o‘qituvchilari sotsial intellektining pedagogik-psixologik asoslari Moskva davlat pedagogika instituti (Rossiya), o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari o‘rtasidagi o‘ziga xos ijtimoiy psixologik uyg‘unlikning ta’minlanishi Yaroslavl davlat universiteti (Rossiya), ta’lim muhitiga nisbatan kasbiy ma’suliyatni his etish bilan birga shaxslararo munosabat jarayoniga muayyan psixologik bilimlar asosida yondashish, Moskva gumanitar fanlar universitetida (Rossiya) yuqori sinf o‘qituvchilari sotsial intellektini rivojlantirishga oid texnologiyalarni joriy etish hamda sotsial intellekt muammosi haqida dunyodagi ilg‘or psixologiya vakillari tomonidan ishlab chiqilgan metodikalar amaliyotga tadbiq etilgan.

Metodologiya. Ijtimoiy psixologiya sohasida sotsial intellektini o‘rganish va takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar xorijlik olimlar: G. Ollport, L.L. Terstoun, G.Ayzenk, P. Selov va Dj.Meyer, V.Keller tomonidan olib borilgan.

Hamdo‘stlik davlatlari olimlaridan R.S. Nemov, B.G.Ananev, Ye.I. Stepanovalar ilmiy izlanishlarida intellektni inson faoliyatining asosiy shakli sifatida o‘rganib, uning psixologik xususiyatlarini ochib berganlar.

Sotsial intellekt muammosi va uning kasbiy faoliyatga aloqadorlik tomonlari respublikamiz psixolog olimlari tomonidan o‘rganilgan.

E.G‘.G‘oziev, M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, G‘.B.Shoumarov, A.M.Jabborovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida shaxsning muloqotmandlik, muomalaning o‘quv faoliyatini boshqarishdagi roli, o‘qituvchi o‘quvchi hamkorligining muhim psixologik omili mustaqil fikrlash, o‘quvchilar bilan muloqot o‘rnatishda hamkorlik va individual bilish faoliyatlarning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlashga yo‘naltirilgan sotsial intellekt omillari o‘rganilgan.

Demak, sotsial intellekt muammosi psixologiyada bir necha jabhalarda o‘rganilgan bo‘lib, ularda sotsial intellektning umumiy tabiati, atamaning fanda qo‘llanilishi va ayrim faoliyat yo‘nalishlari chegarasidagina tadqiq etilganligini ko‘rish mumkin. Shunday bo‘lsa-da, mazkur muammo bo‘yicha yetarli darajada ilmiy tadqiqotlar olib borilmaganligini e’tirof etish mumkin. Jumladan: sotsial intellekt – yuqori sinf o‘qituvchilari kasbiy kompetentligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy psixologik omil sifatida alohida o‘rganilmagan; yuqori sinf o‘qituvchilari faoliyatida yaqqol namoyon bo‘luvchi, ayni paytda shaxsiy va kasbiy kamolot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiluvchi sotsial intellekt omillari ko‘rsatkichlari va ular orasidagi korrelyatsion munosabatlar haligacha empirik jihatdan tahlil etilib, tegishli ilmiy xulosalar qilinmagan; yuqori sinf o‘qituvchilari kasbiy samaradorligini bevosita ta’minlovchi sotsial intellekt omillari va mazkur omillarni izohlovchi ko‘rsatkichlar ko‘lami o‘rtacha-umumiy va qiyosiy-tipik jihatdan o‘rganilib, rivojlanib borayotgan bugungi ta’lim taraqqiyoti talablariga mos ravishda yetarlicha tadqiq qilinmagan. Bularning barchasi esa bugungi kunda yuqori sinf o‘qituvchilari sotsial intellektini o‘rganish va tadkik kilish va shu asnosida ularni sotsial intellektini rivojlantirish dasturini ishlab chikish masalasi bugungi kunda nixoyatda dolzarb ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Zamonaviy psixologiya fani yuqori sinf o‘qituvchilari faoliyatini insonnparvarlashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan, madaniy va globallashuv sharoitiga qaratilgan yangi konseptual yondashuvni taqdim etish bugungi kunda tizimda yuqori sotsial kompetentlikka ega bo‘lgan yuqori sinf o‘qituvchilari faoliyatining asosini tashkil etadi.

Yuqori sinf o‘qituvchilari sotsial intellekti tuzilishida o‘zaro ta’sirlashuvning ham kasbiy, ham shaxsiy faoliyatida yaqqol namoyon etishi, vaziyatlarga ijtimoiy moslashuvchanligi, o‘zaro ta’sirlashuvning turli xil holatlariga ijtimoiy tayyorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi dasturga zarurat mavjud. Shuning uchun ham yuqori sinf o‘qituvchilari ning sotsial intellektini yuqori darajada bo‘lishi jamiyat hayotini barcha jabhalariga tayyorlashga xizmat qilishini inobatga olgan holda konsepsiya yaratishga e’tibor qaratildi. Biz tomonimizdan taqdim etilayotgan konsepsiya yuqori sinf o‘qituvchilari sotsial intellektini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Shu nuqtai nazardan yuqori sinf o‘qituvchilari sotsial intellekti imkoniyatlari haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘lish uchun ular bilan alohida tadqiqotlar olib borilib, empirik malumotlar yig‘ish va ularning natijalarini ijtimoiy psixologik talablar asosida tahlil qilish masalasi qo‘yilgan edi. Albatta, sotsial intellekt ko‘rsatkichlari ko‘lamini bitta tadqiqotning o‘zida to‘liq yoritish qiyin. Shunday bo‘lsada, biz tadqiqot maqsadidan kelib chiqib sotsial intellekt ko‘rsatkichlarini o‘rganishga, tahlil qilishga va tegishli xulosalar chiqarib amaliy tavsiyalar berishga harakat qildik. Har bir olingan natija maxsus tartibda qabul qilingan mezonlar va ballar tizimiga kiritilib kerakli malumotlarga ega bo‘lish imkonini berdi.

Biz tomondan yaratilgan yuqori sinf o‘qituvchilari sotsial intellektini optimallashtirishga mo‘ljallangan “Sotsial intellektni rivojlantirish” psixotrening dasturini shakllantirish uchun bir qator amaliyotda qo‘llanilgan, sinalgan dasturlarga tayanildi (Terstoun L.L. M.Lukyanova, V.Bolshakov, N.Klyueva, L.Marder, Ye.Sovetova)[3].

Yuqorida tahlil etilgan va tanishib chiqilgan trening dasturlari, mashqlari va tavsiyalarda ko‘proq shaxslarning ishbilarmonlik va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bois, biz tomondan tavsiya kilingan dasturda yuqori sinf o‘qituvchilari sotsial intellektini rivojlantirishga mo‘ljallangan psixotrening mashg‘ulotlarini takomillashtirishga e’tibor qaratildi. Biz tadqiqotimiz ob’ekti, maqsad va vazifalariga muvofiq trening dasturini shakllantirishga erishdik. Sotsial intellektni rivojlantirish dasturi oqibatida yuqori sinf o‘qituvchilari o‘zlarining faoliyat jarayonidagi shaxsiy va kasbiy o‘sishidagi nuqsonlarni tuzatishga erishdilar deyish mumkin. Buni psixotrening dasturini qo‘llashdan keyingi bosqichda olingan natijalar ham tasdiqladi (**1-jadval**)

1-jadval.

Yuqori sinf o‘qituvchilari sotsial intellekti natijalarining qiyosiy ko‘rinishi (Gilford metodikasi ma’lumotlari asosida) (N=1000)

№	Mezonlar	Psixotrening dasturini tatbiq ətishga qadar		Psixotrening dasturini tatbiq ətgandan so‘ngra		t
		χ	σ	χ	σ	
1.	Muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish	3,25	0,86	4,24	0,61	-11,28***
2.	Noverbal muloqot harakatlarini tushunish	3,16	1,10	4,30	0,55	-10,13***
3.	Verbal muloqot harakatlarini tushunish	2,94	0,95	4,24	0,61	-13,31***
4.	Shaxslararo harakat maqsadini tushunish	3,11	1,17	3,35	0,60	-1,66

***p<0,00

Izoh….x-urtacha arifmetik kiymat. – σ standart ogish. t standart mezon

Yuqori sinf o‘qituvchilari sotsial intellektini o‘rganish testini takroriy natijalarida muloqot ishtirokchisining hissiёti, fikri va niyatlarini tushunish (3,25 va 4,24, t = -11,28; p<0,001); noverbal muloqot harakatlarini tushunish (3,16 va 4,30, t = -10,13; p<0,001); verbal muloqot harakatlarini tushunish (2,94 va 4,24, t = -13,31; p<0,001) qobiliyatlarni o‘stirishga ərishganligi aniqlandi. Bundan ko‘rinadiki, sotsial intellektni o‘stirish uchun har bir shaxs, xususan, yuqori sinf o‘qituvchilari o‘z ustlarida ishlashlari va sotsial tajribalarini izchil oshirib borishlari lozim əkan.

Xulosa. Umuman, olib borilgan tadqiqotimiz natijalari ijtimoiy psixologiyaning nazariy va əmpirik yo‘nalishlari uchun muhim bo‘lgan quyidagi yakuniy ilmiy xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Ijtimoiy psixologiyadagi ilmiy-nazariy va metodologik adabiyotlar tahlili yuqori sinf o‘qituvchilari kasbiy faoliyati kompetentligiga xizmat qiluvchi sotsial intellekt mezonlarini

tadqiq qilishga oid mukammal tadqiqotlarning bugungi kunda etarli эmasligini ko‘rsatdi. Holbuki, sotsial intellektning dastlabki vazifasi har bir shaxsni, uning kasbiy taraqqiëtiga salbiy ta’sir эtishi mumkin bo‘lgan turli xil holatlardan asrashga, avaylashga va to‘g‘ri yo‘naltirishga xizmat qilishdan iboratdir.

2. Yuqori sinf o‘qituvchilarining sotsial intellekti va shaxslilik xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikning rivojlani-shida muloqotga moyillik, hissiy barqarorlik, ijtimoiy dadillik, ijtimoiy etuklik, o‘ziga ishonish, o‘zini nazorat qilish xususiyatlari etakchi omil sifatida namoën эtilishi mumkin эkanligi o‘z tasdig‘ini topdi.

3. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan va ma’lum ilmiy-amaliy aniqliklar kiritilgan sotsial intelekt va kasbiy faoliyat uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiluvchi sotsial intelekt mezonlari va shu mezonlar asosida yuqori sinf o‘qituvchilari sotsial intelektni o‘rganish orqali aniqlangan va tahlil qilingan bugungi barcha «ko‘rsatkichlar ko‘lami» diapazoni, yuqori sinf o‘qituvchilari sotsial intelektiga bo‘lgan ijtimoiy zaruratni yanada ravshanroq tasavvur etishga imkon berish bilan birga, ular kasbiy faoliyatini ijtimoiy-psixologik samaradorligini va istiqbollarini belgilash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ананьев Б. Г. Интеллектуальная деятельность и терморегуляция // Возрастная психология взрослых: Материалы конф. Вып. №3. Ленинград, 1991. С. 75—84.

2. Айзенк Г.Ю. Интеллект: новый взгляд // Вопросы психологии. 1995. М.:С. 111–131.

3. Mayer J.D., Salovey P., Caruso D.R. Mayer–Salovey–Caruso Emotional Intelligence Test (MSCEIT) user's manual. Toronto, Canada: MHS Publishers, 2002.

4.Немов Р.С., Алтунина И.Р. Социальная психология / Учебное пособие.- СПб.: Питер,2010.-432с.

5. Олпорт Г. Становление личности. Избранные труды. – М: Смысл, 2002 – 329 с.;

6. Собирова Д.А. Социал интеллект: назария ва амалиёт. - Тошкент.: “Фан”, 2013. – 160 б.

7. Терстоун Л.Л. Характер интеллекта.- М.:Педагогика, 1924.- 230 с.

Olimov Laziz Yarashovich
Buxoro davlat universiteti professori,
Psixologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)

SUD VA TERGOV FAOLIYATIDA PSIXOLOG KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sud psixolog eksperti faoliyatida kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash, sud psixolog ekspertidagi kommunikativ, emotsional va shaxslilik komponentlarining namoyon bo'lishi va rivojlanishini tadqiq qilish; sud psixolog ekspertlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda ularning sud-huquq tizimi bilan bog'liqligi ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *sud psixolog eksperti, ijtimoiy-psixologik kompetentligi, sud psixologik ekspertizasi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, emotsional intellekt, kasbiy faoliyat.*

МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПСИХОЛОГА В СУДЕБНОЙ И СЛЕДСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов компетентности в деятельности судебного психолога и совершенствование ее конкретных социально-психологических факторов, выявление компонентов, исследование проявления и развития коммуникативных, эмоциональных и личностных компоненты судебного психолога; в развитии социально-психологической компетентности судебных психологов раскрывается их связь с правовой системой.*

Ключевые слова: *судебный психолог-эксперт, социально-психологическая компетентность, судебно-психологическая экспертиза, профессиональная компетентность, компетентность, личность эксперта, эмоциональный интеллект, профессиональная деятельность.*

MECHANISMS FOR IMPROVING PSYCHOLOGIST COMPETENCY IN COURT AND INVESTIGATION ACTIVITY

Abstract. *This article discusses the study of the manifestation and development of factors of competence in the activities of a forensic psychologist and the improvement of its specific socio-psychological factors, the identification of components, the study of the manifestation and development of communicative, emotional and personal components of a forensic psychologist; in the development of socio-psychological competence of forensic psychologists, their connection with the legal system is revealed.*

Key words: *forensic psychologist-expert, socio-psychological competence, forensic psychological examination, professional competence, competence, personality of an expert, emotional intelligence, professional activity.*

Kirish. O'zbekistonda sud ekspertlarining dunyoqarashi va tafakkuridagi o'zgarishlarga, ya'ni ularning kasbiy kompetentligiga bevosita bog'liqligidan kelib chiqib, qator qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilinmoqda.

Kompetensiya – uning nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakasi, dunyoqarashi, e'tiqodi va barcha shaxsiy individual ijtimoiy-psixologik sifatlarining namoyon bo'lishidir. Faoliyat sifat va samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri, bu – uning o'z sohasi

bo‘yicha kompetensiyaga ega bo‘lishidir. U faoliyat moslashuv tizimi asosida namoyon bo‘ladi. Bular:

– ilmiy bilish;

– gnoseologik bilish;

– kasbiy faoliyatni epchillik, omilkorlik, mohirlik bilan bajara olish;

– har qanday muammoli vaziyatlarning samarali yechimini topishga ijodiy kreativ yondashish;

– faoliyat jarayonida yuksak ijtimoiy psixologik xususiyatlarni namoyon etish;

– o‘zining intellektual, kognitiv, emotiv, axloqiy salohiyatini o‘rganish va ichki psixologik zahirasidan samarali foydalanish orqali o‘zini muttasil rivojlantirish.

– jamiyat va insonlarga, tabiatga, borliqqa ijobiy emotsional munosabatda bo‘lish ijobiy pozitiv fikrlashga o‘tish tajribasidan iborat.

Sud psixolog ekspertlarini quyidagi kompetensiyalarni faoliyat jarayonida shakllantirilishi lozim bo‘lgan asosiy tayanch kompetensiyalar sifatida baholashimiz mumkin:

- Kommunikativ;
- Shaxs sifatida o‘zini-o‘zi rivojlantirish;
- Ijtimoiy faol fuqarolik;
- Umummadaniy;
- O‘z sohasi yangiliklaridan xabardor bo‘lish;
- Psixodignostikani amaliyotda qo‘llay olish;
- Huquqiy va psixologik bilimdonlikka ega bo‘lish.

Sud psixolog ekspertlarida quyidagi tayanch kompetensiyalar takomillashtirilishi lozim:

1. Kommunikativ kompetensiya:

– sud psixologik ekspertizasi jarayonida ekspert o‘z munosabatini vakolati doirasida huquqiy asoslardan kelib chiqib, og‘zaki va yozma tarzda qisqa, lo‘nda, tushunarli hamda ta’sirchan vositalarardan unumli foydalangan holda bayon qilish, so‘zlarni talaffuz qilishda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish, adabiy til me’yorlariga amal qilish, o‘z fikrini imlo va husnixat qoidalaridan kelib chiqib xatolarsiz bayon qilish;

– vaziyat taqozosiga ko‘ra hamkorlikda ishlash jarayonida jamoa va guruh a’zolari fikrini tinglay bilish, hurmat qilish, e’tirozli fikrlarga to‘g‘ri munosabat bildirish, ular fikrini shakllantirishda o‘z ulushini qo‘shish.

2. Shaxs sifatida o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

– shaxs sifatida doimiy ravishda o‘zini-o‘zi rivojlantirish, ma’naviy, psixologik va intellektual kamolotga intilishni doimiy hayotiy-ma’naviy ehtiyojiga aylantirish;

– milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash va ularga amal qilish;

– hayoti davomida turli yo‘nalishdagi (badiiy, publisistik, ilmiy, ilmiy-ommabop, fan va texnika, san’at va boshqalarga doir) kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish, xulosa chiqarish, ibrat olish, tegishli holatlarda ulardan o‘z fikrining isboti va dalili sifatida amliyotda foydalana olish;

– o‘z hatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o‘zini nazorat qila bilish, og‘zaki va yozma matnlar mazmuniga to‘g‘ri baho bera bilish.

Kompetensiya bilim, ko‘nikma, malaka va hayotiy tajribalarning amaliyotdagi tadbiqi sifatida sud psixolog eksperti hayotida, uning ekspert sifatidagi kamolotida katta rol o‘ynaydi, shu nuqtai nazardan avvalo sud psixolog ekspertlari ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini shakllantirish va rivojlantirish barobarida ularda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga erishish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Hozirgi kunda kompetentlik asosan, inson qobiliyati sifatida qaralsa, u holda insonning turli xil qobiliyati va iste’dodi haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi. Bunda “qobiliyat” tushunchasi talqiniga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko‘ramiz.

Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o‘rganish jarayonida bir nechta yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ko‘pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo‘lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo‘naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko‘nikma), kognitiv va operatsional.

Funksional-genetik yondashuvda qobiliyatni u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiruvchi funksional tizimlarning samaradorlik tavsifi sifatida talqin etiladi. Bu holatda shaxs tuzilmasidagi motivatsion, xulq-atvor va kognitiv komponentlarning birlashuvini aks ettiruvchi “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari qobiliyatlar sifatida qaralishi mumkin.

A.I.Subetto kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining sifat, xususiyat, mahorat toifalari doirasida o‘rganadi. Uning ta’kidlashicha, kompetentlik va kompetensiya tushunchalari murakkab strukturali va dinamik ta’lim jarayonidir, ammo sifat va xususiyat toifalariga nisbatan ikkinchi darajali hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida quyidagi umumiy tamoyillarga bo‘ysunadi:

– yaxlitlik va tizimlilik tamoyili, bunda sifatning ichki tuzilmasi asos qilinadi;

– ob’ektning sifatini yuqori sifat darajasida, sifatning tashqi tuzilmasi esa, ob’ekt yoki jarayonning tashqi muhit bilan o‘zaro ta’siri sifatini real sifat darajasida aniqlaydi;

– sifatning vujudga kelishi va rivojlanishida potensial va dolzarb tashqi va ichki ziddiyatlar tizimining mavjudlik tamoyili;

– turli jarayonlar sifatini natijalarda aks ettirish tamoyili.

Kompetentlik muammosining umumiy jihatlari G.M.Andreyeva, Ye.A.Abulxanova-Slavskaya, N.S.Aulova, V.P.Bederxanova, O.A.Bulavenko, A.A.Dunyushin, O.A.Konopkin, M.Kyarest, V.A.Labunskaya, M.D.Lapteva, A.N.Leontev, A.K.Markova, D.Mayers, Ye.S.Mixaylova, A.V.Petrovskiy, Dj.Raven, A.V.Raysev, G.M.Romansev, S.L.Rubinshteyn, L.G.Semushina, A.V.Xutorskiy, E.F.Zeer, A.J.Yujaninova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan[4,6,8].

O.A.Bulavenkoning ta’kidlashicha, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o‘ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg‘un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo‘luvchi holati sifatida qarash kerakligini taklif etadi[7].

Fikrimizcha, kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi, faoliyatda qanaqadir stabillik bo‘lishi uning muvaffaqiyatga erishishida to‘siq bo‘lishi mumkin.

Pedagog A.A.Dunyushin shaxsning ijtimoiy-psixologik kompetentligi kasbiy faoliyatda insonlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llay olish qobiliyati ekanligini ta’kidlaydi.

Ko‘rinib turibdiki, fikr muallifi quyidagi bir necha mulohazalar orqali aniqlashtirilgan:

a) kompetentlik aniq bir faoliyat sub’ekti tavsifi sifatida baholanishi mumkin;

b) kompetentlikning mazmuni kasbiy faoliyat maqsadi, tuzilishi va maxsus talablariga bog‘liq;

c) kompetentlik hissiy-irodaviy sifatlar, shaxsning muloqotmandligi, intellektual salohiyati, shaxsning yo‘naltirilganligi kompetentlikka asos bo‘lib xizmat qiladi[9].

Demak, yuqoridagi tahlillarga tayangan holda, sud va tergov jarayonida sud psixolog eksperti va psixolog-mutaxassislarining kasbiy kompetentligiga aloqador bo‘lgan jihatlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi ular kasbiy faoliyatining turli tomonlarini tadqiq etishni hozirgi zamon talabi sifatida baholash lozimligini ko‘rishmiz mumkin.

Ma’lumki, har qanday jinoiy ishlari bo‘yicha, xususan psixologiyaga oid maxsus bilim va tajribalarni (kompetensiyalarni) talab qiluvchi ekspertizani tayinlash uchun huquqiy asoslar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi (JPK)ning 172-moddasida keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 173-moddasining (Ekspertiza tayinlash va o‘tkazishning shartligi) 5-bandida belgilanganidek, ekspertizani «jabrlanuvchining, guvohning ruhiy va jismoniy holatini hamda ular ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlarni idrok qilish, esda saqlash va so‘roq qilganda ifodalab berish layoqatiga ega ekanliklarini, shuningdek javbrlanuvchining jinoyat protsessi chog‘ida o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish layoqatini» aniqlash zarur bo‘lganda tayinlash va o‘tkazish shart. Tabiiyki, psixologiyaning tadqiqot predmeti bo‘lgan psixik hodisalarni baholash zaruratini belgilab beradi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud jarayonlarida sud-psixologik ekspertizalar o‘tkazish uchun huquqiy asos fuqarolik ishlari bo‘yicha sudi sudyasi tomonidan chiqarilgan ajrim hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi FPKning 84-moddasida belgilanganidek, ekspertiza maxsus, xususan psixologiya bo‘yicha bilimlardan foydalangan holda, aniq tadqiqotni o‘tkazish zarurati tug‘ilganda tayinlanadi. Bu ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonunining “Asosiy tushunchalar”deb nomlangan 3-moddasi ko‘ra, sud eksperti tomonidan fan, texnika, san’at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o‘tkazish va xulosa berish nazarda tutilgan.

Jinoyat ishlari doir jarayonlarda SPE tayinlash uchun belgilangan me’yorlarga asosan, og‘ir jinoyat sodir etgan sub’ektning individual-psixologik o‘ziga xos xususiyatlarini, uning turg‘un motivasion-ma’noviy sabablarini o‘rganishda, shuningdek shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat sabablarini baholashda qiyinchiliklar yoki murakkabliklar paydo bo‘lganda, sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik uchun tegishli tartibda qonuniy chorasini aniqlash imkoni yo‘qligi sababli amalga oshiriladi.

SPEning ahamiyati fuqarolik-huquqiy nizolarni hal qilish jarayonida ham qo‘llanilishi mumkin. Bu holatda ekspertizani tayinlash uchun u yoki bu tomonlardan birining psixologik jihatlariga tegishli bo‘lgan har qanday aniq ma’lumotlar, masalan, bitim tuzilayotgan vaqtda adashish, aldash yoki zo‘ravonlik, ruhiy tazyiq ta’sirida bo‘lgan sub’ektning intellektual, bilish qobiliyatining pastligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar sabab bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, ham jinoiy, ham fuqarolik ishlari jarayonlarida SPEni tayinlash uchun sud kompetensiyasiga kiradigan munozarali masalalarning u yoki bu yechimiga tegishli psixologik tushunchalarni, jinoiy ishlar bo‘yicha o‘tuvchi yoki fuqarolik sud jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar psixikasining turli namoyon bo‘lish mexanizmlarini psixologik tomondan baholash zarur deb topilgan har qanday aniq ma’lumotlar sabab bo‘lishi mumkinligini qayd etish lozim.

Huquqshunoslik amaliyotida “inson omili” tushunchasi yetakchi o‘rinni egallar ekan, sohaga tegishli psixologik nazariya va amaliyot (tajriba)lardan foydalanish odilona qaror qabul qilish va hukm yoki ajrim chiqarish bugungi kunning o‘ta muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Afsuski, bugungi kunda sud-psixologik ekspertizalarni tashkil qilish va uni o‘tkazish bo‘yicha maxsus muassasa yoki markaz tashkil qilinmaganligi boisdan bu ish bilan hududlardagi oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar amalga oshirmoqda. Qolaversa, sud-psixologi-ekspertlarning malakasini oshirish tizimi yo‘lga qo‘yilmaganligi turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotganligini qayd qilish mumkin[10].

“Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa korxona, muassasa, tashkilot tomonidan sud ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Namunaviy Nizom”ning 29-bandiga ko‘ra, «Ekspert xulosasi uch qismdan: kirish, tekshirish va xulosalardan (yakunlovchi) iborat bo‘ladi».

Sud-psixologik ekspertizasi komissiyasi xulosasi rasmiy yozma hujjat bo‘lib, unda, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual va Fuqarolik protsessual kodekslariga muvofiq, sud-psixologik ekspertizasini o‘tkazishning qonuniy asoslari va shartlari, ekspert yoki ekspertlar oldida qo‘yiladigan masalalar, ular o‘tkazgan ekspertlar, shuningdek ekspertiza komissiyasi xulosalari aks ettiriladi. Sud-psixologik ekspertizasining xulosasi jinoyat yoki fuqarolik ishi bo‘yicha tegishli tartibda isbot (dalil) hisoblanadi.

Sud-psixologik ekspertizasi komissiyasining xulosasi ekspertizani o‘tkazgan barcha ekspertlar tomonidan imzolagan bosma ko‘rinishda tuziladi va u mazkur sud-psixologik ekspertizasi o‘tkazilgan muassasaning muhri bilan muhrlanadi. Xulosani tuzishning umumiy muddati – ekspert tekshirish yakunlangan va ekspert xulosalar chiqarilgandan (shu jumladan ekspertlar o‘rtasidagi kelishmovchilik tufayli ular tomonidan bittadan ko‘p xulosa tuzilgan hollarda ham), ta’riflangandan so‘ng 15 kundan kechiktirilmasligi lozim. Ekspertiza komissiya tomonidan amalga oshirilganda ekspertiza xulosasi loyihasini tayyorlash, uning matni bo‘yicha ekspert komissiyasining boshqa a’zolari bilan kelishish, shuningdek xulosani tuzish majburiyati ekspert komissiyasi a’zolarining biri (kotiblik qilgan) tomonidan tayyorlanadi.

Sud-psixologik ekspertizasi xulosasi quyidagi tartibda rasmiylashtiriladi:

1. Umumiy qism

1.1. Xulosaning kirish qismi.

1.2. Xulosaning kirish qismi quyidagilarni aks ettiradi:

• sud-psixologik ekspertizani o‘tkazish sanasi va joyi;

• sud-psixologik ekspertizani o‘tkazishning huquqiy asosi;

• sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) to‘g‘risida ma’lumotlar;

• sud-psixologik ekspertizasi komissiyasi (familiyasi, ismi, sharifi, ma’lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, egallagan lavozimi) va tashkilot to‘g‘risida tegishli bo‘lgan ma’lumotlar;

• O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238, 240-moddalarida ko‘rsatil;ganidek, sud eksperti yolg‘on guvohlik berish, surishtiruv yoki dastlabki tergov ma’lumotlarini surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning ruxsatisiz oshkor qilish, shuningdek ekspertning xulosa berishni rad etishi yoki bu ishdan bo‘yin tovlashi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida ogohlantirish;

• ekspert yoki ekspert komissiyasi aniqlashi lozim bo‘lgan savollar. Ular aniq, sud ajrimida yoki tergov organlarining ekspertiza tayinlash haqidagi qarorida qanday bo‘lsa shunday ifodalangan bo‘lishi kerak.

Agar savollar noto‘g‘ri (aniq, qabul qilingan atamalarga muvofiq bo‘magan holda va h.k.) ifodalangan bo‘lsa, lekin ularning ma’nosi ekspertga tushunarli bo‘lsa, ekspert savollarni o‘zining maxsus bilimlariga tegishli holda ifodalashi mumkin. Bir necha savol qo‘yilgan holda, ekspert ularni qayta turkumlashi, tekshirish maqsadiga muvofiq tartibini ta’minlovchi ketma-ketlikda bayon qilishga haqli.

• Ekspertga sud-psixologik ekspertizani o‘tkazish uchun taqdim etilgan ish materiallari va tibbiy hujjatlar;

• Sud-psixologik ekspertizani o‘tkazishda ishtirok etgan respondentlar haqidagi rasmiy ma’lumotlar.

1.3. Agar sud-psixologik ekspertizasi qo‘shimcha yoki takroriy ravishda o‘tkazilayotgan bo‘lsa, xulosaning kirish qismida qayd etilishi lozim. Mazkur hollarda oldingi ekpertiza (ekspertizalar) to‘g‘risida qisqacha ma’lumot – qachon, qaerda va kim tomonidan o‘tkazilgani, qanday xulosa (xulosalar) berilganligi, mazkur ekspertizani tayinlash asoslari keltiriladi.

1.4. Agar sud-psixologik ekspertizasini o‘tkazish davomida ekspert (ekspertlar) tomonidan tekshirish uchun qo‘shimcha materiallar berilishi to‘g‘risida rasmiy iltimosnoma berilgan bo‘lsa, xulosaning kirish qismida mazkur hol va iltimosnomani (iltimosnomalarni) ko‘rib chiqish natijalari aks ettirilishi kerak.

2. Diagnostik chora-tadbirlar (tadqiqot) qismi

2.1. Dastlabki boosqichda respondentning tarjimai holini aniqlahsga doir usuldan foydalaniladi.

Bu jarayonda respondentning tug‘ilganidan to ayni paytgacha bo‘lgan davrda u bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalarni aniqlashda xronologik ketma-ketlikka rioya qilish, shuningdek ta’lim jarayonida, oilada, mehnat qilishda, nikohda, ijtimoiy (shu jumladan kriminal) turmush tarzida o‘ziga xos faoliyat modeli psixodiagnostik baholanadi.

2.2. Tekshirish quyidagilarni aks ettirishi kerak:

- aynan u bilan bog‘liq holat yoki hodisalardan oldingi davrda ekspertiza qilinuvchining xulq-atvorini, individual-psixologik (tipologik) xususiyatlari va psixik ahvolini bevosita tavsiflovchi jinoiy yoki fuqarolik ishi materiallaridan olingan malumotlar. Ushbu tekshirish aqsosan jabrlanganlar, guvohlar, (da’vogarlar, javobgarlar) bergan ma’lumotlariga asoslanadi va ekspertiza qilinuvchi kishining umuman yuzaga kelgan vaziyatni anglash qobiliyati doirasida joyda, vaqt davomida yo‘nalishini aniqlash imkonini beradi;

- tekshirilayotgan kishining bolalik davri, maktabda o‘qishining boshlanishi, o‘smirlik yoshi, erta yoshlik davri, katta bo‘lgan davridagi hayoti to‘g‘risida asosiy ma’lumotlar,

- tekshirilayotgan kishi psixologiyasini tekshirishning “biografik usuli”ni shartlab beradi;

- tekshirilayotgan shaxsning sodir bo‘lgan hodisadan oldingi davrda insonga taalluqli bo‘lgan shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarining turg‘un shaxslilik xususiyatlari;

- u bilan sodir bo‘lgan holatda individ to‘g‘risidagi masalalarni, tekshirilayotgan kishining (psixatrik dispanserda hisobda turgan yoki turmaganligi) ruhiy kasalligi borligi yoki yo‘qligi to‘g‘isidagi ma’lumotlarni, hal qilishni tasdiqlovchi yoki rad qiluvchi omillarni hisobga olgan holda asoslab berilishi kerak. Respondentda psixik buzilish bo‘lgan holda, kasallikning rivojlanish va uning kechishini aniq va izchillik bilan aks ettirish, umumlashtiruvchi mulohazaga bormasdan, psixopatologik kechinmalarining o‘ziga xos xususiyatlarini qayd qilish zarur. Bunda psixiatrik kasalxonalarga joylashtirish sanalarini keltirish, har bir kasalxonaga yotqizilganda yoki ambulator tartibda shifokor psixiatrlar ko‘rigidan o‘tgandagi (shu jumladan o‘tmishda ambulatoriya yoki shifoxonada qilingan sud-psixiatrik ekspertizalardagi) tashxislarini ko‘rsatish, hamda ekspertiza qilinayotgan kishining o‘sha davrdagi psixik holatining xarakteristikasini keltirish zarur;

- tekshirilayotgan kishi to‘g‘risida ma’lumotlar yo‘qligida, ijtimoiy muhitda u yoki bu ijtimoiy munosabatlarga kirishgan insonning psixologik o‘ziga xos xususiyatlarini diagnostika qilish kerak va bunda uning individual-psixologik tuzilishini hisobga olish lozim;

- boshdan kechirgan somatik va boshqa kasalliklar ularning psixik holatga ko‘rsatgan ta’siri;

- mehnat faoliyati to‘g‘risida nafaqat ish joylari va egallagan lavozimlari, balki imkon bo‘lganda mehnat tavsifnomalari, u to‘g‘risida xizmatdoshlarining fikrlarini keltirish;

- sudlanganlik (agar bo‘lsa) to‘g‘risidagi ma’lumotlarda sodir qilingan huquqbuzarlik to‘g‘risida qisqacha ma’lumot keltirish kerak, bu, ayniqsa, hozirda sodir qilingan huquqbuzarlik bilan bir turda bo‘lganda muhim ahamiyat kasb etadi. Ozodlikdan mahrum qilish joylardan tavsifnomalar, agar bundaylar bo‘lsa, keltirish kerak;

- tekshirilayotgan huquqiy vaziyat holatini batafil yoritish lozim.

2.3. U yoki bu ma’lumotga tayanilganda, uning manbasini ko‘rsatish, jinoiy yoki fuqarolik ishlaridan foydalangan holda esa betlar va jildlarining tartib raqamlari ko‘rsatilishi shart.

2.4. Eksperimental-psixologik tekshirish SPE xulosasining markaziy qismi hisoblanadi, unda ekspertiza qilinuvchi kishining psixik (psixologik) holati, tekshiruv o‘tkazish natijasida hosil bo‘lgan manzara aniq aks ettirilgan bo‘lishi kerak.

Uning tarkibiga quyidagi tarkibiy qismlar kiradi:

• Respondent bilan olib borilgan suhbat mazmunining qisqacha tahlili (tekshirish davriga munosabati bilan bog‘liq kechinmalarining so‘z orqali ifodalangan tahlili);

• tekshirish davomida tekshirilayotgan kishi xulqining tavsifi, bunda aloqaning o‘ziga xos xususiyatlarini baholash ham ko‘zda tutiladi (muayyan masofani saqlash, qiziqish darajasi, emotsional indifferentligi va h.k.);

• huquqiy ahamiyatga ega vaziyatda yo‘nalishini aniq bilish (orientirovka), sodir bo‘layotgan hodisalarga tanqidiy yondashish, tekshirish maqsadini tushunishdagi emotsional holati;

• ekspertiza qilinayotgan kishi tomonidan huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan vaziyatning baholanishi.

2.5. Diagnostik (tashxis) metodikalar yordamida eksperimental-psixologik tekshiruv.

• tekshirish qanday maxsus vositalardan (usullar va metodikalar–uslublar) foydalangan holda o‘tkazilganligi ko‘rsatiladi, bunda metodikaning psixodiagnostikada qabul qilingan to‘liq nomlanishi, metodikaning muallifi, agar metodika modifikatsiya qilingan bo‘lsa, modifikatsiyaning muallifi yoki ilmiy manbaga havola qilinishi shart. Bular tergovchi va sud tomonidan ekspert tadqiqot metodikalarini to‘liq va ilmiyligiga, uning validliligiga, ularning qo‘llanilishi to‘g‘ri ekanligiga ishonch hosil qilishi uchun muhim;

• ish jarayonining batafsil tavsifi, bunda bosqichlar, natijalarni qayd qilish usul va vositalari, eksperimental metodikalar qo‘llanilishi natijasida olingan ma’lumotlar, olingan natijalarning talqini bayon etiladi;

• tekshirilayotgan kishining kognitiv imkoniyatlarini baholash;

•tekshirilayotgan kishining xulq-atvoridagi aksentuatsiya jihatlarining diagnostikasi.

2.6. Ish materiallari va eksperimental-psixologik tekshiruv natijalarining qiyosiy tahlili.

• Psixologik tahlil ham tomonlarning (ish materiallari), ish holatini hisobga olgan holda, bergan guvohlik ma’lumotlari, ham ekspertiza qilinayotgan kishining suhbat davomidagi kechinmalari – “hisobot” vaqtida, huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisalardan oldin va keyingi davrlarda, individual-psixologik test natijalariga muvofiq tarzda aks etishi (qiyos qilingan holda) kerak;

• Tekshirish natijalari (ish materiallari, shu jumladan tibbiy hujjatlar va eksperimental testlash) tekshirish sub’ekti xulqiga oid o‘ziga xos xususiyatlariga mos psixologik jarayonlarning kechishi fenomenologiyasi mezonlariga bo‘lgan talablarga mos kelishi lozim.

3. Asoslovchi qism (xulosalar va ularni asoslash)

3.1. Ekspert komissiyasi oldiga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha tadqiqot natijalarini baholash, xulosalarning asoslanishi va ifodalanishini aks ettiradi.

3.2. Xulosaning asoslovchi (yakuniy) qismi ekspertiza qilinayotgan kishining psixologik holatini baholash, savollarga javoblar va ularning batafsil asoslanishidan iborat.

3.3. Ekspert oldiga qo‘yilgan savollardan birontasi ham javobsiz qolmasligi va o‘tkazib yuborilishi mumkin emas. Agar ba’zi savollarga ekspert javob berib, boshqalariga javob berish mumkin emasligi to‘g‘risida ma’lumot berishiga asos mavjud bo‘lsa, bu holda yagona xulosa tuzilib, unda ekspert xulosalar bilan bir qatorda, ekspert oldiga qo‘yilgan savollarning ba’zilariga javob berish mumkin emasligining sabablari asoslab ko‘rsatiladi.

Sud-psixolog eksperti oldiga qo‘yilgan savollarni uning sohaga oid maxsus psixologik bilimlari asosida hal qilib bo‘lmasligiga, unga taqdim qilingan tekshirish ob’ektlari va materiallar xulosa chiqarish uchun yaroqsiz va yetarli emasligiga, qo‘shimcha materiallar yo‘qligi yoki fan va sud-ekspert amaliyoti mazkur savollarga javob berish imkonini bermasligiga ishonch hosil qilganda, u xulosa berish imkoni yo‘qligi to‘g‘risida dalolatnoma tuzib, uni sud ekspertizasini tayinlagan organga taqdim qiladi.

3.4. Xulosa psixologiya fanidan xabari yo‘q bo‘lgan sud jarayoni ishtirokchilari yoki tergov organi xodimlari uchun tushunarli tilda yozilgan bo‘lishi shart. Shu bois xulosada maxsus atamalardan haddan tashqari ko‘p foydalanmaslik, alohida hollarda esa maxsus atamalarning mazmuni tushuntirilishi lozim.

3.5. Jinoiy yoki fuqarolik ishi bo‘yicha sudlov ishini yuritayotgan sudning yoki tergovning alohida vakolatiga tegishli masalalar bo‘yicha ekspert mulohaza va xulosalarga yo‘l qo‘ymasligi zarur.

Qayta ekspertiza tayinlangangan holda, uning xulosasida oldingi ekspertiza xulosalari bilan farq bo‘lsa, ushbu ekspertizalar xulosalarining tahlilini o‘tkazish kerak, uning tarkibida differensial diagnostika elementlari bo‘lishi kerak. Shu bilan bir qatorda xulosada ish uchun ahamiyat kasb etuvchi hamda ekspert tashabbusi bilan belgilangan vaziyatlar ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin.

4. Kompleks sud psixologik-psixiatrik ekspertizalarda ekspert-psixologining roli

4.1. Ekspertlar teng huquqligiga asos soluvchi tamoyil bo‘lib hizmat qiladi. Unga ko‘ra, psixolog har qanday ekspert singari bir xil protsessual huquq va majburiyatlarga ega, ya’ni masalalarni mohiyatan hal qilishda hech qanday afzalliklardan foydalanmaydi. Ekspertlarning tenghuquqliligi olingan tekshirish natijalari va xulosalarining teng qiymatga egaligini belgilab beradi. Ularning har biri dastlab to‘liq hajmda alohida ajratiladi.

4.2. Ekspert-psixologlar bevosita kompleks sud psixologik-psixiatrik ekspertizani o‘tkazishga uning tayinlanishi to‘g‘risidagi qaror yoki ajrimni olganlaridan so‘ng darhol kirishadilar. Shu vaqtdan boshlab ular ekspertizani o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazilishi uchun javobgar bo‘ladilar. Shu jumladan jinoiy tartibda ham – xulosa berishni rad qilish yoki atayin yolg‘on xulosa berganlik uchun ma’suldirlar.

4.3. Ekspert-psixolog jinoiy yoki fuqarolik ishi materiallari bilan tanishadi, oldiga qo‘yilgan masalalarni aniqlaydi, ularning mohiyatini aniqlashtiradi, tekshirishning pirovard maqsadlari va xususiy vazifalarini belgilab oladi, uning umumiy rejasini, alohida operatsiyalarini bajarish ketma-ketligini belgilaydi. Ularga quyidagilar kiradi:

• tekshirish davrining muayyan bosqichi ekspertiza qilinayotgan kishining psixiatr vakolatiga tegishli psixik holatini kvalifikatsiyalash (baholash) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rganishdan iborat (psixik (organik, endogen, ekzogen va b.) hamda psixik kasallik toifasiga kirmaydigan, mehnatga layoqatsizlik bilan shartlangan kasalliklar). Mazkur hal qiluvchi maqsadlarga erishish nafaqat mustaqil ekspertlik ahamiyatiga ega, balki psixologik tabiatga ega bo‘lgan qolgan vazifalarni bajarish uchun haqiqiy asosni tashkil qiladi;

• psixiatr tomonidan aniqlangan psixik kasalliklar bilan bog‘liq holatlarni hisobga olgan holda, psixolog ekspert o‘zining tekshirishini o‘tkazadi. Bunda patopsixologik alomatlar majmuini (simtomokompleks) hisobga oladi, ya’ni psixologik tekshirishdan oldin psixiatrik tekshiruv amalga oshirilishi shart;

• psixolog ekspertining tekshiruv qismida (ish vaziyatlari va guvohlar ko‘rsatmalari, ish materiallarini tahlil qilish asosida) psixiatriya ma’lumotlarini hisobga olgan holda hamda jinoiy yoki fuqarolik ishlari jarayonining u yoki bu huquqiy jihatdan ahamiyatli bo‘lgan vaziyatida turgan ekspertiza qilinuvchi shaxsni eksperimental-psixologik tekshiruvini amalga oshirishi lozim;

• psixolog ekspert tekshirish pozisiyasini aniqlab, va olingan natijalarga mos ravishda u yoki bu huquqiy jihatdan ahamiyatli bo‘lgan vaziyatdagi tekshirilayotgan shaxsning emotsional holati (shu jumladan xulq-atvor komponentlari) to‘g‘risida xulosa chiqaradi.

5. Kompleks sud psixologik-psixiatrik ekspertizalarda psixolog ekspertining xulosasi

5.1. Kompleks sud psixologik-psixiatrik ekspertizada sud psixolog-ekspertining tekshiruvi natijalarini rasmiylashtirish jarayoni quyidagicha tuziladi:

• kirish (kirish qismi), anamnez, jismoniy, nevrologik va psixik holatning tavsifi va ish (jinoiy yoki fuqarolik) materiallarining tahlili psixiatr ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi;

• psixolog ekspertning tekshirish qismi psixologlar tomonidan qo‘yilgan masalalar kontekstida, maxsus bilimlarni hisobga olgan holda, amalga oshiriladi. Xulosa asosini tashkil qilgan foydalanilgan usullar va ularni qo‘llash natijalari to‘liq hajmda keltirilgan bo‘lishi kerak. Mazkur talabni buzish ekspertiza xulosasining yetarli darajada asoslanmagan deb hisoblash uchun sabab bo‘ladi, chunki qonunchilik foydalanilgan materiallar, qo‘llanilgan usullar va o‘tkazilgan tekshirishlar haqidagi ma’lumotlarning xulosada to‘liq aks ettirilishining muhimligini ta’kidlab o‘tadi.

5.2. Kompleks ekspertizada ishtirok etayotgan psixolog-ekspert o‘zi o‘tkazgan tekshiruvlar tavsifi keltirilgan xulosaning qismini (o‘zining xulosalari bilan birga) imzolaydi va buning uchun u javobgar hisoblanadi.

6. Ish yuritish va hujjatlarni saqlash

6.1. Ish yuritish va hujjatlarni saqlashni yo‘lga qo‘yish hujjat sifatidagi materiallarning saqlanishi, shuningdek ular-dan ilmiy va amaliy maqsadlarda foydalanishni ta’minlaydi. Jinoiy

va fuqarolik ishlari materiallaridan olingan ko‘chirma-lar, sud-psixologik ekspertizalar xulosalari, ekspertizalarni ro‘yxatga olish jurnali, sud-tergov organlari bilan xat yozishuvi bo‘yicha alohida ish yuritiladi va ular tashkilotda saqlanadi.

6.2. Sud-psixologik ekspertizalarining asl nusxalari tergov va sud organlariga mazkur organlar qarorlari yoki ajrimlari asosida beriladi.

6.3.Yuqorida keltirilgan hollarda ma’lumotlarning berili-shi sud-psixologik ekspert komissiyasini tashkil qilgan muassasa rahbarining yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxs ruxsati bilan amalga oshiriladi.

6.4. Mazkur hujjatlarni saqlash uchun arxiv yo‘q bo‘lsa, ekspertizaning 3 yil muddatda saqlanishi lozim bo‘lgan hujjatlari (bayonnomalar, xulosalar) yo‘q qilinadi.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, ekspertiza natijalarini baholagandan so‘ng sud, ekspert xulosani yetarli darajada aniq yoki to‘liq emas deb tan olganda, ekspertni xulosasini tushuntirib berishi uchun so‘roqqa chaqirishi mumkin (FPK 86-modda,O‘zbekiston Respublikasi JPK 186-modda). Ekspertni so‘roq qilishda ekspert tomonidan xulosaga aniqlik kiritilmagan holda, mazkur ekspert yoki boshqa ekspert psixologiga qo‘shimcha ekspertiza tayinlanishi mumkin. Ekspert xulosasi asoslanmagan bo‘lsa yoki uning to‘g‘riligi shubha tug‘dirgan holda, ekspertizani takroriy o‘tkazish boshqa ekspert yoki ekspertlarga topshiriladi. Ekspertlar o‘tkazgan ekspertizalar hisobini olib borishlari kerak.

12.12.2008-yildagi “Fuqarolik ishlari bo‘yicha ekspertiza tayinlash, o‘tkazish vaekspert xulosasiga baho berishdasud amaliyotida kelib chiqadiganayrim masalalar haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi oliy sudi Plenumining 24-sonli qarorining 16-bandida ta’kidlanganidek, “Sudlar qo‘shimcha, qayta, kompleks va komissiyaviy ekspertiza tayinlash asoslari va tartibini qat’iy farqlashlari lozim”.

Psixolog-ekspert xulosasi mavjud huquqiy mantiq doira-sida, malaka jihatdan savodli, yuzaga kelgan vaziyatning barcha nozik farqlarni qamragan holda tuzilgan bo‘lishi shart.

Ushbu Plenum qarorining 22-bandida ta’kidlanganidek,“ekspertning ehtimol tutilgan xulosasi sud qaroriga asos qilib olinishi mumkin emas”, ekspert xulosalar esa sud bosqichlari undan to‘lig‘icha foydalanishi mumkin bo‘lgan holda taqdim qilinishi lozim.

“Davlat sud-ekspertiza muassasi yoki boshqa korxona, muassasa, tashkilot, tomonidan sud ekspertizasini o‘tkazish tarti-bi to‘g‘risidagi Namunaviy Nizom”ining 32-bandiga muvofiq, “ekspert xulosalari uning oldiga qo‘yilgan masalalarga javob shaklida bayon qilinadi va turli talqinlarga yo‘l qo‘ymaydigan aniq, tushunarli tilda bayon qilinishi lozim”.

Natijalar.


Sud huquq tizimida sud psixologik ekspertizalarni Oliy ta’lim muassasalarida (asosan psixologiya sohasi bo‘yicha kadr tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari) faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilar o‘tkazishlarini inobatga oladigan bo‘lsak, sud psixolog ekspert faoliyati ikkinchi kasbiy faoliyat ekanligini, ularning pedagogik faoliyati bilan bog‘liq holda emas, balki sud psixolog eksperti sifatida baholanganligini qayd etish lozim.

1-jadval

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi bo‘yicha olingan ma’lumotlar tahlili

Omillar		otm psixolog mutaxassislari		maktab amaliyotchi psixologlari		Farq (% hisobida)
		n_1-41		n_2-61		
		n	%	n	%	
«A» omil	Muloqotchan	16	39,01	40	65,6	±26,5
	Muloqotga kirishishga qiynaladigan	25	60,9	21	34,4	
	Jami	41	100	61	100	
«B» omil	Mantiqiy fikrlaydigan	19	46,3	33	54,1	±7,8
	Zaif fikrlaydigan	22	53,6	28	45,9	

	Jami	41	100	61	100	
«C» omil	Barqaror	13	31,7	43	70,5	±38,8
	Beqaror	28	68,3	18	29,5	
	Jami	41	100	61	100	
«D» omil	Optimizm	16	39,01	34	55,7	±16,6
	Pessimizm	25	60,09	27	44,3	
	Jami	41	100	61	100	
«K» omil	Ijodiy tafakkuri rivojlangan	14	34,1	38	62,3	±28,2
	Realist	27	65,9	23	37,7	
	Jami	41	100	61	100	
«N» omil	O‘zini nazorat qila oladigan	19	46,3	45	73,8	±27,5
	Nazoratda qiyinchilikka uchraydigan	22	53,7	16	26,2	
	Jami	41	100	61	100	
«M» omil	O‘ziga yo‘nalgan	18	43,9	28	45,9	±2
	O‘zgalarga yo‘nalgan	23	56,1	33	54,1	
	Jami	41	100	61	100	
	Jami	41	100	61	100	



1-rasm. Kommunikativ ijtimoiy kompetentlikning namoyon bo‘lishi

“Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi” metodikasidan olingan natijalar tahliliga ko‘ra “A” omil bo‘yicha “muloqotchanlik” otm psixolog mutaxassislariga nisbatan maktab amaliyotchi psixologlarilarda 65,6% (+26,5%) ni, aksincha, muloqotga kirishishga qiynalish 34,4 % (-26,5%) tashkil qildi. Ko‘rinib turibdiki, sud psixolog eksperti faoliyati ish staji va tajribasining ortib borishi bilan bog‘liq omil hisoblanadi. “B” omil bo‘yicha “mantiqiy fikrlash” darajasi besh yil stajga ega bo‘lganlarga nisbatan maktab amaliyotchi psixologlari 54,1% ni (+7,8%), “zaif fikrlash darajasi” esa besh yilgacha mehnat faoliyati davomiyligiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlarda 53,6% ni (-7,8%) ko‘rsatdi. Lekin bu omil bo‘yicha besh yil va besh yildan ko‘p ish stajiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlari ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farq oralig‘i (±7,8) keskin tafovut qilmaganligini ko‘rishimiz mumkin. “Mantiqiy fikrlash” qobiliyati sud psixolog eksperti faoliyati uchun muhim jihat hisoblanib, bu qobiliyat

yillar mobaynida shakllanishi aniqlandi. Bunda bevosita intellektual rivojlanish jarayonning roli beqiyosdir. “Barqarorlik” va “beqarorlik” omillari bo‘yicha ham besh yildan ortiq 70,5%, beqarorlik esa besh yilgacha 68,3% ni (±38,8) tashkil etdi. Bundan ma’lum bo‘ldiki, barqaror ijtimoiy munosabatlar yillar davomida taraqqiy qiladi. Keyingi mezon, ya’ni, “optimizm” va “pessimizm” omili bo‘yicha besh yilgacha optimizm 39,01% ni, “pessimizm” esa besh yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlarda 60,09 % ni tashkil etdi. Optimizm, ya’ni yuqori kayfiyatda atrofdagilar bilan munosabatga kirishish 5 dan ortiq ish tajribasiga ega bo‘lgan sud psixolog ekspertlarda ustun bo‘lsa, pessimizm – ya’ni kayfiyatdagi o‘zgarishlar, shaxsiy pragmatik kelishmovchiliklar va muloqot jarayonidagi uzilishlar besh yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan psixologlarda yuqori o‘rin egallashi aniqlandi (±16,6%).

“K” omili bo‘yicha “ijodiy tafakkuri rivojlanganlik darajasi” besh yilgacha 34,1 % ni, realistlar esa 65,9 % ni tashkil qildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, muloqot qilish davomida besh yilgacha realistik tafakkur besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lganlarda esa voqealarga kreativ yondashish, erkin munosabat bildira olish va tahlil qilish kabi sifatlar rivojlanar ekan.

Keyingi omil bo‘yicha “O‘zini nazorat qila olish” omili besh yilgacha 19 nafar shaxsda 46,3 % ni, “O‘zini nazorat qilishda qiynalish” esa besh yildan ortiq stajlilarda 45 respondent ishtirokida 73,8 % da namoyon bo‘ldi. So‘nggi omil bo‘yicha tahlil qilinganda “o‘ziga yo‘nalganlik” besh yildan ortiqish stajiga ega bo‘lgan 28 nafar respondent ishtirokida 45,9%ni “o‘zgalarga yo‘nalganlik” 23 nafar respondent bilan besh yilgacha 56,1%ni tashkil qildi. Unga ko‘ra kommunikatsion muomala jarayonida o‘ziga bo‘lgan munosabatning ustunligi besh yildan ortiq vaqt ichida to‘liq shakllanadi, ungacha esa o‘zgalarga ya’ni ijtimoiy muhitga e’tibor bevosita ustunlik qiladi. Ushbu tahlillar 1-jadval va 1-rasmda yanada aniqroq o‘z aksini topgan.

Demak, o‘rganilgan empirik natijalar asosida sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta’sir etuvchi psixologik omillar (kasbiy faoliyatiga qarab qarab) turli ko‘rinishda bo‘lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo‘lgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko‘rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik bilan bog‘liq bo‘lgan manbalarni tahlillariga asoslanib, tadqiqot ishimizda sud psixolog ekspertining ijtimoiy-psixologik kompetentligi ularning kasbiy kamoloti jarayoniga bog‘liqligini tatqiq qilishga undadi. Bu esa ijtimoiy-psixologik kompetentlikni rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillardan biri hisoblangan emotsional intellektning sud psixolog eksperti faoliyatida o‘zaro aloqadorlikda rivojlanish jarayonini alohida tadqiq qilishni talab qiladi.

Xulosa.

Shaxsning kasbiy rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladigan psixologik xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan psixotexnika, hamda o‘quv modulining samaradorligini baholashda aniqlovchi va nazorat tajribalaridan olingan natijalarning tahlillariga asoslanib, qolaversa, sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturi va uni sud psixolog ekspertlarining kasbiy faoliyatiga ta’siri natijasini tadqiq qilish bo‘yicha quyidagilar aniqlandi:

1. Ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlik sud psixolog ekspertining samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi sohaga oid bilim, ko‘nikma va malakalari majmui sifatida sud psixolog ekspertining kasbiy faoliyatida ahamiyatli ekanligi aniqlandi.

2. Sud psixolog ekspertining kasbiy faoliyatida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning namoyon etilishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar professionallik darajasini takomillashuviga xizmat qilishi mumkin.

3. Sud psixolog ekspertining u yoki bu insonlar bilan o‘zaro adekvat munosabatga kirisha olishi, xususan, sudga oid psixologik ekspertizalarda yuqori darajada muloqotmandligi, muloqot vaziyatlarini tahlil etuvchanlik, suhbatdoshning xulq-atvori, hatti-harakatlari, ruhiy

kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik va turli xil vaziyatlarga nisbatan muayyan darajada moslashuvchanlik sifatlarining namoyon etilishi bilan xarakterlanadi.

4. Sud psixolog ekspertlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligining namoyon etilishi, har bir sud psixolog ekspertida o‘ziga xos tarzda shakllangan kasbiy va kommunikativ kompetentlik kabi omillarga bevosita bog‘liqligi ijtimoiy-psixologik kompetentlik, kasbiy faoliyati samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta’minlashga xizmat qiladi.

5. Sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentligi va kasbiy kompetentlik omillariga bog‘liq ravishda namoyon bo‘lishi sud psixologik ekspertizasini yuqori samaradorlik asosida tashkil qilish va uni o‘tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Sud psixolog ekspertining sud psixologik ekspertizalarni belgilangan me’yorlar asosida tashkil qilishi va uni o‘tkazishi ularning sohaga oid bilimdonligiga bevosita bog‘liq. Shu nuqtai nazardan sohaga oid tushunchalar haqida bilimga ega bo‘lishi va uni amaliyotga qo‘llay olishi imkoniyatlarini baholash orqali ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini aniqlash imkoniyati yaratildi.

7. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha o‘quv modulini amalda qo‘llash natijasida qator samaradorlikka erishildi, sud psixolog eksperti ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillariga bog‘liq bo‘lgan kasbiy kompetentlikning yuqori diapazonda ko‘tarilganligini ko‘rsatadi. O‘quv modulida sud psixolog eksperti kasbiy kompetentligini ta’minlovchi sohaga tegishli bo‘lgan me’yoriy hujjatlar bo‘yicha savodxonligi, shuningdek psixodiagnostik ishlarni amalga qo‘llay olishi, sudga oid psixologik ekspertizasi xulosasini sifatli tarzda rasmiylashtirish bo‘yicha bilimdonligini oshirishga erishildi.

8. Sud psixologik ekspertizasi ishlarida faoliyat olib boradigan ekspertlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi omillarini namoyon etilishi va rivojlanishi masalasini chuqurroq tahlil qilish uchun kelgusida ijtimoiy-psixologik kompetentlikning sud psixolog eksperti sifatidagi faoliyatiga tayyorlik darajasi bilan bog‘liqlik tomonlarini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar.

1. Golniiz G., Schulz-Wulf G. Rhitmisch-psychomotoriscbe Musiktherapie. Yena, 2004.-112 p.

2. Glassman A. H., Shapiro P.A., Depression and the course of coronary artery disease. Am J Psychiatry. 1998. – P. 4-11.

3. Gmott H.G. between Parent and Children. N.Y., 2003. P – 219.

4. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O`smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.

5. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.

6. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.

7. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.

8. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o`quv qo`llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.

9. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o`gishgan bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.

10. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M. O‘smirlarda psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo‘lishining o‘ziga xosligi. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.

Bekova Shamsiya Djabbarovna
Qarshi davlat universiteti dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)
Omonva Orzudil Shuhrat qizi
Psixologiya yo`nalishi magistranti
Qarshi davlat universiteti

O`ZBEK OLIMLARI VA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA OILADA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR MASALALARINING O'RGANILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sharq mutafakkirlari va o`zbek olimlari tomonidan oilada shaxslararo munosabatlarning o`rganilishi hamda ular tomonida qoldirilgan asarlarda yosh avlodni oila va shaxsiy hayotga tayyorlashdagi ko`rsatma qonun qoidalari haqida fikr yuritilgan*

***Kalit so`zlar:*** *oila, sharq mutafakkirlari, nizo, shaxs, muhit, tarbiya, munosabat, qonun, ijtimoiy muhit, ma`naviyat, kasb, bilim, mafkura, din, qadriyat*

ИЗУЧЕНИЕ ВОПРОСОВ МЕЖПЕРСОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ В РАБОТАХ УЗБЕКСКИХ УЧЕНЫХ И ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются исследования межличностных отношений в семье восточными мыслителями и узбекскими учеными и правовые нормы подготовки молодого поколения к семейной и личной жизни в оставленных ими трудах.*

Ключевые слова: *семья, восточные мыслители, конфликт, личность, среда, воспитание, отношение, право, социальная среда, духовность, профессия, знание, идеология, религия, ценность.*

STUDY OF THE ISSUES OF INTERPERSONAL RELATIONS IN THE FAMILY IN THE WORKS OF UZBEK SCIENTISTS AND EASTERN THINKERS

Annotation. *In this article, the study of interpersonal relations in the family by eastern thinkers and Uzbek scientists and the rules of the law for preparing the young generation for family and personal life in the works left by them are discussed.*

Key words: *family, eastern thinkers, conflict, personality, environment, upbringing, attitude, law, social environment, spirituality, profession, knowledge, ideology, religion, value.*

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Bu borada oiladagi ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, ota-onalarda farzandlar oldidagi, farzandlarda ota-ona va jamiyat oldidagi, burch va mas'uliyat tuyg'usini kuchaytirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir, - degan edi mamlakatimiz birinchi Prezidenti, chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar - yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir", degan fikrlarni ilgari surib yosh avlodni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda oilaning o`rni har tomonlama beqiyos ekanligini ta`kidlaganlar.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida oila, ota-ona va farzand munosabatlarini tartibga soluvchi qonuniy asoslar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaining 63, 64, 65, 66-moddalari oila, ota-ona, farzandlar munosabatlariga bag'ishlangan. Jumladan, 63-moddasida:

"Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi”, deyilgan bo‘lsa, 64-moddasida: "Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar” deb belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari, Respublikamizda “Oila” ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi hamda hukumat tomonidan “Oila kodeksi”ning (1998) qabul qilinishi, shuningdek, Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan yillarning “Oila yili” (1998), “Mustahkam oila yili” (2012) deb nomlanganligi ham bugungi kunda oilalarning mustahkam va barqarorligini saqlash uchun qilinayotgan muhim amaliy ishlardan hisoblanadi.

Inson bolasi dunyoga kelar ekan, u mustaqil harakatlanish, yurish, o‘qish, yozishdan boshlab tabiat va jamiyatning barcha murakkab qonunlari bilan yuzma-yuz kelganda nimalar qilish kerakligiga o‘rgatiladi yoki bunga maxsus o‘qitiladi. Ma’lumki, hayotimizning yarmidan ko‘pini qamrab oladigan, chinakam, to‘laqonli insoniy baxtni in’om etadigan yoki aksincha, har tomonlama ta’minlanganligimizga qaramasdan, bizning baxtimizni yarimta qiladigan ham oilaviy hayotdir. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla, yurt mustahkam bo‘lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Ko‘rinib turibdiki, oilaviy hayot masalalari hozirgi davr fani tadqiqot yo‘nalishining ustuvor sohalaridan biriga aylanib bormoqda.

Oilaviy turmush va undagi shaxslararo munosabatlar masalalari buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo‘lmish Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ham keng yoritilgandir. Shuningdek, mazkur masala sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxruddin, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalar tomonidan ham keng o‘rganilgan bo‘lib, ularning asarlarida markaziy osiyoda yashab kelayotgan xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqining oilaviy hayoti, undagi o‘zaro munosabatlarning (ayniqsa er-xotin) milliy psixologik xususiyatlari, er-xotinning burch va vazifalari, oilaning turmush tarzi va tarbiyaviy muhiti va boshqalar haqida qimmatli fikrlar mavjud.

Markaziy Osiyoda qadimdan oila va oilaviy munosabatlar oila a'zolariga g'amxo‘rlik qilish, ularga mehr-shafqat ko‘rsatish, xayr-saxovat qilish diniy, ham insoniy udum bo‘lib kelgan. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy, falsafiy va axloqiy qarashlarida oila va oilaviy munosabatlar, oilaviy tarbiya, oilaviy totuvlik kabi g'oyalar mas'uliyati va burchi, farzandga nisbatan hurmat, farzandning ota -onaga nisbatan hurmati kabi masalalarga alohida e'tibor berilgan1. Oila nafaqat bir yurtning, balki umumiy insoniyatning va davlatning katta siyosatidir. Oilaning eng muhim vazifalaridan biri insoniyatning zanjirini sog'lom va iqtidorli avlodlar bilan ulab borishdan iborat. Har bir inson hayotining o‘ziga xosligi va qadriyatlarni tan olishi, ma'naviy komil inson bo‘lib voyaga yetishi, bolaning rivojlanish huquqlari, ta'limga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishini kafolatlash kabi insonparvarlik g'oyalari zamonaviy jamiyat-ning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim ekanligi tobora keng anglanmoqda. Rizouddin Ibn Faxruddinning "Oila" nomli risolasida "Bola tarbiyasi yomon niyat bilan emas, balki sabr - toqat, matonat, mehribonlik, chidamlilik, shavqat vu sezgirlik bilan bo‘lishi kerak. Bundan bolaning tizginsiz hayvon kabi o‘z holiga tashlab qo‘yish kerak degan gap kelib chiqmaydi. Zarar bilan foydani ayira olmagan yosh go‘dakni nazoratsiz tutish katta xatodir. Balki uni qattiqlik bilan yumshoqlik o‘rtasida, adolat bilan tarbiya qilmoq kerak" haqida fikrlar berilgan. Tib ilmining sultoni Ibn Sino yosh bolani yaxshi axloqli, jismoniy sog'lom bo‘lishi uchun tarbiya jarayonida shaxsiy namuna bo‘lish usuli g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligini qayta - qayta uqtirib o‘tadi.Yuqorida nomlari keltirilgan sharq mutafakkirlarining oilaviy munasa-batlarda er-xotin munosabatlari hamda ular orasidagi shaxslar aro munosabatlar haqida batafsil va tushunarli malumotlar berib o`tganlar. Haqiqatdan ham oilada sog`lom psixologik muhit bo`lsa oilada o`zaro tushunmovchiliklar va ular o`rtasida iliq munosabatlarga asoslangan rishtalar paydo bo`ladi. O`zbek oilalarida ham o`tgan asrlardan beri oila deb atalgan dargoh

muqaddas hisoblanib uni asrab avaylash asosan oila boshlig`i erkak kishi zimmasiga tushar edi, bugungi rivojlangan jamiyatda esa oilani bunyod etish va uni asrab avaylash nafaqat erkak kishi balki har ikki jins vakillariga mos ravishda bo`lingan hisoblanadi.

Oilaviy hayot psixologiyasi, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi o‘zaro munosabatlar, undagi ziddiyatlar, ajralishlar va uning oqibatlari keyingi yillarda psixologiya fanining keng tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Bu sohada psixolog olimlardan G‘.B.Shoumarov (1986, 1990, 1994, 2001), Y.A.Morshinina (1986), E.G‘oziyev (1994, 2002). V.M.Karimova (1994, 1999), M.G.Davletshin (1993,1994), N.A.Sog‘inov (1990), S.A.Oxunjonova (1991), A.Shojalilov (1994), T.M.Adizova (1994), E.Usmonov (1993), X.Karimov (1994), Sh.SH.Jo‘rayeva (1994), R.S.Samarov (1997), O.Shamiyeva (2000) N.Salayeva (2001), F.R.Ro‘ziqulov (2002) M.Fayziyeva (2005) va boshqalar olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir.

Oilaviy qadriyatlarda shaxsning shakllanishida milliy-psixologik o‘ziga xoslik va umuminsoniy qadriyatlarning yagonaligini belgilovchi umumilmiy metodologiyadan: psixik hodisalarni tadqiq etishga kompleks yondashish (B.G.Ananyev), funksional tizimlar konsepsiyasi (P.K.Anoxin), determinizm tamoyili (S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev), tizimli yondashish (B.F.Lomov) xizmat qildi. Shuningdek, izlanishda sharq mutafakkirlari, mamlakatimiz, uzoq va yaqin xorij psixologlarining oilaviy turmush, er-xotin munosabatlari va inson kamoloti to‘g‘risidagi qarashlari, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ma’ruzalarida ilgari surilgan oilaviy turmush va undagi muammolarni hal qilishga qaratilgan g‘oyalariga asoslanib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda ilmiy tadqiqot natijalarida va ularga asoslangan ilmiy tavsiya va xulosalardan yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlashda, notinch oilalarga psixologik maslahatlar berishda, viloyatda tashkil etilgan "Oila" markazlarining faoliyatlarida, hokimiyat va mahallalarning bevosita oila va oilaviy munosabatlar masalalari bilan shug‘ullanadigan mutasaddi xodimlarining faoliyatida, oliy o‘quv yurtlari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji talabalari va umumta’lim maktablarining yuqori sinflariga mo‘ljallangan "Oila psixologiyasi" kursi mashg‘ulotlarida, "Odobnoma", "Ma’naviyat asoslari" darslarida, mazkur fanlar uchun tegishli o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va dasturlar yaratishda samarali foydalanish mumkin.

Adabiyotlar ro`yxati.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi PF-60-sonli Farmoni.

2 Грановская П.М. Елементы, практишеской психологии Р.М.Грановская. – Л.: Изд. ЛГУ 1995

3 Drujinin V.N. Oila psixologiyasi. -M.: "KSP", 1996 yil.

4 Psixologik maslahatdagi oila: Psixologik maslahat tajribasi va muammolari Ed. A.A. Bodaleva, V.V. Stolin. – M.: Pedagogika, 1989 yil.

5 Sinyagina N.Yu. Ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni psixologik va pedagogik tuzatish. - M .: Insonparvarlik. ed. VLADOS markazi, 2003 yil.

Saidov Azamat Ismoilovich
Samarqand davlat chet tillari instituti
“Magistratura bo‘limi boshlig‘i”,
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor.

SOG‘LOM TURMUSH TARZINI YARATISHDA JISMONIY TARBIYAVA SPORTNING O‘ZIGA XOS O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sog‘lom turmush tarzini yaratishda jismoniy tarbiya va sportning o‘ziga xos psixologik o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada yoshlarni sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish bo‘yicha psixologik tavsiyalar o‘rtaga tashlanadi, oilada sog‘lom turmush tarzini yaratishda sportning o‘ziga xosligi eng muhimi ijtimoiy-psixologik muhitning muhimligi yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sog‘lom turmush tarzi, oila, ijtimoiy-psixologik muhit, farzand tarbiyasi, psixologik yondashuv, motivatsiya, salomatlik ijtimoiy faoliyat, sog‘lom avlod, jismonan sog‘lom, aqlan barkamol, tasavvur, sog‘lom avlod, ijtimoiy muhit, hayot darajasi, jismoniy tarbiya va sport.*

РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА В СОЗДАНИИ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ

Аннотация. *В данной статье анализируется уникальная психологическая роль физического воспитания и спорта в формировании здорового образа жизни. Также в статье освещены психологические рекомендации по формированию представлений молодежи о здоровом образе жизни, уникальности спорта и значении социально-психологической среды в формировании здорового образа жизни в семье.*

Ключевые слова: *Здоровый образ жизни, семья, социально-психологическая среда, воспитание ребенка, психологический подход, мотивация, здоровье, социальная активность, здоровое поколение, физически здоровое, психически зрелое, воображение, здоровое поколение, социальная среда, уровень жизни, физическое воспитание и спорт.*

THE ROLE OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN CREATING A HEALTHY LIFESTYLE

Abstract. *This article analyzes the unique psychological role of physical education and sports in creating a healthy lifestyle. Also, the article highlights the psychological recommendations for forming young people's ideas about a healthy lifestyle, the uniqueness of sports and the importance of the socio-psychological environment in creating a healthy lifestyle in the family.*

Key words: *Healthy lifestyle, family, socio-psychological environment, child upbringing, psychological approach, motivation, health, social activity, healthy generation, physically healthy, mentally mature, imagination, healthy generation, social environment, standard of living, physical education and sports.*

Jahonda bugungi kunda insonlar o’rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hozirgi kuning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning eng kichik bo‘g’ini bo‘lmish oilada sog‘lom turmush tarzi to’g’risidagi psixologik bilimlarni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. Sog’lom turmush tarzining barcha elementlariga rioya qilishda ana shu muhitlardagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, ijtimoiy-ruhiy (psixologik) va ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyalar o’z ta’sirlarini o’tkazadi. Aynan shu kategoriyalar tarkibidagi ijtimoiy, iqtisodiy, ruhiy omillarni bartaraf etishda, kishiga birinchi navbatda, sog’lom turmush tarzi bo’yicha bilim, malaka va ko’nikmalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Buning uchun, aynan yuqorida qayd etilgan

ijtimoiy institutlarda sog'lom turmush tarzini joriy qilish bo'yicha maxsus dasturlar asosida o'quv mashg'ulotlarini kiritish va uni amaliyotda tadbiq qilish zarur.

Zamonaviy sharoitda yoshlar tarbiyasi, barkamol avlodni tarbiyalash mustaqil Respublikaning kelajagini kafolatlovchi omil sifatida baholanib, bu borada amalga oshiriluvchi keng ko'lamli ijtimoiy faoliyat muvaffaqiyani ta'minlashga yo'naltirilgan dasturlar qabul qilindi, ularning mazmuni yangi, ilg'or ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitildi. Mazkur dasturlarda sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jamiyat rivoji uchun strategik ahamiyatga egaligiga urg'u berilar ekan, yoshlarning kuch-g'ayrati, salohiyati va imkoniyatlarini mustaqil respublikaning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini oshirish, uning jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashini ta'minlashga yo'naltirish maqsadga muvofiq ekanligi ko'rsatiladi.

Organizmni chiniqtirish, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish, oiladagi sog'lom muhit yoshlar salomatligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishni keng targ'ib etish, tibbiy nuqtai nazardan sog'lom turmush tarzinini qaror toptirish orqali yoshlarning jismoniy, tibbiy va ruhiy salomatligini ta'minlashga erishish, ularda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy shug'ullanish, shuningdek, salomatliklariga nisbatan e'tiborni kuchaytirish yoshlarda milliy ong, milliy mafkura, o'ziga xos milliy g'urur, milliy tafakkur va iftixorni tarbiyalash borasida Respublikamizda juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda Respublikasizda boshqa jabhalarda bo'lganidek, jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat ham bor. Bolalik va o'smirlik davrida har tomonlama rivojlanishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati juda kattadir. Jismoniy madaniyat darsida jamoatchilik, mehnatsevarlik, intizomlilik, ahloqiylik sifatlari o'stiriladi. Inson bolasi tug'ilishi bilan har hil harakatlarni bajarish ehtiyojlari paydo bo'ladi. Ibn Sino aytganidek, inson harakatlanganda uning to'qimalaridagi har hil zaharli moddalar organizmdan ter bilan tashqari chiqib ketadi.

Maktablarda jismoniy madaniyat darsining asosiy maqsadi, o'quvchilarni birinchi sinfdan boshlab sog'lom o'sishiga ko'maklashish yoki sog'lomlashtirishdir. Jismoniy tarbiya har bir o'quvchining shaxsiy ishi bo'lmasdan, balki jamiyat talabi ekanligini barcha jismoniy madaniyat o'quvchisi va murabbiylar ongli ravishda his etmog'i zarurdir. Bizning sog'lomligimiz faqat o'zimiz uchungina emas, balki boshqa kishilar, qolaversa, Vatan uchun ham eng muhimdir. Jismoniy madaniyat mashqlari bilan shug'ullanish har bir o'quvchining kundalik hayotida doimiy va shaxsiy maqsadlaridan biri bo'lishi bilan birga, o'zining kamolot sari rivojlanib borishi, vatanni sevishi va himoya qilishi o'quvchi uchun sharofatli ishlardan biriga aylanishi zarur. O'z-o'zini tarbiyalash ikki shaklda amalga oshiriladi: 1) jamoatchilik va 2) individual shakllarda. Jamoatchilik shaklida o'quvchichilarning o'zini-o'zi tarbiyalashi, jismoniy madaniyat darsida, o'quvchining o'z qiziqishlari bo'yicha turli xil mashqlarni, jamoat ishlarini birgalikda bajarish jarayonida amalga oshirildi. Dars jarayonida birorta ham qoloq o'quvchi bo'lmasligi kerak. Xuddi shuningdek, jamoatchilik majburiyatlarini olish va bajarish ishlari o'zni-o'zi tarbiyalash imkonini beradi. Yuqori sinf o'quvchilari o'zlarining hulq-atvorini to'g'ri baholashga o'rgatilsa, jamoatchilik fikrining barqarorligi paydo bo'ladi. Natjada sinf jamoasi uyushgan, mustahkam kuchga aylanadi. Individual shaklda har bir o'quvchi o'ziga aniq majburiyat oladi. Bu majburiyatni bajarishda, har bir o'quvchining individual xususiyatlari ham hisobga olinishi zarur.

O'zini-o'zi tarbiyalashni tashkil etishda quyidagi qoidalarga amal qilishga to'g'ri keladi:

1) o'zini-o'zi tarbiyalash rejasi aniq va mazmundor bo'lishi lozim;

2) yangi majburiyatlar, eskisi bajarilgandan keyin qabul qilinadi;

3) o'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashi jamoatchilik tomonidan baholab borilishi lozim;

4) o'zini-o'zi tarbiyalashda, qanday tarbiya vositalaridan foydalanishni ko'rsatib berish.

Masalan, VII sinf o'quvchilari o'zini-o'zi tarbiyalash uslubini shunday tuzganlar: a) arzimagan narsalarga ham xafa bo'lavermaslik; v) irodasizlikka yo'l qo'ymaslik, ya'ni «muvafa-

qqiyatsizlikda ham o‘zin yo‘qotmaslik». O‘zini-o‘zi tarbiyalash quyidagi bosqichlar to‘g‘ri tashkil etilgan taqdirdagina ijobiy natijalar beradi.

I bosqich- O‘quvchilardagi axloqiy, irodaviy va jismoniy sifatlarning yetishmaslik tomonlarini o‘stirish, o‘quvchini ximoya qilish xususiyatlarini shakllantirish, o‘zining jismoniy kuchlilik sifatlari ustida mustaqil ishlashga odatlantirish, sport musoboqalarida faol ishtirok qilish.

II bosqichda o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi tarbiyalash faoliyatining amaliy tomonlarini tashkil etishda quyidagi uslublardan foydalanish mumkin: a) o‘quvchi o‘zining xoxishi bilan yozma majburiyat vazifalarini qabul qilish; b) ma’lum bir vaqt davomida, o‘zning xulq-atvorini baholash va o‘zi qabul qilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishi, o‘zidagi axloqiy irodaviy va jismoniy sifatlari to‘g‘risida hisobot berish; v) o‘quvchining o‘zi olgan majburiyatlarini yozma tahlil qilishi; ishda, o‘quvchiq ishda keltirgan muvafaqqiyatlari va maqlubiyatlarining sabablarini ochishi va o‘zligini anglash qobiliyatlarini o‘zini-o‘zi nazorat qilib borish zarurligini anglab olishi; d) o‘quvchi o‘zini-o‘zi baholashda, o‘zida yetishmaydigan xususiyatlarni to‘g‘ri his etish yordamida xulosa chiqarishga o‘rganishi kerak.

III bosqichda o‘quvchi o‘z ustida mustaqil ishlash ehtiyoji bilan yashashga odatlanishi kerak.

Maktabda o‘qituvchilar jamoasining mustahkamligiga va ularning tashkilotchilik va pedogogik mahorati, bilim va qobiliyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, jismoniy madaniyat o‘qituvchisining talabchanligi, o‘quvchilar jamoasi bilan to‘g‘ri va o‘zaro hurmat munosabatlarini o‘rnatish hamda o‘quvchilarda jamoasini to‘g‘ri boshqarishda quyidagilarga alohida e’tibor berish lozim- bir-biriga bo‘lgan talabchanlikni to‘g‘ri baholash, o‘zini ishontirish, sport musoboqalarida to‘g‘ri raqobatlashish, bir-biriga yordamlashish, jismoniy zaif o‘quvchilarni to‘g‘ri tushunish va ular to‘g‘risida kayfiyatini ko‘tarish. O‘quvchilar jismoniy madaniyat darsida, sport anjomlarini tayyorlashda, sport zallarini tozalashda, sport mashqlarini bajarishda, xafvli vaziyatlarda yordamga muhtoj bo‘ladilar. Jismoniy madaniyat o‘qituvchisi o‘quvchilardagi kamchiliklarni bilishi, jismoniy mashqlarning bajarilishini to‘g‘ri baxolash lozim. Masalan VII sinf o‘quvchisi J.Oblaqulov juda faol, chaqqon, sinfni yaxshi tashkil qila oladi, lekin o‘qishi pastroq. Sevimli fanlari: bialogiya va jismoniy madaniyat fanlari. Biroq bialogiyadan olgan baholari notekis, uyga berilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarmaydi. O‘quv materiallaridan boshqa materiallarni qiziqib o‘qiydi, oxirgi yillarda jismoniy madaniyat fanidan faqat «a’lo» baholarga o‘qiydi.

Hamma narsa bolalikdan boshlanadi. Bolaning sog‘lom bo‘lib voyaga yetishi, iqtidori va qobilyatini namoyon eta olishi orqali jamiatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun unga beriladigan tarbiya o‘ta muhim omil hisoblanadi. Demak bolalarimizni dunyo bilan tanitishimiz uchun ularni sport bilan oshno qilishimiz lozim.

Shunday qilib, shaxsda “... bebaho boylik bo‘lgan o‘z sog‘lig‘ini saqlashga to‘g‘ri va mas’uliyatli munosabatda bo‘lish, sog‘lom turmush tarzini olib borish, o‘z hayot faoliyatini oqilona tashkil qilish, zararli odatlardan voz kechish, sog‘lom bo‘lishga, jismoniy va ruhiy jihatdan uyg‘un kamol topishga yo‘naltirilgan hayotiy falsafani shakllantirish” o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonining muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Саидов А. Оилада ёшларнинг соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурлари шаклланишининг илмий-методологик асослари //Involta Scientific Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 58-60.

2. Саидов А. И. Баркамол авлодни тарбиялаш-соғлом турмуш тарзи психологиясини шакллантириш омили сифатида //Psixologiya Учредители: Бухарский государственный университет. – №. 3. – С. 77-81.

3. Саидов А. И. Оилада соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг психологик жиҳатлари: Саидов Азамат Исмоилович, Самарқанд давлат чет тиллар институти “Педагогика ва психология” кафедраси мудири, педагогика фанлари номзоди, доцент //Образование и инноватsионные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 6. – С. 367-372.

4. Саидов А. И. Ёшларни оилавий ҳаёт ҳақидаги тасаввурларини шакллантиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Саидов Азамат Исмоилович. Самарқанд давлат чет тиллари институти “Магистратура бўлими бошлиғи”, Психология фанлари доктори (DSc), доцент //Образование и инноватsионные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 11. – С. 320-323.

5. Saidov A. et al. Socio-psychological factors of the problem of forming young people's ideas about a healthy lifestyle in the family //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 1621-1625.

6. Saidov A., Saydullaev J. Socio-psychological significance of education in uzbek families //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 1649-1654.

7. Ismailovich S. A. Medical and Psychological Issues of the Formation of Young People's Ideas about A Healthy Lifestyle in the Family //Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology. – 2023. – Т. 44. – №. 4. – С. 4270-4275.

Ernazarova Rano
Qarshi davlat universiteti psixologiya kafedrasi katta
o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TALABALARDA STRESS HOLATINI YUZAGA KELTIRUVCHI ASOSIY OMILLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarida o‘quv jarayonida stress holatini yuzaga keltiruvchi asosiy omillar va ularni bartaraf etish yo‘llari o‘rganilgan. Unda talabalik davrida uchraydigan stress holatlari, ularning ta’sirida talabalarda salbiy emotsional holatlar yuz berishi va bular o‘quv jarayonida faollikning pasayishiga ta’sir qilishi muallif tomonidan ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, talaba, o‘quv faoliyati, stress, zo‘riqish, xulq-atvor, axloqiy meyor, psixik barqarorlik, psixologik savodxonlik.*

MAIN FACTORS CAUSING STRESS IN STUDENTS AND WAYS TO ELIMINATE THEM

Annotation. *The article discusses the main factors that cause stress in students of higher education institutions and ways to eliminate them. In it, the author scientifically substantiates the stressful situations that arise during the student period, the negative emotional states that arise in students as a result of their influence, and the fact that they affect the decrease in activity in the educational process.*

Key words: *personality, student, educational activity, stress, tension, behavior, moral standard, mental stability, psychological literacy.*

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ ВЫЗЫВАЮЩИЕ СТРЕСС У СТУДЕНТОВ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются основные факторы, вызывающие стресс у студентов высших учебных заведений, и пути их устранения. В ней автором научно обоснованы стрессовые ситуации, возникающие в студенческий период, негативные эмоциональные состояния, возникающие у студентов вследствие их воздействия, и то, что они влияют на снижение активности в учебном процессе.*

Ключевые слова: *личность, студент, учебная деятельность, стресс, напряжение, поведение, моральный стандарт, психическая устойчивость, психологическая грамотность.*

Kirish (Introduction). Bugungi globallashuv davrida har bio shhaxs hayotda turli muammoli vaziyatlarga, murakkab holatlarga duch kelishi hech kimga sir emas. Paydo bo‘lgan muammoli vaziyat stress yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi hamda uning haddan ziyod ortib ketishi salomatlikning buzilishi va psixik barqarorlikning izdan chiqishiga olib keladi. Shuning uchun ham keyingi yillarda mutaxassislar tomonidan inson nafaqat jismoniy salomatlik, balki ruhan salomatlikka erishishi, o‘z psixikasini har xil zo‘riqishlardan asrashi lozimligi ko‘p bora qayd etilmoqda. Kishi ruhan sog‘lom bo‘lishi uchun uning o‘z ruhiyatini asrash yo‘lida amalga oshiradigan ishlari nazarda tutiladi, buning uchun esa shaxsdan ma’lum ma’noda psixologik bilim va savodxonlikka ega bo‘lish talab etiladi. Ayniqsa, bugungi kunda jahonda stress holati tufayli inson psixikasida zo‘riqishlarning yuzaga kelishi, salomatligiga hamda hayoti-faoliyatiga ziyon yetkazishiga sabab bo‘layotganligi hech kimga sir emas.

Mutaxassislarning fikricha, har qanday shaxs o‘z hayot yo‘lida ko‘plab marotaba stress va frustratsiya kabi salbiy psixologik holatlarga duch keladi va bu tabiiy holat hisoblanadi. Biroq bu o‘rinda asosiy muammo shaxsning stressga qarshi kurasha olishi, uni yengib o‘z izmiga solishi hisoblanadi. Ming afsuski, aksariyat kishilar bunday holatlardan chiqib keta

olish yuzasidan psixologik bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lmaganligi tufayli o‘z ruhiyatini salbiy ta’sirlardan asray olmaydi. Aynan shunday ko‘nikma va malakalar tarkibiga kishining optimistik kayfiyati yoki optimistik xarakter xislatlariga ega bo‘lishi, hech bo‘lmaganda shu kabi ko‘nikmalarni o‘zida shakllantirishi lozimligini alohida qayd etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aks holda kuchli stress insonlarning jismoniy va aqliy qobiliyatiga salbiy ta’sir etib, ularning ichkilik, tamaki va boshqa zararli illatlarga bog‘liqlikni yuzaga keltirada. Shuning uchun ham bugungi kunda shaxsni, uning bir qismi bo‘lgan talaba yoshlarni ta’lim olish jarayonida yuzaga keladigan stressga qarshi kurashish xulqini shakllantirish kunning dolzarb muammolaridan biriga aylantiradi, ulardagi psixologik stress holatinining dinamik o‘zgarishini ilmiy tadqiq etish masalasini dolzarblashtiradi.

Shuning uchun ham yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarning nafaqat o‘z mutaxassisligi doirasida bilim olishiga, balki ularning salomatligi masalasiga ham katta e’tibor qaratilayotganligi tahsinga loyiqdir. Talabalar o‘quv faoliyatida stresslar salbiy ta’sirining oldini olish muhim ekanligi bois, stressga barqarorlikni ta’minlash uchun ularda o‘ziga baho berish darajasini meyorlashtirish va frustratsion tolerantlikni shakllantirishga urg‘u berilmoqda. Shu bilan birga stress holati yuzaga kelishining oldini olishda ota-onalar va bolalar o‘rtasida muloqotning ko‘lamini oshirish, oila a’zolari o‘rtasida fikr erkinligini ta’minlash, yoshlarni destruktiv g‘oyalar ta’siridan himoyalash, stresslarni boshqarish kompetensiyasi va kazusli vaziyatlarda psixologik himoyani faollashtirish amaliyoti qo‘llanilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature reviyew). Stress borasida xorijiy psixolog olimlar tomonidan bir qator ilmiy yondashuvlar ishlab chiqildi. Masalan, stressning integrativ modelida shaxsga qo‘yiladigan ichki va tashqi talablarni, bu talablarning jiddiyligini va o‘z resurslarining adekvatligini baholash va qo‘yilgan talablarni yengish variantlarini tanlashda stressli reaksiya kiritiladi. Genetik-konstitusion nazariyasi organizmning stressga qarshilik ko‘rsatish imkoniyati ayni holatdan holi ravishda oldindan belgilangan himoya strategiyasi funksiyasiga bog‘liq. J. Fuller va V.R. Tompson tadqiqotlarida stress genotip va stressga qarshilik ko‘rsatishning individual imkoniyatini pasaytiruvchi ba’zi jismoniy xususiyatlar bilan aloqa o‘rnatish uchun urinish hisoblanadi. Stressga moyillik modelida, P.A. Parsons fikriga asosan, stress irsiy va tashqi omillarning o‘zaro ta’siri natijasiga asoslanadi. Bosim reaksiyasi kuchayishida moyillik omillari va kutilmagan, kuchli ta’sirlarning o‘zaro birgalikdagi ta’siriga imkon beradi. Stressning interditsiplinar modeli mualliflari X. Basovitz, X. Perski, Sh. Korchin, R. Ginkerlar fikriga asosan, stress individda xavotirni uyg‘otuvchi stimullar ta’siri ostida paydo bo‘ladi va fiziologik, psixologik, xulq-atvor, patologik reaksiyalar yuz berishiga olib keladi, ammo ba’zi hollarda organizm funksiyasining yuqori darajasiga olib kelishi ifodalanadi.

O.V. Lozgacheva talabalar kasbiy kamoloti bosqichida stressga barqarorlikni shakllantirish borasida tadqiqot olib borgan. Tadqiqotda qo‘llanilgan faktorli tahlil natjalariga asosan, stressga barqarorlik darajasi muvaffaqiyatga erishish motivatsiya (r= 0,915), ichki lokus nazorat (r=0,932), o‘zini va boshqalarni qabul qilish adekvat darajasi, muloqot kompetentligi, adekvat axloqiy meyor, psixik barqarorlik va emotsional qulaylik xususiyatlariga bog‘liqlik kuzatilgan. Shu bilan birga tahlil natijasida talabalarda stress barqarorligiga shaxsiy va reaktiv xavotir, yuqori ijtimoiy xohish, o‘zini past baholash, muvaffaqiyatsizlikdan qochish, muloqot malakalarining past darajada rivojlanganligi salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Keltirilgan xususiyatlar kasbiy ahamiyatli sifatlar rivojlanish darajasini o‘zini o‘zi baholashga bevosita ta’sir etib, kasbiy sifat va fazilatlar rivojlanmay qolishiga sabab bo‘ladi [5; 13]. Yuqoridagi ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, muallif tomonidan taqdim etilgan konsepsiyasida stressga barqarorlik deganda, insonning hayotiy jarayonidagi ekstremal yoki kumulyativ tashqi va ichki omillar ta’siriga zaruriy moslashish darajasi bilan tavsiflanadigan insonning murakkab sifati, bu resurslarning faollashuvi darajasi organizm va

shaxs psixikasi va uning funksional holati va faoliyatda ishlash ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘lishi nazarga tutiladi.

Y.V.Sapyorova imtihon stressi sharoitida talabalarning individual psixologik xususiyatlarining o‘ziga xosligini o‘rganadi. Tadqiqotda qo‘llanilgan yurak ritmi o‘zgarishi natijalari tahliliga asosan, imtihonni kutish vaziyatida yuqori shaxsiy xavotir darajasiga ega talabalar meyoriy shaxsiy xavotir darajasiga ega talabalar bilan taqqoslanganda yuqori tebranish kuchi, standart og‘ishi, quyi tebranishi pasayishi hamda teskari ravishda amplituda va bosim ko‘rsatkichi ortishi aniqlangan. Ushbu farq imtihon stressi davrida namoyon bo‘lib, xotirjam holatda statistik ma’noga ega emas. Barcha fiziologik ko‘rsatkichlar “yaxshi” baho olishni rejalashtirgan talabalarda o‘zgargan [6; 12]. Bizning fikrimizcha, yoshlar bilishi kerak bo‘lgan muhim haqiqatlardan biri ular imtihon paytida his qilgan stressning tabiiy holat ekanligidir. Imtihon stressini butkul yo‘qotishning iloji yo‘qligi, hayajonlanish (stress) aslida muvaffaqiyatga qo‘yiladigan qadamlardan biri ekanligini har bir talaba bilishi kerak. Tabiiyki, imtihonga kirgan va kiradigan insonlar bu hayajonni boshdan kechirganlar va kechiradilar. Imtihon hayajoni yoki qayg‘usi yoshlar o‘ylaganidek zararli hissiyot emas, aksincha, his qilish kerak bo‘lgan foydali bir tuyg‘udir.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bizning ilmiy tadqiqot ishimiz yuqoridagi mualliflarning izlanishlaridan biroz farq qilib, oliy ta’lim muassasalari birinchi kurs talabalarida stress holatini yuzaga keltiruvchi asosiy omillarni o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan “Talabalik davri stress omillari” nomli anketa so‘rovnomasi diagnostika jarayonida qo‘llanildi va talabalarda stressni yuzaga keltiruvchi 17 ta asosiy omillar aniqlandi. Ushbu omillar talabalik davriga xos quyidagi muammolarni namoyon etadi: yangi muhitga moslashish muammolari; o‘qishga jiddiy munosabat; katta o‘quv yuklamasi; qattiqqo‘l o‘qituvchilar; o‘quv adabiyotlari muammosi; topshiriqlarni bajara olmaslik; imtihon oldi xavotir; guruhdagi nizo; kunlik faoliyatni rejalash muammosi; oiladan uzoqda yashash; talabalar bilan yashash muammolari; noto‘g‘ri ovqatlanish; o‘qishga qatnash muammolari; moliyaviy muammolar; shaxsiy hayot muammolari; o‘qishni xohlamaslik; kelajakdan xavotir. Birinchi kurs talabalarida stressni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar diagnostik natijalari 1-jadvalda keltirilgan.


1- jadval

Talabalarda stressni yuzaga keltiruvchi omillar (1-kurs) n=112 / TG n=67 / NG n=45

	TG								NG							
	Qash vil	%	Sam vil	%	Jiz vil	%	jami vil	%	Qash Vil	%	Sam vil	%	Jiz vil	%	jami vil	%
yangi muhitga moslashish	18	78,3	19	76,0	16	84,2	53	79,1	11	68,8	12	75,0	11	84,6	34	75,6
o‘qishga jiddiy munosabat	20	87,0	22	88,0	15	78,9	57	85,1	13	81,3	14	87,5	10	76,9	37	82,2
katta o‘quv yuklamasi	4	17,4	2	8,0	3	15,8	9	13,4	2	12,5	1	6,3	2	15,4	5	11,1
qattiqqo‘l o‘qituvchilar	3	13,0	4	16,0	2	10,5	9	13,4	1	6,3		0,0	1	7,7	2	4,4
o‘quv adabiyotlari muammosi	2	8,7	3	12,0	2	10,5	7	10,4		0,0	1	6,3		0,0	1	2,2
topshiriqlarni bajara olmaslik	16	69,6	17	68,0	13	68,4	46	68,7	11	68,8	12	75,0	9	69,2	32	71,1
imtihon oldi xavotir	19	82,6	21	84,0	16	84,2	56	83,6	14	87,5	13	81,3	11	84,6	38	84,4
guruhdagi nizo	13	56,5	15	60,0	12	63,2	40	59,7	10	62,5	9	56,3	9	69,2	28	62,2

kunlik faoliyat rejasi	15	65,2	14	56,0	12	63,2	41	61,2	9	56,3	9	56,3	8	61,5	26	57,8
oiladan uzoqda yashash	12	52,2	13	52,0	11	57,9	36	53,7	8	50,0	8	50,0	6	46,2	22	48,9
talabalar bilan yashash muammosi	7	30,4	8	32,0	6	31,6	21	31,3	3	18,8	4	25,0	3	23,1	10	22,2
noto‘g‘ri ovqatlanish	9	39,1	7	28,0	6	31,6	22	32,8	4	25,0	3	18,8	3	23,1	10	22,2
o‘qishga qatnash muammolari	8	34,8	9	36,0	5	26,3	22	32,8	2	12,5	3	18,8	2	15,4	7	15,6
moliyaviy muammolar	7	30,4	6	24,0	4	21,1	17	25,4	2	12,5	1	6,3	1	7,7	4	8,9
shaxsiy hayot muammolari	8	34,8	7	28,0	4	21,1	19	28,4	4	25,0	3	18,8	2	15,4	9	20,0
o‘qishni xohlamaslik	3	13,0	4	16,0	2	10,5	9	13,4		0,0	1	6,3		0,0	1	2,2
kelajakdan xavotir	3	13,0	4	16,0	1	5,3	8	11,9	2	12,5	1	6,3		0,0	3	6,7

Birinchi kurs talabalarida stressni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar diagnostik natijalari 1-rasmda diagramma shaklida keltirilgan.



1-rasm. Talabalarda stressni yuzaga keltiruvchi omillar (1-kurs)

Jadvalda keltirilgan talabalarda stressni yuzaga keltiruvchi omillar diagnostikasi natijalari tahliliga asosan quyidagi muammolar 1-kurs talabalarida stressni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar hisoblanadi:

Yangi muhitga moslashish muammolari omili: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 78,3%; Samarqand viloyatida 76,0%; Jizzax viloyatida 84,2%; Hududlar bo‘yicha 79,1% namoyon bo‘lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 68,8%; Samarqand viloyatida 75,0%; Jizzax viloyatida 84,6%; Hududlar bo‘yicha 75,6% namoyon bo‘lgan.

O‘qishga jiddiy munosabat omili: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 87,0%; Samarqand viloyatida 88,0%; Jizzax viloyatida 78,9%; Hududlar bo‘yicha 85,1% namoyon bo‘lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 81,3%; Samarqand viloyatida 87,5%; Jizzax viloyatida 76,9%; Hududlar bo‘yicha 82,2% namoyon bo‘lgan.

Topshiriqlarni bajara olmaslik bilan bog‘liq muammolar: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 69,6%; Samarqand viloyatida 68,0%; Jizzax viloyatida 68,4%; Hududlar bo‘yicha 68,7% namoyon bo‘lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 68,8%; Samarqand viloyatida 75,0%; Jizzax viloyatida 69,2%; Hududlar bo‘yicha 71,1% namoyon bo‘lgan.

Imtihon oldi xavotir: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 82,6%; Samarqand viloyatida 84,0%; Jizzax viloyatida 84,2%; Hududlar bo‘yicha 83,6% namoyon bo‘lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 87,5%; Samarqand viloyatida 81,3%; Jizzax viloyatida 84,6%; Hududlar bo‘yicha 84,4% namoyon bo‘lgan.

Guruhdagi nizo omili: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 56,5%; Samarqand viloyatida 60,0%; Jizzax viloyatida 63,2%; Hududlar bo‘yicha 59,7% namoyon bo‘lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 62,5%; Samarqand viloyatida 56,3%; Jizzax viloyatida 69,2%; Hududlar bo‘yicha 62,2% namoyon bo‘lgan.

Kunlik faoliyatni rejalash muammosi: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 65,2%; Samarqand viloyatida 56,0%; Jizzax viloyatida 63,2%; Hududlar bo‘yicha 61,2% namoyon bo‘lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 56,3%; Samarqand viloyatida 56,3%; Jizzax viloyatida 61,5%; Hududlar bo‘yicha 57,8% namoyon bo‘lgan.

Oiladan uzoqda yashash: TG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 52,2%; Samarqand viloyatida 52,0%; Jizzax viloyatida 57,9%; Hududlar bo‘yicha 53,7% namoyon bo‘lgan. NG ishtirokchilari Qashqadaryo viloyatida 50,0%; Samarqand viloyatida 50,0%; Jizzax viloyatida 46,2%; Hududlar bo‘yicha 48,9% namoyon bo‘lgan.

Xulosa (Conclusion). Birinchi kurs talabalarida stress holatini yuzaga keltiruvchi bir qator omillar mavjud bo‘lib, ushbu omillar asosan talabalarning yangi muhitga qo‘shilganligi va moslashish jarayonida ekanligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga talabalarda o‘quv jarayoni bilan bog‘liq, xususan imtihon oldi xavotir, uyga vazifalar, o‘qishga jiddiy munosbat omili aniqlangan. Biz kelgan xulosalarimizga asosan quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari suramiz:

1. Talabalar o‘quv faoliyatida stresslarning yuzaga kelishi va ortib ketishi ularning darslarni o‘zlashtirishiga salbiy ta’sir etishini inobatga olib, ular uchun psixologik maslahatlarni tashkil etish maqsadlidir.

2. Talabalarga ta’sir etuvchi stress omillarni aniqlash, salbiy ta’sirini kamaytirish, stressga moyillik darajasini aniqlash va me’yorlashtirish maqsadida jismoniy mashqlar, stresslarni boshqarish uchun ijtimoiy ko‘mak berish, meditatsiya, autotrening, relaksatsiya usulini qo‘llash maqsadga muvofiq.

3. Talabalarning stress holatidagi hissiyot, faollik, kayfiyatini me’yorlashtirishda vizuallashtirish, biblioterapiya, rasm terapiyasini qo‘llash lozim.

4. Talabalarning stressga barqarorlik darajasini oshirishga qaratilgan psixologik treninglarni amaliyotda qo‘llash zarur.

5. Talabalarning koping-strategiyalarini korreksiyalash va muammoni yechishga intilish strategiyasini shakllantirishda ma’naviy tadbirlar, musobaqalar, ratsional psixoterapiya ijobiy samarali ekanligini inobatga olish kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Андреева А.А Стрессоустоичивость как фактор развития позитивного отношения к учебной деятельности у студентов.дисс. канд. психол. наук. афтореф.: 19.00.07–Тамбов, 2009.

2. Авилов О.В., Галиулина К.Ю. Основные причины эмоционального стресса у студентовмедиков и определение подходов к его коррекции. Журнал: “Вестник психофизиологии”, №4. 2019.

3. Boymirzayeva D.D. Oliy o‘quv yurtlari talabalarida frustratsiyaning namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disser. avtoref.: 19.00.05. -T.: 2021.

4. Ismoilova N.Z. Talabalarda stressga barqarorlikni oshirishning psixologik determinantlari. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disser. avtoref.: 19.00.06. – T.: 2020.

5. Лозгачева О.В. Формирование стрессоустойчивости на этапе профессионализации (на примере юридического Вуза). дисс. канд. психол. наук. автореф.: 19.00.13 – Казан, 2013.

6. Сапёрова Е.В. Изучение функционирования сердечнососудистой системы студентов в условиях экзаменационного стресса с учетом индивидуальных психологических и биологических особенностей. авторефер. дисс. канд. биол. наук.: 03.00.13 – Чебоксары, 2008.

Abdinazarova Nilufar Eshnazarovna
Qarshi davlat universiteti psixologiya kafedrasi katta
o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“MEHRIBONLIK” UYI VA OILAVIY BOLALAR UYLARI TARBIYALANUVCHILARI XULQ-ATVORI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Maqolada “Mehribonlik” uyi va oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanayotgan bolalarda xulq-atvor shakllanishining psixologik mexanizmlari o‘rganilgan. Unda mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so‘z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar xulq-atvori shakllanishi muammosini o‘rganish bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, oila, mehribonlik uyi, oilaviy bolalar uyi, bolalar shaharchasi, bolalar mahallari, tarbiyalanuvchi, shaxs, ota-ona, xulq-atvor, ijtimoiylashuv.*

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR FORMING BEHAVIOR OF TEACHERS OF CHARITY HOUSES AND FAMILY CHILDREN'S HOMES

Annotation. *The article examines the psychological mechanisms of formation of the behavior of children brought up in compassionate homes and family orphanages. The theoretical and practical aspects of this problem are described, as well as the scientific research carried out by scientists in this direction. Research conducted by the author shows that the study of the problem of shaping the behavior of orphans and children deprived of parental care remains very relevant today.*

Key words: *society, family, home of mercy, family orphanage, children's town, children's neighborhood, pupil, personality, parents, behavior, socialization.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПОВЕДЕНИЯ ВОСПИТАТЕЛЕЙ ДОМА МИЛОСЕРДИЯ И СЕМЕЙНЫХ ДЕТСКИХ ДОМОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются психологические механизмы формирования поведения детей, воспитывающихся в дома милосердия и семейных детских домах. Рассказывается о теоретических и практических аспектах этой проблемы, о научных исследованиях, проводимых учеными в этом направлении. Исследования, проведенные автором, показывают, что изучение проблемы формирования поведения детей-сирот и детей лишенных родительской опеки, остается весьма актуальным и сегодня.*

Ключевые слова: *общество, семья, дом милосердия, семейный детский дом, детский городок, детский микрорайон, воспитанник, личность, родители, поведение, социализация.*

Kirish. Bolalik inson hayotining eng beg‘ubor davri, eng ajoyib va go‘zal vaqti, uning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Aynan mana shu davrda bo‘lajak shaxs jamiyat bilan to‘laqonli munosabatda bo‘lishga tayyorgarlik ko‘radi va o‘zining iste’dodi, ijodiy va aqliy salohiyatini ochish uchun poydevor yaratadi. Shuning uchun ham mustaqillikdan so‘ng mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilib, jismonan sog‘lom va ma’nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilandi va u davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ayniqsa, mamlakatimizda ijtimoiy yetimlikning oldini olish, aholi va yoshlar orasida sog‘lom oila qurishga ma’suliyat bilan yondashishni targ‘ib qilish, oilaviy qadriyatlarga ma’naviy-axloqiy munosabatni shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligi diqqatga sazovordir. Xuddi shu boisdan mamlakatimizda bunday

toifadagi bolalarni tarbiyalashning, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimi joriy etilgan bo‘lib, u yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning muammolarini o‘rganish va hal etish, orzu-istaklarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, ularning ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lishi sabablarini chuqur o‘rganish hamda aniqlangan muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini o‘z ichiga oldi.

Bugungi kunda yangi O‘zbekistonda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashning huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi, ayniqsa yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta’minlash, ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash, ishga joylashtirish va bandligini ta’minlash, ular tarbiyalanayotgan oilalarni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tartibi takomillashtirildi. Qolaversa, “Mehribonlik uyi”, Bolalar shaharchasi, bolalar mahallalari va oilaviy bolalar uylari bitiruvchilari bo‘lgan chin yetimlar, shuningdek, yigirma besh yoshgacha bo‘lgan vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan yetim bolalar uchun oliy ta’lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy sonidan qo‘shimcha ravishda bir foizgacha davlat granti asosidagi qabul kvotalari belgilandi.

Ayniqsa, hukumat tomonidan 2023-2030-yillarga mo‘ljallangan ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni joylashtirish tizimini deinstitutsionalizatsiya qilish milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida dastur qabul qilinganligi muhim voqea bo‘lib, unda ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari sonini qisqartirish, bolalarni oilalarga qaytarish, shuningdek, “Mehribonlik” uylari faoliyatini bosqichma-bosqich bolalar shaharchasiga va ijtimoiy muassasalarning boshqa muqobil shakllariga o‘tkazish, yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar uchun yangi oilaviy namunadagi mehribonlik uylarini ochish kabi muhim vazifalar belgilanganligi tahsinga loyiqdir. Shuningdek, mamlakatimizda oilaviy bolalar uylarining barpo etilayotganligi, uning asosiy vazifalari sifatida tarbiyalanuvchi bolalarni o‘qitish, sog‘lomlashtirish, aqliy, psixologik jismoniy rivojlantirish va tarbiyalash; tarbiyalanuvchi bolalarni ijtimoiy moslashtirish va muhofaza qilish; tarbiyalanuvchi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash; tarbiyalanuvchi bolalarda mehnat qilish, maishiy-xo‘jalik, ro‘zg‘or yuritish bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni kasb tanlashi uchun shart-sharoitlar yaratish orqali mustaqil hayotga tayyorlash kabilar vazifalar qo‘yilayotganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil etish qator olimlar va izlanuvchilarning tadqiqot obekti sifatida o‘rganilgan. Muammoning psixologik, pedagogik va ijtimoiy muammolari E.G‘.G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Sh.R.Barotov, B.R.Qodirov, Z.T.Nishonova, N.S.Safayev, D.G.Muhamedova, R.S.Samarov, B.M.Umarov, D.SH. Barotova, G. To‘laganova, F.F.Rasulova, U.D.Qodirov, B. Xodjayev, G. Yusupova, M.Utepberganov, M. Bekmurodov, O. Musurmonova, , G. Xrulsova, E. To‘xtamurodov, N. Egamberdiyeva, D. Madjidova, M. Yaxyayeva va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. MDH mamlakatlarida esa ota-ona qaramog‘isiz qolgan va maxsus bolalar tarbiya muassasalarida tarbiyalangan bolalarning ijtimoiy hayotga moslashish xususiyatlariga oid masalalar A.P.Agarkova, G.M.Andreyeva, L.I.Bojovich, D.A.Boykova, I.F.Dementiyeva, I.V.Dubrovin, O.V.Zavodilkina, N.P.Ivanova, D.N.Isayeva, A.I.Lipkina, M.I.Lisina, A.S.Makarenko, V.S.Muxina, I.B.Nazarova, Sh.A.Nadirashvili, A.Y.Nesterov, L.Y.Olifrenko, V.N.Oslon, A.X.Pashina, A.M.Prixojan, YE.A.Strebeleva, N.N.Tolstix, A.M.Sherbakova, L.M.Shipitsina, V.R.Shmidt, T.I.Shulga, D.B.Elkonin va boshqalar tomonidan ochib berilgan.

I.O. Xaydarovning ilmiy izlanishlarida “Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar shaxsning individual va ijtimoiy psixologik xususiyatlari” tadqiq etilganligini ko‘ramiz. Muallif tadqiqotlarida mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bolalar hayoti, yashash sharoitlari, turmush tarzining o‘ziga xosligi – ularning individual psixologik va ijtimoiy xususiyatlari: xarakter xislatlari, ma’naviy-ahloqiy jabhasi, hissiy-emotsional va irodaviy holatlariga ularning yashash

sharoitiga ijtimoiy muhit o‘z ta’sirini ko‘rsatishi asoslab berilgan. Ularda psixik rivojlanish qonunyatlarini hisobga olmaslik va tarbiyaviy sharoitlarning yetarli emasligi tarbiyalanuvchilarda tajovuzkorlik, ishonchsizlik, o‘zini chetga olish, mustaqillikning yetishmasligi, beg‘amlik va har qancha salbiy hislatlar ularning xarakteridan chuqur o‘rin olishi ko‘rsatib o‘tilgan. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari oilada tarbiyalanayotgan tengdoshlaridan ahloqiy meyorlarga xos bilimlarni egallashida ham keskin farq qilishini ta’kidlaydi. Tarbiyalanuvchilar faqatgina Mehribonlik uyida zaruriy hisoblangan ahloqiy meyorlar bilan chegaralanib qolishi kuzatilgan. Katta oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning yetishmasligi, bu haqidagi bilimlarning yo‘qligi kelajakda mustaqil oilaviy hayotga yoki oila qurishga bir muncha qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi muqarrarligi ko‘rsatib o‘tilgan [7; 6-b].


D.I. Saidova “Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida qadriyatlar tizimini shakllantirish texnologiyasi” mavzusida ilmiy izlanishlar olib borib quyidagi yangiliklarni ilgari surgan: mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida qadriyatlar tizimini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar aksiologik dunyoqarashni rivojlantirish komponentlar (ong, munosabat, ustanovka va oriyentatsiya) birligini va bevosita aloqadorligini empirik aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan; tarbiyalanuvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirish modeli komponentlarini ijtimoiylashuvning mikroomillar (shaxsiy sifatlar, maktab va mehribonlik uylarining pedagogik jamoasi, sotsium) bilan ichki integratsiyasini ta’minlash asosida takomillashtirilgan; mehribonlik uylarida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish, tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish mexanizmini samarali muloqot va integratsiya birligi asosida takomillashtirishda ijtimoiy institutlarning ta’sir darajasi barqarorligini ta’minlashga doir ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan [3; 7-b].

Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalari. Bizning ilmiy izlanishlarimiz yuqorida keltirilgan olimlarning tadqiqotlaridan biroz farq qilib, asosan ilmiy tadqiqot ishimizda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida ijobiy xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Shu maqsadda tajriba-sinov ishlarida ota-onasi mavjud bo‘lgan 67 nafar sinaluvchilar, SOS-bolalar mahallasi tarbiyalanuvchilaridan iborat 63 nafar sinaluvchilar, mehribonlik uyida tarbilanayotgan 87 nafar sinaluvchilar jalb etildi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish, tadqiqot natijalari uchun hamda ularning o‘z shaxsiyatlari va xulq-atvori to‘g‘risida qo‘shimcha ma’lumot olish maqsadida Syuzen Delingerning psixogeometrik testidan foydalanildi. Ushbu psixogeometrik test yordamida shaxsning xususiyatlari, fikrlash qobiliyati va xulq-atvori to‘g‘risida ishonchliligi yuqori bo‘lgan natijalarni olish mumkin.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, 20-asrning 80-90 yillaridan buyon ushbu metodikalar A.A. Alekseyev hamda L.A. Gromovlar tomonidan Rossiyada qo‘llanib kelinmoqda. Metodika shaxs o‘zining individual faoliyati davomida boshqaruv uslubi, muloqotdagi nutqning farqlari, nizoli vaziyatlardagi xatti-harakatlari, odatiy xulq-atvorining salbiy va ijobiy jihatlari tahlilida keng imkoniyatlarni yaratishi bilan boshqa proyektiv metodikalardan tubdan farq qiladi. Testning ustun tomoni proyektivligi bo‘lib, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchila-rining ortiqcha fikrlashi bilan bir qatorda fiktiv natijalarni qayd qilishining oldini oladi. Metodika ko‘p vaqtni olmaydi va modiy anjomlarni talab qilmasligi bilan izlanuvchilarga juda qo‘l keladi. Psixigeometrik testda keltirilgan fuguralarni yoqtirish darajasiga ko‘ra, birinchi raqamdan to beshtagacha tanlab chizish yo‘riqnomasi tavsiya qilinadi. Salbiy xususiyatga ega bo‘lgan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining munosabatlari ushbu testda yaqqol namoyon bo‘ladi.


Test o‘tkazish uchun beshta geometrik shakllardan foydalaniladi. Ular quyidagilarni tashkil etadi: 1) Kvadrat; 2) Uchburchak; 3) Doira; 4) To‘g‘ri to‘rtburchak; 5) Siniq chiziq. Sinovdan o‘tkazayotgan shaxsga mazkur geometrik shakllardan o‘ziga yoqqanini ketma-ketlikda tanlashi lozimligi aytiladi. Sinov jarayonlari qisqa vaqt ichida, hech bir tayyorgarliksiz amalga oshiriladi. Birinchi tanlangan geometrik shakl shaxs xulq-atvorining asosiy xususiyatlarini ochib beradi. Qolganlari esa, yanada yaqqolroq namoyon bo‘lishi uchun xizmat qiladi.

Biz mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari ustida olib borgan tajriba-sinov ishlarida nazorat hamda tajriba guruhlarida ularning xulq-atvori ko‘rinishi hamda ijtimoiy muhitga moslashuvini o‘lchash maqsadida psixogeometrik shakllardan iborat bo‘lgan Delinger testidan foydalandik. Olingan natijalar tahlili quyidagicha ko‘rinishda qayd etildi:



1-rasm. TGda Delinger psixogeometrik test natijalari

Ushbu tajriba guruhi natijalari tahlili 29,3% ni to‘g‘ri to‘rtburchak, 25,2% ni doira, 25,3% ni kvadrat hamda 20,2% ni uchbarchak shakli tashkil etgan. Ishtirokchilarning shaxsiy xususiyatlari xulq-atvoriga ko‘ra, liderlik va raqobatlashish uchburchaklarga tegishli bo‘lib, ushbu guruhdagi sinaluvchilar nizolashuvchanlikka moyil emasligi hamda hissiy barqarorlik me’yoriy darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin. (1-rasm)



2-rasm. NGda Delinger psixogeometrik test natijalari

Ushbu nazorat guruhida to‘g‘ri to‘trburchak 25% ni tashkil etib, sinaluvchilarning xulq-atvorida o‘tish va o‘zgarish holatini aks ettiradi. Bu, aytish mumkinki, shaxsning vaqtinchalik shakli bo‘lib, qolgan to‘rtta nisbatan turg‘un shakllar hayotning ma’lum bir davrida bu shaklni

o‘ziga “kiyib” yurishi mumkin. Bular hozirgi hayotidan qoniqmayotgan bo‘lib, o‘zini yaxshi his qilish mumkin bo‘lgan muhitni qidirib yashashga moyil bo‘ladi.


Doira shakli 10,3% ni tashkil etishi aniqlandi. Ushbu shaxslar xulq-atvorida kommunikativ qobiliyati yaxshi rivojlangan bo‘lib, shaxslararo munosabatlarda qiyinchilik sezmaydi.

Kvadrat 20,2% ni tashkil etib, ushbu shaxslar mehnatsevarligi va tirishqoqligi bilan boshqa shaxslardan ajralib turadi.

Uchburchak 25,1% ni tashkil etib, ushbu sinaluvchilar liderlikka hamda nizolashuvchanlikka moyilllik darajasi yuqori hisoblanadi. Ushbu tipdagi shaxslar bilan psixologik xizmat olib borish kerak bo‘ladi.

Zigzak 20,2% ni tashkil etib, ushbu shaxslarda tafakkur kreativligi yuqori darajada takomillashganligi bilan boshqa shaxslardan farqlanadi. (2-rasm)

3-rasm. TGda Delinger psixogeometrik test natijalari



Tajriba guruhi sifatida tanlab olingan ushbu guruh sinaluvchilarining geometrik test natijalari tahlili quyidagi ko‘rinishda qayd etildi. To‘g‘ri to‘rtburchak 30% ni tashkil etishi aniqlandi.

Ushbu sinaluvchilar xulq-atvorida o‘ziga xos muammolar va chalkashliklar mavjud bo‘lib, parallel ravishda unda ichki tug‘yon oshib boradi va bu uning xulq-atvorida namoyon bo‘lmasdan qolmaydi.

Doira 15% ni tashkil etib, ularning kommunikativlik darajasi me’yorida ekanligini bildirib, yaxshigina tinglovchi hamdir.

Kvadrat 10% ni tashkil etib, ushbu sinaluvchilar har bir ishda aniqlik tarafdori hisoblanadi.

Uchburchak 20% ni tashkil etib, liderlik va boshqa shaxslar bilan nizolashuvchanlikka moyil shaxslar hisoblanadi. Ular hayotda aniq maqsadlar qo‘yib ularga erishish yo‘lida har narsaga tayyor shaxslardir.

Zigzak 25% ni tashkil etishi aniqlandi. Ushbu shaxslar kreativlik va ijodga intiluvchi shaxslardir. Ular bosh miya o‘ng yarim sharlarida fikrlovchi tip hisoblanadi (3-rasm).

Olingan natijalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, tajriba guruhi sifatida tanlab olingan sinaluvchilarning ko‘pchiligida ijtimoiylashuv jarayonida xulq-atvorning namoyon bo‘lishi metodika me’yoriy darajalaridan yuqori, ayrimlari past ko‘rinishda ekanligi aniqlandi.

Xulosa. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari xulq-atvori shakllanishi xususiyatlarini ota-onasi bor bo‘lgan bolalar xulq-atvor shakllanishi xususiyatlari bilan qiyoslaganda muayyan

darajadagi farqlarni kuzatish mumkin. Bunga bevosita ta'sir etuvchi bir qator omillar, jumladan, muloqotchanlikning past darajasi, emotsiyalarni boshqarish va nazorat qilishdagi beqarorlik, yuqori impulsivlik, nizolilik va dominantlikning yuqori darajasi, notinchlik, qo'llab-quvvatlash, yordamga muhtojlik va ta'sirchanlik, xavotirlanish, frustratsiyalashganlikning yuqori darajasi, kayfiyat tushkunligining ustuvorligi kabilarni alohida qayd etish mumkin. Xulq-atvor shakllanishida og'ishishlar bo'lgan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari o'z atrofiga ijtimoiy moslashishning past darajasi, kayfiyatning xavotirli-depressiv ko'rinishidagi ustuvorlik va agressiyaning ochiq namoyon qilinishi ko'proq kuzatilsa, ota-onasi mavjud bo'lgan bolalarda esa asosan o'z-o'zini adekvat idora qilishga intilish, yuzaga kelgan muammolar yechimini izlashdagi mas'ullik hissi yanada yaqqolroq ifodalanishi kuzatildi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Asqarova O'.M. "Mehribonlik uyi o'smirlarida milliy g'ururni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari". Aftoreferat ped. f.n. – T.: 2001, 48 b.
2. Madjidova D.A. "Tabaqalashgan yondashuv asosida Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini oila sharoitiga reintegratsiyasining ijtimoiy-pedagogik tizimini takomillashtirish". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Ch.: – 2019., 51b.
3. Saidova D.I. "Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida qadriyatlar tizimini shakllantirish texnologiyasi". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -T.: – 2020., 57 b.
4. Стребелевой Е.А. Дети-сироты: консультирование и диагностика развития Текст. /Под ред. Е.А. Стребелевой, -М.: Просвещение, 1998.- 350 с.
5. To'xtamurodov E. "Bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy va pedagogik asoslari". Aftoreferat ped. f.n. -T.: 1994, 48 b.
6. Yusupova G.R. "Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida tolerantlik fazilatlarini shakllantirish texnalogiyalari". Aftoreferat ped. f.n. –T.: 2011, 48 b.
7. Xaydarov I.O. "Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar shaxsning individual va ijtimoiy psixologik xususiyatlari". Aftoreferat psixol. f.n. –T.: 1996, 46 b.
8. Шкуратова И.П. Самопредъявление личности в общении: монография / И.П. Шкуратова. – Ростов н /Д: Изд-во ЮФУ, 2009. – 192 с.

Ravshanov Lochinbek Urinovich
O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy okrug huzuridagi “Ilmiy tadqiqot” ilmiy-amaliy va uslubiy markaz boshlig‘i, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, podpolkovnik

KOMANDIR KASBIY FAOLIYATIDA IMIJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola komandir kasbiy faoliyatida imijning ijtimoiy-psixologik jihatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, u mudofaa tizimidagi harbiy xizmatchilarning kasbiy, ilmiy, psixologik tayyorgarligi kabilarni tadqiq etishni nazarda tutadi. Maqola mazmunida harbiy xizmatchi imijining axloqiy, ma’naviy, emotsional, ijtimoiy-psixologik komponentlari ham konseptual asosda tahlil etilgan. Shuningdek, imijning komandir faoliyatidagi roli, harbiy rol, harbiy unvon, psixologik imij va shaxs tushunchalari ham ushbu tadqiqot mazmunidan chetda qolmagan.*

Kalit so‘zlar: *komandir, kasb, harbiy xizmatchi, harbiy qism, harbiy intizom, harbiy imij, imijeologiya, ijtimoiy-psixologik imij, harbiy rol, harbiy unvon, harbiy professional, harbiy psixolog, harbiy faoliyat, kasbiy fidoiylik.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБРАЗА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОМАНДИРА

Аннотация. *Данная статья посвящена социально-психологические аспекты имиджа в профессиональной деятельности командира, систему военнослужащих обороны включает в себя профессиональной, научной, психологической подготовки. Смысл статьи раскрывает концептуальные основы поведенческого, духовного, эмоционального, и социально-психологического компонентов имиджа военнослужащих. В связи с этим, роль имидж в деятельности военнослужащего, военная роль, военное звание, психологический имидж, и понятие личности также не осталось в стороне от исследования.*

Ключевые слова: *командир, профессия, военнослужащий, военная часть, военный устав, военный имидж, имиджеология, социально-психологический имидж,военная роль, военное звание, военный профессионал,военный психолог, военная деятельность, профессиональный патриотизм.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE IMAGE IN THE COMMANDER'S PROFESSIONAL ACTIVITY

Annotation. *This article is devoted to the socio-psychological aspects of the image in the professional activity of the commander, it includes the system of defense, professional, scientific, psychological preparation. The meaning of given article illustrates the conceptual foundations of behavioral, spiritual, emotional, and social-psychological components of image of military servants. That is why, the role of image in activity of military servants, military role, military rank, psychological image, as well as the notion of person also did not stay out of research.*

Key words: *Commander, profession, military servant, military part, military regulations, military image, social-psychological image, military role, military rank, military professional, military psychologist, military activity, professional patriotism.*

Yer yuzining turli mamlakatlarida sodir bo‘layotgan qurolli mojaro va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar davlatlar oldiga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Ana shunday g‘oyat mas’uliyatli vaziyatda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatlash hamda

himoya qilishda milliy armiyamizning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Davlatlar o‘z sarhadlari daxlsizligini, hududiy yaxlitligini, fuqarolarning tinchligini va osuda hayotini ishonchli himoya qilishga qodir, zamonaviy qurol-aslaha va texnika bilan ta’minlangan, o‘z kasbining yetuk mutaxassisi, harbiy professional va bugungi kun talablariga to‘liq javob beradigan, ekstremal vaziyatda vujudga keladigan har qanday qurolli to‘qnashuvlarni oldini oladigan harbiy kadrlarni tayyorlash – har bir davlatning buyuk kelajagini barpo etish yo‘lidagi eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmonida «...davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish» chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Bu esa, psixologiya sohasi mutaxassislarini Mudofaa vazirligi tizimidagi rahbar imijining ijtimoiy-psixologik konsepsiyasini yaratish hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha yangi yechimlar topishga undaydi.

Olib borilayotgan tadqiqotlar avvalo, nazariy va amaliy faoliyat jarayonlarida imijni shakllantirish muammosining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti bosqichlarini belgilashimiz muhim bo‘ladi. Bunda falsafa, psixologiya, pedagogika va mavzuga oid qator tadqiqot ishlaridagi mavjud manbalarni atroflicha tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, biz tadqiqotimizda imij fenomeni va uning ta’rifi, imijning psixologik komponentlari, uni shakllanish rivojida ijtimoiy-psixologik, sotsiologik, madaniy-tarixiy va ilmiy-nazariy asoslarini xronologik tizimda tahlil etishga harakat qilamiz.

Avvalambor, imijning paydo bo‘lishi, shakllanishi va taraqqiyoti tarixini nazariyotchi olim Y.V.Yakovlevning ilmiy qarashlariga asoslanib, shartli uch davrga ajratishimiz mumkin:

1) tarixiy davr (miloddan avvalgi 9-7 ming yillik-XVIII asr);

2) tizimlash (tartibga solish) davri (XVIII-XX asr o‘rtasi);

3) axborotlashgan davr (XX asr o‘rtasi-xozirgi vaqtgacha)[1].

Tadqiqotlarda qaysi vaqtda imijni yaratishga zaruriyat paydo bo‘lganini taxmin qilishning imkoni yo‘q. Aynan qaysi bir mamlakatda ilk bora unga ehtiyoj tug‘ilganini va uning asoschisi kim ekanligini aytish ham mushkul. Imijni shakllantirishning ibtidoiy ko‘rinishlarini dastlabki jamoaviylik tuzumi bosqichida paydo bo‘la boshlagan, degan farazni ilgari surishimiz mumkin. Imijelogiya zaruriyat sabab shakllantirilgan qiyofa va joziba yordamida insonlarni ishontirish, ta’sir o‘tkazish, ularning hayot tarzini o‘zgartirishga asoslanadi. Imij XX asrning favqulodda hodisasi, biroq uning tub ildizi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Jamoatchilik fikriga ta’sir etish vositasi sifatida hali ta’riflanmagan termin qadimgi zamonlardayoq faoliyatda mavjud bo‘lgan.

Imij fenomeni bo‘yicha dastlabki mutaxassis sifatida hukmdor Moiseyning yordamchisi ruhoniy Aaron (miloddan avvalgi 1445 yil) tomonidan e’tirof etiladi. Moiseyning duduqlanishi sababli uning o‘rniga xalq oldida Aaron gapirishga majbur bo‘lgan. Shu sabab ham uni xukmdorning og‘zi va bashoratchisi deb atashgan[2].

“Imij” tushunchasi asrlar davomida shakllanib, taraqqiy etib bordi. Antik davrning mashhur mutafakkiri Aristotelning (miloddan avvalgi 384-322 yillar) ta’biricha, auditoriyaning xayrixohligi va mayliga erishibgina, ularni ishontirish mumkin[3]. Qadimgi Rimning davlat va siyosiy arbobi, ajoyib notiq Sitseron (miloddan avvalgi 106-43 yillar) ommaning psixologiyasi, qiziqishlari va didini o‘rganish muhim ekanligiga urg‘u bergan. Uning fikricha, notiqning vazifasi tinglovchilarni estetik ko‘nglini olish, ularning axloqi va irodasiga ta’sir o‘tkazishdir. Siyosiy arbob va sarkarda Yu.Sezar (miloddan avvalgi 102-44 yillar) ommaga ta’sir ko‘rsatuvchi yorqin mahorat egasi edi. U harbiy janglar oldidan o‘z murojaatlari va sahna ko‘rinishlari yordamida xalqning qo‘llab-quvvatlashiga erishgan.

Insoniyat tarixi shuni isbotlaydiki, imijni shakllantirish asrlar davomida o‘z samarasini berib kelayotgan turli xil usul, uslub va omillarni o‘z ichiga qamrab oladi. Notiqlik mahoratidan tashqari ramzlar, imijning har xil atributlari (kiyim, hidlar, bezak, imo-ishora,

mimika va boshqalar). Tarixiy manbalarga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, jamoatchilikka ta'sir etish asoslari janglarga tayyorgarlik ko'rish, siyosiy saylovlar jarayonida, mahsulotni savdoga olib chiqish, mablag' yig'ish, odamlar va hodisalarni ommalashtirishda keng qo'llanilgan.

Siyosatshunos olim N.Makiavelli (1469-1527 yillar) imijning ilk nazariyachilardan biri hisoblanib, yuqori darajadagi "imij tuyg'usi" yoki yuksak "imij tafakkuri" unga xos bo'lgan. Bunday tafakkurning ahamiyatli tomoni shaxslararo makonda mulohaza qilish va ta'sir ko'rsatish, atrofdagilarning harakatini taxmin qilish, odamlar bilan iliq munosabatlarni o'rnatishni uddalashdan iborat edi[4].

Bu davrda imijmeyking professional faoliyat turi sifatida qonunlar, qadriyatlar va jamiyatning ehtiyoji bilan o'zaro bog'liqligi, shuningdek, imijni idrok qilishga tayyorgarlik orqali paydo bo'ldi. Bu faoliyat AQSHda professional soha tariqasida shakllantirilib, rasmiylashtirildi.

"Imij" tushunchasi XX asr boshida AQSHda paydo bo'lgan. Bu davrda mamlakatda yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz oqibatida jamiyatda mamlakat obrazi salbiy ko'rinishga ega bo'lib borishi uning xalqaro maydondagi biznes harakatiga halaqit bera boshlaydi. Dastlabki "Imijmeyker"larga dunyo madaniyatini zabt etish va jahonda andoza bo'la oladigan mamlakatning ijobiy imijini yaratish vazifasi yuklatiladi. Mamlakat prezidenti va birinchi xonimining imij andozasi ishlab chiqilgan. Ayni shu paytlarda "amerikacha hayot tarzi" tushunchasining paydo bo'lishi, imijmeykerlarda "butun dunyoni egallash" falsafasini yuzaga keltirgan va shaxsning imijini shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan. "Imij" termini dastlab ishlab chiqarish sohasida iste'molchilarga psixologik ta'sir o'tkazish vositasi sifatida, tijorat reklamalarida mahsulotlarni farqlashda faydalanilganligi sabab yetarlicha tor ma'no-mazmunga ega bo'lgan. Keyinchalik esa jamoat arboblarini differensiatsiyalashga ehtiyoj paydo bo'ladi. XX asrning 30-yillarida "Nyu-York Tayms" gazetasida chop etilgan maqolalarning asosiy qismini imijni yaratish, taraqqiy ettirish sohasidagi mutaxassislar tomonidan nashrga tayyorlangan materiallar tashkil etgan.

XX asrning boshlarida Rossiyada ham imijni shakllantirishning ijtimoiy roliga bag'ishlangan izlanishlar olib borilgan. M.Shepkin, V.Nemirovich-Danchenko, Ye.Vaxtangov va K.Stanislavskiylar badiiy obrazni yaratish usullarini tadqiq qilib, imijning ijtimoiy-psixologik jihatlariga e'tibor qaratishgan. K.Stanislavskiyning yozishicha, imij – inson faoliyati, muloqoti, xulq-atvori va tafakkurining obrazidir[5].

Tadqiqotchilar I.Nefedov va Ye.Vlasovlarning ta'kidlashicha imij – shaxsning odamlar nazaridagi obrazi degan, imij haqidagi eng lo'nda talqinni beradi[6].

Bizning fikrimizcha, G.Andreyevaning talqini imij mohiyatini ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida obyektiv aks ettiradi: "Imij – bu idrok etish hodisasining maxsus obrazidir. Shuning uchun ham obyekt yoki hodisaning hayoliy tasviri hissiy murojaatlar asosida yaratiladi"[7].

D.Yagerning ta'rifi ijtimoiy-psixologik xususiyatlardan tashqari shaxsiy tashqi ma'lumotlarini ham o'z ichiga oladi. U imij – tashqi qiyofaning o'ziga xos majmui, nutq, xulq-atvordan hosil qilinadi, deb yozadi. Imij – "taassurotlarni boshqarish" san'atidir[8]. Demak, imij nafaqat ko'riladigan obraz, balki shakl va mazmun jihatidan ichki va tashqi yaxlitlikning bir ko'rinishi sifatida ham tushuniladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, Qurolli Kuchlarning imiji haqida alohida fikr yuritish lozim. Ta'kidlash kerakki, armiyaning imiji odamlar ongida stixiyaviy (tasodifan paydo bo'lib qoluvchi) tarzda shakllangan siymo emas, balki, alohida subyektlar tomonidan maxsus yaratilgan va singdirilgandir.

General-leytenant V.Serebryannikov bu borada shunday yozadi: "Davlat tomonidan armiya xususida yaratiladigan imij katta ijtimoiy kuchga ega. Ishning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi davlat imijini ko'taradi, armiyaga nisbatan hurmat va harbiy xizmatchilarga ishonchni uyg'otadi, harbiylar va fuqarolarning jipsligini ta'minlaydi, aholining harbiy xizmatga hurmatini oshiradi. Bir so'z bilan aytganda, armiya va mamlakatning xavfsizligini

har tomonlama mustahkamlaydi”[9]. Demak, berilgan tasniflardan ko‘rinib turibdiki, armiyaning imiji bir qisqa vaqt davomida yaratib bo‘lmaydigan, balki yetarli darajada tarixiy asoslarga ega va doimiy rivojlanib borilayotgan holatdir.

Shuning uchun, Qurolli Kuchlarning har bir obyektida ijobiy imij yetarli darajada yaratilmaguncha muntazam tarzda tadqiq etishni talab etadi. Ta’kidlash kerakki, armiyaning imiji uni alohida okrug, qo‘shilmalar, harbiy qismlar va bo‘linmalarni hamda barcha turdagi komandirlar, ofitserlar, shartnoma asosidagi harbiy xizmat serjantlari va oddiy askarlar toifasi hamda muddatli harbiy xizmatchi (askarlar) faoliyatini targ‘ib etish asosida shakllanadi[10,48].

Qurolli Kuchlar imijining amaliy ahamiyatini qanday aniqlash mumkin yoki uni qanday ko‘rsatkichlar asosida tavsiflash lozim? Buning uchun quyidagi asosiy omillar e’tiborga olinishi zarur:

birinchidan, armiya safida xizmat qiluvchilar sonining o‘sib borishi;

ikkinchidan, mamlakat aholisida armiyaga nisbatan xayrixohlarcha munosabatning ifodalanishi;

uchinchidan, turli toifadagi harbiy xizmatchilarning o‘z kasbidan yuqori darajada qoniqqanligi.

Har bir kasb o‘z rivojlanish tarixiga ega bo‘lib, bir-biridan farqli jihatlari mavjud. Masalan, harbiylik, jurnalistika, tibbiyot va uchuvchilik kabi ixtisosliklar zo‘riqish (stress)ning kuchli darajada namoyon bo‘lishi tufayli boshqa kasblardan ajralib turadi. Bu kasb egalari turli vaziyat, holat va hududlarda, vaqtning chegaralanganligida faoliyat yuritishi zarurligi, hatto xavf bilan bevosita yuzma-yuz bo‘lgan davrda ham o‘z vazifalarini bajarishlari zarur ekanligi bilan ajralib turadi.

Harbiy yo‘nalishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ko‘plab harbiy ixtisosliklar ma’lum darajada tadqiq etilgan bo‘lib, ijtimoiy-kasbiy tavsifnomalar, kasbiy talabnomalar ishlab chiqilgan. Biroq, mazkur ishlarda kasb egallovchining individual fazilatlari, psixofiziologik va ijtimoiy xususiyatlariga (etnomadaniyat, gender, yosh va boshqalar) e’tibor qaratilmay, faqat kasbiy layoqatlilik darajasi, ya’ni “inson-kasb” tizimi doirasidagi jihatlar hisobga olingan.

Komandirlar imijini ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganishda, qolaversa ular tomonidan harbiy xizmatni samarali tashkillashtirishda harbiy xizmatchilarning shaxsiy sifatlari muhim hisoblanadi. Shu bois, harbiy xizmatchilar imijini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini empirik jihatdan tadqiq etishda, ularning shaxsiy sifatlar uslubi darajasini o‘rganish yuzasidan olingan tadqiqot natijalari Kraskal-Uollis mezoniga ko‘ra, birinchi shkala ijtimoiy-axloqiy yetuklik ofitserlarda 145,21, serjantlarda 138,13 va muddatli harbiy xizmatchi oddiy askarlarda 105,12 natija bilan o‘rtacha farqni namoyon qilgan. ($h=12,42$, $p\leq0,05$). Ma’naviy yetuklik shkalasi ofitserlarda 136,60, serjantlarda 124,25 va muddatli harbiy xizmatchi oddiy askarlarda 114,36 natijalarni namoyon qilgan. Emotsional yetuklik shkalasi ofitserlarda 140,65, serjantlarda 134,32 va muddatli harbiy xizmatchi oddiy askarlarda 119,41 kabi darajalar bilan o‘zaro yuqori farqlarni qayd etgan. Keyingi shkala, ijtimoiy intellekt shkalasi bo‘yicha ofitserlarda 121,54, serjantlarda 118,41 va muddatli harbiy xizmatchi oddiy askarlarda 116,36 kabi natijalarni aks ettirgan va farqlar yuqori darajada kuzatilgan. Jamoada yetakchilik shkalasiga bo‘yicha, ofitserlarda 147,12, serjantlarda 123,84 va muddatli harbiy xizmatchi oddiy askarlarda 106,64 kabi darajalar bilan o‘rta farqlarni aks ettirgan. Boshqacha qilib aytganda, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda bilimlar (fanlar doirasida), ko‘nikmalar (kasbiy yetuklik) va ijod (harbiy san’at)ning uyg‘unlashuvi sodir bo‘lgan.

Tadqiqotdagi miqdoriy natijalar va ularning tahliliga ko‘ra, komandirlarning boshqaruv faoliyatidagi shaxsiy sifatlar uslubi turli harbiy toifalar bo‘yicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, miqdoriy ko‘rsatkichlar harbiy xizmatchilar faoliyatining kognitiv jabhasi bevosita ularning ijtimoiy intellekt ko‘rsatkichlarini tavsiflamoqda. Ijtimoiy-axloqiy yetuklik darajasi esa, harbiy xizmatchilarning konativ jabhalarini aks ettirgani singari, emotsional intellektiga tayanib emotsional-baholovchi jabhasini ifodalaydi. Barcha jabhalar esa, harbiy xizmatchilarning imijini ifodalovchi jamoadagi liderlik yoki boshqaruvdagi yetakchiligini belgilaydi. Miqdoriy

natijalarga asoslanib, harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatida ijtimoiy-axloqiy yetuklikning kognitiv va konativ faoliyatdagi o‘ziga xosligi shundan iboratki, o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan munosabatida bilim va qobiliyatlardan samarali foydalanishini ko‘rsatmoqda.

Harbiy xizmatchilarning emotsional yetukligi esa harbiy xizmat faoliyatining emotsional-baholovchisiga xos xususiyatlarni tavsiflamoqda, ya’ni o‘zining va bo‘ysinuvidagi harbiy xizmatchilarning kechinmlarini anglay oladigan va xatti-harakatlariga nisbatan sezgirlik hamda xulq-atvorini baholay olishini ko‘rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmat nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, balki maxsus sharoitlarga bog‘liq bo‘lgan inson faoliyatining turi sanaladi. Ona Vatanning qurolli himoyasi doimo har bir fuqaroning eng oliy sharafli burchidir. Armiya esa, har doim jamiyatning bir qismi sifatida qaraladi, o‘z mazmunida u jamiyatda yuzaga kelgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni shuningdek, xalqaro vaziyatning barcha qonunlarini aks ettiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Яковлев Е.В., Педагогическая концепция: методологические аспекты построения. М.: 2006. С.212.
2. Утлик Э.П., Практическая психология имиджа // Вестник университета. Сер. Социология и психология управления. М.: ГУУ, 1999. С.47.
3. Аристотель. Поэтика // Аристотель. Соч.: В 4 т. М., 1984. С.78.
4. Макиавелли Н., Государь. Минск, 1998. С.35.
5. Станиславский К.С., Работа актера над собой. М.: Артист. Режиссер. Театр, 2002. С.488.
6. Нефедова И., Власова Е., Я и мой имидж. М.: ЭКСМО-Пресс, 1997. С.78.
7. Андреева Г.М., Социальная психология. Учебник для высших учебных заведении - М.Аспект Пресс, 2001.
8. Ягер Д., Психология народов и масс. СПб.,1995. С.78.
9. Серебянников В.В., Социология войны. М.:Ось – 1998.
10. Ravshanov L.U., Mudofaa vazirligi tizimidagi rahbar imijining ijtimoiy-psixologik konsepsiyasi. DSc diss… T: O‘zMU. 2023 y. 48-b.

Ro‘ziboyeva Nazira Qarshiboyevna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrasi o‘qituvchi
E-mail: naziraruziboeva@mail.ru

NOVERBAL MULOQOTDA IMO-ISHORALARNING AHAMIYATI VA TASNIFI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada noverbal muloqot doirasida tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan tana tili va ularninig turli xil tasniflanishi keltirilgan. Muloqotda so‘zlar orqali emas, balki imo-ishoralar, yuz ifodalari, tana harakatlari va boshqalar orqali uzatiladigan noverbal signallarga alohida e'tibor berilishi va ushbu signallar his-tuyg‘ularni, niyatlarni va boshqa ko‘p narsalarni ifodalashga qodir ekanligi shuningdek o‘zbek, fransuz tillarida imo-ishoralarning o‘xshash jihatlari va farqlari haqida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *imo-ishoralar, noverbal muloqot, verbal so‘zlashuv, verbal vositalar, tana harakati, kinesika, ekspressiv va mexanik imo-ishoralar.*

ЗНАЧЕНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ ЖЕСТОВ В НЕВЕРБАЛЬНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация. *В данном исследовании представлены язык тела, изучаемый исследователями в рамках невербального общения, и различные их классификации. В общении особое внимание уделяется невербальным сигналам, которые передаются не посредством слов, а посредством жестов, мимики, движений тела и т.д. Объясняются схожие аспекты и различия жестов в узбекском и французском языках.*

Ключевые слова: *жесты, невербальное общение, вербальное общение, речевые средства, движения тела, кинесика, экспрессивные и механические жесты.*

SIGNIFICANCE AND CLASSIFICATION OF GESTURES IN NONVERBAL COMMUNICATION

Annotation. *This study presents body language studiyed by researchers in the framework of nonverbal communication and their various classifications. In communication, special attention is paid to non-verbal signals that are transmitted not through words, but through gestures, facial expressions, body movements, etc. Similar aspects and differences betweyen gestures in the Uzbek and French languages are explained.*

Keywords: *gestures, nonverbal communication, verbal communication, speyech means, body movements, kinesics, expressive and mechanical gestures.*

Kirish. Noverbal muloqot kundalik hayotimizning ajralmas qismidir, ammo uning tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qadimgi jamiyatlarda odamlar ma'lumotni etkazish va aloqa o‘rnatish uchun imo-ishoralar, mimikalar, intonatsiya va boshqa noverbal vositalardan foydalanganlar. So‘zlardan foydalanmasdan (intonatsiya, imo-ishoralar, yuz ifodalari, pantomima orqali ma'lumot uzatish yoki bir-biriga ta'sir qilish), ya'ni nutq va til vositalaridan foydalanmasdan shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro har qanday belgilar shaklidagi bir-biriga ta'siri noverbal muloqotdir. Bunday "muloqot" vositasi inson tanasidir. U axborotni uzatish yoki almashishning keng doirasi va usullariga ega bo‘lib, insonning o‘zini o‘zi ifodalashning barcha shakllarini o‘z ichiga oladi.

Odamlar orasida keng ishlatiladigan aloqa vositasining umumiy nomi noverbalika yoki "tana tili"dir. Psixologlarning fikricha, noverbal signallarni to‘g‘ri talqin qilish samarali muloqotning eng muhim shartidir. Muloqotda so‘zlar orqali emas, balki imo-ishoralar, yuz ifodalari, tana harakatlari va boshqalar orqali uzatiladigan noverbal signallarga alohida e'tibor beriladi. Ushbu signallar his-tuyg‘ularni, niyatlarni va boshqa ko‘p narsalarni ifodalashga qodir.

Tadqiqot metodologiyasi.

O‘tgan asrning 60-yillarida eng yirik sotsiologik harakatlardan biri bo‘lgan ramziy interaktsionizm doirasida R.Birdwhistel kontseptsiyasi taqdim etildi, u birinchilardan bo‘lib tana harakatlari, imo-ishoralari va pozitsiyalarini hisobga olgan holda muloqotni o‘rgangan. U noverbal muloqotni o‘rganish yo‘nalishini yaratdi. Uni "kinesika" (qadimgi yunoncha - harakat) deb atadi [10]. U "kin" yoki kinemani elementar semantik birlik sifatida ko‘rib chiqishni taklif qildi (tilshunoslikdagi fonemaga o‘xshash(analogi)). R.Birdwhistel odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning xilma-xilligiga qaramay, barcha ramziy o‘zaro ta'sirlar bir xil cheklangan ko‘rinishga ega bo‘lib, inson tanasining elementar harakatlarini 50-60 foyizi imo-ishoralar yoki tana holatidan iborat, degan fikrni ilgari surgan. Mutaxassislarning ushbu g‘oyalari tadqiqot metodologiyasi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Albert Mehrabian axborotlarni uzatish verbal vositalar (faqat so‘zlar) orqali 7%, ovozli vositalar orqali (shu jumladan ovoz ohangi, ovoz intonatsiyasi) 38% va noverbal vositalar orqali 55% ni tashkil qilishini aniqladi. Professor Birdwistel odamlar bilan muloqotda noverbal vositalarning nisbati bo‘yicha xuddi shunday tadqiqotlar o‘tkazdi. U o‘rtacha odam kuniga atigi 10-11 daqiqa so‘z bilan gaplashishini va har bir gap o‘rtacha 2,5 soniyadan ko‘p davom etmasligini aniqladi. Megrabian singari, u suhbatda verbal muloqot 35% dan kam bo‘lishini va ma'lumotlarning 65% dan ortig‘i noverbal aloqa vositalaridan foydalangan holda uzatilishini aniqladi [2, p. 5].

Birdwhistelning takliflari ilmiy jamoatchilik tomonidan juda yaxshi qabul qilindi, tana harakatlarining o‘ziga xos "lug‘atlari" yaratildi va hatto turli milliy madaniyatlarda kinlar soni bo‘yicha ishlar paydo bo‘ldi. Ammo keyin uning o‘zi tana harakatlarining qoniqarli lug‘atini yaratish mumkin emas degan xulosaga keldi, chunki "kinlar" tushunchasi juda noaniq va munozarali bo‘lib chiqdi. Shunga qaramay, uning ishi noverbal muloqotni keyingi o‘rganishda katta rol o‘ynadi. Birdwhistel ishini tanqid qilish va uning konsepsiyasining kamchiliklarini hisobga olgan holda, P.Ekman FAST (Facial Affect Scoring Techniquye) yuz ta'sirini skanerlash texnikasini taklif qildi. Bu mimika va yuz ifodalarini tasniflash uchun kerak edi.

XX asr boshlarida tana tilini o‘rganishda eng ta'sirli ish Charlz Darvinning 1872 yilda nashr etilgan "Odam va hayvonlardagi his-tuyg‘ularning ifodasi" edi. Darvinning ko‘plab g‘oyalari va kuzatishlari bugungi kunda butun dunyo tadqiqotchilari tomonidan e'tirof etilgan. O‘sha vaqtdan beri olimlar 1000 dan ortiq noverbal belgilar va signallarni topdilar va qayd etdilar.

Tahlil va natijalar.

Insonning ichki dunyosi va uning tana tili va imo-ishoralari o‘zaro bog‘liqdir. Ko‘pincha inson reaksiyalarining refleksli tabiati unga o‘z imo-ishoralarini, tana holatini va yuz ifodalarini to‘liq boshqarishga imkon bermaydi. Suhbat davomida odamlar kamdan-kam hollarda o‘z harakatlari haqida o‘ylashadi, shuning uchun ularning fikrlari va so‘zlari mos kelmaydigan vaziyatda ularning ko‘zlari va imo-ishoralari buni oshkor etishi mumkin. Insonning ekspressiv xatti-harakatlarining muhim elementi imo-ishoralar - qo‘llar yoki qo‘l barmoqlarining harakatlaridir. Frensis Bekon shunday deb yozgan edi: "Til quloqqa qanday gapirsa, imo-ishora ham ko‘zga gapiradi". Darhaqiqat, inson qo‘llarini tahdid qilish, sevgi yoki g‘azabni izhor qilish, ajablanish yoki rahm-shafqatni ifodalash uchun ishlatadi.

"Jest" atamasi ba'zan tananing barcha harakatlariga, shu jumladan yuz ifodalari va pantomimalarga nisbatan qo‘llaniladi va qo‘l harakatlari uchun imo-ishora (jestikyulatsiya) tushunchasi qo‘llaniladi [5.25].

Ko‘pgina asosiy imo-ishoralar butun dunyoda bir xil ekanligiga ishoniladi. Biroq, o‘ziga xoslik "milliy imo-ishoralar" ham mavjud bo‘lib bu turli madaniyatlar bir xil tushunchalarni ifodalash uchun turli imo-ishoralarni qo‘llashida namoyon bo‘ladi. Jumladan, fransuzlar qo‘rquvni ifodalayotganlarida ikkala qo‘llarini biroz oldinga cho‘zib har ikkala qo‘lini kaft-

larini yuqoriga qaratgan holda barmoqlarini bosh barmoqlari atrofiga yig‘adilar biroq bu ishora o‘zbeklarda sabr qil, ovozingni o‘chir, jim bo‘l ma’nosini ifodalashi yoki qo‘pol ma’noda tushunilishi mumkin. Bu ishora ko‘pincha o‘zbeklarda bir qo‘lda amalga oshiriladi. Frantsuz biron bir g‘oyani ahmoqona deb bilsa boshiga uradi, o‘zbeklarda bu ishora qo‘llanilmaydi. Fransuzlar xayrlashishda kaftlarini yuqoriga ko‘tarib, barmoqlarini harakatga keltiradilar. Frantsuzlar suhbatdoshiga ishonchsizlikni bildirganlarida o‘ng qo‘l ko‘rsatgich barmoqlarini ko‘zining pastki qovog‘iga bosib bir oz pastga tortadi. Bu “men senga ishonmayman” ma’nosini ifodalaydi. O‘zbeklarda bunday ishora qo‘llanilmaydi lekin shunga o‘xshash ishora mavjud bo‘lib bunda ko‘rsatgich barmoq yonoq ustiga qoyiladi va bu uyat ma’nosini ya’ni “uyalgin, yuzsiz, yuzing bormi?” kabi ma’nolarni anglatadi. Fransuzlar xayrlashishda kaftlarini yuqoriga ko‘tarib, barmoqlarini harakatga keltiradilar. O‘zbeklar esa shu holatda kaftlarini oldinga va orqaga silkitadilar. Ammo har xil madaniyatlarda individual imo-ishoralarning o‘ziga xos ma'nosi har xil bo‘lishiga qaramay, barcha madaniyatlarda o‘xshash imo-ishoralar mavjud bo‘lib, N.I.Smirnov imo-ishoralarni quyidagicha tasniflaydi:

- kommunikativ (salomlashish, xayrlashish imo-ishoralari, diqqatni jalb qilish, taqiqlash, tasdiqlovchi, salbiy, so‘roq va boshqalar); Bu informatif bo‘lib turli axborotlarni beradi. I.Kant qo‘lni "miyaning ko‘rinadigan qismi" deb ataganligi bejiz emas. Masalan biznes olamida qo‘l siqish nafaqat salomlashish, balki kelishuv ramzi, biznes sherikga ishonch va hurmat belgisi sifatida ham qo‘llaniladi.

-modal, ya'ni, baholash va munosabat bildirish (ma'qullash, qoniqish, ishonch va ishonchsizlik imo-ishoralari va boshqalar); Masalan, qo‘llarini orqasiga qo‘yib, bilaklarini bog‘lash - o‘zini ustunligini his qilish; burun yuqori qismini "chimchilash" - bu uning diqqatini chuqur jamlaganligining belgisi va hokazo.

- nutq kontekstidagina ma’noga ega bo‘lgan tasviriy imo-ishoralar. Masalan, qo‘lingiz bilan yo‘nalishni ko‘rsatish [6.210].

Imo-ishoralarning izchilligini tushunish, biz muloqot qilayotgan odamning pozitsiyasini aniqroq ko‘rishga imkon beradi. Bizning so‘zlarimizni suhbatdoshimiz qanday qabul qilinayotganligini y’ani ma'qullash yoki dushmanlik bilan, ochiq, yopiq, zerikish kabilar bilan tushunishimiz mumkin. Masalan, noverbal muloqot bo‘yicha yetakchi mutaxassislaridan biri Stiven Bunard Frantsiya prezidentlarining o‘ziga xos imo-ishoralarini o‘rganar ekan, quyidagi xulosaga keldi: “Fransua Olland va Nikola Sarkozi o‘ng qo‘l bilan gapirishga moyil bo‘lgan bo‘lsa, Emmanuyel Makron chap qo‘l bilan gapiradi: "O‘ng qo‘l ishontirish uchun ishlatiladi, chap qo‘l esa rahmdillik va samimiylikni ifodalaydi" .

Suhbatdoshning imo-ishoralari ham ko‘p narsani aytishi mumkin. Ajablanarligi shundaki til bolalikdan o‘rgatilsa imo-ishoralar tabiiy ravishda o‘zlashtiriladi va hech kim oldindan tushuntirmasa ham so‘zlovchi ularning ma'nosini tushunadi va ulardan foydalanadi. Imo-ishoraning qo‘llanilishi ko‘pincha o‘z-o‘zidan emas, balki so‘zga hamroh bo‘ladi, unga xizmat qiladi ba'zan uni aniqlab beradi.

O‘zbek tilida u yoki bu imo-ishorani nomlaydigan erkin iboralar asosida paydo bo‘lgan juda ko‘p barqaror iboralar mavjud. Ular frazeologik birliklarga aylanib, odamning holatini, hayratini, befarqligini, xijolatini, noroziligini va boshqa his-tuyg‘ularini, shuningdek, turli harakatlarni ifodalaydi. Masalan: boshni pastga egish, boshni aylantirish, boshni ko‘tarish, qo‘lni ko‘tarish, qo‘lni yoyish, qo‘lni tushirish, qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish, barmoqni silkitib qo‘rqitish.

Notiqlik nazariyotchilari ham ma’ruza o‘qish haqidagi nazariyalarida imo-ishoralarga katta e’tibor berganlar:

- ekspressiv imo-ishora (qo‘lni ko‘tarish, mushtini tugish, keskin va tez harakat va boshqalar) berilgan ibora yoki alohida so‘zning ma'nosi va mazmuniga mos kelishi kerak (imo-ishora ohang bilan uyg‘unlashganda, nutq kuchini ikki barobar oshiradi);

- mexanik imo-ishoralar tinglovchining diqqatini nutq mazmunidan chalg‘itadi va uni idrok etishga xalaqit beradi. Ular ko‘pincha so‘zlovchining hayajonlanishining natijasidir va uning o‘ziga ishonchi yo‘qligini ko‘rsatadi.

Maqsadiga ko‘ra imo-ishoralar quyidagilarga bo‘linadi: ritmik, hissiy, ko‘rsatgich, tasviriy va ramziy.

Ritmik imo-ishoralar nutq xususiyatlariga, ritmiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Ritmik imo-ishoralar nutqni sekinlashuvi, tezlashuvi, pauza, intonatsiya orqali uzatilishini ta'kidlaydi.

Nutqning ifodalanishida hissiy imo-ishoralar muhim ahamiyatga ega. Chunki insonning nutqiy faoliyati his-tuyg‘ularsiz me'yoriy hisoblanmaydi. Bizning nutqimiz ko‘pincha hissiyotli bo‘ladi. Hayajon, shodlik, xijolat - bularning barchasi nafaqat so‘z tanlashda, intonatsiyada, balki imo-ishoralarda ham namoyon bo‘ladi. Turli xil tuyg‘ularni ifodalovchi imo-ishoralar hissiy deyiladi. Masalan: ko‘kragiga urish, stolga musht bilan urish, peshonasiga urish, orqasini o‘girish, yelkasinini silkitish, qo‘llarni yoyish, eshikka ishora qilish kabilar.

Ko‘rsatgich imo-ishoralari. “Mana bu oynani oching”, “Bu kitobni olma, uni u yerga olib bor” degan buyruqlar imo-ishorasiz talaffuz qilinsa, bajarish mumkinmi? Bunday hollarda ishora qilish kerak bo‘ladi. Uning yordamida so‘zlovchi o‘xshash ob'ektlar qatoridan qandaydir ob'ektni aniqlaydi va joyini ko‘rsatadi.

Ba'zi ko‘rsatgich imo-ishoralar shartli xarakterga ega. Shunday qilib, so‘zlovchi ko‘kragiga yurak joylashgan chap tomoniga ishora qilganda: "Uning bu erda hech narsasi yo‘q" desa, biz yuraksiz, befarq odam haqida gapirayotganimiz aniq. Imo-ishoraning dekodlanishida vaziyat bilan belgilanadigan holatlar mavjud.

Tasviriy imo-ishoralar quyidagi hollarda namoyon bo‘ladi:

• fikrni to‘liq yetkazish uchun so‘zlar yetarli bo‘lmasa;

• agar biror sababga ko‘ra so‘zning o‘zi yetarli bo‘lmasa (so‘zlovchining emotsionalligi kuchayishi, o‘zini tuta olmaslik, bosiqlik, asabiylashish);

• taassurotni kuchaytirish va tinglovchiga qo‘shimcha va vizual tarzda ta'sir qilish zarur bo‘lsa imo-ishoralarning dekodlanishi kuzatiladi.

Biroq, tasviriy imo-ishoralardan foydalanganda, mutanosiblik bo‘lishi kerak.

Ramziy imo-ishoralar. Masalan, aktyorning spektaklni tugatayotganda va tomoshabinlar bilan xayrlashayotganda imo-ishoralari bo‘lishi mumkin. Eng keng tarqalgan imo-ishora - bu iliq kutib olish va olqishlar uchun minnatdorchilik ramzi sifatida ta'zim qilish yoki aktyor tomoshabinlarni quchoqlagandek qo‘llarini yon tomonlarga keng yoyishi. Bunday imo-ishoralar odatiy bo‘lib, ramziy deb ataladi. Ulardan ba'zilari juda aniq ma'noga ega. Misol uchun, kesishgan qo‘llar mudofaa reaktsiyasini ko‘rsatadi. Boshning orqasida qo‘llar, ustunlik ifodasi. Boshingizni qo‘llaringiz bilan siqish - muammo belgisi. Ramziy imo-ishoralar bir qator tipik vaziyatlarga xosdir. Bundan tashqari, rad etish, inkor etish ishorasi - bir qo‘l yoki ikki qo‘l bilan kaftlar oldinga qilib itarish harakatlari. Bu imo-ishora ibora bilan birga keladi: Yo‘q, yo‘q, yo‘q! Iltimos kerak emas; Qarama-qarshilik imo-ishorasi, antonimiya - qo‘l havoda "u erda" va "bu erda" harakatini amalga oshiradi; Ajralish imo-ishorasi - kaftlar ochiladi, turli yo‘nalishlarda harakatga keltiriladi. Imo-ishoralarning ba'zilari ko‘p qiymatli bo‘lishi mumkin (salomlashish, xayrlashish, tabriklash, tanishish holatlarida qo‘l siqish harakati): Antonomik vaziyatlarda imo-ishoralar - salomlashish va xayrlashishda qo‘l siqish; Ba'zi hollarda imo-ishoralarning sinonimik qatori ham bo‘lishi mumkin: salomlashishda bosh silkitish, bosh kiyimni ko‘tarish, chuqur ta'zim, qo‘l silkitish, qo‘l siqish, o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘yish.Va, albatta, imo-ishoralar stilistik xususiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Har birimiz bu imo-ishora tantanali, bunisi arzimas, bu do‘stona imo-ishora, bunisi esa rasmiy ekanligini his qila olamiz... Shuning uchun ham imo-ishora so‘zlovchi haqida, uning tarbiyasi, madaniyati, xususan xulq-atvori haqida ham ko‘p narsani ayta oladi. Shuningdek noverbal kanal ya’ni imo-ishoralar orqali olingan axborotlar verbal qabul qilingan axborotlarga zid kelsa, noverbal axborotlarga ishonish kerakligini ta’kidlash mumkin.

Noverbal muloqot - shaxs o‘zining "men"ni ifodalash, shaxslararo ta'sir va munosabatlarni tartibga solish, aloqa hamrohining qiyofasini yaratish va verbal xabarni aniqlashtirish vazifasini bajaradigan vositalardan biridir. Shunday qilib tana tilining, imo-ishoralarning nozik tomonlarini tushunish atrofingizdagi odamlar bilan munosabatlarni yaxshilashi va soddalashtirishi mumkin. Shuning uchun imo-ishoralarning ma'no, mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari haqida imkon qadar kengroq ma'lumotlarga ega bo‘lish foydadan holi bo‘lmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Axmedova M.X. Jamiyat taraqqiyotining tildagi o‘zgarishlarga ta'siri // lmiy tadqiqot va innovatsiya. 2023/4/10 №2. B 21-26
2. Belinskaya Ye.P., Tixomandritskaya O.A.: Sotsialьnaya psixologiya. Xrestomatiya: Uchebnoye posobiye dlya studentov vuzov. M: Aspekt Press, 2003;
3. Vvedenskaya L.A., Pavlova A.G. Kulьtura i iskusstvo rechi. Sovremennaya ritorika. - Rostov-na-Donu: Feniks, 1995;
4. Goryanina V.A. Psixologiya obщeniya. Uchebnoye posobiye dlya studentov vuzov. - M.: Akademiya, 2004.
5. Labunskaya V.A. Neverbalьnoye povedeniye. Rostov n/D. «Feniks». 2006. 250 s.
6. Smirnova N.I. Sopostavitelьnoye opisaniye elementov russkoy i angliyskoy kinetich-eskoy kommunikatsii. V kn.: Natsionalьno-kulьturnaya spetsifika rechevogo povedeniya. – M.: Nauka, 1997. 247s.
7. Stolyarenko L.D. Psixologiya i etika delovыx otnosheniy. - Rostov-na-Donu: Feniks, 2005;
8. Ruziboyeva N.K. Issledovaniye psixolingvisticheskix parametrov neverbalьnoy kommunikatsii na materiale uzbekskogo i frantsuzskogo yazыkovыx kontinuumov // Jurnal gumanitarnыx i yestestvennыx nauk 2024. – № 9 (04). – S. 90-100.
9. Trenev N.N. Upravleniye konfliktami. M.: PRIOR, 2003;
10. Frolova M.M. Psixologiya. Uchebnoye posobiye dlya VUZov - M.,2008.

Akramova Feruza Akmalovna
Nizomiy nomidagi TDPU "Umumiy psixologiya" kafedrasi professor,
psixologiya fanlari doktori(Dsc)

JAMIYAT RAVNAQI VA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA OILA INSTITUTINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEZONLARI

Annotatsiya. *Maqolada jamiyat ravnaqi va barqarorligini ta'minlash muammosining dolzarbligi, oilani institutiga ta'sir etadigan ijtimoiy-psixologik mezonlar masalalariga bag'ishlangan. O'zbekiston oilalarini rivojlantirish mezonlari sifatida mazkur muhitda ma'naviy-axloqiy, psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy va jismoniy sog'lomlikni tarkib toptirishga xizmat qiladigan zarur tavsiyalar berilgan.*

Tayanch so'zlar: *oila instituti, zamonaviy oila, namunali oila, oila muhiti, oila sog'lomligi mezonlari, oila tarbiyasi, oilaviy munosabatlardagi nosog'lomlik.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ ИНСТИТУТА СЕМЬИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СТАБИЛЬНОСТИ И СТАБИЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВА

Аннотация. *В статье рассматривается актуальность проблемы обеспечения развития и стабильности общества, социально-психологические критерии, влияющие на институт семьи. В качестве критериев развития семьи Узбекистана даны необходимые рекомендации, служащие формированию духовно-этического, психологического, социально-экономического и физического здоровья в этой среде.*

Ключевые слова: *институт семьи, современная семья, образцовая семья, климат семьи, критерии здоровой семьи, семейное воспитание, нездоровые отношения в семье.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CRITERIA OF THE FAMILY INSTITUTE IN ENSURING SOCIETY'S STABILITY AND STABILITY

Abstract. *The article discusses the relevance of the problem of ensuring the development and stability of society, socio-psychological criteria that affect the institution of the family. As criteria for the development of the family of Uzbekistan, the necessary recommendations are given that serve to form the spiritual, ethical, psychological, socio-economic and physical health in this environment.*

Key words: *family institution, modern family, exemplary family, family climate, criteria for a healthy family, family education, unhealthy relationships in the family.*

Ma'lumki, hayotimizning yarmidan ko'pini qamrab oladigan, chinakam, to'laqonli insoniy baxtni in'om etadigan yoki aksincha, har tomonlama ta'minlanganligimizga qaramasdan, bizning baxtimizni yarimta qiladigan ham oilaviy hayotdir. Shu bois oilani qadriyat sifatida tavsiflash va jamiyat hayotidagi nufuzini ta'kidlash bilan birgalikda, uni mustahkamlovchi kafolatli omillarning va tegishli mezonlarning rolini o'rganish katta ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masaladir.

Oila – bu umumiy manfaatlar bilan birikkan odamlar birligi, birlashmasi; oila – nikohga yoki qon-qarindoshlikka asoslangan kichik guruh, oila a'zolari nikohning umumiyligi, o'zaro ma'naviy mas'uliyat va o'zaro yordam berish orqali bir-biriga bog'liq bo'ladi

Taniqli psixolog va psixoterapevt Virdjiniya Satir: "Oila - butun olam mikrokoinoti[1]. - Uni tushunish uchun oilani o'rganish yetarli. Oilada mavjud bo'lgan hokimiyat, sirdoshlik, mustaqillik, ishonch, muloqot ko'nikmalari - hayotdagi ko'pgina xodisalar kaliti. Agar biz dunyoni o'zgartirmoqchi bo'lsak, oilani o'zgartirishimiz zarur"- fikrni bildirgan.

[1] Сатир В. Как строить себя и свою семью / Пер. с англ . -- М.: Педагогика-пресс, 1992. - 190 с.

Sharq mutafakkiri Abu Nasr Farobiy «Fozil odamlar shahri» va «Baxt-saodatga erishuv haqida» asarlarida oiladagi muhit hamda baxtga erishish yo‘llari sifatida keraksiz urf-odatlardan, yomon illatlardan voz kechish to‘g‘risida bayon etadi[1]. Shuningdek, «Baxt saodatga erishuv yo‘lida nimaiki (bilim, odob-axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq, nimaiki zararli bo‘lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur»ligini ta’kidlaydi. Shu ma’noda oila maskanini barqarorligini ta’minlash jamiyatning asosiy vazifalaridandir.

Yurtimizda oila institutini rivojlantirish, oilani mustahkamlash borasidagi davlat siyosatining afzalligi shundaki, eng avvalo, “Sog‘lom oila - sog‘lom jamiyat” konseptual g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilganligidir. Bu orqali oilalar manfaatlarini himoya qilinishi ta’minlanadi.

O‘zbekiston oilalarining dunyodagi boshqa oilalarga o‘xshash tomonlari ko‘p, lekin shu bilan birga, uning o‘ziga xos jihatlari ham yo‘q emas. Oila a’zosi bo‘lgan shaxsning erkak yoki ayolligidan qat’iy nazar, ularning iqtisodiy va ijtimoiy maqomini oshirish, ota-onalar kasb–hunari, ijtimoiy mavqelarini va oilaviy majburiyatlarini birgalikda olib borish, farzandlariga ta’lim-tarbiyani bolalikdan berishga sharoit yaratish, tadbirkorlik va mustaqillikka intilishni singdirib borish kerak bo‘ladi.

Zamonamizda ibratli, namunali oilalarni ko‘paytirish eng muhim vazifalardan bo‘lib, bu toifa oilalarga erishish uchun esa ushbu 4 toifa mezonlarga asoslanish maqsadlidir:

1-mezon. Ma’naviy-axloqiy sog‘lomlik:

1. sodiqlik;
2. an’analarni davom ettirish va takomillashtirish;
3. umuminsoniy va milliy qadriyatlarning uyg‘unligi;
4. o‘zaro hurmat, ishonchning mavjudligi;
5. odob, andisha, sharm-hayo hislarining shakllanganligi;
6. qon-qarindoshlik rishtalarini e’zozlash;
7. muomala va kiyinish odobida milliylikning saqlanganligi.

2-mezon. Psixologik sog‘lomlik:

1. psixologik bilimdonlik;
2. o‘zaro bir-birini tushunish;
3. bir-birini qo‘llab-quvvatlash;
4. mehr-oqibatlilik;
5. nizoli vaziyatlarda o‘zini o‘zi boshqara olishi;
6. farzandlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash;
7. dunyoqarash, e’tiqod va qiziqishlarning mustahkamligi;
8. boshqalarning kamchiliklariga nisbatan tolerantlik (bag‘rikenglik);
9. boqimandalikni bartaraf etish.

3-mezon. Ijtimoiy-iqtisodiy sog‘lomlik:

1. moddiy ta’minotning barqarorligi;
2. oila a’zolarini oila byudjetiga hissa qo‘sha olishi;
3. oila a’zolarini to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltirish;
4. tejamkorlik va tadbirkorlik, izlanuvchanlik, moslashuvchanlikni shakllantirish orqali mehnatsevarlikni tarbiyalanganligi;
5. oiladagi ichki imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalana olish;
6. ijtimoiy faollik;
7. moliyaviy resurslarni to‘g‘ri rejalashtirish, taqsimlash, yo‘naltirish usullarini bilish;
8. yoshlarni oilaviy hayotga iqtisodiy tayyorlash (turli xil kurslarga jalb etish kabilar).
9. oila a’zolarida kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishning shakllanganligi.

4-mezon. Jismoniy sog‘lomlik:

[1] Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. –224-бет.

1. har bir mahallada sog‘lomlashtirish punktlarini tashkil etilganligi;
2. tibbiy bilimdonligi, savodxonligini shakllanganligi;
3. reproduktiv salomatlik haqida tasavvurlarning shakllanganligi;
4. sog‘lom turmush tarziga rioya qilinganligi;
5. oilaning sanitariya-gigiena xolatining yaxshiligi;
6. muntazam tibbiy ko‘rikdan o‘tganligi.

Oilalarda yuqorida qayd etilgan ma’naviy-axloqiy, psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy va jismoniy sog‘lomlikni tarkib toptirishga xizmat qiladigan oilalarni tarkib toptirish orqali jamiyatni barqarorlashtirish, yuksaltirishga erishiladi. Chunki aynan oiladagi sog‘lom va barqaror, osoyishta psixologik muhit; yuksak ma’naviy-axloqiy tarbiya; yetarli darajadagi iqtisodiy va maishiy sharoitlar; oila a’zolarining ta’lim yo‘nalishida oliy ma’lumotlilik darajasi; sihat-salomatlikka alohida e’tibor qaratish zamonamizda namunali oilaning asosiy mezonlari qatoriga kiradi va shunday oilalarni tarkib toptirish orqali jamiyatni barqarorlashtirish, yuksaltirishga erishiladi.

Ammo, keyingi paytlarda xalqimizga xos bo‘lmagan ayrim illatlar — oilaviy ajrashishlar, turli nizoli vaziyatlar, ishsizlik, oiladagi nosog‘lom muhit, ma’naviy tushkunlik, ehtiyojmandlik, jinoyatga qo‘l urish holatlari kabi omillar notinch, noqobil, kemtik oilalar va qator ijtimoiy-ma’naviy muammolarni kuzatamiz. Ayniqsa, ajrashishlar sonining kamaymayotgani kishida jiddiy tashvish uyg‘otadi. Tadqiqotimiz doirasida oilalar barbod bo‘lishiga sabab bo‘luvchi omillar ilmiy tadqiq etildi. Ularni quyidagi turkum 4 ta toifaga ajratildi:

1. Psixologik omil — oiladagi og‘ir psixologik muhit, o‘zaro tushunishning yo‘qligi, oiladagi doimiy nizolar, ota-onalarning yosh er-xotin hayotiga aralashishlari, yosh er-xotinlarni begonalashtirib qo‘yish, bir-biriga befarqlik;

2. Ijtimoiy omil — ichkilikbozlik, farzandsizlik, er yoki xotinning salomatligi yaxshi emasligi;

3. Ma’naviy-axloqiy omil — er-xotindan birining uzoq vaqt davomidagi nikohdan tashqari aloqalari;

4. Iqtisodiy omil — turar joy sharoitlarining qoniqarli emasligi, moddiy yetishmovchilik, ishsizlik, erning oilani ta’minlamasligi, mehnat migranti sifatida chet elga ketgan er-xotindan birining oilasi bilan aloqasi uzilgani, qarzlarni uzolmaslik.

Bunday noxush xolatlarni bartaraf etishda oilalar bilan ishlash, farovon oilani jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida ko‘rish uchun mahalla va oila ilmiy-tadqiqot instituti tizimi qoshida tashkil qilingan kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishlarini yanada optimallashtirish ishlarini olib borish muhim, albatta.

Respublikada 2020-2022-yillarda oilalar bilan ishlaydigan mutaxassislarni oila ilmiga maxsus o‘rgatildi. Oilaning ijtimoiy-psixologik muammolarini bartaraf etish orqali oilalarni zamonaviy namunali mezonlar asosida tavsiflash maqsadida kuzatish, so‘rov ishlari olib borildi. Olib borgan tadqiqotlarimiz asosida ma’lum darajada xulosaga kelindi: o‘zbek oilalari o‘z oilalarini ibratli, namunali oilalar safida bo‘lishini xoxlaydilar. Ammo ayrim shart-sharoitlar, turli omillar bunday xoxishni amalga oshishini kamayishiga ta’sir etishidan xavotirlanadilar.

Shu bois tadqiqotimizda qaysi usul va vositalar yordamida zamonaviy oilalar safini kengaytirish bo‘yicha takliflarni o‘rgandik. So‘rov natijalariga ko‘ra ushbu tavsiyalar olindi:

1. Buyuk allomalar: Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy va boshqalar; ma’rifatparvarlar: Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlarida oila tarbiyasiga oid berilgan g‘oyalardan foydalanish zarur ekanligini, ya’ni odob-axloqi go‘zal, jismonan va ma’nan yetuk avlodni tarbiyalashning yagona yo‘li — barqaror oila qurish ekanini, oilani mustahkamlamasdan davlat va jamiyat taraqqiyotiga erishib bo‘lmasligini ta’kidlashgan.

2. Oiladagi ijtimoiy-ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni barvaqt aniqlash, oilalarga o‘z vaqtida ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish, natijalarini tahlil etib borish.

3. Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, saqlash va rivojlantirish, ma'naviy-ahloqiy tarbiya, iqtisodiy, huquqiy bilimlar, tibbiy madaniyatni oshirish, oilaviy munosabatlar psixologiyasi bo'yicha xududlardagi eng namunali, ibratli oilalarni keng ommalashtirish.

4. Yoshlarni nikohga tayyorlash yuzasidan ochiq muloqotlar, sayyor qabullar va davra suhbatlarini muntazam ravishda tashkil etib borish.

5. Er-xotin, ota-ona, qaynona-qaynota va qudalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, oilaviy nizolarning oldini olish masalasida joylardagi tashkilotlarning uzviy hamkorligini yo'lga qo'yish.

6. Mahallalarda oilalar bilan ishlovchi mutaxassislarni bilim-ko'nikmalarini oshirishda huquqiy va psixologik bilimlarga o'rgatish, oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari bo'yicha maxsus o'quv kurslari faoliyati samarali tashkil etish.

7. Oila va nikoh, reproduktiv salomatlik, shuningdek, oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari bo'yicha seminar-treninglar o'tkazib borish.

8. Namunali, ibratli, zamonaviy oilalarni ommaviy axborot vositalarida targ'ib qilishni tizimli yo'lga qo'yish.

Yuqorida qayd etilgan tavsiyalar yurtimizda namunali, ibratli oilalarni ko'paytirish, nochor oilalarni nochorlikdan chiqarish, notinch oilalarni tinch oilalarga aylantirish, yoshlarni oilaviy munosabatlarga har tomonlama tayyorlash kabi muhim vazifalarni bajarilishiga xizmat qiladi. Zero, Prezident Sh.M.Mirziyoev fikricha: "Oilalar tinch bo'lsa, jamiyat ham tinch bo'ladi".

Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-3808-son qarori.

2. Akramova F.A. Oilada shaxslararo munosabatlarning oila mustahkamligiga ta'siri masalalari: Monografiya – T.: "Lesson-press" nashriyoti, 2021. – 124 b. [ISBN 978-9943-7024-0-0]

3. Akramova F.A. va boshqalar. Og'ir vaziyatga tushgan oilalar bilan ishlash tajribasi: tadqiqotlar, tahlil va tavsiyalar. Monografiya. – T.: "Ilm-ziyo-zakovat". 2020. – 184 b. [ISBN 978-9943-6551-1-5].

4. Akramova F.A. Oilaga xizmat ko'rsatish – oila mustahkamligini ta'minlovchi muhim omil sifatida. / Pedagogika, № 4 2021. B.22-26.

5. Narbayeva T.K. Mustahkam oila – millat tayanchi. "Bolalar va yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda oilaning o'rni". Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. T.2018.15 noyabr. 5- bet.

6. Акрамова Ф.А. Социально-психологические причины разводов молодых семей Узбекистана. // Материалы Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы современной науки:теория и практика» 29 мая 2020 года. – г. Нефтекамск, Бошкортостан: НИЦ «Мир науки», 2020. - С. 782-789.

Boboyeva Feruza Azimjonovna
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
tadqiqotchisi

O‘SMIRLARDA QADRIYATLAR HAQIDAGI TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishning pedagogik- psixologik determinantlari va uni faoliyat samaradorligiga ta’siri masalasi o‘z ifodasini topgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘smir, qadriyat, qaramlik, mustaqillik, kognitiv, integrativ, sotsial moslashuvchanlik, perseptiv.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ЦЕННОСТИ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье нашел свое выражение вопрос о педагогико - психологических детерминантах развития ценностных представлений у подростков и их влиянии на эффективность деятельности.*

Ключевые слова: *подросток, ценность, зависимость, независимость, когнитивный, интегративный, социальная гибкость, перспектива.*

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE DEVELOPMENT OF IDEAS ABOUT VALUES IN ADOLESCENTS

Abstract. *In this article, the question of the pedagogical and psychological determinants of the development of value concepts in adolescents and their impact on the effectiveness of activities has found its expression.*

Keywords: *teenager, value, dependence, independence, cognitive, integrative, social flexibility, perspective.*

Kirish. Jahonda jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan axborot oqimi, virtual olam kuchayib borishi millat va elatlarning madaniy uyg’unlashuvida namoyon bo’lishi, insonlar orasidagi begonalashuv holatlarini yuzaga keltirib chiqarayotgan ijtimoiy-psixologik omillar barcha dunyo mamlakatlarning ijtimoiy hayotiga o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida inson kapitali sifatida uning xulq-atvori, intellektual qobiliyatini, oshirishda madaniyatlararo o’zgarishlar integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKOning 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida[1] alohida e’tibor qaratilgan. Milliy madaniyat va qadriyatlarni o’rganishda, qolaversa, mazkur muammo bo’yicha BMTning 2019-yil 25-iyuldagi Bosh Assambleyasining 73-sessiyasida 5-aprel “Xalqaro axloq kuni” deb taklif qilingan va axloq kunini nishonlash butun dunyoda barqaror tinchlik, hamjihatlik, bag’rikenglik, birdamlik, o’zaro hamkorlikni mustahkamlash yo’lida xalqaro hamjamiyatni shuningdek, barcha imkoniyatlarni safarbar etishga alohida e’tiborini qaratgan. Shuning uchun ta’lim-tarbiya mexnizmlarini takomillashtirish, oilada o’smirlarga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq qilish dolzarb muammolardan biri bo’lib qolmoqda.

Jahon ta’lim muassasalarida va ilmiy tadqiqot markazlarida axborot ko‘lamining kengligi, virtuallashishning inson xulq-atvori va tarbiyasiga ta’siri, ijtimoiy ong va ijtimoiy xulq-atvor, ideal shaxs va barkamollik portreti, shaxsning ijtimoiylashuvida milliy va umuminsoniy fazilatlar, milliy xarakter, milliy o‘zlikni shakllantirishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada oilaviy tarbiya metodlarining yoshlar milliy tarbiyasi va xulq-atvoriga ijobiy va salbiy ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni erta

[1] Designing effective monitoring and evaluation of education systems for 2030: A global synthesiss of policies and practices (UNESCO Education Sector Division for Policies and Lifelong Learning Systems, January 2016), p 38, 52, 77

psixodiagnostikasi orqali korreksiyalashga yo‘naltirilgan tadqiqot ishlariga e’tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda oilalarning mustahkamligi, bolalarning oiladagi ta’lim-tarbiyasi jihatdan barkamolligini takomillashtirish bo’yicha axloqiy, ma’naviy va ruhiy barqarorligini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar kun sayin ortib bormoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida hukumatimizning oila mustahkamligini ta’minlash, uning ijtimoiy vazifalarini amalga oshirish, imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, oilaning farzandlar tarbiyasidagi nufuzini oshirishga ko’maklashish hamda yosh oilalarning moddiy, uy-joy, maishiy shart-sharoitlarni yaxshilash borasidagi aniq chora-tadbirlar mamlakatimizda oila va nikoh munosabatlarini qadriyat sifatida e’tirof etilishini ta’minlamoqda. “Qadriyat” tushunchasi inson va insoniyat uchun ahamiyatga molik bo’lgan millat, elat yoki qaysidir ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat ne’matlari majmui hisoblanadi. Milliy qadriyatlar mahalliy va diniy qadriyatlarga, umuminsoniy qadriyatlar esa ko’plab milliy qadriyatlarga tayanib shakllanadi va asrlar osha takomillashib sayqallanib boraveradi. Bugungi jadallashgan jamiyatda milliy va ma’naviy-moddiy boyliklarini asrab-avaylayotgan, ularni boyitib borayotgan hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jadal rivojlanayotgan har qanday davlat o’ziga xos an’analari, urf-odatlari va o’lmas qadriyatlari bilan boshqa davlatlardan ajralib turadi.

Metodologiya. Mazkur muammo bo’yicha xorij va MDH mamlakatlari psixolog olimlaridan Y.K.Babanskiy, O.S.Bogdanova, L.I.Bojovich, N.I.Boldirev, A.E.Izmaylov, V.Y.Yermolayeva, I.A.Latishev, D.A.Leontev, N.P.Ostroumov, A.B.Petrovskiy, K.Preobhajenskiy, S.L.Rubinshteyn, A.Adler, A.Bandura, E.Dyurkgeym, E.Erikson, E.Fromm, Z.Freyd, V.Frankl, Dj.Kelli, Dj.Lokk, A.Maslou, G.A.Miller, M.Mid, K.Rodjers, W.Schneider, S.Spearman, B.F.Skinner, E.Torndayk, E.Tolmen, Dj.Uotson, K.Yung va boshqalarning tadqiqotlarini keltirish mumkin.

Tadqiq etilayotgan masala bo’yicha bixevioristik yondashuv namoyondalari asosida B.F.Skinner, E.Erikson, Dj.Lokk, Dj.Uotson, E.Torndayk, E.Tolmen, K.Rodjers, A.Bandura; psixoanalitik yondashuvga ko’ra Z.Freyd, A.Freyd, E.Fromm, K.Yung, A.Adler; geshtalt yondashuv vakillariga ko’ra, F.Perls, L.Perls, P.Gudman, R.Xefferlin, I.From va boshqa olimlarning yondashuvlari mavjud.

O‘smirlarda qadriyatlar hakidagi tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladigan ijtimoiy-psixologik omillarga bevosita aloqador bo‘lgan hissiy-emotsional holatlar, shaxslararo munosabatlar, xulq-atvor, individual xususiyatlar hamda o‘quv faoliyati bilan bevosita bog’liq mobaynida «guruhni idrok etish», «guruhiy xulq-atvor motivatsiyasi» darajalarining empirik jihatdan tahlillariни амалга oshirdik.

O‘rganilayotgan muammoni maqsadiga mos ravishda o’smirlarni tarbiylashda ijobiy va salbiy ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash, tarbiyaning shakllanishiga xizmat qiluvchi milliy qadriyatlarni o‘rganish masalalariни tadqiq qilingan.

Endi tadqiqotimiz maqsadiga mos ravishda tanlangan, V.Stefansonning «Q - saralash, real guruhdagi xulq-atvorning ustuvor jihatlarini diagnostika qilish metodikasi» bo’yicha olingan natijalar tahliliga o’tamiz(1-jadval).

Demak yuqoridagi jadvalda keltirilgan empirik natijalarni tahlil qiladigan bo’lsak, O’smirlar xulq-atvorida «qaramlik» tendensiyalari bo’yicha tajriba guruhida (9,9), nazorat guruhida (9,3) ko’rsatkichlar qayd qilindi. Mazkur holat O’smirlarni boshqalarga bog’lanib qolishlari yaqqol namoyon bo’lishi bilan izohlanadi. Qolaversa, bunday toifadagi o’smirlar o’zaro hamkorlik va shaxslararo munosabatlarda raqobatdan, ya’ni «kurash»dan qochishga moyilliklari kuzatildi.

1-jadval

Guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasini o'rganish metodikasi bo'yicha olingan dastlabki statistik natijalar tahlili (n=260)

№	Omillar	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
		M	S	M	S
1	Qaramlik	9,9	1,2	9,3	1,8
2	Mustaqillik	6,7	1,3	7,3	1,4
3	Muloqotmandlik	4,3	1,1	5,2	1,5
4	Odamovilik	4,4	1,5	3,9	1,7
5	«Kurash»ga tayyorlik	5,6	1,2	6,5	1,2
6	«Kurash»dan qochish	8,5	0,9	7,3	0,8

O'smirlarning xulq-atvorida «mustaqillik» tendensiyalari esa tajriba guruhida (6,7) natijani, nazorat guruhida (7,3) ko'rsatkichni tashkil qildi. Bunday holatlar o'smirlar guruhida o'rgatilgan ijtimoiy normalarga o'z fikri va munosabatini bildirishi guruhda o'z o'rniga ega bo'lishi bilan izohlanadi.

«Muloqotmandlik» xulq-atvor tendensiyalari bo'yicha «Tajriba» guruhida (4,3), «Nazorat» guruhida esa (5,2) ko'rsatkichlar qayd qilindi. Demak, bu tendensiya o'smirlarning o'z guruhi bilan undan tashqari munosabatlarida hissiy jihatdan yaqin bo'lishi ularda faoliyat samaradorligini ta'minlaydi.

O'smirlarning xulq-atvoridagi «odamovilik» tendensiyasi «Tajriba» guruhida (4,4) va «Nazorat» guruhida esa (3,9) ko'rsatkichlarni ko'rsatdi. Mazkur holatni ular orasidagi guruhda qabul qilingan ijtimoiy norma, xulq-atvor me'yorlari hamda qadriyatlarga amal qilmaslik, o'zini shaxslararo munosabatlardan chetga olish va guruhdan ajralib qolish ya'ni autsayderga aylanishi bilan izohlash mumkin.

«Kurashga tayyorlik» xulq-atvori omili tajriba guruhida (5,6) nazorat guruhida (6,5) ko'rsatkichni qad qildi. Bunday o'smirlar guruhiy jarayonlarda faol ishtirok etishga bo'lgan toifa sanalib, boshqalar bilan munosabatlarini yanada mustahkamlashga harakat qiladi.

O'smirlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda ularning ijtimoiy munosabatlarni, guruhni perseptiv jihatdan idrok qilishi muhim sanaladi. Shu maqsadda biz o'smirlarni ta'lim-tarbiyasiga ta'sir etuvchi individ tomonidan guruhni idrok etishni o'rganish» metodikasidan foydalandik. Metodika shaxsdagi ijtimoiy va tarbiyaviy yo'nalganlikning (individ tomonidan guruhni idrok etish) uchta asosiy turini: individualistik, jamoaviylik va pragmatik turlarini aniqlash imkonini beradi.

Bizda o'smirda milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash jarayonlarini empirik o'rganildi va monitoringi olib borildi hamda aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etishga mo'ljallangan maxsus korreksion dastur ishlab chiqildi.

2-jadval.

O'smirlarning qadriyatlariga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganish so'rovnomasi natijalari (IPS) (n=260)

№	Shkalalar	5-sinf o'quvchilari (n=140)		7-sinf o'quvchilari (n=120)		t
		χ	σ	χ	σ	
1.	Oilaviy	6,1	0,8	7,9	1,1	-2,9*
2.	Ijtimoiy	4,6	0,54	6,2	1,0	-2,8*

3.	Refleksiv	4,7	1,4	6,1	0,9	-2,6*
4.	Perseptiv	5,4	1,2	6,1	0,9	-1,2
5.	Integrativ	4,1	1,4	4,2	0,9	-1,3

O'smirlarning qadriyatlariga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish so'rovnomasi natijalarida turli tafovutli farqlar kuzatildi. Ekspert baholashda o'smirlarning «oilaviy» qadriyatlarini baholash 5-sinf o'quvchilarida 6,1 ball va 7-sinf o'quvchilarida 7,9 ballni tashkil qilgan bo'lib, farqlar ishonchliligi $p<0,05$ qiymatni ko'rsatdi. O'smirlarni ushbu shkala bo'yicha natijalari ularni tarbiyasida milliy urf-odatlar, an'analar va ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar muhum o'rin egallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, oila va oilaviy munosabatlarda shaxsning kamol topishi va rivojlanishi bolaning milliy qadriyatlarga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Darhaqiqat, oilada o'smirlarni har tomonlama, ham aqlan, ham jismonan barkamol, axloqan yetuk, ma'naviy pok qilib tarbiyalash bugungi kunimizning eng muhim va dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda. Oila - qadriyatlar majmuyi, jamiyat rivojining negizi, millatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida erishilgan barcha muvaffaqiyatlarini avloddan-avlodga o'tkazuvchi qudratli kuch hisoblanadi.

O'smirlarning emotsiyalari, his-kechinmalari, boshqalarning kayfiyatini tezda sezish, suhbatdoshini tinglay olish xususiyatlari shaxslararo munosabatlarni to'g'ri shakllantirishdan dalolat beradi. Bundan ko'rinadiki, o'quvchilar pedagoglarning mahoratini bevosita mashg'ulotlar jarayonini kuzatishlari natijasida sezishadi, bu esa ularga nisbatan ijobiy munosabatlar yuzaga kelishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi o'smirlar bilan ta'lim jarayonidagi munosabatlari zarur o'rinlarda o'zaro hurmat asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda samarali natijalarni beradi.

Biz tomonimizdan maxsus ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik treninglardan so'ng o'smirlarga muloqotmandlikning o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Muloqotmandlik o'smirlarni oilada va undan tashqarisida hissiy-emotsional aloqalar o'rnatishga intilish jarayoni kelajakda samarali natija beradi. Qolaversa, muloqotmandlik o'zaro axborot almashinish jarayonini yaxshilaydi, shuningdek, ta'lim-tarbiyaga oid bilim, ko'nikma va malakalarni ham oshirishga xizmat qildi. Muloqotmandlik bu bilimlarni so'rash, tasdiqlash, anglashda sodir bo'ladigan murakkab jarayonlar bo'lib, o'smirlarni tarbiyalashda ijobiy ta'sir etishi aniqlandi.

Bizga ma'lumki, odamovilik o'smirlarda tarbiyani shakllanishida salbiy omil hisolanadi. Odamovi o'smir tortinchoq bo'ladi, tortinchoqlik bilishni va anglashni pasaytiradi. Qolaversa, odamovilik – o'smirlar qabul qilgan normalar va xulq-atvor standartlari hamda qadriyatlarni qabul qilishdan o'zini chetga olishga, oiladan ajralishga moyilligini bildiradi. Bu kabi jihatlar ta'lim jarayonida ma'lum bir darajadagi qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik treninglardan so'ng o'smirlardagi bunday sifatlar pasayishiga xizmat qildi. Bu esa o'smirlarning faollashganligi, ijtimoiy bilimlar va qadriyatlarga yo'nalganligi bilan izohlanadi.

O'smirlar o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy-psixologik trening dasturimizdan so'ng ulardagi kurashga tayyorlik sifatlarida kuzatildi. Ya'ni o'smirlarning hayoti davomida shaxslararo munosabatlarda ularning oilada yuqoriroq mavqega ega bo'lishini ta'minlab berdi. Bu kabi omillar o'smirlarni oilada milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashga ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Xulosa. O'smirlarda qadriyatlar hakidagi tasavvurlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik determinantlari yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1. O'smirlarni qadriyatlar asosida tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik omillari va vositalarini tahlil qilish oilada o'smirlarni barkamol shaxs etib tarbiyalash bilan bog'liq jarayonlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.

2. Oiladagi ta'lim-tarbiya natijasida o'smirlarni ijtimoiy taraqqiyotga erishish, madaniy qadriyatlar tahlili va milliy qadriyatlar asosida yosh avlodni zamonaviy usullardan foydalanib

tarbiyalash jarayoni amalga oshishi mumkin ekanligi tadqiqot olib borish davomida isbotlandi.

3. O‘smirlik davrida oilaviy tarbiya jarayonini tadqiq qilish alohida ahamiyatga ega bo’lib, bu davrda o’smirlar xulq-atvorida ijobiy fazilatlarga nisbatan salbiy sifatlarga moyillik ortib borib, ulardagi ertaroq akseleratsiya va pubertatsiya jarayonlari bilan izohlanadi.

4. Ota-onaning bolaga munosabati natijasida farzandga nisbatan g‘amxo‘rlik qilish, kuchli hissiy aloqa bildirish, hamkorlik omiliga bog‘liq ravishda kuchli namoyon bo‘lishi tufayli o‘smirlarda tarbiya shakllanishiga ijobiy ta’sir etuvchi mustaqillik, muloqotmandlik, kurashga tayyorlik, jamoaviylik, tartib-intizom, ko‘makni qabul qilish kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar ustuvorlik qilishi aniqlandi.

5. O’smirlarning oiladagi ta’lim-tarbiyasiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik model orqali ularda o‘zaro integrativ rivojlanish, motivatsion sohasini baholash, xulq-atvorni nazorat qilish, hissiy-emotsional, sog‘lom ijtimoiy muhit omillari asosida takomillashtirish mumkin ekanligi isbotlandi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект пресс 2000. – 139 с.
2. Гамезо М.В., Домашенко И.Н. Атлас по психологии. – М.: «Просвещение», 1986. – 112 с.
3. Каримова В.М. Ижтимоий психология. Дарслик. – Т., 2012. –172 б
4. Куницина В.Н., Казаринова Н.В., Погольша В.М. Межличностное общение/ Учебник для ВУЗов. – СПб.: «Питер», 2002 – 322 с.
5. Майерс Д. Социальная психология. СПб.: «Питер», 1997. – 688 с.

Abubakirova Nodirabegim Rafisovna
"Mamun-University" institution
English teacher
E-mail.nodirabegimabubakirova2@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5030-2742

САМОСТОЯТЕЛЬНАЯ РАБОТА СТУДЕНТОВ КАК ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ

Annotatsiya. *Maqolada talabalarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida ularning o'quv-kognitiv faoliyatini samarali tashkil etishda mustaqil ta'limni tashkil etish muammosi ko'rib chiqilgan hamda universitetda o'quv jarayonida mustaqil ta'limning rolini oshirish tendensiyasi, bu borada olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari, bugungi kun zamonaviy talabasida axborotning raqamli savodxonligi, tanqidiy fikrlash, nostandart qarorlar qabul qilish, jamoada ishlash va mustaqil jarayonda shakllanadigan shaxsiy va jamoaviy ish natijalari uchun javobgarlik kabi ko'nikmalarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *mustaqil ish, mas'uliyat, mehnatsevarlik, modernizatsiya, kasbiy kompetentsiya, do'stona muhit, o'z-o'zini tarbiyalash, nutq faoliyati.*

INDEPENDENT WORK OF STUDENTS AS A PROCESS OF FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCIES

Abstract. *The article reveals the problem of organizing independent education in the process of developing the professional competence of students with the effective organization of their educational and cognitive activities, as well as the tendency to increase the role of independent education in the educational process at universities, research work carried out by scientists in this regard, the importance of pedagogical technologies in the formation of skills such as digital information literacy, critical thinking, innovative decision making, teamwork and responsibility for the results of individual and collective work.*

Key words: *independent work, responsibility, hard work, modernization, professional competence, friendly atmosphere, self-education, speech activity.*

TALABALARNING MUSTAQIL ISHI KASBIY KOMPETENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONI SIFATIDA

Аннотация. *В статье рассмотрена проблема организации самостоятельного образования в процессе развития профессиональной компетентности студентов при эффективной организации их учебно-познавательной деятельности, а также тенденция повышения роли самостоятельного образования в образовательном процессе на университета, исследовательские работы, проводимые учеными в этой связи, Установлено значение педагогических технологий в формировании таких навыков, как цифровая информационная грамотность, критическое мышление, нестандартное принятие решений, командная работа и ответственность за результаты индивидуального и коллективного труда. в самостоятельном процессе обсуждается у современного студента.*

Ключевые слова: *самостоятельная работа, ответственность, трудолюбие, модернизация, профессиональная компетентность, дружелюбная атмосфера, самовоспитание, речевая деятельность.*

Введение. Самостоятельная работа предполагает самообразование и саморазвитие как неизменные компоненты процесса формирования профессиональных компетенций будущего учителя английского языка. В ходе самостоятельной работы учителю необходимы такие профессиональные качества как: трудолюбие, ответственность, само организованность, творчество. В статье подчеркивается, что во многих случаях, процесс усвоения знаний учащимися осложняется тем, что они не владеют приемами рациональной самостоятельной работы по исследованию иностранного языка. Учитель должен не только дать достаточное количество задания для самостоятельной работы и контроля хода ее выполнения, но, прежде всего, научить студентов эффективно работать, познакомить с стратегиями овладения различными видами языковой и речевой деятельности в иностранном языке. Для этого, студентам предлагаются такие важные дидактические средства в виде заметок различных типов и примеры их использования. В статье доказано, что эффективность технологий самообразования зависит от обеспеченности студентов методическими рекомендациями и советы, как работать эффективно.

Стратегия развития высшего образования в Узбекистане на 2020-2030 гг., обусловливающие качественные изменения в высшем образовании в ближайшие десять лет. Это – реформирование высшего образования в Республике Узбекистан, поднятие на качественно новый уровень процесса подготовки самостоятельно мыслящих высококвалифицированных кадров с современными знаниями и высокими духовно-нравственными качествами, модернизация высшего образования.

Современные образовательные технологии, условия и направления инновационного развития образования, технологии самообразования будущего педагога, его профессиональное становление и самосовершенствование всегда были в центре внимания таких ученых, как А. Н. Алексюк, В. П. Андрущенко, В. П. Буряк, И. М. Дичковская, М. А. Евтух, И. А. Зязюн, А. И. Кузьминский, Н. Г. Ничкало, О. М. Пехота, О. И. Пометун, И. Ф. Прокопенко, С. А. Сысоева, М. М. Фицула и др. По мнению ученых, современная модель развития высшего образования определяется парадигмой, которая меняет акценты по образовательной деятельности на самообразовательную. Самообразование с точки зрения представителей современной педагогической науки – это форма организации образовательной деятельности, осуществляемой в процессе самостоятельной работы непосредственно самими студентами без участия преподавателей. Процесс самообразования включает такие составляющие, как самообучение, самовоспитание и саморазвитие. Самообучение предполагает изучение специальной литературы, прослушивание лекций, просмотр учебных видео, выполнение практических задач. Самовоспитание – это деятельность, направленная на достижение определенного уровня развития личности, ее самосознания, способности к анализу своих поступков, реальной самооценки, видение своих недостатков и желание их преодолеть. Саморазвитие предполагает качественное улучшение определенной сферы жизни, личностный рост. Самостоятельная работа студентов – один из главных видов познавательной творческой деятельности студентов, который помогает студентам самостоятельно овладевать навыками систематизировать, планировать, прогнозировать свою деятельность и саморазвитие, углубляет и закрепляет потребность в самообразовании [4, с. 168].

Цель статьи – выявить эффективные способы организации самостоятельной учебно-познавательной деятельности студентов в процессе формирования профессиональных компетентностей будущих учителей английского языка.

Профессиональная компетентность учителя иностранного языка является совокупностью профессионально-педагогических компетентностей, обеспечивающих готовность к профессиональной деятельности, такие как: социально-психологическая компетентность, связанная с готовностью к решению профессиональных задач; коммуникативная; филологическая; общепедагогическая профессиональная компетентность (пси-

холого-педагогическая и методическая); общекультурная; компетентность в профессиональной самореализации [1, с. 39].

Не менее важной для успешной педагогической деятельности иметь сформированность профессионально значимых личностных качеств, таких как трудолюбие, ответственность, организованность, самостоятельность и инициативность в решении профессиональных задач, коммуникабельность, доброжелательность, креативность, педагогический такт, любовь к профессии, заинтересованность в успехах своих учеников, умение сопереживать, помогать учащимся в решении их проблем в обучении или общении с родителями и сверстниками. Все эти качества очень важны для учителя иностранного языка, ведь только в дружелюбной атмосфере, взаимоуважения и сотрудничества возможно формирование иноязычной компетенции.

Самообразовательные технологии, по определению известного украинского ученого И. Ф. Прокопенка, – «это технологии самостоятельного приобретения систематических знаний в любой области науки, техники, культуры, политической жизни и т.п.; средство самовоспитания, способствующее выработке целой направленности, настойчивости в достижении цели, внутренней организованности, трудолюбия и других нравственных качеств» [3, с. 373]. Эффективность применения самообразовательных технологий зависит от обеспечения студентов методическими рекомендациями и советами, как правильно прорабатывать учебный материал. Преподаватель должен не только давать достаточный объем задач для самостоятельной работы и контролировать ход ее выполнения, но прежде всего научить студентов, как эффективно работать, и ознакомить их со стратегиями овладения разными видами речевой деятельности на иностранных языках.

Kompetentsiya deganda insonning amalga oshirilayotgan vazifalar va hal qilinayotgan muammolarning mohiyatini chuqur anglashdan iborat bo'lgan bilimdon faoliyat uchun barqaror qobiliyati tushuniladi. Bu yaxshi bilim, ushbu sohada mavjud bo'lgan tajriba, uning eng yaxshi yutuqlarini faol o'zlashtirish; joy va vaqtning o'ziga xos holatiga mos keladigan harakat vositalari va usullarini tanlash qobiliyati, erishilgan natijalar uchun javobgarlik hissi.

Musiqa o'qituvchisi faoliyatining samaradorligi uning kasbiy mahoratiga bog'liq. Biz kasbiy kompetentsiya ko'p faktorli hodisa deb hisoblaymiz. Bu nafaqat maxsus asosiy ilmiy va uslubiy bilimlar, ko'nikmalar, balki kasbiy, balki o'qituvchining umumiy madaniyatiga, uning qadriyat yo'nalishlariga, faoliyatining mazmuni va mutaxassis sifatida o'zi haqidagi g'oyalariga bog'liq bo'lgan odamlar bilan ishlash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyati ijtimoiy va tarbiyaviy funktsiyalarning murakkablashishi tufayli yangi tarkib bilan to'ldiriladi. Ta'lim jarayonining asosi bo'lgan gumanistik printsip shaxsni umuminsoniy badiiy qadriyatlar bilan tanishtirishga yordam beradi va shu bilan birga individuallikni rivojlantiradi, insonning ijodiy o'zini o'zi anglashiga imkon beradi.

Adabiyotlar.

1. Алиев Ю.Б. Настольная книга школьного учителя музыканта. - М.:ВЛАДОС, 2000. - 336 с.

2. Баренбойм Л.А. Музыкальная педагогика и исполнительство. - Л.6 Музыка, 1974. - 336 с.

3. Барсова И. Специфика языка музыки в создании художественной картины мира // Художественное творчество. Вопросы комплексного изучения. - Л.: Наука, 1986. - С. 99 - 116.

4. Исаев И.Ф. Профессионально-педагогическая культура преподавателя. - М.: Изд. Центр «Академия», 2002. - 208 с.

5 . Каримов О. И. Бўлажак мусиқа ўқитувчиларида маънавий-ахлоқий сифатларни шакллантириш //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 377-381.

6. Нечаева Л.В. Подготовка студентов педагогических институтов к взаимодействию с учащимися: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Харьков, 1991.- 18 с.

7. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O’zbek Xalq Musiqa Merosda O’quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi // Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145

8. Холопов Ю.Н. О формах постижения бытия // Вопросы философии. -1993.-№4.- С. 106-114.

Ashurova Marhabo Sayfulloyevna
Buxoro davlat universiteti
boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
E-mail.ashurova.marhabo84@buxdu.uz

BUXORO JADIDLARINING TA’LIM-TARBIYAGA OID ASARLARIDA MILLIY TARBIYA MASALALARINING YORITILISHI

Annotasiya. Buxoro madrasasida talabalarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, talabalarga dangasa bo'lishga, xususan, loy bilan shug'ullanishga ruxsat berilmadi. Madrasada ta'lim jarayonini ikkiga bo'lish mumkin.

Kalit so‘z va iboralar: *milliy tarbiya, tarbiya, jadidchilik, madrasa, oliy maktab, usuli savtiya maktabi, Yosh buxoroliklar tashkiloti*

ОСВЕЩЕНИЕ ВОПРОСОВ НАТSIОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ В УЧЕБ-НО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ РАБОТАХ БУХАРСКИХ ДЖАДИДОВ.

Аннотация. *В бухарских медресе воспитанию студентов уделялось особое внимание. При этом студентам не разрешалось лениться и, в частности, заниматься грязью. Процесс воспитания в медресе условно можно разделить на два.*

Ключевые слова и фразы: *натсиональное воспитание, образование, джадидизм, медресе, Высшая школа, методическая школа, организатсия молодых бухарцев*

COVERAGE OF ISSUES OF NATIONAL EDUCATION IN THE EDUCATION-AL WORKS OF BUKHARA JADIDS.

Annotation. *Special attention was paid to the education of students in Bukhara madrassas. At the same time, students were not allowed to be lazy and, in particular, to do dirt. The process of education in a madrasah can be divided into two.*

Key words: *national education, upbringing, jadidism, madrasa, Higher School, usuli savtiya School, Organization of young bukharians*

Kirish. O‘tgan asr boshlarida o‘lka ziyolilarining o‘quvchilarga alohida munosabatini bildirib kelgan. Maktab darsliklari, bolalar adabiyoti matbuot nashrlarining voqelikka aylangani ta’rifga sazovor. Jadidlarning milliy ozodlik harakati xalqning moddiy hamda ma’naviy hayotini yaxshilashda diqqatni ko‘proq bolalarga qaratishi bejiz bo‘lmagan, albatta. Yangi usuldagi maktablarni ochish ehtiyoji ham “do‘konda o‘tirib nasiya yozadurg‘on xodimlar yetkazish emas”ligini anglash ehtiyoji edi. Bu maktablarning tashkilotchilari Saidrasul Aziziy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Adduqodir Shakuriy, Siddiqiy – Azjiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Muhammadsharif So‘fizoda, Abdurauf Fitrat, Sadriddiy Ayniy kabi ijodkor va pedagoglar bo‘lishgan. Ular o‘zlari ochgan maktab o‘quvchilari uchun Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval”, Munavvar Qori “Adibi avval”, Abdulla Avloniy “Birinchi muallim”, Sadriddin Ayniy “Tahsib us-sibyon” singari ko‘plab alifbo va darsliklar va ona-tili, imlo qoidalari, jug‘rofiya, hisobga doir o‘quv qo‘llanmalarini tuzib, nashr ettirdilar. Bundan tashqari jamiyatning kambag‘al oila bolalarini bilim olishiga sharoit yaratish, iqtidorli yoshlarni chet ellarga yuborib, o‘qitish maqsadida xayriya jamiyatini tashkil etdilar.

Jadidlar tuzgan xayriya jamiyati va ular yaratgan maktablar uchun darsliklar o‘sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama mukammal, komil inson qilib tarbiyalash g‘oyasi bo‘lgan.

Maktablarning o‘quv dasturi boshlang‘ich diniy ta’lim, islom asoslari, diniy ibodat, axloqiy tarbiyaga yo‘naltirilgan, atrof-muhit, jamiyat haqida ham tushunchalar bergan. Ammo maktabxonalardagi ta’lim usuli, ularning iqtisodiy ta’minoti, o‘qish muddatlari, sanitariya-

gigiyena sharoitlari talabga javob bermasligi, ularning ko‘pchiligi xayriya hisobidan yoki xususiy va jamoat mablag‘lari asosida ish yuritishi va davlat tomonidan ta’minlanmaganligi, o‘quv dasturida dunyoviy bilimlarga e’tiborsizlik, o‘qituvchilarning bilimi yetarli emasligi ularni zamon talablariga hamohang bo‘lishiga imkon bermadi.

Buxoro amirligida hukm surgan ijtimoiy-siyosiy muhit, mamlakatdagi ta’lim holatida ham yaqqol aks etib turardi. Siyosiy tuzum va ma’muriy boshqaruv kabi ta’lim tizimida ham hamon o‘rta asrlarga mansub usullar hukmron bo‘lib, ular mamlakatning taraqqiy etishiga to‘sqinlik qilar edi.

Buxoro amirligida boshlang‘ich ma’lumot tizimi o‘zining mazmuni va uslubi jihatidan bir qancha kamchiliklarga ega edi. Boshlang‘ich maktablar zamon talabidan orqada qolgan, o‘qitish usulining samarasi past edi. Bunday holat o‘z davrida bu maktablarda savod chiqargan Sadriddin Ayniy tomonidan ham qayd etilgan bo‘lib, bu haqda shunday deydi: “Ta’lim usuli juda tartibsiz edi. Biz hammamiz qoida va usulni bilmasdan qiynalar edik”[1].

Adabiyotlar tahlili. Amirlikda an’anaviy ta’lim tizimida hamon hukm surib kelgan eski usuldan biri bu yodlash, ya’ni harflar va matnlarni o‘qituvchi ovozidan ilib olinib, takrorlash usuli hisoblangan. Savod chiqarishni qiyinlashtirib, uning cho‘zib yuborilishiga olib kelar edi. An’anaviy boshlang‘ich maktablarda o‘qish va yozishga bir paytning o‘zida o‘rgatilmagan, ya’ni o‘quvchi yozishga o‘qishni to‘liq o‘zlashtirib olgandan keyingina o‘rgatilgan. Maktab o‘quvchilari “So‘fi Olloyor”, ba’zan “Xoja Hofiz” nomli kitoblarni o‘qiy oladigan bo‘lganlaridan keyingina “xatga tushgan”. Yozuvga o‘rgatishning qachon boshlanishi o‘qituvchiga va o‘quvchining individual qobiliyatiga bog‘liq bo‘lgan. Bu yerda yagona tartib qoida mavjud bo‘lmagan.

An’anaviy maktablardagi muammolardan yana biri o‘qituvchilarning maktabda ta’lim olayotgan o‘quvchilarga nisbatan bir xil munosabatda bo‘lmasligida edi. 1906 yilda e’lon qilingan “Musulmon maktablarida ta’lim” deb nomlangan tanqidiy maqolada: “Maktablarda dars beradigan muallimlarning ba’zilari boy kishilarning bolalarini alohida diqqat-e’tibor bilan o‘qitadilar. Chunki bunga sabab o‘sha muallimlarga katta-katta hadyalar berib turishadi. Boylarning bollalari ham ustozlariga pul berib turishadi. Kambag‘al, faqirning bolalariga esa deyarli e’tibor bermas edilar. Boy kishining bolasini 2-3 yilda o‘qish-yozishni biladigan qilishsa, faqir bolalari 5-6 yilda ham “Haftiyak”dan chiqmay, shu muddat ichida 4-5 ta “Haftiyak”ni yirtib, darsdan qochib ketardilar”[2], - deb ta’kidlangan.

Muhokama va natijalar. Maktablarning holati ham zamon talablariga javob bermas edi. Ularning moddiy jihatdan ta’minlanmaganligi haqida Turkiston o‘lkasining maktab va madrasalar bo‘yicha maxsus inspektori V.P.Nalivkin 1901 yilda qayd etishicha: “An’anaviy maktablarda maktab uchun qurilgan maxsus bino deyarli yo‘q. Aksari maktablarning mashg‘uloti masjidlarda yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri masjidning ayvonida yoxud masjid huzuridagi hujrada o‘tkaziladi, chunonchi tekshirilgan 142 ta maktabdan 109 tasi masjidlarda, 27 tasi maktabdorlar uyida, 5 tasi mozorlar huzurida va qorixonalarda bo‘lib, faqat bitta maktabning maxsus qurilgan binosi bor. Demak, o‘lka inspektori tomonidan tahlil etilgan maktablarning 76,7 foizi masjidlarda, 19,0 foizi domlalarning uyida, 3,5 foizi esa mozor va qorixonalarda, bor yo‘g‘i 0,8 foizgina maxsus binoda bo‘lgan. Buxoro amirligida ham ahvol bundan yaxshi emas edi.

Maktabxonalarning ko‘pchiligi maxsus binolariga ega emasligi bois ularning sanitariya-gigiyena holati va boshqa shart-sharoit ham talab darajasida bo‘lmagan. Bolalar o‘qiydigan xonalar tor, yorug‘lik yetarli darajada emas, oyna yoki derazalaridan yorug‘lik tushmas, ayrim hollarda ularning o‘rnini kichkina tuynuk bajarar, xonaning ichkarisi zax, qishda sovuq bo‘lar edi.

Sadriddin Ayniyning an’naviy maktab haqidagi xotiralarida ham “maktabning derazasidan” darsxonaga hech bir yorug‘lik kirmas edi, deb ta’kidlanganligi bejis emas edi. Maktabxonalarda bolalar bo‘yra yoki poxol ustida cho‘kka tushib, domlaga qarab o‘tirgan, xonaning ikki tomoni va poygak tomoni bo‘ylab uzun taxtalar qo‘yib qo‘yilgan. Kitoblar ana

shu taxtalar ustiga qo‘yib o‘qilgan. Qishki qattiq sovuqda maktabxona tanchasiga gulxan yoqilgan, bolalar tutun ichida oldinma-keyin yo‘tala-yo‘tala “saboq o‘qigan”. O‘tin-ko‘mir xonaning bir burchagida turgan.

Maktablardagi muammolardan biri tartib-intizomning bo‘shligida namoyon bo‘lar edi. Maktabga odatda bolalar uylarida nonushta qilib bo‘lganlaridan keyin kelib, eshik oldida to domla kelguncha, turli o‘yinlar bilan ovora bo‘lganlar. Bu o‘yinlar ko‘pincha mushtlashuv bilan tugardi. Maktabxonaga dars boshlanganidan keyin ham bolalar yakka holda yoki ko‘plashib kirib kela berishgan. Maktabxonada domla yo‘q paytlarida bolalarning to‘poloni avjiga chiqqan, ular o‘zaro kurash tushgan, mushtlashishga va hokazo. Darsning boshlanishi va tugashi soatlari aniq belgilanmagan va nazorat qilinmagan. O‘quvchilarning tanaffus va bo‘sh vaqtlari e’tiborsiz qoldirilgan.

Maktab faoliyatidagi kamchiliklarning ishga mas’uliyati nazoratga olinmaganligida namoyon bo‘lgan.

Ularni o‘quv yili davomidagi faoliyatining uzluksizligi talab etilmagan. Buni Fitrat qo‘yidagicha izohlaydi: “O‘quvchilar muallimdan saboq oladilar. Muallim ham “o‘qi” va “o‘t”dan nariga o‘tmaydi, hech kim parvo qilmaydiki, kechagi saboq o‘zlashtirildimi, bugungi saboq tushunarli bo‘ldimi yo yo‘q”. Masjidlardagi va xususiy uylardagi maktablar qanday osonlik bilan ochilgan bo‘lsa, shu taxlitda osonlik bilan yopilishi tabbiy hol. Buning uchun o‘qituvchining masjidga keluvchi namozxonlardan biri bilan kelisha olmay qolishi ham yetarli bo‘gan. Maktab yopilib, yangi o‘qituvchi topilgancha bir necha oy dars bo‘lmagan, ya’ni o‘qish faoliyati to‘xtagan. Demak o‘quv jarayonining uzluksizligiga rioya etilmagan.

“Maktab va madrasalari bo‘lmagan, yoxud bo‘lib-da nizom va tartibga qo‘yilmagan millatning holi parishon, moziysi barbod va istiqboli qorong‘u va umidsiz bo‘ladur. Bugun Buxoroda qariyib 350 qadar ibtidoiy maktablar bordur. Bulardan hech birisi tartib va intizomlik emas”, - deb yozgan edi. 1914- yilda “Oyina” jurnali. Ushbu so‘zlarning muallifi muallim Niyoziy Rajabzoda Buxoro maktablarining zamon talabiga javob bera olmay qolganidan afsuslanib, ularni isloh qilishga da’vat etgan.

Buxorodagi an’anaviy (boshlang‘ich) maktablar faoliyatini yo‘lga qo‘yishda muayyan dastur va darsliklar asosida o‘qitishning tashkil etilmaganligi va nazorat qilinmaganligi holati 1911-yilda Buxorodagi siyosiy agentlik tomonidan Turkiston general-gubernatorligi ma’muriyatiga yo‘llangan maktubda ham qayd etilgan. Boshlang‘ich maktablarda bolalar yoshiga, o‘zlashtirish darajasiga qarab alohida sinflarga emas, o‘qib turgan kitoblariga qarab quyidagi guruhlarga bo‘lingan: taxtaxonlar (ya’ni taxtaga yozilgan alifbeni o‘rganayotganlar), abjadxonlar (ya’ni bo‘g‘inlarni qo‘shib o‘qiydiganlar), haftiyakxonlar (boshlang‘ich maktabda o‘quv kitobi hisoblangan “Haftiyak”, ya’ni Qur’ondagi suralarning yettidan birini o‘rganayotganlar), qur’onxonlar (Qur’oni Karimning suralarini o‘rganayotganlar) va boshqalar. Maktab o‘quvchilari sinfdan sinfga ko‘chirilmagan, egallagan bilimi baholanmagan, darsni o‘zlashtirish qat’iy talab etilmagan, o‘quvchilar davomati rasman qayd etib borilmagan.

Maktabda dars o‘tish, ovqat yeyish, kimnidir darsxonaga kirib kelishi va boshqa sabablar bilan bo‘linib turgan. Domla darsxonada choy ichib ovqat yegan, namoz o‘qigan. Shu bois darsxona ko‘proq domlaning uyiga, xonasiga o‘xshar edi. Maktabda biror-bir ilmu-hunar yo‘qligi, maktab va madrasa ilmi o‘rtasida bog‘liqlik yo‘qligini mahalliy hukumat mansabdorlari ham e’tirof etgan.

Dars jarayonda avval peshqadam (ilg‘or) bolalarning sabog‘i o‘qitib ko‘rilgan, ularga yangi saboq berilgan, keyin o‘rta kitobxonlar bilan shug‘ullanilgan va nihoyat, qo‘yi guruhdagi bolalarning sabog‘i o‘qitib ko‘rilib, yangi saboq berilgan. Ammo har kungi darsni o‘rta kitobxonlardan boshlaydigan yoki darsni maktabxonadagi bolalarning hammasidan bir boshdan sabog‘ini so‘rab, yangi saboq berishdan boshlaydigan domlalar ham bo‘lgan. Bu sohada maktablarda yagona tartib amal qilmagan.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Buxorodagi maktablarda o‘qitiladigan usuli qadim deb atalib, uning asl mohiyati hijolab (hijjalab), ya’ni bo‘g‘inlab o‘qishdan iborat edi.

“Abjad”ning hammasi va “Haftiyak”dagi taxminan 13-14 sura hijo usulida o‘qitilgan. So‘zni hijo usulida o‘qishda avval so‘zdagi birinchi undosh harfning nomini, keyin ikkinchi undosh harfning nomini aytib, unga zarur harakatni qo‘shib, hijo hosil qilinib, keyin ularni bir-biriga urishtirib-qo‘shib, bu so‘z bir butunligicha aytilgan. So‘zlarni hijo usulida o‘qishda tovush emas, balki shu tovushni ifodalovchi harfning nomi asos qilib olingan, so‘zni tovush jihatidan tahlil (fonetik) qilishga oid hech qanday ish qilinmagan, tovushlarning qo‘shilishi bolalarga tushunarli bo‘lmagan, bolalar so‘zdagi har bir harf ma’lum bir tovushni bildirishini mutlaqo anglamagan. Hijo usulida o‘qishga o‘rgatish birinchidan, mexanik ravishda bo‘lib, ayni bir narsani qayta-qayta aytishga majbur qilingan; ikkinchidan, bola o‘zi aytgan so‘zning ma’nosini sira bilmay, maktabdordan (domladan) eshitganini takrorlay bergan; uchinchidan, bunday usulda o‘qishga o‘rgatish uchun juda ko‘p vaqt ketgan.

“Haftiyak”, odatda, bir-ikki yil o‘qitilgan. Boshlang‘ich maktabda uni boshidan-oxirigacha o‘qitilmagan, maktabdor domla zehni o‘tkirroq bolalarni tezroq Qur’oni Karimni o‘qishga o‘tkazgan. “Qur’onni arablar va boshqa musulmonlar ham maktabda tushunmay yodlab olar edilar”, - deb yozgan edi V.V.Bartold[3].

“Haftiyak”ni o‘rgangan o‘g‘il bolalar, uni asosan mexanik tarzda qayta-qayta aytish bilan yod olishar, ba’zan bolalar uni butunlay tushunmasdan yod olishar, hatto ayrim domlalar ham uning ma’nosini to‘g‘ri va to‘la tushuntirib bera olmas edilar[4]. Shoir G‘afur G‘ulom yozganidek, 16 yilda ham “Haftiyak”dan chiqmagan yigitlar bo‘lgan. Haftiyakxonlik shu qadar og‘ir bo‘lganki, har bir bola o‘nlab “Haftiyaki sharif” kitobini yirtib ishdan chiqargan[5].

“Haftiyak”ni u yoki bu darajada, ozmi yoki ko‘pmi o‘rgangan, ya’ni yod ola bilgan o‘quvchi “Chorkitob”ga o‘tar edi. Albatta, bu kitobdagi mavzular va ularning mazmuni boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatini hisobga olmagan edi.

Shuning uchun ham bolalar uning ma’nosini tushunishga qiynalar, ayrimlar esa, umuman tushunmas edilar. Chunki “Chorkitob” arabiy so‘z va iboralar bilan shu darajalar boyitilgan ediki, uni tushunish uchun kishi boyitilgan ediki, uni tushunish uchun kishi o‘ta bilimdon, bilag‘on bo‘lishi kerak edi. “Haftiyak” arab tilida, “Chorkitob” esa fors tilida yozilgan bo‘lsa ham buxorolik bolalar uchun tushunarli bo‘lgan.

Biroq an’anaviy maktabda ta’lim bergan o‘qituvchi va muallim, domlalarning ayrimlari chalasavodligi, chuqur bilimli emasligi ta’lim sifatini tushurib yuborar edi. “Menga muallimlik qilgan va saboq bergan domlaning o‘zi ham bu darslarning savod chiqarishim uchun qanday aloqalari borligini bilmagan”, - deb yozgan edi Sadriddin Ayniy. U ayrim hollarda maktab muallimlarining savodligi va bilim darajasi ham yetarli emasligini “Eski maktab” asarida qo‘yidagicha bayon etadi: “Domla oldida turgan taxtachani olib, unga allanimalarni yozdida, dadamga ko‘rsatdi. Dadam savodli kishi edi, shuning uchun ham domlaning ba’zi narsalariga e’tiroz bildirdi. Boshda domla dadamning so‘ziga ko‘nmadi. Lekin dadam ham bo‘sh kelmay, so‘zini o‘tkazdi, shunda domla: “O‘zingiz tuzating” deb taxtachani dadamning oldiga tashladi. Dadam cho‘ntagidan pichog‘ini chiqarib, domla yozgan ba’zi so‘zlarni o‘chirib, boshqatdan yozdi. Boshlang‘ich maktabda amalda bo‘lgan ta’lim usulining eng katta kamchiligi-o‘qitiladigan kitoblarning o‘z ona tilida bo‘lmaganligi, ya’ni arab tilida bo‘lgani edi. Hatto fors tilida yozilgan adabiyotlarda ham arabiy so‘zlar juda ko‘p edi. O‘quvchilar uchun o‘z ona tilida yozilgan kitoblar yaratilmagan bo‘lib, arab tilidagi kitoblardan bir parchani erkin o‘qib aytib bera olmas, ma’nosini tushuntira olmas edilar. Buxorodagi boshlang‘ich maktablardagi ko‘zga ko‘ringan kamchiliklardan yana biri- ta’lim jarayonida dunyoviy bilimlardan saboq bermaslik edi. Abdurauf Fitratning “Munozara” nomli asari ta’kidlanishicha, o‘qituvchi hatto geografiya fani nimani o‘rgatishini, qanday fan ekanini ham bilmagan.

Boshlang‘ich maktablarda xat yozishga o‘quvchilar yetarli darajada o‘qishni o‘rganganlaridan keyin o‘tilganligi sababli ko‘p bolalar bu darajaga yetib bormagan va o‘qishni to‘la savodli bo‘lib tugatmagan.

Ahmad Donishning xotirlashicha, o‘g‘il bolalar maktabidan ancha orqada bo‘lgan qizlar maktabida ko‘pchilik holatlarda “Haftiyak”ni o‘qib, Qur’oni Karimdan 2-3 ta surani o‘qishni

o‘rganish bilan qiz bolalarning o‘qish kursi tugatilgan[6]. Ammo Sadriddin Ayniyning yozishicha, o‘g‘il bolalar maktabidan ko‘ra, qizlar maktabida yaxshiroq o‘qitilgan. Qizlar maktabi soni o‘g‘il bolalarning maktablaridan ancha oz, har bir otinoyida o‘qigan qizlarning soni esa domlada o‘qigan o‘g‘il bolalarning yarmidan ham kam bo‘lgan. Qizlarning ko‘pchiligi hatto maktabga bormagan.

Ayrim hisob-kitoblarga qaraganda faqat Buxoro shahrida 16.350 nafar bola maktabga qatnagan[7]. E.Q.Orifjonovning hisoblashicha, Buxoro shahrida 20-25 ming nafar, butun amirlikda 50 ming nafar yaqin maktab talabasi bo‘lgan[8]. O‘rta hisobda Buxoro shahridagi bir masjid maktabiga 40 ga yaqin bola qatnagan. Madrasa huzuridagi maktablar kattaroq va o‘quvchilar ko‘proq bo‘lgan. Masalan, Buxoro shahridagi Imom Bahri Homid madrasasi oldidagi maktabda 200 o‘quvchi savod chiqargan[9].

Maktabning yana bir muammoli jihati undagi o‘qish muddati bilan bog‘liq edi. Maktab dasturiga ko‘ra, darsni o‘zlashtirib, tegishli kitoblarni o‘qib, mantiqni o‘rganishi uchun qobiliyatli va iqtidorli o‘quvchiga 4 yil yetarli bo‘lgan. Lekin ko‘p hollarda o‘quvchilar maktabxonalarda yillab o‘qishgan. Buning asosiy sababi o‘qitish usulining talabga javob bermasligida edi.

Buxorodagi an’anaviy maktablardagi muammolardan yana biri – o‘quvchi-bolalarni jazolash bilan bog‘liq holat edi. Ma’lumki, XX asrning boshlariga kelib Yevropa va boshqa rivojlangan mamlakatlarda ta’lim jarayonida bolalarga tan jazosi berish ta’qiqlab qo‘yilgan edi. Ammo, Buxorodagi maktablarda bu holat hanuzgacha davom etar edi. Bu holatni Abdurauf Fitrat qo‘yidagicha ta’kidlaydi: “O‘quvchilar bir muallimdan kaltak va haqoratlar eshitib, har kuni ikki saboq oladilar”.

Maktablarda darslarni o‘zlashtirmaydigan va maktab intizomiga rioya etmaydigan bolalarga nisbatan tan jazosining qo‘llanishi haqida Sadriddin Ayniy shunday deb yozadi: “Domla intizomni tayoq yordamida saqlab turar edi. Domlaning orqasida devorga suyab qo‘yilgan uzun-qisqa bir necha tayoq turar edi”. Tartibni buzgan bolalarga nisbatan jazo vositasi sifatida falloq ishlatilgan. Falloq bir yarim gaz uzunligidagi yog‘och bo‘lib, bir oz egri va ikki boshi bir tizimga bo‘lib, uning ikki uchi tugilgan bo‘lardi. Domlaning yordamchisi – xalifa ishtirokida tartibbuzar o‘quvchini jazolaganlar. Qori-Niyozov an’anaviy maktabda ta’lim olgan vaqtida uni ham falloqqa bog‘lab jazolashganlarini, oqibatda esa, bir necha kun oyoqlarini bosib yura olmaganini eslaydi[10]. Sadriddin Ayniy va Qori-Niyozov kabi mualliflarning o‘z asarlarida yaratayotganida sovet mafkurasi ta’sirida bo‘lganligini ham unutmaslik lozim. Biroq shunday holatlar maktablar faoliyatida uchrab turganligi aniq.

Boshlang‘ich maktabda bolalarni kaltaklash, falloqqa osish, mosh, jo‘xori donlari ustiga tizzasi bilan o‘tirg‘izish, ikki qo‘lini yuqoriga tikka ko‘tartirib, bir oyoqqa turg‘izish kabi jazolar “tarbiya”ning eng ta’sirli usullari hisoblangan. Maktablarda bolalarning qattiq jazolanayotganligi haqida Turkiston o‘lkasi matbuotida ham xabarlar bosilib turgan. 1900-yillardan boshlab katta shaharlardagi maktablarda bunday turdagi tan jazosi qo‘llanilmagan. Maktablarda amaliy ahamiyatga molik bilimlar berilmasligi hamda olingan bilim hayotda, turmushda deyarli qo‘llanilmasligi eng katta kamchiliklardan biri edi. Bunday holatdagi maktablarda ta’lim-tarbiya olgan kishilardan, ayniqsa, amaldorlardan yangilik va taraqqiyot kutish amri mahol edi.

Ulug‘ mutafakkirlarni tarbiyalab yetishtirgan an’naviy mahalliy maktablar XVII asrdan boshlab jahon taraqqiyotidan butunlay uzilib qolganligi, ta’lim-tarbiya tizimidagi turg‘unlik o‘z davrining ilg‘or fikrli kishilarini jiddiy tashvishga solgan. Masalan, o‘sha davr mutafakkir olimi Ahmad Donish o‘z asarlarida mavjud maktab va madrasalarni tubdan isloh qilish kerakligini qayta-qayta ta’kidlab Buxoroda ham yevropacha ta’lim tizimi bo‘lishini orzu qilgan, ilm va fan juda orqada qolganligidan afsuslangan[11]. U mamlakatda ko‘pgina bolalar tarbiyaga muhtojligini, agar bular “tarbiyat topmasalar ularning vujudlaridan dinga, Vatanga zarar yetishi mumkinligini” kuyunib e’tirof etgan. U o‘zining “Buxorodan Peterburgga sayohat” nomli asarida ayniqsa “yuqori martabali kishilar masjidlar qoshida amal qilib turgan

boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari, so‘ngra esa madrasa mudarrislari bergan ta’lim bilan cheklanib qolganligi” juda tashvishlari hol ekanligi qayd etgan[12] “yuqori martabali kishilar masjidlar qoshida amal qilib turgan boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari, so‘ngra esa madrasa mudarrislari bergan ta’lim bilan cheklanib qolganligi” juda tashvishli hol ekanligini qayd etgan. Ammo zamona taraqqiyparvarlarining bu fikrlari hukumat tomonidan e’tiborga olinmadi. XX asrning dastlabki yillarida Buxoro amirligida faoliyat ko‘rsatgan boshlang‘ich maktablar davr talabiga javob bermay qo‘ydi. Buning asosiy sabablari qo‘yidagicha edi: Birinchidan, Rossiya imperiyasi bilan Buxoro amirligining iqtisodiy va siyosiy munosabatlari tufayli o‘rta asrlar boshqaruv tuzumi hukmronlik qilgan mamlakatga kapitalistik munosabatlarning asta-sekin kirib kelishi qaror topdi. Ayniqsa, savdo-sotiqni rivojlantirish uchun Buxoro sarmoyadorlariga bilimli, hisob-kitobni biladigan, yangicha fikrlaydigan yosh mutaxassislar kerak edi. “Sadoyi Turkiston” gazetasi sahifalarida buxorolik M.Z.Mirzozodaning “Ilm va maorif” deb nomlangan maqolasi e’lon qilinib, muallif tomonidan Buxorodagi ilm fanning haqiqiy holati tahlil etiladi. “XX asr ta’lim, fan va texnika asridir. Hech bir millat, xalq fan va ta’limni taraqqiy ettirmasdan rivojlana olmaydi. Aynan, mana shu fan va ta’lim insonning din, millat ona-Vatanni tanishida muhim rol o‘ynaydi” – deb yozadi Mirzozoda[13]. “Oyina” jurnalida esa shunday deyiladi: “Bul asrni XX – asr derlar. Bul asrda bul ahvolda turmoq boisi inqirozdir. Ul, asri taraqqiydurki, tik turmayub g‘ayrat etganni yashatar va illo mahv etar. Endilikda faqat ulum va maorifning rivojiga sa’y va ko‘shish aylasak, ya’ni o‘qisak, har ish bo‘lur. Bu ahvoldaligimizning asli beilmligimizdindur. Bas muning iloji O‘qimak! O‘qimak! O‘qimakdur!”[14]. Ikkinchidan, Buxoro va Rossiya imperiyasining o‘zaro munosabatlari barqarorlashib borgan sari mahalliy sarmoyalar, amaldorlar, ziyolilar Moskva, peterburg, Nijniy Novgorod kabi Rossiyaning yirik sanoat va madaniyat markazlariga, Yevropa shaharlariga, Turkiya va boshqa mamlakatlarga ko‘proq safar qilib, u yerdagi yuksak taraqqiyotning (Buxoroga nisbatan) shohida bo‘ldilar. Ular bu yutuqlarga dunyoviy bilimlarga bo‘lgan katta e’tibor, yangicha o‘qitish tizimi tufayli erishilganligiga ishonch hosil qildilar. Masalan, Mirzo Siroj Hakim 1902-1909 yillar xorijga safaridan qaytganidan boshlab jadidchilik harakatida faol ravishda qatnasha boshlagan. Mirzo Siroj chet ellarda bo‘lganida u yerdagi ta’lim tizimini, xususan, maktab ta’limini juda yaxshi o‘rganadi, Buxorodagi an’anaviy ta’lim bilan uni taqqoslaydi: “Evropada maktab va madrasalarni ko‘rib yodimga o‘zimizdagi maktab va madrasalar keldi, esladimu yuragim g‘am va afsusga to‘ldi. Nega bizni millatimiz ilmni shuncha xor qilib, uni tark etadi. Eron ulamolari ilmga va san’atga g‘ayratli, ishtiyoqli bo‘lib, hamma shaharlarida maktablar ochgan. Tehronda jadid an’anaviy maktablari, drulmuallimin, dorulfunun, siyosiy madrasa, harbiy madrasa, tibbiy madrasa mavjud. Muallimlari Farangistonda ta’lim olishgan”[15]. Mirzo Siroj an’anaviy maktablarini, yevropa ta’lim-tarbiyani buxoroliklar uchun qanchalik ahamiyatli va zaruriy ekanligini tushuntirishda targ‘ib etishda jonbozlik ko‘rsatgan.

Uchinchidan, Buxoroning so‘nggi amirlari Abdulahadxon va Said Olimxonlar ham Rossiyaning markaziy shaharlarida bo‘lib, u yerdagi taraqqiyot darajasi bilan tanishib,amirlikda islohotlar o‘tkazishni talab qilayotgan Rossiya imperiyasi hukumatiga qarshilik ko‘rsatishga ojiz edilar. Bundan tashqari, xalq ta’limida islohotlar o‘tkazish g‘oyasi amirga yaqin bo‘lgan Ostanaqul qo‘shbegi, Nasrullo qo‘shbegi va Ikromcha domlo kabilar dunyoqarashida mustahkam o‘rin egallay boshladi.

Fitrat Buxoroda ta’lim tizimida islohotning amalga oshirilishi zarurligini qo‘yidagicha ta’kidlaydi: “Dars berish usullari xarob ahvolda. Zamonaviy ehtiyojlar taqozosidan voqif bo‘lgan o‘qituvchilarga ega emasmiz. Buxoro hukumatidan umidvorligimiz shulki, maktablar islohini bizning nuqtai nazardan boshlasalar. Aks holda bu mulk holiga voy, bu millat tole’iga afsus!”[16].

Abdurauf Fitrat keng xalq ommasi o‘rtasida ilm-ma’rifat tarqatishda jonbozlik ko‘rsatdi. U xalqning saodatga erishuvini ilm-ma’rifat va maktab-maorifda deb bildi. “Hayot yo‘lida birinchi masala-maktab masalasidir”- deb yozgan edi Fitrat[17]. Ushbu sohani isloh qilishning

otashin tarafdori bo‘lgan fitrat o‘z fikrini qo‘yidagicha bayon etgan edi: “Bundan buyon hozirgi ijtimoiy qonunlar, zamon taqozosicha maktab va madrasalarimizni isloh qilmas ekanmiz, hayot muhofazasi, milliyat sharafimizdan ojiz qolamiz”.

1914- yilda “Oyina” jurnalida “Dunyoda mavjud millatlar taraqqiyni ibtidoiy maktabdan boshlarlar. Haqiqatan, taraqqiy va taolo uchun birinchi yo‘l va asos maktabdur. Maktab isloh qilinsa umum ishlar isloh va tartibga kirdi, deb bo‘ladur”, - deb yozgan edi buxorolik muallim Niyoziy Rajabzoda.

Fayzulla Xo‘jaev an’anaviy maktablarni tanqid qilib, qo‘yidagi takliflarni bildiradi: “Xalq orasida ma’rifat tarqatmoq uchun xalq maktablari, shu maktablarga o‘qituvchilar tayyorlash, barcha tipdagi hamma maktablar uchun dasturlar ishlab chiqish, shuningdek, ularni nazorat qilib turish vazifasi yuklanadi. Hammaga maktablar ochish huquqi berilsin. Vaqflar qaramog‘idagi maktablardan tashqari bu masalada hech qanday cheklashga yo‘l qo‘yilmasin”.

Xulosa qilib aytganda, Buxorodagi boshlang‘ich maktablar aholining savod chiqarishi, diniy axloqiy tarbiyasida muhim o‘rin egallasa-da, ta’lim maskani sifatida XX asr boshlarida zamon talablariga javob bera olmas, uning faoliyatida qator jiddiy muammolar bor.

Maktablar uchun yagona o‘quv dasturi, yagona o‘quv rejasi mavjud emasdi.Ularning har biri o‘z holicha faoliyat ko‘rsatgan, o‘quv jarayoni majburiy rejaga asoslanmagan va boshlang‘ich maktablarda ta’lim jarayoni ko‘p jihatdan maktabdor domlaning faoliyati, iqtidoriga bog‘liq bo‘lgan.

O‘qitish, ta’lim-tarbiya berish usuli zamon talablari darajasidan past bo‘lgan yoki orqada qolgan.

O‘tilgan saboqning mazmunini o‘quvchilarga to‘la tushuntirish, uning mohiyatini ochib berish o‘rniga, asosiy e’tibor matnni yod olish, uning mazmunini tushunmay takrorlatishga qaratilgan. Ayniqsa, o‘qitishning harfiy usuliga amal qilinishi, uning fonetik harflar beradigan tovushlar bilan uyg‘unlashganligi, o‘qish va yozish baravar o‘rgatilmasligi savod chiqarishni murakkablashtirgan.

Maktablarni yagona darslik va o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’minlash past darajada bo‘lib, asosan, maktabdor domlaning o‘zi tomonidan qo‘lga kiritilgan kitoblar orqali mashg‘ulotlar olib borilgan.

Buxoro madraslarda talabalarning tarbiyasiga alohida e’tibor berilgan. Ayni holda, talabalarning yalqovlik va xususan, axloqsizlik qilishiga yo‘l qo‘yilmagan. Madrasalardagi tarbiya jarayonini sharti ravishda ikkiga ajratish mumkin:

1) Ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlashga qaratilgan tarbiyaviy choralar;
2) Ta’lim bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan axloqiy tarbiyaga yo‘naltirilgan choralar.

Masalan, G‘oziyon Madrasasi vaqfnomasida tarbiyaviy tadbirlar aniq ko‘rsatilagan. Ko‘pincha chor - tadbirlar moddiy jazo shaklida bo‘lgan. Darslani o‘zlashtirish soasida ta’lim dasturiningbajarilmay qolgan qismi aniqlanib, bunday talabalarning o‘qish natijalari qoniqarsiz hisoblangan hamda ular madrasa hujrasida yashash huquqidan mahrum etilgan va ularga nafaqa berish to‘xtatilgan. Yana bir jazo chorasi: agar talaba bir hafta davomida darslarga uzrsiz qatnashmasa, uning nafaqasi tegishli miqdorda kamaytirilgan[18], agarda talaba madrasada olti oy ko‘rinmasa u umuman nafaqa olish huquqidan mahrum bo‘lgan.

Xulosa. Axloqiy tarbiya berish ham moddiy jazo asosiga yo‘naltirilgan edi. Abdullaxon madrasasining vaqf shartiga ko‘ra, talaba tartibga xilof ishlar bilan shug‘ullansa, hujradan quvulib o‘qishdan haydalgan. Albatta, gunohkorlarga nafaqat moddiy jazo, shu bilan birga ma’muriy jazo chorasi ham qo‘llanilganligini manbalar tasdiqlaydi. Xulqi yaxshi bo‘lmagan va noshar’iy ishlar bilan mashg‘ul talabalar madrasadan quvilgan.

Amirlik hududidagi madrasalarda arab tilida yozilgan ”Dars jarayonlarining qoidalari” deb nomlangan to‘plamda talabalarning yurish-turishi va tartib intizomlari haqida ma’lumot berilgan[19]. Madrasalarda ko‘ngilxushlik qilishga ruxsat berilmagan. Masalan, Mir – Arab madrasasining vaqfnomasida keltirilishicha, vaqtini o‘yin-kulgu, qo‘shiq, kuy eshitish bilan yoki behuda amal bilan mashg‘ul bo‘lib, be’mani naqsh va rasmlar chizib, vaqtini zoe

ketgazganlar be'mani ishlari uchun ogohlantirilishi, shunda ham ular qaytmasa madrasadan chiqarilishi alohida ta'kidlangan.

Adabiyotlar.

1. Ayniy S.Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. – Moskva, 1926.- B.31. // Туркестанская туземная газета, 1906. – 28 марта.
2. Бартолд В.В.. Мусулманский мир.- Петроград, 1922.- С.48 // Туркестанские ведомости, 1898. – №32
3. G'ulom G'. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1953.- B.6
4. Donish A.Navodir ul-vaqoe. – Toshkent: Fan, 1964. – B.59.
5. Karimov R.H. XIX asr boshlarida Buxoroda ma'naviy hayot // Buxoro tarix sahifalari. Maqolalar to'plami.- Buxoro, 1999.- B.59.
6. Orifjonov E.Q. XX asr boshlarida Buxoro madaniyati: haqiqat va afsonalar.- Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998.- B.59.
7. Сухарева.О.К. Истории городов Бухарского ханства: историко-этнографические очерки. – Ташкент: Академии наук Уз ССР, 1958. – С.68 – 71.
8. Кары-Ниязов Т Н. Очерки истории культуры Советского Узбекистана. – М.: Академии наук СССР, 1955. – С.57.
9. Ahmad Maxdumi Donish. Risola yo muxtasare az ta'rixi saltanati xonadoni mang'itiya. – Stalinobod: Nashriyoti davlati Tojikiston, 1960. – 95 sah.
10. Ахмад Дониш. Путешествие из Бухары в Петербург. – Сталинабад: Таджикго-сиздат, 1960. – С. 226.
11. Mirzozoda M.Z. Ilm va maorif // Sadoi Turkiston, 1914. –18 iyul.
12. Shamsiy P. Ulum va maorif // Oyina, 1915. – №8.
13. Mirzo Sirojidin Hakim. Tuxafi ahli Buxoro (Safarnoma).- Dushanbe: adib, 1992. – 84-85 sahifa.
14. Fitrat A. Buxoro hukumatining islohkorona qadamlari // Oyina, 1915.- №8. – B.199. Hurriyat, 1917.-№7.
15. Qazoqov B. Buxoro eski madrasalarida ta'lim va tarbiya // Buxoroi sharif, 2006. – 28 iyun.
16. Buxoro davlat me'moriy-badiiy muzey-qo'riqxonasi fondi.14440/11inventar.

Qo‘chqarova Shakarjon Azimboy qizi
Urganch davlat Universiteti o’qituvchisi
E-mail. qochqarovashakarjon@gmail.com

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH ORQALI NUTQ O‘STIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirishda o‘qish va ona tili ta’limining uzviyligi, matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish metodlari va nutq o‘stirish bo‘yicha ta’lim texnologiyalari haqida so‘z yuritilgan. O‘qish va ona tili ta’limining xususiyatlari bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqligi hisobga olinib, bu jarayonda ona tili va o‘qish darslarida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar tavsiflangan, so‘z ustida ishlash, zid va ma’nodosh so‘zlar vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirish borasida tavsiyalar berilgan, turli xil ijodiy mashqlardan namunalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *nutq, ta‘limning uzviyligi, metod, janr, ta’lim texnologiyalari, ma’nodosh so‘zlar, nutq o‘stirish, ijodiy mashq,*

GROWING SPEECH BY WORKING ON TEXT IN ELEMENTARY SCHOOL READING LESSONS

Abstract. *This article talks about the integration of reading and native language education in the development of speech through work on the text in elementary grades, methods of development of speech through work on the text, and educational technologies for the development of speech. z is maintained. Taking into account the fact that the characteristics of reading and mother tongue education are closely related to each other, in this process, the tasks that should be carried out in the mother tongue and reading classes are described, work on words, contradictions and Recommendations are given on the development of students' speech by means of meaningful words, examples of various creative exercises are given.*

Key words: speech, integrity of education, method, genre, educational technologies, meaningful words, development of speech, creative exercise.

РАЗВИТИЕ РЕЧИ ЧЕРЕЗ РАБОТУ НАД ТЕКСТОМ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Аннотация. *В статье говорится об интеграции чтения и обучения родному языку в развитии речи через работу над текстом в младших классах, о методах развития речи через работу над текстом, а также о образовательных технологиях развития речи. . Учитывая то, что особенности чтения и обучения родному языку тесно связаны друг с другом, в этом процессе описываются задачи, которые следует выполнять на родном языке и занятиях по чтению, работа над словами, противоречия и рекомендации. даны по развитию речи учащихся посредством осмысленных слов, приводятся примеры различных творческих упражнений.*

Ключевые слова: *речь, целостность образования, метод, жанр, образовательные технологии, смысловые слова, развитие речи, творческие упражнения.*

Kirish. O‘z mohiyatiga ko‘ra nutq o‘stirish jarayoni o‘quvchi tomonidan og‘zaki va yozma badiiy til me’yorlari qoidalarini amaliy o‘zlashtirish, tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalana olish, ravon so‘zlash malakalariga ega bo‘lishini ta’minlovchi metodlar asosida pedagogik qo‘llab-quvvatlash, to‘g‘ri yo‘naltirish, zarur o‘rinlarda kerakli choralarni ko‘rish hamda jarayonga rahbarlik qilishni anglatadi. Ma’lumki, shaxsning muayyan sifatlarini tarbiyalash, mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda fanlararo uzviylik muhim ahamiyat kasb etadi. “Jamiyatda til kishilar o‘rtasidagi aloqaning zaruriy vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir”[1] Nutq

madaniyatini shakllantirish yuzasidan hosil qilinadigan bilimlar orqali o‘quvchilar insonlarning fikrlari, his-tuyg‘ulari va ichki dunyosini ifodalashda nutqning ahamiyatini anglab boradilar. O‘quvchilar nutqini rivojlantirishda nutq asosiy bilish vositalaridan biri ijtimoylashuv hamda bilimlarni egallashning kaliti ekanini anglashlariga erishish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchi nutqini shakllantirish rivojlantirishda nimalarga e’tibor berilishini ajratib olishi, aniq belgilangan o‘qitish sistemasiga ega bo‘lishi o‘quvchi nutqi rivojlanishing asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Matn ustida ishlash orqali o‘quvchi nutqini shakllantirish bu o‘quvchini asar tahliliga o‘rgatibgina qolmasdan o‘quvchida estitik, tanqidiy qarashga ega shaxs shakllanish jarayonidir. Proffesor Marg‘uba Mirqosimova ta’kidlaganidek “Badiiy tahlil oddiy o‘quv tadbiri emas, balki o‘ta muhim ma’naviy hodisadir, asar tahlilsiz mashg‘ulotda o‘qituvchi nochorligicha, darslar zerikarliligicha, asardan chiqariladigan xulosa “ijtimoiy nasihat”ligicha qolaveradi. Tahlil g‘arib bo‘lganligi uchun o‘qitish jarayoni oldiga qo‘ygan bosh maqsad- barkamol shaxs shakllantirish amalga oshmaydi.”[2]

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. M.R.Lvovning tadqiqotlarida esa bevosita “o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish” tushunchasining g‘oyaviy-nazariy tadqiqi quyidagicha bayon qilingan: o‘quvchilar nutqini rivojlantirish – nutqni: til vositalari (fonetika, leksika, grammatika, nutq madaniyati, uslublari) hamda til mexanizmlari (tushunchalarni anglash, o‘z fikrini ifodalash)ni o‘zlashtirish jarayoni [3].

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: Nutqni «rivojlantirish jarayoni bola lug‘atining va so‘zlaming assotsiatsiya asosida bog‘lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o‘zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o‘zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog‘langan holda so‘zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir»[4]

Nutq faqat fikrimizni ifodalash, axborotlarni almashish shuningdek, til vositalaridan foydalanish jarayonigina emas, balki shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi asos ham ekanligi psixologik va biologik nuqtai nazardan isbotlangan. Shu sababli yosh avlodda ilk bolalikdan nutqni rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi.


Bugungi kunda ham nutq o‘stirish “boshlang‘ich sinflar oldiga qo‘yilayotgan muhim vazifa sanaladi, binobarin, nutq har qanday aqliy faoliyatning asosi va insoniy muloqot vositasi” [5] bo‘lib, u yordamida “ta’lim tizimi oldida turgan tilshunoslik, psixologik-pedagogik, metodik-didaktik xarakterga ega” [6] o‘qitish ishlarining samaradorligiga erishiladi.

Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining og‘zaki nutqini o‘stirish, nutq o‘stirishning turlari, shakllari, o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish masalalari Q.Abdullaeva, B.R.Adizov, K.Qosimova, M.Asqarova, G.R.Akromova, F.Aminova, O.Aslonova, N.Bekniyazova, R.X.Kabilov, M.E.Jumaev, T.Ziyodova, R.Yo‘ldoshev, R.Ibragimov, M.Yo‘ldoshev, S.Matchanov, A.Nisanbaeva, N.Nurmuxamedova, Sh.Nurullaeva, M.Rixsieva, O‘.Ro‘ziboeva, A.Sayfullaev, R.Safarova, D.Toshxo‘jaeva, Q.Shodieva, F.O‘rinova, M.Hamdamova, U.Masharipova, X.Bakieva, A.Hamroev, G.Mamatovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Psixologika, pedagogika, tilshunoslik fanlarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq o‘stirishdagi badiiy-ifodaviylik, hissiy-estetik, ma’naviy-axloqiy imkoniyatlarini L.N.Galiguzova, Ye.O.Smirnova, I.R.Galperin, I.L.Garkunova, K.T.Golenkina, V.V.Gerbova, I.V.Klyuxina, V.I.Kapinos, N.N.Sergeeva, M.S.Sloveychik, L.M.Loseva, M.Lvov, N.N.Svetlovskaya, Ye.I.Matveeva, L.Petre, N.Politova, G.Pristupa, P.S.Pustavalov, A.Ragimov, T.Ramzaeva, D.M.Garipova, L.V.Рыjkova-Grishina, D.B.Elkoninlar tadqiq etishgan.

Syu Krum (Sue Croome), Margaret Feyrxoll (Margaret Fairhall), Djim Rouz (Jim Rose)larning ilmiy ishlarida kichik yoshdagi o‘quvchilar nutqini o‘stirishning shaxs intellektiga ta’siri muammolari tadqiq etilgan.


Natijalar.



1-rasm Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirishda foydalaniladigan matnlarning janr xususiyatiga ko‘ra turlari


Tadqiqot olib borish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirishda foydalaniladigan matnlarning janr xususiyatiga ko‘ra turlari quyidagicha ekanligi aniqlandi (1-rasmga qarang):

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish jarayonida ustuvor bo‘lgan tamoyillar ham aniqlandi. Ular quyidagilardir (2-rasmga qarang).



2-rasm. Boshlan‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq ishlash orqali nutq o‘stirish jarayonining ustuvor tamoyillari

Matn ustida ishlashga yo‘naltirilgan dars quyidagicha shakllarda tashkil etiladi.




2-rasm. “O‘qish” o‘quv fani bo‘yicha matn ustida ishlashga yo‘naltirilgan ta’lim shakllari

Matn ustida ishlash jarayonidagi kirish suhbatida o‘qituvchi tomonidan yozuvchi hayoti va ijodining muhim jihatlari bayon etiladi, uning asarlariga nisbatan o‘quvchilarda qiziqish tuyg‘usi uyg‘otiladi. Matnni tahlil qilish esa o‘quvchilarni ijodiy va mustaqil fikrlashga yo‘llashning muhim omili bo‘lib, bu jarayonda asarda tasvirlangan voqealarga o‘quvchilar o‘z munosabatini bildiradi, notanish so‘zlar ma’nosini bilib oladi, matnning mazmun-mohiyatini to‘liq anglab yetadi.


Matn yuzasidan umumlashtirish va xulosalar chiqarish unda aks ettirilgan masalalarni chuqur idrok etish, mavzuning ochilmay qolgan qirralari haqida mulohaza yuritish, o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratiladi.

Tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali o‘quvchilar nutqining o‘sganligini ifodalovchi ko‘nikma va malakalar ham aniqlandi.

Nazariy tahlil, ilmiy-pedagogik tajriba natijalariga tayangan holda quyidagi bilim va ko‘nikmalarga egalik asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqi o‘sganligini baholash mumkin, degan xulosaga kelindi (4-rasmga qarang).



4-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarda shakllanadigan bilim ko‘nikmalar



6-rasm. «O‘qish kitobi » darsliklarida berilgan matnosti savol-topshiriqlarning asosiy turlari

Matn ustida ishlash mohiyat e’tibori bilan asar mazmunini o‘zlashtirish, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘rganish va shu asosda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash malakasini shakllantirish orqali ma’naviy-axloqiy tarbiya berish vazifasiga xizmat qilishini hisobga olgan holda matnni so‘z orqali va grafik tasvirlash, obrazli o‘xshatishlar ustida va namuna bo‘yicha hamda matn mazmuniga oid savol-topshiriqlar ustida ishlash kabi usullar haqida batafsil ma’lumot keltirildi. Bu orqali matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarga matn tahlilini o‘rgatuvchi aniq savol-topshiriqlar ishlab chiqildi. Bu savol-topshiriqlar ma’lum mazmun xususiyatiga ko‘ra guruhlarga bo‘lindi.

Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar davomida 1- va 2-sinf «O‘qish kitobi»da berilgan matnga oid savol-topshiriqlarni quyidagicha turkumlashtirish mumkin, degan xulosaga kelindi (5-rasm).

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishning nazariy-amaliy ahamiyati yuqorida tahlil qilingani kabi yani o‘quvchi avvalo janriy xususiyatlarni bilgan holda aniq belgilangan ustuvor tamoyillar asosida darslar maqsadli tanlangan shaklda o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bunda belgilangan aniq topshiriqlar jamlanmasi asosida o‘quvchi bilim ko‘nikmalari aniqlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirishning nazariy va amaliy jihatdan tahlili davomiy mavzu hisoblanib axborotlar ko‘lami kun sayin oshgani sari qabul qilish ham ortib borishi zarur, bu esa albatta bu topshiriqlar mazmuni kengayishiga murakkablashiga asos bo‘ladi.

Bugungi kunda o‘quvchi nutqida va axborotlar bilan ishlashda asosiy muammolar:

- O‘quvchi tanishayotgan matn o‘quvchi uchun qiziqarlilik darajasi yuqori emasligi;

- O‘quvchi bilan har xil janrdagi matn bilan ishlash usullarining o‘qituvchi tomonidan aniq yo‘lga qo‘yilmaganligi;

Ushbu muammo bo‘yicha ishlash metodikalari hamda metodik loyihalar turlari ishlab chiqilmoqda,

Nutq o‘stirish jarayoni ta’lim-tarbiya taraqqiyoti tarixida hamisha asosiy masalalardan biri bo‘lib kelgan. Jumladan, eski maktablarda qiroatxonlikning keng miqyosda yo‘lga qo‘yilishi hamda o‘qitishda usuli tahajji, usuli maddiya, usuli savtiyaga amal qilinishi bevosita nutq o‘stirish bilan bog‘liq. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida usuli jadid maktablari uchun yaratilgan “Ustodi avval”, “Sabzazor”, “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Rahbari najot”, “Risolai asbobi savod”, “Qiroat kitobi”, “O‘qish kitobi” darsliklarida ham nutq o‘stirish yetakchi o‘rin tutgan. “Maktabdor domlalar o‘z usullari va tajribalariga asoslanib bolalarga saboq berganlar. Demak, O‘zbekistonda o‘qitishning o‘ziga xos usullari mavjud bo‘lgan va ular rivojlanib borgan. Bu jarayon silliq kechgani yo‘q. Ba’zi xato va kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilgan. Chunonchi, XX asrning 20-yillarida maktabni rivojlantirishda juda jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yildi. Kompleks dasturlarda ona tilini o‘rganish tizimi buzildi: grammatik, orfografik ko‘nikmalarga yetarli ahamiyat berilmadi. Savod o‘rgatishda yaxlit so‘z metodi tilning fonetik xususiyatlariga mos kelmadi, analitik-sintetik ishlarni ta’minlamadi, puxta, to‘g‘ri yozuv masalalari uchun zamin yaratilmadi. Keyinchalik 1931-yil 5-sentabr «Boshlang‘ich va o‘rta maktab haqida»gi, 1932-yil 25-avgust «Boshlang‘ich va o‘rta maktab o‘quv dasturlari rejimi haqida»gi qarorlar yuqoridagi kabi yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf qilishda va o‘quv mashg‘ulotlari tizimini ishlab chiqishda maktabga va o‘qituvchilarga yordam berdi. Tezlik bilan savod o‘rgatishda analitik-sintetik tovush metodi qayta tiklandi” [7]. Ko‘rinadiki, nutq o‘stirish va uning asosida turuvchi savod o‘rgatish muammosi uzoq tarixga ega. U tabiiy sur’atda hamisha ilg‘or fikrli ziyolilarning e’tiborini o‘ziga jalb qilgan.

Xulosa. Nutq o‘stirish – shaxs tomonidan og‘zaki va yozma badiiy til me’yorlari: to‘g‘ri talaffuz, urg‘u, grammatika, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash qoidalarini o‘zlashtirish orqali unda tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalangan holda ravon so‘zlash malakalarini rivojlantirishni ifodalovchi pedagogik jarayon. O‘z mohiyatiga ko‘ra nutq o‘stirish shaxs, jumladan, o‘quvchi tomonidan og‘zaki va yozma badiiy til me’yorlari: to‘g‘ri talaffuz, urg‘u, grammatika, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash qoidalarini amaliy o‘zlashtirish, tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalanish, ravon so‘zlash malakalariga ega bo‘lishini ta’minlovchi metod, usul, vositalar yordamida pedagogik qo‘llab-quvvatlash, to‘g‘ri yo‘naltirish, zarur o‘rinlarda kerakli choralarni ko‘rish hamda jarayonga rahbarlik qilishni anglatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish jarayonida o‘quvchilar quyidagi kommunikativ malakalarni o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladi:

1. Ifodali o‘qish bilim va ko‘nikmasi
2. Lug‘at bilan ishlash bilim va ko‘nikmalari
3. Matn bilan mustaqil ishlash bilim va ko‘nikmalari
4. Mulohaza bildirishda asosiy fikrni ochib berish malakasi.
5. Mulohaza bildirish uchun materialni yig‘ish malakasi.
6. Yig‘ilgan materiallarni tizimlashtirish malakasi.

Shunday qilib, ushbu mavzusi bilan bog‘liq ilmiy-metodik adabiyotlar, dastur va darsliklar tahlili shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq o‘stirish masalasi ta’limiy muammo sifatida mavjud ehtiyoj, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, metodik loyihalarni talab qiladi.

Adabiyotlar.

1. Karima Qosimova, Safo Matchanov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharofjon Sariyev Ona tili o‘qitish metodikasi 6-bet

2. M.Mirqosimova. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari.-Toshkent, Fan, 2006, 18-bet

3. Levov M.R. Речь младших школьников и пути ее развития. – M.: Akademiya, 2007. – 429-bet

4. D.R. Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2018, - 14-bet

5. D.R. Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. (teverak-atrofni o‘rganish misolida) – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 128-bet

6. Bekniyazova N. Бошланғич синфлар она тили дарсларида ўқувчиларга матн яратишни ўргатиш методикаси (Ta’lim o‘zbek va qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar misolida): Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012. – 160 б.

7. Bekniyazova N. Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning boshlang‘ich sinflarida o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish: Ped. fan. nomz. ...diss. avtoref. – T.: 1998. – 22 b.

Otanazarova Mohirahon Xamidbekovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI KASBIY SIFATLARINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. *Maqolada raqamlashtirish sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy sifatlarini takomillashtirish texnologiyalari shuningdek, hozirgi globallashuv davrining muhim ehtiyoji hisoblanmish maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarning bilim faolligini, dunyoqarashini va motivatsiyasini oshiruvchi zamonaviy o'quv jarayoni vositasi sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli texnologiyalarni qo'llash nazariyasi va metodologiyasining dolzarb muammolari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, kadrlar, axborot kommunikatsion texnologiyalar, raqamli texnologiya, kognitivfaoliyat, germenevtika, boshlang'ich ta'lim, raqamlilashtirish.*

ТЕХНОЛОГИИ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ЦИФРОВЫХ УСЛОВИЯХ

Аннотация. *В статье рассмотрены технологии повышения профессиональных качеств будущих учителей начальных классов в условиях цифровизации, а также информация как средство современного образовательного процесса, повышающее познавательную активность, кругозор и мотивацию детей дошкольного и младшего школьного возраста. , что является важной потребностью нынешней эпохи глобализации, - обсуждаются актуальные проблемы теории и методологии применения коммуникационных технологий и цифровых технологий.*

Ключевые слова: *образование, кадры, информационно-коммуникационные технологии, цифровые технологии, познавательная деятельность, герменевтика, начальное образование, цифровизация.*

TECHNOLOGIES FOR IMPROVING PROFESSIONAL QUALITIES OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS UNDER DIGITAL CONDITIONS

Abstract. *In the article, technologies for improving the professional qualities of future primary school teachers in the conditions of digitization, as well as information as a means of the modern educational process that increases the cognitive activity, outlook and motivation of children of preschool and primary education age, which is an important need of the current era of globalization. -actual problems of the theory and methodology of the application of communication technologies and digital technologies are discussed.*

Key words: *education, personnel, information and communication technologies, digital technology, cognitive activity, hermeneutics, primary education, digitization.*

Kirish. Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi oliy ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni ta'minlashga qaratilgan islohotlar natijasida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Asosiy qism. Hozirgi kunda ta'limni axborotlashtirishning yo'nalishlaridan ta'lim jarayoni sub'ektlari uchun sharoit yaratish, jamiyatda tobora ko'payib borayotgan ma'lumotlardan: ma'lumotlar bazalari, elektron arxivlar, ma'lumotnomalar, ensiklopediyalardan erkin foydalanishiga ko'maklashish, shuningdek faol foydalanish, talabalar shaxsini shakllantirish jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalari.

Axborotlashtirish muammolarini hal qilish uchun bolalikdanoq axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ehtiyojlari va imkoniyatlarini shakllantirish zarur. Shu sababli, bizning fkrimizcha, jamiyatni axborotlashtirishning asosiy yo‘nalishi boshlang‘ich maktabdir.

Shu munosabat bilan zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi zamonaviy mikroprotsessor va kompyuterlar asosida amalga oshiriladigan axborotni to‘plash, izlash, to‘plash, saqlash, ishlab chiqarish, qayta ishlash, uzatish va undan foydalanish bo‘yicha maxsus bilim va ko‘nikmalarsiz mumkin emas. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar o‘qituvchilarning ta’lim sifatini baholash kompetentsiyasining ajralmas qismi bo‘lishi kerak.

O‘qituvchining kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar, ularning ulug‘lanishi Sharq mutafakkirlari Ismoil al-Buxoriy, Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Abdulla Avloniylarning asarlarida o‘z ifodasini topgan. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni tayyorlash muammolari respublikamiz va chet ellik mutaxassislar tomonidan bir qator adabiyotlarda yoritilgan. Oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakllantirish, o‘z-o‘zini boshqarish asosida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish va kasbiy shakllanganlikni tashxislash masalalari M.A.Abdullajonova, O.A.Abdulina, A.A.Akbarov, X.A.Abduraxmanova, S.V.Safonovalarning tadqiqotlarida o‘rganilgan. O‘qituvchining kasbiy mahoratini tadqiq qilgan pedagog olimlar H.Abdukarimov, N.Azizxo‘jayeva, A.Aliyev, Yu.A.Axrorov, A.A.Verbitskiy, R.H.Jo‘rayev, B.R.Jo‘rayeva, J.G’. Yo‘ldoshev, S.M.Markova, G.M.Maxmutova, L.M.Mitina, A.G.Morozov, U.N.Nishonaliyev, M.Ochilov, B.Raximov, N.Saidahmedov, V.A.Slastyonin, O‘.Tolipov, A.R.Xodjaboyev, A.A.Xoliqov, N.Shodiyev, O.Haydarova, A.A.Hamidov, F.R.Yuzlikayevlarning ishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, ta’lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, talabalarning dunyoqarashlari, kasbiy va muloqot madaniyatini rivojlantirish yo‘llari va usullari, shuningdek, o‘qituvchilarni kasbiy tarbiyalash va tayyorlash muammolari tadqiq etilgan.[1]

O‘qituvchilarni tayyorlash sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ilgari surilgan o‘qituvchi kasbiy professiogrammalarining tahlili hamda jamiyatning o‘qituvchilik kasbiga qo‘yayotgan talablari asosida pedagogik oliy ta’lim muassasalari bitiruvchisining sifatlari ishlab chiqildi. Pedagogik oliy ta’lim muassasalari boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisining sifatlari quyidagicha guruhlandi:

1-guruh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga DTSda belgilangan bilim, ko‘nikm, malaka, kompetensiyalarni shakllantirishga psixologik tayyorgarlik: jamiyat hayoti, yosh avlod tarbiyasida o‘zining alohida rolini anglab yetish. Hozirgi zamon o‘qituvchisi oldiga qo‘yiladigan talablarni bilish, pedagogik faoliyatga qobiliyatning mavjudligi, o‘qituvchilik kasbiga qiziqish, nerv sistemasining egiluvchanligi, chuqurligi va kuchliligi, undagi psixik jarayon (his qilish va idrok, diqqat, tasavvur, fikrlash, xotira, nutq, iroda)larning optimal holatdaligi. Pedagoglik kasbiga va o‘quvchilar bilan muloqotga kirishishga bo‘lgan ehtiyojini anglash.

2-guruh. Shaxs sifatlari: insonparvarlik, ma’lumotlilik, ma’naviy dunyosining mazmuni, madaniyati, eruditsiyasi (iqtidori), o‘z bilimini doimo oshirib borish, pedagogik odobga egalik, talabchanlik va adolatlilik, axloqiy qiyofasi, o‘z o‘quvchilariga o‘qish, ishlash va yashashda namuna bo‘la olish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni hurmat qilish.

3-guruh. Kasbiy sifatlar: o‘quvchi-yoshlarning o‘ziga xos va yosh xususiyatlarini bilish, har bir o‘quvchi shaxsini loyihalashtira olish; didaktik bilimlarning mavjudligi; o‘z o‘quv predmetini va unga doir so‘nggi yangiliklarni bilish, o‘quv reja, dastur, o‘quv qo‘llanmalar, darslik va qo‘shimcha adabiyotlarni bilish; ta’lim vazifalari, funksiyalari va tashkiletish tamoyillarini bilish; o‘quv dasturiga tuzatishlar kiritishni bilish, eskirgan ma’lumotlarni olib tashlash, o‘rniga yangi, zamon talablariga mos, jonajon o‘lka tarixi, madaniyati, xalq

[1] Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности у студентов педагогического вуза: Дисс....канд. пед. наук. - С.: 2004. - 190 с.

an'analari xususiyatlariga mos keladigan materiallarni qo'ya olish; o'quv ishlarini rejalashtirishni bilish (kalendar va dars rejalari); o'quvchilarning ta'limi, tarbiyasi va rivojlanishini ta'minlovchi, ta'limning eng ta'sirchan, noan'anaviy shakl va metodlarini tanlay olish va ijodiy qo'llay olish ko'nikmasi; xalqaro aloqalar imkoniyatlaridan foydalana bilish ko'nikmasi; ta'lim jarayonida, auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlar jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilishga doir bilim va ko'nikmalarning mavjudligi; o'quv-tarbiyaviy ishlarni samarali olib borishda erishgan yutuqlarida to'xtab qolmaslik, faol ijodiy izlanishda davom etish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisini kasbiy tayyorlash. O'zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash muhim vazifa hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik qonuniyatlar va texnologiyalar bilan chuqur tanishtirish;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarini intellektual va ma'naviysalohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish;

- dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

- ta'lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o'qituvchilari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag'batlantirish;

- pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini «hayot davomida o'qish» tamoyili asosida takomillashtirib borish;

- ilmiy-tadqiqot va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sohasida davlatxususiy sheriklikni rivojlantirish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

- ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish.[1]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish muammosini ilmiy jihatdan tahlil qilish natijasida quyidagi qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlandi:

• zamonaviy ta'limni innovatsion jarayonlarga yo'naltirish va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion o'quv jarayonini amalga oshirishga doir nazariy va uslubiy tayyorgarligi o'rtasida;

• boshlang'ich sinf o'qituvchisini uzluksiz kasbiy rivojlantirish zarurati va mavjud holatda bu jarayonga ilmiy-metodik yondashuvlar yetarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasida;

• o'qitishning an'anaviy bilimga asoslangan yondashuvi va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirishda

[1] Ангеловски К. Учителя и инновации. Книга для учителя. -М.: Просвещение, 1991, -С.159.

kompetentlikka asoslangan, faol va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni talab qiladigan ta’limdagi zamonaviy innovatsion tendensiyalar o‘rtasida;

• o‘qituvchilarning innovatsion metodik tayyorgarligi sifatini oshirish zaruriyati va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish uchun rivojlantiruvchi texnologiyalar va mexanizmni resursli qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi o‘rtasida.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности у студентов педагогического вуза: Дисс....канд. пед. наук. - С.: 2004. - 190 с.

2. Абрамян Г.В. Теоретические основы профессионального становления педагога в информационной среде: автореф. дисс. пед. наук. - Санкт-Петерберг, 2001. - 39 с.

3. Ангеловски К. Учителя и инновации. Книга для учителя. -М.: Просвещение, 1991, -С.159.

4. Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности у студентов педагогического вуза: дисс....канд. пед. наук. - С.: 2004. - 1 90 с.

5. Бадагуева О.Р. Формирование готовности будущего учителя к инновационной деятельности в условиях педагогического колледжа: автореф. ... дисс. пед. наук. -Улан-Удэ, 2006. -24 с.

6. Artiqboyeva Z.A. Malaka oshirish tizimida maktab matematika o'qituvchilarining kasbiy-metodik ko'nikmalarini takomillashtirish: ped.f.n. ... diss. - T.: 2004. - 163 b.

7. Benjamin Crowell. Newtonian Physics// Light and Matter / Fullerton, California-2012. Benjamin Crowell Revolution in PhysicsThe Modern Light and Matter Fullerton, California-2012.

Алламбергенова Бахаргул Худайбергеновна
Соискатель Нукусский филиал
Узбекского государственного университета
физического воспитания и спорта

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ПЕРЕДАЧИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ПРАВАХ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ

Аннотация. *Данное исследование посвящено изучению значения использования учебных игр на занятиях английским языком для студентов университетов. Учебные игры не только повышают интерес студентов к изучению языка, но и улучшают их коммуникативные навыки, креативность и умение работать в группах. В исследовании анализируется роль учебных игр в усилении мотивации и закреплении практических знаний. В качестве метода рассматриваются различные форматы игр и их эффективность в преподавании английского языка.*

Ключевые слова: *интерактивные методы обучения профессионально-ориентированный английский язык проектная деятельность кейс-стади круглый стол самообразование личностное развитиею.*

OLIY TA’LIMDA INGLIZ TILI O‘QITISHNING INTERFAOL METODLARI: INNOVATSION JARAYONLARINING MUHIMI

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot universitet talabalari uchun ingliz tili darslarida ta'limiy o'yinlardan foydalanish muhimligiga qaratilgan. O‘quv-tarbiyaviy o‘yinlar o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmay, balki muloqot qobiliyatlarini, ijodkorlikni, guruhlarda ishlash ko‘nikmalarini oshiradi. Ushbu tadqiqot motivatsiyani oshirish va amaliy bilimlarni mustahkamlashda o'quv o'yinlarining rolini tahlil qiladi. Usul sifatida turli xil o'yin formatlari va ularning ingliz tilini o'qitishdagi samaradorligi ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *interfaol o'qitish usullari kasbiy yo'naltirilgan chet tilini o'rgatish loyiha faoliyati Cases study usuli davra suhbati o'z-o'zini tarbiyalash shaxsiy rivojlanish.*

INTERACTIVE METHODS OF TEACHING ENGLISH IN HIGHER EDUCATION: THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE PROCESSES

Annotation. *This study focuses on the importance of using educational games in English language classes for university students. Educational games not only increase students' interest in learning the language but also enhance their communication skills, creativity, and ability to work in groups. This research analyzes the role of educational games in boosting motivation and consolidating practical knowledge. Various game formats and their effectiveness in English language education are examined as a method.*

Key words: *interactive training methods professionally-oriented foreign language training project activities case study method round table talk self-education personal development.*

В настоящее время наиболее эффективными методами обучения считаются те, которые основаны на деятельностных и диалоговых формах познания, позволяющих студентам:

• быть открытыми для обучения и активно включаться во взаимоотношения и сотрудничество с одногруппниками;

• анализировать собственную учебную деятельность;

• реализовывать свой творческий, поисковый и научно-исследовательский потенциал;

• подготовиться к будущей деловой и профессиональной деятельности;

• отстаивать свои позиции, уметь воспринимать критику и работать над своими ошибками при постоянной помощи и поддержке преподавателя [1].

Одними из эффективных и оптимальных методов решения поставленных задач являются, на наш взгляд, интерактивные методы, с которыми сегодня связаны основные методические инновации в сфере иноязычных образовательных технологий.

1. Интерактивные методы как эффективные способы обучения иноязычному общению. В данной статье под методами обучения иностранному языку мы, как и Н. Д. Гальскова, понимаем «совокупность способов и приемов совместной согласованной деятельности учителя и учащихся, а также учащихся друг с другом, в процессе которой последними достигается определенный уровень владения иностранным языком и оказывается существенное развивающее воздействие на личность обучаемого, на его способности и готовность пользоваться изучаемым языком как средством социального взаимодействия и взаимопонимания с представителями иной культуры, средства познания последней» [2, с. 14].

Анализ литературы. Вопрос об использовании текста как основного средства обучения на уроках русского языка наиболее освещен в лингвистической и научно-методической литературе к. В разные годы выдающимися лингвистами, психологами и педагогами 20 века были м.Т. Баранов, М.А. Рыбникова, Н.М. Шанский и другие исследователи. Сегодня А.Д. работах Н. Д. эйкина, Т.А. Ладыженская, М.Р. Львовым и другими современными учеными он получил полное обоснование. В лингвистике текст определяется как кат-Егория, который показывает “язык в движении”. Именно это качество текста делает речевую среду на уроке не искусственной, а вполне естественной. Работа с текстом должна стать полилогом, в котором каждый читатель становится активным участником. Создание атмосферы совместной творческой деятельности учителя и ученика на уроке русского языка вызывает у школьников интерес к работе с текстом. Особое внимание следует уделить такому виду работы, как сложная работа с текстом.

Формирование навыков профессиональной иноязычной коммуникации предполагает интеграцию использования специализированного языкового материала и соблюдение профессиональной этики устного и письменного общения. По нашему мнению, современные методы обучения должны:

• создавать атмосферу на занятии, в которой студенты чувствуют себя уверенно и свободно, чему способствует правильно подобранный и информативно насыщенный языковой материал с учетом профессиональных интересов студентов и достаточного высокого уровня сложности;

• инициировать активность студентов, обеспечивать развитие критичности мышления, стимулировать обмен ценностными суждениями;

• учитывать интересы обучаемых, развивать у них желание практически использовать английский язык в реальных (по возможности) и условных производственных, деловых, исследовательских и межличностных ситуациях общения;

• апеллировать к личности студента в целом, вовлекать в учебный процесс его эмоции, чувства и ощущения, соотноситься с его реальными потребностями, развивать его речевые, когнитивные, творческие способности;

• мотивировать студентов, делая их главными действующими лицами в учебном процессе, активно взаимодействующими друг с другом и преподавателем;

• создавать ситуации, в которых студент осознает, что изучение специализированного английского языка в большей степени связано с его личными познавательными, волевыми и деятельностными качествами, а не с предложенными преподавателем заданиями, приемами и средствами;

• организовывать самостоятельную работу над языком, обеспечивать дифференциацию и индивидуализацию учебного процесса;

• предусматривать различные формы аудиторной работы: индивидуальную, парную, групповую, коллективную, стимулирующей активность обучаемых, их самостоятельность и творчество.

Основываясь на данных принципах, мы считаем, что интерактивные методы как нельзя лучше соответствуют целям обучения профессионально-ориентированному английскому языку.

Интерактивные методы - это методы, направленные на взаимодействие между участниками образовательного процесса; а интерактивное обучение - обучение, базирующееся на таком взаимодействии, при этом роль преподавателя заключается в фасилитации активности обучаемых.

Цель интерактивного обучения - это создание преподавателем условий, в которых учащийся сам будет открывать, приобретать и конструировать знания. Суть интерактивного обучения состоит «в особой организации учебного процесса, когда все учащиеся оказываются вовлеченными в процесс познания» [3, с. 7].

Взаимодействие студентов означает, что каждый вносит свой личный вклад в нахождение путей решения поставленной задачи, при этом происходит обмен знаниями, идеями, способами деятельности в атмосфере доброжелательности и взаимной поддержки, что позволяет не только получать новые знания, но и переводит познавательную деятельность на более высокие формы кооперации и сотрудничества [4; 5]. В интерактивном обучении, по сравнению с традиционным, меняется взаимодействие преподавателя и студентов: активность первого уступает место активности самих студентов, а его задачей становится создание условий для их инициативы.

Целью применения интерактивных методов и приемов в обучении профессионально-ориентированному английскому языку является формирование навыков делового и профессионально интегрированного взаимодействия будущих специалистов в процессе межкультурной устной и письменной коммуникации на английском языке. К настоящему времени уже накоплен богатый опыт применения интерактивных методов на уроках иностранного языка [см. их подробное описание в: 1; 6; 7].

Раскрою сущность некоторых интерактивных методов, которые являются инновационным в практике преподавания иностранных языков.

Условием эффективного обучения иностранному языку в условиях научно-технического и информационного взрыва является, по нашему мнению, сочетание традиционных интенсивных методик обучения с разработкой и использованием в практике обучения ряда современных интерактивных методов, которые ориентированы на личность студента, более широкое взаимодействие обучающихся не только с преподавателем, но и друг с другом, а также на повышение активности студентов в процессе обучения. Необходимо создать такие педагогические условия, которые способствовали бы оптимальному использованию резервных возможностей личности и приводили бы к эффективному ускоренному обучению.

Эффективное обучение иностранному языку возможно, если преподаватель, организующий обучение, владеет современной технологией преподавания. Любая современная педагогическая технология представляет собой синтез достижений педагогической науки и практики, сочетание традиционных элементов прошлого опыта и того, что создано общественным прогрессом. Современная педагогика и методика предлагают большое разнообразие интерактивных технологий, которые целесообразно использовать при ускоренном обучении учащихся иностранным языкам. В основе интерактивных технологий лежит взаимодействие преподавателя и студентов, которое проявляется через диалоговое, полилоговое общение, реализуемое посредством интерактивных упражнений и заданий.

На занятиях по иностранному языку в учебном процессе применяются следующие интерактивные методы обучения:

– игровые технологии;

– Интернет-технологии и средства мультимедиа.

Как показала практика, только интерактивные формы обучения могут обеспечить высокую мотивацию, прочность знаний, творчество и фантазию обучаемых, коммуникабельность, активную жизненную позицию, командный дух, свободу самовыражения, желание совершенствоваться. Использование интерактивных методов в период обучения иностранному языку соответствует современной концепции обучения, в основе которой лежит принцип активной деятельности обучающихся. Задача преподавателя заключается в том, чтобы научить их сознательно овладевать языковым материалом в процессе коллективной деятельности и широкого использования ситуативного и коммуникативного подходов в обучении иностранному языку.

Примером некоторых интерактивных подходов, применяемых мною на занятиях, являются:

1. ***Ролевая игра.***

Анализ опыта педагогической деятельности показывает, что продуктивной технологией изучения иностранного языка учащимися, средством повышением мотивации обучения является ролевая игра. Основными этапами обучающей ролевой игры являются: выдвижение и обсуждение идеи относительно коммуникативной ситуации (обязательным элементом ролевой игры является разрешение проблемной ситуации), набора ролей и примерного хода и правил предстоящей игры; распределение ролей и определение содержания (сценария) ролевой игры; подготовка комплекта игровой документации (опознавательные знаки, эмблемы, плакаты); индивидуальная подготовка каждого обучающегося к предстоящей игре; проведение ролевой игры; подведение итогов. Следует отметить, что каждый этап в алгоритме осуществления ролевой игры важен, но особенно необходимо отметить заключительный этап, который складывается из оценок и самооценок индивидуального вклада каждого обучающегося в подготовку и проведения игры, адекватности иноязычных высказываний исполняемой роли и наличной коммуникативной ситуации, а также правдивости и выразительности ролевого поведения.

Детально продуманная и методически грамотно организованная ролевая игра способствует активному включению студентов (даже самых робких и застенчивых) в процесс обучения, их самоутверждению и повышению самооценки, качественному усвоению дидактического материала; вызывает потребность в общении; ориентирует на умение планировать собственное речевое поведение и поведение собеседника; развивает творческие способности, внимание, память, мышление, умение контролировать свои поступки; улучшает взаимоотношения с однокурсниками и преподавателями. Более того, профессиональные игры позволяют задать в обучении предметные и социальные роли будущей профессиональной деятельности, развивать профессиональное, творческое мышление.

Ролевая игра - это обучение в действии. Ситуация ролевого общения повышает качество обучения и является стимулом к развитию спонтанной речи. Ролевая игра дает студентам возможность выходить за рамки своего контекста деятельности за счет разнообразных социальных и межличностных ролей; позволяет предвосхищать свой будущий личный опыт путем проигрывания ролей людей различных профессий; создает благоприятный психологический климат на занятии. При правильной организации ролевая игра создает атмосферу общения, которая должна вызвать у обучающихся внутреннюю потребность в выражении мысли на иностранном языке. Одновременно, ролевая игра служит средством закрепления полученных речевых навыков и умений.

Задача игры: выработка для исполнителя каждой роли оптимальной стратегии поведения. Основными параметрами, определяющими характер ролевой ситуации, является наличие единого сюжета, соответствующего избранной коммуникативной ситуации, и ролевых отношений между участниками общения. Когда обучающиеся принимают роль,

они играют самих себя или какого-либо персонажа в специфической ситуации. Поэтому в ролевой игре нет зрителей и каждый из участников может представить себя в предложенной ситуации. Кроме того, формируются надпредметные компетенции: исследовательские, коммуникативные, организационно-управленческие, умения и навыки работы в команде.

В процессе обучения данная форма работы применяется для моделирования поведения и эмоциональных реакций учеников при изучении тем: «В аптеке», «У врача», «Достопримечательности города» и др. Пример ролевой игры можно рассмотреть на занятии Тема: «Путешествия. Отдых. На пляже».

2. ***Мультимедийные технологии.***

Вопрос о применении новых информационных технологий при обучении английскому языку становится все более актуальным. Совершенно очевидно, что использование компьютера и мультимедийных средств для интенсификации процесса обучения помогает не только осуществить личностно-ориентированный подход в обучении, но и обеспечить индивидуализацию и дифференциацию с учетом уровня знаний учащихся.

Для достижения нового качества образования, действительно адекватного современности, преподаватель английского языка не только должен овладеть информационно-компьютерными технологиям, но и осознать, насколько изменяется подход к процессу обучения, когда традиционно руководящая и контролирующая функции постепенно замещаются ориентирующей и систематизирующей. Только при этих условиях может полноценно осуществляться целенаправленная совместная деятельность учителя и учеников в информационно-образовательной среде (ИОС).

Если в традиционном обучении главной задачей являлись передача студентам определенной суммы знаний, формирование ряда умений, то цель обучения в ИОС – научить обучающихся ставить и решать познавательные проблемы, а для этого находить, перерабатывать, использовать и создавать информацию, ориентироваться в информационном пространстве.

В последние годы наиболее универсальным техническим средством обучения стали электронные интерактивные доски. Интерактивные доски – это эффективный способ внедрения электронного содержания учебного материала и мультимедийных материалов в процесс обучения, обеспечивающий мотивацию обучаемого на активную плодотворную деятельность. Заранее подготовленные тексты, таблицы, картинки, музыка, карты, тематические видеофрагменты позволяют эффективно подать материал, проводить занятие динамично, используя различные стили обучения, развивают творческую активность, увлечение предметом, что, в конечном счете, обеспечивает эффективность усвоения иностранного языка.

Список использованной литературы.

1. Ш. Амонашвили. Размышления о педагогике гуманизма. - М., 2001.
2. Беспалко В.Р. Педагогика и передовые образовательные технологии. - М., 1995.
3. Суворова В.Р. Обучение восприятию и созданию текста-единый творческий процесс // Ряш. - 2001. - Выпуск 6.
4. Ст Епанова л.S. Анализ текста как основной вид подготовки к экзаменам // Ряш. - 2001. - Выпуск 2.
5. Архипова E.V. теория и практика обучения русскому языку: учебник. помощь студентам выше р ed. учебные заведения изд. R.B. Сабатко Ева. - М.: Издательский центр" Академия", 2005. - Б. 9.
6. Балихина Т.М. Содержание и структура профессиональной компетенции филолога. Методические проблемы преподавания русского языка. Дис. три для заявления о приеме на работу. Арт. док. изд. Sci. М.: 2000. - Б. 59.

Beknazarov Raxat Axmet ulı
UZDJTSUNF stajyor-o'qituvchi

BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDA BADMINTONCHILARNING KOORDINATSION QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida badmintonchilarni koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish ushbu sport turidagi asosiy mahoratlarni egallash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Koordinatsiya sportchining harakatlari tezkor va aniq bo'lishini ta'minlaydi, bu esa o'yindagi samaradorlikka bevosita ta'sir qiladi. Ushbu maqola boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida badmintonchilarni koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish usullari, metodlari va mashqlariga bag'ishlangan. Ushbu jarayonda harakatlarni to'g'ri muvofiqlashtirish, balandlik va tezlikni nazorat qilish, hamda maydonni samarali boshqarish muhim o'rin tutadi.*

Kalit so'zlar*: badminton, koordinatsion qobiliyat, boshlang'ich tayyorgarlik, harakatlar muvofiqligi, jismoniy tayyorgarlik.*

РАЗВИТИЕ КООРДИНАЦИОННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ БАДМИНТОНИСТОВ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ПОДГОТОВКИ

Аннотация. *Развитие координационных способностей у игроков в бадминтон на начальном этапе подготовки играет важную роль в овладении основными навыками этого вида спорта. Координация обеспечивает быстроту и точность движений спортсмена, что напрямую влияет на эффективность его игры. В данной статье рассматриваются методы, техники и упражнения, направленные на развитие координационных способностей у игроков в бадминтон на этапе начальной подготовки. Важное значение имеют правильная координация движений, контроль высоты и скорости, а также эффективное управление пространством на поле.*

Ключевые слова*: бадминтон, координационные способности, начальная подготовка, координация движений, физическая подготовка.*

DEVELOPMENT OF THE COORDINATION ABILITY OF BADMINTON PLAYERS IN THE INITIAL PREPARATORY STAGE

Abstract*. The development of coordination abilities in badminton players during the initial preparation stage plays a crucial role in mastering the fundamental skills of the sport. Coordination ensures that the athlete's movements are swift and precise, directly impacting performance efficiency in the game. This article focuses on methods, techniques, and exercises for developing coordination abilities in badminton players during the initial preparation phase. Proper movement coordination, control of height and speed, as well as effective field management, are key elements in this process.*

Key words: *badminton, coordination abilities, initial preparation, movement coordination, physical preparation.*

Kirish. Koordinatsion qobiliyatlar insonning jismoniy rivojlanishidagi muhim omillardan biri bo'lib, u turli xil sport turlari uchun, ayniqsa badminton kabi tezkorlik va aniqlik talab qiladigan o'yinlar uchun asosiy ahamiyat kasb etadi. Badminton sportida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sportchilar o'zlarining harakatlarini aniq nazorat qila olishlari, o'yin vaziyatiga tezda moslashishlari va aniqlik bilan zarba berishlari lozim. Ushbu qobiliyatlar muvaffaqiyatli o'yin ko'rsatkichlarini ta'minlashda va yuksak sport mahoratini rivojlantirishda zarurdir.

Jismoniy tarbiya va sport oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassisning ijtimoiy shakllanishi, uning jismoniy barkamollikka erishishi, talabalar uchun muhim individual,

shaxsiy va professional sifatlarni faol takomillashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish, maxsus bilimlar, harakatlanish malakalari va ko‘nikmalari tizimi egallab olish bo‘lajak mutaxassislarning professional faoliyatida psixofizik tayyorgarligini ta’minlaydi, ularga jismoniy tarbiya vositalari hamda metodlaridan yuksak darajada ish bajaruvchilik qobiliyatini va ijodiy ta’minlash uchun o‘z mehnat jamoalarida sog‘lom turmush tarzini jismoniy tarbiya va sportni targ‘ib qilishda ulardan faol foydalanishga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida badmintonchilarni koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish mavzusini turli olimlar va mutaxassislar sport pedagogikasi, fiziologiya va sport psixologiyasi doirasida o‘rgangan. Bu mavzu, ayniqsa, sportchilarni tayyorlash jarayonida asosiy o‘rin tutadi. Quyida ushbu sohada tadqiqot olib borgan ba’zi olimlar va ularning ishlarini keltirib o‘tamiz**:** A. Yu. Kharitonov - Badminton sportidagi jismoniy tayyorgarlik va koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlari yosh sportchilarni o‘rgatishda boshlang‘ich bosqichning ahamiyatini yoritadi. V. N. Platonov - Sport tayyorgarligi va o‘yinlar uchun jismoniy tarbiya metodikalarini o‘rganishda katta hissa qo‘shgan. Uning ishlarida badmintonchilarni koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish usullari keltirilgan. L. P. Matveyev - Umumiy sport tayyorgarligi va sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. U sportchilarning tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan metodlarni o‘rgangan va bu jarayonda koordinatsion qobiliyatning roliga alohida e’tibor qaratgan. S. B. Kukushkin - Uning tadqiqotlari badmintonchilarni o‘qitish va ularning jismoniy tayyorgarligini yaxshilash bilan bog‘liq. Ayniqsa, boshlang‘ich bosqichda koordinatsion mashqlarni qo‘llash usullariga e’tibor qaratgan.

1. Koordinatsion qobiliyatlar va ularning badminton uchun ahamiyati. Koordinatsion qobiliyatlar insonning bir qator harakatlarni tez va aniq bajarish, harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyatini anglatadi. Badminton o‘yinida koordinatsion qobiliyatlar o‘yin davomida muvozanatni saqlash, tezkor harakatlarni amalga oshirish va aniqlik bilan zarba berish jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Sportchilarning zarba texnikasini to‘g‘ri bajarishi, to‘pni nazorat qilishi va maydon bo‘ylab harakatlanishi ularning yuqori darajada rivojlangan koordinatsion qobiliyatlarini talab qiladi.

Badminton o‘yinida koordinatsion qobiliyatlar bir necha asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

- **Harakatlarning tezkorligi va muvofiqligi**: O‘yinchi maydon bo‘ylab harakatlanib, to‘pni aniq zarba berishi va raqibining harakatlariga moslasha olishi kerak.
- **Proprioseptsiya va balans**: Badmintonning murakkab zarba usullari va harakat dinamikasi sportchilardan o‘z tanalarining holatini aniq nazorat qilishni talab qiladi.
- **Ko‘z va qo‘l koordinatsiyasi**: To‘pning harakatini kuzatib, unga mos ravishda zarba berish asosiy texnik elementdir.

2. Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari. Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish ko‘p jihatdan sportchining yoshiga, jismoniy tayyorgarlik darajasiga va ularning individual xususiyatlariga bog‘liqdir. Pedagogika va sport fiziologiyasi sohalarida olib borilgan tadqiqotlar koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish uchun maxsus mashqlar tizimini taklif etadi. Bu tizim yosh sportchilarning boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida tanalarini nazorat qilish va muvofiqlashtirish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

1. Bosqichli rivojlantirish yondashuvi:

- Koordinatsion qobiliyatlar sportchilar uchun tayyorgarlikning dastlabki bosqichidan boshlab rivojlantirilishi kerak. Bu jarayon kichik yoshdagi sportchilarning o‘yin vaziyatlariga tez moslasha olishiga va texnik elementlarni aniqlik bilan bajarishiga imkon yaratadi.
- Rivojlantirish jarayoni o‘yin texnikasi bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim. Badmintonchilarning to‘g‘ri harakatlarini o‘rgatish va ularning texnikasini takomillashtirish orqali ularning koordinatsiyasi yaxshilanadi.

2. Koordinatsion qobiliyatlarning dinamikasi va ularning rivojlanish bosqichlari:

• Birinchi bosqichda sportchilar oddiy koordinatsion harakatlarni o‘zlashtirishlari kerak, masalan, o‘ng va chap qo‘l bilan zarbalar, bir joyda o‘yin texnikalarini bajarish.

• Keyinchalik sportchilar harakatlarini qiyinlashtiruvchi sharoitlarda, masalan, doimiy o‘zgaruvchan tezlikda, to‘pni turli yo‘nalishlarga yuborish orqali rivojlantiradilar.

3. Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish uchun maxsus mashg‘ulotlar. Badmintonchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bir qator maxsus mashqlar va texnikalarni qo‘llash mumkin. Ushbu mashqlar sportchilarning texnik va taktik jihatdan rivojlanishini ta'minlash bilan birga, ularning jismoniy ko‘rsatkichlarini ham yaxshilaydi.

Harakatli o‘yinlar va maxsus texnik mashqlar:

• To‘pni maydon bo‘ylab tezkor ravishda harakatlantirish, turli zarba usullarini bajarish orqali sportchilarning harakatlarini sinxronlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda, harakatlarni takrorlash orqali ular zarba texnikasini va tezlikni rivojlantiradilar.

• Tana harakatlari va to‘p zarbalarini muvofiqlashtiruvchi mashqlarni muntazam ravishda qo‘llash orqali sportchilar o‘yin davomida tezda zarba berish qobiliyatini o‘stiradilar.

4. Murabbiylarning roli va pedagogik yondashuv. Murabbiylar koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida muhim rol o‘ynaydilar. Ularning nazariy va amaliy bilimlari sportchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda mashqlarni tanlash va bajarishni ta'minlaydi. Yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan murabbiylar sportchilarni qiyin vaziyatlarga moslashishga o‘rgatadi va ularga tezda moslashuvchan bo‘lish uchun zarur strategiyalarni o‘rgatadi.

Tahlillar va natijalar. Badminton o‘yinida sportchilarning muvaffaqiyatli ishtiroki uchun zarur bo‘lgan muhim komponentlardan biri bu – koordinatsion qobiliyatlardir. Ular harakatlarining aniqligi, tezligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida sportchilarda bu qobiliyatlarni shakllantirish muhim vazifa sanaladi, chunki bu keyinchalik o‘yin texnikasini mukammallashtirish va taktik ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun asos yaratadi.

1. Koordinatsion qobiliyatlarning nazariy tushunchasi

Koordinatsion qobiliyatlar sportchining o‘z tanasi va harakatlarini muvofiqlashtirib, boshqarish qobiliyatini anglatadi. Koordinatsion qobiliyatlarning rivojlanishi sportchining fazoviy orientatsiyasi, tezlik, harakatlarni sinxronlashtirish va balans saqlash kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Badminton sportida bu qobiliyatlar o‘yin davomida aniqlik bilan zarba berish, maydonda tez harakat qilish va muvozanatni saqlashni ta'minlaydi.

Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy tamoyillari quyidagicha ta'riflanadi:

• Motor ko‘nikmalarni shakllantirish: Sportchining motor ko‘nikmalari o‘yin davomida o‘z harakatlarini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Motor ko‘nikmalarining rivojlanishi o‘yin texnikasining asosiy qismidir.

• Proprioseptiv mexanizmlar: Sportchining o‘z tanasining fazodagi holatini sezish va unga mos ravishda harakat qilish qobiliyati. Badminton o‘yinida sportchilar tezkorlik bilan o‘z tanalarining holatini o‘zgartirib, zarbalar berishlari kerak.

2. Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning metodologik asoslari

Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning metodologik asoslari pedagogik tamoyillar va sport fiziologiyasiga asoslanadi. Badminton o‘yinida sportchilar o‘z harakatlarini aniq va samarali boshqarishlari uchun ushbu qobiliyatlar tayyorgarlik jarayonida muntazam rivojlantirilishi lozim.

Mashg‘ulotlarning individualizatsiyasi: Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida har bir sportchining individual xususiyatlari va imkoniyatlari inobatga olinishi lozim. Harakatlarni o‘zlashtirish sportchilarning yoshiga, jismoniy holatiga va psixologik xususiyatlariga qarab farq qiladi.

Ko‘pkomponentli rivojlantirish tamoyili: Koordinatsion qobiliyatlar ko‘pkomponentli yondashuvni talab qiladi, ya'ni bir vaqtning o‘zida bir nechta qobiliyatlar – tezlik, kuch, mos-

lashuvchanlik, sinxronlik rivojlantiriladi. Bu esa o‘yin davomida murakkab texnik elementlarni bajarishda yordam beradi.

3. Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish usullari va mashqlar tizimi

Badmintonchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar va uslublar majmuasi qo‘llaniladi. Ular sportchilarning motor va muvofiqlashtiruvchi harakatlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Harakatlarni sinxronlashtirishga yo‘naltirilgan mashqlar: Badminton o‘yinida harakatlarning tezkor va aniq bajarilishi asosiy jihatlardan biri hisoblanadi. Mashg‘ulotlar davomida harakatlar ketma-ketligini sinxronlashtirish uchun to‘pni turli yo‘nalishlarda o‘ynash va qo‘l-oyoq koordinatsiyasini rivojlantiruvchi mashqlar qo‘llaniladi.

Proprioseptiv qobiliyatlarni rivojlantirish: Sportchilarning tanasining fazodagi holatini his qilish qobiliyatini yaxshilash uchun balans mashqlari, oyoqlar va qo‘llarning mustaqil ishlashini talab qiladigan texnik elementlar qo‘llaniladi.

Harakat dinamikasini rivojlantirish: Sportchilarga o‘yin davomida zarur bo‘ladigan harakat dinamikasini rivojlantirish uchun o‘zgaruvchan tezlikda harakat qilish, to‘pni tezlik bilan urish va zarbalarni boshqarish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Bu mashqlar sportchilarning harakatlarini boshqarishda aniqlik va tezlikni oshirishga yordam beradi.

4. Murabbiylarning roli va pedagogik yondashuv

Murabbiylarning badmintonchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonidagi roli beqiyosdir. Murabbiylar sportchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlar dasturini tuzadilar va ularni samarali bajarishni nazorat qiladilar.

Murabbiylar mashg‘ulotlarda quyidagi pedagogik tamoyillarga amal qilishlari lozim:

- Motivatsiya va ijobiy qayta aloqa: Sportchilarning motivatsiyasini oshirish va ularning mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishini saqlash uchun ijobiy qayta aloqa tizimini joriy etish muhimdir. Sportchilarga o‘z yutuqlari va xatolarini tahlil qilishga yordam berish ularning qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga ko‘maklashadi.
- Moslashuvchan yondashuv: Har bir sportchining tayyorgarlik darajasi va individual xususiyatlariga mos yondashuv bilan ishlash murabbiylar uchun asosiy vazifa bo‘lishi kerak. Moslashuvchan yondashuv sportchilarning qobiliyatlarini yanada samarali rivojlantirishga imkon beradi.

Xulosa. Koordinatsion qobiliyatlar boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida badmintonchilarning muvaffaqiyatli o‘sishini ta'minlashda hal qiluvchi omildir. Ushbu maqolada sportchilarning jismoniy rivojlanishida koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishning nazariy asoslari va metodik yondashuvlari ko‘rib chiqildi. Maxsus mashqlar va pedagogik yondashuvlar yordamida sportchilarning harakatlarini muvofiqlashtirish va aniqlik bilan zarbalar berish imkoniyatini oshirish mumkin.

Koordinatsion qobiliyatlar badmintonchilarning boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida jismoniy va texnik rivojlanishlarida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ushbu maqolada bu qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari, pedagogik tamoyillari va amaliy yondashuvlari ko‘rib chiqildi. Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishda individual yondashuv, proprioseptiv mexanizmlarni takomillashtirish va harakat dinamikasini oshirish muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, murabbiylarning rolini va pedagogik yondashuvini kuchaytirish orqali sportchilarning muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yaratiladi.

Tavsiyalar. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida badmintonchilarning koordinatsion qobiliyatlarini samarali rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan:

1. Koordinatsion qobiliyatlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish dasturini ishlab chiqish:

Bosqichlilik tamoyili: Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish uchun mashg‘ulotlarni bosqichma-bosqich tashkil qilish muhimdir. Dastlab, oddiy mashqlar orqali asosiy motor ko‘nikmalarini rivojlantirish lozim. Keyinchalik, qiyinroq mashqlar orqali o‘yin texnikasini shakllantirish va mustahkamlashga e'tibor qaratish kerak.

Progressiv yuklama berish: Sportchilarning jismoniy va psixologik holatini inobatga olgan holda yuklamani asta-sekin oshirish zarur.

2. Maxsus mashqlar tizimini qo‘llash:

Proprioseptiv mashqlar: Sportchilarning tanasini boshqarish va harakatlar muvozanatini saqlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muvozanatni yaxshilovchi mashqlar (masalan, bir oyoqda turish, sakrashlar) muntazam bajarilishi lozim.

Ko‘z va qo‘l koordinatsiyasini rivojlantirish: Zarba berish va to‘pni nazorat qilishda aniqlikni oshirish uchun qo‘l-ko‘rish koordinatsiyasiga yo‘naltirilgan mashqlar tizimi (tezkor o‘yinlar, to‘pni qiyin burchaklardan urish) joriy etilishi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati.

1. Баянкина, Д.Е. Подвижные игры и игровые задания как средства повышения интереса учащихся к занятиям лыжной подготовкой [Электронный ресурс] : учебно-методическое пособие / Д.Е. Баянкина, О.В. Баянкин. - Электрон. дан. - Барнаул : АлтГПУ, 2019. - 180 с.

2. Водовозова, Е. Н. Царство свободного ребенка / Е. Н. Водовозова. - Москва : Карапуз, 2010. - 287 с.

3. Дубровский, В.И. Валеология. Здоровый образ жизни / В.И. Дубровский. – М. : Retorika-A, 2001. – 560 с.

4. Ковалько В.И. Школа физкультминуток : 1-4 классы / В. И. Ковалько. - Москва: ВАКО, 2005. - 207 с. - (Мастерская учителя). - Библиогр.: С. 205-206.

5. Сафаров Ш.А.Бози^ои миллии халки точик Ш.А.Сафаров.-Душанбе: Маориф, 2018.-388с.

6. Балибар Э., Валлерстайн И. Раса, нация, класс. Двусмысленные идентичности. - М.: Логос-Альтера, Ecce Homo, 2003. - 272 с.

7. Губогло М.Н. Идентификация идентичности: Этносоциологиче-ские очерки. - М.: Наука, 2003. - 764 с.

Farxodova Dilnoza Qudrat qizi
Buxoro davlat universitetining
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) tayanch doktaranti

KREATIV QOBILIYAT VA TAFAKKUR BIRLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqola orqali kreativlik tushunchasi va uning ta'lim jarayonida ahamiyati haqida ma'lumotga ega bo'lasiz. Kreativlik so'ziga ilmiy berilgan ta'riflar hamda Bobolarimizning fikrlari ushbu maqolada o'rin olgan. Kreativlik bu - xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyatidir. Demak bu tushunchani biz bemalol pedagogning individual qobiliyatiga sifatida barcha fanlarni o'rgatishda va turli xildagi ta'lim turlarida foydalana olamiz. Bundan tashqari, berilgan ilmiy ma'lumotlar barcha pedagoglar uchun foydalidir.*

Kalit so'zlar: *Kreativlik, kreativ qobiliyat, kompitensiya, monologik va yozma nutq, gumanistik pedagogika va texnalogiya.*

ТВОРЧЕСКАЯ СПОСОБНОСТЬ И ЕДИНСТВО МЫШЛЕНИЯ

Аннотация. *Благодаря этой статье вы получите информацию о понятии творчества и его значении в образовательном процессе. В данную статью включены научные определения слова творчество и мнения наших Дедов. Творчество — это творческое видение; это умение оценивать. Итак, мы можем легко использовать это понятие как индивидуальную способность педагога при преподавании всех предметов и в различных видах обучения. Кроме того, данная научная информация полезна для всех педагогов.*

Ключевые слова: *Креативность, творческие способности, компетентность, монологическая и письменная речь, гуманистическая педагогика и технология.*

CREATIVE ABILITY AND UNITY OF THINKING

Abstract. *Through this article, you will get information about the concept of creativity and its importance in the educational process. The scientific definitions of the word creativity and the opinions of our Grandfathers are included in this article. Creativity is an imaginative vision; is the ability to evaluate. So, we can easily use this concept as an individual ability of a pedagogue in teaching all subjects and in various types of education. In addition, the given scientific information is useful for all pedagogues.*

Key words: *Creativity, creative ability, competence, monologic and written speech, humanistic pedagogy and technology.*

Kirish. XXI asr axborotlar oqimi davrida ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalariga, shu jumladan ta'lim-tarbiya sohasiga ham ko'plab yangiliklar kirib kelmoqda. Ushbu yangiliklar bilan bir qatorda ularni yorituvchi yangi tushunchalar ham bizning ilmiy tilimizda qo'llanilishi kuzatilmoqda. Jumladan pedagogika, ya'ni ta'lim-tarbiya sohasida edago 20yil ichida qo'yidagi tushunchalar keng qo'llanilmoqda va bizning ilmiy tilimiz iste'molida keng ishlatilmoqda: Pedagogik texnologiya, ilg'or texnologiya, ilg'or tajribalar, innovatsiya va innovatika, pedagogik neologiya, praksiologiya, aksiologiya, innovatsiya va innovator, interaktivlik, strategiyalar, gumanistik pedagogika, liberalizatsiya, ta'limda axborot kommunikatsion texnologiyalar, tarbiya jarayonida texnologiyalar,. Biz shular orasida «kreativlik» tushunchasiga alohida to'xtab o'tmoqchimiz.. Bevosita Kreativlik nima? Degan savolga yuzlanamiz. Kreativlik –bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo'ladigan shaxsning shaxsiy sifati (fazilati)dir. Kreativlik –bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va

rivojlantirib borishi bilan bog‘liq. Kreativlik shaxsiy mazmun va unga doir belgilarning ob’ektivligi bilan belgilanadi.[1]

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish,o‘ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug‘atlariga asoslanib o‘qituvchining kreativligiga uning fikridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta’rif berish mumkin.Uning zamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash bir narsaga turli tomondan yondashishni anglatadi. Har qanday inson tug‘ilganda kreativ qobiliyat bilan dunyoga keladi. Uni qaysi yo‘lga yo‘naltirish va rivojlantirish o‘qituvchi zimmasiga yuklatiladi. Demak, maktabda ta’limning barcha turlarida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga e’tibor qaratish barkamol avlodni tarbiyalashning tayanch nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi.Kreativ tafakkur barcha faoliyat turlariga tegishli. Bundan lingvistik kreativlik ham mavjud bo‘lib, bu tilning turli sath birliklaridan foydangan holda obrazli fikrlash, ma’lum tafakkur mahsuli bo‘lmish tushuncha yarata olish imkoniyatidir. Tilda tushunchani turli shaklda ifodalash imkoniyati mavjud.Bunda o‘quvchi qaysi usulni va qolipni tanlashi, qanday yo‘l bilan ifodalashi, albatta, unda kreativ kompetensiyaga qanchalik egaligiga ko‘ra belgilanadi. Tomas Edison “Kreativlik – g‘ayriixtiyoriy jarayon”, –deydi. Kreativlik shaxs ega bo‘lgan bilimning ko‘pqirrali ekanida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, hayotiy muammolaarni yechishda noodatiy yondasha olish, kutilmagan qarorlar chiqara olishda namoyon bo‘ladi.Kreativ fikrlovchi insonlar biron bir manzarani o‘zgacharoq tasavvur etadi, hech kim ilg‘amagan jihatlarni payqay oladi. Mana shunday kreativ tafakkurni rivojlantirish tashkil etilgan darsning qaysi metod va usullardan foydalanganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Bunda esa interfaol usullar yaqindan yordan beradi. Interfaol ta’lim turlaridan biri –kreativ ta’limdir.

Muhokama va natijalar. Kreativlikni shakllantirishda tasavvur muhum ro‘l o‘ynaydi. Xo‘sh, biz uchun kreativlik nega kerak?

Kreativ insonlar har bir sohada, har bir bajaradigan ishida o‘zgalardan ajralib turadi. Chunki ular nafaqat o‘z ishlarini katta ishtiyoq va qiziqish bilan, balki hech kimning xayoliga kelmaydigan g‘oyalar orqali amalga oshirishadi. Shunday ekan kraetivlik muvaffaqiyatimiz kaliti desak adashmaymiz.

Kreativlikni shakllantirishda tasavvur muhum ro‘l o‘ynaydi. Dunyoga mashur olim Albert Eynshteyn “tasavvur bilimdan muhum”, deganida aynan shuni nazarda tutgan. Ko‘pincha noodatiry fikrlar, yechimlar, kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun avvalo fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berishimiz zarur. G‘ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Inovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratdi, og‘irimizni yengil, uzog‘imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo‘lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutahasislarga talab katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar,telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutahasislardan xar kuni yangidan yangi g‘oyalar so‘raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutahasislarga talab oshib borayotgan ekan talim jarayonida o‘qituvchi pedagoglarning noodatiy fikrlashini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xaligacha talim tizimida ko‘plab yondashuv va metodlar, ijodiy fikrlash emas, talqin va tahlilga yani berilgan malumotni tushinib to‘g‘ri yetqizishga va nari borsa bir necha axborotni umumiylashtirib xulosa chiqarib olishga, qo‘polroq qilib aytganda “yodla, qaytar” tizimiga o‘tib qolgan.[2]

Inson o‘z miyyasi o‘z ishini yengillashtirish, qulaylashtirish uchun shablon va steratiblardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha malum bo‘lgan umummaqbul fikrlardir. Ular

[1] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). -Alexandria -Virginia, USA: ASCD, 2014. -p. 4.

[2] Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности -СПб.: СПГУТД, 2006. -С. 16.

asosida fikrlashga bizga hech qanday yangi g‘oya bermaydi. Qoliblarning yuzaga kelishida jamiyatda ustivor bo‘lgan ijtimoiy fikr, media mahsulotlaridan taqdim etilayotgan shakl va ko‘rinishlar xam yetakchi o‘rin tutadi. Inson ommadan ajralib qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo‘shiladi. Qolaversa oqim bo‘ylab suzish mustaqil fikrlashdan ko‘ra osonroq tuyiladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo‘yicha, inson ongiga so‘rov berilganda odatiy ma`lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Kreativ fikrlovchi insonlar oddiy manzalardan o‘zgacharoq tasvirlarni xam tasavvur qilib hech kim ilg‘amagan jihatlarini payqaydi va yangilik yarata oladi.

Eng ajablanarli jihati talim va tarbiya jarayoni xam bolalarni bir xil fikrlashga o‘rgatib quyarkan. Mashhur ixtirochi, kashfiyotchilarning aynan maktab jarayonidagi bir xillikka ko‘nika olmaganligi, qoliblarga sig‘maganligi va qoniqmaganligini ko‘rish mumkin. Albert Eynshteynni maktadan xaydalishi yoki Dmitriy Mendeleyevning kimyo fanidan 3 olganliklari bunga misol bo‘la oladi.

Bugungi kunning o‘qituvchisi qanday bo‘lishi kerak? O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy- siyosiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohatlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o‘quvchilarni bera olishi lozim. Shu bilan birga bugungi kun o‘qituvchisi o‘z mutahasisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz ishlashi shart. Talim-tarbiyaviy faoliyatda pedagogik va axborot tehnologiyalarining eng samarali shakli-metod va vositalaridan unumli foydalana olish zamonaviy ustozning eng samarali qurolidir. Ijodkorlik (kreativlik) qobilyatlariga ega bo‘lish ko‘nikmasi ham asosiy xislatlardan biridir, ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobilyatiga ega bo‘lish har bie ustoz uchun muhimdir. Ya`ni, o‘qituvchi zamonaviy o‘quvchilar nima bilan yashayotganini tushinishi kerak.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, biz yashayotgan olam kundan- kunga tanib bolmas darajada o‘zgaryabti, rivojlanib borayapti. Har bir sohada kun talabiga mos holda ish yuritish talab etilmoqda. Shu jumladan o‘sib kelayotgan avlod bilan ishlaydigan o‘qituvchilarga ham ko‘plab talablar va masulyat yuklanmoqda. O‘qituvchi zamonaviy o‘quvchilar nima bilan yashayotganini tushinishi hamda ularga mos holda bo‘lishi darkor.

Adabiyotlar ro’yxati.

1. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности -СПб.: СПГУТД, 2006. -С. 16.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). -Alexandria -Virginia, USA: ASCD, 2014. -p. 4.
3. Маслоу А.Г. Мотивация И личности. -СПб, 1999, -78с., Маслоу А.Г.
4. N.A.Muslimov va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. -T.: "Sano-standart", 2015. -59 b.
5. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(7), 8547-8555.
6. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). The pedagogical basics of training students for professional, moral and educational function. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 311-317.

Kutlimuratov Muxammeddin Amangeldi uli
O'zDJTSU Nukus filiali assistent o'qutuvchi

FUTBOL ORQALI YOSHLARNING JISMONIY VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola futbol orqali yoshlarning jismoniy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Futbolning yoshlar jismoniy rivojlanishi va ijtimoiylashuviga qo'shgan hissasi yoritilib, uning ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilingan. Maqolada futbol orqali yoshlarning jismoniy sifatlari (chidamlilik, kuch, tezlik) hamda ijtimoiy ko'nikmalari (hamkorlik, kommunikatsiya, liderlik)ni rivojlantirishning metodik asoslari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, murabbiylarning futbol o‘yinlari orqali yoshlar rivojlanishiga ta’siri va ularning pedagogik yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *Futbol, jismoniy kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, yoshlar, pedagogika, futbol murabbiyi, jismoniy rivojlanish, ijtimoiylashuv.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ И СОЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ МОЛОДЕЖИ ЧЕРЕЗ ФУТБОЛ

Аннотация. *Статья посвящена изучению педагогических основ развития физических и социальных компетенций молодежи через футбол. Рассматривается вклад футбола в физическое развитие и социализацию молодежи, а также его роль в образовательном процессе. В статье изучены методические основы развития физических качеств (выносливость, сила, скорость) и социальных навыков (сотрудничество, коммуникация, лидерство) у молодежи через футбол. Также подчеркивается важность влияния тренеров и их педагогического подхода в процессе развития молодежи через футбол.*

Ключевые слова: *Футбол, физическая компетенция, социальная компетенция, молодежь, педагогика, футбольный тренер, физическое развитие, социализация.*

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING PHYSICAL AND SOCIAL COMPETENCIES IN YOUTH THROUGH FOOTBALL

Annotation. *This article is dedicated to studying the pedagogical foundations for developing physical and social competencies in youth through football. The contribution of football to the physical development and socialization of young people is highlighted, and its role in the educational process is analyzed. The article examines the methodological foundations of developing youth’s physical qualities (endurance, strength, speed) and social skills (cooperation, communication, leadership) through football. Additionally, the influence of coaches on the development of young people through football and their pedagogical approaches are emphasized.*

Key words: *Football, physical competence, social competence, youth, pedagogy, football coach, physical development, socialization.*

Kirish. Jismoniy madaniyat va sport barkamol shaxsni tarbiyalash tizimining uzviy qismidir. Zero, insoniyat erishgan muhim yutuqlardan biri jismoniy madaniyat va sport bo‘lib, u qadimdan insonlarni sog‘lom va baquvvat bo‘lishini ta’minlashga xizmat qilgan. Jismoniy tarbiya va sport davlat va millatni namoyon etishning eng yaxshi vositalaridan biridir. Xalqimiz ham azaldan sportga inson salomatligini mustahkamlash, jismoniy va ma’naviy kamolotini yuksaltirishning muhim vositasi sifatida qaralgan. Ota-bobolarimiz o‘z salomatligi va jismoniy kuchini mustahkamlash, har doim barkamol bo‘lish maqsadida yugurish va sakrash, nayza va qilich uloqtirish, kamon otish, chavandozlik va chavgon o’ynash, kurash, suzish va

boshqa sport turlarini rivojlantirishga hissa qo'shgan. Bugungi kunda mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodning salomatligini mustahkamlash, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy madaniyat va sport bilan muntazam, mustaqil shug'ullanish ko'nikmalarini singdirish tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi.

Yoshlarning bir qismi o'z kelajak hayotini sport sohasida ko'rib, bu sohada katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. So'nggi o'n yilliklarda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport butunlay boshqacha darajada va sifatda rivojlandi. Avvalo, u iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yuksak darajaga ega bo'ldi va uchinchi dunyo mamlakatlarida etaklarini tobora ko'proq yoydi. Sportning barcha turlarini rivojlantirishning asosiy sub'ekti, bir tomondan, sportchilar bo'lsa, ikkinchi tomondan, sport sohasini moliyalashtiruvchi korxonalar va maxsus tashkilotlar ko'rib chiqiladi. Binobarin, sportning u yoki bu turining taraqqiyoti, shuhrat qozonishi bilan birga, mahoratli sportchilar yaxshi yashash sharoiti va yuksak mavqega ega bo'lib, yaxshi hayot kechiradi. Turli kompaniyalar va mamlakatlar sportchilar va sport jamoalariga katta miqdorda pul sarflaydilar va shu yo'l bilan ular ham katta moliyaviy daromad oladilar.

Davlatimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasiga e'tiborning ortib borayotgani, jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining o'tkazilishi sport sohasini rivojlantirishga xizmat qilib, o'smir va yoshlarning sport faoliyatiga qiziqishini oshirmoqda. Bunday sharoitlar sport to'garaklari faoliyatini yanada kuchaytirish, o'smir va yoshlarni sportning turli turlariga keng jalb etishga xizmat qilmoqda. Darhaqiqat, sport zamonaviy jamiyat hayotida muhim o'rin tutib, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish, milliy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz sportchilari, saralangan terma jamoalarning viloyat va xalqaro miqyosdagi musobaqalarda ishtirok etishi odamlar, ayniqsa, yoshlar e'tiborini tortmoqda, ularda hamjihatlik, vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu borada ommaviy axborot vositalarining sport tadbirlarining aks ettiruvchisi sifatidagi o'rni juda katta va barcha fuqarolarga milliy terma jamoalarimizni qo'llab-quvvatlash imkoniyatini bermoqda. Keyingi yillarda mamlakatimiz yosh futbol terma jamoasining musobaqalardagi ishtiroki va raqobati aholi, ayniqsa, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Futbol orqali yoshlarning jismoniy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahlili qilishda quyidagi asosiy yo'nalishlarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Jismoniy kompetensiyalarni rivojlantirish:

Futbol yoshlarning jismoniy kompetensiyalarini rivojlantirishda kuchli vosita hisoblanadi. Adabiyotlarda ko'rsatib o'tilishicha, futbol orqali bolalar va o'smirlar motorika, kuch, chidamlilik, tezlik va koordinatsiya kabi jismoniy sifatlarni rivojlantiradilar. Shuningdek, futbolda faol ishtirok etish orqali ular sog'lom hayot tarzini qo'llab-quvvatlashni o'rganadilar. Bu jarayon o'yinning dinamik xarakteri, jismoniy harakatlar xilma-xilligi va doimiy yuklamalar bilan bog'liq.

Manbalar futbolning jismoniy tarbiya tizimlaridagi o'rnini alohida ta'kidlaydi. Futbol orqali yoshlarning umumiy sog'ligi va jismoniy holatini yaxshilash, shuningdek, ular orasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish imkoniyatiga e'tibor qaratiladi.

2. Ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish:

Futbol jamoaviy sport turi sifatida yoshlar orasida ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Adabiyotlarda ta'kidlanganidek, futbol o'yinlari orqali yoshlar birgalikda ishlash, muvofiqlik, kommunikatsiya, liderlik kabi ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. O'yin davomida ularning jamoadoshlari bilan hamkorlikda ishlashi, o'zaro hurmat va muloqot qilish ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Ko'pgina tadqiqotlar futbolning ijtimoiylashuvga ijobiy ta'siri haqida fikr yuritadi. Ularning natijalariga ko'ra, futbol orqali yoshlar ijtimoiy muhitga integratsiyalashadi, jamoat va jamiyatning faol a'zolariga aylanadilar. Bundan tashqari, futbol etika, o'zaro hurmat va mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Futbol o‘qituvchisining roli:

Adabiyotlarda futbol o‘qituvchisi va murabbiyining ta’siri katta ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan. Murabbiy faqatgina jismoniy mashqlarni o‘rgatish bilan cheklanmasdan, balki yoshlarga ijtimoiy va shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ham yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Pedagogik jarayonni tashkil etishda futbol murabbiylarining psixologik-pedagogik yondashuvi muhim sanaladi, ular futbol o‘yinchilari o‘rtasida sog‘lom raqobat, hamkorlik va do‘stlikni rivojlantiradi.

Nazarih tahlillar va natijalar Hozirgi globallashuv va texnologiyalar davrida yoshlarning jismoniy faolliklari va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Sport bu jarayonda o‘ziga xos vosita bo‘lib, ayniqsa futbol yoshlarning har tomonlama rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Ushbu maqola futbol o‘yinlari orqali yoshlarning jismoniy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini tahlil qiladi.

Futbolning jismoniy rivojlanishdagi roli. Futbol yoshlarning jismoniy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. O‘yin davomida harakatlarning xilma-xilligi, yugurish, sakrash, to‘p bilan muomala qilish kabi faoliyatlar yoshlarning kuch-quvvatini oshiradi, jismoniy bardoshliligini rivojlantiradi. O‘quvchilar futbol orqali muvofiqlik, tezlik, chidamlilik kabi jismoniy ko‘rsatkichlarini oshiradi, bu esa ularning umumiy jismoniy tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Jismoniy mashg‘ulotlarning muntazamligi esa sog‘lom turmush tarziga asos bo‘ladi.

Futbol va ijtimoiy kompetensiyalar. Futbol faqat jismoniy mashg‘ulot emas, balki ijtimoiy o‘yin sifatida ham e'tirof etiladi. Futbolda jamoaviy ish qilish, o‘zaro muloqot, muammolarni birgalikda hal qilish va bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmalari rivojlanadi. Ushbu o‘yin yoshlar orasida o‘zaro hamkorlik va qo‘llab-quvvatlash madaniyatini shakllantiradi. Jamoaviy o‘yinlar orqali yoshlar o‘zaro ishonchni rivojlantirib, liderlik va javobgarlikni o‘z zimmasiga olishni o‘rganadilar. Bu esa yoshlarning kelajakda jamiyatga moslashishlari va faol ijtimoiy hayotda ishtirok etishlari uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi.

Pedagogik metodlar va futbol o‘yinlari. Futbol orqali yoshlarni jismoniy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirish uchun pedagogik metodlar ham muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchilar va murabbiylar futbol mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olib, individual yondashuvni qo‘llashlari zarur. Jismoniy mashqlarni o‘rgatish jarayonida motivatsiya va qo‘llab-quvvatlash metodlarini qo‘llash o‘quvchilarda sportga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Shu bilan birga, o‘yinlar davomida o‘quvchilar orasidagi muloqot va hamkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlar orqali ijtimoiy kompetensiyalar ham samarali shakllantiriladi.

Ijtimoiy hissiyot va liderlik qobiliyatlari. Futbol o‘yinlari davomida o‘quvchilar faqat jismoniy imkoniyatlarini emas, balki ijtimoiy hissiyotlarni ham boshqarishni o‘rganadilar. G‘alaba va mag‘lubiyatlar orqali yoshlar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, stressga chidamli bo‘lish kabi muhim ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Shuningdek, futbol jamoalarida liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o‘quvchilar o‘zlarini boshqalar bilan samarali muloqot qilishga, jamoani boshqarishga tayyorlaydilar. Liderlik qobiliyatlari esa kelajakda nafaqat sport sohasida, balki boshqa ijtimoiy faoliyatlarda ham katta ahamiyatga ega.

Madaniy xilma-xillikka hurmat va global muloqot. Futbolning xalqaro sport o‘yini sifatida yoshlarni turli millat va madaniyat vakillari bilan muloqot qilishga undashi ham muhim pedagogik jihat hisoblanadi. O‘quvchilar futbol o‘yinlari orqali turli madaniyat vakillarini hurmat qilish, ularning qadriyatlari va an’analariga nisbatan tolerant bo‘lishni o‘rganadilar. Bu esa ularning global jamiyatda faol bo‘lishlariga hissa qo‘shadi va madaniy xilma-xillikni qadrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

"**Futbol orqali yoshlarning jismoniy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari**" mavzusining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. **Jismoniy rivojlanishga hissa qo‘shadi**: Futbol o‘yinlari yoshlarning jismoniy tayyorgarligini, muvozanatini, kuch va chidamliligini rivojlantirish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

2. **Jamoaviy ish ko‘nikmalarini shakllantiradi**: Futbol jamoaviy o‘yin sifatida, yoshlarni hamkorlik, muloqot, va birgalikda maqsad sari harakat qilish qobiliyatlarini oshiradi.

3. **Ijtimoiy muloqotni kuchaytiradi**: Yoshlar futbol orqali bir-birlari bilan ijtimoiy muloqotga kirishadi, bu esa ularning ijtimoiy hayotda faol bo‘lishlariga zamin yaratadi.

4. **O‘quvchilarni mas'uliyatli qiladi**: Futbol o‘ynash jarayonida qoidalar va jamoaviy maqsadlarga rioya qilish orqali yoshlar mas'uliyat, tartib va intizomni o‘zlashtiradilar.

5. **Shaxsiy va jamoaviy yutuqlarga motivatsiya beradi:** Futbol orqali o‘z yutuqlari va jamoaning yutuqlari uchun motivatsiya oshadi, bu esa ularning maqsad sari intilishlarini rivojlantiradi.

6. **Liderlik qobiliyatlarini rivojlantiradi**: Futbol jamoalarida lider bo‘lish qobiliyatlari rivojlanadi, bu esa yoshlarning hayotda ham lider bo‘lish imkoniyatlarini oshiradi.

7. **Stress va emotsional boshqaruvni o‘rgatadi**: Futbolda mag‘lubiyat va yutuqlarni boshqarish orqali yoshlar stressni yengish va emotsiyalarini boshqarishni o‘rganadilar.

8. **Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiladi:** Futbol jismoniy faoliyat sifatida sog‘lom turmush tarziga rioya qilishning ahamiyatini yoshlar ongiga singdiradi.

9. **Muloqot va til ko‘nikmalarini oshiradi**: Jamoaviy o‘yinlarda futbolchilar o‘zaro muloqot qilishlari lozim bo‘ladi, bu esa ularning til va kommunikatsion qobiliyatlarini rivojlantiradi.

10. **Futbol o‘yinlarida madaniy xilma-xillikka hurmat**: Futbol jahon miqyosida o‘ynaladigan o‘yin bo‘lib, yoshlar turli millat va madaniyat vakillari bilan muloqot qilish orqali madaniy xilma-xillikka hurmat bilan qarashni o‘rganadilar.

Xulosa. Futbol o‘yinlari yoshlarning jismoniy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib, ularning har tomonlama shakllanishiga yordam beradi. Pedagogik jarayonlarda futbolning o‘rni va unga oid metodlarni qo‘llash orqali yoshlarni nafaqat sog‘lom, balki ijtimoiy faol shaxslar sifatida tarbiyalash mumkin. Futbol orqali yoshlarning jismoniy, ijtimoiy va emotsional jihatdan rivojlanishi kelajakda ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishlari va muvaffaqiyatli insonlar bo‘lib yetishishiga asos bo‘ladi.

Futbol orqali yoshlarning jismoniy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari" mavzusida tavsiyalar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Yoshlarning jismoniy rivojlanishini ta’minlash uchun maxsus futbol mashg‘ulotlari dasturini yaratish:

- Yoshlar uchun mos keladigan jismoniy tayyorgarlik darajasiga mos mashqlarni o‘z ichiga olgan, individual va jamoaviy faoliyatga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar tizimini ishlab chiqish lozim.
- Mashg‘ulotlarda turli xil jismoniy ko‘nikmalarni (kuch, chidamlilik, tezlik, koordinatsiya) rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish kerak.

2. Ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun jamoaviy o‘yinlarga e’tibor qaratish:

- Futbol mashg‘ulotlari davomida hamkorlik, o‘zaro hurmat va jamoadagi rolning muhimligini anglashga yordam beradigan o‘yinlarni kiritish kerak.
- O‘yinchilarga liderlik va yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishga imkon beruvchi topshiriqlar berish zarur.

Adabiyotlar ro’yxati.

1. Abdullaev K., Juraev B., Khabibova G. Food quality and safety control as an important factor of physical development //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 460. – C. 11001.

2. Utanov B. et al. Correlation Of The Interaction Of Agricultural Production With The Volume Of Dehkanproduction In Uzbekistan //Ilkogretim Online. – 2021. – Т. 20. – №. 3.

3. Murodov J. J. Talabalarni jismoniy tarbiya va sport darslarida harakatlarga o'rgatish jarayonlari: Jahongir Jorayevich Murodov, Buxoro Davlat universiteti "Sport faoliyati" kafedrasi katta oqituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 2. – С. 256-260.

4. Muratov D. Пути повышения интереса к учебному процессу у учащихся, не интересующихся занятиями физического воспитания в школе //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 21. – №. 21.

Qorayev Samaridin Barakayevich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KASB-HUNAR MAKTABLARIDA KASBIY TAYYORGARLIKNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kasb-hunar maktablarida kasbiy tayyorgarlik jarayonini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish uchun o'quv dasturlarining amaliyotga yo'naltirilganligi, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, malakali pedagoglar tayyorlash hamda talabalarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning muhimligi ta'kidlanadi. Maqolada, shuningdek, kasb-hunar ta'limining bozor talablari va ijtimoiy ehtiyojlarga moslashishi, o'quvchilarni mehnat bozoriga tayyorlashdagi qiyinchiliklar va ularning yechimlari ham ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *kasb-hunar maktabi, kasbiy tayyorgarlik, amaliy ta'lim, texnologiyalar, malakali pedagoglar, mehnat bozori.*

SPECIFIC ASPECTS OF PROFESSIONAL TRAINING DEVELOPMENT IN VOCATIONAL SCHOOLS

Abstract. *This article analyzes the specific aspects of developing professional training in vocational schools. Emphasis is placed on the importance of practice-oriented curricula, the implementation of modern technologies, the preparation of qualified teachers, and the development of students' professional skills. The article also explores the adaptation of vocational education to labor market demands and social needs, along with challenges and solutions for preparing students for the workforce.*

Keywords: *vocational school, professional training, practical education, technologies, qualified teachers, labor market.*

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация. *В данной статье анализируются особенности развития профессиональной подготовки в профессиональных училищах. Особое внимание уделено важности практик ориентированных учебных программ, внедрению современных технологий, подготовке квалифицированных педагогов и развитию профессиональных навыков учащихся. Также рассматриваются вопросы адаптации профессионального образования к требованиям рынка труда и социальным потребностям, а также трудности и пути их решения в подготовке студентов к рабочей деятельности.*

Ключевые слова: *профессиональное училище, профессиональная подготовка, практическое обучение, технологии, квалифицированные педагоги, рынок труда.*

Kirish. XX asrning o'ziga xos xususiyati jamiyatning barcha jabhalariga kirib borgan modernizatsiya edi: shu bilan birga, mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasi davlatning kadrlar siyosatiga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatdi, xususan, talab qilinadigan kasblar ro'yxati belgilandi, ish o'rinlari soni, turli sohalardagi mutaxassislarga qo'yiladigan talablar, shaxsning manfaatlarini ikkinchi o'ringa surish, uning xarakteri va qobiliyatlari kabilar. Jamiyatdagi bu holatga javob shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan kasbga yo'naltirish nazariyalarining paydo bo'lishi edi.

Adabiyotlar sharhi. A.N.Leontev buni shaxs tomonidan kasbiy jamoaga individual munosabatlar majmuasini shakllantirishning murakkab dinamik jarayoni, o'z ma'naviy va

jismoniy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, shaxs tomonidan o‘z davriga mos keladigan kasbiy rejalarni shakllantirish haqida gapiradi [1].

Kasbiy rivojlanishning mohiyati V.V.Chebisheva [3], Y.A.Klimov [2], N.S.Pryajnikova va Y.Y.Pryajnikova [2], E.F.Zeer [4] asarlarida chuqur o‘rganilgan. Kasbiy rivojlanish deganda ular shaxsning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan va uning mehnat subyekti sifatida rivojlanish davriga qarab turli xil mazmun bilan to‘ldirilgan shaxsning faoliyati sifatida murakkab, uzoq davom etadigan jarayonni tushunadilar.

Y.A.Klimov kasbiy rivojlanishni “... aqliy rivojlanishning muhim ko‘rinishi sifatida, rivojlanish imkoniyatlarini faol izlash, o‘zini foydali narsalarni “bajaruvchilar” hamjamiyatining, professionallar hamjamiyatining to‘la huquqli a’zosi sifatida shakllantiradi”, – deb tushuntiradi [5]. Uning fikricha, “bu tanlov bir marta amalga oshirilmaydi, balki doimiy ravishda yuzaga keladi va ko‘proq darajada o‘smirlik va erta yoshlik davrida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi” [6].

N.S.Pryajnikov o‘z tadqiqotida kasbiy rivojlanish inson hayotning boshqa muhim sohalarida o‘zini o‘zi anglashi bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi: “Kasbiy rivojlanishning mohiyati – bajarilgan ish va butun hayotning ma’nolarini mustaqil va ongli ravishda topishdir (muayyan madaniy-tarixiy (ijtimoiy-iqtisodiy) vaziyatdagi faoliyat (shuningdek, o‘z taqdirini o‘zi belgilash jarayonida ma’no topish)” [7].

A.A.Bodalev va L.S.Vigotskiy shaxsning shaxsiy xususiyatlarining shakllanishi va rivojlanishiga, uning qiziqishlari, moyilliklari, mehnat faoliyatining muayyan turlariga jalb qilinishiga ta’sirini ko‘rib chiqadi. xuddi shu guruh mahalliy psixologlar shaxsning yosh xususiyatlari prizmasi orqali kasbiy rivojlanishni o‘rgandilar.

Xuddi shunday qarashlarni xorijlik tadqiqotchilar (L.I.Bojovich [3], M.r.Ginzburg [8], [9], d.Syuper [9**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]) asarlarida uchratish mumkin. Kasbiy rivojlanish ular tomonidan kasb-hunar maktablari o‘quvchilari orasida “kattalar”ning ichki yondashuvini shakllantirishning komponenti sifatida o‘rganiladi. L.I.Bojovichning ta’kidlashicha, “kasbiy faoliyatni tanlash kasb-hunar maktab o‘quvchilari hayotidagi ta’sirchan markazdir, chunki rivojlanishning yangi ijtimoiy holati butun motivatsion sohani o‘zgartirishga yordam beradi” [10]. d.Syuper “mutaxassislikni jarayon sifatida tanlash voqealar ketma-ketligidan iborat bo‘lib, bir nechta mumkin bo‘lgan modellarni o‘z ichiga oladi, davomiyligi va shaxsning kasbiy biografiyasiga jalb etilishi bilan tavsiflanadi” deb hisoblaydi [11].

1960 – 1970-yillardan boshlab kasbiy rivojlanish faqat pedagogik muammo sifatida ko‘rib chiqila boshlandi. T.M.Gordian o‘z tadqiqotida uchta yondashuvni qayd etadi.

Birinchisi, o‘quvchilarni kasbiy rivojlantirish uchun pedagogik tizimning barcha elementlarining imkoniyatlarini ochishdir. Bu o‘z navbatida V.F.Saxarov, V.V.Serikova, A.S.Nisimchuk va boshqalarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Ikkinchi yondashuv kognitiv faoliyatda kasbiy rivojlantirishni ko‘rib chiqadi, bu T.V.Kudryavseva, Y.M.Pavlyutenkova, A.V.Suxarev, E.A.Faraponovalar tadqiqotlarida ko‘zga tashlanadi.

Uchinchi yondashuv kasbiy rivojlanish subyekti sifatida talaba shaxsining rivojlanishini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bu B.G.Ananeva, L.I.Antsiferova, A.G.Asmolov va boshqalarning asarlarida o‘z aksini topgan.

N.I.Babkin, S.Y.Batishev, E.G.Kostyashkin, M.N.Skatkin umumiy va politexnika ta’limi, mehnat ta’limi va professional ta’limining uzluksiz bog‘liqligida kasbiy rivojlanishing nazariy jihatlarini o‘rganadi.

Kasbga yo‘naltirish faoliyatini tashkil etishda iqtisodiy yo‘naltirilgan va o‘quvchilarga yo‘naltirilgan yondashuvlarni integratsiyalashgan yondashuvga birlashtirishning hozirgi holati bilan bog‘liq holda, shuningdek, shaxsni o‘rganishga fanlararo yondashuv doirasida kasbiy rivojlantirish jarayoni boshlandi. I.V Arendachuk [8], S.N.Chistyakova, N.F.rodicheva, E.O.Cherkashin [9], I.I.Kobzareva [10], V.N.Kormakova [5] asarlarida psixologik-pedagogik

muammo sifatida ko‘rib chiqilgan. Bunday tadqiqotlar natijasi kasbiy rivojlanishni fanlararo fenomeni sifatida ko‘rib chiqish edi.

Shunday qilib, S.N.Chistyakova kasbiy rivojlanish ko‘p qirrali va ko‘p bosqichli xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi va uni bosqichma-bosqich qarorlar qabul qilish jarayoni deb hisoblaydi, uning yordami bilan inson o‘z manfaatlari va moyilliklari bilan ehtiyoj o‘rtasidagi muvozanatni yaratadi, ushbu yondashuvlar: ijtimoiy-psixologik yondashuv; differensial-psixologik yondashuv.

Tadqiqotning metodikasi. Bizning tadqiqotimizda mavjud yondashuvlarga asoslanib, biz o‘z taqdirini o‘zi belgilashni o‘quvchining kelajakdagi kasbiga shaxsiy munosabatiga asoslangan integral tushuncha sifatida ko‘rib chiqamiz, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish faqat yuqori darajadagi bilim va motivatsiya bilan amalga oshishi mumkin va inson hayotining barcha bosqichlarida shakllanadi.

Har qanday murakkab konsepsiya singari, kasbiy yo‘nalish ham komponentlar to‘plami bilan ifodalanadi, ammo hozirgi vaqtda zamonaviy psixologik va pedagogik adabiyotlarda ushbu masalani ko‘rib chiqishning yagona tendensiyasi mavjud emas.

Kasbiy yo‘nalishning komponentlari sifatida qiziqishlar, moyilliklar, motivlar va qadriyat yo‘nalishlari E.M.Ivanova va V.M.Paramzin. K.K.Platonov qiziqishni “tanlangan kasbdan bilim va ijobiy his-tuyg‘ularga asoslangan komponent” deb hisoblaydi [10].

Y.F.Zeer nafaqat kasbiy yo‘nalish tarkibidagi asosiy komponentlarni aniqlaydi, balki ularni ierarxik tarzda taqdim etadi: motivlar, qadriyatli yo‘nalishlari, kasbiy yondashuv, ijtimoiy-professional holat.

Bizning fikrimizcha, L.I.Kuns kasbiy yo‘nalish elementlarining tuzilishini to‘liq tavsiflagan. Uning fikricha, kasbiy yo‘nalish “ajralmas hodisa bo‘lib, uning markazi quyidagi komponentlar bilan ichki bog‘liq bo‘lgan tizimni tashkil etuvchi omil: motivatsion, maqsadli, hissiy va intellektual” [11]. Shu bilan birga, bir guruh “inson faoliyatini "mehnatning potensial va dolzarb subyekti” sifatida tartibga soluvchi (B.F.Lomov nazariyasiga ko‘ra)” [12] kasbiy yo‘nalishning motivatsion va maqsadli komponentlarini tashkil qiladi, qolgan komponentlar o‘z bloklari bilan ifodalanadi.

A.Roe, I.Germa va J.Gollandlar ham kasbiy yo‘nalishni shaxsiy yondashuv nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqdilar. Shu bilan birga, A.Roe kasbiy yo‘nalish tarkibida kasbiy faoliyat bilan bog‘liq manfaatlar, qadriyatlar, munosabatlarni ajratib ko‘rsatdi. J.Golland kasblarga moyilligiga qarab turli tipdagi kishilarni tavsiflaydi: realistik, intellektual, ijtimoiy, odatiy, tadbirkor va badiiy. Ushbu shaxsiyat turlaridan kelib chiqib, o‘quvchilar kasb tanlashda qaror qabul qilishlari mumkin. F.Gentsberg, A.Maslou nazariyasining asosiy qoidalariga tayangan holda, kasbiy yo‘nalish tarkibidagi omillarning ikkita asosiy guruhini ajratib ko‘rsatdi: “saqlanish”, jumladan, o‘ziga ishonch hissi, qo‘rquvni yengish istagi va muvaffaqiyatsizlik; va shaxs tomonidan o‘zini o‘zi anglashni amalga oshirishni nazarda tutuvchi “motivator” omillar [13]. Kasbiy yo‘nalish tarkibida birinchi guruh omillari ulushining ortishi kasbga qiziqishning etishmasligi va kasbiy rivojlanish masalalarida shaxsning passiv xatti-harakatini keltirib chiqaradi. ikkinchi guruh omillarining ustunligi esa mutaxassislikka bo‘lgan qiziqish, o‘z kasbiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda ijodiy faollikning namoyon bo‘lishiga yordam beradi.

D.Syuper va V.Ginzburg kasbiy so‘nalishni o‘z rivojlanishida bir qancha bosqichlardan o‘tuvchi jarayon sifatida tavsiflagan. Shunday qilib, d.Syuper o‘z asarlarida kasbiy yo‘nalish shakllanishining nozik davrlarini ko‘rib chiqadi. V.Ginzburg esa kasbiy yo‘naltirish murakkab ko‘p faktorli jarayon bo‘lib, insonga juda erta yoshdan boshlab va butun hayot yo‘lida hamroh bo‘lishini ta’kidlaydi [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**].

Tadqiqotimizda biz L.I.Kunsning nuqtayi nazarini inobatga olamiz va kasbiy yo‘nalishning ajralmas fenomeni shu jumladan, shaxsning manfaatlari, uning motivlari, afzalliklari, qobiliyatlari va qadriyatlari sifatida ko‘rib chiqamiz.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kasbiy yo'naltirish va kasbiy o'zini o'zi belgilash insonga o'smirlik davridan boshlab butun faoliyati davomida hamroh bo'ladi, shuning uchun ularning o'zaro bog'liqligi masalasini yuqori sinf o'quvchisining shaxsiyati uchun o'rganish tavsiya etiladi.

Tahlillar va munozaralar. Zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotlarda bu muammoga umumiy yondashuv yo'qligi sababli ikkita asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi yo'nalish tarafdorlari kasbiy rivojlanishning asosi shaxsning kasbiy yo'nalishi ekanligi haqidagi nuqtai nazarga amal qiladilar. Y.i.Fadeevaning ta'kidlashicha, o'quvchilarning kasbiy rivojlanishi ularning kasbga bo'lgan qiziqishlari, ularning bir-biri bilan birlikda bo'lgan moyilligi va qobiliyatlaridan iborat.

S.P.Kryagjde ta'kidlashicha, kasbiy rivojlanish shaxsning butun hayoti davomida shakllanadi va kasbiy yo'nalish ko'pincha ikki bosqichda shakllanadi: o'rta kasb-hunar maktabda, o'rta maxsus va OTMda. Kasbiy yo'nalish kasbiy o'zini o'zi belgilash jarayonida o'z o'rnini egallab, kasbiy muvofiqlikni shakllantirishga yordam beradi.

Ikkinchi yondashuv – kasbiy yo'nalishni kasbiy rivojlanish jarayonining shakllanishi natijasi sifatida ko'rib chiqish.

Bizning tadqiqotimizda o'quvchining kasbiy tayyorgarligining rivojlanishi uchun uning kasbiy yo'nalishi birinchi o'rinda turadi, degan fikrdamiz. Aynan u insonning tanlangan kasbiga ega ekanligini anglab yetadi va insonning butun hayoti davomida kasbiy rivojlanishning bosqichma-bosqich shakllanishiga hissa qo'shadi. Buning sababi shundaki, o'quvchilarning kasbiy rivojlanishi jarayonida o'rta kasb-hunar maktabdan boshlab, kasbiy yo'nalish va o'zini o'zi belgilash, umumiy bilimlarga bo'lish, birgalikda rivojlanib bir-birini to'ldiradi [4].

Kasbiy rivojlanish jarayonini ko'rib chiqishga juda ko'p turli xil yondashuvlar uning tuzilishi haqida turli xil g'oyalarni yaratishga yordam berdi.

O'z asarlarida E.M.Borisova [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] shaxsning motivatsion sohasini, kasbiy qobiliyatlarni, individual tipologik xususiyatlarni, shaxsning o'zini o'zi anglash yeomponentlarini va shaxsning ijtimoiy mavqeini kasbiy rivojlanishning eng muhim komponentlari sifatida ajratib ko'rsatadi.

O.V.Padalko [5], kasbiy o'z taqdirini belgilashni tavsiflab, uning tuzilishidagi kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarga alohida e'tibor beradi. Kognitiv komponent shaxsning shaxsiy xususiyatlarini, emotsional komponent insonning motivlarini, qiziqishlarini, kasbiy faoliyatga munosabatini tavsiflaydi; xulq-atvor – kasbiy tanlov bo'yicha qarorlar to'plami.

I.I.Yumatovaning so'zlariga ko'ra, kasbiy rivojlanish tarkibida kasbiy faoliyatning ma'nosini izlash va uning shaxsning qadriyatlariga mos kelishiga asoslangan qadriyatli-axloqiy komponentni ajratish mumkin; individual kasbiy rejani shakllantirish darajasini aks ettiruvchi rejalashtirish komponenti; shaxsning tanlagan kasbi haqida xabardorlik darajasini ko'rsatadigan axborot komponenti va o'zini professional sifatida ijobiy baholashni rivojlantirishni tavsiflovchi emotsional komponent.

Integrativ yondashuv nuqtayi nazaridan, M.V. Batireva [6] kasbiy rivojlanish tuzilmasini va shaxsning jamiyatning ijtimoiy va kasbiy tuzilishiga integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi.

Xuddi shu yondashuvlardan T.V.Kudryavsev kasbiy tanlovni kasbiy rivojlanish tuzilmasining markazi sifatida ifodalaydi, bu insonning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, tanlangan mutaxassislik va ijtimoiy-iqtisodiy talablarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Biroq, shu bilan birga, kasbiy rivojlanish mutaxassislikning aniq tanlovi bilan cheklanmaydi [7]. Boshqa komponentlar singari, bo'lajak mutaxassislikni tanlash, kasbiy niyatlarni shakllantirish, tanlovning to'g'riligini tasdiqlash,

kasbiy amalga oshirish, kasbiy faoliyatda shaxsiy o‘sish va boshqalarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

S.L. Rubinshteyn [8], Y.A.Klimov [9], N.P.Anisimov va I.V.Kuznesova [11], kasbiy o‘zini o‘zi belgilash tarkibida uchta komponentni ajratib ko‘rsatish tavsiya etiladi: “ehtiyoj”, “istak” va ‘mayl’. “Ehtiyoj” komponenti inson hayotida ishlashga bo‘lgan ehtiyojni, mehnat bozori va kasblar bo‘yicha harakat qilish qobiliyatini tushunishdan iborat. “istak” komponenti qiziqishlar, moyillik, ehtiyojlar va boshqalarni anglatadi. “Mayl” komponenti bilim, qobiliyat, ko‘nikma, xarakter va xulq-atvor xususiyatlarini o‘z ichiga oladi.

S.N.Chistyakova va I.N.Zaxarovaning ta’kidlashicha, kasbiy o‘zini o‘zi belgilash kasbiy yo‘nalishni, kasbiy o‘zini o‘zi anglashni, kasbiy o‘zini o‘zi boshqarishni va kasbiy jihatdan muhim fazilatlarni o‘z ichiga oladi [14].

L.M.Karnozova, A.K.Markova, N.A.Svetkovaning fikricha, kasbiy rivojlanish tuzilmasining elementlari bu – o‘zini professional sifatida tahlil qilish harakatlari, shuningdek, tegishli ta’lim, o‘qitish, ish joyi va boshqalarni egallashga yordam beradigan qarorlar va harakatlar to‘plamidir [7].

T.V.Kudryavsev, A.Y.Golomshtok, kasbiy rivojlanish tuzilmasining markazi bu – tanlangan mutaxassislik talablari va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda insonning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan kasbiy tanlovdir. Biroq, shu bilan birga, kasbiy rivojlanish mutaxassislikning aniq tanlovi (va hatto bunday tanlovlar ketma-ketligi) bilan cheklanmaydi [8]. Boshqa komponentlar kabi, izlanish, kelajakdagi mutaxassislikni tanlash, tanlovning to‘g‘riligini tasdiqlash, amalga oshirish, kasbiy faoliyatda shaxsiy o‘sish va boshqalarni ajratib ko‘rsatish mumkin [10].

Y.A.Klimov shaxsning kasbiy o‘zini o‘zi belgilashda ikki darajani ajratadi: ong va o‘z-o‘zini anglashni qayta qurish bilan bog‘liq bo‘lgan gnostik va shaxsning ijtimoiy-kasbiy holatidagi real o‘zgarishlarni aks ettiruvchi amaliy.

S.N.Chistyakova quyidagi xususiyatlarga asoslanib, kasbiy rivojlanishning uchta darajasini (yuqori, o‘rta va past) ajratadi: tanlangan kasb haqida ma’lumotga ega bo‘lish; qiziqishlar, qobiliyatlar, aqliy jarayonlarni shakllantirish; individual xarakter xususiyatlarining tanlangan kasb talablariga muvofiqligi; mutaxassislikni to‘g‘ri tanlashga ishonch; adekvat o‘z-o‘zini hurmat qilishning mavjudligi [4].

Bizning fikrimizcha, hozirgi vaqtda mavjud yondashuvlarga asoslanib, kasbiy rivojlanish tarkibida komponentlarning beshta asosiy guruhini aniqlash mumkin: kasbiy o‘zini o‘zi belgilash ishtirokchisining individual-shaxsiy fazilatlari; motivatsion-qadriyatli guruh; kasbiy rivojlanish ishtirokchisining o‘z kasbiy qobiliyatlarini baholash va kasb tanlashdagi faoliyati; kasbiy rivojlanishda ishtirokchining prognostik faoliyati; shaxsning ijtimoiy inklyuziyasi.

Insonning kasbga munosabati aniqlangan ijtimoiy vaziyat E.F.Zeer tomonidan asosiy mezon sifatida ajratilgan. Va bu mezonga muvofiq u quyidagi bosqichlarni belgilaydi: amorf variant, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy moslashish, boshlang‘ich va o‘rta kasbiylashtirish va kasbiy mahorat [711].

Kasbiy rivojlanish jarayonining bo‘linishini tanlash mezoniga oid xuddi shu fikrni I.G.Shamsutdinova beradi. Uning ta’kidlashicha, kasbiy o‘zini o‘zi anglash, kasbiy identifikatsiyalash va kasbiy o‘zini o‘zi anglash kasbiy rivojlanishning asosiy davrlari hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir bosqichda jamiyat tomonidan shaxs oldiga qo‘yilgan shaxsiy muhim vazifalarni hal qilish amalga oshiriladi [12].

Y.A.Klimov ijtimoiy vaziyatni ham mezon sifatida tanladi. U shaxsning kasbiy hayotining bosqichlariga quyidagi bo‘linishni asoslab berdi: boshlang‘ich bosqich; moslashuv bosqichi; internal faza; mahorat; avtoritet bosqichi; murabbiylik bosqichi [13].

T.V.Kudryavsev, V.I.Kovalev, O.A.Ovsyanik, E.V.Prokopiyev, S.T.Janeryan [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**] yuqoridagi mezonga amal qilgan holda, kasbiy rivojlanishning quyidagi bosqichlarini ajratadi: kasbiy niyatlarning shakllanishi; kasbiy ta’lim; professionallashtirish; mahorat.

Mezon tanlashda A.K.Markova fikricha, faqat shaxsning professionallik darajasi asosiy mezon bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra, besh darajani ajratish mumkin: professionallikdan oldingi; professionallik; superprofessionallik; professionalmaslik (psevdoprofessionalizm); professionalizmdan keyin.

Kasbiy rivojlanishni davrlashtirishga yuqoridagi yondashuvlarni tahlil qilib, shuni ta’kidlash mumkinki, mutaxassis bo‘lish bosqichlarini aniqlash mezonlarini tanlashning o‘zgaruvchanligiga qaramay, turli mualliflar taxminan bir xil asosiy bosqichlarni va tasniflashda kichik farqlarni ajratib ko‘rsatishadi. Shu bilan birga, davriylashtirish nafaqat kasbiy rivojlanishda ishtirokchilarning yoshiga, balki mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga va tanlangan kasbning mazmuniga, kasbiy mahorat darajasiga qarab amalga oshiriladi.

Kasbiy rivojlanish jarayonini ko‘rib chiqayotganda, uning kasbiy rivojlanishga tayyorlik kabi tushuncha bilan yaqin aloqasini ta’kidlash tavsiya etiladi, bunda G.B.Richkova kasbiy tanlovni ongli va mustaqil ravishda amalga oshirishga hissa qo‘shadigan va kasbiy niyat va intilishlarni shakllantirish va amalga oshirishga ma’naviy, psixofiziologik va amaliy tayyorlikdan iborat bo‘lgan shaxsning ajralmas xususiyatini tushunish kerak. Kasbiy rivojlanishga tayyorlik bir qator mezonlar bo‘yicha baholanadi.

Ruhiy jarayonlar va bola ruhiyatidagi o‘zgarishlar, chunonchi, diqqat va xotira darajasi, tafakkur xususiyatlari so‘z boyligi hamda nutqning rivojlanganlik darajasi va boshqalar ruhiy psixologik rivojlanishga ta’luqlidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlanishida ularning tug‘ma qobiliyat va iste’dodining o‘rni muhim ahamiyatga ega. Tug‘ma qobiliyatga ega bo‘lgan yoshlarimiz kattalarning har bir ta’limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta’limotlarini tez ilg‘ab oladilar va tez o‘zlashtirib hayotga tadbiq eta oladilar. Lekin bu qobiliyat va iste’dod, barcha yoshlarimizga tug‘ma talant nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib borish, yoshlarning iste’dodini oshirib borish birinchi navbatda pedagoglarimizga va keng jamoatchilik zimmasiga ya’ni oila, mahalla, o‘quv muassasalari zimmasiga tushadi. Bolalar o‘zidagi turli faoliyatlarga bo‘lgan tug‘ma layoqatlarni jamoada, o‘z ustida tinmay ishlash jarayonida ro‘yobga chiqaradilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan munosabatda bo‘lishda sabr-toqat, vazminlik zarur. Fanlarda o‘zlashtira olmagan o‘quvchilarni qobiliyatsiz deyish xato, o‘qituvchining birinchi galdagi vazifasi – har bir o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatini chuqur o‘rganish, uning qiziqishi va istaklarini aniqlash, ularni hisobga olgan holda pedagogik chora-tadbirlarni ko‘rishdir. Umuman, pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy hamda irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi. Bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli egallash jarayonida inson rivojlanishning bir darajasidan boshqasiga o‘tadi. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng qulay vaqtdir. Bu o‘quv jarayonida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini turli yo‘nalishlarda, jumladan, badiiy, musiqiy, texnik va boshqalarda shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni talab qiladi.

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ham maktabda ham sinfda qulay shart-sharoitlarni yaratish darkor. Maktabda o‘quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun quyidagicha ishlarni olib borish zarur:

- ta’lim muassasasining ta’lim dasturiga o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutuvchi sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni kiritish.
- bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan ular bilan ishlash usullari va shakllarini qo‘llash.
- ota-onalar bilan ishlashni tashkil etish, ijodiy faoliyat doirasida o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalarning o‘zaro hamkorligi algoritmini ishlab chiqish.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Maktabda ijodiy shaxsni tarbiyalash uchun o‘quvchining aqliy faolligini, mehnatsevarligi va zukkoligini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv jarayonini tashkil etish usullariga e’tibor qaratish, o‘quvchini maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni mustaqil ravishda izlashga undash kerak. Bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ishning tabiati vaziyatga qarab o‘zgartirilishi mumkin. Turli sharoitlarda bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish usullarini ko‘rib chiqamiz.

1. Darsda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. O‘quvchilarni xabarlar tayyorlashga, insholar yozishga, krossvordlar va viktorinalar tuzishga, o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha ertaklar va ssenariylar yozishga jalb qilish orqali sinf darslari va mashg‘ulotlarini o‘tkazish jarayonida bolalarning ijodiy faoliyatini tashkil etish mumkin. Shuningdek, o‘qituvchi didaktik o‘yinlar va usullarni o‘tkazish usullaridan, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirish va kognitiv qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan ijodiy topshiriqlardan foydalanishi mumkin. Bugungi kunda darsda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida o‘quvchilar e’tiborini jalb qilish, darsni interfaol o‘tkazish maqsadida kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda.

2. Sinfdan tashqari ishlarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning umummilliy va maxsus bilimlarini kengaytirish, turli xil ijodiy qobiliyatlarini, iste’dodlarini aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi, ularda tashabbuskorlik va mustaqillik sifatlarini tarbiyalaydi. Maktabda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish bolalar tomonidan ijobiy qabul qilinadi, ularning er-

kin bo‘lishiga va ijodiy qobiliyatlarini amalda qo‘llashga imkon beradi. Sinfdan tashqari ijodiy ishlarga mavzuli haftaliklar, ekskursiyalar tashkil etish, bayram tadbirlari, ijodiy tanlovlar kiradi. Darsdan tashqari ijodiy faoliyatni o‘tkazish jarayonida o‘quvchi pedagogik jarayonning bevosita ishtirokchisiga aylanadi, o‘qituvchi va jamoa bilan shaxsiy munosabatlarni o‘rnatish, birgalikdagi faoliyatni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi va shakllantiradi.

3. Ijodiy qobiliyatlarni to‘garak va tanlovlarda rivojlantirish. To‘garak mashg‘ulotlari o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning eng qulay usuli hisoblanadi. Fan to‘garaklari o‘quvchilarda o‘quv faniga qiziqish uyg‘otadi, o‘quvchilarning dunyoqarashini rivojlantiradi, o‘quvchining mustaqil ishlash ko‘nikmalarini egallashiga hissa qo‘shadi, fan bo‘yicha bilim saviyasini oshiradi. Teatr tomoshalari, viktorinalar, adabiy rasm xonalari, tanlov o‘yinlarida qatnashib, o‘quvchilar xayolot, fantaziya va xotirani faol rivojlantiradilar. Har tomonlama rivojlangan, o‘z nuqtai nazariga ega va uni dalillar bilan himoya qila oladigan shaxsni tarbiyalash uchun o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish kerak. Ijodiy faoliyat tufayli o‘quvchining hissiy holati, fikrlash va o‘zinio‘zi anglash rivojlanadi.

Mehnat ijodning ichida boshqa faoliyatlar qatori (ancha yashirin, “ichki” sezgi, xotira, tafakkur va boshq.) faoliyat bo‘lsada, unda ijodning natijalari yaqqol ko‘rinadi. Boshlang‘ich sinf o‘quv jarayonlarida o‘quvchilarini ijodkorlikka o‘rgatishning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular har bir bolada o‘zgacha namoyon bo‘ladi. Psixologiyada shaxsiyatning xususiyatlari, o‘zlarini muntazam ravishda namoyon etadigan asosiy xususiyatlarning barcha turlarini qamrab oladi. Masalan, har bir kishi tasodifiy kerakli ma’lumotlarni unutishi mumkin, ammo umuman olganda hammasi unutilmaydi. Yagona holatlar belgilar xususiyatining mavjudligini ko‘rsatmaydi. Qarama-qarshilikka uchragan shaxslarning xarakteristikalari odat va bezovtalik kabi xususiyatlarni o‘z ichiga olishi mumkin, lekin bu boshqalarga g‘azablanishga qodir bo‘lgan har bir kishi ziddiyatli shaxs bo‘lishini anglatmaydi. Shuni aytib o‘tish joizki, inson hayot tajribasini yig‘ib oladigan barcha fazilatlar oladi. Doimiy ravishda emas, balki umr bo‘yi o‘zgarishi mumkin.

Qobiliyatlar, qiziqishlar va xarakterlar - bularning barchasi hayot tarzida o‘zgarishi mumkin. Shaxs ekan, rivojlanadi va o‘zgaradi. Shaxsiyatning hech qaysi belgisi tug‘ma bo‘lishi mumkin emas, deb ishoniladi - ularning barchasi hayot davomida qo‘lga kiritilgan. Tug‘ilganda, insonga his-tuyg‘ular organlari, asab tizimi va miya ishlarini o‘z ichiga olgan fiziologik xususiyatlar beriladi va ularning xususiyatlari xarakterning rivojlanishi hisoblanadi.

Agar qaysi jabhada bo‘lmasin inson hatti-harakali va faoliyatini diqqat bilan ko‘rib chiqsak, unda uning asosiy turini ko‘rishimiz mumkin. Insonning ba’zi bir harakatlarini rcproduktiv va ishlab chiqilgan yoki dasturlashtirilgan deb atash mumkin. Faoliyatining bu turi bizning xotiralarimiz bilan uzviy bog‘liq va uning mazmun mohiyati shu bilan bog‘liqki, inson oldin mavjud bo‘lgan hatti- harakatlami takrorlaydi. Inson hatti-harakatida rcproduktiv faoliyatdan tashqari ijodiy faoliyat ham mavjud, uning samarasi o‘laroq o‘tmishdagi tasavvur va harakat malakalarining ishlatilishi emas, balki yangi obraz va harakatlar paydo bo‘lishi kuzatiladi.

Ijodiy ishlash jarayonida ta’lim oluvchida mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Ijodiy fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o‘quvchida tabiat hamda jamiyat qonunlarini, shuningdek, boshqa dunyoviy bilimlarni tizimlashtirish, ulami chuqur o‘rganish, tegishli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta’lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor qo‘nalishlarini izlanuvchi ta’lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta’limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan o‘quvchilarda ijodkorlik, ijodiy faoliyatni rivojlantirish lozimligi kun tartibidagi muammo bo‘lib qoldi. Zero, 1-4 sinf

o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olish, ta’limni samarali tashkil etishda darslarni noan’anaviy tarzda o‘tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish ularni har tomonlama yetuk bo‘lishiga xizmat qiladi.

Shunga ko‘ra boshlang‘ich ta’lim oldida turgan vazifa juda jiddiy ulkan ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’lim bolaning o‘z hayotini jamiyat manfaati bilan bog‘lab borishi, ichki munosabatlardan ijtimoiy munosabatlarga o‘tishi, oldiga qo‘yilgan hayotiy maqsadlari esa jamiyat maqsadlari bilan mushtarak bo‘lishiga erishmog‘i kerak. Buning uchun boshlang‘ich ta’lim pedagogik jamoasi bolalarga bilim berish bilan birga murakkab tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishlari lozim. Boshlang‘ich ta’lim mazmunida bolalarni mehnat, ijtimoiy va shaxsiy hayotga tayyorlashga zarur bo‘lgan hamkorlik, samimiyat va o‘zaro yordam natijasida yosh avlodni tarbiyalashga alohida ahamiyat berilgan. Boshlang‘ich ta’lim shaxsning shakllanishida u o‘sib voyaga yetadigan shart-sharoitlarida muhim rol o‘ynaydi. Yosh avlodni ijodiy izlanuvchan, vatanparvar shaxs bo‘lib shakllanishida boshlang‘ich ta’lim ma’suliyati alohida ajralib turadi. Jamiyatimiz ma’naviy-siyosiy birligini ijtimoiy tarbiyaning maqsadlariga to‘la mos ekanligini belgilaydi.

Ona tili va o’qish savodxonligi darslarida biz o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli ifodali o‘qish malakalarini shakllantirishimiz, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarishimiz, lug‘at boyligini boyitish orqali tevarak atrof borliq haqidagi bilimlarni kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish xar qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy, kreativ fikrlash ko‘nikmasini egallashda interaktiv metodlarni qo‘llab ularga bu bilimlarni egallashlariga imkoniyat yaratishimiz lozim. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarni o‘quv bilim faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqatga kirisha oladigan, o‘z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda eng asosiy e‘tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko’nikma: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlar va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

Xulosa. Bola shaxsining rivojlanishi uchun faol kundalik faoliyat zarur. Faoliyat yordamidagina bola atrof-muhit bilan munosabatni tashkil etadi, shu orqali uning bilish qobiliyati rivojlanadi, xarakter sifatlari takomillashib, kamol topadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari qanday bo‘ladi degan savolga biz quydagicha javob beramiz, tez va turli yo‘llar bilan natijaga erishadi, o‘zi qarorlar qabul qilishni o‘rganadi va uni takomillashtiradi, o‘zining salohiyati va ambitsiyalarini amalga oshiradi, o‘qish sharoitlariga osonroq va to‘liqroq moslashishadi, duch kelgan muammolarni hal qilishda moslashuvchan, aniq va samarali hal qila olish xususiyatlariga ega bo‘ladi. Bola shaxsining ijodkor bo‘lishiga o‘qituvchi va murabbiylar sharoitlar yaratib berishi lozim, shunda jamiyatimizda yangi ixtirolar, innovatsiyalar paydo bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’limning poydevori hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. O‘qituvchilar darsda ilg‘or pedagogik texnologiyalar va o‘qitishning interfaol usullaridan keng foydalanmoqda. Har bir ta’lim muassasasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli o‘quv-metodik adabiyotlar, jumladan, elektron resurslarning katta zahirasi mavjud. Sifatli ta’limiy faoliyatni multimedia materiallari orqali tashkil etish an’anaviy uslublarga nisbatan afzalligini o‘qituvchilar anglab yetdi.

Adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - T.: O‘zbekiston,NMIU,2018. –B. 570

2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-637-сон 23. 09. 2020–Т.: 2020. 75 б. // https://lex. uz/docs/5013007

3. Азизходжаева Н. Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Т. : ТГПУ, 2003. – 192 с.

4. Акимова М.К., Козлова В.Т. Упражнения по развитию мыслительных навыков младших школьников. Обнинск: Принтер, 1993. - 20 с.

5. Андреев В.И. Диалектика воспитания и самовоспитания творческой личности. Казань: Изд-во Казанского ун-та., 1988. - 236 с.

6. Венгер А.Л., Цукерман Г.А. Схема индивидуального обследования младшего школьного возраста. Томск, 1993. - 96 с.

7. Jumayeva H. G. Boshlang ‘ich sinf ona tili ta’limida o ‘quvchilarning ijodiy qobilyatini takomillashtirish metodikasi //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 45-47.

8. Пищулина Л. В. Создание системы личностно-развивающих условий для креативных детей в инновационной школе //Вестник Южно-Уральского государственного гуманитарно-педагогического университета. – 2008. – №. 1. – С. 111-128.

Saidova Rayhon Bekmurodovna
Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqotchisi,
Osiyo Xalqaro universiteti dotsenti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(Phd)

TAZKIRACHILIK - SHE'R-U SHOIRLIK SALNOMASIDIR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turkiy, forsiy va arab adabiyotlaridagi tazkira namunalarida shoirlar va ularning ijodi xususida bildirilgan ilmiy ma'lumotlarga diqqat qaratilgan. Saolibiy, Avfiy, Farididdin Attor, Jomiy, Alisher Navoiy, Davlatshoh Samarqandiy kabi tazkiranavislarning qalamkashlar va she'r borasidagi fikrlari tahlilga tortiladi. Unda "Majolis un-nafois" asari tahlil markazida bo'lib, boshqa tazkiralar bilan qiyosan o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *tazkira, tabakat, shoir, she'r, bob, ravza, majlis, avliyo, memuar, biografiya.*

TAZKIRANLIK-POETRY-HE IS A POETIC CHRONICLE

Abstract. *This article focuses on the scientific information about poets and their work in examples of tazkira in Turkish, Persian and Arabic literature. The opinions of tazkiranavis such as Saolibi, Avfiy, Farididdin Attar, Jami, Alisher Navoi, Davlatshah Samarkandi about penmen and poetry are analyzed. "Majolis un-nafois" work is in the center of analysis and is compared with other tazkiras.*

Key words: *tazkira, tabakat, poet, poem, chapter, ravza, meeting, saint, memoir, biography.*

ПОЭЗИЯ - ПОЭЗИЯ-ЭТО ЛЕТОПИСЬ ПОЭЗИИ

Аннотация: *В данной статье основное внимание уделяется научной информации о поэтах и их творчестве на примерах тазкиры в турецкой, персидской и арабской литературе. Анализируются мнения таких поэтов, как Саолиби, Авфий, Фаридиддин Аттар, Джами, Алишер Навои, Давлатшах Самарканди о писателях и поэзии. В ней в центре анализа находится произведение «Маджолис ун-нафоис», и оно изучается в сравнении с другими тазкирами.*

Ключевые слова: *тазкира, табакат, поэт, поэма, глава, равза, встреча, святой, воспоминания, биография.*

Ma'lumki, Sharq mumtoz adabiyotida shoirlar haqida eng asosiy ma'lumot beruvchi manba tazkiralar hisoblanadi. Mumtoz adabiyot tarixi uchun muhim ahamiyat kasb etgan bu turdagi asarlarda tazkiranavislar shoirlarning tajimayi holi, ijodi xususida ishonchli ma'lumot taqdim qilish uchun qator og'zaki va yozma manbalarga murojaat qiladilar. Tazkiralarda muallifning asarlarini tarixiy haqiqatga tayangan holda keltirish, asosiy tayanch manbaga asoslangan holda ma'lumot berish muallifning bosh maqsadidir. Davrlar osha shoirlar haqidagi ma'lumotlarning to'la-to'kis, ishonchli yetib kelishida tazkiralarning o'rni beqiyos bo'lib, ular mumtoz adabiyot tarixining muhim manbalaridandir. Ularda o'quvchilariga eng to'g'ri va ishonchli ma'lumotlar taqdim etiladi. Tazkira arabcha "zikr" o'zagidan olingan "xotiraga keltirishga sabab bo'lgan narsa" mazmunini bildiradi. Zikr so'ziga o'zbek tilining izohli lug'atida "eslamoq", "yodga olmoq" deya izoh beriladi[1]. Tazkira arab adabiyotida "tabakat" deb yuritiladi, fors adabiyotida aynan arabcha "tazkira" shaklida qo'llanadi. Shundan arab ijodkorlari biografiya mazmunidagi asarlarni "tabaqat ush-shuaro" deb nomlaydilar. Ularda ma'lum bir kasbda nom qozongan kishilar biografiyasi yoritiladi va ko'pincha bu ro'yxatni an'anaviy tarzda shoirlar, san'atkorlar, avliyolar, xattotlar, muarrixlar va boshqa ko'plab soha

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. - Toshkent: "Ozbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006 yil, 147-bet.

vakillari tashkil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, tazkiralar ma'lum bir sohada mashhur bo'lgan kishilar tarjimayi holidan hikoya qiluvchi alohida asarlar turkumidir. Alisher Navoiyning ijodida shoir-u san'atkorlar haqidagi so'z boradigan "Majolis un-nafois" asari bor. Bu birinchi turkiy tazkira bo'lib, "Majolis un- nafois" XV asrda yozilgan. Shu asar bilan turkiy tazkira janriga asos solinib, ijod ahli orasida keng tarqalgan. Tazkiralarda tilga olingan kishilarning aksariyatini shoirlar toifasi tashkil qiladi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy bejizga ''Majolis un-nafois'' tazkirasida:

Yuz hamd angakim yasab jahon bo'stoni,
Aylab yuzu zulfidin gulu rayhoni.
Qildi yasag'och bu bog'i ruhafzoni
Nazm ahlin aning bulbuli hush ilhoni[1], -

deya nazm ahli bulbullariga balandparvoz ta'rif bermagan.

Shuni aytish kerakki, asosan, tazkiralar turkiy adabiyotda shoirlar bilan bog'liq bo'lib, qolgan kasb egalari ham she'r yoki san'at bilan bog'liq holda shu mavzu atrofida birlashadi. Tazkiralarning aynnni xildagilari "Tazkirat ush-shuaro" deyilishi ham shu sababdandir. Jumladan Alisher Navoiy bir o'rinda: "*Bas nazm ilmi qoyillari va she'r fani komillarikim, daqoyiq durri pokining bahri ummoni va maoniy la'li otashnokining koni bo'la olg'anlar, bas sharif xayl va aziz qavm bo'lg'aylar, bu jihatdindurkim, alarning nomin otlari va kiromiy sifotlari zamon sahoyifidin va davron safoyihidin mahv bo'lmasun deb tasnif ahli ta'liflarida va ta'lif xayli tasniflarida fusuli orosta va abvobi piyrosta qilibdurlar va o'z kitobatlarig'a bu jamoat zikridin zeb beribdurlar*[2]", - deydi. Ko'rinib turibdiki, tazkiranavislar zimmasida qalam ahli nomlarini kitoblarga zikr qilishdan asosiy maqsad zamonlar o'tishi bilan ularning muborak nomlari unutilib ketishining oldini olishdek ulkan vazifa turardi.

Sharq mumtoz adabiyotida avliyolar haqida so'z yuritiladigan tazkiralar turi ham borki, bu xildagi asarlar "Tazkirat ul-avliyo" deyiladi. Fors adabiyotida mashhur mutasavvif shoir Farididdin Attor o'zining "Tazkirat ul-avliyo" asarini yozadi. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostonida Farididdin Attorning bu asari haqida shunday fikr yuritib, *"Yana avliyolar ruhini xushnud etuvchi tazkira tuzdi. Uning har bir so'zidan yuzlab noma'lum zotlar xuddi tiriklik suvi ichgan kabi jon topdilar"*[3], - deydi. Alisher Navoiy ta'biricha, o'tmishdagi tarix sahifasida unutilayotgan kishilar uchun "tiriklik suvi ichgan kabi jon toptirish" kuchiga ega bo'lgan tazkira asarlar ulug' mutafakkirning o'z ijodida ham san'at darajasiga chiqdi. Alisher Navoiyning ijodida ham so'fiy shoirlar xususida so'z boradigan "Nasoyim ul-muhabbat" asari paydo bo'ldi. Bu kitobdan ham ko'plab so'fiy shoirlar, she'riyat olamidagi "valoyat-u karomat ahli" va xaloyiqqa irshod-u uhda qilgan muborak zotlar haqida ma'lumotlar mavjud. Alisher Navoiy "Majolis un- nafois" (1491-yil) asari bilan turkiy tazkira janriga asos soldi va u ijod ahli orasida keng tarqaldi, shuxrat qozondi. So'z mulkining sultoni bu asari bilan tazkirachilik an'anasini yangilagan bo'lib, unda zamona ijod ahli ham zikr qilinganligi bilan ajralib turadi. Chunki bunga qadar tazkiralarda faqat o'tmishdagi shaxslar taqdiri, ijodi qalamga olingan edi. Bu bir tomondan Sharq tazkirachiligi tarixida olamshymul yangilik, kashfiyot edi. Ushbu tazkira yozilgandan so'ng shu tipda yirik tazkirachilik maktablari paydo bo'lgan va bu janr boshqa xalqlar adabiyotiga ham ko'chgan, "Majolis un-nafois" uslubida ko'plab asarlar yaratilgan. Umuman olganda, tazkira haqida gap ketganda birlamchi shoirlar qisqacha tarjimayi holi va ijod namunalarini o'z ichiga olgan biografiyalar xayolga keladi. Ammo tazkiralar asosiy qismini shoirlar haqidagi tazkiralar tashkil qiladi. Unda shoirlarning ismi, taxallusi, qisqacha tarjimayi holi, kasbi, martabasi tilga olinadi va she'rlaridan namunalar keltiriladi. Asosan, g'azal, qasida janrlaridan misollar beriladi. G'azallar ham ko'proq matla'si namuna sifatida keltiriladi. Shu bilan birga bayt, ruboiy, masnaviy janridagi she'rlarni ham misol tariqasida uchratish mumkin.

[1] Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 13-tom. -T.: "Fan", 2001, 1-bet.
[2] Shu manba:1-bet.
[3] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Lison ut-tayr. - T.: "Fan" nashriyoti, 2001, 8-bet.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, islom madaniyati va sivilizatsiyasiga xos an'ana bo'lgan tazkirachilikning kelib chiqishi islom olamining ilk davrlarida boshlangan diniy tadqiqotlarga borib taqaladi. Arablar "tabaqat" deb atagan bu tadqiqotlarga boshqa musulmon xalqlar ham ergashdilar. Hazrat Alisher Navoiy ta'biri bilan aytilganda, *"Xurdabinlar xizmatida va xiradoyinlar hazratida ma'ruz ulkim, nazm kalomi rutbasi rif'atig'a ushbu dalil basdurkim, aning muqobilasidakim, arab fusahosi balog'at zevarlari bila namoyishliq va fasohat gavharlari bila oroyishliq nazm ra'nolarig'a jilva berurlar erdi va da'vo ko'si ovozasii falakka yetkururlar erdi*[1]". Alisher Navoiy bu e'tirofida shoirlar hayoti, ularning she'rlarini tarixga muhrlashdek vazifa arablar tomonidan qadimdan mavjudligi haqida aytib o'tilgan. Bu janr keyinchalik forsiy va turkiylar orasida keng yoyilgan va tazkira nomini olgan. Misol uchun XII asr mashhur mutasavvif shoiri Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asari tasavvufiy hikoyalardan iborat bo'lib, islom olamida keng qo'llangan. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida Farididdin Attor "Tazkirat ul- avliyo" tazkirasi muallifi ekanidan so'z boshlab, "*Tengri taolo tavfiqi birla bu ulug' ishg'a ilik urdum va azim amrg'a qalam surdum va Hazrat shayx Fariduddin Attor q. s. bitigan "Tazkirat- ul avliyo"dan ba'zi kibor mashoyixkim, "Nafohat ul-uns"g'a doxil bo'lmabdur erdi-har qaysini munosib mahalda doxil qildim va Hind mashoyixi sharhi ham oz mazkur erdi, mumkin bor tilab, topib hazrat Qutb ul-avliyo Shayx Farid Shakarganj q.a.din so'nggi mashoyixgacha ilhoq qildim va turk mashoyixi zikri ham ozroq erdi, oni dog'i Hazrat shayx ul-mashoyix Xoja Ahmad Yassaviy r.din bu zamong'acha ulcha mumkin bor tilab topib, zikrlarin va ba'zi holot-u so'zlarin o'z mahalida darj qildim"*[2], - deydi. Ko'rinib turibdiki, tazkirachilikda qalam tebratishining asosiy sababi Abdurahmon Jomiyning "Nafohat ul-uns" asarida nomlari bo'lmagan ayrim ulug' shayxlarni Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarida uchratganligi bois har ikkala mashhur asardagi ijodkorlarni bir-biriga solishtirgan holda "Nasoyim ul-muhabbat" asariga mukammal tarzda kiritadi. Turkiy til mavqeyini ulug'lash, bu tilda qalam tebratuvchilarning ijodini targ'ib qilish mudomo Alisher Navoiyning asl maqsadi bo'lib kelgan. Shu sababli Shayx Ahmad Yassaviydan toki shoir yashab turgan zamonasigacha bo'lgan turkigo'ylarni ham tazkirasi tarkibiga kiritadi.

Islomdan oldin nomdor shajaralari, avlodlari bilan mashhur shoirlarning nomlari roviylar tomonidan tilga olingan. Arablarda islomga qadar bo'lgan davrda ham shoirlar "nasabnomalar"i mavjud bo'lgan, islomdan keyin Qur'on, tafsir va hadis ilmlari paydo bo'lgach, musnadda uzilish bo'lmaganligini aniq bilish uchun roviylar tarjimayi holiga ehtiyoj sezilgan. Shu bois arab ijodkorlari biografiya mazmunidagi asarlarni "Tabaqat ush-shuaro" deb nomladilar. Fors adabiyotida ijodkorlar arablar qo'llagan "tabaqat" so'zi o'rniga "tazkira" so'zini boshqa bir ma'noda qo'llaydi. Bunday janrdagi asar islom dunyosida juda qiziqish bilan kutib olinadi va ko'pchilik kitobxonlarni mutaassir qiladi. Arab tilida XII asrlarga qadar mashhur bo'lgan tazkiranavislik asta-sekin o'z o'rnini fors adabiyoti tazkirachiligiga bo'shatib beradi. Muhammad Al-Avfiy o'zining "Lubob-ul-albob" nomli asari bilan bu janrni fors adabiyotiga to'la-to'kis kiritdi. Avfiy tomonidan 618/1221-yilda yozilgan bu asar Eronda nashr etilgan. U adabiyot tarixida yozilgan birinchi "she'riyat biografiyasi" hisoblanadi. O'n ikki qismdan iborat "Lubob ul-albob'' tazkirasida Eron adabiyoti tarixidagi eng qadimgi davrlardan boshlab, VII-XIII asrgacha forscha qalam tebratgan shoirlarning tarjimai holi va tanlangan she'rlaridan namunalarni o'z ichiga oladi. Asar muqaddimasida adabiy tanqidga oid muhim fikrlar mavjuddir. "Lubob ul-albob" shoirlar haqida kam ma'lumot beradi, ba'zan vafoti xususida ma'lumotlar qayd etilmagan bo'lsa-da, bayon usuli og'ir, keltirilgan ijod namunalarining shoir uslubi haqida keng tasavvur bermasligiga qaramay, fors she'riyatining ilk tazkirasi sifatida nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Unda davr, adabiy muhit va jarayon haqida qimmatli ma'lumotlar mavjuddir. Ayniqsa, zamondosh shoirlardan ko'plari bilan muloqotda bo'lgan, shoirlar tomonidan berilgan ma'lumotlar muhim sanaladi. Va yana bir jihati nomi shu asardan boshqa hech birida

[1] Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 13-tom. - T.: "Fan", 2001, 1-bet.
[2] Alisher Navoiy. MAT. 17-tom. Nasoyim ul-muhabbat. - T.: "Fan", 2001yil, 7-bet.

uchramaydigan shoirlar va ularning misralari ham o'rin olganligi muhimdir. Muhammad Avfiyning "Lubob ul-albob'' asaridan keyin Abdurahmon Jomiyning Shayx Sadiy Sheroziy "Guliston"iga o'xshatma tarzida yozilgan "Bahoriston" asari 7-bo'limi shoirlarning tarjimayi holi, ijod namunalari aks ettirilgan nazira asar hisoblanadi. Alisher Navoiy bu haqda *"Bahoriston" otlig' kitobidakim, sekkiz ravza ochibdur va sekkiz ravzai jannat alar xijolatidin el ko'zidin ixtifo pardasig'a qochibdur va oni Sultoni Sohibqiron oti zevari bila muzayyal va alqobi gavhari bila mukallal qilibdur, bir ravzasini bu mavzun navoliq balobil va matbu' sadolig' anodil gul bongidin rashki nigorxonai Chin va g'ayrati firdavsi barin qilibdur*[1]", - deydi. Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asari didaktik xususiyatga ega bo'lib, Sa'diy Sheroziyning "Guliston"iga o'xshatma shaklida yozilgan. Otaning o'g'liga pand-nasihati tarzida yozilgan bu asar sakkiz ravza: 1) oriflar sarguzashti; 2) ulug'lar hikmatlari; 3) adolatli shohlar haqida; 4) saxiylik targ'ibi; 5) ishqiy hikoyatlar; 6) hazil-mutoyibalar; 7) she'r va shoirlar; 8) tamsillar bo'limidan tarkib topgan. "Bahoriston"ning yettinchi bobini mohiyat e'tiboriga tazkira usulida yozilgan bo'lib, unda Rudakiydan Navoiygacha o'ttiz yetti nafar mashhur shoirlar haqida ma'lumot mavjuddir. Abdurahmon Jomiy asarining "She'r va shoirlik bobida" deb nomlangan ruknida she'rni ta'riflab: "*muqaddimati xayol, ya'ni tinglovchi xayolini qo'zg'atuvchi va ma'nosi unga iqbol berguvchidir. Haqiqatan ham she'r nechog'li go'zal, nechog'li fazilatga boy va nechog'li yuksak. She'rdan buyukroq fazilat bormikan?! She'rdan sehrliroq sehr bormikan?!"*[2], - deydi. Shundan so'ng yettinchi ravzada ijodkorlar nomini ketma-ket keltirib ularning hayot yo'li ijodiga qisqacha o'rin beradi. Shoirlarning son-sanoqsizligi, ularning har biri haqida mufassil to'xtalib o'tish imkoni yo'qligi sababidan faqat bir nechta mashhurlarigagina to'xtalib o'tganini aytadi. Abdurahmon Jomiy shu o'rinda yana bir go'zal adabiy kashfiyot qiladi, ya'ni she'r xususidagi qarashlarini nazm yo'li bilan ifodalaydi. Tazkiralarda she'rning janriy xususiyatlari, undagi badiiy san'atlar haqida alohida to'xtalib o'tilmasa-da, har bir tazkiranavis adabiy-ijodiy qarashlarini ijodkorlar va ularning asarlariga bergan bahosi orqali bo'lsa ham bayon qilgan. Alisher Navoiy ta'rificha, *"Chun bu muxtasarda mazkur bo'lg'on jamoatning ra's va raisi ul zoti nafis va bu risolada mastur bo'lg'on guruhning muqtadosi va peshvosi ul gavhari yakto''si hisoblanmish Abdurahmon Jomiy she'r bobida ham o'z qarashlarini ilgari surgan. Shoirlarning ijodiga o'rin ajratishdan oldin muxtasargina she'r fikrlarini nazm yo'li bilan bayon qiladi. Vazn, qofiya, radif kabi she'r unsurlari xususida*

Uning vazniga qancha dil gadoy,
Qofiyasidan etakda chiroy.
Radif xalxoli bezatur oyoq,
Holidin xayol oshadi mutlaq"[3].

Bundan ko'rinadiki, azaldan she'rda haqiqatning nechog'lik o'z ifodasini topishi muammo bo'lib kelgan. Bir guruh shoirlar mazmunni shakl yo'lida qofiya va radifga qurbon qilishsa, boshqa bir guruhlari, aksincha, she'rxonni ishontirish, haqiqat birlamchi o'rinda bo'lishi kerak, deb hisoblaydilar. "Bahoriston" asarida she'r ta'rifida bu masalaga quyidagicha oydinlik kiritilgan: *"Bu haqiqat bo'lishidan yoki bo'lmasligidan va bunga tinglovchining ishonishi va ishonmasligidan qat'i nazar, masalan, "may" - la'ldir, yo eritilgan yoqutdir deganlaridek. Umuman olganda, donishmandlar bunda vazn va qofiyani e'tiborga oladilar. Demak, vaznli va qofiyali kalimalardurkim, unda xayolning bor-yo'qligi yoki haqiqatning bor-yo'qligi unchalik e'tiborga ega emas"*[4].

Shuni aytish lozimki, badiiy san'atlar she'r vujudini bezaydigan unsurlar bo'lib, ular Jomiy misralarida inson jismiga monand tarzda o'xshatilib ta'riflanadi:

Tashbehidan ruh oydek jilvagar,
Yo'ldan ozganning aqlini olar.

[1] Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. MAT. 20 tomlik. 13-tom. - T.: "Fan", 2001,1-bet.
[2] Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. - T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2007, 22-bet.
[3] Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. MAT. 20 tomlik. 13-tom. - T.: "Fan", 2001, 2-bet.
[4] Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. - T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2007, 23-bet.

Tajnisdan sochini ikkiga bo'lib,
Undan ikki soch o'rimin o'rib-
Lablar tarsa'dan gavhar sochadi,
O'rim sochlariga gavhar osadi,
Ilhom ko'zidan qisilar ko'zi,
Anjumanda ko'plar fitnaning o'zi,
Yuziga tashlab majoz kokilin,
Pardadan cho'zar haqiqat tilin[1].

Yuqorida aks ettirilgan misralar botiniga nazar solsak, badiiy san'atlar ifodasini topgan janr xususida emas, go'zal jismli xayoliy ma'shuqa haqida so'z borayotgandek tasavvur uyg'onadi. Soch, o'rim, kokil, lab, til, yuz kabi mutanosib so'zlar she'rni oddiy so'zlar tizmasi emas, balki xayoliy dilbar qiyofasida gavdalantiradi. Jomiy hazratlari she'r janrlariga to'xtalar ekan, qasida, masnaviy, g'azal, qit'a, ruboiy kabilarni sanab o'tadi. Shu o'rinda adabiyotshunoslik uchun ham, she'r uchun ham muhim bir fikrga diqqat qaratish lozim. Agar e'tibor berilsa, Alisher Navoiy va undan keyingi tazkiralarda tazkiranavislar shoirlarning she'rlaridan parcha keltirar ekan, asosan, g'azal, masnaviy janrlariga ko'p murojaat qilganliklarini kuzatiladi. Abdurahmon Jomiy "Bahoriston" asarining she'r bobida bu masalaga oydinlik kiritib, *"Qadimgi shoirlar madh, voizona, va boshqa qasidalarga ahamiyat berganlar. Ba'zilari masnaviyga e'tibor berganlar, oxirgi vaqtdagi shoirlarning aksariyati g'azal yo'liga tushib olganlar*[2]", - deydi. Demak, bundan xulosa kelib chiqadiki, masnaviy va g'azal matla'lari tazkiralarda namuna sifatida ko'p o'rinlarda keltirilishining sababi shoirlar o'z ijodlarida dastlab masnaviyga urg'u berganliklari, keyinchalik g'azal janrining qolgan barcha she'riy shakllardan ustun kelishi bilan izohlanadi.

Sharq adabiyotida tazkirachikdagi eng muhim asarlardan biri Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro"sidir. Alisher Navoiy bir asarning o'zida ikki o'rinda Davlatshoh Samarqandiyga batafsil to'xtalib o'tganligining o'ziyoq daho shoirning bu ijodkorga e'tibori va asarining qiymati adabiyot olamidan ulug'ligidan nishonadir. Xususan bir o'rinda shoir*: "Amir Davlatshohkim Xuroson mulkining asil mirzodalari orasida fazl va donish zevari bila bahramand, faqr va qanoat toji bila sarbalanddur, ham Sulton Sohibqiron otig'a "Tazkirat ush-shuaro" otlig' kitob bitibdur, voqean base zahmat tortibdur va bu toifani yaxshi jam' qilibdur*[3]", - deydi. Davlatshoh Samarqandiy haqida aytilgan ma'lumotlarida Alisher Navoir ikki jihatni nazarda tutib, juda muhabbat bilan e'tirof etgan. Birinchi sabab shoirlar toifasini jamlab, haqiqatda ulkan zahmatlar bilan "Tazkirat ush-shuaro" tazkirasini tuzganligidir. Chunki she'riyat sultoni hisoblanmish ulug' zot hamisha shoirlarning martabasi ulug'ligi, ularning aziz nomlarining abadiy qolishi yo'lidagi har qanday xizmatni juda yuksak darajada qadrlaganlar. Ammo yana bir diqqat qaratgulik sabab ham borki, bu xususda to'xtalib o'tish lozim. Davlatshoh Samarqandiy oddiy xonadon farzandi emas, xurosonlik aslzodalar oilasida tavallud topgan. "Tazkirat ush-shuaro" muallifi haqida ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarining beshinchi majlisida ham qimmatli fikrlarni keltirib o'tganligi bejizga emas. Ma'lumki, bu majlisda *"Xurosonning va ba'zi yerning mirzodalari va soyir Ozodalari zikridakim, tab' salomati va zihi istiqomati alarg'a boisi nazm bo'lur, ammo mudovamat qilmaslar"* haqida so'z yuritiladi. *"Ul jumladin: Amir Davlatshoh - Firuzshohbekning amakizodasi Amir Alouddavla Isfaroyiniyning o'g'lidur. Firuzshohbekning muknat va azamati xud olam ahli qoshida gunashdin ravshanroqdur, ta'rifqa ehtiyoj ermas. Amir Alouddavla dag'i ahl kishi erdi. Ammo dimog'i hiffat paydo qilib, zoye' bo'ldi. Va lekin Amir Davlatshoh hushtab' va darveshvash va ko'p salohiyatlig' yigitdur. Obo va ajdodi tariyqidinkim, amorot va zohir azamat va tajammuli bo'lg'ay, kechib go'shaye ixtiyor qilib, faqr va dahqanat bila qanoat qildi va fazoyil va kamolot iktisobi bila umr o'tkardi. Ushbu mazmundakim, bu mux-*

[1] Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. - T.: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2007, 23-bet.
[2] O'sha manba.
[3] Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. MAT. 20 tomlik. 13-tom. - T.: "Fan", 2001,1-bet.

tasar bitiladur, «Majma ush shuaro» tasnif qilibdurkim, har, kishi ani mutolaa qilsa, musannifining iste'dod va kamolin ma'lum qilur. Ammo bu yaqinda xabar keldikim, foniy olamdin rihlat qilibdur. Voqe' bo'lsa tengri ani rahmat qilg'ay. Bu matla' aningdurkim:

Zihi az oftobi orazat chashmi jahon ravshan,
Zi chashmi ravshani karda dilamro xonumon ravshan[1]" .

Unda tazkiranavisning insoniyligi "faqr va qanoat toji birla sarbaland", "darveshvash", - deya e'zozlanadi. Ijodiy kamoloti haqida "fazl va donish zevari bila bahramand", "hushta'b", "ko'p salohiyatlig'" kabi berilgan yuqori baholar Davlatshoh Samarqandiy shaxsiyatining ma'nan yuksakligi, shaxsiga bo'lgan Alisher Navoiyning ehtiromi, e'tibor va muhabbatining yana bir sababi edi. Tazkira forsiy tilda yaratilgan bo'lsa-da, turkiy adabiyotning ham ko'zgusi hisoblanadi. Ushbu kirish, yetti bob, xotimadan iborat "Tazkirat ush-shuaro" asarida Davlatshoh Samarqandiy bir yuz ellikka yaqin shoirlar hayoti haqida ma'lumot bera turib, ularning ijod namunalaridan misollar keltiradi. So'z mulkining sultoni haqidagi qimmatli fikrlarni ham aynan shu tazkirada uchratish mumkinligi haqida akademik Sh.Sirojiddinov ta'kidlaydi[2].

Sharq adabiyotida arab-fors tillarida Saolibiy "Yatimat ut-dahr", fors-tojik adabiyotida Avfiy "Lubob ul-albob", Jomiy "Bahoriston", Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat-ush-shuaro", turkiy adabiyotda Alisher Navoiy "Majolis un-nafois", Ogahiy "Zubdat ul-tavoriz", Faxriy Hirotiy "Ravzat us-salotin", Hasanxo'ja Nisoriy "Muzakkiri ahbob" va boshqa ko'plab tazkiralar yartilgan bo'lib, bu asarlar shoir va she'riyat bobida nihoyat muhim masalalarni ochiqlab beradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, mumtoz adabiyot tarixida she'r va shoirlik masalalari tazkira va shu tip asrlarda mahorat bilan qayd etiladi. Ayniqsa, bu jihatlardan Alisher Navoiy "Majolis un-nafois", Mustafo Eson "Qadimdan bir sado", Saolibiy "Yatimat ud-dahr", Avfiy "Lubob ul-albob", Jomiy "Bahoriston", Sahiy "Hasht behisht", Mustafo Eson "Shoir tazkiralari", Ogahiy "Zubdat ul-tavorix", Alisher Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi Mulki Ajam", Faxri Hirotiy "Ravzat us-salotin", Somi Mirzo "Tuhfai Somiy", Naqibiy "Naqib ul-ashrof", Yusuf Chetintog' "She'r va tanqid", Mustafo Eson "Tazkiradan biografiyaga", Latifiy "Hasht behisht", Oshiq Chalabiy "Mashohir ush-shuaro", Ibn Qutayb "Kitob ush-she'r vash-shuaro", Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma", Xondamir "Makorim ul -axloq", "Xamsa"larning 1-dostonidagi so'z, nazm, qalam, ustozlar, she'ru shoir haqidagi fasllari, Muhammad Rahimxon Feruz "Majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy", Laffasiy "Tazkirai shuaro", Ogoh Sirri Levend "Devon adabiyoti", Aruzi Samarqandiy "Majmuan navodir" ("Dar mohiyati ilmi she'r va salohiyati shoir"), Lutfalibek Ozar "Otashkadayi Ozar", Sodiqiy "Majma ul-xavos" singari juda ko'plab asarlar she'r haqiqatlari va shoir siymosi xususida mumtoz fikr-qarashlarni ilgari suradi va bu ilmiy-badiiy mulohazalar keyinchalik badiiy ijod jarayonida she'r qonuniyatlari, shoirlik fazilatlari zikri bo'lib xizmat qiladi.

Xullas, qayd etilganidek, mumtoz adabiyotda shoirlar haqida eng asosiy ma'lumot beruvchi manba tazkiralar hisoblanadi. Biz nafaqat mumtoz, balki jahon adabiyotshunosligida muhim manba bo'lgan tazkira janri haqida ayrim umumiy mulohazalarni bildirdik, xolos. Bu masala Sharq mumtoz poetikasida nihoyatda keng qamravli soha bo'lib, uning har tomonlama chuqur o'rganilishi dunyo adabiyotshunosligi va adabiy-estetik qarashlari mohiyatini teran ochib beradi.

Adabiyotlar.

1. Абдуллаев И. Абу Мансур ас-Саолибий. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992 йил
2. Абдуллаев И. Бухоронинг арабийнавис шоирлари. - Тошкент: Фан, 1965 йил
3. Абу Мансур Абдулмалик ибн Муҳаммад ас-Саолибий. Татиммат ал-йатима ("Ятиммат ад-даҳр" тўртинчи қисми қўшимчаси). - Тошкент: Фан, 1990 йил

[1] Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. MAT. 20 tomlik. 13-tom. - T.: "Fan", 2001, 85-bet.
[2] Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik. - T.: Tamaddun nashriyoti, 2018.7-bet.

4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. - Toshkent: Tamaddun nashriyoti, 2018 yil

5. Иномхўжаев С. Алишер Навоий ва бадиий сўз санъати //Ўзбекистон маданияти. – Тошкент, 1966. №37.

6. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Фан, 1976 йил

7. Ойбек. Навоийнинг “Мажолисун нафоис” асари ҳақида. –Тошкент: Фан, 1979 йил

8. O’zbek tilining izohli lug’ati. - Toshkent: “Ozbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 yil

9. Хайитметов А. “Мажолис ун-нафоис”нинг ноёб бир нашри ҳақида // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 2004, №2.

10. Хайитметов А. “Мажолис ун-нафоис” ҳақида баъзи мулоҳазалар// Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1958. №1.

11. Alisher Navoiy.Mukammal asarlar to’plami. O’n yettinchi tom. Nasoyim ul-muhabbat. - T.: “Fan” nashriyoti, 2001 yil

12. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. - T.: “Yangi asr avlodi”, 2007 -yil

13. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис” асарига тайёрлаган илмий-танқидий матн. – Тошкент: Фан, 1966 йил

14. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”нинг икки таҳрири//Халқ сўзи. – Тошкент, 2013. № 28.

15. Ғаниева С. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” тазкираси ва туркман адабий хаёти // Совет адабиёти. – Ашхабад, 1987. № 6.

16. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”га изоҳ ва таржималар. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 13 том. –Тошкент: Фан, 1998 йил

17. Ғаниева С. Учинчи таржима: (“Мажолис ун-нафоис” форсча таржимаси”) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –Тошкент, 1998, 6-февраль.

18. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис” ва “Замима” тазкиралар. // Имом ал-Бухорий сабоқлари. Журнал, 2003, №1,2.

19. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис”нинг Туркия нашри//Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –Тошкент, 2006, 3-март.

20. Ғаниева С. “Мажолис ун-нафоис” ҳақида янги маълумот//Буюк ва муқаддассан, мустақил ватан (тўплам). Т-2011.

21. Боровков А.К Маджалис ан-нафаис (собрание редкосных. Отделение литературы и языка).1927. 25. Хайитметов А. Творческий метод Навои. –Ташкент, 1965.

22. Каюмов А. П. Алишер Навои // История всемирной литературы: В 9 томах. – Ташкент: Наука, 1985.

23. Internet saytlari: www.ziyonet.uz www.ziyouz.com www.google.uz www.google.ru

Dushanov Rustam Xujanovich
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

MAXSUS MUASSASALAR TIZIMIDA KASBIY TANLOV O‘TKAZIShNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maxsus muassasalar tizimida kasbiy tanlov o‘tkazishning psixologik asoslari va uni takomillashtirish yo‘llari borasidagi fikr-mulohazalar bildirilgan.*

Bunda, kasb talablaridan kelib chiqqan holda ularni birlashtiruvchi yagona konseptual g‘oya bu: “O‘z kasbiy xizmat vazifalarini talab darajasida bajara oluvchi, hissiy-irodaviy barqaror mutaxassis-xodimlarni tanlab olish”ga bo‘lgan talablar o‘z aksini topgan. Shuningdek, bugungi kunda kasbga tanlov o‘tkazishning psixologik xizmat sohasi amaliy ahamiyat kasb etib, individual-shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy, texnik kabi omillarning ta’siri asosida dolzarblashib borayotganligi, bu esa o‘z navbatida, kasb tanlashga o‘z istagini bildirgan fuqarolardan tashkilot, idora quygan vazifalarni bajara oladigan xislatlarga ega bo‘lganlarni aniq psixometrik: test va so‘rovnomalar, apparatli uslublar asosida o‘rganib, nomzodning qadriyatlar tizimi va yo‘nalishini, motivatsiyasini, qiziqish hamda istaklarini aniqlashga qaratilgan psixologik jarayonlar ilgari so‘rilgan.

Tayanch tushunchalar: *Psixologik layoqatlilik, psixometrik testlar, metodikalar, ong va faoliyat birligi, ongning faoliyatda rivojlanishi prinsiplari, kasb ustasi shaxsini shakllantirish nazariyasi, psixologik modellashtirish nazariyasi, akmeologik-psixologik bilish nazariyasi, kasbiy o‘zini-o‘zi anglash konsepsiyasi, kasbga yo‘nalganlik, ijobiy motivatsiyalar, psixologik xarita.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОТБОРА В СИСТЕМЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация. *В данной статье были изложены мнения по поводу проведения психологических основ при выборе профессий в структуре специальной организации, а также пути его улучшения.*

Единственная объединяющая концептуальная идея из предъявляемых профессиональных требований, это: на уровне предъявляемых требований исполнения профессиональных обязанностей, эмоционально-волевые качества отражаются в выборе сотрудников-специалистов.

При этом, сегодня проведения профессионального отбора, это направление психологической службы которое имеет профессиональное практическое значение, индивидуально-личностные, социальные, профессиональные, технические факторы воздействия как актуальное направление, что является последующим в выборе своей желаемой профессии.

Предъявляемые организациями и органами исполняемые задачи к гражданам, конкретные, особенные психометрические методики: тесты, опросы, изучение при помощи специальных аппаратов, изучение системы ценностей и направлений кандидата его мотивация, интересы и желания направленные на определения сдвижения психологического процесса.

Ключевые слова: *Психологическая компетентность, психометрические тесты и методики, единство сознания и деятельности, принципы развития сознания в деятельности, теория формирования личности профессионала своего дела, теория акмеологически – психологического познания, концепция самопознания в профессиональном плане, профессиональная направленность, творческие мотивации, психологическая карта.*

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF PROFESSIONAL SELECTION IN THE ORGANS OF INTERNAL AFFAIRS

Annotation. *The article examines the psychological basis for choosing a profession in the system of special institutions and the ways to improve it. A unique combined conceptual idea from the presented professional requirements is the fulfillment of professional requirements, emotional-will qualities are manifested in the selection of specialists.*

At the same time, today professional selection is the direction of psychological service which has professional practical significance, individual-personal, social, professional, influence of technical factors as actual direction that is following in choosing willing profession.

The tasks presented by the organizations and bodies to the citizens, concrete particular psychometric methods as tests, questioning, examination with the help of special devices, examination the system of worth and direction of the candidate's motivation, interest and willing directed to determination psychological process in stated.

Keywords: *psychological competence, psychological tests and methods, unique consciousness and activity, principles of consciousness development in the activity, theory of formation of personality of the professional, theory of acmeological and psychological perception, conception of self-actualization in professional framework, professional orientation, creative motivation, psychological map.*

Boshqa sohalar singari kasbiy-psixologik tanlov o‘tkazish ham o‘z tarixi va rivojlanish bosqichlariga ega bo‘lib [1], bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida (masalan, Germaniya, Fransiya, Isroil, AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va b.) kasbga tanlash, tarbiyalash, lavozimga tayinlashda uning xulosa va tavsiyalaridan foydalanib kelinmoqda.

Bundan ko‘zlangan maqsad, har bir tizim doirasida kasbiy faoliyatning maqsadi, predmeti, vositalari hamda sharoitlarini inobatga olgan holda yetuk mutaxassislarni jamlashdan iborat. Shu ma’noda, “har bir sohaga fuqarolarni qabul qilish, lavozimga tayinlash, ularning xizmatda ko‘tarilishi va boshqa lavozimga o‘tishi fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy movqeidan qati nazar amalga oshiriladi”. Chunki, har bir idora, tashkilotning nufuzini, fuqarolar ishonchini qozonishga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omil bu yetuk bilimli mutaxassis, ya’ni uning kasbiy tajribasi, bilimi, ko‘nikma va layoqatliligi (kompitentligi) hisoblanadi. Sababi “Jismoniy va ma’naviy barkamol yoshlar - bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir”. Ana shunday insonlarni tanlab olishda psixologik tanlov natijalari ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kasbga tanlov faoliyatini olib borishning to‘rtta yo‘nalishi mavjud bo‘lib bular: tibbiy, fiziologik, pedagogik va psixologik tanlov kabilardir. Kasbga “tanlov o‘tkazishning har bir sohasi o‘z g‘oyasi, farazi, maqsad va vazifasi, nazariy hamda amaliy ahamiyatiga ega bo‘lib, maxsus psixologik metodlar yordamida amalga oshiriladi va kasb talablaridan kelib chiqqan holda ularni birlashtiruvchi yagona konseptual g‘oya bu: “O‘z kasbiy xizmat vazifalarini talab darajasida bajara oluvchi, hissiy-irodaviy barqaror mutaxassis-xodimlarni tanlab olish”dan iboratdir.

Bugungi kunda har bir kasbga tanlov o‘tkazishda psixologik xizmat sohasi amaliy ahamiyat kasb etib, individual-shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy, texnik kabi omillarning ta’siri asosida dolzarblashib bormoqda. Bu o‘z navbatida, kasb tanlashga o‘z istagini bildirgan fuqarolardan tashkilot, idora quygan vazifalarni bajara oladigan xislatlarga ega bo‘lganlarni aniq psixometrik: test va so‘rovnomalar, apparatli uslublar asosida o‘rganib, nomzodning qadriyatlar tizimi va yo‘nalishini, motivatsiyasini, qiziqish hamda istaklarini aniqlashga qaratilgandir. Kasbni egallash sohaviy bilim, ko‘nikma va mahoratlarni egallaganlik darajasi bilan belgilanib, bunda yuridik, ya’ni ixtisoslikka egalik haqidagi diplom muhim o‘rin

[1] *Решетников М.М.* Профессиональный психологический отбор: развитие проблемм и основные понятия // Сборник докладов 1 научно-практической конференции врачей психофизиологов ВМФ. - Москва: Воениздат, 2015.

egallaydi[1].

Har bir muassasaning faoliyati samaradorligini oshirish quyidagi jihatlarga ega bo‘lib, sifat va son ko‘rsatkichlarida ifodalanadigan mahsuldorlik, kasbiy vazifalar doirasida amalga oshiriladigan harakatlarning aniqligi hamda tezligi, aniq vaqt va makon doirasida kasbiy vazifa va majburiyatlarning yuqori sifatda bajarilishini saqlash, xodimi imijining yuqoriligini ta’minlab, fuqarolar ishonchini qozonish kabilar shular jumlasidandir.

Kasbiy tanlov o‘tkazishda, xodimlarning muhim kasbiy sifatlarini belgilab olishda huquqiy jihatdan asos bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan Qonun, qaror va farmonlar xizmat qiladi.

Ilmiy-psixologik jihatdan esa “Ong va faoliyat birligi” hamda “Ongning faoliyatda rivojlanishi” prinsiplari (L. Vigotskiy, A. Leontev, S. Rubinshteyn va boshq.), “Kasb ustasi shaxsini shakllantirish nazariyasi” (G. Abramova, A. Verbiskiy, I. Dubrovina, Ye. Klimov, N. Pryajnikov va boshq.) “Psixologik modellashtirish nazariyasi” (N.M. Amosov, A. Bratko, L. Vekker, V. Starines, va boshq.), “Akmeologik-psixologik bilish tamoyillari” (B. Ananev, A. Derkach, A. Sitnikov va boshq.), “Kasbiy o‘zini-o‘zi anglash konsepsiyasi” (O. Moskalenko, I. Chesnokova va boshq.) kabi nazariyalar metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lg‘usi xodimni muhim kasbiy-shaxsiy sifatlarni o‘rganish va lavozimga tayinlashda psixologik metod va metodikalar asosida o‘rganish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Nazariy jihatdan xodim faoliyatining ijtimoiy-psixologik tavsifini kuyidagicha ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin:

- Har bir xodim faoliyati davlat xizmatining uni o‘tash tartibi bo‘ymcha belgilangan normativ huquqiy xujjatlar asosida belgilab qo‘yilgan;
- Xodimning kasbiy faoliyati qonuniylik, gumanizm, inson huquqlarini hurmat qilish kabi tamoyillar asosida tuzilgan;
- Ichki tartibini saqlashga oid chora-tadbirlar me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga keltirilgan bo‘lib, buning uchun maxsus kuch, usul va vositalardan foydalaniladi;
- Hbar bir muassasa xodimlariga ma’lum ko‘lam va me’yorda hokimiyat berilgan bo‘lib, undan maqsadli va o‘rinli foydalanish kasbiy bilim, ko‘nikma hamda ularda ifodalangan huquqiy ongning rivojlanish darajasiga bog‘liqdir;
- Kasbiy faoliyati davomida ish va xizmat joyida xodimlar bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni olib borish, o‘rnatilgan ichki nizom buzilishlarini yuzaga kelmasligini ta’minlash kabilar davomida (psixologik tizim sifatida: “xodim — tartibbuzar” munosabati) xodim ta’sir ko‘rsatish kuchiga ega bo‘lib, qonunbuzarlikning oldini olish uchun psixologik va huquqiy jihatdan tanbeh berish kabi usul va vositalardan foydalanish kabilarni qo‘llaydi. Jumladan,
- Turli nostandart vaziyatlar qamrovida o‘z kasbiy vazifasini bajaradigan xodimlar, gohida konspirativ tarzda ish ko‘rishlariga to‘g‘ri keladiki, bularning barchasi psixologik tayyorgarlikka ega bo‘lishni taqozo etadi;
- Ayrim tashkilot xodimining faoliyati turli stressogen omillarning ta’siri, vaqt tig‘izligi, axborot yetishmasligi, kechayu kunduz faoliyat yuritishni talab etishi bilan ajralib turadi va ularning faoliyatida ijtimoiy muhit omili o‘z ta’sir kuchiga ega va boshq.

Maxsus tizim uchun fuqarolarimiz safidan individual psixologik xususiyatlari jihatidan loyiq nomzodlarni tanlab olib o‘qitish nafaqat psixologik, balki, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, tibbiy kabi jihatlari bilan alohida ahamiyat kasb etib, yangi xavf va tahdidlar xarakterini inobatga olgan holda tizim faoliyatining samaradorligini yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Xodimlar xizmat faoliyatining muvaffaqiyati mehnat motivi bilan bog‘liqdir, shu bois kasbga yo‘naltirish va kasbiy tanlov o‘tkazish davomida quyidagi barqaror ijobiy

[1] *Скалин Ю.Е.* Профессиональный психологический отбор оперативных сотрудников угловного розыска. // Автореф... дис. к... психол...н. – Санкт-петербург. 2010.

motivatsiyalarni inobatga olish tavsiya etiladi[1]: *birinchidan,* tashkilot faoliyatini tavsiflashda uning qiziqarli va ijodiy yondashuv talab etadigan jihatlarini ko‘rsatish; *ikkinchidan,* xodimlarda kasbiy ta’lim-tarbiya jarayonida kasbiy sharaf, kasbga sodiqlik va kasbiy g‘ururni shakllantirish maqsadining mavjudligi; *uchinchidan,* xodimlarning xizmat pog‘onalarida o‘sishi, kasbiylayoqati va xizmatining kelajagiga daxldor dalillar asosida ishonch hosil qilishi; *to‘rtinchidan,* mehnat shart-sharoitlarini tayyorlab, xizmat jamoalarida ijobiy ma’naviy-psixologik muhitni yaratish.

O‘z navbatida mazkur motivatsiyalar rahbar va xodimlar o‘rtasidagi munosabatning ijobiyligini ta’minlash kafolati hisoblanadi.

Shu bois, Har bir soha xodimlarining kasbiy professiogrammasida quyidagi ijtimoiy-psixologik sifatlar o‘z aksini topishi maqsadga muvofiqdir:

- oqilona tavakkalchilik;
- o‘tkir zehn;
- kasbiy kuzatuvchanlik;
- nizoli vaziyatlarda o‘zini tuta olish, bosiqlik;
- fuqarolar e’tiborini tortib, ularning ishonchini qozona olish;
- insonning ichki kechinmalarini kuzata olish va baholash;
- o‘z nuqtai nazarida tura olish;
- rostguylik
- notiqlik, nutq madaniyatini namoyon qila olish;
- turli va ziddiyatli axborotlardan xulosa chiqara olish;
- tashqi ko‘rinish va xulq namunalarini esda saqlay olish;
- doimiy intellektual faollikni saqlab turish;
- shaxsiy ishonch;
- to‘g‘ri qaror qabul qila olish;
- o‘zining bilim va jismoniy kuchiga to‘g‘ri baho bera olish;
- turli harakatlarni amalga oshirish davomida diqqatni to‘g‘ri taqsimlab, uni uzoq saqlay olish;
- turli xavf va tahdidlar bilan yuzlashishga tayyor turish;
- mimik harakatlar mazmunini bilish;
- fuqarolar bilan tez muloqotga kirisha olish va boshq.

Mazkur psixologik tasnifdan ko‘rinib turibdiki, har qanday yo‘nalishga xodimlarni tanlashda ularning bajaradigan xizmat vazifalaridan kelib chiqqan holda psixometrik va apparatli uslublarni ko‘llash tavsiya etiladi. Garchi, maqsad jihatidan xodimlarning bajariladigan vazifalari bir biriga o‘xshamasada, to‘ldiruvchi hisoblanib, ularni birlashtiruvchi yagona ob’ekt bu - shaxsi, predmeti esa uning noqonuniy harakati hisoblanadi.

Har bir muuassasa, tashkilot oldida turgan vazifalar majmuasining institutsional tahlilini amalga oshirsak, bunda polifunksionallikning amal qilishini kuzatishimiz mumkin. Ya’ni, bunda maxsus vazifalarni bajaruvchi alohida guruh xodimlarini ajratib olishimiz mumkin. Bu o‘z navbatida, psixologlar oldida kasbga tanlov o‘tkazish hamda lavozimga tayinlash jarayonida avtonom tarzda yondashishni taqozo etadi. Negaki, shaxsning kasbiylashuv bosqichlari o‘z dinamikasiga ega:

- birinchi bosqich: “xodim vazifasini o‘zlashtirish” 17-25 yosh;
- ikkinchi bosqich: “kasbiy natijalarga erishish” 25 - 40 yosh;
- uchinchi bosqich: “kasb ustasi bo‘lish” 40 va undan yuqori yosh.

Bu jarayonda ijtimoiy-psixologik omillar (shaxsiy va shaxslararo munosabatlar) hamda samaradorlikni ta’minlash mexanizmi (tashkiliy boshqaruv, joriy tartib, ijtimoiy hamkorlik, shaxsiy dolzarblashuv va b.) o‘z ta’sir kuchiga egadir. Bu o‘z navbatida, boshqaruvda

[1] *Скворцова Е.В.* Психолого-педагогическая реабилитация сотрудников милиции в ситуации профессиональной деформации личности. Автореф... дис.к... психол...н. - Москва, 2007.

psixologik ta'limotlar natijasidan maqsadli foydalanishni taqozo etadi.

Masalan: ayrim soha xodimlarining kasbiy faoliyati boshqa soha xodimlaridan ko'lami, xajmi kengligi, mazmundorligi, harakatlarning ko'pligi, ruhiy va jismoniy zo'rikishlar olish kabi jihatlari bilan ajralib turadi[1]. Bu o'z navbatida nomzodning kasbiy loyikligini baholashda quyidagi psixologik tasniflarning asosiy g'oyalarini inobatga olishni taqozo etadi:

Mnemik xususiyat (xotira hajmi, eslab qolish sur'ati, o'zlashtirilgan materiallarning mustahkamligi, axborotni aniq va tez qayta tiklash, tez kayta tiklashga xotiraning tayyor ekanligi). Bunda kasbiy xotira, tezkor xotira (umuman xotira hajmi 7±2 axborot birligida o'lchanadi) kabilarning o'rni borligini inobatga olish lozim.

Imajitiv xususiyatlar bevosita tasavvur ko'lami va miqyosida turli ob'ektlar, siymolarni belgilari asosida ajrataolishda namoyon bo'ladi.

Tafakkur xususiyatlari umumiy intellekt, ijtimoiy intellekt va maxsus intellektlarning ko'rsatkichida ifodalanib, xizmat vazifalarini bajarishda, favqullodda holatlarda qonun doirasida ish ko'rishda namoyon bo'ladi.

Attension xususiyatlar, ularga diqqatni ajratish qobiliyati, hajmi, barqarorligi, taqsimlanishi va ko'chishi kabilar taalluqli bo'lib, xodimning faoliyatining mazmundorligini ta'minlaydi.

Xodim o'z xizmat vazifalarini belgilangan tartib asosida bajarishi uchun quyidagi mahoratlarga ega bo'lishi kerakki, bu asosan kasbiy ta'lim davomida o'zlashtiriladi:

- hayot va faoliyat uchun xavfli bo'lgan nostandart vaziyatlarda xizmat vazifalarini bajara olish qobiliyati;
- o'z hatti - harakatlari uchun mas'uliyatli ekanligini anglash;
- turli psixotip va kasb sohalariga mansub insonlar bilan muloqotga kirisha olish qobiliyati;
- kuchli psixofiziologik chidamlilik (ya'ni: 7 kunlik ish, 10-12 soatli ish vaqti davomida ishchanlikni yo'qotmaslik);
- turli ijtimoiy rollarga kira olish va boshq.

Tizimli idrok mahsuliga tayangan holda ta'kidlash mumkinki, xodim shaxsida agressivlik, ichki va tashqi omillarga ta'sirchanlik, yuqori darajada emotsionallik, *tormozlanish kabi sindromlarning* mavjudligi "kasbga noloyiq"likning asosiy kursatkichlari hisoblanadi. Bu o'z navbatida psixologik xizmat doirasida ilmiy uslublar asosida o'rganilishi lozim.

Ayrim maxsus tashkilot, muassasa xodimlarining faoliyati ularning sifatli tasnifi, ya'ni me'yoriylik, tashkiliylik, kasbiy tayyorgarlikka egalik, o'zlashtirilganlik va samaradorligi kabi psixologik tarkiblarga bog'liqdir[2]. Ko'rinib turibdiki, bu yana bir bora kasb uchun psixologik tanlov o'tkazishning nazariy va amaliy jihatdan dolzarbligini, ijtimoiy ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Chunki xizmat amaliyotida kasbiy loyiklik kasb ustaligining etaloni sifatida idrok etiladi. Shuning uchun nomzodlarning *birinchidan,* kasb tanlash *motivini; ikkinchidan,* kasbiy o'kish motivini; *uchinchidan,* kasbiy maksadini; *to'rtinchidan,* hayotiy kadriyatlarini; *beshinchidan,* muvaffakiyatga erishish motivlarini psixodiagnostik xamda proektiv testlar, so'rovnoma va apparatli uslublar asosida majmuaviy tarzda o'rganib, har bir xodim uchun "Psixologik xarita" tayyorlash lozim deb hisoblaymiz. Psixologik xarita har bir xodimning shaxsiy ish jildida turib, navbatdagi unvon yoki lavozimga tayinlash davomida undagi individual-shaxsiy ma'lumotlar attestatsiya komissiyasi, yukori rahbarlar uchun xodim haqida ma'lumotlar doirasida foydalanilishi mumkin. Buning uchun har bir psixologik o'rganish natijasi kasbga yollash, o'qishga tavsiya etish, lavozimga tayinlash, psixologik yordam ko'rsatish kabilar xaritada mutaxassis-psixolog tomonidan qo'llanilgan psixometrik uslublarning nomi, balli ko'rsatkichi, xulosa va tavsiyalar qayd etilishi lozim. Boshkaruv

[1] Душанов Р.Х., Фарфиев Ё.А. Касбий психология. Дарслик. Ўзбекистон Республикаси. ИИВ Академияси. 2014 й. 350-б.

[2] *Хрусталева Т.А.* Психологические особенности формирования личности оперативного работника уголовного розыска. Автореф... дис.к... психол...н. - Москва, 2009.

uchun uning quyidagi qulayliklari mavjud:

- muassasa xodimlarini kadrlar zaxirasining manbai ilmiy psixologik ma’lumotlar asosida boyitiladi, xodimlar siyosatiga oid olib borilayotgan chora-tadbirlar monitoringi amalga oshiriladi;
- har bir xodimning psixologik portreti tayyorlanadi, bu o‘z navbatida, ular va ularning oila a’zolari bilan ishlash jarayonini yengillashtiradi;
- xodimning shaxsiy va kasbiy o‘sish dinamikasi ilmiy belgilab olinadi, boshqaruv uslublari takomillashtirib boriladi;
- lavozimga tayinlashda uning xizmat vazifalarini bajara olishi yoki bajara olmasligi aniqlanadi;
- xodim shaxsi va kasbiy layoqatiga oid turli sub’ektiv (bo‘rttirilgan, pasaytirilgan, isbotlanmagan kabi) ma’lumotlar vujudga kelmasligini ta’minlaydi;
- xizmat va shaxsiy muammolarni o‘z vaqtida aniklab, amaliy yordam ko‘rsatish sharoiti ta’minlanadi va b.

Xulosa o‘rnida shuni ko‘rsatib o‘tishimiz lozimki, yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, nomzodlarni xizmatga jalb qilishning psixologik tanlovini amalga oshirishda ularni ma’lum bir guruhlarga ajratib: Shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish testlari (shaxning motivatsiyasi, qiziqishlari, kadriyatlari, hissiy va individual xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan); Intellektni o‘rganish testlari (shaxsning aqliy qobiliyati darajasini aniqlashga karatilgan); Qobiliyatni o‘rganish testlari (shaxsning ma’lum bir o‘kuv materiallarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qobiliyatini (umumiy va maoxsus kobiliyatlar) aniklashga karatilgan);

Muvaffakiyatni o‘rganish testlari (shaxsning u yoki bu faoliyatda, masalan kasbiy o‘kishda, til o‘rganish jarayonida muvaffakiyatga erishish darajasini aniklashga karatilgan) kabilardan kasbiy psixologik tanlov oldida ko‘yilgan vazifalardan kelib chikkan xolda maksadli foydalanish ijobiy natijalar berishi mumkin.

Adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Axborotnomasi. T., 2016.

2. O‘zbeiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining Iv-qurultoyida so‘zlagan nutqi. 2017 y. 30 iyun.

3. Dushanov R.X., Farfiev Y.A. Kasbiy psixologiya. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi. IIV Akademiyasi. 2014 y. 350-b.

4. Решетников М.М. Профессиональный психологический отбор: развитие проблемм и основные понятия // Сборник докладов 1 научно-практической конференции врачей психофизиологов ВМФ. - Москва: Воениздат, 2015. С – 7-8

5. Скалин Ю.Е. Профессиональный психологический отбор оперативных сотрудников угловного розыска. // Автореф... дис. к... психол...н. – Санкт-петербург. 2010.

6. Скворцова Е.В. Психолого-педагогическая реабилитация сотрудников милиции в ситуации профессиональной деформации личности. Автореф... дис.к... психол...н. - Москва, 2007.

7. Хрусталева Т.А. Психологические особенности формирования личности оперативного работника уголовного розыска. Автореф... дис.к... психол...н. - Москва, 2009. 180 ст

Barotov Xumoyun Sharifovich
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar
instituti tadqiqotchisi

JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

Аннотatsiya. *Maqolada jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligiga ta’sir qiluvchti ijtimoiy-pesixologik omillarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining faoliyat samaradorligini ta’minlovchi psixologik mexanizmlarni ilmiy aksoslari ochib berilgan.*

Kalit so’zlar: *kasbiy kompetentlik, muloqotchanlik, kasbiy bilim, empatiya, ijtimoiy-psixologik omillar, ijtimoiy muhit, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kasbiy etiket, assertiv xulq, guruhiy ta’sirlashuv, optimmallashtirish, sotsial-psixologik kompetentlik.*

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ КАК РЕДАКЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН

Аннотация. *В статье выделены роль и значение социальных и психологических факторов, влияющих на профессиональную компетентность учителей физического воспитания. Также выявляются научные отголоски психологических механизмов, обеспечивающих эффективность работы учителей физического воспитания.*

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, общение, профессиональные знания, эмпатия, социально-психологические факторы, социальная среда, саморазвитие, профессиональный этикет, ассертивное поведение, групповое влияние, оптимизация, социально-психологическая компетентность.*

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN PHYSICAL EDUCATION TEACHERS AS AN EDITORIAL-PSYCHOLOGICAL PHENOMENON

Annotation. *The article highlights the role and significance of social and psychological factors influencing the professional competence of physical education teachers. Scientific echoes of the psychological mechanisms that ensure the effectiveness of physical education teachers are also revealed.*

Key words: *professional competence, communication, professional knowledge, empathy, socio-psychological factors, social environment, self-development, professional etiquette, assertive behavior, group influence, optimization, socio-psychological competence.*

Kirish. Kasbiy kompetentlik o'qituvchining o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar yig'indisini ifodalaydi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun bu kompetentlik ularning dars jarayonida nafaqat jismoniy tarbiyani o'rgatishda, balki o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, motivatsiyani oshirish va shaxsiy rivojlanishga yordam berishda katta rol o'ynaydi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi zamonaviy ta'lim jarayoniga mos keladigan psixologik bilimlarni mukammal bilishi va qo'llay olishi kerak. Bu bilimlar dars rejasini tuzishda, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishda va ularni jismoniy mashg'ulotlarga jalb etishda muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarida metodik kompetentlik ham muhimdir. Bu metodik kompetentlik turli xil dars usullarini o‘quvchilar yoshiga, ularning qobiliyatlariga va ehtiyojlariga moslashtirishni talab qiladi. Psixologik barqarorlik jismoniy tarbiya o'qituvchisi uchun eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. U turli qiyin vaziyatlarda ham o'zini barqaror tutishi, shaxsiy hissiyotlarini nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu o'qituvchi stress va qiyin vaziyatlarni boshqarishda va o'quvchilar bilan samarali ishlashda katta ahamiyat kasb

etadi. Psixologik yondashuv esa o'qituvchining o'quvchilarga motivatsiya berishi, ularni jismoniy faoliyatda ishtirok etishga undashi va ruhiy qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'quvchilarning darsdagi ishtirokini oshiradi va sog'lom turmush tarziga moslashishga yordam beradi.

Fikrimizcha, jismoniy tarbiya o'qituvchilarida **kasbiy kompetentlik** nafaqat dars jarayonida, balki o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadigan psixologik-psixologik fenomen hisoblanadi. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, o'qituvchilarga o'z faoliyatlarida yuksak natijalarga erishish va ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish imkonini beradi

Metodologiya. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha J.Dewey, D.Kolb, H.Gardner, J.Piaget, L.Vygotsky, B.Bloom, A.Bandura, E.Erikson, J.Bruner, D.Schon, J.Hattie, R.Gagne, B.Joyce, M.Weil, L.Stenhouse hamda Ch.Argyris nazariy ma’lumotlari batafsil yoritiladi. Har bir olimning nazariyasi psixologik va psixologik nuqtai nazardan kasbiy kompetentlikni o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

J.Deweyning ta’limga oid yondashuvi o‘qituvchi faoliyatida tajriba va amaliyotni asosiy o‘ringa qo‘yadi. Dewey ta’limda faollik, muammoni hal qilish va amaliy tajribaning ahamiyatini ta’kidlab, o‘qituvchining kompetentligini amaliyot orqali rivojlantirishni taklif qiladi. Dewey nazariyasiga ko'ra, o‘quvchilar bilan bevosita ishlash va ularning ehtiyojlarini hisobga olish o‘qituvchining kompetentligi rivojlanishiga xizmat qiladi.

D.Kolbning tajribaga asoslangan o‘qitish modeli jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Kolbning nazariyasiga ko‘ra, o‘qitish jarayoni to‘rt bosqichdan iborat: tajriba, kuzatish, tahlil qilish va faoliyatga tatbiq etish. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari bu jarayon orqali o‘z darslarida tajribani o‘quvchilarga tatbiq etishi va ular bilan faol muloqot o‘rnatishi lozim. Kolbning yondashuvi o‘qituvchining darslarida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashini va o‘quvchilar bilan faol tajriba almashish imkoniyatini yaratadi.

H.Gardnerning "Ko‘p aql nazariyasi" o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Gardnerning fikricha, har bir o‘quvchi turli xil aqliy qobiliyatlarga ega bo‘lib, o‘qituvchilar bu qobiliyatlarni inobatga olishlari kerak. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari ham o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning individual qobiliyatlarini tushunishlari muhim..

J.Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Piagetning fikricha, o‘quvchilarning o‘qish jarayonida bilimlarni qanday qabul qilishlari va o‘rganishlari ularning aqliy rivojlanish bosqichlariga bog‘liq. Piagetning fikriga ko‘ra, o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishi va jismoniy faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish, o‘qituvchining kasbiy kompetentligini oshirishga yordam beradi.

L.Vygotskyning (Yaqin rivojlanish zonasi) nazariyasi jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun juda muhimdir. Uning nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilar o‘z rivojlanishining "yaqin zonasi"ga yetganlarida, ularga biroz ko‘mak berilishi natijasida murakkab topshiriqlarni bajarishlari mumkin. Vygotsky o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘diradigan vazifalarni bajarishda yordam berish va o‘rgatish orqali ularni yanada rivojlantirish kerakligini ta’kidlaydi.

B.Bloomning "Taksonomiya nazariyasi" jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ahamiyatli hisoblanadi. Uning yondashuviga ko'ra, ta'lim jarayonida bilimlar, ko'nikmalar va munosabatlar qadam-baqadam rivojlanib boradi. Bloom o'qituvchi uchun o'quvchilarning bilim darajasini o'lchash va rivojlantirishni taklif qiladi..

A.Bandura o‘zining "Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi" bilan o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ijtimoiy muloqot va kuzatishning o‘rganish jarayoniga ta’sirini tushuntiradi. Banduraning fikricha, o‘quvchilar o‘qituvchilar va boshqa jamoadoshlarini kuzatish orqali o‘z xulq-atvorlarini shakllantiradilar. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida o‘qituvchi o‘z o‘quvchilari uchun shaxsiy o‘rnak bo‘lishi va ularga kerakli ko‘nikmalarni o‘rgatishi lozim.

Bandura ijtimoiy o‘rganish jarayoni orqali o‘quvchilarning jismoniy va psixologik qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘qituvchilarning roli muhim ekanligini ta’kidlaydi. O‘qituvchi o‘z xatti-harakatlari bilan o‘quvchilarga o‘rnak bo‘lishi va ularning jismoniy rivojlanishiga yordam berishi kerak. Shu tariqa, o‘qituvchining kasbiy kompetentligi o‘z jamoasi va o‘quvchilari bilan ijtimoiy muloqot orqali rivojlanadi [188].

E.Eriksonning "Psixosotsial rivojlanish nazariyasi" jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun muhim bo'lib, u shaxsning turli rivojlanish bosqichlarini o'rganishni ta'kidlaydi. Eriksonning fikricha, har bir inson hayoti davomida turli psixososial inqirozlarni boshdan kechiradi va bu bosqichlar ularning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'quvchilarning yosh va rivojlanish bosqichlarini tushunishlari, ularning ijtimoiy va psixologik ehtiyojlarini inobatga olishlari kerak. Eriksonning yondashuvi o'qituvchilarni o'quvchilarning psixososial ehtiyojlariga ko'ra dars metodlarini tanlashga undaydi. Bu esa o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda katta ahamiyatga ega [200].

J.Brunerning "Konstruktivistik o'qitish nazariyasi" jismoniy tarbiya o'qituvchilariga o'quvchilarning o'z tajribalaridan foydalangan holda bilimlarni qanday qabul qilishlarini tushunishga yordam beradi. Brunerning fikricha, o'quvchilar o'z tajribalarini va avvalgi bilimlarini yangi bilimlarga bog'lab o'rganadilar. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'quvchilarning avvalgi jismoniy tajribalarini hisobga olgan holda, ularni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan dars usullarini qo'llashlari kerak. Brunerning konstruktivistik yondashuvi o'qituvchilarga o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olishni, darslarni interaktiv tarzda tashkil qilishni taklif qiladi. Shu orqali o'qituvchilar o'z kompetentliklarini oshirishlari mumkin .

D.Schonnning "Reflektiv amaliyot nazariyasi" jismoniy tarbiya o'qituvchilarining o'z tajribalarini tahlil qilish va o'z faoliyatlarini yaxshilash jarayoniga asoslangan. Schonning fikricha, o'qituvchilar o'zlarining amaliyotlarida doimiy refleksiya orqali yangi bilimlarni o'rganadilar va o'z ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari darslardan so'ng o'z tajribalari va o'quvchilarning rivojlanishi haqida refleksiya qilish orqali o'z psixologik metodlarini yaxshilashlari kerak. Shu tariqa, Schonning nazariyasi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda refleksiyaning muhimligini ta'kidlaydi. O'qituvchi refleksiya orqali o'z faoliyatini tahlil qiladi va o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi.

Xulosa. Mavzu yuzasidan o‘rganilgan psixologik-psixologik manbalar tahlili asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

1.Bir qator adabiyotlarda kasbiy kompetentlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining turli jihatlari o‘rganilganligiga qaramasdan uning namoyon bo‘lishi va rivojlaninshining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ochib beruvchi tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ko`rinadi.

2.Shaxsning kompetentligi uning jamoaga moslashuvchanligini belgilovchi, shaxslilik, kompetentlik tuzilmasini o‘zida mujassamlashtirgan bilim, ko‘nikmalari majmui bo‘lib, kasbiy faoliyat samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

3.Shaxs kasbiy faoliyatida kommunikativ va kasbiy kompetentlikning namoyon bo‘lishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar professional mahorat darajasini takomillashuviga ta’sir etadi.

4.Shaxsning u yoki bu insonlar bilan o‘zaro adekvat munosabatga kirisha olishi yuqori darajada muloqotmandligi, muloqot vaziyatlarini tahlil etuvchanlik, suhbatdoshning xulq-atvori, hatti-harakatlari, kechinmalariga nisbatan adekvat sezuvchanlik va turli xil vaziyatlarga nisbatan muayyan darajada moslashuvchanlik sifatlarining namoyon etilishi bilan xarakterlanadi.

5.Yuqoridagilarga asoslangan holda jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligi zamirida uning sotsial intellekti, shaxslilik sifatlari kommunikativ va kasbiy kompetentlik omillari yotadi. Zero mazkur omillarsiz kasbiy kompetentlik yetarli darajada rivojlanmaydi. Bu esa jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentlikni

rivojlantiruvchi omil ekanligini inobatga olib, mazkur muammo yuzasidan turli sohalarda keng doiradagi ilmiy tadqoqot ishlarni yanada chuqurlashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги № 472-сонли “Психология соҳасида кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва жамиятда ҳуқуқбузарликнинг олдини олиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори / http://lex.uz.
2. Багнетова Е.А Образ жизни и прфессиональнве фактори риска здоровье педагога.РИО Сур ГПУ, 2017. - 6 с.
3. Барабанщикова В.В. Профессиональные деформации в профессиях инновационной сферы / автор. Дис док. Психол н., М., 2016.- 36 с.
4. Бодров В. А. Психологический стресс: развитие учения и современное состояние проблемы. М.: Изд-во «Институт психологии РАН». 1995. - 136 с.
5. Леонова, А.Б. Психопрофилактика стрессов / А.Б. Леонова, А.С. Кузнецова. - М.: МГУ, 2003. - 394 с.
6. Ломов Б.Ф. О системном подходе в психологии // Вопросы психологии.- Москва, 1975. −№2−С.31-45

“BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-amaliy jurnalida maqolalar chop ettirish tartiblari haqida

1. Ilmiy maqolalarning hajmi 3000-4000 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

2. Maqolaning asosida matnning kamida 60-70 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim (topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi).

3. Maqolaning matni, formula va jadvallarni **Microsoft *Word* (*2003-2010 versiyasida*)** dasturidan foydalanib tayyorlash kerak.

4. Windows asosidagi matn *dasturi redaktorining parametrlari*:

- 2 sm dan standart hoshiyalar qolishi kerak;
- shrift Times New Roman, kegel – 12;
- satrlar orasidagi interval – 1 sm.;
- matnni kengligi bo‘yicha tekislash;
- abzats 1 sm;
- sahifani tanlash uchun oriyentatsiya – kitob sahifasi;
- MS Word dasturi yordamida ishlangan rasmlar qabul qilinmaydi. Barcha rasmlar va jadvallar nomerlanishi, nomlanishi hamda manbasi ko‘rsatilishi shart.

5. Grafik va diagrammalar oq-qora formatda bo‘lishi zarur.

***Ilmiy maqolaning tuzilishiga nisbatan ilgari suriladigan talablar*:**

1. Muallifning ORCID raqami bo‘lishi shart.

2. Maqolaning nomi 12 so‘zdan oshmasligi kerak va UDK raqamlari bo‘lishi lozim.

3. Maqola muallif(lar)i ismi-sharifi; ilmiy unvoni, darajasi, oliy ta’lim muassassi (*tashkilot*)ning nomi, ish joyi, egallab turgan lavozimi, ish joyi manzili (*qisqartmalar ishlatilmasin!*). Mualliflar bir nechta bo‘lsa ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart; (barcha ma’lumotlar 3 tilda:o‘zbek, rus, ingliz tillarida bo‘lishi shart)

4. Material matni tuzilishi jihatidan

Kirish

Metodlar

Natijalar va Munozara (Introduction, Methods, Results, and Discussion, Conclusion)ga ajratilishi, har bir bo‘limi uchun sarlavhalar berilishi kerak.

Quyida keltirilgan misolga e’tibor bering:

Annotasiya (Abstract) (150-200 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak) (3 tilda:o‘zbek, rus, ingliz tillarida bo‘lishi shart**)**

Вводная информация/актуальность (Background):

− Цель (Objective);

− Методы (Methods);

− Результаты (Findings);

− Выводы (Conclusions);

Ключевые слова (Keywords). (3 tilda: o‘zbek, rus, ingliz tillarida bo‘lishi shart)

ВВЕДЕНИЕ (Introduction)

МЕТОДЫ (Methods)

РЕЗУЛЬТАТЫ (Results) (CHIZMA, JADVALLAR bo‘lishi shart)

ОБСУЖДЕНИЕ (Discussion)

ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *Nazvaniye knigi*. Gorod: Izdatelstvo. Elektron manzili. URL:

2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). Nazvaniye stati. *Nazvaniye jurnala*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:

3. Familiya, I.O. (2017). Nazvaniye stati. Retrieved from http://lkds;j

MAHALLADA PSIXOLOGIK XIZMAT IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA (3 tilda: o‘zbek, rus, ingliz)

Barotova Dilafruz Sharifovna,

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti “O‘quv ishlari va ilmiy innovatsiyalar bo‘yicha prorektor” psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent ***(3 tilda: o‘zbek, rus, ingliz)***

https://orcid.org/ **0000-0002-2100-3222**

Annotatsiya. 150-200 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak. **(3 tilda: o‘zbek, rus, ingliz)**

Kalit so‘zlar: 8-10 ta. **(3 tilda: o‘zbek, rus, ingliz)**

KIRISH. ВВЕДЕНИЕ (Introduction)

METODLAR. МЕТОДЫ (Methods)

NATIJALAR. MULOHAZA. РЕЗУЛЬТАТЫ (Result and Discussion) (ChIZMA, JADVALLAR bo‘lishi shart)

Xulosa va tavsiyalar. ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *Nazvaniye knigi*. Gorod: Izdatelstvo. Elektron manzili. URL:

2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). Nazvaniye stati. *Nazvaniye jurnala*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:

3. Familiya, I.O. (2017). Nazvaniye stati. Retrieved from http://lkds;j

DIQQAT: O‘ZBEK TILIDAGI BARCHA YOZUVLAR LOTIN ALIFBOSIDA

Mundarija /Содержание/Contents

	19.00.00 – PSIXOLOGIYA
3	**Umarov Baxriddin Mengboyevich** Bolalar va o‘smirlarda xulq og‘isining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
9	**Shodmonov Qurbon Badriddinovich** Third renaissance in uzbekistan and the youth: spiritual and cultural aspect issues
16	**Baxtiyorova Umida Ulug’bek qizi** Talabalarni bozor munosabatlariga moslashuvining psixologik xususiyatlari
21	**Bisekova Sarbinaz Tolebayevna** O‘quv jarayonlarida emosional intellektini rivojlantirish asoslari
26	**Eshboyev Shoxruz Xon Farxodovich** Shaxs tipologiyasi va temperamenti
29	**G‘aniyeva Xalimaxon Axmatxonovna** Bo‘lajak pedagog kadrlar tayyorlashning pedagogik - psixologik asoslari
33	**Haydarov Shahriyor Shuxrat o‘ gli** Uyushmagan yoshlardapsixologik salomatlikni namoyon bo‘lishining o‘ ziga xos psixologik jihatlari
38	**Ikramova Malikabonu Azizovna** Psychological determinants of the development of professional competence of foreign language teachers
42	**Ikromova Sitora Akbarovna** Content of psychoprophylactic work with adolescents
47	**Jalilova Saboxat Xalilovna** Autistik spektrdagi buzilishlari bor bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlarning xususiyatlari
51	**Kalillayeva Ulbosin Ayapbergenovna** Deviant xulq-atvorli o‘smir shaxsida kasb tanlash motivatsiyasi shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari
56	**Karimov Xolmurod** Socio-psychological characteristics of elimination of dependence to the virtual world in the behavior of minors
61	**Kudratov Akmaljon Ibodillayevich** Shaxs ehtiyojlarini ma’naviy tarbiyalashning psixologik omillari
65	**Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich** Bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy komptentligini rivojlantirishda rejissyor – psixologning funksional vazifalari va kasbiy ahamiyati
71	**Muratova Fotima Normaxmat qizi** The views of ancient greek and eastern thinkers on the need to study the qualities of a student's posi-tion in the field of psychology
75	**Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi** Psixodinamik nazariyalarda o‘smirlar xulqida vujudga keluvchi turli og‘ishlarning o`rganilishi
79	**Nasimova Zarina Isomiddin qizi** Bo`lajak psixologlarning konfliktologik kompetentligi
84	**Ne‘matova Iroda Ibrohim qizi** Depressiya muammosining xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilishi
88	**Pardaqulov Norbek** Zamonaviy psixologiyada qobiliyat fenomenining ilmiy talqiniga doir yondoshuvlar
93	**Ruzmetova Zilola Dilmuradovna** Ingliz tilini o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan turli xavotirlarni tushunishda ta’lim va psixologik ehtiyoj

98	**Razakov Farxod Kuvandikovich** Ta'lim tarbiya jarayonida o'quv faoliyati motivlarini rivojlantirishning psixologik jihatlari
102	**Sobirov Abdulaziz Abdurozikovich** Psixologik jihatdan sog'lom shaxsning shakllanishi uchun psixologik va pedagogik talablar
107	**Sultanova Saida Muhiddin qizi** Ayollarda aybdorlik hissi namoyon bo'lishining nizoli vaziyatlarga moyillik bilan bog'liqligi
113	**Setekova Gulnaz Arslanbayevna** Sportchilarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish
118	**Xurramova Oygul Xudayberdievna** O'smirlarda emotsional intellektni boshqarishning psixologik xususiyatlari
122	**Yunusova Go'zal Sultonovna** Noto'liq oilalardagi onalar shaxsiy xususiyatlarining farzandlar bilan munosbatiga ta'siri
126	**Zaripov Otabek Murodullayevich** Shaxsning turli vaziyatlarda stress holatidan chiqishning ijtimoiy-psixologik tahlili
131	**Ostanov Shuhrat Sharifovich** Kreativlikni rivojlantirishning psixologik asoslari va samarali usullari
137	**Rustamova Shahzoda Maripovna** Ideal ota qiyofasi o'spirin qizlar nigohida
141	**Ataxo'jayeva Shaxlo Anvarovna** Oliy ta'lim chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligi
147	**Axmedova Shaxzoda Axmatovna** Bo'lajak pedagoglarda kasbiy identiklikni o'rganishning metodologik jabhalari
151	**Ashrapov Nodirbek Namoz o'g'li** O'spirinlarda kognitiv jarayonlarning psixologik rivojlanish jihatlari
155	**Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna** Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida psixologik omillarning namoyon bo'lishi
161	**Gadayeva Munira Muxamedovna** Ethnopsychological characteristics of ego in "modern adolescence" in the family
167	**Ruziyev Nodirbek Ikromovich** Communication culture and categories of its development
170	**Namozova Latofat Rustamovna** Yuqori sinf o'qituvchilarida sotsial intellekt omillarini rivojlantirish konsepsiyasi va uning metodologik asoslari
174	**Olimov Laziz Yarashovich** Sud va tergov faoliyatida psixolog kompetentligini takomillashtirish mexanizmlari
186	**Bekova Shamsiya Djabbarovna, Omonva Orzudil Shuhrat qizi** O`zbek olimlari va sharq mutafakkirlari asarlarida oilada shaxslararo munosabatlar masalalarining o'rganilishi
189	**Saidov Azamat Ismoilovich** Sog'lom turmush tarzini yaratishda jismoniy tarbiyava sportning o'ziga xos o'rni
193	**Ernazarova Rano** Talabalarda stress holatini yuzaga keltiruvchi asosiy omillar va ularni bartaraf etish yo'llari
199	**Abdinazarova Nilufar Eshnazarovna** "Mehribonlik" uyi va oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilari xulq-atvori shakllanishining psixologik mexanizmlari
205	**Ravshanov Lochinbek Urinovich** Komandir kasbiy faoliyatida imijning ijtimoiy-psixologik jihatlari
210	**Ro'ziboyeva Nazira Qarshiboyevna** Noverbal muloqotda imo-ishoralarning ahamiyati va tasnifi
215	**Akramova Feruza Akmalovna** Jamiyat ravnaqi va barqarorligini ta'minlashda oila institutining ijtimoiy-psixologik mezonlari
219	**Boboyeva Feruza Azimjonovna** O'smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishning pedagogik- psixologik determinant-lari

	13.00.00 – PEDAGOGIKA
224	**Abubakirova Nodirabegim Rafisovna** Самостоятельная работа студентов как процесс формирования профессиональных компетенций
230	**Bobokalonov Odilshoh Ostonovich,** **Sharopov Mirjon Nurxon ogli** Integrating ict for creative skill development in students
239	**Boltayev Bexruz Hamidovich** Bo'lajak musiqa savodxonligi o'qituvchilarining kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi
242	**Ashurova Marhabo Sayfulloyevna** Buxoro jadidlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlarida milliy tarbiya masalalarining yoritilishi
250	**Qo'chqarova Shakarjon Azimboy qizi** Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish
257	**Otanazarova Mohirahon Xamidbekovna** Raqamlashtirish sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy sifatlarini takomillashtirish texnologiyalari
261	**Алламбергенова Бахаргул Худайбергеновна** Интерактивные методы передачи английского языка на правах высшего образования: значение инновационных процессов
266	**Beknazarov Raxat Axmet uli** Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida badmintonchilar-ning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish
271	**Farxodova Dilnoza Qudrat qizi** Kreativ qobiliyat va tafakkur birligi
274	**Kutlimuratov Muxammeddin Amangeldi uli** Futbol orqali yoshlarning jismoniy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari
279	**Qorayev Samaridin Barakayevich** Kasb-hunar maktablarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari
287	**Yo'ldoshev Sobitali Zohidjon o'g'li** Tibbiy ta'lim talabalariga jismoniy tarbiya va sport fanini adaptiv texnologiyalar orqali o'qitishning ayrim jihatlari
291	**Мусинова Рухшона Юнусовна** Развитие саморегуляции будущих педагогов на этапе высшего профессионального образования
298	**Mirabdullayeva Shoiraxon Abdulxayevna** Lider va shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning psixologik jihatlari
	10.00.00 – FILOLOGIYA
302	**Babayarov Maxmud Xamitovich** O'zbek tilida funksional-stilistik tahlil muammolari (sport semantik maydoni misolida)
306	**Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi** Ona tili darslarida o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi
311	**Nusratova Shahnoza Ibodullayevna** Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi
317	**Saidova Rayhon Bekmurodovna** Tazkirachilik - she'r-u shoirlik salnomasidir
324	**Dushanov Rustam Xujanovich** Maxsus muassasalar tizimida kasbiy tanlov o'tkazishning psixologik asoslari
330	**Barotov Xumoyun Sharifovich** Jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish pedagogik-psixologik fenomen sifatida

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBO-ROTNOMASI ILMIY-AMALIY JURNAL
№5 (9) 2024

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **2023-yil 22-fevral № 064916-sonli** guvohnoma bilan ro`yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023 yil 29 dekabrdagi 347-son qarori bilan **10.00.00 – filologiya, 13.00.00 – pedagogi-ka, 19.00.00 – psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar
instituti ilmiy axborotnomasi // ilmiy-amaliy jurnal. - Buxoro, 2024.
№ 6. – 340 b.